



# THE BEST INNOVATOR IN SCIENCE

Innovative Academy  
Research Support Center



O'ZLIDEP



O'ZBEKISTON  
YOSHLAR  
ITTIFOQI

Uzbekistan  
2022



## KANALLI SISTEMADA TARQALUVCHI NURLAR XOSSALARINI O'RGANISH

**Bexudova Mexriniso Omon qizi**

O'zbekiston Milliy Universiteti

mexrinisobehudova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5978991>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 15- Yanvar 2022

Chop etildi: 05- Fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Optik nur tola, to'la ichki qaytish, attractor, dinamik sistemalar, bilyard sistemalar, muhitning nur sindirish ko'rsatkichi.*

Jadal rivojlanayotgan texnika asrida keng hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt davomida uzatish insonlar oldidagi asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Buning yechimi zamon rivojlanishi bilan turlicha ko'rinishda topilmoqda. Axborotni uzatishda asosan elektromagnit to'lqinlar yordamida uzatiladi. Uzatilayotgan ma'lumotlarning hajmi biror kanalda o'tkazish kengligi degan tushuncha bo'lib, qanchalik elektromagnit to'lqinning chastotasi katta bo'lsa shunchalik ko'p ma'lumot uzatish mumkin. Bugungi kunda elektromagnit to'lqinlar shkalasida to'lqin uzunligi kamaygani sari chastotasi ortib boradi. Optik diapazonda chastotasi katta to'lqin uzunligi kichik diapazon bo'lganligi sababli katta hajmdagi ma'lumotlarni uzatish mumkin. Ochiq atmosferada ma'lumotlarni uzatishda turbelentlik sababli axborotni buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ochiq atmosferada axborot uzatilayotganda vaqt o'tishi bilan uning

### ANNOTATSIYA

*Nur tolada katta hajmli informatsiyani yuborish uchun kirish aperturasini oshirish lozim, katta aperturalarda signallarni buzilishi yana ortadi. Bu holda nurtola o'zagining sindirish ko'rsatkichi yuqorida ko'rsatilgan uslubda o'zgarishi ham bu signalni sifatini saqlay olmaydi. Bu hollarda signalni sifatini saqlash uchun nurning nur tolaga kirish burchagini o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.*

parametrlari o'zgarishligi kerak. Unga alternativ ravishda optic nurtolalar kash qilindi. Optik nurtolada tashqi ta'sirlarga sezuvchanligi kam bo'lanligi sababli, optic nurtola orqali lazer nuri yordamida katta hajmdagi axborotni qisqa vaqtda uzatish mumkin. Optik nur tolada ham nur tarqalganda nurtolaning diametriga, nur sindirish ko'rsatkichining taqsimotiga bog'liq ravishda nur tolaning o'tkazish kengligida ham chegara mavjud. Bularning texnologik jihatdan yechimi bo'lib, bir modali, sindirish ko'rsatkichini profili parabolik ko'rinishida olinadi. Chunki optik yo'llar farqi optik tola markazidan tarqagan nur bilan chetki nuqtalaridan tarqalgan nurlar orasida optik yo'llar farqi vujudga keladi. Modalarning vaqt bo'yicha kechikishi kuzatiladi. Agar modalarning kechikishini qanchalik kamaytirsak, nur bir vaqtda yetib kelsa ushbu holatda shu holda o'tkazish kengligi katta bo'ladi. Bundan tashqari optik nur tolaning



konfiguratsiyasini o'zgartirib ham modalar kechikishini kamaytish mumkin. Optik nur tolaning bo'ylama kesimini ko'radigan bo'lsak yuqori qismi tekis, pastki qismi esa gofra shaklida bo'lib, gofraning masofa bo'yicha to'lqin uzunligi amplitudasiga bog'liq ravishda chiqayotgan modalarni amplitudasiga og'liq ravishda vaqt bo'yicha kelishini boshqarsa bo'ladi.

Fizika rivojlanishda davom etmoqda va so'nggi o'n yilliklarda uning sinergetika, dinamikxaos va o'z-o'zidan tartibga kelish kabi yangi sohalariga qiziqish ortdi. Bu tarmoqlarda ko'p xollarda o'ziga xos matematik apparatdan foydalaniladi, kompyuterlarning o'sayotgan quvati va "sonli eksperiment" imkoniyatlari bilan birgalikda esa bu sohalarining bashorat qobilyatlari ananaviy fizik nazaryalardan qolishmaydigan darajaga chiqdi [1].

Zamonaviy fizikaga kirishib ketish oson emas. Agar berilgan momentda sistemaning holatini tavsiflovchi kattaliklar to'plami berilgan bo'lib, ma'lum qoidaga ko'ra bu kattaliklarning so'nggi momentlardagi qiymatlarini aniqlash mumkin bo'lsa, dinamik sistema haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Bunday kattaliklarga dinamik o'zgaruvchilar va sistemaga dinamik sistema deyiladi. O'zgarish qoidasini esa evalyutsiya operatori aniqlaydi. Agar sistemaning holati  $N$  kattalik bilan aniqlansa holatning vaqt bo'yicha o'zgarishi, ya'ni sistema dinamikasini  $N$  o'lchovli fazalar fazosidagi nuqtaning traektoriyasi bo'yicha harakati sifatida tasavvur etish mumkin.[2]


Dinamik sistemalar nazariyasining muhim tushunchalaridan biri invariant to'plam tushunchasidir. Agar biror to'planning ixtiyoriy nuqtasidan boshlanuvchi traektoriya shu to'plamga to'liq tegishli bo'lsa, bunday to'plamga

invariant to'plam deyiladi. Ixtiyoriy attraktor invariant to'plam bo'ladi. Noturg'un qo'zg'almas nuqtalar va noturg'un yopiq orbitalar ham invariant to'plam bo'ladi. Attraktorlardan farqli ravishda invariant to'plamlar ham dissipativ, ham konservativ sistemalarda uchraydi. Sistemani bir qancha boshlang'ich vaziyatlarini ko'rib chiqamiz. Fazoviy bo'shliq birinchi nuqtani uyg'onishini tasvirlaydi va bu to'liqligicha "bulut" ko'rinishida bo'ladi. "Kiritilgan" vaqt xamma "sakrashlar" ko'rsatiladi. Kompyuter modellashtirishni tushungan holda ma'lum vaqt oralig'ida bulut ustida "fotosuratni" bir onda yaratish mumkin. O'shanda ekranda evalutsion bulutlarni kuzatish mumkin bo'ladi. Nur tolada to'lqin tarqalishi masofasini cheklovchi omillardan biri past chastotali tovushlar okeanlardagi, yoki optik nur toladagi optik nurlar bu muhitning nur tarqalish yo'nalishidagi bir jinsli bo'lmagan muhitdir. Ayrim hollatlarda uni kanalli sistemalar bo'ylab davriy g'alayon sifatida tasvirlash mumkin. Bu holda uzunligi muhit nobirjinsliligi bilan rezonansda bo'lgan to'lqinlar effektiv Nurtola kanalida ushlanishi mumkin.[3]

TOA (Tolali Optik Aloqa) da optik tebranishlarning tarqalishini chegaralovchi va yorug'lik energiyasi oqimini berilgan yo'nalishda yo'naltiruvchi muxit optik uzatuvchi kanal yoki optik nur o'tkazuvchilar deyiladi. Kichik so'nish koeffitsientiga ega bo'lgan optik nur o'tkazuvchilar asosida optik signallarni uzoq masofalarga uzatishni taminlovchi optik kabellar yaratilmoqda.


Optik nur o'tkazuvchilar ikki turga bo'linadi: yassi optik nur o'tkazuvchilar va nur o'tkazuvchi optik tolalar. Yassi optik nur o'tkazuvchilar, o'z navbatida






1-rasm. Yassi optik nur o'tkazuvchilar

plyonkali (1.a-rasmi) va kamali ga (1.b-rasmi) bo'lgan optik nur o'tkazuvchi optik tolalar esa bir qatlamli (2.a-rasm), ikki qatlamli (2.b-rasm), uch qatlamli (2.c-rasm) va h.k bo'lishi mumkin.



2-rasm. Nur o'tkazuvchi optik tolalar

OT ning tarkibiy qismlari (3-rasm) da tasvirlangan. O'zak va qobiq uchun asosiy material kvarts shishasi ( $SiO_2$ ) hisoblanadi. Kerakli sindirish ko'rsatkichlarini olish uchun kvarts shishasi bor, germaniy va shunga o'xshash boshqa qo'shimchalar qo'shiladi. Tolaning qo'shimcha qobiqlari himoya qobig'i hisoblanadi. Quyidagi rasmda tashqi plastik qoplama ko'rsatilgan.



3-rasm. Optik tolaning tuzilishi

Nur tolada katta hajmli informatsiyani yuborish uchun kirish aperturasini oshirish lozim, ammo katta aperturalarda signallarni buzilishi yana ortadi. Bu holda nurtola o'zagining sindirish ko'rsatkichi yuqorida ko'rsatilgan uslubda o'zgarishi ham bu signalni sifatini saqlay olmaydi. Bu hollarda

signalni sifatini saqlashning boshqa usullaridan foydalaniladi. Signallarni nurtolaning ichida bunday tebranishini nochiziqli tebranishlar sifatida qarab ularni tashqi tasirlar bilan rezonans holatga olib kelish lozimdir.





Xulosa qilib aytganda, Tola optikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nur tolalarning keng ko'lamda optik aloqada qo'llanilishiga olib keldi. Hozirgi kunda an'anaviy simli aloqa kabellari o'rnini axborot uzatish imkoniyatlari katta bo'lgan nur tolali kabellar egallamoqda.

Nurni profili aylana ko'rinishdagi nurtolaga nisbatan kesilgan aylana ko'rinishdagi nurtolada uzoq masofaga uzatish mumkin. Bundan tashqari, olinadigan natijalar ushbu geometriyaga ega haqiqiy fizik muhitlardagi (optik nurtolalar, optik rezonatorlar, fazaviy bir jinsli bo'lmagan muhitlarda sochilish va boshqalar) jarayonlarni baholashda muvafaqqiyatli qo'llanilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Н.В.Евдокимов, В.П.Комолов, П.В.Комолов** *“Интерференция динамического хаоса гамильтоновых систем: Эксперимент и возможности радиофизических приложений”*УФН Том 117, №1 775 2001
2. С.С. Абдуллаев, Г.М. Заславский, ЖЭТФ 80, №2,3 524 (1981)
3. А.П.Кузнецов, С.П.Кузнецов, Н.М.Рыскин. *Нелинейные Колебания.* Москва Физматлит,2002.
4. Г.М.Заславский, Р.З.Сагдеев. *Введение в нелинейную физику: от маятника до турбулентности и хаоса.*  
*Б.В.Чириков. Нелинейный Резонанс*





## МЕТАБОЛИЧЕСКИЙ СИНДРОМ У ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА

Явбасарова Дилфуза Бахтияровна

Студент 3 курса

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5978996>

### ИСТОРИЯ СТАТЬИ

Принято: 15-декабря 2021

Утверждено: 15-января 2022

Опубликовано: 05-февраля  
2022

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

метаболический синдром,  
гиполипидемия,  
дислипидемия.

### АННОТАЦИЯ

*Термины метаболического синдрома и синдрома инсулинорезистентности используются более шире чем другие. В развитых странах после 30 лет распространённость метаболического синдрома по данным разных учёных составляет 10-20%. Это заболевание часто встречается в основном у мужчин, а у женщин в период менопаузы. Клиническое значение заболевания и изменений, входящих в состав синдрома в том, что они присутствуют все вместе, по данным ВОЗ повышает риск развития атеросклеротических сосудистых заболеваний, которое занимает в первую очередь среди причин приводящих к повышающим показателям смерти.*

**Введение.** Нарушения, объединенные рамками метаболического синдрома, длительное время протекают бессимптомно, нередко начинают формироваться в подростковом и юношеском возрасте, задолго до клинической манифестации СД 2 типа, АГ и атеросклеротических поражений сосудов. Наиболее ранними проявлениями метаболического синдрома являются дислипидемия и артериальная гипертензия. Разумеется, не все компоненты метаболического синдрома встречаются одновременно. Каким фенотипом проявится метаболический синдром, зависит от взаимодействия факторов генетических и внешней среды. Метаболический синдром у женщин репродуктивного возраста ранее практикующие врачи

знали как нейрообменноэндокринный синдром, протекающий по типу лёгкой формы болезни Кушинга, гипоталамический или диэнцефальный синдром. В данном разделе материал будет представлен с позиций гинекологаэндокринолога. У женщин репродуктивного возраста метаболический синдром — одна из наиболее частых причин нарушения репродуктивной функции на фоне прогрессирующего ожирения и диэнцефальной симптоматики.[3]

**Основное содержание.** Согласно данным ВОЗ число больных с инсулинорезистентным синдромом, имеющих высокий риск развития сахарного диабета 2-го типа составляет в Европе 40—60 миллионов человек. В индустриальных



странах распространённость метаболического синдрома среди лиц старше 30 лет составляет 10—20 %, в США — 34 % (44 % среди людей старше 50 лет). Считалось, что метаболический синдром — болезнь людей среднего возраста и, преимущественно, женщин. Однако проведенное под эгидой Американской ассоциации диабета обследование свидетельствует о том, что данный синдром демонстрирует устойчивый рост среди подростков и молодёжи. Так по данным учёных из Вашингтонского университета в период с 1994 по 2000 год частота встречаемости метаболического синдрома среди подростков возросла с 4,2 до 6,4 %. В общенациональных масштабах количество подростков и молодых людей, страдающих синдромом X, оценивается более чем в 2 миллиона. Метаболический синдром — одна из наиболее актуальных проблем современной медицины, связанная с ведением нездорового образа жизни. Понятие «здоровый образ жизни» включает рациональное питание, поддержание нормальной массы тела, регулярную и соответствующую возрасту физическую активность, отказ от употребления алкоголя и табакокурения.[7]

К группам риска для выявления метаболического синдрома относятся лица как с начальными признаками заболевания, так и с его осложнениями, такими как:

1. Артериальная гипертония.
2. Сахарный диабет 2-го типа (или предиабет).
3. Избыточная масса тела и ожирение.
4. Наличие ИБС, заболевание периферических сосудов,

цереброваскулярные заболевания, связанные с атеросклерозом.

5. Прямые родственники с гиперлипидемией, ожирением, сахарным диабетом или ИБС.
6. Малоподвижный образ жизни.
7. Синдром поликистозных яичников.
8. Эректильная дисфункция.
9. Нарушение обмена мочевой кислоты (гиперурикемия, или подагра).
10. Менопаузальный период у женщин.[7]

### **МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ИР**

Существуют прямые и непрямые методы оценки действия инсулина.

Непрямые методы направлены на оценку эффектов эндогенного инсулина. К ним относятся: пероральный глюкозотолерантный тест (ПГТТ), внутривенный глюкозотолерантный тест (ВВГТТ).

При проведении прямых методов осуществляется инфузия инсулина и оцениваются его эффекты на метаболизм глюкозы. К ним относятся: инсулиновый тест толерантности (ИТТ), эугликемический гиперинсулинемический клэмп тест (ЭГК), инсулиновый супрессивный тест (ИСТ).

ПГТТ – самый простой способ определения нарушения чувствительности тканей к инсулину. Методика проведения теста состоит в измерении уровней глюкозы и инсулина в крови натощак и через 30, 60, 90 и 120 минут после приема внутрь пациентом 75 г сухой глюкозы, растворенной в 200 мл воды. Определение уровня плазменной концентрации инсулина широко используется как косвенный способ оценки чувствительности к





инсулину. Оценивается уровень инсулина как натощак, так и после нагрузки глюкозой. Значимая ИР приводит к возрастанию плазменных показателей инсулина. В ряде исследований для оценки действия инсулина используется гликемический индекс, рассчитываемый по соотношению содержания глюкозы натощак к инсулину натощак, а также инсулиноглюкозный индекс, представляющий собой отношение площади под кривой инсулина к площади под кривой глюкозы.

Инсулин - модифицированный тест толерантности к внутривенно вводимой глюкозе (ВВГТТ).

Основные преимущества ВВГТТ по сравнению с пероральным глюкозотолерантным тестом заключаются в том, что абсорбция глюкозы происходит быстрее и не зависит от функционирования кишечной стенки. Кроме того, ВВГТТ – динамический тест, позволяющий воспроизвести нормальную физиологическую модель действия инсулина. В отличие от

эугликемического гиперинсулинемического "клэмп" – теста ВВГТТ позволяет оценить обе фазы секреции инсулина. К недостаткам метода ВВГТТ относится сложность его выполнения: требуется два внутривенных доступа, пробы крови забираются часто (15 раз) в течение длительного времени (3 ч.)

Методика проведения теста:

Проведение теста начинают в период с 8.30 до 9.00 часов утра после 30 минут отдыха в положении лежа. Во время проведения теста пациенты должны находиться в расслабленном состоянии, исключается курение, прием пищи и воды, физические нагрузки. Тест проводится не менее чем через 12 часов после последнего приема пищи.[8]

**Критерии диагностики**

Основной признак: центральный (абдоминальный) тип ожирения — окружность талии более 80 см у женщин и более 94 см у мужчин (для европеоидов). Также измеряют индекс массы тела для определения степени ожирения и степени риска сердечно-сосудистых осложнений.[1]

Типы массы тела	ИМТ (кг/м <sup>2</sup> )	Риск сопутствующих заболеваний
Дефицит массы тела	<18,5	Низкий(повышен риск других заболеваний)
Нормальная масса тела	18,5—24,9	Обычный
Избыточная масса тела	25,0—29,9	Повышенный
Ожирение I степени	30,0—34,9	Высокий
Ожирение II степени	35,0—39,9	Очень высокий
Ожирение III степени	40	Чрезвычайно высокий

Дополнительные критерии:

- Артериальная гипертензия (АД >140/90 мм рт. ст.)

- Повышение уровня ТГ >1,7 ммоль/л





- Снижение уровня ХС ЛПВП <1,0 ммоль/л у мужчин; <1,2 ммоль/л у женщин
- Повышение уровня ХС ЛПНП >3,0 ммоль/л
- Гипергликемия натощак (глюкоза в плазме кровинатощак >6,1 ммоль/л)
- Нарушение толерантности к глюкозе — глюкоза в плазме крови через 2 часа после теста толерантности к глюкозе в пределах >7,8 и <11,1 ммоль/л.

Один основной и два дополнительных критерия подтверждают диагноз МС.[7]  
**ЛЕЧЕНИЕ.**

Лечение представляет определённые трудности, поскольку восстановления менструальной и генеративной функции можно добиться только на фоне нормализации массы тела. Наиболее частая ошибка практикующих врачей — стимуляция овуляции на фоне ожирения. Важно раннее выявление заболевания на стадии функциональных нарушений, до формирования поликистозных яичников. В этом случае метаболическая терапия приводит к восстановлению овуляторных менструальных циклов и фертильности.[4] Для ускорения снижения массы тела, улучшения показателей липидного и углеводного обменов применяется препарат орлистат (Ксеникал). Оказывая тормозящее влияние на липазы желудочно-кишечного тракта, препарат препятствует расщеплению и последующему всасыванию пищевых жиров. Показано также, что на фоне применения препарата уменьшается масса висцерально-абдоминального жира, улучшается чувствительность тканей к инсулину, уменьшается гиперинсулинемия.

Больным с выраженной дислипидемией, неподдающейся коррекции диетотерапией, назначаются гиполипидемические препараты: статины (ловастатин, симvastатин, правастатин) или фибраты. Решение о медикаментозном лечении дислипидемии базируется как на данных определения уровня липидов после соблюдения гиполипидемической диеты не менее 3–6 мес., так и на данных определения суммарной степени риска развития атеросклероза.

При развитии у больных СД 2 типа проводится соответствующее лечение. Назначая симптоматическую терапию (гипотензивными и мочегонными препаратами) больным с метаболическим синдромом, имеющим артериальную гипертензию, необходимо учитывать влияние этих препаратов на показатели липидного и углеводного обменов.[5]

**Вывод.** Использование предложенных алгоритмов лечения больных с МС позволит оптимизировать их лечение. Влияя только на один из компонентов МС, можно добиться заметного улучшения за счет компенсации изменений в других звеньях его патогенеза. Например, снижение веса вызовет снижение АД и нормализацию метаболических нарушений, а гипогликемическая терапия наряду с компенсацией углеводного обмена приведет к снижению АД и улучшению показателей липидного обмена. Гиполипидемическая терапия может способствовать повышению чувствительности тканей к инсулину и улучшению показателей углеводного обмена. Грамотно подобранная гипотензивная терапия помимо



основного действия нередко улучшает показатели углеводного, липидного обмена и повышает чувствительность тканей к инсулину. Эффективность лечения во многом зависит от глубокого

понимания врачом природы МС и знания основных и дополнительных механизмов действия лекарственных препаратов, применяемых для его лечения.[9]

#### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Кушнер Р. Избыточный вес и ожирение. — 2004.
2. Гинзбург М.М., Крюков Н.Н. Ожирение. Влияние на развитие метаболического синдрома. Профилактика и лечение. — Медпрактика, 2002. — С. 23–25.
3. Чазова И. Е., Мычка В. Б. Метаболический синдром. Кардиоваскулярная терапия и профилактика. — 2003. № 3. С. 32-38.
4. Мычка В. Б., Богиева Р. М., Чазова И. Е. Акробаза — средство профилактики множественных сердечно-сосудистых факторов риска метаболического синдрома
5. Справочник врача. Лечение наиболее распространенных заболеваний/ сост. В. С. Данилишина. Изд. СПб. 1997.
6. Мамедов М. Н. Школа по диагностике и лечению гиперлипидемий (Пособие для врачей). Изд. Пфайзер. 2007.
7. Школа по диагностике и лечению метаболического синдрома"/пособие под редакцией Оганова Р. Г., Мамедова М. Н. — М.: Медицинская книга. 2007.
8. Hao M, Head WS, Gunawardana SC, et al. Direct effect of cholesterol on insulin secretion: a novel mechanism for pancreatic beta-cell dysfunction. *Diabetes*. 2007;56:2328–2338
9. Каюмов У.К., Адилова М.С., Хатамова Д.Т. Результаты многолетних исследований метаболического синдрома. V Конгресс Ассоциации кардиологов стран СНГ и Ассоциации кардиологов Узбекистана, Тошкент. 2005г.







## ORTIQCHA TANA VAZNI BO'LGAN NOALKOGOLLI STYEATOGEPATITI BO'LGAN BEMORLARDA ICHAK MIKROFLORASINING HOLATI

Otajanova D.O.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5979073>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:15-dekabr 2021

Ma'qullandi:15-yanvar 2022

Chop etildi:05-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

mikroflora,  
mikrobiotsenoz,  
steatohepatoz, metabolik  
sindrom, lipoproteidlar,  
xolesterin, qandli diabet,  
kasallanish, o'lim.

### ANNOTATSIYA

*Inson ichak mikrobiosenozining buzilishi gastroenterologik patologiya orasida 3-o'rinni egallaydi. Ichak mikroflorasini me'yorlashtirish uchun turli dori vositalarini qo'llash bo'yicha to'plangan tajribaga qaramasdan, probiotiklarning mikrobiosenozga ta'siri va turli etiologiyali surunkali jigar kasalliklari (shu jumladan qandli diabet), xususan, alkogolsiz yog'li jigar kasalliklarining klinik kechishi hali ham yaxshi o'rganilmagan. (Radchenko V.G., 2010). Tadqiqotlar natijasida ortiqcha tana vazniga ega bo'lgan NASG bemorlarida yo'g'on ichak mikrobiosenozining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi, shuningdek, ushbu bemorlar guruhidagi bemorlarda ichak disbakteriozini tuzatish sxemalari asoslab berildi.*

**Muammoning dolzarbligi.** Oxirgi ming yillikda noalkogolli yog'li jigar kasalligi (NAYJK) nafaqat gastroenterologiyada, balki umuman terapiyada ham jigar shikastlanishining eng muhim shakllaridan biriga aylandi. Rivojlangan mamlakatlarning umumiy aholisida bu kasallikning ulushi 25-30% ga yetadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bemorlarning to'rt dan bir qismida (umumiy aholining taxminan 3-5%) noalkogolli steatogepatit (NASG) aniqlanadi, bu kasallikning ikkinchi bosqichi bo'lib, u fibroz, jigar sirrozi va gepatosellyulyar karsinomagacha rivojlanishi mumkin. So'nggi o'n yilliklar ichida NAYJK muammosiga qiziqishning sezilarli darajada oshishi kuzatilmoqda, bu esa rivojlangan mamlakatlarning shahar aholisi, shu jumladan bolalar o'rtasida semizlik sonining ko'payishi va buning natijasida gepatobiliar tizim kasalliklarining avj olishi bilan bog'liq.

Tasdiqlangan metabolik sindromi (MS) bo'lgan odamlarda NAYJK bo'lish xavfi juda yuqori ekanligi ko'rsatilgan. Yevropa mamlakatlarida, Shimoliy Amerika va Yaponiyada NAYJKning umumiy populyasiyada tarqalishi 10% dan 40% gacha, NASGning tarqalishi esa 1,2-4,8% ni tashkil qiladi.

Adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra Amerika Qo'shma Shtatlarida, NAYJK holatlarining barqaror o'sishi aniqlangan, bu jigar kasalliklarining 70% ini tashkil etadi. Aminotransferazalarning surunkali ko'tarilishi bo'lgan bemorlarning uchdan birida NASG holati aniqlanadi. Bunda NAYJKning haqiqiy tarqalishi aniqlanmagan. Ushbu patologiyani davolash standartlari to'liq optimallashtirilmagan va klinik tavsiyalar aniq xarakterga ega emas va faqat har bir



holatda individual bo'lishi mumkin. Terapevtik yondashuv xavf omillarini bartaraf qilishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, insulinga rezistentlikni va giperlipidemiyaning kamaytirishga qaratilgan farmakologik yondashuv, shuningdek, jigar funksiyalarini himoya qiluvchi ta'sirga ega bo'lgan dorilarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Jigarni o'rganish bo'yicha Yevropa jamiyati va Amerika gastroenterologiya assosiasiyasining tasdiqlangan diagnostika va davolash standartlari sitoprotektorlarni buyurishni o'z ichiga oladi. Rossiya sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish vazirligi tomonidan tasdiqlangan jigar kasalliklarini davolash bo'yicha Rossiya protokollariga ko'ra, sut qushqo'nmasi preparatlari, ursodezoksixolat kislotasi (UDXK), ademetonin va essensial fosfolipidlarni o'z ichiga olgan gepatoprotektorlarni buyurish tavsiya etilgan. Zamonaviy nashrlarda vazn yo'qotishning jigar holatiga ta'siri haqida ko'plab ziddiyatli muhokamalar mavjud. NAYJK bilan og'rikan bemorlarni davolashda muqobil yo'nalish - bu dori bo'lmagan fizioterapevtik usullarini izlash hisoblanadi. Ichakning funksional holatini hisobga olgan holda turli xil terapiya rejimlarining ta'siri yetarlicha o'rganilmagan. Shu munosabat bilan NAYJK bilan og'rikan bemorlarda optimal terapiya sxemalarini izlash dolzarbdir.

**Tadqiqot maqsadi:** ortiqcha vaznli NASG bilan og'rikan bemorlarda ichak disbakteriozini to'g'irlashga qaratilgan optimal davolash rejimini tanlash maqsadida ichakning klinik, funksional va mikrobiologik xususiyatlarini o'rganish.

**Tadqiqot maqsadlari:**

1. NASG bilan og'rikan ortiqcha vaznli va ortiqcha vaznsiz bemorlarning dastlabki

klinik va biokimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganish;

2. NASG bilan og'rikan bemorlarda yo'g'on ichak mikrobiosyenoziining ko'rsatkichlarini o'rganish.

3. Ichak mikrobiosenoziining buzilishiga bog'liq ravishda NASGning laboratoriya ko'rsatkichlari xususiyatlarini o'rganish.

4. Probiotik (Lineks) va NASG standart terapiyasini birgalikda qo'llashning klinik ko'rinishlar dinamikasiga ta'siri samaradorligini baholash.

**Material va tadqiqot usullari.** Belgilangan maqsad va vazifalarni hal etish maqsadida 2021-yilda Urganch shahar tibbiyot birlashmasi gastroenterologiya bo'limida stasionar va keyingi ambulator davolanish kursidan o'tgan NASG bilan og'rikan 60 nafar bemor tadqiqotga jalb etildi. Bunda, 29 bemor (1-guruh) me'yoriy tana vazniga va NASG bilan og'rikan 31 kishi (2-guruh) ortiqcha vaznga ega edi. Har bir guruh 2 ta kichik guruhga bo'lingan, birinchisi an'anaviy davolashni olgan, ikkinchisi esa qo'shimcha ravishda tarkibida Lactobacillus acidophilus, Bifidobacterium infantis, Enterococcus faecium larni saqlagan lineks kapsulasidan 2 tadan kuniga 3 marta, 14 kun davomida probiotik olgan.

Klinik tekshiruv bemorlarning yoshi, shikoyatlarni tahlil qilish, anamnez to'plash va antropometriyani o'z ichiga oldi. Ishni bajarish jarayonida kasallik uchun potensial xavf omillari mavjudligi o'rganildi. Tekshiruvdan o'tgan bemorlarning zararli odatlari tahlili shuni ko'rsatdiki, bemorlarning 26,6 foizi doimiy chekuvchilar, ya'ni ular kuniga 1 yoki undan ortiq quti sigaret iste'mol qilganlar. Bundan tashqari, gender farqlari ham aniqlandi, erkaklar ayollarga qaraganda 2,5 baravar ko'proq chekishlari ma'lum bo'ldi.



Tadqiqotga virusli, alkogolli va dori etiologiyali gepatit, jigarning kardial fibrozi, jigar sirrozi, surunkali buyrak yetishmovchiligi, qon aylanish yetishmovchiligi 2b va 3-bosqichlari, organik yo'g'on ichak kasalliklari, qandli diabet, ikkilamchi semirish (belgilangan genetik nuqsonlar, serebral semirish, endokrin semizlik (gipofiz, gipotireoz, buyrak usti bezi sababli) bilan og'rikan bemorlar kiritilmadi.

NAYJKning bosqichma-bosqich rivojlanishini hisobga olgan holda, bir nechta kodlardan foydalanildi (MKB) -10: K76.0 - yog'li jigar degenerasiyasi; K73.0

(K73.0, L73.9) - surunkali gepatit; K74.6 - jigarning boshqa va tasdiqlanmagan sirrozi. NASG tashxisini qo'yishda yog'li gepatozga xos bo'lgan ultratovush ko'rsatkichlariga va sitoliz (2Ndan ortiq), bilirubin, ishqoriy fosfataza (IF) va gamma glutamil transpeptidaza (GGTP) ko'rsatkichlarining ko'payishiga asoslanildi.

Komorbidlik har bir nozologik shaklga xos bo'lgan standart diagnostika yondashuvlari yordamida aniqlandi. Bemorlarning tahlil qilinayotgan tanlamasidagi yondosh kasalliklari to'g'risidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**NASG bilan og'rikan ortiqcha vaznli bemorlarda yondosh kasalliklarning uchrash chastotasi, p (%)**

Kasalliklar	Soni
Gastroezofagial reflyuks kasalligi	12 (20,0%)
Surunkali gastrit B	10 (16,6%)
O'n ikki barmoqli ichak yarasi kasalligi	6 (10,0%)
Surunkali xolesistit	41 (68,3%)
Surunkali pankreatit	9 (15,0%)
Ichak ta'sirlanishi sindromi	21 (35%)
Yurak ishemik kasalligi	18 (30,0%)
Gipertoniya kasalligi	13 (21,6%)

Qorin bo'shlig'i a'zolarining ultratovush tekshiruvini barcha bemorlarda o'tkazildi va gepatobiliar tizimning holatiga alohida e'tibor qaratilib, jigarning kattaligi, parenximasining exogenligi va qon tomir suratining ko'rinishi baholandi.

NASG bilan og'rikan bemorlarning o'ziga xos klinik shikoyatlari yo'qligi sababli, 2-jadval

**Tekshirilayotgan bemorlarda NASGning klinik ko'rinishlari**

bizning tekshirishimizda bemorlarning yarmida ovqat iste'mol qilish bilan bog'liqlik bo'lmagan o'ng qovurg'a ostida og'riq yoki noqulaylik bilan namoyon bo'lgan dispeptik ko'rinishlar va qorin og'rig'i sindromlari borligi qayd etildi ( 2-jadval).





Shikoyatlar	Bemorlar soni	%
Ishtahaning yo'qolishi	14	23.3
O'ng qovurg'a ostida og'riq / og'irlik	37	61.7
Og'izda achchiqlanish	33	55,0
Ko'ngil aynishi	31	51.7
Qorin shishishi	36	60,0
Najasning buzilishi	44	73.3
Charchoqning kuchayishi	49	81,7
Astenik sindrom	40	66.7
Og'izning qurishi	22	36.7

NASG bilan og'riqan bemorlarda ko'pincha yog'li infiltrasiyaning diffuz shakli - 42 kishida (70,0% hollarda) aniqlandi, bu

bemorlarda jigarning butun yuzasida exogenlikning bir xil kuchayishi kuzatildi, o'choqli shakl faqat 10 bemorda (16,6%) va lokal shakl 8 kishida (13,3%) aniqlandi.



**Diagramma. 1. NASG bilan og'riqan bemorlarda yog'li jigar infiltrasiyasi shakllarining taqsimlanishi (%)**

Qon zardobining biokimyoviy parametrlarini o'rganish gepatositlarning sitolitik va xolestatik ko'rsatkichlarining holatini alohida o'rganishni o'z ichiga oldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki (3-jadval) bemorlarda ko'p miqdorda jigarda alaninaminotransferaza (AlAT) mavjud bo'lgan sitoplazmatik ferment nazorat guruhiga nisbatan 4,05 marta ( $p < 0,05$ ) va aspartataminotransferaza (AsAT-yurak, jigar, skelet mushaklari va buyraklar ko'p miqdorda mavjud bo'lgan mitoxondrial

ferment) 4,6 marta ( $p < 0,05$ ) ko'payganligi kuzatildi. Transaminaza faolligining oshishi shikastlangan hujayralardan fermentlarning ajralishi tufayli to'qimalarning shikastlanishini ko'rsatadi. AlAT asosan jigar parenximasida joylashuvi tufayli AsATga qaraganda gepatositlar shikastlanishining o'ziga xos belgisi bo'lishiga qaramasdan, NASG bilan og'riqan bemorlarda AlAt / AsAT nisbatining oshishi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.



Umumiy bilirubin miqdori 3 barobar oshdi. GGTP "xolestaz" belgisi 3,8 marta oshdi ( $p < 0,05$ ) va IF (xolestaz belgisi) har ikki 3-jadval

guruhda NASG bilan og'riqan bemorlarda sog'lom odamlarga nisbatan 2,3 marta oshdi.

**NASG bilan og'riqan bemorlarning qon zardobining biokimyoviy ko'rsatkichlari ( $M \pm m$ )**


Ko'rsatkichlar	ALAT, Ed/l	AsAT, Ed /l	Bilirubin, mkmol/l	IF, Ed /l	GGTP, Ed /l
Sog'lom odamlar	25,3+ 3,1	19, 2+ 4.2	16, 2+ 0,31	95,7+ 8,4	41,12+ 8,6
NASG bilan og'riqan bemorlar	102,7+ 7,16 *	88, 4+ 9,09 *	27, 04+ 2,34 *	361, 1+ 33, 45 *	92, 85+ 18, 06 *

Eslatma: \* - farq sog'lom odamlar bilan solishtirganda sezilarli ( $p < 0,05$ )

Tadqiqotlarimizda biz tekshirilgan bemorlarning qon zardobida diagnostik ahamiyati katta bo'lmagan umumiy xolesterin miqdorini emas, balki xolesterin, yuqori zichlikli lipoproteidlar (YUZLP), past zichlikli lipoproteidlar (PZLP) va trigliseridlar (TG) ni har tomonlama taxlili o'tkazildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, NASG bilan og'riqan barcha tekshirilgan 60 bemorning 53 tasida (88,3%) disbioz kuzatildi. Shunday qilib, 1-darajali disbioz

20,0% da, 2-darajali disbioz bemorlarning 50% da, 3-darajali - 18,3% da aniqlandi. 4 darajali disbioz qayd etilmadi.

NASG bilan og'riqan bemorlarda disbakteriozda ichak florasining tarkibini o'rganish, eng ko'p ijobiy va salbiy bog'lanishlar, ularning kuchi va yo'g'on ichakni kolonizasiya qiluvchi boshqa mikroorganizmlar bilan ahamiyatlilik darajasi bakterioidlarga xos ekanligini ko'rsatdi.



**Diagramma. 2. Davolash dinamikasida SG bilan og'riqan bemorlarda disbakterioz darajasining ko'rsatkichlari (%)**





Shunday qilib, bir tomondan, bakterioidlarning konsentratsiyasi va bifidobakteriyalar ( $r = 0,59$ ;  $p < 0,01$ ) va laktobakteriyalar ( $r = 0,71$ ;  $p < 0,01$ ), boshqa tomondan, bifidobakteriyalar va laktobakteriyalar ( $r = 0,42$ ;  $p < 0,05$ ), shuningdek tarkib o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, bu ularning sonini tartibga solishning umumiy mexanizmlari mavjudligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

4-jadval

**NAYJK bilan og'riqan bemorlarning davolash dinamikasida qon zardobining biokimyoviy ko'rsatkichlari**

Ortiqcha vaznli va normal tana vazniga ega bo'lgan NASG bilan og'riqan bemorlarda "sitoliz" va "xolestaz" ko'rsatkichlarini alohida o'rganib chiqildi. Shu bilan birga, har bir guruhni 2 ta kichik guruhga ajratildi va an'anaviy terapiya rejimi asosida gepatoprotektorni tayinlash va probiotikni qo'shimcha tayinlash bilan davolash samaradorligi baholandi.

Ko'rsatkichlar	1-guruh (normal tana vazniga ega NASG)			2-guruh (NASG ortiqcha tana vazni)		
	Davolashdan oldin	I	II	Davolashdan oldin	I	II
		n=15	n=14		n=12	n=19
<b>AIAT, ED/l</b>	99,8+ 6,61	33, 8+ 4,12 *	27, 9+ 3,77 **	119,7+ 7,82	29,6 + 4,1 *	18,5 + 4,2 *
<b>AsAT, ED/l</b>	81,0+ 6,98	27, 1+ 3,30 *	14,6+ 2,11 **	98, 4+ 9.01	28,2 + 3,0 *	21,8 + 4,0 + 8,0 *
<b>Bilirubin, mmol/l</b>	25,01+ 1,17	10,3+ 0,51 *	9,4+ 0,51 **	29,05+ 2,61	12,3 + 3,4 *	14,1 + 1,3 + 8,2 *
<b>IF, ED/l</b>	316,9+ 25,33	177,4+ 14,52 *	151,6+ 12,44 **	378, 1+ 31, 45	144,0 + 20,2 *	107,0 + 18,0 *
<b>GGTP, ED/l</b>	79,71+ 16,28	34,77+ 5.1 *	31,13+ 6.1 *	95, 94+ 19, 05	63, 1 + 6, 1 *	34,0 + 8,2 *

\* - ( $p < 0,05$ ) davolashdan oldingi ko'rsatkichlar bilan solishtirganda farq sezilarli

\*\* - ( $p < 0,05$ ) farq 2-guruh (II kichik guruh) ko'rsatkichlari bilan solishtirganda sezilarli.

Davolanishdan keyin lipid spektrining sezilarli o'zgarishiga qaramasdan, u normal qiymatlarga yetib bormadi, 2 guruhdagi YUZLP va 1-guruhdagi umumiy xolesterin (UX) bundan mustasno. Buday bemorlar uchun terapiya rejimiga qo'shimcha

lipidlarni kamaytiradigan dorilarni (statinlar) qo'shish zarurligini taqozo etadi. Ushbu ko'rsatkichlarni alohida tahlil qilish orqali 1 (I,II) guruhdagi xolesterin darajasining 32,9 va 26,9% ( $p < 0,05$ ), PZLP 16% va 15,3% ( $p < 0,05$ ), TG 44,8 ga







kamayganligini, YUZLP tarkibidagi sezilarli o'sish mos ravishda 44,5% va 55,4% ( $p < 0,05$ ) aniqlandi. 2-gruppadagi bemorlarda (I, II) guruhidagi bemorlarda xolesterin 29,3% va 33,4% ( $p < 0,05$ ), PZLP 13,7% va 17,7% ( $p < 0,05$ ), TG 34, 3% va 42,2% ( $p < 0,05$ ) ga kamaydi. ), YUZLP tarkibidagi sezilarli o'sish bilan mos ravishda 61,5% va 75,0 % ( $p < 0,05$ ) aniqlandi.

**Natijalarning muhokamasi.** Belgilangan maqsad va vazifalarni hal qilish uchun 2021 yil davomida Xorazm viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi gastroenterologiya bo'limida stasionar va keyinchalik ambulator davolanish kursidan o'tgan NASG bilan og'rikan 60 nafar bemor tadqiqotda ishtirok etdi. Bemorlarning yoshi 26 yoshdan 74 yoshgacha bo'lib, katta yoshdagilar 57,5 foizni tashkil etdi, ulardan 42 nafari erkaklar va 18 nafari ayollardir. Nazorat guruhiga NASG bilan og'rikan bemorlarning jinsi va yoshi bo'yicha mos keladigan 20 nafar sog'lom odam kiritilgan. Bemorlar ichak disbiozi darajasiga va ortiqcha tana vaznining mavjudligi yoki yo'qligiga qarab baholandi. Jigar disfunktsiyasini yaxshilash uchun ikkala guruhdagi bemorlarga ( $n = 80$ ), ko'rsatmalarga ko'ra, metabolik va infuzion terapiya kursi, shu jumladan askorbin kislotasi (5% eritma) bilan glyukoza (5% eritma) 500 ml tomir ichiga har kuni tomchilatib, gepatoprotektorlar (ursodezoksixolat kislotasi (UDXK) 10-12 mg / kg 2 oy davomida) tavsiya qilindi. Bemorlarga parhez bo'yicha tavsiyalar 5-sonli parhez stoli asosida belgilandi. Bemorlarga, shuningdek, hayvonlarning yog'lari va uglevodlarni iste'mol qilishni cheklab, har kuni kamida 30 daqiqa davomida kundalik mashqlarni o'z ichiga olgan turmush tarzini o'zgartirish tavsiya qilindi. Har bir guruh qo'shimcha ravishda 20 kishidan iborat 2 ta kichik guruhga

bo'lingan, ularga Lineks probiotiklari, kuniga 3 marta 2 kapsuladan 14 kun davomida tayinlandi.

Tadqiqotlarga ko'ra, NASG bilan og'rikan bemorlarda yog'li infiltrasiya borligi aniqlandi, bu ko'pincha diffuz shaklda namoyon bo'ldi. Shuningdek, bemorlarning ko'pchiligida turli darajadagi oziq-ovqat iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lmagan o'ng qovurg'a ostida og'irlik hissi, shuningdek, og'riq yoki noqulaylik bilan namoyon bo'lgan qorin og'rig'i sindromlari bilan birga keladigan gipomotor tipdagi o't pufagi diskineziyasi belgilari mavjud edi. Bundan tashqari, bemorlarning aksariyatida tez charchash va astenik sindrom kuzatildi.

Qon zardobining biokimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganishda NAYJK bilan og'rikan bemorlarda qon zardobida sitoliz va xolestazning sezilarli darajada oshishi, shuningdek, qon zardobida PZLP xolesterinning pasayishi va YUZLP va TG ning ko'payishi bilan namoyon bo'ladigan qon zardobining lipid spektrida anormallik mavjudligi aniqlandi. Biroq, yaqqol o'zgarishlar ortiqcha vaznli odamlarda topildi.

Adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, NAYJKda qon zardobida hujayra distrofiyasini aks ettiruvchi transaminazalarning faolligi odatdagi darajadan 4-5 baravar oshmaydi. Aksariyat hollarda ALT faolligi ustunlik qiladi. AST faolligi ustun bo'lgan taqdirda, AST / ALT nisbati, qoida tariqasida, 1,3 dan oshmaydi, ammo og'ir fibrozda ortadi. Ushbu nisbatni hisobga olish alkogolli jigar kasalligi (AST / ALT nisbati ko'pincha  $> 2$  bo'lsa), Uilson kasalligi (AST / ALT nisbati 4,5 dan oshishi mumkin) bilan differensial tashxis qo'yishda foydali bo'lishi mumkin. Bizning tadqiqotlarimizda NASG bilan og'rikan bemorlarda laboratoriya ma'lumotlarini tahlil qilishda sitolitik va xolestatik



jarayonlarning buzilishi qayd etilgan. Shu bilan birga, ALT / AST nisbati 2 dan oshmadi. Sitoliz darajasi ikki me'yor chegarasida normadan ko'proq oshdi.

Ichak mikroflorasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, NASG bilan kasallangan barcha bemorlarda ichak mikrobiosenozining asosan 2-darajali buzilishi aniqlandi. Bundan tashqari, NASG bilan og'rigan bemorlarda ichak mikroflorasining eng yaqqol buzilishlari qayd etilgan. NASG bilan og'rigan bemorlarda ichak mikrobiosenozi ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatlarni korrelyasion tahlil qilishda, eng ko'p bog'lanishlar soni, ularning kuchi va yo'g'on ichakni kolonizasiya qiluvchi boshqa mikroorganizmlar bilan ahamiyat darajasi bakterioidlarga xos ekanligi aniqlandi. Yo'g'on ichakdagi disbiotik o'zgarishlar darajasi qorin og'rig'i va dispeptik sindromlarning og'irligi bilan bevosita bog'liq.

Wieland A va boshqalar (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, ichak mikroflorasi va uning metabolik qo'shimcha mahsulotlari jigar patologiyasiga ta'sir qilishi mumkin, bu bizning tadqiqotlarimiz bilan ham tasdiqlandi.

NASG bilan og'rigan bemorlarda an'anaviy davolash rejimidan foydalangan holda (gepatoprotektorlar) davolash natijalariga ko'ra, jigarda sitolitik va xolestatik jarayonlarning tiklanishi kuzatiladi. Biroq, asosiy davolanishga probiotik qo'shilishi NASG bilan og'rigan odamlarda o'rganilgan parametrlarning sezilarli darajada tiklanishiga yordam berdi.

Shunday qilib, NASG etiopatogenetik omillarning kombinatsiyasi, rivojlanish tezligi va prognozi bilan sezilarli darajada farq qiluvchi nozologik shakllarning geterogen guruhidir. Ba'zi hollarda kasallik sirroz va gepatosellyulyar karsinoma rivojlanishi bilan tavsiflanadi. NASG ning

geterogenligi bunday bemorlarni davolashning umumiy qabul qilingan yagona standarti yo'qligini ko'rsatadi. Albatta, ortiqcha vaznga ega bo'lgan barcha bemorlarga past kaloriyali dieta va muntazam jismoniy faoliyatga rioya qilish orqali uni kamaytirishni maslahat berish kerak va bunda ikkinchisining ta'siri ayniqsa muhimdir. NASG bilan og'rigan bemorlar uchun membranani barqarorlashtiruvchi va antioksidant ta'sirga ega bo'lgan preparatlarni buyurish kerak. Ichak mikroflorasini normallashtiradigan dorilarni qo'shish patogenetik jihatdan asoslangan.

### Xulosalar

1. N

A

bilan og'rigan bemorlarda 70% hollarda ~~diffuz~~ shaklda yog'li infiltrasiya mavjudligi

A

bilan og'rigan bemorlarda qon qiymatlarining oshishi bilan namoyon bo'lgan qon zardobi lipid spektridagi anormalliklar aniqlandi.

3. N

A

bilan og'rigan bemorlarda ichak mikrobiosenozining buzilishi, asosan 2-ortiqcha tana vazniga ega bo'lgan NAYJK bilan og'rigan bemorlarda qayd etildi.

4. Gepatoprotektorni tayinlash bilan standart terapiyani o'tkazish jigarda sitolitik va xolestatik jarayonlarning yaxshilanishiga olib keldi. Asosiy bilan og'rigan bemorlarning o'rganilgan ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashga yordam berdi, gepatotrop jigarning patologik zo'riqishini kamaytirdi, shuningdek, yo'g'on ichak mikroflorasi



ko'rsatkichlarning sezilarli yaxshilanishiga yordam berdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alyavi A.L. Umumiy amaliyot shifokorlari uchun jigar kasalliklari bilan og'riqan bemorlarni tekshirish tizimi / A.L. Alyavi va boshqalar. // "O'zbekiston tibbiyot jurnali. – 2011, No 1. B. 2-8.
2. Antonenko O.M. Jigarning alkogolsiz yog'li kasalliklarini ambulatoriya amaliyotida davolash // Tibbiy kengash. - 2013 yil, №.S.38-44.
3. Babak O.Ya., Kolesnikova E.V., Dubrov K.Yu. Alkogolsiz jigar steatozi - metabolik kasalliklarning "kelishuvi" Ukraina terapevtik jurnali // № 1, 2011. S. 5-11.
4. Bogomolov P.O., Pavlova T.V. Alkogolsiz steatogepatit: patofiziologiya, patomorfologiya, klinik ko'rinish va davolashga yondashuvlar // Pharmateka. -2003 yil, 10-son. B.31-39.
5. Buyeverov A.O. Jigar kasalliklarini davolashda gepatoprotektorlarning o'rni // Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari. 2001. No 1. 16-18-betlar.
6. Buyeverov A.O. Alkogolsiz yog'li jigar kasalligini davolashda eski va yangi yondashuvlar. // <http://internist.ru/publications/detail/6553/>
7. Vyalov S.S. Jigarning shikastlanishi va birga keladigan patologiya: gepatoprotektorlarning oqilona kombinatsiyasi // Rossiya tibbiyot jurnali. - 2013.- 31-son S. 1621-1626.
8. Grinevich V.B., Sas E.I. Alkogolsiz yog'li jigar kasalligi: muammoning klinik va ijtimoiy jihatlari // <http://internist.ru/publications/detail/6546/>
9. Zvenigorodskaya L.A., Cherkashova E.A. Alkogolsiz yog'li jigar kasalligini davolashda gepatoprotektorlardan foydalanish // Farmateka. - 2011 yil, 15-son. S.58-63.
10. Zinoveva E.N., Mekhtiyev S.N., Sokolovskiy S.V. Endotelial disfunktsiya alkogolsiz steatogepatit rivojlanishining omili sifatida. Terapevtik yondashuvlar // EF. Gastroyenterologiya. -2011 yil. - No 1. - S. 2-9.
11. Ivashkin K.V., Buyeverov A.O. Adiponektin patogenezning muhim bog'ini va alkogolsiz yog'li jigar kasalligida terapevtik ta'sirning maqsadi // Gastroenterologiya va gepatologiyaning klinik istiqbollari. - 2011 yil, 5-son. S.3-14
12. Karimov M.M., Saatov Z.Z., Sobirova G.N. Ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari// Shifokorlar uchun qo'llanma. - Toshkent, 2015.S.1-279.





## G'O'BDIN QISHLOG'I VA U YERDAGI ZIYORATGOH TARIXIDAN

**Murtozayev Matlubxon**

Samarqand davlat universiteti

Tarix fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5979314>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:15-dekabr 2021

Ma'qullandi:15-yanvar 2022

Chop etildi:05-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*G'o'bdiniylar, ziyoratgoh, qabrtoshlar, masjid, ustalar.*

G'o'bdin – Jizzax viloyati G'allaorol tumanining janubi-g'arbida, Nurota tog' tizmasining G'o'bdin tog'i etaklaridagi soylukda joylashgan. Tuman markazidan 35 km uzoqlikda joylashgan qishloqlardan biri. Qishloq etimologiyasi bo'yicha bir nechta qarashlar mavjud. Lekin, aniq fikrlar uchramasligi va ularning aksariyati rivoyatlar bilan bog'lanishi ilmiy xulosa berishni murakkablashtiradi. Jumladan, "G'o'bdin" atamasining kelib chiqishi so'z asosidagi "g'o'b" so'ziga bog'liq holda, qadimgi so'g'd va hozirgi fors-tojik tilidagi "g'o'b" so'ziga to'g'ri kelib "tog'" ma'nosini bildiradi. "G'o'b" azalda "Kaufa" deb atalgan [3: 6]. Shunga o'xshash yana bir qarashga ko'ra, "G'obdin" nomining har ikki tarkibiy qismlari – "g'o'b" va "din" o'zgarib ketgan bo'lishi mumkin. Uning birinchisi bo'lgan "g'o'b"ning qadimiy shakli – o'zgarishlar asosida g'ub/xuf/kuf/ko'h/ so'ziga taqalib, yuqorida keltirganimizdek tog', balandlik so'zini anglatgan. So'nggi qismi – din bo'lsa din/diz/deh/ so'zlarining o'zgargan shakli sifatida qo'rg'on, qal'a,

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida joylashgan, hali ilmiy jihatdan to'liq o'rganilmagan G'o'bdin qishlog'i va G'o'bdin ota ziyoratgohi tarixi haqida ayrim mulohazalar yuritilgan.*

qishloq ma'nosida qo'llanilgan. Bunda nom tarkibidagi ikki so'z ham tovush o'zgarishiga uchragan. Ya'ni, G'o'bdin so'zi balanddagi qo'rg'on yoki balanddagi qishloq degan ma'noni bildiradi [9: 32-33]. Yana bir qarash mahalliy aholi orasidagi rivoyatlar bilan bog'lanib, ular "G'o'bdin" nomini G'o'bdin otaga borib taqaydilar. Naql qilinishicha, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning avlodlari bo'lgan yetti nafar avliyo ota ichida "G'o'bdin ota" ismlisi ham bo'lgan degan taxminlar bor. 1.G'o'bdin ota 2.Cho'pon ota 3.Nur ota 4.Savruk ota 5.Novqa ota 6.Sayfin ota 7.Parpi ota . Bu avliyo otalarning amakilari Saad ibn Abu Vaqqos Qozon ota degan rivoyatlar ham mavjud. Lekin, bunda G'o'bdin ota kishining asl ismi emas, balki taxallusi bo'lib, u Samarqandda 40 yil qozilik qilganligi va bu yerga islom dinini targ'ib qilish maqsadida jo'natilganligini aytishadi [6]. Bu albatta bir taxminiy qarash, chunki davriy jihatdan mavhumlik ko'zga tashlanadi. Chunki, bizningcha Markaziy Osiyoda, jumladan, Samarqandda aholi orasida qozilik instituti





faoliyat yuritgan paytda unga nisbatan yaqin masofada bo'lgan hozirgi G'o'bdin tog'i etaklaridagi qishloqlarda islom dini tarqalmaganligi bahsli masaladir. Bizningcha, G'o'bdin va unga tutash qishloqlar tarixini shu qishloqlarning paydo bo'lish tarixidan izlash kerak. G'o'bdinga qo'shni Gumsoy (chuqur soy, o'pqn joydan oqadigan soy) [4: 15], Olmali (-li qo'shimchasi qo'shilib shu obyektning borligi va ko'pligiga ishora qilinadi) [5: 38] qishloqlarining nomlanishiga e'tibor berilsa, bu qishloqlar tog' etaklaridan oqib chiqqan tabiiy buloq suvlari bo'ylarida shakllangan, ya'ni tog' etagidagi mavjud qishloqlarning har birining o'z bulog'i bo'lgan. Qolaversa, tog' etagidagi bu qishloqlar aholisi o'zbeklarning "qirq" urug'iga mansub bo'lib, deyarli har bir qishloq shu urug'osti hisoblanuvchi "to'plardan" iborat bo'lgan. Misol uchun, badal, qoramo'yin, boyto'pi va hokazo. Lekin, shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ushbu qishloqlar ichida faqat G'o'bdin qishlog'ida katta va eng qadimiy qabriston bo'lib, uzoq yillar atrofdagilar uchun ham mangu qo'nim maskani bo'lib kelgan. Bu ham qishloq tarixi qadimiy ekanligiga va qishloq nomi bilan aloqador shaxs haqiqatdan ham islom tarixida katta o'rin egallaganligini tasdiqlaydi. G'o'bdin qishlog'i XX asrning boshlarida Jizzax uyezdi Chashma-Yangi qo'rg'on volostiga qarashli Koriz qishloq tumani tarkibida bo'lib, ushbu qishloq bilan birga unga yaqin bo'lgan Olmali, Olmali -Saroy buloq, G'o'bdin, Gumsoy, Koriz, Ko'tal, Ko'tal qozoq, Marjonbuloq aholi yashaydigan manzillar nomlari keltiriladi. XX asrning 20-30-yillarida G'o'bdinda 83 ta hovli mavjudligi hamda ularda 376 aholi istiqomat qilganligi qayd etilgan [8: 22]. Shuningdek, ushbu ma'lumotlarga tayangan holda yana shuni aytish mumkinki, hovlilar va aholi soniga

ko'ra, G'o'bdin Koriz qishloq tumani tarkibida aholi soni bo'yicha Koriz qishlog'idan so'ng 2-o'rinda turgan.

Tarixiy manbalarda G'o'bdin nomiga nisbat beriluvchi bir qator tarixiy shaxslar yashab o'tganligi keltiriladi. G'o'bdiniylar tarzida tilga olinuvchi bu tarixiy shaxslar XI-XII asrlarda yashagan va hadis ilmi bilimdonlari sifatida shuhrat qozonganligi ma'lum.

Jumladan,

1. Hasan ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Is'hoq al-G'o'bdiniy hanafiy mazhabi faqihlaridan biri bo'lib, Faqih Hasan ibn al-Muborakning ustozisi hisoblanadi. Mavjud manbalarda allomaning faqat nomlari yozilgan bo'lib, u kishining tug'ilgan yoki vafot etgani to'g'risida ma'lumotlar yo'q. [2: 96]

2. Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad ibn Amr ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Hoshim al-G'o'bdiniy Usturushonaning G'o'bdin qishlog'ida tug'ilib, keyinchalik ota-onasi bilan Buxoroi Sharifga ko'chib boradi va u yerda yashab qoladi. Alloma xat savodini Buxoroda chiqargan va yetuk muhaddis bo'lib yetishadi. Alloma hadislarni Ismoil al-Xayyom, Ahmad as-Sijziy va Muhammad ibn Sobirlardan rivoyat qilgan. Allomadan hadislarni o'z davrida yigirma ming hadisni yod olgan hofiz nomi ila ulug'langan Abu Turob Ismoil ibn Tohir al-Harifiy rivoyat qilgan. Abu Muhammad al-G'o'bdiniy Hijriy 420- (milodiy 1029) yildan keyin Buxoroda vafot etgan. [2: 89-90]

3. Abu Bakr Muhammad ibn Hasan ibn Mansur al-G'o'bdiniy o'z zamonasida fozil imomlardan biri bo'lib, Samarqandda qozilik qilgan. Alloma Marvga borib, Abu Toyyib al-Matu'iy va Abu Ali al-Lomishiydan, Buxoroda Abu Xafs Umar as-Subxiy va Samarqandda Abu Muxomid as-Sog'arjiylardan hadislar yozib olgan. Alloma



hijriy 505- (milodiy 1111) yilning avgust oyida Buxoroda vafot etgan. [2: 90-91]

4. Abulhusayn Alo ibn Muhammad ibn Naim ibn Is'hoq ibn Ubaydulloh ibn Hotim al-G'o'bdiniy hadislarni otasi alloma Muhammad ibn Naim al-G'o'bdiniy, Xalaf ibn al-Xayyom va Abu Ahmad ar-Roziylardan rivoyat qilgan. Allomadan hadislarni Abu Ali an-Nasafiy va Abulabbos Ja'far al-Mustag'firiylar rivoyat qilgan. Abulhusayn al-G'o'bdiniy hijriy 337- (milodiy 948) yili tug'ilib, hijriy 409- (milodiy 1019) yilning 25-yanvarda payshanba kuni vafot etgan. [2: 55-56]

5. Abu Naim Husayn ibn Muhammad ibn Naim al-G'o'bdiniy o'z davrining fozil, zohid, taqvodor imomlaridan bo'lib, dastlabki ta'limni o'z qishlog'ida olgan. Keyinchalik ilm talabi bilan Xuroson, Iroq, Hijoz kabi shaharlarda ta'lim olgan. Jumladan, Buxoroda Abu Solih al-Xayyom, Abu Sahl ar Astrabodiy, Abu Amr Muhammad al-Buxoriylardan, Naysobur shahrida Abulqosim Abdulloh an-Nasaviydan, Bag'dodda Abu Tohir Muhammad al-Muxlis va Abu Hafs Umar al-Kattoniylardan hadislarni eshitib, yozib olgan. Allomadan hadislarni Abulabbos Ja'far al-Mustag'firiylar va qozi Abu Ali Hasan an-Nasafiylar rivoyat qilganlar. Alloma hijriy 341- (milodiy 952) yilning iyun oyida tavallud topib, hijriy 427- (milodiy 1036) yilning aprelida vafot etgan. [2: 54]

6. Abdulvohid ibn Husayn ibn Ahmad ibn Nasr ibn Nazar ibn Yusuf ibn Ubaydulloh ibn Muhammad Hammud ibn Abbod ibn Yaqub ibn Ibrohim al-G'o'bdiniy juda ko'plab hadislar rivoyat etgan muhaddislardan biri. Mavjud manbalarda allomaning ismi va u rivoyat qilgan hadisgina yozib qo'yilgan bo'lib, uning biron mansab yoki o'z davridagi mavqeyi qanday bo'lgani, hattoki tavallud yoki vafot etgan yili haqida ma'lumot keltirilmagan. [2: 76]

7. Abul Hasan Muhammad ibn Naim al-Kotib al-G'o'bdiniy kotib edilar. Abu Muhammad al-Buxoriydan ta'lim olganlar. Hijriy 381- (milodiy 99) yilning muharram oyida vafot etganlar. [2: 85]

8. Abu Ali Hasan ibn Abdulloh al-G'o'bdiniy al-Batxudoniylar, qori, fozil, solih kishilardan edi. Abu Bakr al-Baladiy va Muhammad ibn Ahmaddan ta'lim olganlar. Hijriy 491- (milodiy 1099) yil muharram oyining birinchi kunida tavallud topib, hijriy 551- (milodiy 1157) yilda vafot etgan. [7: 175]

Shu o'rinda bir mulohazaga e'tibor qaratib o'tsak. Izlanishlar natijasida O'zbekistonning bir necha joylarida G'o'bdin nomi bilan tilga olinuvchi aholi manzillari yoki mahalla fuqarolar yig'ini mavjudligi ma'lum bo'ldi. Bular- Jizzax viloyati G'allaorol tumanida, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida, Samarqand viloyati Bulung'ur tumanida, Jomboy tumanida joylashgan manzillardir. Lekin, yuqoridagi G'o'bdiniylar nomi bilan tarixda qolgan allomalarning aynan qaysi viloyatning G'o'bdin qishlog'idan ekanligi qo'shimcha izlanish talab etiladigan masala hisoblanadi. Chunki, bu G'o'bdiniylarning yettitasi M.Atayevning "Jizzax allomalari" kitobida jizzaxlik sifatida keltirib o'tilgan. Qashqadaryodagi G'o'bdin tarixini yozgan olim Abdulkarim as-Samoniylar bo'lsa ularni Qashqadaryo G'o'bdiniga nisbatan berib o'tgan [7: 175]. Yana bir jihati shundaki, G'o'bdiniylar ichidagi tarixiy shaxslardan biri Abu Muhammad Abdulloh al-G'o'bdiniy tarjimai holidagi bo'lsa u kishining Usturshonaning G'o'bdin qishlog'ida tug'ilganligini aytilgan. Aynan ushbu alloma G'allaoroldagi G'o'bdin qishlog'iga mansub bo'lishi mumkin. Chunki, o'rta asrlarda Usturshona tarkibining bir qismini hozirgi G'allaorol tumani tashkil qilgan. Ikkinchidan, hozirga qadar oldingi



Usturshonada ham, hozirgi Jizzax vohasida ham G'obdin deb ataladigan boshqa manzil uchramaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, G'obdiniylar haqida hali izlanishlarni davom ettirish va ularning bugun adabiyotlarda keltirilayotganidek, Jizzax yoki Qashqadaryo vohasining allomalari ekanligini ilmiy jihatdan aniqlashtirish lozim.

G'obdin qishlog'i atrofdagi qishloqlarga nisbatan tarixiyli bilan ajralib turadi. Yuqorida, biz bu yerda atrofdagi qishloq aholisi muqaddas hisoblovchi G'obdin ota qabristoni mavjudligini keltirgan edik. Bu qabriston yaqinida shu nomda faoliyat ko'rsatgan qabristonning nisbatan qadimiyligi va G'obdin otaning katta ehtiromga sazovorligi bu yerni muqaddas ziyoratgohga aylanishini ta'minlagan. Xulosa qilib aytish kerakki, ushbu qishloq o'z davrida islom olamida mashhur bo'lgan allomalar tug'ilib voyaga yetgan, ilm-fan ravnaq topgan markazlardan biri bo'lgan va biz yuqorida keltirgan muhaddislarning ajdod va avlodlarining hoki yotgan, ularning qutlug' qadami yetgan muqaddas ziyoratgohlardandir. Taxminlarga ko'ra, bu ziyoratgoh XIX asr oxiri XX asr boshlariga borib taqaladi [4]. Buni ziyoratgoh hududida mavjud bo'lgan eski masjid o'zni va xonaqoh, ayrim qadimiyroq shakldagi qabrtoshlari ham tasdiqlaydi. Bu uchburchakli 13 ta bir metrlik marmar qabrtoshlarda Qur'on oyatlari va yillar yozilgan. Lekin, suronli vaqt sinovi natijasida yozuvlar o'qib bo'lmas darajaga kelib qolgan. Shuning uchun ham qabrtosh yozuvlarini o'qish qiyinchilik tug'dirmoqda.

Qishloq aholisining aytishlaricha, 1941-yilgacha xonaqohning tomi usti yaltiroq tunuka bilan qoplangan. Keyinroq xonaqoh ustidagi tunukani tuman markazi binosi ustiga olib borib yopishgan. Eski

masjidning hajmi 20 metrga 12 metrni tashkil qilgan. Masjidning qibla tarafdagi devorining qalinligi 1.5 metr, qolgan tomanlari 1 metrni tashkil qilib, shu kungacha 4 marta ta'mirlangan. Masjidning qurilishida Ahmadxon Ziyoxon o'g'li boshchiligidagi Usta Umar, Usta Odil, Usta Abboslar faol qatnashganligini masjid ustunlarida qoldirilgan yozuvlar ko'rsatadi. Bu eski masjid to 2010-yilgacha faoliyat ko'rsatgan. 1970-yildan 1994-yilgacha ushbu masjidda imomlik qilgan Mahmudxon Mamirzo o'g'li maqola muallifining katta bobosi hisoblanadi. 2010-yilda masjidning hozirgi qiyofasiga keltirishga boshchilik qilgan Donoxon hoji Mahmudxon o'g'li u kishining zurriyodlari hisoblanadi. 1970-yilgacha masjidga Ahmadxon eshon, undan avval esa Domla Kubay ismli kishi imomlik qilgan, u kishidan avval G'affor Eshon imom bo'lgan. Hozirgi kunda masjidga Mahmudov Sirojiddinxon imomlik qilmoqda. 2010-yilda masjidning yangidan qurilishi, asosan kelib chiqishi shu qishloq va unga tutash qishloqlarga borib taqaluvchi, ajdodlari mangu qo'nim topgan maskan obodligini maqsad qilgan sahovatpeshalarning xayriya mablag'lari hisobidan amalga oshirildi. Yangi masjid ustunlarini Farg'ona viloyati, Buvayda tumanining bir guruh qo'li gul ustalari yasab bergan. Yangi bunyod etilgan masjidda bir vaqtda 250-300 nafar musulmon ibodatlarini amalga oshirish imkoni mavjud.

Ta'kidlash kerakki, bu ziyoratgoh bugungi kunda respublika madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilmagan. Chunki, uzoq muddat masjidda faoliyat olib borgan bobom Donoxonhojining ma'lumoticha, ziyoratgohning qadimiyligini asoslab beruvchi yozma manbalar topilmagan, qabristonning qadimiyligini asoslab beruvchi bir vaqtlar qabriston hududida



bo'lgan qadimiy arab yozuvidagi qabrtoshlar [qabrtoshlar daryoning qayroqtoshlaridan yasalgan] turli yillarda yangi qablarga o'rinlar ochilishidan so'ng, odatga ko'ra [ Musulmon odatiga ko'ra qabrda mayit chirib tuproqqa aylangandan so'ng unga yangi mayitni qo'yish mumkin. Bunda, albatta, eski mayitning hurmatini joyiga qo'ygan holda ehtiyotkorlik bilan bajarish kerak] u yerdan chiqqan mayit qoldiqlari bilan birga yangi qablarga ko'mib yuborilgan. Bugungi kunda tariximizga qaratilayotgan e'tibor natijasida o'ylaymizki, yaqin vaqtlar ichida ziyoratgohning tarixi berilgan yozma

manbalar ilmiy muomilaga kiritilar, balki vaqtlar o'tishi bilan ko'milib ketgan qadimiy qabrtoshlar topilar.

Xulosa qilib aytish kerakki, G'o'bdin qishlog'i va u bilan bog'liq bo'lgan G'o'bdin ota ziyoratgohi tarixi hali tariximizning to'la o'rganilmagan sahifalaridan hisoblanadi. Bir qishloq va ziyoratgoh tarixini o'rganish orqali xalqimizning buyuk moddiy-ma'naviy merosi bilan birga vatanimiz hududida kechgan migratsion, madaniy jarayonlar va etnografiyasiga oid ko'plab yangi ma'lumotlar yuzaga chiqadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:**

1. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-dekabrda "Tarixiy, badiiy yoki o'zga madaniy qimmatligi tufayli garov va ipoteka qo'llanilishi mumkin bo'lmagan obyektlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 335-son qarori//<http://www.lex.uz/>.
2. Atayev M. Jizzax allomalari. – Toshkent: Adib, 2014. 270 b
3. Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 88 b.
4. Ohunov N. Joy nomlari ta'biri. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – 86 b.
5. Sindorova F. O'zbekiston qadimgi turkiy toponimiyasi (Jizzax viloyati misolida). – Jizzax.: 2013. – 56 b.
6. G'allaorol tumani G'o'bdin qishlog'ining 84 yoshli Tilavov Mahmud hoji tomonidan hikoya qilingan. 2016-yil aprel.
7. Абу Саъд Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб). – Тошкент.: 2017. – 273 б.
8. Список населенных мест Узбекской ССР, Самаркандская область. 1925. – 53 с.
9. Тиловов Т. Ғубдин ва ғубдинликлар. 2015. – 279 б.//[ziyonet.uz/](http://ziyonet.uz/)





## МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА ЭРКАК ПЕДАГОГЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАСИ

Тошмирзаев Сухроббек Илғорбек ўғли

НамДУ Педагогика-психология факултети

Ижтимоий иш йўналиши 3-босқич талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5979503>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:15-dekabr 2021

Ma'qullandi:15-yanvar 2022

Chop etildi:05-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

мактабгача таълим тизими, тарбия, эркак педагог, қонун ва қарорлар

### ANNOTATSIYA

*Мактабгача таълим тизимида амалга оширилаётган янгиликлар, қилиниши лозим бўлган муҳим вазифалар кенг ёритиб берилади. Тизимда ўзгариш сифатида янгича ёндашувлар билан бир қаторда эркак педагоглар тайёрлаш масаласи долзарблиги айтиб ўтилади.*

Мактабгача таълим узлуксиз таълимнинг бошланғич бўғини ҳисобланади. У боланинг соғлом ва ривожланган шахс бўлиб шаклланишини таъминлаб, ўқишга бўлган иштиёқини уйғотади. Мактабгача таълим муассасалари 2 ёшдан 7 ёшгача бўлган болаларни тарбиялашни, ўқитишни, назорат қилишни, парваришлашни ва соғломлаштиришни таъминлайди. Мактабгача таълимнинг мақсади - болаларни мактабдаги ўқишга тайёрлаш, болани соғлом, ривожланган, мустақил шахс бўлиб шакллантириш, қобилиятларини очиб бериш, ўқишга, тизимли таълимга бўлган иштиёқини тарбиялашдир. Мактабгача таълим муассасалари – Ўзбекистон Республикасидаги таълим муассасаларининг тури бўлиб, турли

йўналишдаги мактабгача бўлган даврдаги умумтаълим дастурларини амалга оширади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2017-йилнинг 19-декабр куни “Мактабгача таълим тизимида амалга оширилаётган ислохотларни таҳлил қилиш ва истиқболдаги вазифаларни белгилаб олишга бағишланган” видеоселектор йиғилиши<sup>1</sup> ўтказилган эди. Видеоселектор йиғилишида тизимда эришилаётган ютуқлар билан бир қаторда камчиликлар ҳам кескин танқид остига олинган. Хусусан, жойлардаги мактабгача таълим муассасаларида кадрлар таъминоти ва салоҳияти етарли эмаслиги, соҳада 57 мингдан ортиқ мутахассис меҳнат қилаётган бўлса-да, уларнинг 85 фоизини ўрта маълумотли кадрлар ташкил этаётгани

<sup>1</sup> О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ning 2017 -yilning 19 dekabr kuni “Maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan

islohotlarni tahlil qilish va istiqboldagi vazifalarni belgilab olishga bag‘ishlangan” videoselektor yig‘ilishidan



фарзандларимизни мактаб таълимига талаб даражасида тайёрлаш имконини бермаётгани таъкидланган. Мактабгача таълим муассасаларига болалар бадиий адабиётлари йиллар давомида етказиб берилмагани, ота-оналарда боғчага нисбатан ишонч йўқолгани, мактабгача таълим тизимида йиллар давомида кўплаб муаммолар йиғилиб қолгани айтиб ўтилган. Ва холанки, мактабгача таълим тизимида соғлом ва баркамол эртанги кун эгалари камол топади.

Бироқ шу пайтгача бу тизим ривожланишдан ортда қолган эди. Охирги йигирма йил давомида давлат тасарруфидаги мактабгача таълим муассасалари сони 45% га камайган. Оқибатда мактабгача ёшдаги болаларнинг 33% боғчаларга қамраб олинган, холос. Бу кўрсаткич Данияда 99%, Японияда 97%, Жанубий Кореяда 95% ини ташкил этишини айтиб ўтиш керак. Мактабгача таълим муассасаларида болаларни ижтимоий, шахсий, ҳиссий, нутқий, математик, физио-психологик, жисмоний ва ижодий ривожлантириш бўйича таълим дастурлари жорий этилмаган.

2030-йилга бориб 85% бола республика мактабгача таълим муассасаларига қамраб олиниши мақсад қилинмоқда. Яна бир масала, Кадрлар масаласи муҳим ҳисобланади. Мактабгача таълим вазирлиги илк кунларданоқ бу муаммога дуч келган эди. Бугунги кунда мактабгача таълим муассасалари сони ошиб бормоқда, нодавлат мактабгача таълим муассасалари ҳам шулар жумласидандир. Рақамлар кун сайин кўпайяпти, чунки хусусий мактабгача таълим муассасалар ва Давлат-хусусий сектори ҳамкорлиги асосидаги мактабгача таълим муассасалари очилмоқда. Табиийки, юқорида айтиб

ўтилган масала - кадрларга бўлган талаб ҳам катта.

Яна бир муҳим масалани айтиб ўтишни лозим топдим. Мактабгача таълим муассасасида эртанги кун эгалари камол топаётгани ва уларни тарбиялаш нозик масала эканлиги барчага яхши аён. Боланинг ахлоқий фазилатларини тарбиялашда тарбиячининг роли ниҳоятда катта. У жуда кўп нарсани тушуниши ва бажариши лозим. Боланинг ривожланишида катта эътибор унинг мустақилликка эришишига олиб келади. Баъзан унинг аҳамияти ва эркинлигини ҳис қилиш керак. Келажакда бу унга бахтли ва муваффақиятли бўлишга, ўз имкониятларини максимал даражада оширишга ёрдам беради. Болани тарбиялашда мактабгача таълим муассасаларида аёл тарбиячилардан ташқари эркак тарбиячиларнинг ҳам бўлиши кераклигини айтиб ўтмоқчи эдим. Ахир болага тарбия беришда фақат аёлнинг тарбияси эмас, балки эркакнинг ҳам тарбия бериши жуда муҳим жараён ҳисобланади. Бугун уйда оталарнинг бу ишга кам вақт ажратаётганини, оила - тирикчилик сабаб ё четда ишлаётгани, ё ишдан уйига кеч қайтиб бу вақтга кам вақт сарфлаётганини кўришимиз мумкин. Демак, фарзандларимиз ҳақиқий фарзанд бўлиб тарбияланиши учун уларнинг табиати ва ҳиссиётларига мос бўлган нарсалар билан машғул бўлишларини мактабгача таълим тизимидаги педагоглар таъминлашлари керак. Мазкур таълимотларга амал қилган халқимиз азал-азалдан ўғил болалар учун алоҳида ўйинлар ва қиз болалар учун алоҳида ўйинларни жорий қилган. Масалан, ўғил болалар ёғоч ва лойдан тойчоқлар ясаган, уларни миниш, эгарлаш, ҳаттоки уларга ем-



хашак бериб, суғоришларгача ўрганган. Ўғил болаларнинг ўзаро бир-бирлари билан ўйнайдиган ўйинлари ҳам отуловларга боғлиқ бўлган. Қиз болаларимиз эса кўғирчоқ ўйнаш, уни чўмилтириш, сочини ўриш, кийинтириш, йўрғақлаш, бешигига боғлаш, унга алла айтиб ухлатиш, уни таомлантириш, бундан ташқари, уй-рўзғор жиҳозларидан ясалган ўйинчоқлар: идиш-товоқ, чойнак-пиёла, нон ёпиш учун керак бўладиган жиҳозлар, ўқлов, чекич, тикиш-бичишга тааллуқли бўлган жиҳозлардан ташкил топган ўйинчоқларни ўйнаш билан машғул бўлган.<sup>2</sup>

Шунинг учун ҳам бугун болани севги, ҳурмат муҳитида тарбиялаш, биринчи навбатда, шахсий ривожланиш ва ўзининг салоҳиятини рўёбга чиқаришига алоҳида эътибор берилган. Замонавий дунёда болаларни тарбиялашга бўлган ёндашув ўзгарган, кўпинча аёллар буни амалга оширадilar. Бир қарашда мактабгача таълим муассасаларида эркак педагогларнинг бўлиши кулгили ҳолатдай туюлади. Эркак педагог болани ўйнатиши, овқатлантириши ва ҳ.к ишларни бажариши ,албатта, қайсидир

маънода тўғри эмас деб ҳисоблашингиз мумкин. Аммо боғчадаги болалар билан у ишларни қилишдан ташқари бошқа йўллар билан ҳам шуғулланса бўлади. Мана масалан, боғчада турли ёш гуруҳлари тарбияланади. 5 ёшдан 7 ёшгача бўлган болалар гуруҳи билан эркак педагог мусиқа таълимидан мусиқа асбоблари орқали ёшга мос бўлган кўшиқларни ё бўлмаса ҳайкалтарошлик сир-синаотини ўрганса ёмон бўлмайди. Ҳарбийларча қадам ташлаш, ҳарбийларга хос бўлган қатъиятлиликини, турли хил ҳайкал ясашни ўрганиш ҳам шулар жумласидандир. Ахир болаларнинг кўпчилиги бу ёшда ҳарбий бўлишни ва ватанни кўриқлашни, турли буюмлар ясашни жуда- жуда исташади. Унинг истакларини эса доимо қўллаб-қувватлаш яхши натижаларга олиб келади. Бу эса уларни янада ривожлантириш учун жуда муҳимдир. Шунинг учун биз боланинг ўз танловини амалга ошириш истагини рағбатлантиришимиз, мустақил фикр юритишимиз, унинг ҳаракатлари учун масъул эканини эслатиб туришимиз керак.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев нинг 2017 -йилнинг 19 декабр куни “Мактабгача таълим тизимида амалга оширилаётган ислохотларни таҳлил қилиш ва истиқболдаги вазифаларни белгилаб олишга бағишланган” видеоселектор йиғилишидан
2. "Болаларга ҳадислар" китоби, Тошкент-2002, 38-40 б.
3. "Мактабгача таълим методикаси" “Ўқув қўлланма” , М.П. Хамидова, М.Й. Аюпова, ФарДУ, 67-80 б.
4. Лола Раҳмонбоева Кун.уз журналисти 2019-йил мақоласидан.



## AVTOMOBIL YO'LLARIDAGI SIRPANCHIQLIKLAR VA QOPLAMA RAVONLIGINING HARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

Nazirov Zikirulloh Erkinjon o'g'li

Farg'ona Politexnika Instituti Mexanika-mashinasozlik fakulteti  
23-20 MST guruhi talabasi, (erkinovichzikirillo@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5979506>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:15-dekabr 2021

Ma'qullandi:15-yanvar 2022

Chop etildi:05-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Qoplamaning ilashish  
xususiyatlari, ilashish  
koeffitsiyenti, Davlat  
reesti, Ravonlikni  
baholash

### ANNOTATSIYA

*Yo'l qoplamalari holatiga qo'yiladigan talablar. Qoplamaning ilashish xususiyatlari. Yo'l qoplamalarining ilashish xususiyatlari ma'lum darajada avtomobilning sekinlashish yoki to'xtash yo'li uzunligini aniqlaydi, uning ustivorligi va boshqarilishiga katta ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi muxim kattalik hisoblanadi. 1. Ravon yo'l qoplamasi quruq va toza holatda g'adir-budurlikdan qat'iy nazar yuqori ilashish xususiyatiga ega.*

Yo'l qoplamalari holatiga qo'yiladigan talablar. Qoplamaning ilashish xususiyatlari. Yo'l qoplamalarining ilashish xususiyatlari ma'lum darajada avtomobilning sekinlashish yoki to'xtash yo'li uzunligini aniqlaydi, uning ustivorligi va boshqarilishiga katta ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi muxim kattalik hisoblanadi. 1. Ravon yo'l qoplamasi quruq va toza holatda g'adir-budurlikdan qat'iy nazar yuqori ilashish xususiyatiga ega. Yomg'ir vaqtida yilning qatnov qismida suv qatlami shinani qoplama yuzasi bilan bevosita tutashishini kamaytiradi, bu uning ilashish xususiyatini kamayishiga olib keladi.

Qoplamaning ilashish xususiyati xo'l xolatda uning yuzasini g'adirdirlikligiga bog'liq. Avtomobil harakati uchun xavfli silliq qoplamalarni nisbatan xavfsiz mayda g'adir-budirlikdan ko'z bilan kuzatib farqlash mumkin emas. Shuning uchun yo'lning mumkin bo'lgan xavfli qismlarini

aniqlash uchun bog'lovchilar qo'llab qurilgan takomillashtirilgan qoplamalarning ilashish xususiyatlarini ularni xo'l xolatida shu maqsadga ishlab chiqilgan maxsus asboblar bilan doimiy baholab turish lozim. 2. Yo'l qoplamalarining ilashish xususiyatlarining ko'rsatkichi sifatida avtomobil shinasini yo'l qoplamasi bilan bo'ylama ilashish koeffitsiyenti qabul qilinganki, u blokirovka qilingan g'ildirakning bo'ylama sirg'anishida yuzaga keladigan va yuzada qoplama bilan uning tutashishida ta'sir etadigan yo'lning bo'ylama ta'sirlanishini tutashish mintaqasida yo'lni me'yoriy ta'sirlanishiga nisbati bilan ifodalanadi. Ishlashish koeffitsiyetini o'lchash uchun standartlashtirilgan asbob PKRS – 2 (Davlat reesti bo'yicha tartib 68 raqami 10913-87) yoki PPK-MAYI-VNIIBD (Davlat reestri bo'yicha tartib raqami 10912-87) qo'llaniladi. 4. Ilashish koeffitsiyenti o'lchanayotganda yo'l qoplamasini nomlash





uchun dinamometrik asbobning avtomobil-shatakchiga o'rnatilgan sun'iy namlashning yakka tartibdagi tizimidan foydalaniladi. Sun'iy namlash tizimi sirg'anuvchi o'lchovchi g'ildirakning tutashuv mintaqasiga shuncha miqdor suvni uzatishini ta'minlashi kerakki, bunda qoplamada qalinligi  $1 \text{ mm} \pm 0,3 \text{ mm}$  bo'lgan (parda) suyuqlik qatlami hosil bo'lishi kerak. 5. Harakat sharoitiga bog'liq ravishda ilashish koeffitsiyentlarining eng kichik ruxsat etilgan qiymatlari quyidagilarni tashkil etadi.

Harakat sharoiti yengil qiyin xavfli ilashish koeffitsiyentlari 0,28 0,30 0,32 6. O'lchash natijasida ilashish koeffitsiyentlari 5 badda keltirilgandan kichik olingan hollarda qoplamaning g'adir-budirliqi oshirilishi lozim. Yo'lning sirpanchiq

qismlariga kirishda xarakat tezligini chegaralovchi belgilar bilan yo'lni faqat xo'l holatida tezlikni kamaytirish zarurligini ko'rsatuvchi jadvalcha o'rnatish talab qilinadi. 7. Amaliyotda ilashish koeffitsiyentini baholash uchun tormozlanish yo'lining uzunligi uslubidan foydalaniladi. Ushbu uslubda ilashish koeffitsiyentini o'lchash asbobi o'rnida tormozlanishni boshlanishini belgilovchi bilan jihozlangan avtomobildan foydalaniladi. Belgilovchi sifatida esa tormoz pedali bosilgan vaqtda qoplama yuzasiga suyuq yoki quruq kraska tashlab boruvchi qurilma qo'llaniladi. Uslubning mohiyati harakatlanayotgan avtomobilning ma'lum bir tezlikdan to'liq to'xtagunga qadar torvozanishi va tormozlanish masofasining uzunligini aniqlashdan iborat.



### **Avtomobil yo'llarini tamirlash jaroyoni.**

Yo'l qoplamasi ravonligiga ko'yiladigan talablar. Yo'l da xavfsiz va xar jihatdan qulay harakatni ta'minlash uchun qoplama ravon bo'lishi kerak. Yo'l qoplamalaridagi notekislik avtomobilni tebranishiga sabab

bo'lib, haydovchini tez charchashiga, sekinlashish yoki tormoz (to'xtash yo'lini ortishiga, boshqarishni yomonlashuviga olib keladi. Bundan tashqari, avtomobil g'ildiragining qatnov qismidagi notekisliklar bilan o'zaro 69 ta'sirida yo'l





to'shamasini jadal buzilishiga sabab bo'luvchi dinamik kuchlar yuzaga keladi.

1. «Ravonlik» tushunchasi qoplama yuzasining geometrik tavsiflariga tegishli va yo'lning qatnov qismni haqiqiy yuzasining o'lchami va shakli bilan aniqlanadi.

2. Ravonlikni baholash uchun qo'llaniladigan ko'rsatkichlar, foydalaniladigan o'lcham asbobi turiga va uning ta'sir asosiga bog'liq. MDH davlatlarida yo'l qoplamalarining ravonligini baholash uchun turli turdagi 3 metrli reyka (xodachalar) tolchkomer (silkinishni o'lchovchi) va PKRS-2 asbobidan foydalanadi. Aytib o'tilgan

asboblarning har birida o'lchash uslublari ularga ilova qilinadigan qo'llanmalarda keltirilgan. Asosiy sifatida boshqa turdagi asboblarning ko'rsatkichlarini mavjud taqqoslangan bog'lanishlardan foydalanib keltirilgan pona bilan 3-metrli reyka(xodacha) ko'rsatkichlari qabul qilinadi.

3. Ravonlikni baholashda 3 metrli reykarlar (xodachalar) bilan o'lchash yuqori ish hajmiga egaligi sababli ular onda-sonda qo'llaniladi va asosan uncha katta bo'lmagan masofadagi yo'l qismlarida oralatib tekshirishlarda qo'llaniladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. B.A.Xodjaev- Gruzovo`e Avtomobil`no`e perevozki. T. : –O`qituvchi||, 1984
2. N.Z.Arifjanova, M.F.Yoqubov. Avtomobillarda yuk va pasajjir tashish asoslari ( Masalalar toplami). T.: –FAN.2007.
3. L.I.Paliy i Z.V Polovinnikova. Avtomobil`no`e perevozki (zadachnik) M., «Transport». 1982





## YUK TASHISHDA ORTISH-TUSHIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH VA MEXANIZATSIYALASH

Akbarov Oybek Davlatali o'g'li

Farg'ona Politehnika Instituti Mexanika-mashinasozlik fakulteti

24-19 TMJ guruhi talabasiv, (joybek703@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5979513>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:15-dekabr 2021

Ma'qullandi:15-yanvar 2022

Chop etildi:05-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Tashish rejasi, Yuklash-tushirish punkti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Yuklash-tushirish ishlari asosiy va qo'shimcha operatsiyalaridan tashkil topishi. Asosiy operatsiyalari Yukni saqlash joyidan olish uni yuklash joyiga joylashtirish; xarakatdagi tarkibga yuklashni o'zi tushirishda operatsiyalarni teskarisi kabilardan iborat.*

Yuklash-tushirish ishlari asosiy va qo'shimcha operatsiyalaridan tashkil topadi. Asosiy operatsiyalarga: Yukni saqlash joyidan olish uni yuklash joyiga joylashtirish; xarakatdagi tarkibga yuklashni o'zi tushirishda operatsiyalarni teskarisi kabilardan kiradi. Qo'shimcha operatsiyalarga: yukni taralarga joylash, markalash, tortish xujjatlarni tayerlash, yuklarni bog'lash eki bo'shatish, brizent bilan-yopish va boshqalar. Avtamobillarni yuklash va tushirishda bekor turish dovomiyligi uning ishdagi, vaqtini uchdan birini tashkil etadi. Qiska masofalarda 50% ni shuningdek xarakatdagi tarkib unumdorligi o'zgaradi. tn-p-bekor turish vaqti quyidagi elementlardan tashkil topadi: ko'tish vaqti, manevrlash vaqti, yuklash tushirish vaqti, xujjatlarni rasmiylashtirish vakti. Kutish vakti-bu yuk egalarning junatishga tayergarlik kurmagani va yuklarni kabul kilishda yuklash-tushirish punktlarini utkazib yuborishini kamligi, belgilangan punktlarga avtamobillarni notekis kelishi. Avtamobillarni manevrlash vaqti -

maydon o'lchamiga manevrlash uchun yurish yo'llari va xarakatdagi tarkib turiga bog'liq. Yuklash-tushirish vaqtni-o'zini bu bevosita xarakatdagi tarkibga yukni joylashtirish va bo'shatish bo'lib, bunga tashishda yukni xafsizligini ta'minlash uchun brizint bilan epish vaqti, yuklarni bog'lash va boshqa operatsiyalar. Yuklash-tushirish ishlari mexanizatsiyalashgan va mexanizatsiyalashmaganlar bilan farqlanadi. Yuklash tushirish maskanlari va ularni o'tkazib yuborish imkoniyati.

Yuklash-tushirish punktni qo'yib yuborish imkoniyati deb xarakatdagi tarkibni maksimal sonini bir soatda yuklash-tushirishda bo'lganlari xisoblanadi.

$Q_n(p)$ - bitta postni bir soatda o'tkazib yuborishi imkoniyati.

$Q_n(p) = 1/\tau_p(r)$ , t/ soat

Agar ayni punkttda  $X_p(r)$  o'rin bo'lsa,

$Q_n(p) = X_p(r)/\tau_p(r) \cdot \eta_n$ , t/ soat

$\eta_n$ - avtamobillarning yuklash-tushirish postiga kelish koefitsenti  $\tau_p(r-1t)$  yukni yuklash-tushirish uchun kerak bo'lgan vaqt Yuklab tushirish maskanlari joylashuvi.



Bir soatdagi yuklash eki tushiriladigon avtamobillar soni, qo'yib yuborish imkoniyati deb ataladi. Yuklash-tushirish punktlari doimiy va vaktinchalik bo'ladi. Doimiy punktlarda doimiy yuklar qayta ishlanadi. Vaqtinchalik punktlarda ish dam olish bilan amalga oshiriladi. Ko'p kismi mavsumiy xarakterda bo'ladi. Yuklash va tushirish postlar soni, yuklash yoki tushirish punktlar topshirikdagi qo'yib yuborish imkoniyatiga mos bo'lishi kerak, qaysiki yuk aylanish topshirig'i yoki 1 soatdagin yuklanishi kerak bo'lgan avtamobillar soni aniqlanadi.

Agar T soat davomida Q yukni yuklash yoki tushirishga kerak bo'lgan postlar soni teng.

$$X \quad p(r) = \frac{Qn(p) \cdot \tau p(r) \cdot \eta n}{T}$$

Agar yuk —ton|| o'rniga  $A_n(p)$  avtamobillar soni aniq bo'lsa, kaysiki yuklash eki tushirish shu vaqtdagi postlar soniga teng bo'ladi.

:

$$X \quad p(r) = A \frac{p(r) \cdot q \cdot \gamma st \cdot \tau p(r) \cdot \eta n}{T}$$

Sochilgan yuklarni tushirishda uning chumich xajmi anik bo'lsa, mexnat unumdorligi kuyidagi formula bilan aniklanadi.

$$W = 3600 \cdot v \cdot V \cdot X \cdot \eta / \text{tts } t / \text{soat}$$

v- 1m kub yuk xajmi ogirligi t; V- cho'mich yoki boshqa ushlagichning hajmi, m kub;

X – to'ldirish koeffitsenti.

Konveyrda bir xil og'irlikdagi donali yuklarni joylashtirish, taxminan bir-biridan bir xil masofada metrlarda joylashgan, V m/s tezlikdagi konveyr unumdorligi.

$$W_{sh} = 3600 \cdot V \cdot \eta / a \text{ dona} / \text{soat yoki}$$

Sochilgan yuklarni tushirishda uning chumich xajmi anik bo'lsa, mexnat unumdorligi kuyidagi formula bilan aniklanadi.

$$WT = 3,6 \cdot V \cdot v \cdot \eta / a \text{ t/soat}$$

Sochilgan yuklarni tushirishda uning chumich xajmi anik bo'lsa, mexnat unumdorligi kuyidagi formula bilan aniklanadi. Og'ir vazinli yuklarni ortish-tushirishda ishlatiluvchi statsionar va ko'chma kranlar.


Yuklash-tushirish ishlarida mashina va mexanizmlar turini tanlash deb, ulardan yuqori samarali foydalanish maqsadida, ularning texnik, ekspluatatsion va ekologik sifatini aniqlash va baxolash tushiniladi. Ishlab chikarishda yuklash-tushirish ishlari kichik va katta mexanizatsiyalar bilan farqlanadi.

Rasm yuklarni ko'tarish va tushirish





Eng ko'p qo'llaniladigan yuk oluvchi moslamalar keltirilgan. Ular egiluvchan bir necha tur va shakilda bo'ladi.



a) list po'latni ko'tarish uchun, b) yuk maydonchalari, v) yog'ochlar uchun.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. B.A.Xodjaev- Gruzovo`e Avtomobil`no`e perezovki. T. : –O`qituvchi||, 1984
2. N.Z.Arifjanova, M.F.Yoqubov. Avtomobillarda yuk va pasajir tashish asoslari ( Masalalar toplami). T.: –FAN||.2007.
3. L.I.Paliy i Z.V Polovinnikova. Avtomobil`no`e perezovki (zadachnik) M., «Transport». 1982





## СИНДРОМ ЖЖЕНИЯ ВО РТУ: ОБЗОР ЕГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО И ТЕРАПЕВТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

**Олимова Дилдора Вохидовна**

Бухарский государственный медицинский институт,  
ассистент кафедры «Общей гигиены и экологии»

Эл. адрес: [azizbekbahodirov1995@gmail.com](mailto:azizbekbahodirov1995@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5979531>

### ИСТОРИЯ СТАТЬИ

Принято: 15-декабрь 2021

Утверждено: 15-январь 2022

Опубликовано: 5-февраль 2022

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

синдром жжения во рту,  
классификация,  
дисгевзия,  
эпидемиология,  
этиология и лечение,  
стоматодиния.

### АННОТАЦИЯ

*Синдром жжения во рту (BMS), хронический и трудноизлечимый орофациальный болевой синдром, характеризуется наличием жжения слизистой оболочки полости рта при отсутствии специфических поражений полости рта. Это заболевание поражает в основном женщин среднего и пожилого возраста с гормональными изменениями или психологическими расстройствами.*

Помимо жжения, пациент с БМС также жалуется на боль в слизистой оболочке рта, изменение вкусовых ощущений и сухость во рту. Это состояние, вероятно, имеет многофакторное происхождение, часто идиопатическое, и его точный этиопатогенез остается неясным. Пока нет окончательного лекарства от этого состояния, и большинство подходов к лечению, лекарства остаются неудовлетворительными. Для лучшего ведения пациентов необходим междисциплинарный и систематический подход. Цель этой статьи - представить обзор эпидемиологии, клинических проявлений, классификации, этиопатогенеза, диагностики и лечения BMS.

Пациенты с жалобами на жжение в полости рта представляют собой одну

из сложных задач для специалистов по уходу за полостью рта. Это состояние еще больше усугубляется, если сопровождается болью. Боль - частая причина страданий и инвалидности, серьезно ухудшающих качество жизни человека. Синдром жжения во рту (BMS), хронический и трудноизлечимый болевой синдром, который в основном поражает женщин среднего и пожилого возраста, характеризуется ощущением покалывания или жжения слизистой оболочки полости рта при отсутствии явных признаков органической причины при физикальном обследовании. Общепринятого определения этого синдрома до сих пор нет из-за вариативности клинических проявлений. Однако Международная ассоциация по изучению боли [1] определяет это состояние как «жгучую



боль в языке или другой слизистой оболочке полости рта, связанную с нормальными признаками и лабораторными исследованиями, продолжающуюся не менее 4-6 месяцев» [2].

В прошлом это состояние называлось множеством названий, включая синдром ошпаривания рта, стоматодиния, болезненный язык, синдром жжения губ, глоссодиния, глоссалгия, стоматопироз, дизестезия полости рта, состояние жжения во рту, глоссопироз, боль во рту и БМС (наиболее широко распространено). [3,4] Использование различных терминов в прошлом приводит к путанице и неопределенности в клинической практике и научной литературе. Больные часто жалуются на жгучую боль слизистой оболочки полости рта, предпочтительно на языке, сопровождающуюся другими сенсорными расстройствами, такими как сухость во рту, изменение вкусовых ощущений. Это состояние часто носит идиопатический характер, и его этиопатогенез до сих пор остается неясным.

### **Эпидемиология**

Установить истинную распространенность BMS чрезвычайно сложно из-за отсутствия соответствующей и последовательной системы классификации, точных диагностических критериев и их осведомленности среди профессионалов в области гигиены полости рта. Многие авторы не проводят различия между синдромом и симптомом как таковым. Распространенность BMS, по данным различных международных исследований, колеблется от 0,6% до

15% соответственно [5]. BMS - это в основном заболевание людей среднего и пожилого возраста в возрасте от 38 до 78 лет [4]. Похоже, что их распространенность увеличивается с возрастом как у мужчин, так и у женщин. BMS демонстрирует значительное женское пристрастие, и соотношение между женщинами и мужчинами варьируется от 3: 1 до 16: 1 в различных литературных исследованиях. [6] Хотя это еще не определено, эти гендерные различия были объяснены в контексте биологических, психологических и социокультурных факторов. Эпидемиологические исследования показывают, что это заболевание особенно часто встречается у женщин в пери- и постменопаузе, где их распространенность увеличивается до 12-18% [7]. Это состояние крайне редко встречается у пациентов младше 30 лет и никогда не регистрировалось у детей и подростков. [8]

### **Классификация и подтипы**

Для иллюстрации клинического течения состояния были предложены различные типы классификации. Lamey и Lewis предложили разделить BMS на три подтипа в соответствии с вариациями интенсивности боли в течение 24 часов.

Основываясь на уровне патологии, Яэскеляйнен разделил первичную BMS на три подгруппы с некоторым перекрытием у отдельных пациентов. Первая подгруппа характеризуется периферической нейропатией волокон малого диаметра слизистой оболочки полости рта, вторая подгруппа состоит из патологии, затрагивающей язычную, нижнечелюстную или тройничную систему, а третья подгруппа,



отмеченная как имеющая центральную боль, может включать гипофункцию дофаминергических нейронов в базальные ганглии. [10]

### **Клинические особенности**

Клинические проявления БМС непостоянны и всегда разнообразны и вариативны. В большинстве случаев пациенту было трудно описать ощущения, которые они испытывали. Термин BMS подразумевает человека, который жалуется на различные хронические оральные симптомы (включая боль в слизистой оболочке полости рта, изменение вкусовых ощущений, ксеростомию и другие), интенсивность которых часто увеличивается в конце каждого дня и редко мешает сну [11].

Оральная жгучая боль остается главным симптомом БМС. Большинство людей описывает этот симптом как жжение, покалывание, обжигание, раздражение, болезненность или онемение слизистой оболочки полости рта, чаще всего с поражением передних 2/3 языка, за которым следуют спинка, боковые границы языка, передняя часть твердого неба, и слизистая оболочка губ. Боль возникает спонтанно, двусторонне, без каких-либо провоцирующих факторов. Боль может ощущаться глубоко в слизистой оболочке, продолжаясь не менее 4-6 месяцев, от умеренной до сильной, интенсивность которой может меняться в течение дня. Местоположение боли не является патогномичным, часто затрагивая более одного места. Некоторые могут даже испытывать жжение на дополнительных слизистых оболочках полости рта, включая аногенитальную область. В некоторых случаях боль изменяет режим сна, что

приводит к ухудшению качества жизни, тревоге, депрессии, уменьшению желания социализироваться и / или соматизации. [4]

Более 70% людей также испытывают расстройства вкуса, которые проявляются в виде стойких изменений вкуса, чаще всего горького, металлического или и того, и другого. [12] И это может быть связано с нарушением сенсорных модальностей афферентных волокон малого диаметра. Примерно 2/3 больных жалуются на сухость во рту. Ощущение или свидетельство сухости во рту у этих людей более вероятно из-за побочных эффектов холинолитиков, психотропных средств, антигистаминных средств и / или диуретиков. [13] Было проведено несколько исследований, которые показали явные изменения в качестве и количестве слюны у индивидуума, пораженного БМС.

Различные литературные исследования доказывают, что у пациента с БМС есть неспецифические жалобы на здоровье, которые включают головные боли, боль в ВНЧС, головокружение, скелетно-мышечные расстройства, синдром раздраженного кишечника, дерматологические и психические расстройства. [14]

### **Этиопатогенез**

Из-за сложного клинического поведения точная причина BMS в настоящее время неизвестна. Предполагается, что этиология является многофакторной и включает взаимодействие между нейрофизиологическими механизмами и психологическими факторами [15]. Было обнаружено, что значительное количество местных, системных и



психологических факторов связано с BMS; однако некоторые из этих факторов следует рассматривать как условия, важные для дифференциальной диагностики горения во рту, а не как этиологический фактор для BMS.

Возможные теории, лежащие в основе причины BMS, перечислены здесь:

Аномальное взаимодействие между сенсорными функциями лицевого и тройничного нервов. [16] Согласно этой теории, некоторые люди, которых отнесены к категории супер-дегустаторов (в основном женщины) из-за высокой плотности грибовидных сосочков на переднем крае языка, подвержены риску развития жгучей боли [17].

Сенсорная дисфункция, связанная с невропатией мелких и / или крупных волокон. [18] Forssell et al. обнаружили, что почти 90% людей с BMS имели ту или иную форму измененного порога чувствительности и / или рефлекторной реакции моргания. Иммуногистохимические и микроскопические исследования выявили дегенерацию аксонов эпителиальных и субпапиллярных нервных волокон в пораженном эпителии слизистой оболочки полости рта [19].

Центрально-опосредованное изменение модуляции ноцицептивной обработки. Эта теория объясняет тот факт, что наблюдается уменьшение нигростриатальной дофаминергической системы, что приводит к снижению центрального подавления боли у пациентов с БМС. [20]

Нарушения вегетативной иннервации и орального кровотока. [21]

Хроническое беспокойство или стресс приводят к изменению уровней гонад, надпочечников и нейроактивных стероидов в коже и слизистой оболочке полости рта. [22]

### **Диагностика**

Следующие шаги должны быть выполнены до прибытия на диагностику BMS.

Сбор тщательного и исчерпывающего анамнеза для определения ощущения боли

Тщательное клиническое обследование слизистой оболочки полости рта для исключения местных и системных причин.

Информация о предыдущих или текущих психосоциальных факторах стресса и психологическом благополучии

Объективные измерения скорости слюноотделения и вкусовой функции  
Неврологическая визуализация и обследование для исключения любых патологий и дегенеративных нарушений.

Оральный посев для подтверждения подозреваемых бактериальных, вирусных и грибковых инфекций

Патч-тест для аллергиков

Исследования желудочного рефлюкса

Гематологический тест для исключения пищевых, гормональных и аутоиммунных заболеваний.

### **Уход**

Сложная и многофакторная этиология BMS требует систематического и междисциплинарного подхода для правильного ведения таких пациентов. Хотя для лечения BMS было предложено много лекарств и методов лечения, ни один из них не является золотым стандартом и не является удовлетворительным. Планирование





лечения должно быть индивидуальным для каждого пациента. Получение правильного клинического диагноза BMS имеет первостепенное значение для лечения.

Управление BMS можно широко обсудить по трем темам, а именно: местные лекарства, системные лекарства и поведенческие взаимодействия. Лекарства, используемые при BMS, включают антидепрессанты, анальгетики, противосудорожные, противогрибковые, антибактериальные, симпатомиметические, антигистаминные, анксиолитические, антипсихотические средства, а также витаминные, минеральные и гормональные заменители.

#### **Актуальные лекарства**

Местное нанесение капсаицина (0,025% крем) использовалось при БМС в качестве десенсибилизирующего агента и, как полагают, ингибирует вещество Р. Снижение толерантности пациента и повышенная токсичность ограничивают его использование у некоторых пациентов [24]. Были также проведены испытания полоскания 0,15% бензидамина гидрохлоридом 3 раза в день, оказывающего обезболивающее, обезболивающее и противовоспалительное действие, но с противоречивыми результатами. [25] Некоторые другие получают облегчение от боли при использовании полоскания для рта из соуса Табаско с водой [26] или, альтернативно, из острого перца и воды в разбавлении от 1: 2 до 1: 1. [27] Местное применение клоназепам (рассасывая таблетку 1 мг), агониста рецепторов гамма-аминомасляной кислоты, 3 раза в день в течение 14

дней в некоторых случаях имело определенный успех [28].

Наиболее часто используемый местный анестетик, лидокаин, пробовали немногие, и они не были показаны как эффективное лечение из-за их короткой продолжительности анальгетического действия. Было установлено, что местное применение 70% геля алоэ вера 3 раза в день в сочетании с защитным средством для языка эффективно для уменьшения жжения и болевых ощущений на языке. [29] Попытки местного применения лактопероксидазы (биотеновая жидкость для полоскания рта) и 5% доксемина оказались неэффективными [30].

#### **Системные лекарства**

Многочисленные исследования оценивали системные методы лечения СБМС с различными результатами. Использование трициклических антидепрессантов, таких как amitриптилин, дезипрамин, имипрамин, кломипрамин и нортриптилин (начальная доза 5-10 мг / день и постепенно увеличивается до 50 мг / день), полезно при лечении BMS. Некоторые авторы противопоказывают эти препараты пациентам с сухостью во рту, так как они могут ухудшить состояние.

Селективные антидепрессанты-ингибиторы обратного захвата серотонина, такие как сертралин (50 мг / день), пароксетин (20 мг / день) в течение 8 недель, дулоксетин в дозе 30-60 мг / день, антидепрессанты двойного действия, которые ингибируют как серотонин, так и норадреналин, вызывают значительное улучшение ощущения жжения во рту. [31]





Антипсихотические препараты, такие как амисульприд, левосульприд в дозе 50 мг / день в течение 24 недель, оказались эффективными и показали лучшую приверженность пациента при кратковременном применении.

Альфа-липоевая кислота (ALA) в дозе 600 мг / день, отдельно или в комбинации в течение 2 месяцев, действует как антиоксидант и мощный нейрозащитный агент, который предотвращает повреждение нервов свободными радикалами, регенерируя другие антиоксиданты, такие как витамин С и Е, способный повышать внутриклеточные уровни глутатиона, тем самым значительно уменьшая симптомы у пациентов с идиопатической дисгевзией. [32] Пациентам, проходящим терапию АЛК, необходимо рекомендовать сопутствующие препараты для защиты желудка. [33]

Системный капсаицин (0,25% капсулы 3 раза в день в течение 1 месяца) оказался эффективным для уменьшения интенсивности боли. Однако его следует использовать с осторожностью, так как у некоторых людей он вызывает боль в желудке. Бензодиазепины в низких дозах полезны для пациентов с тревожными расстройствами. Клоназепам (0,5 мг / день) и алпразолам (0,25–2 мг / день) обычно используются для лечения боли при БМС и действуют, вероятно, нарушая основной нейропатологический механизм. [34]

Добавки с витамином ВС, витамином В12, фолиевой кислотой и минералами, такими как железо и цинк,

могут значительно снизить средний уровень гомоцистеина в сыворотке и повысить уровень гемоглобина в крови с сообщением о полной ремиссии оральных симптомов [35].

Заместительная гормональная терапия (конъюгированные эстрогены, такие как премарин, 0,625 мг / день в течение 21 дня и ацетат медроксипрогестерона, например фарлутал, 10 мг / день с 12 по 21 день, в течение трех последовательных циклов) может облегчить симптомы жжения в полости рта и улучшить цитологические характеристики, особенно при женщины в пери- и постменопаузе. [36]

Некоторым людям помогает когнитивно-поведенческая терапия. [37] Сообщалось также об успешном лечении пациентов с БМС с помощью комбинированной психотерапии и психофармакотерапии. [31]

### **Заключение**

Синдром жжения во рту - болезненное и часто разочаровывающее состояние для пациентов. Точную причину BMS часто трудно определить, она, вероятно, имеет многофакторную природу и может быть идиопатической. Этиопатогенез BMS кажется сложным. Диагностика и лечение BMS - непростая задача для профессионалов в области стоматологии. Для лучшего лечения требуется глубокое понимание этиологии и психологического воздействия этого расстройства в сочетании с новыми фармакологическими вмешательствами.

### **Использованная литература:**

1. Merskey H, Bogduk N. Classification of Chronic Pain. 2nd ed. Seattle, WA: IASP Press; 1994. Descriptions of chronic pain syndromes and definitions of pain terms; p. 74
2. Grinspan D, Fernández Blanco G, Allevato MA, Stengel FM. Burning mouth syndrome. Int J Dermatol. 1995;34:483–7.
3. Lamey PJ. Burning mouth syndrome. Dermatol Clin. 1996;14:339–54.
4. Scala A, Checchi L, Montevecchi M, Marini I, Giamberardino MA. Update on burning mouth syndrome: Overview and patient management. Crit Rev Oral Biol Med. 2003;14:275–91.
5. Zakrzewska JM, Hamlyn PJ. Facial pain. In: Crombie IK, editor. Epidemiology of Pain. Seattle, WA: IASP Press; 1999. pp. 175–82. [Google Scholar]
6. Khabibova N.N. Characteristic features of free-radical processes and antioxidant protection in the oral cavity during chronic recurrent aphthous stomatitis// European Science Review. - 2018. - P. 191-193.
7. Khabibova N.N. Changes in biochemical and immunological indicators mixed saliva of patients with chronic recurrent aphthous stomatitis// European journal of pharmaceutical and medical research. –2018. – (5) 11. – P. 143-145.
8. Хабибова Н.Н. Клинико-биохимические особенности течения псевдоаллергических вариантов хронического рецидивирующего афтозного стоматита// Проблемы биологии и медицины. – 2018. - № 4 (104). – С. 220-222.
9. Хабибова Н.Н., Саидов А.А., Саидова М.Р. Сурункали рецидивирловчи афтозли стоматитда липидларни перекис оксидланишини ўзига хос хусусиятлари ва оғиз бўшлиғи антиоксидант ҳимоясининг ҳолати// Тиббиётда янги кун. – 2018. - № 3 (23). – Б. 61-63.
10. Норова М.Б., Олимова Д.В. Соғлом болалар юз жағ морфометрик ўлчамлари олтин пропорция қонунига мутаносиблиги ва симметриклигини аниқлаш// Тиббиётда янги кун. - 2020. - № 2. – Б. 30.
11. Хабибова Н.Н., Олимова Д.В., Норова М.Б. Лечение начальных форм кариеса методом инфильтрации// Тиббиётда янги кун. –2020. - № 4 (32). – Б. 290-292.



**TALABANING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH MEZONLARI VA UNI BAHOLASH KRITERIYALARINI ISHLAB CHIQUISH ("TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" FANI MISOLIDA)**

**Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi**

Qarshi davlat universiteti Pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 3 – kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5979536>

**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

*mustaqil ta'lim, kognitiv faollik, Keys tadqiqoti, Rubrik, "talaba – o'qituvchi", intervyu, intellektual tashabbus va tafakkur.*

**ANNOTATSIYA**

*Kognitiv faoliyatda talabalarning mustaqil ishlarining o'rni nihoyatda katta, shuning uchun ham oliy ta'lim o'qituvchilari tomonidan unga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Talabalarning mustaqil ishlariga bag'ishlangan ko'plab maqolalarda talabalarning nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishga ongli munosabatini tarbiyalash, qizg'in intellektual mehnat odatini singdirish maqsadi yotadi. Bu ta'limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Biroq, o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki uni o'zlashtirish usullarini ham o'zlashtirishi muhim, ya'ni o'quvchilarni aniq fan bilimlari bilan qurollantirishdan ko'ra ko'pincha bilim olishga o'rgatish muhimroqdir. Shuning uchun ham ushbu maqolada talabalar mustaqil ta'lim soatlarini tashkil etish va boshqarishga bag'ishlangan.*

Talabaning mustaqil fikrlash, kognitiv faolligi yuzaga kelishi uchun shart-sharoit yaratadigan har qanday turdagi o'quv mustaqil ish bilan bog'liq. Keng ma'noda mustaqil ish talabalarning auditoriyada ham, undan tashqarida ham, o'qituvchi bilan aloqada bo'lgan va u yo'qligidagi barcha mustaqil faoliyatining yig'indisi sifatida tushunilishi kerak. Talabalarning mustaqil ta'limi o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, bu jarayonda ko'nikma, malaka va bilimlarni shakllantirish, kelajakda esa talabaning kognitiv faoliyat usullarini o'zlashtirishi, ijodiy mehnatga qiziqishi va pirovard natijada o'zlashtirishi amalga oshiriladi, o'quv va ilmiy muammolarni hal qilish qobiliyati ta'minlanadi [12].

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning asosiy vazifasi har qanday shakldagi darslarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun psixologik-didaktik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy printsiplari muammoli masalalarni hal qilishda o'z fikrini shakllantirish va talabaning passiv roli bilan muayyan vazifalarni rasmiy bajarishdan kognitiv faoliyatga o'tish bilan barcha talabalarni individual ishlarga o'tkazish bo'lishi kerak [12].

Mustaqil ta'limni faollashtirishga yordam beradigan bir necha ichki omillar mavjud: bajarilgan ishning foydaliligi; talabalarning ijodiy faoliyatda ishtirok etishi; ta'lim jarayoniga faol usullarni,

birinchi navbatda, innovatsion va tashkiliy-faol o'yinlarga asoslangan o'yin mashg'ulotlarini joriy etishni nazarda tutuvchi intensiv pedagogikani joriy etish; o'quv fanlari bo'yicha olimpiadalarda, ilmiy tadqiqot yoki amaliy ishlar uchun tanlovlarda qatnashish va hk; bilimlarni nazorat qilish turlaridan, masalan, kumulyativ baholashlar, reytinglar, testlar, nostandart imtihon tartib-qoidalaridan foydalanish.

Quyida bugungi kunda mustaqil tashkil etishda qo'llash mumkin bo'lgan ayrim xorijiy uslublar keltirilib o'tilgan, o'ylaymizki, o'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi samaradorlikni oshiradi.

Keys tadqiqoti (case study) – bu shaxs, guruh, joy, hodisa, tashkilot yoki hodisa kabi muayyan mavzuni batafsil o'rganish. Keys tadqiqotlari odatda ijtimoiy, ta'lim, klinik va biznes tadqiqotlarida qo'llaniladi.

Keys tadqiqoti loyihasi odatda sifatli usullarni o'z ichiga oladi, lekin ba'zida miqdoriy usullar ham qo'llaniladi. Keys tadqiqotlari tadqiqot muammosining turli tomonlarini tavsiflash, taqqoslash, baholash va tushunish uchun muqobil yo'l.

Keys tadqiqoti orqali talab mustaqil ta'limini baholash mumkin. Bunda talabaning mavzu yuzasidan umumiy bilimni ochib beriladi. Keys tadqiqoti – bu aniq, kontekstli, real tegishli tadqiqot loyihasidir. Bu ishning asosiy xususiyatlarini, ma'nolarini va oqibatlarini o'rganish imkonini beradi.

O'qituvchi muammo bayoni va tadqiqot savollarini ishlab chiqqanidan so'ng, talaba aniq ishni tanlashga tayyor bo'lishi kerak. Shunda talabani quyidagi kriteriyalar bo'yicha a'lo baholash mumkin:

- Mavzu bo'yicha yangi yoki kutilmagan tushunchalar taqdim etish
- Mavjud taxminlar va nazariyalarga qarshi chiqish yoki murakkablashtirish
- Muammoni hal qilish uchun amaliy harakatlar kurslarini taklif qilish
- Kelgusi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlarni ochib berish.

Talabaning Keys tadqiqotini olib borishi 4 bosqichdan iborat bo'ladi:

1-bosqich: Holatni tanlash/Qo`yilgan muammoni tahlil etish

- Berilgan topshiriqni talaba o'qib dastlabki tushunchaga ega bo'lishi lozim.

2-bosqich: Nazariy asosni yaratish

- Ish bo'yicha tahlil mustahkam akademik asosga ega bo'lishini ta'minlash uchun talaba mavzuga oid manbalarni adabiyotlarni ko'rib chiqishi va nazariy asosni ishlab chiqishi kerak. Bu talabaning tahlili va sharhlari boshqarish uchun asosiy tushunchalar va nazariyalarni aniqlashni anglatadi.

Alisher Navoiyning g'azallaridan so'ng "Tarixi muluki ajam" asaridagi "No'shiravonul – odil hikoyati" berilgan bo'lib, undan keyin shu asardan olingan lug'at so'zlar keltirilgan. Bu hikoyatda loqayd bo'lmaslikka, o'quvchilarni aql – zakovat bilan ish tutishga undash kuchli. Hikoya so'ngida quyidagi savollar beriladi: "Adolat deb nimani tushunasiz? Amalni suiiste'mol qilmaydigan, balki amal mas'uliyatini saqlaydigan rahbarlarni shaxsan ayta olasizmi?"<sup>9</sup> kabi savollar berish bilan o'quvchini to'g'ri fikrlashga, hayotda halol yashashga undash seziladi. Undan keyin "Lison ut-tayr" asaridan "Ko'rlar va fil hikoyati" berilgan. Hikoya tahlilida shunday fikrlar bor:

"Muallif bizga ikki yoqlama ta'lim beradi: masalaning dunyoviy tomoni – kishi mukammal bilim olmog'i kerak. Chala bilim olgan kishining tasvirdagi ko'rlardan qanday farqi bo'lsin? Masalaning diniy va tasavvufiy tomoni: Oллоh oshig'i Oллоh haqida to'liq, har tomonlama ma'rifat hosil qilmog'i zarur. Hikoyatning nechog'li qiziqarliligi ko'rinib turibdi. Ko'rlar siymosida chalamullalar nazarda tutilsa, asli hindistonlik donishmand siymosida ma'naviy barkamol odam gavdalantirilgandir. Maroqli hikoyatning axloqiy-ta'limiy ta'siri ham kattadir."<sup>10</sup> Bu darslikda o'quvchilarni mukammal bilim olishga, hunar o'rganayotganda sinchkovlik bilan o'rganishga, har bir inson barkamol shaxs sifatida yuksalish uchun harakat qilish kerakligi obrazlar orqali ko'rsatilgan. Aynan Navoiyning ham maqsadi shu

bo'lgan. Komil insonni tarbiyalash uchun, avvalo, uni ham aqlan, ham jismonan yetuklikka undash lozim bo'ladi. Bu darslikda ma'lumotlar to'liq holda berilgani uchun ham o'quvchida nisbatan kengroq tasavvur, tushuncha, bilim hosil qila oladi, ya'ni ko'zlangan maqsadga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent- "O'zbekiston" -2016-yil 14-bet
2. A.Kattabekov, V.Rahmonov. O'zbek adabiyoti 8-sinf uchun darslik – majmua Toshkent "O'qituvchi" 1997
3. A.Kattabekov, Q.Yo'ldoshev, H.Boltaboyev. Adabiyot 8-sinf uchun darslik - majmua Toshkent "O'qituvchi" 2002
4. S.Olim, S.Axmedov, R.Qo'chqorov. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik majmua G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2006

<sup>9</sup> A.Kattabekov, V.Rahmonov. O'zbek adabiyoti 8-sinf uchun darslik – majmua Toshkent "O'qituvchi" 1997


<sup>10</sup> A.Kattabekov, V.Rahmonov. O'zbek adabiyoti 8-sinf uchun darslik – majmua Toshkent "O'qituvchi" 1997



## O'ZBEKISTONDA FOTOJURNALISTIKANI RIVOJLANTIRISH LOYIHASI

Dadaxon Raimboyev

Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq filologiya va jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi, temursirojiddinov75@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6021974>



### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021  
Ma'qullandi: 15-yanvar 2022  
Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*fotografiya, fotopeyzaj, fotoreportaj, paparasi, storytelling ;*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada fotojurnalistikani O'zbekistonda rivojlantirish usullarini bosqichma-bosqich qanday amalga oshirilishi haqida ilmiy loyiha yozilgan.*

Fotografiya — insoniyat yaratgan buyuk kashfiyotlardan biri. Tarixga bir umr muxrlangan lahzalar, siymolar, qalblar, shaharlar, qadrdon ko'chalar, yaqinlar, gapiradigan jonsiz fakt ertangi tarix. Inson suratga tushar ekan, fotokamera hayotining aynan ana shu oniy lahzasini, holatini quvonch bilan, yuzdagi tabassum bilan aks ettirishini istaydi. Ko'zlar kulmasada, jilmayadi, yonidagi qadrdoni bilan urishib qolsada uni quchoqlab, suratga tushishga intiladi. Chunki har bir inson bir umrga esdalik bo'lib qoladigan fotosuratda o'zgaralar uni baxtiyor ko'rishini istaydi. Suratkash esa uning ana shu istagini bajo keltiradi. Agarda suratkash o'z kasbining maxoratli ustasi bo'lsa, u fotosuratda hayotning oddiy bir lahzasini emas, tarixga muxrlanadigan soniyalarning aks etayotganini his etib, insonni emas, uning qalbini, tabiatning go'zal manzarasini emas, tiriklikning bir bo'lagini, jamiyatning bir kunini emas, uning yutuq va muammolarini ko'rsatishga harakat qiladi. Olamni faqat fotokamera nigohi bilan ko'radi. Axborot asrida auditoriyaga

axborotni to'liq yetkazishda fotosurat muxim ahamiyat kasb etadi. Zero, bugun fotografiyasiz ommaviy axborot vositalarini tasavvur etish qiyin. Fotosuratsiz gazeta, jurnal qanchalik ko'rimsiz, g'arib bo'lib qolishini bir tasavvur qiling-a?

Fotografiya gazeta va jurnallarni jonlantirdi, ko'rimli, qiziqarli, mazmundor qildi. Fotografiyasiz kinoni, ayniqsa hujjatli kinoni tasavvur etib bo'lmaydi. Badiiy filmdagi rollarga, ayniqsa bosh rollarga aktyor tanlash jarayonlarida bir qancha aktyorlar, oddiy odamlar fotosinovdan o'tadi. Fotogenik aktyorlar rejissyor, badiiy kengash jamoasidan rolga tasdiqlanadi. Fotografiyasiz televideniye, uning janrlari, ayniqsa, reportaj, hisobot, intervyu, suhbat, tarixiy ocherk, esselar ko'p narsa yo'qotgan bo'lar edi. Internetda ham fotoning o'z o'rnini, o'z mavqei bor. Ijtimoiy tarmoqlarda favqulodda holatlar sodir bo'lgan hududlardan qo'yilayotgan tezkor fotosuratlar jurnalistlar uchun yaxshigina axborot manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Sport musobaqalarini yoritish, ularni





bevosita ko'rmagan, tomosha qilmagan kishilarda aniq tasavvur paydo qilishda fotografiyaning o'rni katta. Masalan, yengil atletikaning eng tezkor turi yuz metrga yugurishda g'olibni aniqlash uchun ko'p hollarda fotofinishdan foydalaniladi. Futbol, xokkey o'yinlari jarayonida golni qayd etish niyatida darvoza ortida fotograflar xushyor turadi.

Fotojurnalistika — jurnalistikaning o'ziga xos turi bo'lib, voqeani bayon etishning asosiy vositasi sifatida fotosuratdan foydalanadi. Fotojurnalistikaning paydo bo'lishi bevosita fotografiya tarixi bilan bog'liq. Fotografiyaning kashf etilishida asosiy rol o'ynagan fransuzlar Nyeps va Dager, ingliz Talbot nomlari tilga olinsa, <sup>1</sup>o'zbek fotojurnalistikasining asoschilaridan Xudoybergan Devonov eslanadi. Bugungi kunda Ernest Kurtveliyev, Tursunali Kuziyev, Rustam Shokirov, Xasan Paydoyev, Xusniddin Atoev va boshqalarning mahorati va faoliyati o'zbek fotojurnalistikasining rivojiga hissa qo'shmoqda. O'zbekiston fotojurnalistika- sining tarixi jahon fotosan'atining ajralmas qismi bo'lib, Markaziy Osiyo, xususan mamlakatimiz mazkur san'atga qiziqqanlar uchun o'ziga xos poligon vazifasini o'tadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ajoyib tabiati, dunyoga mashxur tarixiy obidalari, mahalliy aholining takrorlanmas milliy o'zligi, turmushi yangi san'at shaydolarini ana shu takrorlanmas hayotni fotoapparat obyektivi orqali tanishtirishga undardi. Bunga jahon hamjamiyati ahlining Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatiga nisbatan ortib borayotgan qiziqishi ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Zamonaviy fotografiyaning axborot janrlariga xabar, fotoreportaj; badiiy publitsistik janrlariga esa fotolavha, fotocherk, fotofelyeton, fotoportret, peyzaj natyurmort kabi janrlar kirib, jahon fotojurnalistikasida ular biroz farq qiladi. Janrlar bir-birini to'ldirib, boyitib boradi. Yevropa va Amerika fotojurnalistika maktablarida janrlar tasniflanishi o'zbek matbuotshunosligi tasnifidan biroz farqi bor. Fotografiyaning jurnalistik ijodiy mahsulot sifatida qanday namoyon bo'lishi, ifoda yo'sini va vositalarigina emas, balki materialning mavzulari ham hisobga olinishi g'arb fotojurnalistikasiga hos xususiyat hisoblanadi.

Fotojurnalistikada janr xususiyatlari eng muhim jihatlardan biridir.

Fotoxabar dolzarb mavzudagi axborotlarni ichida ifodalaydigan fotojurnalistika janri bo'lib, ulardan vaqtli matbuot va internet nashrlarda keng foydalanilmoqda.

Fotoreportaj bir nechta fotoasarlardan iborat bo'lib, unda voqea-hodisaning turli jihatdan tasvirlanishi nazarda tutiladi. Fotoreportajning o'ziga xos xususiyati, unda ko'p qadrlı tasviriy qatorning mavjudligidir. Endi qisman xorij fotojurnalistikasi turlari xususida ham so'z yuritsak. Storitelling Adabiyotlarda "storitelling" — "hikoya qilish" janri real voqeadagi real odamlarning surati, deb ta'riflanadi. Odamlar, xatti-xarakatlar va voqealar boricha, sodir bo'layotgan paytida rasmga olinishi bilan harakterlanadigan storitelling ko'p tomonlama fotoreportaj janrini eslatadi. Paparassi. Kutilmagan vaziyatlar, olomon ichida olingan mashxurlar, muxim insonlarning surati yoki biror yig'ilish yoki voqeaga kelgan hukumat vakillari yoki estrada yulduzlarining "qizil yo'lakcha"dagi surati.

Internet jurnalistikada fotosuratning o'rni muxim ahamiyat kasb etadi. OAV veb-sayti

<sup>1</sup> A.Karimov, N.Qosimova, K.Ismoilova, Audiovizual jurnalistika. VI jild. Toshkent „O'zbekiston" 2019 V-9





yoki biror-bir tashkilotning onlayn saxifasini yaratish va shu orqali maqsadli auditoriyani yuridik shaxsning siyosati, faoliyati, taklif etayotgan xizmatlari bilan tanishtirish zamon talabiga aylandi. Bugungi kunda albatta, milliy fotojurnalistikaning yangi avlod vakillari yetishib chiqmoqda. Biroq ushbu avlod fotojurnalistlarining ijodiga nazar tashlar ekansiz, ular eng zamonaviy fototexnikadan, ularning murakkab imkoniyatlaridan samarali foydalanayotganligi qanchalik bilinsa, shunchalik yetarlicha “maktab” ko`rmaganliklari sezilib turadi. Bugungi kunda fotojurnalistikani „umri tugadi“ga chiqarib qo`yganlar anchagina.

Ushbu maqoladan asosiy maqsad O`zbekistonda fotojurnalistikani bosqichma-bosqich rivojlantirish usullarini ilmiy loyiha asosida ko`rsatib berish. Ilmiy loyihaning maqsadi esa fotojurnalist kadrlarni tayyorlash va O`zbekistonda raqobatdosh fotojurnalistikani shakillantirish. Demak loyiha asosiy uchta qismdan iborat bo`ladi. 1. Oliy ta`limning har bir jurnalistika yo`nalishida alohida fotojurnalistika darsi joriy qilinishi talabalarga nazariy bilimlar ya`ni fotojurnalistika janrlari fotojurnalistning ish maydonidagi faoliyati internet jurnalistikasi va boshqa ixtisoslashgan jurnalistika turlarida foto materialning o`rni va undan foydalanish fotojurnalistikaning tashkiliy asoslarini xorij tajribasi bilan taqqoslagan holda nazariy ta`lim berish birinchi bosqich hisoblanadi. 2. Ikkinchi bosqichda esa nazariy olingan bilimlar fototexnika va rangli fotokamera orqali ranglar harakati mavzuga doir surat tanlash mahoratini amaliy orgatib borishdan iborat bo`ladi. 3. Uchinchi bosqich har bir ommaviy axborot vositalarida fotojurnalistika orqali axborot

berib borish. Masalan televideniya-dagi anonslar, gazetadagi kichik xabarlar fotografiyaning maxsus janrlarida berib borilsa bu ham fotojurnalistikaning rivojlanishiga turtki bo`ladi. Televideniyaning biror anonsida mahsulotni fotosuratlar orqali kichik ma`lumotlar bilan berish yoki ob-havo ma`lumotlarini video-audio bilan tasvirlamasdan o`sha hudud foto xaritasini ko`rsatish, so`ngi yangiliklarni fotosuratlar orqali auditoriyaga yetkazish audio va video bilan axborot berishdan ko`ra tezkor bo`ladi gazetalarda ham butun varaqni egallab turadigan maqolalar bilan emas sur`atlar bilan axborot berilsa joy tejaladi, avvalgiga qaraganda ko`proq ma`lumot berish imkoni oshadi.

Qisqa qilib aytadigan bo`lsam ommaviy axborot vositalarida fotojurnalistikadan foydalanish orqali avvalo tezlik ya`ni biror yangilikni repartiyor tasvirga olib unga audio yozib mantaj qilaman deguncha xuddi shu yangilikni fotojurnalist 1-2 ta surat bilan auditoriyaga shu vaqtning o`zida yetkaza oladi. Bu nafaqat tezlik balki ortiqcha vaqt sarflanishini ham oldini oladi. Ikkinchidan shu kungacha auditoriya axborotlarni video va audio orqali bilib kelgan endi esa yangiliklar fotojurnalistika orqali suratlar bilan berilsa auditoriyani qiziqishi yanada ortadi deb o`ylayman, chunki psixologiyada ham isbotlanishicha odamlar biror suratga qarab o`z fikrlarini bildirishni, uni tasvirlashni yaxshi ko`rishadi ya`ni fotojurnalist tomonidan berilgan suratga qarab o`zlari fikrlab axborot olishadi. Bu ularning diqqatini oshirishga, e`tiborli bo`lishga, har tomonlama chuqur fikrlash qobiliyatini oshirishga katta yordam bo`ladi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan shuni aytishim mumkinki fotojurnalistika ko`p



narsalarning rivojlanishiga turki bo'ladigan kerakli sohadir.


Yangi texnologiyaning cheksiz imkoniyatlari fotomuxbirning tezkorligi, tasvirni to'g'ri tanlay bilish, mazmun va shakl uyg'unligiga e'tiborni kuchaytirish san'ati va maxorati bilan yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ma'lumki, yaxshi fotosurat yaxshi reportajdek o'quvchiga kerakli ma'lumotni berishi mumkin. Agar surat o'quvchi e'tiborini tortsa, u albatta tagso'zga ko'z yugurtiradi. Suratga munosib tagso'z topish, izoxlashda to'g'ri

iboralar topa bilish xam ijodkordan yuksak maxoratni talab qiladi. Bunda suratlardagi shaxslar, joylar, obyektlarning nomlarida xatoliklarga yo'l qo'ymaslik kerak. Fotomuxbir tasvirga olingan obyektни ta'riflashda, albatta, taxririya ijodiy jamoasi bilan xamkorlik qilishi kerak. Chunki tasvir boshqa, tavsif boshqa. Bugun ko'plab bosma nashrlar sarlavxalarida suratlari maqolalarga mos tanlanmaganligi xolatlarini uchrab turadi. Zamonaviy jurnalist nafaqat maqola yozishni, balki sifatli suratga olishni xam bilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Karimov, N.Qosimova, K.Ismoilova, Audiovizual jurnalistika. VI jild. Toshkent „O'zbekiston" 2019 yil
2. Brezin A. Fotojurnalistika. M., 2006 yil
3. Qayumov A. Fotojurnalistika. Toshkent, 2011 yil.
4. Masharipova Fotojurnalistika janrlari.Nokis, "Qoragalpaqstan", 2006 yil.





## MEVA VA SABZAVOTLARDAGI MINERALLARNING MIQDORINI ELEKTROFIZIK USULDA ANIQLASH

Raxmatullayeva Gulira'no Valijon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6022767>

Hozirgi kunda texnikaning jadal rivojlanishi yoqilg'i energiyasiga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Ammo energiya zaxiralari tugab borayotganligi sababli, ushbu energiya o'rnini bosadigan boshqa energiya turlarini izlab topishga zarurat tug'iladi. Ana shu muammo ustida jahon olimlari ish olib bormoqdalar. Nanotexnologiyaning rivojlanishi kelgusida kam tok talab qiladigan har xil elektron asboblarni yaratishga olib keladi. Hozirda kam energiya talab qiladigan texnik asboblarni yaratish fan oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik maxsulotlarida potentsiallar farqi hosil qilinganda ularda oz miqdorda bo'lsada elektr tokining yuzaga kelishi asosida, kelgusida ular tarkibidagi minerallarning miqdorini ana shu elektr toki yordamida aniqlaydigan kichik ixchamli qurilmalarni yaratish imkoniyati tug'iladi.

Biz ana shu maqsadda sabzavot maxsulotlarida, aynan kartoshkada, potentsiallar farqi hosil bo'lgandagi elektr tokining nimalarga bog'liqligini o'rganishdan boshladik.

Bu borada Isroillik olimlar kartoshkadan energiya manbai sifatida foydalanish borasida o'zlarining ilmiy ishlarini olib borganlar. Ular bir necha kvadrat mis plastinka va rux plastinka olib, ularni mis-rux, rux-mis tartibda qatlam qatlam joylab, har bir qatlam orasiga suvga shimirtirilgan qog'oz joylab, unga voltmetr

ulab unda EYUK hosil bo'lishini ko'rsatganlar.

Agar yuzasi katta bo'lgan elektrodlar olib, ushbu sistemani biror bir idishga joylab, xuddi shunday sistemalarni ketma-ket ulasak, biror bir qo'l telefonini zaryadlay oladigan batareyani tuzish mumkin bo'ladi.

Isrusalim Universiteti qishloq xo'jalik fakulteti professori Xaim Rabinovich va aspirant Aleks Golberglar boshqa noan'anaviy usuldan borishdi. Ular kartoshkadan batareya sifatida foydalanishni taklif qilishdi. Bunda ular artilgan kartoshkani mis va rux plastinkalar orasiga mahkam siqilgan holatda joylashtirganlar. Plastinkalarni voltmetrga ulab unda EYUK hosil bo'lishini payqaganlar. Yuqoridagi tajribalarning birinchisida erigan tuz ikkinchisida kartoshka tarkibidagi suyuqlik elektrolit vazifasini bajargan.

Bu hodisa yangilik emas albatta, sabzavot va mevalarda tok mavjudligi oldindan ma'lum. Bizning maqsadimiz sabzavot aynan kartoshkada tok mavjud bo'lishini bilgan holda, tokning elektrodlar orasidagi masofa, elektrodning uzunligi, kartoshkaning massasi, kartoshka tarkibidagi tuzlar miqdori hamda kartoshkaning turli xil kimyoviy o'g'itlar bilan oziqlangan-oziqlanmaganiga, ya'ni uning sifatiga qanday darajada bog'liqligini o'rganishdan iboratdir.




Ushbu maqsadda quydagi ishlar olib borildi:

1. Dastavval biz turli xil meva va sabzavotlarda elektr tokining qanday miqdorda uchrashini bilish uchun tajribalar o'tkazdik. Bunda biz mikroampermetrdan foydalandik. Mikroampermetrning musbat tomondagi simga mis, manfiy tomondagi simga rux sim uladik. Agar biz ikkala qutbga ham bir xil metal ulasak unda tok kuchi miqdori nolga teng bo'ldi. Buning sababi turli xil metallarda potentsiallar farqi turlichaligidir. So'ng biz kartoshka, piyoz, limon va olmada tokning o'rtacha qanday miqdorda uchrashini bilib oldik (1-jadval).

1-jadval

Meva va sabzavot nomi	Kartoshka	Piyoza	Limon	Olima
Tok kuchi, $\mu A$	25	23	24	30




1-rasm

Bunda biz shuning guvohi bo'dikki tok kuchining miqdori avvaliga yuqori bo'lib keyin asta-sekin pasayib bordi. Ya'ni elektrodni tiqqanimizda mikroampermetr strelkasi yuqoriroq nuqtani ko'rsatib, vaqt o'tishi bilan strelka ko'rsatishi pastga tomon siljidi. Birinchi tajribalardan shunday xulosaga keldikki, meva va sabzavotlarda kam miqdorda bo'lsa ham tok kuchini hosil qilish mumkin va u

elektrod vazifasini o'taydigan metalning turiga ham bog'liq ekan. Shuningdek vaqt o'tishi bilan elektrolit vazifasini o'tayotgan meva va sabzavotlar tarkibidagi suyuqlikdagi tok kuchi kamayib borar ekan.

2. Keyingi tajribalarimizda biz meva va sabzavotlardagi tok kuchi miqdorining elektrodlar orasidagi masofaga bog'liqligini o'rgandik. Bu tajribalarni biz kartoshka va olmada o'tkazib ko'rdik. Bunda biz elektrodlar orasidagi masofani o'zgartirib borgan holda tok kuchi o'zgarishini kuzatdik (1-rasm). Biz bir necha tajribalar o'tkazib quydagi



2-rasm


o'rtacha grafikka ega bo'ldik. Grafikdan ham ko'rinib turibdiki tok kuchi elektrodlar orasidagi masofaga teskari proporsional ekan. Bunda 1-grafik nordon olma uchun, 2-grafik kartoshka uchun. Bu tajribalardan biz shunday xulosaga keldikki, meva va sabzavotlardagi tok kuchi elektrodlar orasidagi masofaga teskari bog'liq, ya'ni masofa ortib borgani sari tok kuchi kamayib borar ekan.

3. Keyingi tajribalarimizda biz meva va sabzavotlardagi tok kuchining elektrodning uzunligiga bog'liqligini tekshirdik. Bu tajribada kartoshkadan foydalandik. Bunda biz elektrod uzunligini oshirib borgan holda meva va sabzavotlardagi tok kuchi o'zgarishini kuzatdik (2-rasm). Grafikdan ham ko'rinib turibdiki, meva va sabzavotlardagi tok



kuchining miqdori elektrodning uzunligiga deyarli tog'ri proporsional ekan. Biz bu tajribalardan shunday xulosaga keldikki, meva va sabzavotlardagi tok kuchining miqdori elektrodning uzunligiga bog'liq bo'lib, elektrodning uzunligi oshib brogan sari tok kuchining miqdori oshib borar ekan.

4. Keyingi tajribalarimizda biz meva va sabzavotlardagi tok kuchining ularning massasiga bog'liqligini tekshirib ko'rdik. Bu tajribani biz kartoshka va olmada o'tkazdik. Tajribada kartoshka va olmaning massasini kamaytirib borgan holda ulardagi tok kuchining o'zgarishini tekshirdik va quyidagi 3-rasmga ega bo'ldik. Grafiklarning birinchisi kartoshkaga ikkinchisi olmaga tegishli. Grafiklardan ko'rinib turibdiki, meva va sabzavotlardagi tok kuchi ularning massasiga deyarli bog'liq emas ekan. Biz bu tajribalardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, meva va sabzavotlardagi elektr toki ularning massasiga bog'liq emas, ya'ni 20g massali kartoshkadagi tok kuchi bilan 120g massali kartoshkadagi tok kuchlari




3-rasm

teng miqdorda.

5. Keyingi tajribalarimizda biz meva va sabzavotlar tarlibidagi tok kuchining undagi turli xil mineral tuzlarga bog'liqligini tekshirib ko'rdik. Bunda biz kartoshka tarkibiga NaCl (osh tuzi) ning suvdagi eritmasini jo'natdik. Ma'lumki, kartoshka hajmida bo'shliq bo'lmaganligi sababli eritmani shpris ordali jo'natganimizda kartoshka uni shimmedi.

Shuning uchun kartoshka hajmida g'ovak hosil qilib, unga eritmani soldik va kartoshka uni shimishi uchun uni ikki kun qo'ydik. Ikki kundan so'ng undagi tok kuchini tekshirib yana eritma solib ikki kun kutdik. Eritma hajmini oshirib borib tajribani bir necha marotaba takrorladik va quyidagi 4-rasmdagi natijaga erishdik. Birinchi grafik kartoshka uchun, ikkinchi grafik olma uchun. Grafikdan ko'rinib turibdiki, kartoshka va olma tarkibidagi tuzli eritma miqdori ortgan sari ulardagi tok kuchining miqdori ortib bormoqda. Bu tajribalardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, meva va sabzavotlardagi tok kuchi ular tarkibidagi turli xil tok o'tkazuvchi tuzli eritmalar hajmiga bog'liq bo'lib, eritmalar miqdori katta bo'lsa tok kuchi ham katta bo'lar ekan.

6. Keyingi tajribamizda biz turli xil kimyoviy o'g'itlar bilan oziqlangan va oziqlanmagan kartoshkalardagi tok kuchlari orasidagi farqni o'rgandik. Bunda elktrodlar uzunligi va ular orasidagi



4-rasm

masofani ham hisobga oldik va quyidagi 2-jadvaldagi natijalarga erishdik. Bunda har ikki juftlikda elektrodlar orasidagi masofa va ularning uzunligi bir xil.

**2-jadval**







№	O'g'it bilan oziqlanmagan kartoshka, $\mu A$	O'g'it bilan oziqlangan kartoshka, $\mu A$
1	28	31
2	27	30
3	20	25
4	25	29
5	25	30

Biz bu tajribadan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, o'g'it bilan oziqlangan va oziqlanmagan kartoshkalardagi tok kuchlarining miqdori bir oz farq qiladi . Sababi ular tarkibidagi


mineral moddalar miqdorida bir oz bo'lsada farq bor.

Yuqorida olingan natijalar asosida shunday xulosaga keldikki kelajakda meva va sabzavotlardagi biotokga asoslanib ushbu mahsulotlar tarkibidagi minerallar miqdorini aniqlab beruvchi ixcham qurilma yaratish mumkin va har birimiz oddiy uy sharoitida iste'mol qilayotgan mahsulotlarimiz tarkibini bimalol aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. Bizning yuqoridagi tajribalarimiz bu borada olib borilgan ilk uslubiy qadamlardir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jdanov L.S., Jdanov G.L. Fizika, M.:Nauka,1984
2. Frish S.E.,Timoreva A.V., Umumiy fizika kursi, Toshkent.: O'qituvchi,1965
3. <http://svetosmotr.ru>.





## ZAMONAVIY JURNALISTIKANING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI

Turayeva Lobar Ikrom qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi

lobarturayeva02@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6022869>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

janr, Tom Spppard,  
Napoleon, Korrektor,  
content, Kopirayter, PR-  
menejer, Facebook,  
LinkedIn, Instagram,  
YouTube.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada bugungi kunda jurnalistikaning yutuq va kamchiliklari, jahon miqiyosida yuz berayotgan o'zgarishlar, kasb majburiyatlari va jurnalistikaning yangilanayotgan qiyofasi, yangi stillar va yangi yo'nalishlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, jurnalistlarning ko'z qarashlari solishtirmasining statistik tahlillari ham keltirib o'tilgan. Ushbu maqolani yozishdan maqsad, jurnalistikaning yangi tizimlarini o'rganish va an'anaviy jurnalistikaning o'ziga xosligini saqlab qolishda zarur choralarni ko'rish haqida mulohaza qilinagan.*

Bugungi davr jurnalistikasining boshqa kasblar singari, o'ziga xos xususiyatlari ko'p. Biz ko'pincha jurnalist uchun asosiy narsa - ajoyib narsalarni yaratish, uning qaysi janrdaligini ahamiyati yo'q degan fikrni eshitamiz. Yana bir taklif bor: jurnalistika janrlari haqidagi tushunchalar doimo muqobil bo'lmaydi, chunki konsepsiyaning "janr" mazmuni doimo o'zgarib turadi va murakkablashadi. Lekin nazariyaning o'zi, umuman olganda, janrning o'zi yetarli darajada rivojlanmagan. Buni turli tadqiqotchilarning janrlar "to'plami"ni taklif qilganligi tasdiqlaydi.

Tarixan olib qaraydigan bo'lsak, "janr" deb belgilangan asarlar turi ham nazariyotchilar, ham amaliyotchilar qarashlarida, ob'ektiv ravishda mavjud bo'ladi. Jurnalistikada yaratilgan barcha ommaviy asarlar janrlar bo'yicha bir qator bo'linish tamoyillari asosida taqsimlanadi. Har bir alohida material ma'lum xususiyatlarning tarkibi ekanligi ayon

bo'ladi. Bu xususiyatlar nisbatan erkin, muallifning maxsus ijodiy harakatlari natijasida (matnda nima bo'lsa va nima uchun ko'rsatilishi kerakligini oldindan belgilab qo'yganda) paydo bo'ladi.

Shuningdek, janrning to'g'ri ifodalanishi professional muloqot jurnalistlarini yaratadi. Matnning ma'lum bir janrga murojaat qilishiga imkon beradigan bir xil muhim xususiyatlar to'plami mavjud bo'lishi lozim. Avvalo - jurnalistika mavzusining o'ziga xosligi va ushbu materialni yaratgan muallifni qanday ko'rsatib berishni ifodalashi kerak.

Jurnalistik matnlarning janrga bog'liqligini oldindan belgilab beruvchi ma'lumotlar to'plamini shakllantirishda voqelikni aks ettirish usullarining roli, (bizni qiziqtiradigan nuqtai nazardan) jurnalistikaning nutq sub'ektining roli ancha muhimroqdir. Jurnalistikada xaritalashning uchta asosiy usuli mavjud - faktik, tahliliy va vizual shaklli. Ular o'quvchiga sub'ektning ob'ektga dastlabki



hissiy idrok etishdan tortib to mavhumlikka, uning nazariy rivojlanishiga, so'ngra - aniq ob'ektning boyitilgan, to'liqroq tasvirini yaratishgacha bo'lgan "kirish" ning ma'lum darajalariga vositachilik qiladi. "Ishonchim komilki, agar sizning maqsadingiz dunyoni o'zgartirish bo'lsa, jurnalistika buning uchun eng samarali va tezkor quroldir", — deydi britaniyalik dramaturg Tom Spoppard.

Bugungi kunda barcha jurnalistika sohasini tanlaganlar o'z oldiga jurnalist o'zi jamiyat uchun nima qila oladi? Yaxshi jurnalist nimasi bilan ajralib turishi lozim? Bugungi zamonaviy jurnalistikaga nimalar tahdid soladi va bu sohaga qiziqqanlar uni tanlashi kerakmi? Degan savollarni qo'yishi lozim.

Jurnalist - bu yangilik yaratuvchi shaxs. Jurnalistlar siz va men yashayotgan axborot maydonini tashkil qiladi. Misol uchun, biz radioda ertalabki ko'rsatuvlarni tinglaymiz, kunduzi internet nashrlaridagi maqolalarni o'qiyamiz va videolarni tomosha qilamiz, kechqurun esa televizorda yangiliklar dasturlarini ko'ramiz. Jurnalistning mehnati tufayli biz muloqot doiramizdan tashqari ma'lumotlarni o'rganamiz - ertaga ob-havo qanday prognoz qilinadi, yangi modeldagi gadjet sotib olishga arziydimi, sayyoramizning boshqa nuqtalarida nima sodir bo'layotgani, mamlakatimizda sodir bo'layotgan yangiliklarning barchasi bizga jurnalist tilidan yetib keladi. Shunday ekan, jurnalist bo'lmaganda, dunyoda katta sukunat va umumiy axborotsizlik paydo bo'lgan bo'lar edi.

Jurnalistika kasb sifatida qadim zamonlardan beri ma'lum va jamiyatda unga nisbatan bildiriladigan munosabat hali ham juda noaniq. Bir tomondan, erkin matbuot jamiyat muammolarini ochib

beradi. "Jurnalist - qalam bilan ishlaydigan ko'cha tozalovchi", deydi Napoleon. Boshqa tomondan, matbuot hech qachon to'liq erkin bo'lmagan. To'g'ridan-to'g'ri senzura haqida gapirmasak, nashrlar va telekanallar mustaqil bo'lib qolishi mumkin emas. Ularga ommaviy axborot vositalarini moliyalashtiradigan mijozning fikri yoki masalani shakllantirgan ishlab chiqarish muharririning fikri ta'sir qiladi. "Kolumnistlar - mayda galantereya sotuvchilari. Ularning ota-onalari ularni yanada aqlliyoq kasbni egallashga majbur qilishdi, lekin ularning tug'ma iste'dodi hali ham o'z yo'lida", - deydi Karl Kraus (avstriyalik yozuvchi va publitsist) kinoya bilan.

Jurnalist - o'nlab turli kasb egalarining umumiy nomi. Jurnallar va televideniya yangiliklar yaratish uchun butun jamoa ishlaydi:

- ✓ Muxbir - muxbir asosiylardan bo'lib ishlaydi: ma'lumot to'playdi, intervyu beradi, birlamchi ma'lumotlarni oladi va qayta ishlaydi.
- ✓ Sharhlovchi - tahlilchi sharhlar, maqolalar, tekshiruvlar, sharhlar, tahliliy intervyular va hokazolarni yaratadi va tayyorlaydi.
- ✓ Korrektor - matnlardagi xatolarni tuzatuvchi texnik mutaxassis.
- ✓ Muharrir va bosh muharrir - masalaning umumiy kontseptsiyasi uchun mas'ul bo'lgan mutaxassis.
- ✓ Teleradio boshlovchisi - yangiliklar va ko'rsatuvlarni efirda taqdim etadi.

Yangiliklarni e'lon qilishda jurnalistlar boshqa ijodiy kasblar vakillarizsiz ishlay olmaydi: fotojurnalist, dizayner, maket dizayneri, operator, ovoz muhandisi. Jurnalist muayyan janrga - axborot, tahliliy yoki ijodiy jurnalistikaga ixtisoslashishi mumkin. Yoki u muayyan mavzuda ishlashi



mumkin: siyosat, iqtisod va biznes, sport, gloss (moda va uslub), fan va texnologiya. Jurnalistikaga bo'lgan robotlashtirish tahdidi ehtimoldan ancha yiroq, chunki faqat inson, inson uchun yaxshi, hissiyot uyg'otuvchi matn yozishi mumkin. Ammo, an'anaviy bosma jurnalistika Internet va ijtimoiy tarmoqlar tomonidan hujumga uchramoqda. O'quvchiga yangiliklar, heshteglar yoki flesh-mob haqida gazeta maqolasi emas, balki instagramdagi vloglarning posti aytib bermoqda. Jurnalistlar material tayyorlashda ma'lumot yig'ish doirasini kengaytirishi lozim. Chunki, mashhur odamlar o'zlari haqida nafaqat telekanalga bergan intervyularida, balki oddiygina Instagram sahifalarida ham gapirishlari mumkin. Endi deyarli hamma o'z ijtimoiy tarmoqlarida jurnalist bo'lishi tabiiy. Shu sababli, eng erkin matbuot- o'quvchilar uchun an'anaviy nashrdan ko'ra ko'proq ishonadigan shaxsiy bloglarga aylandi. Bunday sharoitda professional jurnalistlar nima qilishi kerak? Stillni o'zgartirish va zamon bilan hamnafas bo'lish lozim. Blog yozish professional bo'lmagan mualliflarga qaraganda yaxshiroq va erkinroq. Bunda to'g'ri va xolis bo'lish muhim sanaladi. Bugungi elektron ommaviy axborot vositalarida professional tomonidan "kontent" degan mashhur so'z bor. Demak, professional jurnalist eng yuqori sifatli kontent yaratishi mumkin va odamlarni unga jalb qila oladi.

Stiv Uotson - jurnalist, publitsist, u turli aviakompaniyalar uchun borda jurnallar yaratgan. Stiv har oy obunachilarga yangi, noma'lum jurnal yuboradigan Stack xizmatini ochgan. U dunyo bo'ylab sayohat qilib, har bir jurnalni o'zi yaratgan. O'zi jurnallarni o'rganishni yaxshi ko'rgan. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yuksalishi jurnalistikada yangi yo'nalishlar

paydo bo'lishiga olib keladi. Jurnalistlar quyidagi kasblarni tengma-teng olib borishadi:

- Kopirayter – kompaniya veb-saytida reklama va maqolalar uchun matnlar yozuvchi mutaxassis.
- Kontent menejeri – turli aloqa kanallari (vab-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, jurnal, youtube va boshqalar) orqali auditoriya bilan muloqot qilish strategiyasini ishlab chiqadigan mutaxassis.
- PR-menejer - reklama va jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis.
- Ichki aloqalar bo'yicha mutaxassis - korporativ tadbirlarni o'tkazuvchi, ichki ijtimoiy tarmoqlarni yurituvchi va jurnal chiqaradigan xodim.
- SMM-menejer – ijtimoiy tarmoqlarda kontent yaratish orqali global axborot makonida kompaniya imidjini shakllantiruvchi mutaxassis.
- Rerayter - bu vab-sayt yoki ijtimoiy tarmoqlar uchun tayyor matnni moslashtirgan mutaxassis.
- Blogger "o'zi uchun jurnalist".

Jurnalist bo'lishning ijobiy va salbiy tomonlari ham mavjud. Ijobiy tomonlariga turli janrlarda materiallar yarata olish, yangi tanishlar orttirish va muloqot jarayonlarida ko'proq ishtirok etishdan iborat bo'lsa, salbiy tomoni tartibsiz tadbirlar jadvalining yuzaga kelishi, ayrim hollarda yuqori stressga berilish va favqulodda vaziyatlarga duch kelish kabilar.

Bugungi yaxshi jurnalist qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerak? Muloqot qobiliyatiga ega bo'lishi, malakali yozishi va gapirishi, hissiy intellekti yuqori bo'lishi, analitik fikrlay olishi, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati, tolerantlik, chiroyli ko'rinish, energiya, ijodkorlik. Eng asosiysi, jurnalist xoli va



to'g'ri yondasha olishi lozim. Shaffoflik uning oliy prinsipiga aylanishi kerak.

Jurnalistikaning bu o'zgaruvchan tabiatiga nafaqat jurnalist tabiati va ehtiyojlari uchun, balki o'quvchilarimiz ham bunga javobgardir. Bu o'zgaruvchan muhit shunchalik o'zgardiki, gazeta va jurnalistlarning so'zlarini qalamkashning tuyg'ularidan ajratib qo'ydi. Buning natijasi shuki, bugungi kunda jurnalist o'z ixtiyori bilan hech narsa yoza olmaydi, chunki u o'z o'quvchisining quli bo'lib, o'quvchi xohlagan narsani yozishi kerak. Bundan tashqari, jurnalist o'z hayotiyligini ko'rsatib, yangiliklardan faktlarni oshkor etishni maqsad qilgan bo'lsa ham, o'sha yangilik gazeta guruhi tamoyillari va reklama tenderlarini taklif qilish orqali chang qutisini bezatadi. Bu narsalarni filtrlash orqali o'sha yangiliklar filtrlanadi va asosiy narsalar bilan birga saqlangan bo'lsa, u holda bu yangiliklarni sahifada chop etish mumkin. Ana shunday vaziyatda ushbu xabar chiqqani uchun jurnalistning bu yangilikka bo'lgan halolligi, mehnati ortda qolib, muharrir va yuqori mansabdor shaxslarning sadoqati bilan o'z o'rnini egallaydi.

Bugungi jurnalistika bozor va biznes bosimi ostida qolgan. Ommaviy axborot vositalari odamlarni xabardor qilish asosidan chetga chiqib, pullik xabarlar shakli katta shaklda paydo bo'ldi. Ommaviy axborot vositalarida "pullik yangiliklar"ning kuchayishi nafaqat mamlakat va jamiyat, balki jurnalistika uchun ham xavflidir. Pullik yangiliklar kasallik emas, balki kasallikning alomatidir. Uning kelib chiqishi boshqa joyda. Bu yo'nalishda ijobiy fikrlash kerak. Ommaviy axborot vositalari jamiyatning nufuzli qismiga aylandi, ammo bugungi kunda bu ustunga kapitalistlarning ta'siri

kuchaymoqda, bu esa mamlakat va jamiyat uchun halokatlidir.

Bugungi ommaviy axborot vositalari jamiyatga shunchalik ta'sir ko'rsatdiki, u har qanday odamni o'zgartirishi va martabaga qo'yishi mumkin. Ammo gap shundaki, ommaviy axborot vositalari shunchalik katta kuchga ega bo'lgandan keyin ham har tomondan tanqidga quloq solishga majbur bo'ladi, chunki uning yo'nalishi bosim yoki chegarani o'zida namoyon qiladi.

Jurnalistika mamlakatning to'rtinchi ustunidir. Mamlakatning sud, qonun chiqaruvchi va ijroiya kabi muhim ustunlarini kuzatib borish uchun ishlaydigan gazeta bugun o'zining asl faoliyatidan kamchiliklarga yo'l qo'ymoqda. Jurnalistlarning platformalari, ustuvor yo'nalishlari va umidlari bugun har qachongidan ham tez o'zgarimoqda. Shu bilan birga, jurnalistlar, ijtimoiy tarmoqlar o'rtasidagi munosabatlar, ular kontentni qanday baham ko'rishlari va hatto PR mutaxassislariga qarashlari rivojlanmoqda. O'tgan vaqt mobaynida e'lon qilingan materiallarning COVID-19 bilan bog'liq. Bu, albatta, tabiiy hol. Bugungi kunda jurnalistika quyosh ostidagi hamma narsa atrofida aylanadi. Agar siz pandemiyani dunyo, biznes va iqtisodiyotga ta'siri haqida o'ylasangiz, nima uchun bu qadar ko'p jurnalistlar mavzuni yoritganini tushunasiz. Shuningdek, jurnalistlarning 86 foizi COVID-19 ularning ishiga ma'lum darajada ta'sir qilganini, 19 foizi esa qaysidir ma'noda ishdan bo'shashiga ta'sir qilganini ma'lum qilishgan.

Jurnalistlarga kasblariga nisbatan optimizmlari haqidagi savol berilganda, ularning sharhlari ikkiga ajraladi. Jurnalistlarning 58 foizi o'z kasbiga optimistik, 42 foizi esa pessimistik





yondashadi. Bu bugungi kunda jurnalistika oson kasb bo'lmashligining sabablaridan biri ham aynan shundandir. Shu bilan birga jurnalistlardan yangiliklar olish uchun qayerga murojaat qilishlari ham so'ralgan. 58 foiz jurnalist yangiliklarni boshqa onlayn gazeta va jurnallardan olishini, 16% o'z yangiliklarini Twitterdan topishini ma'lum qilgan. Shuningdek, jurnalistlar o'z yangiliklarini tarmoqlar, bosma gazetalar, radio, onlayn axborot byulletenlari, boshqa ijtimoiy media platformalari va podkastlardan ham olishadi.

Jurnalistlardan qaysi ijtimoiy tarmoqni eng qimmatli deb bilishlarini so'rashganida, 76 foizi Twitter'dan foydalanishini aytgan. Qizig'i shundaki, bu o'tgan 2020 yilga nisbatan 11 foizga kamaygan. Jurnalistlar odatda foydalanadigan boshqa ijtimoiy tarmoqlar – Facebook, LinkedIn, Instagram, YouTube, Reddit va TikTokdir. Kelajakda jurnalistlarning 37 foizi Twitter, 28 foizi LinkedIn, 26 foizi Instagram va 23 foizi YouTube'dan foydalanishda ko'proq vaqt sarflashi taxmin qilingan.

Jurnalistikada bir necha xil maqola yoki jurnalistik janr turlari mavjud. Eng mashhurlari qatoriga yangiliklar, intervyular, reportajlar, sharhlar kiradi. Yangilik jurnalistikadagi eng muhim janr

turidir. Uning maqsadi nima, qayerda, qachon, qanday, nima uchun va kim kabi savollarga imkon qadar betaraf va xolisona javob berish orqali axborotni yetkazishdir. Yangilikning maqsadi odamlarga nima bo'lganini aytib berishdan iborat. Yangilik shakli yuqori darajada standartlashtirilgan va muntazam ravishda to'ntarilgan ehrom strukturasi shaklida bo'lishi lozim.


Har bitta jamiyat o'z jurnalistikasini o'zi yaratadi. Uning rivoji, kamol topishi, yoki, aksincha sensuza qolipida qolib ketishida jamiyat yaratgan muhit ham katta ro'l o'ynaydi. Jurnalistikani o'rgatish va talqin etishda asosan, nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliyotni ham barobar olib boorish kerak. Har bitta jurnalist tanlagan yo'nalishi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lsagina, u yaratgan Maqola yoki material qaysidir muammoni hal qilishga, chora topishiga yordam bera oladi.

Jurnalistika – shaxsiyat kasbi emas. Bu sohaning yo'lidagi asosiy to'lqin jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlardir. Shunday ekan, har bitta vaziyatga yondashish jarayonida xolislik va shaffoflik tamoyilidan ildamroq foydalanish lozim. Shundagina, kasb mohiyatini anglab yetsa bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini bir galikda quramiz. 2017 yil 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HAKKATLAR STRATEGIYASI.
2. Pidavev T.R.- O'zbekiston matbuotining o'tmish va kechmishi. O'zbekiston matbuoti, 1996,2,3,5-sonlar.
3. Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasining shakllanishi va ravnaqi. (XIX asr oxiri va XX asr). – T., 1998.
4. Mo'minov F. A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. – T., 1998.
5. Bob Abelman & Cheryl Rushner A theater criticism/ arts journalism primer refereeing the muses / New York 2016





**GASTRIT — SABABLARI, ALOMATLARI, TASHXISLASH, DAVOLASH, DORILAR, ASORATLARI, OLDINI OLISH**

**Shernazarov Farrux Farhod o'g'li**

Samarqand Davlat Tibbiyot Insituti

Shernazarov9592@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6023027>

**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

*Oshqozon yarasi belgilari va alomatlari, oshqozon yarasi sabablari, operatsiya o'tkazishga ko'rsatmalar.*

Me'daning yara kasalligi. Me'da yarasining 3 turi farq qilinadi (Jonson, 1965):

1. turi - me'da kichik egri yaralari - meziogastral yaralar;
2. turi - me'da va o'n ikki barmoq ichakning qo'shma yaralari;
3. turi - prepilorik yaralar.

Ko'pincha (60% hollarda) 1 tipga oid yaralar va 20% da II va III tiplarga oid yaralar uchraydi.

Me'da va o'n ikki barmoq ichakning qo'shma yaralari birlamchi duodenal yara, pilorostenoz va evakuatsiya buzilishlari natijasida antral staz ro'y berishi bilan bog'liq.

Prepilorik yaralar (3 turi) paydo bo'lishining patogenetik mexanizmlari o'n ikki barmoq ichak yaralarining paydo bo'lishiga o'xshashdir.

Me'da yara kasalligining klinik manzarasi ko'p jihatdan yara joylashgan joyga, yoshga, qarab asoratlar paydo bo'lishiga bog'liq.

Kardial og'riqlar xanjarsirmon o'siq sohasidagi og'riq bilan kechadi, bel sohasiga, chap yelkaga, yurak sohasiga o'tadi, shu sababli og'riqni

**ANNOTATSIYA**

*Biz avvalo sog'lom turmush ta'rzini o'zimizdan boshlashimiz kerak, hozirda keng tarqalgan kasalliklardan biri bu oshqozon me'da kasalliklari asosiy sababi ovaqat rejimini buzilishi oqibatida kelib chiqadi usbu ma'qolada bu haqda batafsil yoritiladi.*

stenokardiyadagi og'riq deb o'ylaydilar.

Og'riq ovqat yeyish

bilan bog'liq bo'ladi, ovqat yeyishdan 20-30 minut o'tishi bilan paydo bo'ladi.

Mediogastral yaralar aksariyat 40 dan oshgan kishilarda paydo

bo'ladi. Asosiy belgisi - ovqat yeyilgandan va 30-60 minut o'tgandan keyin og'riq huruj qiladi

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bu kasallikdan dunyo aholisining 14 foizi aziyat chekadi.

Ko'pincha, oshqozon yarasi 20 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan erkaklarda tashxis qilinadi — 70% ga yaqin hollarda. Katta yoshlilarda kasallik biroz kamroq aniqlanadi — taxminan 20% hollarda. So'nggi vaqtlarda ayollar orasida kasallikning ko'payishi tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Kasallikning kuzatilishi chastotasi yosh va jinsgagina emas, balki shaxsning kasbiy faoliyatiga ham bog'liq. Shunday qilib, oshqozon shikastlanishi xavfi bilan ishlaydiganlar, masalan, kosiblar, shuningdek muntazam ravishda suyuq oziq-ovqatlarni iste'mol qilish imkoniga



ega bo'lmaganlar, masalan temir yo'lchilar bu kasallikdan ko'proq aziyat chekishadi. Bundan tashqari, bir mamlakatning turli hududlarida oshqozon yarasi turli xil chastotalarda uchraydi, bu mahalliy aholi ovqatlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

Gastrit yoxud oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishi eng ko'p uchraydigan inson kasalliklaridan biridir. Statistika ko'ra, odamlarning taxminan 80-90% ularning hayoti davomida kamida bir marta kasallik epizodini boshdan kechirishgan. Keksalik davrida 70-90% gacha kishilar gastritning turli shakllaridan aziyat chekishadi. Gastritning surunkali shakli yarali kasallik, oshqozon saratoniga aylanishi mumkin

#### **GASTRIT NIMA? KASALLIK HAQIDA**

Gastrit — bu oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishi bo'lib, kasallik ushbu a'zo vazifalarining buzilishiga olib keladi. Gastrit sodir bo'lganda oziq-ovqat yomon hazm qilinadi, bu esa kuchsizlik va energiya yetishmasligiga olib keladi. Gastrit, ko'pchilik kasalliklar kabi, o'tkir va surunkali shaklda kechadi. Bundan tashqari, gastrit me'da shirasi nordonligining pasaygani, normal va yuqoriligi bilan farqlanadi.

Hozirgi kunda gastritni asr kasalligi deb atash mumkin. Undan kattalar ham, bolalar ham birdek aziyat chekmoqda.

Gastrit patologiyaning rivojlanishiga sababchi bo'lgan turli xil ichki va tashqi omillar bilan tavsiflanadi. Klinik jihatdan yallig'lanish shaklida (o'tkir yoki surunkali) kechadi. O'tkir yallig'lanish qisqa muddat davom etadi. Konsentratsiyalangan kislotalar, ishqorlar va boshqa kimyoviy moddalar bilan oshqozon shilliq qavatining shikastlanishi xavfli oqibatlarga (o'limga) olib kelishi mumkin.

Kasallikning surunkali shakli oshqozon shilliq qavatining atrofiyasi bilan xavflidir. Natijada, oshqozon bezlari normal ishlamay qo'yadi. Sog'lom hujayralar o'rniga atipik hujayralar paydo bo'la boshlaydi. Oshqozon shilliq qavatini o'z-o'zini tiklash muvozanatining buzilishi — oshqozon yarasi va saratoni rivojlanishining sababchilaridan biridir.

Oshqozon — ovqat hazm qilish tizimining eng nozik qismi hisoblanadi. Unda kamida uchta murakkab hazm qilish jarayonlari mavjud: oziq-ovqat to'ppasining mexanik aralashuvi, oziq-ovqat mahsulotlarini kimyoviy parchalash va oziqa moddalarining so'rilishi.

Gastritda ko'pincha oshqozonning ichki devori — shilliq qavati shikastlanadi. Ushbu qavatda bir-birini bartaraf qiluvchi hazm qilishning ikki komponenti — me'da shirasi va himoyalovchi shilliq ishlab chiqariladi.

Oshqozonda ovqat hazm qilinishi — organizmning nozik sozlangan biokimyoviy jarayoni hisoblanadi. Bu oshqozon shirasining normada nordon pH muhiti (uning asosiy komponenti xlorid kislotasi) bilan tasdiqlanadi, shuningdek, uning turli qismlarida nordonlik ko'rsatkichlarining farq qilishi bilan ham. Yuqori nordonlik (pH 1,0-1.2) oshqozonning boshlang'ich qismida kuzatiladi, past nordonlik (pH 5.0-6.0) esa oshqozonning ingichka ichak bilan ulangan joyida. O'n ikki barmoqli ichakda esa pH ishqoriy muhitga ega.

Gastritda yoqimsiz his — jig'ildon qaynashi — birinchi navbatda, oshqozon-ichak trakti bo'limining biron qismida kislotashqor muvozanati buzilishi natijasi sanaladi. Bundan tashqari, oshqozonning alohida qismlarida kislotashqor muvozanatining me'yoridan chetlashishi — past yoki yuqori nordonlik kuzatiladigan gastrit patogenezining asosida yotadi.



Hazm jarayonida qo'pol ta'sir: oziq-ovqat va kimyoviy zaharlanish, me'daga safro chiqarilishi, ichak infeksiyalari, ayrim dorilari muntazam qabul qilish, gazlangan, alkogolli ichimliklar va boshqa omillar oshqozon shilliq qavati holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mikrob omili gastrit rivojlanishiga jiddiy ta'sir qilishi isbotlangan.

Hazm qilish jarayoniga qisqa muddatli salbiy ta'sirlar quyidagi tabiatili o'tkir yallig'lanish shaklidagi klinik belgilar bilan cheklanadi:

1. Kataral;
2. Fibrinoz;
3. Nekrotik;
4. Flegmonoz.

Kataral gastrit noto'g'ri oziqlanish va oziq-ovqatdan yengil zaharlanish bilan bog'liq. Fibrinoz va nekrotik gastrit odatda og'ir metallar, to'yingan kislotalar va gidroksid tuzlari bilan zaharlanish natijasida yuzaga keladi. Flegmonoz gastrit oshqozon devorining mexanik jarohatlanishi bilan bog'liq.

Zaiflashgan organizmga uzoq muddatli ta'sirlar surunkali patogenez rivojlanishiga olib keladi, bu oshqozon devoridagi yarali jarayonlar bilan og'irlashadi. Gastritlar oshqozon-ichak tizimda onkologik jarayonlarning sababchisi bo'lishi mumkin.

Odamlarda oshqozon gastriti xilma-xil namoyon bo'lishi uning murakkab tasnifi bilan bog'liq. Gastritning klinik belgilarini batafsil o'rganish gastroenterologlar uchun davo usullarini qo'llashda juda zarurdir. Bizning holatda esa bu kasallikning turli shakllarini tasvirlash bo'lib, u o'quvchilarda gastritning umumiy ko'rinishini tushunishga biroz bo'lsa ham yordam beradi.

#### **GASTRIT ALOMATLARI VA BELGILARI**

Gastrit har xil alomatlar bilan tavsiflanadi, biroq aniq namoyon bo'lmasdan ham kechishi mumkin. Eng o'ziga xos belgisi — epigastriya (qorinning yuqori qismi)

sohasidagi og'riq bo'lib, ayrim oziq-ovqatlar, suyuqliklar va oshqozonga salbiy ta'sir qiluvchi dorilar qabulidan keyin kuchayadi. Ba'zan og'riq ovqatlanishlar oralig'ida kuchayadi. Gastritda achchiq oziq-ovqat, alkogolli ichimliklar, gazlangan ichimliklar va shu kabi boshqa mahsulotlar qarshi ko'rsatiladi, ularni iste'mol qilish kasallikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Muhim, biroq, doimiy bo'lmagan gastrit belgilariga jig'ildon qaynashi, qayt qilish va kekirish kiradi. Kasallik ba'zida oshqozon damlanishi va tez-tez gaz ajralishi bilan namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan belgilarning ikkitasi yoki undan ko'pi qorin og'rig'i bilan birga kuzatilsa, gastritdan shubhalanishga sabab bo'ladi.

Achchiq mahsulotlar, dori va agressiv suyuqliklarning qabulidan keyin qorin og'rig'i boshlanishi ham gastrit mavjudligini ko'rsatadi.

Surunkali gastrit belgilarini aniqlash ancha qiyinroq. Uzoq vaqt davomida kasallik alomatlari ich ketishi yoki qabziyat, hojat chiqarishning davriy tartibsizligi, tilida karash paydo bo'lishi, tez charchash, qorin qurillashi va meteorizm bilan cheklangan bo'ladi.

Surunkali shaklda gastrit, odatda, hayot sifatini pasaytirishidan tashqari bemorning klinik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Yengil shaklda surunkali gastrit ich qotishi va ich ketishi bilan xarakterlanadi. Surunkali shaklda yuqoridagilardan tashqari tez-tez gaz chiqarish, kamqonlik, uyquchanlik, sovuq terlash, kuchaygan peristaltika, og'izdan noxush hid kelishi kuzatiladi.

#### **NORDONLIK PASAYGANDA KUZATILADIGAN ALOMATLAR**

- Kam nordonli gastritning eng keng tarqalgan belgilari:
- Og'izda doimiy noxush ta'm mavjudligi;



- Ovqatdan keyin qorinda og'irlik;
- «Achigan tuxumli» kekirish;
- Qorin qurillashi;
- Ertalabki vaqtlarda ko'ngil aynishi;
- Defekatsiya muntazamligi bilan bog'liq muammolar;
- Og'izdan noxush hid kelishi.

### **GASTRITDA OSHQOZON OG'RIQLARI**

Gastralgiya — qorin devoridagi og'riqlar — gastritning muhim belgisi. Biroq qorin og'rig'i qorin bo'shlig'ining boshqa kasalliklarida ham kuzatilishi mumkin va bu «o'tkir qorin» deb ataladi. Yoqimsiz histuyg'ular kesuvchi, ezuvchi, bosuvchi, otuvchi, yonish va boshqa og'riqlar shaklida bo'ladi.

O'tkir qorin sindromi — appenditsit, xolesistit, pankreatit, oshqozon saratoni, reflyuks, ichak tiqilishi va boshqa patologiyalar bo'lishi mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan og'riqlarning barchasi u yoki bu darajada qayt qilish, ko'ngil aynishi, ich qotishi, diareya, tana haroratining ortishi bilan birga kuzatiladi. Gastralgiyaga o'xshash og'riqlar miokard infarkti, yurak va o'pka membranlarining yallig'lanishi, qovurg'alar sinishining alomati bo'lishi mumkin. Oshqozon og'rig'i ichakdagi virusli, bakterial va parazitlar patologiyalarda, ayollarning o'ziga xos muammolari, nevrozlar, qandli diabet kasalliklarida kuzatilishi mumkin.

Uy sharoitida og'riq aynan gastritga tegishli ekanligini bilib olish mumkin. Gastrit uchun eng xos bo'lgan va «o'tkir qorin»ni boshqa kasalliklarda ajratib turuvchi alomat bu og'riqning quyidagi holatlardan keyin kuchayishidir:

Ovqatlanishdan keyin, ayniqsa oziq-ovqat achchiq va dudlangan bo'lsa;

Alkogolli ichimliklar yoki ma'lum dori-darmonlarni, ayniqsa nosteroid yallig'lanishga qarshi dori-darmonlarni ichishdan keyin;

Uzoq vaqt ovqatlanmaslikda.

Klinik mahoratsiz va laboratoriya va instrumental tadqiqot usullaridan foydalanmasdan oshqozonda og'riq paydo bo'lishining boshqa variantlari boshqa kasalliklar alomatlari bilan osonlik bilan adashtirilib yuborilishi mumkin.

### **O'TKIR GASTRIT**

Kataral gastrit agressiv dori preparatlari (aspirin va boshqa NYQPlar), zararli ichimliklar (alkogolli ichimliklar, tez-tez gazli ichimliklar ichish) va og'ir ovqat (yog'li, tuzlangan, marinadlangan, dudlangan) ta'siri natijasida rivojlanadi. Shuningdek o'tkir gastrit toksikoinfektsiyalar fonida (salmonellyoz va boshqalar), buyrak va jigar yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda ham rivojlanishi kuzatilgan.

Gastritning o'tkir shakllari oshqozon-ichak trakti bilan bevosita bog'liq bo'lmagan patologiyalar (pnevmoniya, muzlash) bilan qo'zg'atilishi mumkin. Bu oshqozon devorlarining yallig'lanishiga olib keladigan o'pkaning og'ir yallig'lanishlarida qonda oksidlanmay qolgan mahsulotlarning to'planishi bilan izohlanadi. Klinik amaliyotda stress fonida rivojlangan gastrit ham qayd qilingan.

Fibrinoz va nekrotik gastrit kuchli kislotalarni (sirka, xlorid kislotasi, sulfat kislotasi) yoki ishqorlarni atayin yoki tasodifiy iste'mol qilish oqibatida rivojlanadi. Kasallik kuchli og'riqlar bilan birga kechadi.

Flegmonoz gastrit — oshqozon devorlarining jarohatlanishi oqibatida (yutib yuborilgan igna, shisha, mix) paydo bo'ladi. Kasallik oshqozon devorlarining yiringli yemirilishi bilan namoyon bo'ladi.

Kataral (oddiy) o'tkir gastritning belgilari kriz omilining ta'siridan 5-8 soat o'tgach paydo bo'ladi. Patogenez epigastriya (qorin chigali) sohasidagi yonish hissi bilan





boshlanadi . Bu sohada og'riq paydo bo'ladi, ko'ngil aynishi, qusish, og'izda metall ta'mi kuzatiladi. Toksikoinfeksiyali gastrit alomatlari tana haroratining ko'tarilishi, doimiy qusish va ich ketishi bilan to'ldiriladi. Og'ir holat qonli qusish bilan ifodalanadi — bu korroziv (nekrotik) gastritdan dalolat beradi. Flegmanoz gastrit peritonitning alomatlari: qorindagi taranglik, shok holati bilan namoyon bo'ladi.

### **SURUNKALI GASTRIT**

Kasallik dastlabki bosqichlarida aniq alomatlarsiz kechadi. Muntazam ravishda muayyan mahsulotlarga sezuvchanlik (ya'ni jig'ildon qaynashi va qorin dam bo'lishi) kuzatiladi. Ko'pincha oshqozonda to'lib qolganlik hissi seziladi, tilda karash va o'ziga xos naqsh paydo bo'ladi.

Gastritning surunkali shakli har qanday yoshda rivojlanishi mumkin. Kasallik xuruj va so'nish davrlari bilan tavsiflanadi. Xuruj olish davrida surunkali gastrit belgilari kasallikning o'tkir shaklining alomatlaridan farq qilmaydi — og'riq, ko'ngil aynishi, ba'zida qayt qilish. Muayyan turdagi oziq-ovqatlar iste'molidan so'ng yoqimsiz his-tuyg'ular kuchayadi. Odatda, bu eslab qolinishi kerak bo'lgan mahsulotlarning ma'lum bir guruhidir va ovqatlanish ratsionida ularni cheklash yoki chiqarib tashlashga harakat qilish kerak.

Surunkali gastritning eng xavfli oqibati oshqozondan qon ketishi hisoblanadi. Bu qora axlat, bemorning shilliq pardalari va terisining oqarishi bilan namoyon bo'ladi. Shilliq pardaning oqimtirligi boshqa kasallik — atrofik gastrit belgisi bo'lishi

mumkin. Bu kasallik organizmda B12 vitamini tanqisligi fonida yuz beradi. Bu vitamin gematopez (qon hosil qilish) uchun juda muhimdir. Atrofik gastritda oqimtirlikdan boshqa yaqqol belgilar kuzatilmaligi mumkin. Kasallik xavfi, bu oshqozon epiteliysida saraton hujayralari rivojlanishining ehtimolligidir. Gastrit belgilari fonida kamqonlikning aniqlanishi salomatlik holatini yanada aniqroq o'rganish uchun muhim sababdir.

Inson tanasi katta himoya resurslariga ega, shuning uchun hayot tarzini o'zgartirish, parhezga rioya qilish va to'g'ri belgilangan davolanish gastritning har qanday shaklidan tiklanish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

### **GASTRITGA QARSHI DORILAR**

Gastritni davolash va oldini olish uchun gastroenterologlar arsenalida dori vositalarining bir necha farmakologik guruhlar mavjud, jumladan:

Detoksidlovchi preparatlar (antidotlar) — faollashtirilgan ko'mir, smekta, o'ziga xos antidotlar;

Antatsidlar (adsorbentlar) — faollashtirilgan ko'mir, kvastslar (almazilat, alyuminiy fosfat, vismut subnitrat, vismut trikaliy disitrat), gidrotaltsit, diosmektit, sukralfat;

Antiseptik va dezinfeksiyalovchi vositalar (vismut subnitrat);

Antidiarreal (ich ketishiga qarshi) dorilar (diosmektit);

Tetrasiklin antibiotiklari (doksisiklin);

Antigistaminlar (H2 subtip) — famotidin, simetidin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://mymedic.uz>
2. Chest, Abdomen and rheumatology doctor Mahmud Allam
3. Xirurgik Kasalliklar Karimov Sh.I Toshkent 2011





**УРАН ЕМИРИЛИШ ЗАНЖИРИ РАДИОНУКЛИДЛАРИ  
ОРАСИДАГИ РАДИОАКТИВ МУВОЗАНАТ  
КОЭФФИЦИЕНТИНИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ УСУЛДА  
АНИҚЛАШНИНГ ФИЗИКАВИЙ АСОСЛАРИ**

**Солиев Турсунбой Иззатилло ўғли**

Докторант Навоийский государственный педагогический институт

E-mail: tursunboy.soliyev@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6023340>

**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

уран, радиоактив мувозанат, активлик, радионуклид, экспериментал метод, концентрация, радиий

**ANNOTATSIYA**

*Ушбу мақолда уран емирилиш занжири радионуклидлари ўртасидаги радиоактив мувозанат коэффицентини аниқлашнинг физикавий усули ҳамда шу усулда олинган натижалар таҳлили баён этилган. Радиоактив мувозанат бузилишига таъсир этувчи омиллар аниқланган.*

**КИРИШ**

Уран таркибидаги намуналарда  $^{226}\text{Ra}$  /  $^{238}\text{U}$  ва  $^{234}\text{U}$  /  $^{238}\text{U}$  ўртасидаги радиоактив мувозанат коэффицентини аниқлаш бир қатор технологик ва радиоэкологик муаммоларнинг кўплаб саволларига жавоб топиш имконини беради. Шу сабабли, уран таркибидаги намуналарда  $^{226}\text{Ra}$  /  $^{238}\text{U}$  ва  $^{234}\text{U}$  /  $^{238}\text{U}$  ўртасидаги радиоактив мувозанат коэффицентини экспериментал аниқлаш ва мувозанат бузилишининг физикавий асосларини кўрсатиб бериш долзарб муаммолардан биридир.

Ўрганилганлик даражаси

Радиоактив мувозанат коэффицентини аниқлаш методикаси кўплаб хорижий ва юртимиз олимлари олиб борган илмий тадқиқотларда ўрганилган.

С.В.Шурыгин, В.А.Овсейчуклар ўз тадқиқотларида радиоактив мувозанат коэффицентини аниқлаш

усуллари, экспериментал қурилмалар ва олинган натижалар хусусида фикрлар баён қилинган<sup>1</sup>. В.А. Домаренко, С.В. Краморенко, А.А. Новгородцев, Е.А. Митрофанов, В.Г. Деревенецларнинг тадқиқотларида ер релъефининг ўзгариши натижасида радиоактив мувозанатга таъсир омиллари ўрганиб чиқилган<sup>2</sup>. Юқорида келтирилган тадқиқотлар асосан ишлаб чиқариш соҳасига боғланганлиги туфайли радиоактив мувозанат бузилишига таъсир этувчи физик параметрлар тўғрисида маълумотлар етарлича очиб берилмаган.

Ушбу мақолада ўлчашлар радиоактив мувозанат коэффицентини бузилишининг физикавий жиҳатлари ҳамда уни аниқлаш методикаси бўйича ўтказилган тадқиқотлар натижалари баён этилади. АСОСИЙ ҚИСМ

Уран емирилиш занжири радионуклидлари орасидаги



радиоактив мувозанат уларнинг айни вақтдаги активликларига кўра аниқланади. Бу емирилиш занжиридаги барча радионуклидлар бир — бири билан қуйидагича мувозанатда бўлади:

$$K_{pp} = \frac{A_{Ra-226}}{A_{U-238}} = \frac{A_{U-234}}{A_{U-238}} = 1 \quad (1)$$

Бу ерда,  $A(^{226}\text{Ra})$ —радийнинг активлиги,  $A(^{238}\text{U})$ —ураннинг активлиги.

Уран емирилиш занжири радионуклидлари ҳар бирининг мувозанат-даги масса миқдорлари қуйидагича ҳисоблаб топилади:

$$A_x = \frac{m_x \cdot \ln 2 \cdot N_A}{T_x \cdot \mu_x} \quad (2)$$


Бу ерда  $m_x$  — радионуклидининг мувозанатдаги масса миқдори,  $A_x$ — радионуклиднинг солиштирма

активлиги,  $T_x$  — радионуклиднинг ярим емирилиш даври<sup>3</sup>.

Формуладан кўринадики радионуклиднинг активлиги турли хил физик катталикларга боғлиқ бўлади. (2) формуладан радионуклиднинг мувозанатдаги масса миқдори формуласини келтириб чиқарсак қуйидагича тенгламага эга бўламиз:

$$m_x = \frac{A_x \cdot T_x \cdot \mu_x}{\ln 2 \cdot N_A} \quad (3)$$

(3) формула асосида радионуклидларнинг мувозанатдаги масса миқдорлари учун ҳисоблашлар натижасида олинган назарий қийматлар 1—расмдаги диаграммада келтирилган:



расм.Уран емирилиш занжиридаги радионуклидларнинг мувозанатдаги масса миқдорлари<sup>5</sup>

(1) формуладан кўриниб турибдики радионуклидлар ўртасидаги радиоактив мувозанат коэффиценти 1 га тенг бўлган пайтда мувозанатда бўлади. Лекин, саноат зоналаридан қазиб олинган намуналар таркибида радиоактив мувозанат коэффиценти турлича эканлигини кўришимиз мумкин.

Экспериментал тадқиқот қурилмаси ва методикаси Танланган намуналарда уран концентрацияси Навоий кон-металлургия комбинати Марказий илмий-тадқиқот лабораториясида ARF-7 ва XRF-1800 рентген — люминисенция анализаторлари ёрдамида аниқланди. Танланган намуналардаги радий концентрацияси Progress-GAMMA





қурилмасидаги гамма-спектрометрлик усул билан аниқланди. Экспериментда фойдаланилган экспериментал қурилмалар қўриниши ва ишлаш

принципи қўйидаги 2-расмда келтирилган.




XRF-1800



ARF-700

2<sup>а</sup>

-расм. Намуна таркибидаги уран миқдорини аниқловчи қурилма<sup>б</sup>



2<sup>б</sup>-расм. Намуна таркибидаги табиий радионуклидларнинг солиштирма активлигини кўрсатувчи қурилма<sup>б</sup>

Радиоактив мувозанатни ўлчаш учун таркибида уран изотоплари ва бошқа радиоактив изотоплар бўлган намуналар олинди. Тажрибаларда конлардан олинган 20 та намуна учун экспериментда аниқланган активликлар асосида радиоактив мувозанат коэффициентини ҳисоблаб чиқилди.

Радий(<sup>226</sup>Ra) ва уран(<sup>238</sup>U) учун радиоактив мувозанат коэффициенти ўлчанган активликлар асосида қўйидаги формула ёрдамида ҳисоблаб топилди:

$$K_{PP} = \frac{A(Ra)}{A(U) \cdot 0.34} \quad (4)$$





бу ерда,  $A(^{226}\text{Ra})$ —радийнинг активлиги,  $A(^{238}\text{U})$ —ураннинг активлиги<sup>3</sup>.

$^{226}\text{Ra}$  ва  $^{238}\text{U}$  радионуклидлари ўртасидаги радиоактив мувозанат коэффиценти қийматлари

1-жадвал


Намуна тартиб рақами	Намуна таркибидаги $^{226}\text{Ra}$ миқдори	Намуна таркибидаги $^{238}\text{U}$ миқдори	Радиоактив мувозанат коэффиценти
1	13,49	32	1,24
2	2,81	32	0,26
3	4,24	32	0,39
4	15,97	35	1,34
5	12,05	44	0,80
6	4,11	33	0,37
7	4,84	31	0,46
8	15,16	41	1,09
9	6,79	33	0,60
10	6,87	33	0,61
11	0,95	32	0,09
12	20,35	36	1,66
13	18,24	37	1,45
14	3,03	32	0,28
15	3,08	35	0,26
16	4,11	33	0,37
17	6,24	34	0,54
18	3,76	34	0,32
19	4,27	34	0,37
20	34,11	37	2,71

1-жадвалдан кўринадикки, бир хил объектга тегишли, лекин турли нуқталардан олинган намуналарда радиоактив мувозанат коэффиценти турлича қийматларга эга бўлади. Бу натижалардан уран радионуклидлари ўртасидаги радиоактив мувозанат бузилганлиги ҳақида хулоса чиқаришимиз мумкин. 1 — жадвалда  $^{226}\text{Ra}$  ва  $^{238}\text{U}$  радионуклидлари

ўртасидаги радиоактив мувозанат коэффиценти турлича эканлигини кўришимиз мумкин. Бу турлича қийматлар эса руда таркибидаги радионуклидларнинг ёши билан боғлиқ деб ҳисоблаш мумкин. Бундан хулоса қилиш мумкинки,  $K_{\text{PM}} > 1$  бўлган ҳолатда  $^{226}\text{Ra}$  нинг активлиги ураннинг активлигига нисбатан юқори бўлади ва руданинг ёши кичикроқ бўлади.








3 -расм. 1 кг уран маҳсулотига эмирилиш занжиридаги радионуклидларнинг нисбий мувозанатли масса миқдорлари

$K_{pm} < 1$  бўлган ҳолатда эса бунинг тескараси кўринади, бу ҳолат руданинг анча олдин пайдо бўлганлиги ва ундаги

радийнинг кўпроқ қисми радиоактив эмирилишга учраганлигини англатади.



4 -расм. 1 кг уран маҳсулотига эмирилиш занжиридаги радионуклидларнинг нисбий мувозанатли масса миқдорлари


Олиб борилган тадқиқот натижалардан маълум бўлдики уран эмирилиш

занжири радионуклидлари ўртасидаги радиоактив мувозанат ҳар доим



сақланиб турмайди. Буни биз 5-расмдаги диаграммада кўришимиз мумкин. Бу диаграммада кўк ранг-радионуклидларнинг мувозанатдаги миқдорлари, қизил ранг-  $K_{рм} > 1$  бўлган ҳолат учун, яшил ранг-  $K_{рм} < 1$  бўлган

ҳолатлар учун ўринли эканлигини диаграммада тасвирладик. Олинган натижалардан маълум бўлдики радиоактив мувозанат коэффиценти қиймати турлича намуналарда турли эканлигига гувоҳ бўлдик.



5 -расм. 1 кг уран маҳсулотиде эмирилиш занжиридаги радионуклидларнинг нисбий мувозанатли масса миқдорлари

Хулосалар


Олинган натижалар асосида уран эмирилиш занжири радионуклидлари ўртасидаги радиоактив мувозанат бузилишига қуйидагича сабабларни келтириш мумкин:

1. Турли изотоплар ярим эмирилиш даврларининг турлича эканлиги
2. Эмирилатган элементларнинг активликлари турлича эканлиги
3. Активлик турлича бўлгани сабабли радионуклидлар мувозанатга келиши учун улар эмирилиш вақтида турлича массага эга бўладилар. Бунга мисол қилиб 1 грамм  $^{238}\text{U}$  билан радиоактив мувозанатда бўлган  $^{234}\text{U}$

радионуклидининг массаси тахминан 54 мкг.га тенг бўлади.

4. Радионуклидлар агрегат ҳолатининг ўзгариши.

Уран радионуклиди эмирилиш занжирида радионуклидлар қаттиқ ҳолатдан газ ҳолатга ўтиши кузатилади. Масалан радийнинг радонга айланиш жараёнини қарайлик:



Бу ҳолат ўз навбатида сиқилиб қолган радионуклиднинг газ шаклида чиқиб кетишини таъминлайди.

Юқорида келтирилган тадқиқотларда аниқланган радиоактив мувозанат коэффицентиға кўра руданинг ёшини аниқлаш методикасини ҳам ишлаб чиқиш мумкин. Ушбу экспериментал





фактнинг алоҳида ҳолатлар учун тадқиқотларда ўрганилиши  
қўлланилишини ўрганиш келгусидаги режалаштирилган.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. С.В.Шурыгин,В.А.Овсейчук«Влияние коэффициента радиоактивного равновесия на сортируемость руд радиометрическими методами». Горный информационно-аналитический бюллетень.2016.№4.С 376-381
2. В.А. Домаренко,С.В. Краморенко, А.А. Новгородцев, Е.А. Митрофанов, В.Г. Деревенец «О коэффициенте радиоактивного равновесия в рудоносных отложениях хиагдинского рудного узла на примере месторождения Дыбырын (Республика Бурятия)». Материалы IV Международной конференции, г. Томск, 4–8 июня 2013 г. С 180-184
3. А.М. Музафаров «Разработка ядерно-физических методик контроля процессов извлечения золота, урана и их техногенный вклад в экосистему» .Диссертация.Ташкент – 2018
4. Музафаров А.М., Кулматов Р.А., Аллаяров Р.М. Исследование нарушения коэффициента радиоактивного равновесия между  $^{226}\text{Ra}/^{238}\text{U}$  в пробах урановых объектов. //Горный Вестник Узбекистана. №4.(83). – Навои. 2020. - С.53-55
5. Музафаров А.М., Саттаров Г.С Исследование изотопного состава урана алфа – спектрометрическим методом. //Горный Вестник Узбекистана. 2005., №2.(21). - С. 94-98..
6. Интернет маълумотлари асосида
7. Музафаров А.М., Саттаров Г.С., Глотов Г.Н. О вопросе нарушения коэффициента радиоактивного равновесия между изотопами урана. //Горный Вестник Узбекистана. 2011., №1.(44). – С.57-60.
8. Muzafarov A.M., Allaberganova G.M., Turobjonov S.M., Jurakulov A.R. Metod for conducting of uranium isotopic analysis in various natural waters of uranium-bearing regions of Uzbekistan //International Journal of Academic Multidisciplinary Research (IJAMR).October 2019.Washington DC, - p.52-55
9. Soliev T.I., Muzafarov A.M. Investigation of the causes of violations of the radioactive balance between radionuclides of the uranium decay chain //International journal multicultural and multireligious understanding. Volume 8, Issue 7 July, 2021, - p.95-101



## PANDEMIYA SHAROITIDA XOLTER ELEKTROKARDIOGRAFNING O`RNI

Raximberganov Sanjarbek Rustam o`g`li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

e-mail: sanjarbekraximberganov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6023433>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma`qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO`ZLAR

Stenokardiya, vaktsina, kundalik monitoring, Xolter elektrokardiograf, elektrostimulyator

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada vaksinatsiyadan keyingi nojo`ya ta`sirlar patogenezida va Shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniyaning patogenezida endogen faktor hisoblanuvchi stenokardiyalarni tashxislashda Xolter EKGning afzalliklari, uni qo`llashga ko`rsatmalar, qarshi ko`rsatmalar, uning ishlashi bo`yicha turlari, qo`llash bo`yicha algoritmlar ketma-ketligi haqida ma`lumotlar keltirilgan.*

Hammamizga ma`lumki, hozirgi davrda eng dolzarb muammo –koronavirus infeksiyasi keltirib chiqarayotgan kasallikdir. Undan himoyalani, saqlanishda esa asosiy omil vaksinatsiya bo`lib qolmoqda, lekin vaksinatsiyadan keyingi yuz beradigan nojo`ya ta`sirlar, asoratlari kasallikning o`ziga o`xshab ma`lum yo`nalishga, patogenezga ega emas. Shu munosabat bilan vaksinatsiyadan keskin bosh tortayotganlar ham uchramoqda. Men o`z tadqiqotlarimda shuni kuzatdimki, vaksinatsiyadan keying nojo`ya ta`sirlar bemorning o`tkazgan kasalligiga, yoshiga, jinsiga va bemorda hali namoyon bo`lmagan kasalliklarga ( latent davrdagi) bog`liq ekan. Nojo`ya ta`sirlarning rivojlanishida, asosan, yurak qon-tomir sistemasi kasalliklari yetakchi o`rinni egalladi. Aynan vaksinatsiyadan keyin stenokardiyasi borligi ma`lum bo`lgan bemorlar ham uchradi. Bulardan tashqari Shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya kasalligi keng tarqalgani bilan ajralib

turmoqda. Bu kasallikning endogen faktorlar bilan bog`liqligini o`rganish maqsadida 10 nafar bemorlarni kuzatdim va quyidagicha natijalarni oldim: Shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya tashxisi bilan Urganch shahar shifoxonasi Terapiya bo`limida davolanayotgan 10 nafar bemorda kuzatuv ishlari olib borildi. Bemorlarning 50 foizida ( 5 nafarida) yondosh kasallik sifatida yurak –qon tomir sistemasi kasalliklari: yurak ishemik kasalligi(I 20) va arterial gipertoniya(I10)) aniqlandi. Shundan 20 foizida (2nafarida) yondosh kasalliklardan Yurak ishemik kasalligi . Zo`riqish stenokardiyasi .Funksional sinf II(I 20); 20 foizida (2 nafarida) Yurak ishemik kasalligi. Zo`riqish stenokardiyasi. Funksional sinf III(I 20); bemorlarning 30 foizi (3 nafarida) esa arterial gipertoniya(I 10) borligi aniqlandi. Surunkali gepatit C(B 18.2) ham 30 foiz (3 nafarida) holatda topildi. Surunkali piyelonefrit(N11) 20 foizni( 2 nafar bemorda) tashkil etdi. Keng tarqalgan



kasallik hisoblangan anemiya (qonning hajm birligida eritrotsit va gemoglobin miqdorining kamayishi) esa 20 foizni tashkil etishi aniqlandi. O'pka to'qimasining kompyuter tomografiya xulosasiga ko'ra shikastlanishi eng baland 60 foiz shikastlangan bemorlarda AG(I 10) va buyrak tosh kasalligi borligi aniqlandi. Eng past shikastlanish aniqlangan bemorda (20-30 foiz shikastlanish) qandli diabet, anemiya borligini kuzatdik. O'rtacha zararlanish 25-45 foiz holatni tashkil etganda yondosh kasalliklar YuIK aniqlandi. Yoshi katta bemorlarda (91 yoshda) puls va nafas olishlar soni mos ravishda daqiqasiga 72marta va 22 martani tashkil etdi. Yoshi eng kichik bemorda(31 yosh) mos ravishda 95 marta va 25 martani tashkil etdi.

Kasallikning asoratini esa nafas yetishmovchiligi va ekstrasistoliya tashkil etib, nafas yetishmovchilik II daraja 20 fioz holatda ( 2 nafar bemorda) – surunkali piyelonefrit (N 11) bilan og'rikan bemorlarda; nafas yetishmaslik I daraja 10 foiz holatda (1 nafar bemorda) xolesistit(K 81) va tuxumdon kistasi mavjud bemorda; qorinchalar ekstrasistoliyasi (I 49.4) 10 foiz holatda ( 1 nafar bemorda)- AG va YuIK.Zo'riqish stenokardiyasi. Funktsional sinf III yondosh kasalligi bo'lgan bemorlarda topildi. Bulardan ko'rinadiki, bemorlarning 50%ida yurak qon-tomir kasalligi mavjud. Stenokardiyalar esa doimo asbobiy tekshirishlarda ma'lumot bermaydi, ya'ni xuruj payti ma'lumot olish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda , sutkalik yurak faoliyatini baholaydigan Xolter monitoring metodi bu vaziyatda juda samarali vosita bo'ladi.

Xolter EKG-bu kunlik EKG monitoringi bo'lib, 24, 48, 72 va undan ko'p soat davomida EKGni

(elektrokardiogramma) ro'yxatdan o'tkazish vositasi hisoblanadi. Diagnostik tekshiruv ba'zi hollarda bemorga bir vaqtning o'zida elektrodni qo'llash bilan bir vaqtda qon bosimini bir vaqtning o'zida ro'yxatga olish uchun yelkasiga qo'yiladi. Bunday holda, bu ikki funktsiyani bajaradi , ya'ni EKG qayd qiladi va qon bosimini aniqlaydi. Kundalik monitoring yurakning ishlashidagi o'zgarishlarni aniqlaydi va qon bosimi (qon bosimi) va yurak urish tezligini odatiy sharoitda kuzatadi. Ushbu usul yordamida latent yurak-qon tomir kasalliklari aniqlanadi: ishemiya, aritmiya, stenokardiyalar va boshqalar. Hozir ayrimlariga to'xtalamiz.

Stenokardiyalar- Yurak ishemik kasalligining eng ko'p tarqalgan klinik shakli hisoblanadi va aksariyat hollarda , yirik toj tomirlarni “asoratlanmagan ” aterosklerozida kuzatiladi. Turg'un zo'riqish stenokardiyalarining quyidagi to'rtta sinfi bor:

I sinf: Odatiy kundalik jismoniy zo'riqish ( yurish, zinapoyadan ko'tarilish) stenokardiya xurujlarini chaqirmaydi. Xurujlar kuchli, uzoq davom etgan va to'satdan tushgan jismoniy zo'riqishda bo'ladi.

II sinf :Odatiy jismoniy faollik biroz cheklangan. Xurujlar tez yurganda va zinapoyadan ko'tarilganda , me'yoridan ko'p ovqat yeganda yoki sovuq havoga chiqqanda , ob-havo o'zgarganda , stress holatlarida, to'shakdan turgandan keyin birinchi soatlarda , yaxshi sharoitda va odatiy tezlikda tekis yo'lda 500 metrdan ko'p yurganidanida yoki zinapoyadan birinchi qavatdan yuqoriga ko'tarilganda shakllanadi.

III sinf: Odatiy jismoniy faollik keskin chegaralangan. Stenokardiya xurujlari yaxshi sharoitda va odatiy





tezlikda 100-500 metr yurganida shakllanadi.

IV sinf: Har qanday jismoniy harakat (100 metrgacha vo'lgan masofa yurganda) stenokardiya xurujlari rivojlanishiga olib keladi. Ayrim hollarda xurujlar tinch holatda ham paydo bo'lishi mumkin.

Aritmiyalar- yurak ritmining buzilishi bo'lib, impuls hosil bo'lishining buzilishiga ko'ra quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- A) Sinus tugun avtomatizmining buzilishi (normotop aritmiyalar)
- 1.Sinusli taxikardiya
  - 2.Sinusli bradikardiya
  - 3.Sinusli aritmiyalar
  - 4.Sinus tugun holsizlik sindromi
  - 5.Sinus tuguni faoliyati to'xtashi
  - 6.Bo'lmacha asistoliyasi

B)Ektopik markaz avtomatizmi yuqoriligi sababli kelib chiquvchi geterotrop ritm

- 1.Sekin sirg'anib chiquvchi kompleks va ritmlar
- 2.Supraventrikulyar ritm bosharuvchisi migratsiyasi
- 3.Tezlashtirilgan ektopik ritm

V)Asosiy ritm avtomatizmining buzilishiga bog'liq bo'lmagan geterotrop ritmlar (ekstrasistoliya, paroksizmal taxikardiya, bo'lmachalar fibrillyatsiyasi, bo'lmachalar titrashi va qorinchalarning fibrillyatsiya, titrashi)

Ushbu diagnostika usuli uning yaratuvchisi Norman J. 1961 yilda EKGni doimiy ravishda (kun davomida) ko'chma ro'yxatga olish qurilmasi (yozuvchi) yordamida yozishni taklif qilgan Xolter nomi bilan bog'liq. Olingan natijalarni kardiogrammadagi o'zgarishlarga va insonning xatti-harakatlari o'rtasidagi sabab-ta'sir munosabatlarini kuzatish vaqtida aniqlash imkonini beradi. Agar hurujlar tez-tez (deyarli har kuni)

kuzatilsa, ushbu elektrokardiograf 24 soat davomida bemorda bo'ladi. Agar kun davomida hech qanday yomonlashuv bo'lmasa va qurilma hech qanday o'zgarishlarni qayd eta olmasa, monitoringning davomiyligi 2-3 va ba'zan 10 kungacha oshirilishi mumkin. Jarayon quyidagi hollarda belgilanishi mumkin: aritmiya; QT intervalda o'zgarish bilan kechuvchi patologiyalarda; qisqa QT intervalli sindromi; jismoniy yoki hissiy stress bilan bog'liq to'sh orqasidagi og'riq; asossiz bosh aylanishi va hushidan ketish; qon bosimining ko'tarilishi; miokard infarkti; gipertrofik kardiomiopatiya (chap qorincha devorining qalinlashishi); jismoniy yoki ruhiy stress bilan bog'liq bo'lmagan vegetativ kasalliklarning diagnostikasi (bosim tushishi, turli aritmiyalar, ko'krak og'rig'i va boshqalar); stenokardiya shubha qilish; davolash chora-tadbirlari samaradorligini baholash; elektrokardiostimulyator ishini tahlil qilish; sportchilarda ritm buzilishlarini tashxislashda qo'llanilishi mumkin.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar: Ko'krak qafasidagi o'tkir yallig'lanishli teri kasalliklaridan tashqari, Xolter monitoringiga qarshi hech qanday qarshi ko'rsatma yo'q. Monitoring har qanday yoshdagi va har qanday kasallik bilan bog'liq bo'lgan odamlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Xolter EKGni qo'llagan paytimiz bemorni tok urish xavfi bo'lmaydi. Ushbu protsedura uchun bemorni maxsus tayyorlash talab qilinmaydi. Faqat elektrodni teriga mustahkam biriktirish kerak. Teri spirt bilan tozalanadi (sensorning teriga yaxshi aloqasi uchun). Bir marta ishlatiladigan elektrodlar ko'krak qafasidagi maxsus jelga biriktiriladi va qo'shimcha ravishda yopishqoq gips bilan o'rnatiladi.



Bemorning yelkasida yoki kamarida doimiy ravishda registratorni olib yurishi kerak bo'ladi.

Xolter monitoringining ikki turi mavjud: Fragmentar-aritmiya paytida EKGni ro'yxatdan o'tkazish uchun-odatda ambulatoriya sharoitida bemorlarga buyuriladi, unda bu xurujlar kamdan-kam hollarda bo'ladi. Ko'pincha "voqea" registratori deb ataladi. Vaziyatning yomonlashuvini his qilib, bemor yozuvchiga start tugmasini bosadi va EKG yozuvi boshlanadi. Bundan tashqari doimiy ishlab turadigan rejimda ham qo'llanilishi mumkin.

Doimiy qo'llash Xolter monitoring eng keng tarqalgan amaliy turi hisoblanadi. Uning davomiyligi 1 dan 3 kungacha. Bu vaqt ichida 100 ming yurak qisqarishi haqida ma'lumot to'planadi. Ba'zi ro'yxatga oluvchilar qorincha kompleksini (QRST) tahlil qilish imkoniyatiga ega va o'ziga xos anomaliyalar mavjud bo'lsa, inson bilan aloqa qilish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, xuddi shu monitorlar kardiogramma ma'lumotlarini diagnostika markaziga yuborishlari mumkin.

Ro'yxatga olingan monitorlardan tashqari (ular eng keng tarqalgan), shuningdek, bir necha oy davomida EKGni ushlab turadigan implantatsiya qilingan registratrlar ham mavjud. Kardiogrammani ro'yxatdan o'tkazish uchun odatda 7 ta elektrod ishlatiladi. Ular bemorning tanasiga bir kun yoki undan ko'proq vaqt davomida o'rnatiladi, ya'ni bu vaqtda paxta matolaridan bo'sh kiyimlarni tanlash yaxshidir. Ro'yxatga oluvchining muammosiz ishlashi uchun magnit, elektr jihozlari (mikroto'lqinli pech, televizor,

kompyuter, planshet, telefon), metall detektorlari bilan yaqin aloqada bo'lishdan qochish kerak. Ba'zi monitorlar suvdan "qo'rqishadi", shuning uchun hammom, dushdan vaqtincha mumkinmas. Monitoring davomida bemor odatiy turmush tarzini olib boradi, faqat shifokorning tavsiyasiga ko'ra, qo'shimcha ravishda yuk testlarini bajaradi: zinapoyadan yuqoriga qarab yurish, o'tirishlar va boshqalar.:

kecha uyqu; faol faoliyat turi; jismoniy yuk; ovqat; kunlik dam olish; stressli vaziyat; yomonlashuv (bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, og'riq); dori-darmonlarni qabul qilish va boshqa holatida ushbu EKG kerakli ma'lumotlarni to'plab boradi.

EKGni uzoq muddatli monitoring bilan dekodlash kompyuterda amalga oshiriladi. Ro'yxatga olish qurilmasi kompyuterga ulanadi va saqlangan ma'lumotni o'qiydi. Aritmiya detektori yordamida tarjimon dasturi chop etilishi mumkin bo'lgan tahlil natijalari haqida xulosa chiqaradi, shunday qilib, yurak tezligini o'zgartirish va, bundan tashqari, supraventrikular va qorincha ekstrasistoliyalari, supraventrikular va qorincha taxikardiyasi, shuningdek, ST segmentini o'zgarishi va ayni vaqtda turli uzunlikdagi EKG segmentlarini yozish mumkin bo'ladi. So'nggi yillarda usulning texnikasini takomillashtirish tufayli uzoq muddatli EKG monitoringini o'tkazish sifati shubhasiz yaxshilandi. Adabiyotga ko'ra, ushbu diagnostika usulining sezuvchanligi va o'ziga xosligi 90% ga yetadi. Biroq, bu ko'rsatkichlarning bunday qiymati faqat EKGni avtomatik baholash va sharhlash uning vizual nazorati bilan to'ldirilganda va kerak bo'lganda tuzatilganda erishiladi.



## MALEIN ANGIDRIDNING BENZIDIN VA 1,2-ETANDIOL BIS (4-AMINOBENZOAT) BILAN REAKSIYALARI

Turayeva Xurshida Kamalbaeyvna

Toshkent farmasevtika instituti assistenti (PhD), e-mail: torayevah@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6023509>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Malein angidrid, benzidin, 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat), 2-xlor-4,6-dimetoksi-1,3,5-triazin, aseton, dixlormetan, yupqa qatlam xromatografiya, IQ-spektroskopiya, xromato-mass-spektrometriya.

**Muammoning kelib chiqishi.** Malein kislotaning amidli va imidli hosilalari qimmat reaktivlardan biri bo'lishining sababi, maleinimidlar sintez qilishda mavjud bo'lgan usullarning kamchiliklari ya'ni, ulardan foydalanish zarurati, ba'zi hollarda esa olinishi qiyin bo'lganligi yoki juda ko'p ishlatilish sohalarining mavjudligi. Shu munosabat bilan maleinimid olinishida arzon reagentlardan foydalangan holda sintez usullarini rivojlantirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Bu yo'nalishda ayniqsa izo-menimidlarning sintezi va kimyoviy xossalari to'g'risida kamroq ma'lumotlar mavjud, ammo mavjud nashrlarda ushbu birikmalarning yuqori amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan. Shuning uchun ushbu yo'nalishdagi ishlarni rivojlantirish dolzarb vazifadir.

### ANNOTATSIYA

Malein angidridni diaminlardan benzidin va 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat) bilan olib borilgan reaksiyalari asosida malein kislotaning monoamidli, bis-amidli va bis-maleinimidli, izo-maleinimidli birikmalarini olishning qulay usullarini topish ustida ilmiy izlanishlar olib borildi, reaksiya sharoitlarini tahlillari o'rganildi. Aniqlangan va taklif qilingan usullar orqali reaksiyaning borishida erituvchi va haroratning ta'siri ma'lum misollari va qonuniyatlar asosida tahlil qilindi. Olingan birikmalarning tozaligi yupqa qatlam (YuQX) va gaz suyuqlik xromatografiyalari (GSX), shuningdek, tuzilishi IQ-spektroskopiya, xromato-mass-spektrometriya usullar yordamida isbotlangan, shuningdek, spektr tahlillari muhokamasi orqali tasdiqlangan.

**Ishning maqsadi.** Malein angidridning benzidin va 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat) bilan reaksiyalarini o'rganish va reaksiya sharoitlarini tahlil qilish, sintez qilingan yangi turdagi malein kislotaning monoamid, bis-amid, imid va izo-imidli birikmalarning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar orqali o'rganish.

**Ilmiy yangiligi.** Birinchi marta malein angidridning benzidin va 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat) bilan reaksiyalari olib borildi va yangi turdagi mono, bis-amidli, izo-maleinimidli hosilalari sintez qilishning yangi usullari ishlab chiqildi. Olingan moddalarning IQ-spektri, xromato-mass-spektrometriya usullari tahlil qilindi va strukturalar tasdiqlandi.



**Kupuu.** Maleinimid guruhi tutgan birikmalari tibbiyotda semizlik, gipertrigliceridemiya, turli yallig'lanishlarga qarshi [1], chekishga qarshi [2] vositalar sifatida qo'llaniladi va hozirgi kunda ko'krak saratoni kasaligiga, *Staphylococcus aureus*, *Klebsiella pneumoniae*, *Candida albicans* patogen mikroorganizmlarga qarshi faolligi [3], shuningdek, antivirus va OITSga qarshi hossalari ham aniqlangan [4]. Undan tashqari sanoatda sintetik elimlar ishlab chiqarishda [5], yuqori texnologiyali muhandislik sanoati sohalari: aerokosmik, avtomobil va samolyot ishlab chiqarish, elektronika, elektrotexnikada termoplastik materiallarni tayyorlashda asosiy xom ashyo sifatida qo'llanilishi juda yaxshi samara beradi [6-10]. Parfyumeriyada shampun, muss, balzamlar tarkibiga maleinimidning izobutilen maleinimid, malein kislotasining dimetilefiri sopolimerlar ko'rinishida soch ildizini mustahamlab, o'stirish va jilo berish vositalari sifatida qo'shiladi [11]. Qishloq ho'jaligida malein kislotaning ko'plab hosilalari pestisidlar sifatida ishlatiladi, chunki ular yuqori insektisid, fungisid va gerbisid faolligini namoyish etadi [12-14].

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, malein kislotaning azot tutgan hosilalarining ko'plab sintez usullari o'rganilgan. Malein kislota monoamidlarni imid sikliga aylantirish eritmada qizdirilganda yoki eritma holda oson kechadi. Maleinimidlarning bir bosqichli sintezi bir muncha murakkabroq jarayondir. Malein kislota monoaminlarni yuqori haroratda qizdirilganda faol qo'sh bog' hisobiga polimerlanish reaksiyalar borib, smolalanish sobir bo'lishi hisobiga hosil bo'ladigan imidlarining unumi keskin pasayib ketadi. Zamonaviy organik

kimyoda maleinimidlarni sintez qilish uchun turli hil usullar qo'llanilgan. Eng qulay va keng tarqalgan laboratoriya usuli, ikki bosqichli usul bo'lib, bu malein kislota monoamidining dastlabki sintezi va keyingi halqalanish reaksiyalaridir. Birinchi bosqichda hosil bo'ladigan mahsulot asosan eritmada cho'ktirib olingan. Ushbu reaksiyalar odatda dietil efir, benzol, toluol, aseton, TGF, DMFA, sirka kislota va boshqa erituvchilarda olib borilgan. Agar, malein angidridning diaminlar bilan reaksiyalar olib borilsa, unda komponentlarning nisbatiga qarab, mono va bis-maleinamid kislotalar hosil bo'ladi [15]. Ikkinchi bosqichda esa malein kislotaning monoamidini degidratlash uchun turli xil suvsizlantiruvchi moddalar bilan tegishli maleinimidga halqalanish olib borilgan. Ushbu reaksiyalarni amalga oshirish uchun kerak bo'lgan yumshoq sharoitni ta'minlaydigan mahsus usullarda qo'shimcha suvsizlantiruvchi reagentlar talab etilgan, buning uchun ko'pincha kislotalar va ularning hosilalaridan foydalanilgan. Bunday reagentlar ro'yhati keng bo'lib, eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri bu sirka angidridning suvsizlantirilgan natriy asetat yoki ruh asetatlar bilan olib borilgan an'anaviy usullardir [16]. Ushbu reaksiyalar ishlab chiqarish jarayonida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kamchiligi sirka angidrididan ko'p miqdorda foydalanish zarurati bu iqtisodiy jihatdan samarasizdir [17-21]. Shuningdek halqalanishni p-toluol sulfokislota ishtirokida va DMFA erituvchisida olib borish mumkin, lekin reaksiyon aralashma tarkibidan p-toluol sulfokislota ajratib olish birmuncha qiyinchilik tug'diradi [22, 23]. Maleinimid hosilalarini toza holda ajratib olishning muqobil usuli bu, Dil's-Al'der reaksiyasidir.





Bu usul orqali faol qo'sh bog'ni himoyalab reaksiya bosqichli olib borilgan [24-29] Bu usulning afzalligi shundaki, qo'shimcha suvsizlantiruvchi katalizatorlar talab etilmasligi ta'kidlangan. Lekin ushbu usulning ham ma'lum darajada kamchiligi mavjud, ya'ni ortiqcha bosqichlar soni ortishi asosiy mahsulot unumining kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Fazalararo kataliz usuli asosida N-arilmaleinimidlarni sintez qilishning sodda va samarali usulini tavsiflashgan va 70-98% unumlar bilan turli aromatik tipdagi maleinimid birikmalari olingan [30]. Aromatik va alifatik maleinimidlar sintezida organik aproton erituvchilarda DMFA, DMSO, DMAA va boshqalar orqali ajralib chiqqan suvni azeotrop haydash uchun noorganik kislotalardan foydalanib sof holda mahsulotlar olish mumkin [31, 32]. Maleinimidlar olinishining bir bosqichli usulida ham, ikki bosqichli usulda qo'llaniladigan erituvchilar va katalizatorlardan foydalanish mumkin [33, 34]. N-Alkilmaleimidlarni sintez qilishda maleinimidga turli radikal tutgan spirtlar ta'sir ettirish usulidan biri bu Misunobu reaksiyasidir [35, 36]. Malein kislota monoamidlarining halqalanishi izo-maleinimidlarni hosil qilishi mumkinligi aniqlangan. 5-Iminofuran-2(5H)-onlar maleimidlarning tarkibiy izomerlari hisoblanadi va shu sababli ular adabiyotda ko'pincha izo-maleimidlar deb nomlanadi. Izo-maleinimidlar sintezidagi yutuqlarni sarhisob qiladigan dastlabki ishlardan biri N,N'-disiklogeksilkarbodiimid, shuningdek, etilxlorformiat yoki triftorsirka kislota angidridning trietilamin bilan birgalikda past yoki xona haroratida sintezlar amalga oshirilgan [37]. Mualliflar tomonidan malein kislota monoamidlarini izomalenimidlarga halqalantirishda 2-xlor-

1,3-dimetilimidazoliniy xlorid trietilamin bilan birgalikda ishlatish mumkinligi aniqlangan [38]. Izo-maleinimidlarni sintez qilish uchun suvsizlantiruvchi vosita sifatida 1,3,5-trixlortriazinni qo'llash usuli aytilgan. [39]. Propanfosfor angidrididan foydalangan holda malein kislota monoamidlaridan N-o'rnini bosuvchi izo-maleinimidlarni sintez qilish uchun ekologik toza va tejamkor, havfsizroq usulni tavsiflaydi [40]. Izo-maleimidlarni sintez qilish organik sintezda muhim ahamiyatga ega bo'lgan birikma hisoblanadi. Chunki aynan izo-maleinimiddagi karbonil guruhidagi uglerod atomi faollashgan bo'lib, aynan shu uglerodga ikkinchi almashingan amin guruhini kiritish orqali malein kislotaning diamidli hosilalarini sintez qilish mumkinligi aytilgan [41].

Adabiyotlar tahlili asosida xulosa qilib shuni aytish mumkinki maleinamidlar sintez qilish uchun reaksiyasining yo'nalishi boshlanqich aminning asosiligi va tuzilishiga, erituvchi tabiati va haroratga bog'liq bo'lsa, maleinimidlarni sintez qilishda esa degitratlovchi reagentlar va reaksiyani olib borish haroratiga bog'liq bo'ladi.

**Tahlil usullari.** GC-MS-spektr: «Agilent Technologies 7890 N Network GC system» nomli firma xromato-mass spektrometriyasida mass selektiv detektorli «5977 A MSD» DRUGS SKAN.A1 M metod orqali ichki yuzasi 5% li fenilmetilsiloksan bilan qoplangan uzunligi 30 m kapilyar kolonka ishlatilib, injektorning 280°C haroratida, termostatning harorati 150°C dan 289°C gacha ko'tarilishi 1 min. oralig'ida 10°C ni, analiz vaqti 26,67 daqiqani tashkil etadi.

Moddalarning tozaligi yupqa qatlam xromatografiya (YuQX) (Pre-coated TLC





sheets ALUGAM® Xtra SIL G/UV<sub>254</sub>), ochiltirgich-UB lampa (kamera).

**Metodlar va materiallar.** Malein angidridning aromatik diaminlar bilan reaksiyalari natijasida mono- va bis-maleinamidli hosilalar hosil bo'ladi. Mono-almashingan maleinamid sintezida reagentlarning nisbatlari muhim ahamiyatga ega. Dastlabki tajribalarni aromatik diaminlardan benzidin bilan olib borildi. Olingan mono- va bis-maleinamidli hosilalarning tuzilishi fizik va kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilindi. Malein angidridning bu yo'nalishdagi reaksiyalarini turli erituvchilar yordamida amalga oshirildi. Benzidinning malein angidrid bilan ekvimolyar miqdordagi reaksiyasi asetonda olib borilganda tegishli malein kislotaning monoamidi 65% unumlar bilan hosil bo'lishi aniqlandi. Malein angidridning benzidin bilan nukleofil birikishi ekzotermik, issiqlik ajralishi bilan borganligi uchun reaksiyalar 20°C dan past haroratda olib boriladi. Benzidinning malein angidrid bilan 1:2 nisbatlarda reaksiyalari ham asetonda olib borildi va tegishli bis-amidi sintez qilib olindi. Reaksiya natijasida olingan monoamid **A** 64%, bis-amidi **B** esa 92% unum bilan sintez qilindi [42]. Benzidinning 2MA bilan reaksiyasini CH<sub>2</sub>Cl<sub>2</sub> erituvchida olib borilganda bis-amid **B** hosil bo'lishi 97% unumga oshganligi ma'lum bo'ldi.


N-4-(4'-Aminobifenilil)maleinamid  
(**A**) yashil-sarqish kukunsimon modda, T<sub>suyuq.</sub>=212-214°C. Rf=0,31 (silufol, sistema benzol:metanol 1:1). IQ-spektri (ν, sm<sup>-1</sup>): 1499.90 (ν, δ-N-CO-), 1558.34 (νC=C, ArH), 3053.32 (ν=C-H, ArH), 812, 709 (δ=C-H, ArH), 1627.86 (νC=C), 1666.99 (νC=O).

(2Z, 2'Z)-4,4'-(bifenil-4,4'-diilbis(azandiil))bis(4-oksobuten-2 kislota)

(**B**) sariq kukunsimon modda, T<sub>suyuq.</sub>=238-240°C, Rf=0,28 (silufol, sistema benzol:metanol 1:1). IQ-spektri (ν, sm<sup>-1</sup>): 1518 (ν, δ -N-CO-), 1558.34 (νC=C, ArH), 3053.32 (ν=C-H, ArH), 850, 762 (δ=C-H, ArH), 1627.67 (νC=C), 1693.94 (νC=O).

Keyingi tajribalarda diaminlardan 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat) bilan malein angidridni reaksiyasi amalga oshirildi. Dastlab 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat)ni sintez qilish asosida olindi. Buning uchun, p-aminobenzoy kislotaning natriyli tuzini dixloretan bilan erituvchi DMFda 6 soat davomida qizdirish orqali olib borildi va 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat) 71% unum bilan sintez qilindi.

1,2-Etandiol bis (4-aminobenzoat) sintezining reaksiyasi quyidagicha:



Reaksiya natijasida 177-179°C da suyuqlanuvchi oq kukunsimon modda 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat) olindi, moddaning tuzilishi IQ-spektiri va xromato-mass-spektrometriya orqali tasdiqlandi. IQ-spektri (ν sm<sup>-1</sup>); 3427, 3346 (νNH<sub>2</sub>), 1597 (δNH<sub>2</sub>), 1687 (νC=O), 1269 (δC(O)O-C), 2960, 2868 (ν<sup>s</sup>CH<sub>2</sub>), 1587, 1519 (νArC=C), 840-767 (δArC=C), 2987-2912 (νAr=C-H), 756 (δAr=C-H), 1440 (1,4 dialmashingan Ar). Mass-spektri: min (22.569-22.662), m/z [M]<sup>+</sup> 300, 180, 164, 151, 136, 120, 107, 92, 77, 65, 51, 41.

Sintez asosida olingan 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat) efirining malein angidrid (2MA) bilan reaksiyasi olib borildi va modda **S** bis-amidli hosilasi olindi. 1,2-Etandiol bis (4-aminobenzoat)ning bis-



maleinamid unumi 63% oqish sarg'ish kukunsimon modda,  $T_{\text{suyuq}}=214-215^{\circ}\text{C}$ ,  $R_f=0,64$  (silufol, sistema benzol:metanol 1:1). IQ-spektiri ( $\nu$ ,  $\delta$ ,  $\text{cm}^{-1}$ ): 1539 (HN-C=O), 1708 (C=O), 1627 (CH=CH), 2983, 858 (Ar)=C-H), 1452, 1423 (Ar)-C=C-), 1267 (-C-O-C-).


Keyingi reaksiyalarda degidratlash jarayoni olib borildi. Degidratlash uchun fosfor (V) oksid  $\text{P}_2\text{O}_5$  va erituvchi DMFAdan foydalanildi.  $75-80^{\circ}\text{C}$  haroratda 4-5 soat davomida olib borildi va tegishli **D** modda 1,2-etandiol-bis (4-(2,5-diokso-2,5-digidro-1H-pirrolil-1-)benzoat) 44% unum bilan sintez qilindi:

**1-sxema:** Malein anhidridning benzidin va 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat) bilan reaksiyalari

Etan-1,2-diil-bis (4-(2,5-diokso-2,5-digidro-1H-pirrolil-1-) benzoat) (**D**) Sariq kukunsimon modda  $T_{\text{suyuq}}=188-190^{\circ}\text{C}$ ,  $R_f=0,8$  (silufol, sistema benzol:metanol 1:1). Mass-spektri (min: 13.697-13.743):  $m/z$   $[\text{M}]^+$  460, 260, 243, 217, 200, 172, 147, 116, 90, 54. Olingan birikmaning mass-spektrida  $m/z$  217, 200, 172 bo'lakli ionlari eng yuqori intensivlikka ega.


Etan-1,2-diil-bis(4-(2,5-diokso-2,5-digidro-1H-pirrolil-1-)benzoat) **D**ning xromato-mass-spektrometri bo'lakli ionlar

hosil bo'lishi quyidagicha keltirildi:






Keyingi tajribalar sintez qilingan monoamidli (A) birikmaga 2-xlor-4,6-dimetoksi-1,3,5-triazinning 0°C dan hona haroratigacha 9-10 soat davomida uch barobar ko'p miqdordagi N,N'-dietilanilin solingan dixlormetan erituvchida amalga oshirildi, reaksiya natijasida quyidagi 2-



**2-sxema:** N-4-(4'-aminobifenilil)maleinamidning 2-xlor-4,6-dimetoksi-1,3,5-triazin bilan reaksiyasi  
Reaksiya mahsuloti yupqa qatlam xromatografiyasi bilan tekshirib ko'rildi.

sxema reaksiyasi orqali oraliq bosqichlarning amalga oshishi bilan borgan reaksiya natijasida izo-maleinimid E ya'ni (Z)-5-(4'-aminobifenil-4-ilimino) furan-2 (5H)-on 61% unum bilan olinishga erishildi.

Yupqa qatlam xromatografiyasi uchun erituvchi sifatida benzol:metanolning 3:1 mollar nisbatidan foydalanildi (1-rasm).




- a) B (2Z, 2'Z)-4,4'-(bifenil-4,4'-diilbis (azandiil)) bis (4-oksobuten-2 kislota)  $R_f=0.28$
- b) A (Z)-4-(4'-aminobifenilil-4-amino)-4-oksobuten-2 kislota  $R_f=0.31$
- c) E (Z)-5-(4'-aminobifenil-4-ilimino)furan-2 (5H)-on  $R_f=0.43$   
(silufol, sistema benzol:metanol 3:1), ochiltirgich-UB lampa (kamera)

**1-rasm.** Yupqa qatlam xromatografiyasi (YuQX).

**Moddalarning IQ-spektri: (Perkin Elmer spertrum IR, version10.06.1)**





**2-rasm.** Benzidinning IQ-spektri, (1) N-4-(4'-aminobifenilil)-maleinamidning IQ-spektri va (2) (2Z, 2'Z)-4,4'-(bifenil-4,4'-diilbis (azandiil)) bis (4-oksobuten-2 kislota)ning IQ-spektri.

(2Z,2'Z)-4,4'-(bifenil-4,4'-diilbis (azandiil)) bis (4-oksobuten-2 kislota) (**B**)ning IQ-spektrini o'rganganilganda quyidagi yutilish sohalari borligi aniqlandi: sis holatdagi malein kislota qoldig'idagi uglerod-uglerod C=C qo'sh bog'ining valent tebranishlari 1627.67 sm<sup>-1</sup> kuchsiz yutilish sohada berganligi ko'rildi, =C-H guruhning deformatsion tebranishlari 828 sm<sup>-1</sup> yutilish sohalarda, aromatik halqadagi o'rtacha kuchsiz valent va deformatsion tebranishlari =C-H 3053.32 sm<sup>-1</sup> 850, 762 sm<sup>-1</sup> yutilish sohalarda kuzatildi. Aromatik halqadagi C=C 1558.3 sm<sup>-1</sup> o'rtacha kuchsiz intensiv yutilish sohalarda valent tebranishlari ko'rildi. Azotga bog'langan

karbonil guruhining C=O valent tebranish kuchli sohada qiymati 1693.94 sm<sup>-1</sup>, kislotadagi OH guruhi uchun deformatsion tebranish chastotasi 1398.23 sm<sup>-1</sup> yutilish sohalarda namoyon bo'ldi. Kislota amidlari O=C-NH sis bog'langan deformatsion tebranishlari 1518.18 sm<sup>-1</sup> sohada namoyon qilinganligi ko'rildi. Olingan spektr natijalari sintez qilingan modda molekulasida -HC=CH-, aromatik halqa, karbonil, amid guruhlari borligini tasdiqlaydi (2-rasm).

**Xulosa.** Benzidin va 1,2-etandiol bis (4-aminobenzoat)ning malein anhidrid bilan ekvimolyar miqdordagi va 2:1 nisbatlardagi reaksiyalari asosida malein



kislotaning mono va bis-amidli birikmalarini olishning qulay usullarini topish ustida ilmiy izlanishlar olib borildi va reaksiya sharoitlarini tahlil qilindi, ishda taklif qilingan usullar orqali reaksiyaning borishida erituvchi tabiati va haroratning ta'siri o'rganilindi. Olingan birikmalarning tozaligi yupqa qatlam xromatografiyasi, tuzilishi IQ-spektroskopiya va boshqa usullar yordamida isbotlandi.


Spektr natijalaridan xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, almashingan monoarilmaleinamidlarning IQ-spektrining harakterli signallaridan biri bo'lgan malein

kislota qo'sh bog'ining kam intensivga ega valent tebranishlari 1660-1600  $\text{cm}^{-1}$  yutilish sohalarda va kuchli intensiv karbonil guruhiga hos bo'lgan valent tebranishlari 1680-1700  $\text{cm}^{-1}$  yutilish sohalarda, amid guruhiga hos valent va deformatsion 3300, 1545-1560  $\text{cm}^{-1}$  yutilish sohalarda kuzatiladi. Almashingan maleinimidlarda esa karboksil guruhi valent tebranishlari 1700-1725  $\text{cm}^{-1}$  yutilish sohalarda, imid guruhiga hos valent tebranishlar 1330-1350  $\text{cm}^{-1}$  yutilish sohalarda namoyon bo'ladi [43].

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F. Yongxian, Lu. Yuele et al. "Anti-Leishmanial and Cytotoxic Activities of a Series of Maleimides", (Molecules, MDPI, 2018), p.2878
2. Курапова М. Ю. Жакина А.Х. и др. Синтез новых сукцинимидных производных на основе этилового эфира п-аминобензойной кислоты. // Серия химическая. 2008. – № 6. –С.43-44
3. М. А. Ahlam and S. A. Rhahman Mahdi, "Synthesis and Evaluation of Antimicrobial activity of several new Maleimides to Benzothiazole moiety" , (Baghdad Science Journal, Baghdad, 2013), p.658
4. A. Yu. Simonov, S. A. Lakatosh et al. "Nucleophilic substitution and cyclization reactions involving quaternized 3-dimethylaminomethyl derivatives of 3,4-bis (indol-1-yl) maleimide and 3- (indol-1-yl) -4- (indolin-1yl) maleimide", (Izvestiya AN. Ser. chem., Russian, 2010), pp.1409-1417
5. Ahn Hyung Kaok, C.Gasmon Robert et al. "Dentistry adhesive", U.S. Patent No. 6166102 (2002).
6. D. Jain, J. Maheshwari et al. "Synthesis and free radical polymerization of n[4-fluoro phenyl] maleimide and study of properties of polymers", (Rasayan J.Chem, India, 2012), pp.445-449
7. O. A. Kolyamshin, V. A. Danilov et al. "Synthesis of new bis-maleimides based on alkylaromatic diamines", (Bulletin of Kazan Technological University, Kazan, 2011), pp.46-48.
8. J. Chaudhary, S. Purohit et al. "Synthesis and characterization of maleimide-epoxy resins and composites formation", (Der Pharma Chemica, United States, 2017), pp.1-4
9. Тураева Х. К., Юлдашева М. Р. Малейн ангидридни бензидин билан реакцияси // "Аналитик кимё фанининг долзарб муаммолари" VI Респ. илмий-амалий анжумани. Термиз. 2020. 206 б.
10. Kh. K. Turaeva, M. K. Yuldasheva et al. "Synthesis of meta-altered arylmaleinamide and preparation of esters in their presence", (Chemistry and chemical engineering, Tashkent, 2020), pp. 30-38.





## ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИИ КОНФЛИКТОВ В СПОРТИВНОМ КОЛЛЕКТИВЕ И ВЕДУЩАЯ РОЛЬ ТРЕНЕРА В ИХ РАЗРЕШЕНИИ

Шарафатдинова Айсултан Нуратдиновна

студентка 4-го курса Нукусского госпединститута им. Ажинияза (г.Нукус, Республика Каракалпакстан), aysultanshar@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6023610>

### ИСТОРИЯ СТАТЬИ

Принято: 15-декабрь 2021  
Утверждено: 15-январь 2022  
Опубликовано: 5-февраль 2022

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

особенности, психология, конфликт, инцидент, конфликтная ситуация, категория, спортивный коллектив, роль, тренер.

### АННОТАЦИЯ

*Статья посвящена психологии конфликтов в спортивном коллективе. В ней рассматриваются их психологические особенности, причины и раскрывается ведущая роль тренера в их разрешении.*

Конфликтные ситуации, уменьшение их количества или желательное недопущение - серьёзная практическая проблема, стоящая как перед руководителями детских спортивных учреждений, так и перед тренерами спортивных коллективов. Психологи советуют, чтобы успешно преодолевать разрушительные последствия конфликтов, нужно научиться обходить их. Однако, это возможно лишь при высоком уровне развития коллектива и наличия благоприятного социально-психологического климата, чего не скажешь о спортивном коллективе в силу его определённых особенностей. Известно, что **конфликт** - (от лат. «столкновение») - это борьба противоположно направленных целей, интересов, позиций, мнений, взглядов оппонентов или субъектов взаимодействия. В основе любого конфликта лежит ситуация,

включающая в себя либо противоречивые позиции сторон по какому-либо поводу, либо противоположные цели или средства их достижения в данных обстоятельствах, либо несовпадение интересов, желаний, влечений оппонентов.

Конфликтная ситуация, таким образом, содержит субъектов возможного конфликта и его объект. Однако, чтобы конфликт развивался, необходим **инцидент**, когда одна из сторон начинает ущемлять интересы другой. Если противоположная сторона отвечает тем же, то конфликт из потенциального переходит в актуальный.

Чтобы отличить конфликт от конфликтной ситуации, необходимо запомнить следующую «формулу»: конфликт = проблема + конфликтная ситуация + участники конфликта + инцидент.



**Конфликтная ситуация** – это ситуация скрытого или открытого противоборства двух или нескольких сторон участников, каждый из которых имеет свои цели, мотивы, средства или способы решения проблемы, имеющий личную значимость для каждого из её участников.

**Инцидент** - это действие или совокупность действий участников конфликтной ситуации, провоцирующих резкое обострение противоречия и начало борьбы между ними. Участники конфликтной ситуации - это субъект (лицо, группа, организация, государство), непосредственно вовлечённый во все фазы спора.

Таким образом, **конфликт** – это процесс резкого обострения противоречия и борьбы двух или более сторон участников в решении проблемы, имеющий личную значимость для каждого из её участников.

В современной психологии при анализе конфликтов выделяют 4 его основных **категории:**

- > структуру конфликта;
- > динамику конфликта;
- > функции конфликта;
- > типологию конфликтов.

Готовность к разрешению конфликта - один из ключевых факторов, определяющих его исход. Фактически в некоторых случаях уже одного этого достаточно. Вместе с тем, эта готовность достигается непросто, и вызывать её у других также нелегко. Важным качеством при общении является способность человека встать на позицию партнёра. При ролевом общении (руководитель - подчинённый, тренер - спортсмен) принятие позиции

и роли другого означает одновременно более точное его понимание, что облегчает общение. Культура педагогического общения предполагает необходимость знания особенностей характера, ценностных ориентаций и потребностей людей. Эти знания крайне необходимы тренеру и руководителю для принятия решений, осуществления контроля и т.д. Здесь недостаточно только одной общей культуры и профессионализма в области физической культуры и спорта, поскольку возникает потребность в специальных педагогических и социально-психологических знаниях.

Польский учёный **Мелибруда** писал, что большинство трудностей, проблем и конфликтов между воспитателем и учеником не могут быть разрешены с помощью уголовного кодекса или дисциплинарных взысканий. Они могут быть разрешены преподавателем лишь в процессе повседневного общения с детьми. Но для решения проблем, возникающих в ходе общения, нужны знания о том, как правильно общаться. Практика показывает, что конфликты в спортивной школе обычно вызываются следующими **причинами:**

- *во-первых*, недостатками, связанными с организацией труда, неполным и неправильным использованием моральных и материальных стимулов и т.д.;
- *во-вторых*, недоработками в сфере спортивной деятельности, подбора и расстановки кадров в соответствии с их квалификацией и психологическими особенностями;
- *в-третьих*, неправильными методами руководства, проявлением административно-командного стиля управления и др.;





• в-четвёртых, трудностями и напряжённостью, связанными с межличностными отношениями внутри самого спортивного коллектива.

При проведении беседы по разбору конфликта в спортивной школе **необходимо:**

- проанализировать и довести до сознания каждого из участников конфликта причины его возникновения;

- выявить его возможные последствия для дальнейшего выполнения коллективом поставленных задач, а также качество межличностных отношений;

- обосновать выводы, вытекающие из условий возникновения конфликта и его возможных последствий, и предъявить их в качестве контролируемых требований к поведению всех в нём участвующих;

- нейтрализовать антагонистический эмоциональный настрой соперников, подчеркнув совместные цели спортивного коллектива, и принять решение о дальнейшей деятельности;

- объективно оценить поведение виновников конфликта и реакцию окружающих.

При подготовке к беседе тренеру необходимо исходить из того, что участники конфликта зачастую односторонне, необъективно выражают свои оценки (иногда слишком эмоционально и неэффективно). Перед беседой важно уяснить для себя следующие **вопросы:**

- в чём заключается сущность данного конфликта и как он проявился в спортивной деятельности?

- кто участники конфликта и как необходимо оценить их участие?

• как влияет конфликт на выполнение коллективом спортивно-воспитательных задач и как можно избежать других негативных явлений?

Чтобы беседа по разбору конфликта протекала в деловой дружеской атмосфере, мы рекомендуем для тренера примерный **план** её построения:

- с помощью конструктивных вопросов дайте вашу оценку сложившейся ситуации, но только после выяснения истинного положения дела;

- объясните участникам конфликта внутреннюю логику развития конфликтной ситуации;

- особо подчеркните, какие последствия может иметь конфликт для выполнения спортивным коллективом поставленных перед ним задач;

- предоставьте всем участникам конфликта возможность изложить свою точку зрения о путях разрешения конфликтной ситуации;

- соответственно оцените усилия партнёров и примите их за основу для дальнейшей разработки проблемы;

- по возможности исключите различные подтасовки, недооценки, отклонения от темы, голословные утверждения с помощью контраргументов или отметьте, насколько это мешает решению проблемы;

- подчеркнуто объективно и по-деловому аргументируйте все ваши решения.

Если партнёры высказывают спорные суждения, уточните, в чём они видят конкретные условия и возможности для разрешения конфликта, чтобы они почувствовали свою ответственность за ситуацию в коллективе.



При принятии решений учитывайте соответствующие предложения участников, конструктивно и критически разбирайте изложенные позиции, чётко и недвусмысленно обрисуйте пути и условия разрешения конфликта, а также требования, предъявляемые к поведению членов коллектива, и прежде всего, к виновникам конфликта.

Чем убедительнее вы обоснуете свою позицию по отношению к виновникам конфликта (после доходчивого изложения причины и следствия, условий, цели и образа действия при разрешении конфликтной ситуации), тем в большей степени это будет способствовать стабилизации

отношений в коллективе и межличностном профессиональном общении.


Докажите несовместимость с целями коллектива неоправданных личных требований, нереальных ожиданий, узковедомственных эгоистических интересов, аморальных мотивов социального поведения.

Приступая к разрешению конфликта, тренеру надо помнить об одном очень важном **правиле**, которое понимается как минимизация проблем, разделяющих стороны и которое обычно осуществляется через поиск компромисса, сотрудничества, достижение согласия и т.д.

#### Использованная литература:

1. Анцупов А.Я. «Конфликтология»// А.Я.Анцупов, А.И.Шипилов. – Москва, Юнити, 2000
2. Гришина Н.В. «Психология конфликта». - С-Пб, «Питер», 2000
3. Дмитриев А.В. «Конфликтология». - Учебное пособие. Москва, 2001
4. Сорокина А.И. «Проблемы конфликтности в педагогической психологии».- М., «Владос», 1999
5. Хасан Б.И. «Конструктивная психология конфликта».- С-Пб, «Питер», 2003





## ИННОВАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ И ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКОВ

Азизова Дилноза Адхамовна

Магистрант, Наманганского государственного университета

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6023673>

### ИСТОРИЯ СТАТЬИ

Принято: 15-декабрь 2021  
Утверждено: 15-январь 2022  
Опубликовано: 5-февраль 2022

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

реформа,  
образовательный  
процесс, мультимедийное  
обучение,  
коммуникативная  
деятельность,  
интеллектуальное  
развитие, учебный  
процесс, учеба,  
мотивация,  
педагогические  
инновации,  
эффективность,  
технология обучения.

### АННОТАЦИЯ

*В последние десятилетия интерес к теме инноваций значительно возрос, особенно в области общего образования, а также в языковом образовании. Актуальность темы данной статьи очевидна тем, что многие студенты во всех странах мира изучают русский, поэтому преподавание иностранного языка, в частности русского в нашей стране, может быть проще и эффективнее с помощью различных инноваций. Использование инноваций основано на улучшении словарного запаса и грамматики; улучшении различных навыков: чтение, аудирование, говорение и письмо с использованием различных технологий. Важно уточнить, какая из них методик будет главной целью для использования на уроке.*

За последние 10 лет в методике преподавания иностранных языков было проведено больше исследований, посвященных инновациям, компьютерным и информационным технологиям. Проанализировав тенденции последних лет, мы должны сделать вывод, что большинство докладов и статей связаны с инновационными технологиями и инновационными методами в обучении иностранным языкам. Вот лишь некоторые из них: Е.М.Багдасаров «Инновационные технологии в обучении иностранным языкам», Е.Г.Тарева, Н.Д.Гальскова «Инновации в

обучении языку и культуре: за и против», Н.В. Барышникова «Иностранные языки и культуры: методология, объективный метод», учебное пособие Т.А.Димитренко «Инновационные технологии преподавания иностранных языков», коллективная монография Т.Д.Любимовой, Е.В.Володиной, И.В.Володиной «Профессионально-ориентированное преподавание иностранных языков в технических вузах. Теория и инновационные педагогические технологии» и др. Но лишь немногие авторы задаются вопросом: «Что означают «Инновация»,





«Инновационная технология», «инновационный метод» на современном этапе?» И здесь мы поддерживаем точку зрения Н.В. Барышников, что «наиболее популярными методами сегодня являются методы, которые сами себя называют инновационными под давлением инновационного бума, инновации стали хорошо известными методами».

В связи с достижением независимости в настоящее время в Республике Узбекистан ведется широкомасштабная работа по реформированию всей системы образования. В соответствии с нормативными документами, регулирующими образовательный процесс, особое внимание уделяется интеллектуальному развитию подрастающего поколения, ведется непрерывная воспитательная работа по планированию и обновлению процесса изучения иностранных языков молодыми людьми; учитываются индивидуально-психологические особенности молодежи и ее способность усваивать иностранные языки.

10 декабря 2012 года подписано было постановление «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранного языка» [1]. Документ был принят в целях совершенствования преподавания иностранных языков, подготовки специалистов с хорошими языковыми навыками, внедрения передовых технологий в систему образования и т.д. В нашей стране созданы условия для преподавания иностранных языков с использованием современных педагогических и коммуникационных технологий. Создание новой методики

изучения иностранных языков на всех этапах обучения с применением современных педагогических и информационных технологий является требование времени. Эта резолюция является теоретической основой работы, проделанной в этом направлении. В результате исполнения данного постановления начался процесс организации непрерывного изучения иностранных языков, совершенствуется, что дает возможность обеспечивать молодежь современными учебно-методическими материалами на всех этапах обучения. Этот документ является логическим продолжением закона «Об образовании» и «Национальной программы подготовки кадров».

Изучение иностранных языков невозможно представить без использования мультимедийных средств обучения. Конечно, важными задачами для методики преподавания иностранных языков являются предоставление возможностей для иллюстрации реального процесса общения на английском языке и создание образовательной среды, обеспечивающей реальные условия для обучения использованию изучаемого языка и его культуры. Наиболее значимой группой преимуществ является обучение достоинствам компьютерного обучения. Например, учителя используют способность компьютеров мгновенно реагировать на вводимую информацию создавать простые обучающие программы в виде упражнений. Техническое преимущество обучения русского языка с помощью мультимедийных технологий заключается в том, что звуковые карты позволяют



пользователям записывать свою речь, а затем сравнивать ее с произношением носителей языка.

Графические возможности компьютеров могут представлять любой вид деятельности в виде картинок или анимации. Это особенно важно при изучении новой лексики, так как изображения на мониторе позволяют учащимся напрямую связывать английские фразы с действиями, а не с фразами на их родном языке. Кроме того, средства массовой информации являются отличным средством интерактивного общения между различными языковыми группами, что особенно очевидно при применении компьютерных сетей. Это может быть локальная сеть, соединяющая несколько компьютеров, или Интернет – глобальная сеть с миллионами пользователей.

Целенаправленное использование интернет-материалов на занятиях по иностранному языку в неязыковых вузах дает возможность эффективно решать ряд дидактических задач.

Они являются:

- улучшение навыков чтения;
- расширение словарного запаса современными иностранными словами;
- совершенствование навыков монологической и диалогической речи, обсуждение материалов Интернета;
- Формирование устойчивой мотивации к иноязычной деятельности при обсуждении интересующих всех проблем.

Образовательные инновации включают использование доступных и доступных

технологий для расширения доступа к образованию. Это также может потребовать другого инновационного процесса или услуги и полагаться на технологии.

Следующие образовательные инновации очень эффективны и широко используются в обучении иностранным языкам:

- Онлайн-курсы и курсы самообучения. Сотни языков доступны для самостоятельного изучения, от десятков издателей, по различным ценам, с использованием различных методов. Сам курс действует так, как учитель должен выбрать методику, точно так же, как это делают классные руководители.
- Аудиозаписи и книги. В аудиозаписях используются носители языка, и сила человека в том, чтобы помочь учащимся улучшить свой акцент. В некоторых записях есть паузы, чтобы ученик мог говорить. Другие являются непрерывными, поэтому учащийся говорит вместе с записанным голосом, подобно изучению песни. Аудиозаписи для самостоятельного изучения используют многие методы, используемые в обучении в классе, и были созданы на записях, кассетах, компакт-дисках, DVD-дисках и веб-сайтах.
- Мозговая атака. Мозговой штурм - это метод группового или индивидуального творчества, с помощью которого предпринимаются усилия сделано для того, чтобы найти решение конкретной проблемы, собрав список идей, спонтанно внесенных ее участником(участниками).
- Техника сэндвича. В обучении иностранному языку метод сэндвича



представляет собой устную вставку однотипного перевода на родном языке между неизвестной фразой на изучаемом языке и ее повторением, чтобы передать смысл как можно быстрее и полнее.

Использование технологий в классе может позволить учителям эффективно организовывать и проводить уроки. Мультимедийные презентации могут сделать материал более содержательным и увлекательным. За последние несколько десятилетий были проведены исследования, анализирующие взаимосвязь между технологией и иностранным языком обучения, как правило, фокусируется на нескольких ключевых вопросах, включая мотивацию, чтение и письмо, исследования и изучение языков с помощью мобильных устройств.


Наиболее мощным источником познавательной активности студентов,

развития их творческих способностей, интересов, навыков и других ментальных характеристик являются инновационные технологии. Инновационные образовательные технологии - это, прежде всего, информационно-коммуникационные технологии, тесно связанные с применением компьютеризированного образования. В работе первого Президента Узбекистана И.А.Каримова «Высокая духовность – непобедимая сила» отмечено: «Фундамент будущего создается в школах, утверждая иначе, что будущее нации зависит от того, как сегодня наши дети получают образование и воспитание» [2]. Душа и разум молодых людей, изучающих иностранные языки и мечтающих увидеть мир и учиться за границей, должны быть приоритетны перед различными деструктивными идеями и идеологиями.

#### **Использованная литература:**

1. О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков / Постановление Президента Республики Узбекистан от 10 декабря 2012 года ПК-1875. Газета «Народное слово», 11.12.2012 г. № 40 (5630).
2. Каримов И.А. Высокая духовность – непобедимая сила. Т.: Узбекистан, 2008.
3. Янг Л.Р. Преимущества и недостатки контролируемых лабораторных исследований по овладению вторым языком. Издательство Кембриджского университета.
4. Преимущества и недостатки контролируемых лабораторных исследований по овладению вторым языком. Янг Л.Р. Кембридж: Издательство Кембриджского университета, 2001.
5. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Полатов. Е. А, 2000.
6. Компьютеризированный учебник - основа новых информационных и образовательных технологий. Педагогика. Глазов БИ Ловцы Д.А. № 6, 1995





## INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA ULARNI QADRLASHNING AHAMIYATI

To'xtayev Sardor Sulton o'g'li

Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti, Xalqaro huquq fakulteti,  
1-kurs talabasi, Email; tukhtaevsardor17@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6023852>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Inson huquqlari, himoya qilish, tarix, so'z erkinligi, shaxs erkinligi, yashash huquqi, qadr-qimmat, BMT, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi".*

### ANNOTATSIYA

*Inson huquqlari tenglik va adolatga taalluqli tamoyillar to'plamidir. Ular yaqinda ixtiro emas - huquq va majburiyatlar haqidagi g'oyalar tarix davomida barcha jamiyatlarning muhim qismi bo'lib kelgan. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan beri dunyo xalqlari qanday huquqlar barcha odamlarga tegishli ekanligini va ularni qanday qilib eng yaxshi targ'ib qilish va himoya qilish mumkinligini hal qilish uchun birgalikda harakat qilib kelmoqda. Ushbu maqolada, inson huquqlarini himoya qilish va ularni qadrlashning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar qilinadi.*

Inson huquqlari nima?

Har bir insonning qadr-qimmatini va qadri bor. Har bir insonning asosiy qadriyatini tan olishning usullaridan biri bu uning inson huquqlarini tan olish va hurmat qilishdir. Inson huquqlari tenglik va adolatga taalluqli tamoyillar to'plamidir. Ular bizning hayotimiz bo'yicha tanlov qilish va inson sifatidagi salohiyatimizni rivojlantirish erkinligimizni tan oladilar. Ular qo'rquv, ta'qib yoki kamsitishlardan xoli hayot kechirishni xohlaydilar.

Inson huquqlarini butun dunyo bo'ylab odamlar kelishib olgan bir qator asosiy huquqlar muhim deb ta'riflash mumkin. Bularga yashash huquqi, adolatli sudlov hukmi huquqi, qiynoqlar va boshqa shafqatsiz va g'ayriinsoniy muomalalardan xolilik, so'z erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi, sog'liq, ta'lim va munosib turmush darajasi huquqlari kiradi. Bu inson huquqlari hamma joyda hamma odamlar uchun - erkak va ayol, yoshu qari, boy va

kambag'al, kelib chiqishimizdan, qayerda yashayotganimizdan, nima deb o'ylaganimizdan va nimaga ishonishimizdan qat'i nazar bir xildir. Aynan shu narsa inson huquqlarini "universal" qiladi.

Inson huquqlarini himoya qilish uchun kim javobgar?

Inson huquqlari bizni umumiy huquq va majburiyatlar to'plami orqali bir-birimiz bilan bog'laydi. Insonning o'z huquqlaridan foydalanish qobiliyati boshqa odamlarning ushbu huquqlarga rioya qilishiga bog'liq. Bu shuni anglatadiki, inson huquqlari boshqa odamlar va jamiyat oldidagi mas'uliyat va majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Shaxslar o'z huquqlarini boshqalarning huquqlarini hisobga olgan holda amalga oshirishlarini ta'minlashlari shart. Misol uchun, kimdir so'z erkinligi huquqidan foydalansa, u buni boshqa birovning shaxsiy daxlsizligi huquqiga aralashmasdan qilishi kerak.





Hukumatlar odamlarning o'z huquqlaridan foydalanishlarini ta'minlash uchun alohida mas'uliyat yuklaydi. Ular odamlarga o'z huquqlari hurmat qilinadigan va himoya qilinadigan hayotdan bahramand bo'lishlariga imkon beradigan qonunlar va xizmatlarni o'rnatishi va qo'llab-quvvatlashi talab qilinadi. Masalan, ta'lim olish huquqi har bir inson yaxshi ta'lim olish huquqiga ega ekanligini aytadi. Bu shuni anglatadiki, hukumatlar o'z xalqiga sifatli ta'lim muassasalari va xizmatlarni taqdim etishlari shart. Hukumatlar buni amalga oshiradimi yoki yo'qmi, bu hukumatning mas'uliyati va odamlar o'zlarining asosiy inson huquqlarini hurmat qilmasa yoki himoya qilmasalar, ularni javobgarlikka tortishlari mumkin.

Inson huquqlari inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab oladi. Ularga fuqarolik va siyosiy huquqlar kiradi, ya'ni insonning o'z jamiyatining fuqarolik va siyosiy hayotida kamsitish va zulmsiz ishtirok etish huquqlari. Bularga saylov huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, so'z erkinligi va qiynoqlardan ozodlik kabi huquq va erkinliklar kiradi. Ular shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ham o'z ichiga oladi, ular insonning gullab-yashnashi va o'sishi hamda ijtimoiy va madaniy tadbirlarda ishtirok etish huquqlari bilan bog'liq. Bu guruh sog'liqni saqlash huquqi, ta'lim olish huquqi va mehnat qilish huquqi kabi huquqlarni o'z ichiga oladi.

Huquqlarning bu ikki guruhi o'rtasidagi asosiy farqlardan biri shundaki, fuqarolik va siyosiy huquqlar masalasida hukumatlar o'zlari yoki boshqa guruh odamlarning o'z huquqlaridan foydalanishini inkor etmasligiga ishonch hosil qilishi kerak, iqtisodiy huquqlarga nisbatan esa, ijtimoiy va madaniy

huquqlar, hukumatlar huquqlarning bajarilishini ta'minlash uchun faol choralar ko'rishlari kerak.

Har bir shaxsga tegishli bo'lganidek, odamlar guruhlariga ham tegishli bo'lgan ba'zi huquqlar mavjud. Bu ko'pincha bu guruhlar tarix davomida nochor ahvolda va chekkada bo'lganligi va shuning uchun ularning huquqlarini ko'proq himoya qilishga muhtojligini e'tirof etishdir. Bu huquqlar kollektiv huquqlar deb ataladi.

Inson huquqlari yaqinda paydo bo'lgan ixtiro emas. Tarix davomida axloqiy xulq-atvor, adolat va inson qadr-qimmati tushunchalari insoniyat jamiyatlari rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu g'oyalarni qadimgi Bobil, Xitoy va Hindiston sivilizatsiyalariga borib taqalsa bo'ladi. Ular yunon va rim jamiyati qonunlariga hissa qo'shgan va buddist, xristian, konfutsiy, hind, islom va yahudiy ta'limotlarida markaziy o'rin tutadi.

Axloq, adolat va qadr-qimmat tushunchalari yozma yozuvlar qoldirmagan, ammo Avstraliyadagi Aborigenlar va Torres bo'g'ozini orollari aholisi va boshqa mahalliy jamiyatlar kabi og'zaki tarixlardan iborat jamiyatlarda ham muhim edi. O'rta asrlar, Uyg'onish va Ma'rifat davri faylasuflari tafakkurida adolat haqidagi g'oyalar muhim o'rin tutgan. Bu fikrlashning muhim yo'nalishi hukmdorlar qonunidan ustun turadigan "tabiiy qonun" mavjudligi edi. Bu shuni anglatadiki, odamlar faqat inson bo'lganliklari uchun ma'lum huquqlarga ega edilar.

Zamonaviy inson huquqlarining rivojlanishi 19-asr va 20-asr boshlarida ijtimoiy taraqqiyotda, masalan, quldorlikni bekor qilish, ta'limni keng ta'minlash va siyosiy huquqlarni kengaytirishda davom etayotgan yutuqlar kuzatildi. Ushbu yutuqlarga qaramay, inson huquqlari





bo'yicha xalqaro faoliyat zaifligicha qolmoqda. Umumiy nuqtai nazar shundan iboratki, xalqlar o'z chegaralarida o'zlariga yoqadigan narsani qilishlari mumkin va boshqa davlatlar va kengroq xalqaro hamjamiyat huquqlar buzilganda aralashish yoki hatto tashvishlanish uchun asos yo'q edi. Bu "davlat suvereniteti" atamasida ifodalangan bo'lib, u mamlakat ichida siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan kishi o'sha hudud ustidan hukmronlik qilish va qonunlarni qabul qilish huquqiga ega degan g'oyani anglatadi. Muhimi, mamlakatlar ushbu suverenitetni o'zaro tan olishga rozi. Bunda ular boshqa suveren davlatlarning ichki va tashqi ishlariga aralashmaslikka rozi bo'ladilar. Biroq, Ikkinchi jahon urushi davrida sodir bo'lgan vahshiyliklar va inson huquqlarining buzilishi butun dunyoda fikr-mulohazalarni kuchaytirdi va inson huquqlarini umuminsoniy tashvishga aylantirdi.

Nima uchun inson huquqlari muhim?

Bag'rikenglik, tenglik va hurmat qadriyatlari jamiyatdagi nizolarni kamaytirishga yordam beradi. Inson huquqlari bo'yicha g'oyalarni hayotga tatbiq etish biz yashamoqchi bo'lgan jamiyatni yaratishga yordam beradi. So'nggi o'n yilliklarda inson huquqlari g'oyalari haqida fikr yuritish va qo'llashda juda katta o'sish kuzatildi. Bu juda ko'p ijobiy natijalar berdi - inson huquqlari haqidagi bilimlar odamlarni kuchaytirishi va muayyan muammolarga yechim taklif qilishi mumkin.

Inson huquqlari jamiyatning barcha darajalarida - oilada, jamiyatda, maktabda, ish joyida, siyosatda va xalqaro munosabatlarda odamlarning boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishining muhim qismidir. Shuning uchun hamma joyda odamlar inson huquqlari nima

ekanligini tushunishga intilishlari juda muhimdir. Odamlar inson huquqlarini yaxshiroq tushunsa, adolat va jamiyat farovonligini ta'minlash ularga osonroq bo'ladi.

Inson huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo'lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo'lmasin hamma uchun bir hildir. Bu huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslangan. Inson huquqlari xalqaro ko'lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Inson huquqlari - insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoni-yatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik ja-miyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo'lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoklarga, zo'ravonlikka, inson sha'nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saklash huquqi, o'z sha'ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq Inson huquqlari sirasiga kiradi.

Har bir insonga berilgani kabi mendagi shaxsiy huquqlarimni mendan tortib olsa bo'ladimi?



Insonning inson huquqlarini tortib bo'lmaydi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining yakuniy moddasida aytilishicha, hech bir davlat, guruh yoki shaxs "bu yerda ko'rsatilgan huquq va erkinliklarni yo'q qilishga qaratilgan biron bir faoliyat bilan shug'ullanish yoki biron bir harakatni amalga oshirish huquqiga ega emas". Bu inson huquqlarining buzilishi va buzilishi sodir bo'lmaydi, degani emas. Televideniye va gazetalarda har kuni qotillik, zo'ravonlik, irqchilik, ochlik, ishsizlik, qashshoqlik, zo'ravonlik, uysizlik va kamsitish haqidagi fojiali hikoyalarni eshitamiz. Biroq, Umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari bo'yicha boshqa shartnomalar nafaqat ezgu intilishlardir. Ular asosiy huquqiy tamoyillardir. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarini bajarish uchun ko'plab davlatlar ushbu tamoyillarni o'z qonunlariga kiritdilar. Bu shaxslarga shikoyatlarini o'z mamlakatidagi sud tomonidan hal qilish imkoniyatini beradi. Ayrim davlatlarning shaxslari inson huquqlarining buzilishi yuzasidan shikoyat bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining ekspertlar qo'mitasiga murojaat qilishlari mumkin va u o'z xulosasini beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy tizimni modernizatsiya etish jarayonlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy


sudi alohida o'rin tutmoqda. Huquqiy tizimni, demokratik qadriyatlarni muhofaza qilishda, ularni xalqimiz turmush tarziga singdirishda e'tiborga molik ishlar amalga oshirilayotir. Kelgusida Konstitutsiyaviy sud faoliyatining yanada takomillashtirilishi sudlov jarayonlarining modernizatsiya qilinishi va demokratlashuviga, konstitutsiyaviy odil sudlovning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga, inson huquq va erkinliklarining samarali va o'z vaqtida himoyalashini mustahkamlashga qaratilishi lozim.

**Xulosa qilib aytganda,** inson huquqlari bo'yicha ta'lim, odamlarni himoya qiladigan qonunlarga ega bo'lish kabi muhimdir. Odamlar inson huquqlari nima ekanligini va qanday standartlar mavjudligidan xabardor bo'lgandagina uzoq muddatli taraqqiyotga erishish mumkin. Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan islohotlar dunyo hamjamiyati tomonidan munosib e'tirof etilmoqda. Bu O'zbekiston tarixda birinchi marta BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga o'z guruhidagi davlatlar orasida eng ko'p ovoz bilan saylanishida yaqqol isbotini topdi. O'zbekistonning bu nufuzli organga saylanishi uning inson huquqlari sohasidagi barqaror sa'y-harakatlari e'tirofi, xalqaro miqyosda tan olinishidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi: Vazirlik faoliyati / Vazirlikning boshqarmalari / Inson huquqlarini himoya qilishi boshqarmasi. [http://www.minjustuz.ru/uz/gcontent.scm\\_groupId=4140&sectionId=4190&contentId=2626.html](http://www.minjustuz.ru/uz/gcontent.scm_groupId=4140&sectionId=4190&contentId=2626.html)
2. Inson huquqlarini ta'minlash — bosh maqsadimiz. <https://constitution.uz/oz/pages/maqola55>
3. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmi. <https://constitution.uz/oz/pages/maqola>





## INTEGRALLASH YORDAMIDA YECHILADIGAN BA'ZI FIZIK MASALALAR TAHLILI

Matchonov Quvonchbek Po'lat o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti, Fizika fakulteti, Yadro fizikasi va yadro texnologiyalari (qo'llash sohalari bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich magistranti, kuvonchbekmatchonov@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6023910>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021  
 Ma'qullandi: 15-yanvar 2022  
 Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Trayektoriya tenglamasi, egri chiziqli yoy, egri chiziqli integral, uchish uzoqligi, uchish vaqti, o'rtacha tezlik

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada biror balandlikdan gorizontaal yo'nalishda otilgan jismning butun harakatlanish vaqti davomidagi o'rtacha tezlik modulini hisoblash metodikasi; harakati davomida massasi uzluksiz ravishda o'zgarib boruvchi jismlarning harakat qonunini keltirib chiqarish; integrallash usuli bilan yechiladigan ba'zi Elektrostatika masalalarini yechish metodikasi to'g'risida fikr yuritiladi.*

### Fizikadan masalalar yechishda egri chiziqli integrallardan foydalanish

Ma'lum balandlikdan biror boshlang'ich tezlik bilan gorizontaal otilgan jismning yerning tortish maydonidagi harakatini ko'rib chiqamiz. Bunda havoning qarshiligini hisobga olmaymiz. U holda bu jism  $x$  o'qi bo'yicha tekis harakatlanadi. Chunki bu yo'nalishda jismga hech qanday kuch ta'sir etmaydi. Shu bilan birga jism vertikal yo'nalishda g tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakat qiladi. Jismning har ikkala ( $x$  va  $y$ ) o'qlardagi harakat tenglamalarini tuzib olamiz:

$$x = g_0 t \quad (1) \quad y = h - \frac{gt^2}{2} \quad (2)$$

(1) va (2) tenglamalardan  $t$  ni yo'qotib, quyidagini hosil qilamiz:

$$y(x) = h - \frac{gx^2}{2g_0^2} \quad (3)$$

Bu tenglamadan ko'rinadiki, qaralayotgan jismning harakat trayektoriyasi paraboladan iboratdir.

Bizga shu jismning butun harakati davomidagi o'rtacha tezligini aniqlash masalasi qo'yilgan bo'lsin. Ma'lumki, o'rtacha tezlik moduli jism bosib o'tgan butun yo'lning shu yo'lni bosib o'tish uchun ketgan butun vaqtga nisbati bilan aniqlanadi. Jismning butun harakatlanish vaqtini (2) tenglamaning chap tarafini 0 ga tenglashtirib, osongina aniqlash mumkin. Jism yerga urilgan momentda  $y=0$ .


$$t = \sqrt{\frac{2h}{g}} \quad (4)$$

Keyingi masala, jismning butun harakati ya'ni otilish nuqtasidan to yerga urilgunicha bosib o'tgan yo'lini aniqlash masalasidir. Buning uchun (3) tenglama bilan aniqlanadigan parabolaning chegaralangan qismining uzunligini ya'ni egri chiziqli yoyning uzunligini aniqlash lozim.




Matematik analiz kursidan ma'lumki, egri chiziqli yoyning uzunligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$AB = \ell = \int_a^b \sqrt{1 + (\varphi'(x))^2} dx$$



Xuddi shu yo'l bilan biz qarayotgan jismning bosib o'tgan masofasini ham aniqlash mumkin. Bunda yuqoridagi formulani quyidagicha yozib olamiz:

$$L = \int_0^s \sqrt{1 + (y'(x))^2} dx \quad (5)$$



(3) tenglamaga asosan,  $y(x)$  dan birinchi tartibli hosila olsak,

$$y'(x) = -\frac{gx}{g_0^2} \quad (6)$$

ga ega bo'lamiz.

(6) ni (5) ga qo'yib,

$$L = \int_0^s \sqrt{1 + \frac{g^2 x^2}{g_0^4}} dx \quad (7)$$

tenglamani hosil qilamiz.

(7) tenglamaga quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$\frac{g^2}{g_0^4} = a \quad (8)$$

(8) ni (7) ga qo'ysak,

$$L = \int_0^s \sqrt{1 + ax^2} dx \quad (9)$$

kelib chiqadi.

(9) ko'rinishidagi integrallarni quyidagicha hisoblash mumkin:

Bunda,





$tgw = \sqrt{ax}$  almashtirish bajaramiz. Bunga asosan,  $x = \frac{tgw}{\sqrt{a}}$  bo'ladi.

$$\int \sqrt{1+ax^2} dx = \int \sqrt{1+tg^2w} d\left(\frac{tgw}{\sqrt{a}}\right) = \frac{1}{\sqrt{a}} \int \sqrt{1+tg^2w} \cdot \frac{1}{\cos^2 w} dw$$

$$\frac{1}{2\sqrt{a}} (\sec^2 w \sin w + \ln |\sec w + tgw|) = \frac{1}{2\sqrt{a}} (\sqrt{ax}\sqrt{ax^2+1} + \ln |\sqrt{ax} + \sqrt{ax^2+1}|)$$

$$\sec w = \sqrt{1+tg^2w} = \sqrt{1+ax^2}$$

$$\sin w = \sqrt{1-\cos^2 w} = \sqrt{1-\frac{1}{\sec^2 w}} = \frac{\sqrt{ax}}{\sqrt{ax^2+1}}$$

Va nihoyat,

$$L = \left( \frac{x\sqrt{ax^2+1}}{2} + \frac{\ln |\sqrt{ax} + \sqrt{ax^2+1}|}{2\sqrt{a}} \right) \Bigg|_0^s$$

ekanligi kelib chiqdi. Demak,

$$L = \frac{S\sqrt{aS^2+1}}{2} + \frac{\ln |\sqrt{aS} + \sqrt{aS^2+1}|}{2\sqrt{a}} \quad (10)$$

(10) tenglamadagi S jismning uchish uzoqligidir. Ya'ni,

$$S = g_0 t = g_0 \sqrt{\frac{2h}{g}} \quad (11)$$

$$\bar{g} = \frac{L}{t} \quad (12)$$

(4), (8), (10), (11) va (12) tenglamalarga asosan o'rtacha tezlikning quyidagicha ifodasini hosil qilamiz:

$$\bar{g} = \frac{\sqrt{g_0^2 + 2gh}}{2} + \frac{g_0^2}{2\sqrt{2gh}} \cdot \ln \left| \frac{\sqrt{g_0^2 + 2gh} + \sqrt{2gh}}{g_0} \right|$$

### O'zgaruvchan massali jism harakat qonunini keltirib chiqarish

Ba'zi jismlarning massasi ularning harakati davomida uzluksiz ravishda

o'zgarib boradi. Masalan, harakatlanayotgan tomchining massasi uning bug'lanishi hisobiga kamayib borishi yoki aksincha, uning sirtida bug'larning kondensatsiyalanishi hisobiga ortib borishi, suv sepayotgan mashina massasining kamayib borishi, ip o'ralayotgan g'altakning massasi ortib borishi bunday harakatga yaqqol misol bo'ladi. Jism massasining o'zgarishi uning harakatini o'rganishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. O'z massasining mbiror qismini ma'lum yo'nalishda uloqtirganda, jism qarama-qarshi yo'nalishda impuls oladi. Bu keng qo'llaniladigan reaktiv harakat prinsipidir. O'zgaruvchan massali jism harakat qonunini raketaning harakati misolida ko'rib chiqamiz. Faraz qilaylik, bizga yer bilan bog'langan XOY koordinatalar sistemasi berilgan bo'lib, biror t vaqt momentida raketaning masasi m ga, tezligi v ga teng bo'lsin.  $t_1 = t + dt$  vaqt momentida esa raketaning soplosidan yonilg'i otilib chiqishi natijasida uning tezligi ortib,  $v_1 = v + dv$  ga teng bo'lib qoladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, vaqt o'tishi bilan raketa massasining kamaya borishini hisobga olsak, birlik vaqt ichidagi massa kamayishini ifodalovchi  $\mu$  kattalik quyidagicha bo'ladi:

$$\mu = -\frac{dm}{dt}$$

$\mu$  kattalik musbatdir. Masalan,

$$\mu = 10 \frac{kg}{s}$$

Bu qiymat raketa massasi har sekundda 10 kg ga kamayishini bildiradi.

$dm$  massa o'zgarishi esa manfiydir:

$$dm = m_2 - m_1 < 0$$

Shuning uchun dt vaqt ichida raketa soplosidan otilib chiqqan gaz massasi





$-dm$  deb olinadi. Sistemaning  $t$  va  $t_1$  vaqt momentlaridagi impulslari mos ravishda quyidagilarga tengdir:

$$p_1 = mv$$

$$p_2 = (m - (-dm))(v + dv) - (-dm)V$$

Gazlarning raketaga nisbatan otilib chiqish tezligi  $u$  ga teng,  $V$  esa ularning yerga


nisbatan tezligidir.  $u > V$  ekanligini

hisobga olsak,  $V = u - V_1$  ni hosil qilamiz.

U holda

$$p_2 = (m + dm)(v + dv) + dm(u - (v + dv)) = mv + mdv + dm u$$

bo'lishi kelib chiqadi.



Sistema impulsining o'zgarishi kuch impulsiga tengligidan,

$$dp = Fdt$$

Bunda  $F$  raketa dvigatelining tortish kuchi.

$$p_2 - p_1 = Fdt$$

$$mdv + dm u = Fdt$$

Yuqoridagi ifodadan quyidagini hosil qilamiz:

$$m \frac{dv}{dt} = F - u \frac{dm}{dt}$$

Bu tenglama o'zgaruvchan massali jism harakati uchun Meshcherskiy tenglamasidir.

$$F = 0 \text{ bo'lganda,}$$

$$-udm = mdv$$

$$\int_{M_0}^M \frac{dm}{m} = - \int \frac{dv}{u}$$

$$\ln\left(\frac{M}{M_0}\right) = -\frac{v}{u}$$

$$M = M_0 e^{-\frac{v}{u}}$$


Yuqoridagi ifodadan ko'rinadiki, raketa tezligi ortishi bilan massasi kamayib boradi.

### Elektrostatika masalalarini yechishda integraldan foydalanish

Elektrostatikada qo'zg'almas zaryadlar orasidagi o'zaro ta'sirlashuv, ular hosil qiluvchi elektr maydonlar kabi tushunchalar o'rganiladi. Bunda ba'zi amaliy masalalar integrallash yo'li bilan hal qilinadi. Na'muna sifatida quyidagi masalaning yechimini ko'rib chiqamiz. Bizga rasmda ko'rsatilganidek to'g'ri burchak ostida bukilgan cheksiz uzun,  $\tau$  chiziqli zichlik bilan zaryadlangan bir jinsli



tayoqcha berilgan bo'lsin. Undan biror  $a$  masofada turgan  $Q$  nuqtaviy zaryadga ta'sir qiluvchi kuchni topish masalasini qarab chiqamiz.



Bu masalani yechish uchun quyidagicha yo'l tutamiz:

Dastlab tayoqcha vertikal qismining  $Q$  zaryadga ta'sirini alohida topamiz.


So'ngra uning gorizontaal qismining zaryadga ta'sir kuchini aniqlaymiz. Har bir qismning alohida ta'sir kuchlarini vektor ko'rinishda qo'shib,  $Q$  nuqtaviy zaryadga ta'sir qilayotgan natijaviy kuchni topamiz. Kulon qonuniga ko'ra, ikki nuqtaviy

zaryadning o'zaro ta'sirlashuv kuchining moduli, ular zaryad miqdorlarining ko'paytmasiga to'g'ri, oralaridagi masofaning kvadratiga esa teskari proporsionaldir. Shuni eslatib o'tish kerakki, "nuqtaviy zaryad" deganda, o'lchamlari ular orasidagi masofaga qaraganda ko'p marta kichik bo'lgan zaryadlangan jismlar nazarda tutiladi. Masalan, qandaydir miqdorda zaryadlangan ikki sharchani ularning olchamlari bilan solishtirganda juda ko'p marta farq qiluvchi, yetarlicha uzoq masofaga joylashtiraylik. Bu ta'sirlashuv jarayonida zaryadlangan sharchalarni "nuqtaviy zaryad" deb qarashimiz mumkin bo'ladi.

**Vertikal qismning ta'siri:**

Bunda tayoqchaning ixtiyoriy qismidagi biror elementar  $dq$  zaryadga ega bo'lgan  $dl$  bo'lakcha va  $Q$  zaryadning ta'siri quyidagicha bo'ladi:

$$dF = k \frac{Qdq}{r^2}$$



Chizmadan ko'rinib turibdiki,






$$\sin \alpha = \frac{x}{dl}$$

$$\sin \alpha = \frac{a}{r}$$

$$d\alpha = \frac{x}{r}$$

$$F_x = \int_0^{\frac{\pi}{2}} dF_x = k \frac{Q\tau}{a} \int_0^{\frac{\pi}{2}} \cos \alpha d\alpha = k \frac{Q\tau}{a}$$



Zaryadning chiziqli zichligi (o'tkazgichning birlik uzunligiga to'g'ri keluvchi zaryad miqdori. Mazkur masalada, tayoqcha zaryadining zichligi uning butun uzunligi bo'yicha o'zgarmaydi deb qaraladi)

$\tau = \frac{dq}{dl}$  ni inobatga olib, quyidagini hosil qilamiz:


$$dF = k \frac{Q\tau}{a} d\alpha, \quad dF_x = dF \cos \alpha, \quad dF_y = dF \sin \alpha, \quad 0^\circ \leq \alpha \leq 90^\circ.$$

$$F_y = \int_0^{\frac{\pi}{2}} dF_y = k \frac{Q\tau}{a} \int_0^{\frac{\pi}{2}} \sin \alpha d\alpha = k \frac{Q\tau}{a}$$

$$F_x = F_y$$

$$F_1 = \sqrt{F_x^2 + F_y^2} = \sqrt{2} k \frac{Q\tau}{a}$$


**Gorizontal qismning ta'siri:**



$$dF = k \frac{Qdq}{x^2}, \quad \tau = \frac{dq}{dx}, \quad a \leq x \leq a+l, \quad l \gg a.$$

$$F_2 = \int_a^{a+l} dF = kQ\tau \int_a^{a+l} \frac{dx}{x^2} = kQ\tau \left( \frac{1}{a} - \frac{1}{a+l} \right) = k \frac{Q\tau}{a}$$






**Natijalovchi kuch:**

$$F = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 + 2F_1F_2 \cos 45^\circ} = \sqrt{5} \frac{kQ\tau}{a}$$

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. А.Саъдуллаев, Х.Мансуров, Г.Худойбергганов,А.Ворисов,Р.Гуломов.Математик анализ курсидан мисол ва масалалар туплами II, Тошкент, «Ўзбекистон»-1995.
2. С.П.Стрелков. Умумий физика курси, Механика. Тошкент, “Ўқитувчи”-1977
3. Д.В.Сивухин. Умумий физика курси, Механика. Тошкент, “Ўқитувчи”-1981
4. М.Раҳматуллаев. Умумий физика курси, Механика. Тошкент, “Ўқитувчи”-1995.
5. Д.Х.Усмонова. Физикадан масалалар ечиш. „ЎҚИТУВЧИ”, Тошкент-1988.
6. М.Н.О’lmasova. Akademik litseylar uchun o’quv qo’llanma, 2-kitob. «O’QITUVCHI», NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI, Toshkent-2004.
7. Ў.К.Назаров. Умумий физика курси, Электр ва Электромагнетизм, II жилд. „ЎЗБЕКИСТОН”, Тошкент-2002.





## TIBBIYOT SOHASINI YANADA ISLOH QILISH VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Sattorova Xurshida Shuxrat qizi

O'zDJTSU Yakkakurash turlari

fakulteti 4-bosqich talabasi

sattorovaxurshida1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6024046>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Inson salomatligi, tibbiyot, fiziologiya, gigiena, psixologiya, jismoniy harakatlar, aqliy mashqlar, salomatlik sirlari, badantarbiya, sport.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada tibbiyot sohasi tarixi, zamonaviy tibbiyot yo'nalishlari, O'zbekistondagi tibbiyot taraqqiyoti, rivojlanish istiqbollari, tibbiyot sohasidagi muammolar haqida yoritib beriladi.*

### Kirish dolzarbligi.

Tibbiyot sohasi juda qadimgi sohalardan biri hisoblanadi. Uning ilk ildizlari Qadimgi Misr va Mesopotamiya sivilizatsiyalari tarixiga borib taqaladi. Masalan, misrliklarga tibbiyot sirlari juda yaxshi tanish bo'lgan. Mumiyolangan mayyitlarni tayyorlay turib misrliklar odamning ichki tuzilishini ham yaxshi o'rganganlar. Tomir urishiga qarab inson kasalliklari sabablarini aniqlashgan. Davolash muolajasida ko'katlar damlamasi, minearal suvlar va tuzdan keng foydalanganlar. Misr shaharlarida tabiblarga ta'lim beruvchi maxsus maktablar bo'lgan. Bundan tashqari, mesopotamiyaliklarda esa zoologiya, biologiya, kimyo va tibbiyotga oid bilimlar yanada ravnaq topgan. Mil.avv. 3-mingyillikdayoq bu yerda turli-tuman dori-darmonlarni tayyorlash bo'yicha dasturilamal tuzilgandi. Bu

davlatlardan keyin tibbiyot sohasidagi bilimlar asta-sekin taraqqiy qilib qo'shni Hindiston, Fors davlati va boshqalarga kengiyildi. Tibbiyot sohasi eng qamrovli sohaga aylanib bordi. Ammo bitta savol tug'iladi. Nega shunda ham insoniyat kasallikdan hech xalos bo'lmadi hattoki kelasi rivojlangan asrlarda va eng taraqqiy etgan 21-asrda ham hech tugamadi?

### Ilmiy izlanishlar.

Tibbiyot sohasi hozirgi davrdagi taraqqiyot darajasiga yetib kelguncha qancha tarixiy, ijtimoiy, siyosiy yo'llarni bosib o'tgan. Bu soha rivojida ko'plab taniqli shaxslar o'z davrida faoliyat olib borishgan. Xususan, yangi davrdagi ilmiy izlanishlar XVII asrda golland olimi A.Levenguk 300 marta kattalashtirib ko'rsatadigan mikroskop yaratdi. Bu esa





inson tanasi, o'simliklar, hayvon dunyosi tuzilishini batafsil o'rganish va bakteriyalarni aniqlash imkonini berdi. Keyinchalik mikroskop yordamida ko'pgina bakteriyalarning kasalliklarga sababchi ekanligi isbotlandi. XVIII asrda ingliz shifokori E.Jenner odamga chechak kasali sigirdan yuqsa, yengil o'tishini, so'ngra bu kasalni yuqtirgan kishida chechakka qarshi immunitet paydo bo'lishini, ya'ni unga chechak kasali boshqa yuqmasligini aniqladi. Ana shu kuzatishlarga asoslanib Jenner chechakka qarshi emlash usulini kashf etdi. Bu esa millionlab kishilarning hayotini saqlab qoldi. Industrial kapitalizm davriga kelib esa 1880-yili nemis olimi K.Eber ichterlama, 1884-yili F.Lyofler bo'g'ma tug'diruvchi mikrobn topdilar. Nemis olimi R.Virxov hozirgi zamon patologik anatomiya asoslarini yaratdi. 1875-yili F.A.Lesh amyoba dizenteriyasini tug'diruvchi mikrobn aniqladi. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurash ishiga sil kasalligini keltirib chiqaruvchi batsillani kashf etgan nemis olimi Robert Kox ulkan hissa qo'shdi. U epidemiyalarga qarshi profilaktik choralarni ishlab chiqdi va dori-darmonlar yaratdi. Rus olimi, Nobel mukofoti laureati I.Mechnikov esa organzimplarni mikroblardan himoya qilish haqida yangi ta'limot yaratdi.

Biologik va biokimyoviy kashfiyotlar tibbiyotning reanimatologiya, anesteziologiya va immunologiya kabi yangi muhim tarmoqlarini vujudga keltirdi. Jarrohlik yangi bosqichga ko'tarildi. Bu hodisa inson tanasining dastlab buyrak, so'ng yurak, o'pka va boshqa a'zolarini ko'chirib o'tkazishda o'z ifodasini topdi. Tibbiyotda sun'iy yurak ishlatishga erishildi. Davolashning jarrohsiz usullari kashf etildi. Bugungi kunda buyrakdagi

tosh ultratovush zarblari bilan maydalanmoqda. Insonning ko'rish qobiliyati lazer yordamida tiklanmoqda. Yadroviy magnit tebranishlariga asoslangan kompyuter tomograflari yordamida bemorlarga tashxis qo'yilmoqda.

Ayniqsa, XIX va XX asrlarda bu yo'nalishda tibbiyot gurkirab rivojlandi. I. M. Sechenovning «Bosh miya reflekslari» (1863-yil) asari shifokor va fiziologlarda dunyoqarashning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Rus olimlari S. P. Botkin, I. M. Sechenov, I. P. Pavlov, G.A. Zaxarin (kasallikni aniqlashda bemordan so'rab ma'lumot yig'ish uslubini ishlab chiqqan), A.A. Ostroumov tadqiqotlari tufayli markaziy asab tizimi va butun organizmning faoliyati qonunlari nazariy ta'riflab berildi. I.P. Pavlovning ovqat hazm qilish sistemasi fiziologiyasiga oid ishlari Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Uning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti barcha klinik fanlarning rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Davolashni u kompleks chora-tadbirlardan: gigiyena talablariga mos hayot kechirish iqlim bilan davolash (klimatoterapiya) va dori-darmonlar bilan yordam berishdan iborat deb bildi. Sil to'g'ri-sidagi ta'limotga uning tomonidan ko'pgina yangiliklar kiritildi. Qimiz bilan davolashni amalda joriy qildi, fizioterapiya uslublarini shifobaxsh ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Aleksey Aleksandrovich Ostroumov (1844—1908) — mashhur rus terapevt-klinisisti. U yurakning I toni kelib chiqishi jihatidan klapanlarga bog'liq ekanligini birinchi bo'lib isbot qildi. Boshqa tadqiqotlari bilan tomirlarning devorlarida ham tomir toraytiruvchi, ham tomir kengaytiruvchi nervlar borligini ko'rsatib



berdi: ba'zi shishlar va ter ajralishining nevrogen xarakterda bo'lishini aniqladi.

Stetoskop yordami bilan eshitib ko'rilganda, yurakdagi payqab bo'lmaydigan tovush o'zgarishlarini to'g'ridan to'g'ri quloq tutib eshitib aniqlash mumkinligini (galopritmi normal III ton va boshqalarni) isbot qilib berdi. 1909-yili V.P. Obrazsov N.D. Stra- jesko bilan birgalikda yurak arteriyalari tiqilib qolgan degan tashxisni tirik kishiga qo'ydi va miokard infarktining klinik manzarasini bayon qilib berdi. A.A. Vishnevskiy, E.N. Meshalkin va boshqalarning nomlari bilan bog'liq. N.N. Petrov va P.A. Gersen onkologiyani rivojlantirishga katta hissa qo'shishgan.

### **Tadqiqot natijalari va muhokamasi**

Mustaqil O'zbekistonda «Ichki kasalliklar» fanining rivojlanishi va taraqqiyoti. Odamlarda uchraydigan kasalliklar, ularni davolash va oldini olishni o'rganadigan klinik fanlar asosiy davolash uslubiga ko'ra, terapiya va jarrohlikka bo'linadi. Tibbiyotning bu qismlari ham o'z navbatida, ayrim a'zo, sistemalar kasalliklarini o'rganish, davolashi, ba'zi kasalliklarning ko'p uchrashi, o'ziga xosligi hamda qo'llaniladigan asosiy tekshirish va davolash uslubiga ko'ra, yana bir necha sohalarni o'z ichiga oladi. Chunonchi, terapiya, kardiologiya, revmatologiya, nevrologiya, gastroenterologiya, gematologiya, endokrinologiya, geriatriya, ftiziatriya, nevropatologiya, psixiatriya, kurortologiya, fizioterapiya, davo fizkulturasi, tibbiyot radiologiyasi va rentgenologiya qismlariga bo'linib rivojlandi.

O'zbekistonda ichki kasalliklarni o'rganishda tibbiyotga oid tadqiqotlar ko'lami kengaydi. Ateroskleroz, gipertoniya, miokard infarkti, stenokardiya, revmatizm, yurakning ishemik kasalligi, yurak porogi kabi yurak-tomir kasalliklari, ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (gastrit, kolit, enterit, enterokolit va boshq.), gepatit, chillashir, pellagra va boshqa kasalliklarning kelib chiqish sabablari, tarqalishi, davosi va oldini olish masalalari chuqur o'rganildi. Punksion biopsiya, laparoskopiya, radiogematografiya, ichki a'zolar kasalliklarini maxsus apparat yordamida aniqlash

tufayli ichki kasalliklarning yangi klassifikatsiyasi tuzildi. To'qimalarda parazitlik qiladigan lyambliyalarni topish va u keltirib chiqaradigan kasallik — lyambliozni kompleks davolash usuli ishlab chiqildi. O'tkir va surunkali pnevmoniya, bronxial astma kabi kasalliklar alohida e'tibor bilan o'rganilmoqda. Anemiya, leykoz kabi kasalliklarni o'rganish va ularni davolashda talaygina yutuqlarga erishildi. Olimlardan M.I. Slonim, I.A. Kassirskiy, N.V.Danilov, A.N. Kryukov, M.F. Mirochnik va boshqalar bergan tadqiqotlarni keyinchalik Z. I. Umidova, A.X. Xo'jayev, E.I. Otaxonov, N.I. Ismoi- lov, A.A. Asqarov, A.S. Mnushkin, M.H. Hamidova, A.M. Ubaydullayev, U.A. Asqarov va boshqalar davom ettirib kelishmoqda.

Endokrinologiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar (Y.H. To'raqulov, S.A Ma'sumov, P.I. Fyodorova, R.K. Islombekov, E.G. Qayumov, Sh.Sh. Ilyosov) natijasida respublikamizning ayrim tuman- larida tarqalgan qalqonsimon bez kasalliklari (xususan, buqoq) keskin kamaydi. Ichki sekretiya bezlari, diabetoldi holatidagi



kishilarda lipidlar almashinuvi va gemodinamikasi o'rganildi. Fizio- terapiya va kurortologiyaga oid olib borilgan tadqiqot va izlanishlar natijasida respublikada ko'pgina mahalliy ma'danli suv va shifo- baxsh iqlimli joylar — «Chimyon», «Chortoq», «Toshkent» mineral suvi, Sitorayi Mohi Xosa ishlab turibdi. Bu sohada Y.K. Mo'minov, Z.A. Dolimov, R.A. Katsenovichlarning xizmatlari katta.

Tibbiyot sohasining mana shunchalar yuqorilab, ildamlab ketayotganiga qaramasdan hozirgi kunimizda bu dunyo bo'yicha millionlab insonlar kasalliklardan aziyat chekishmoqda, epidemiyalardan halok bo'lishmoqda. Hali hanuz insoniyat bu kasalliklardan butunlay forig' bo'lolmadi. Fan-texnika va ilm-fan taraqqiyoti o'zining kulminatsiyasiga yetgan bir paytda biz insonlar endi yana o'sha qadimgi dunyodagi va o'rta asrlardagi tabiiy davolanish usullariga, ya'ni tabobatga murojaat qilishga majbur bo'lyapmiz. O'z davrining mashhur tabiblari Gippokrat, Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy va boshqa mashhur tibbiyot sohasining yetuk bilimdonlari qoldirib ketgan buyuk tarixiy tabobat merosiga murojaat qilib, uni yanada chuqur o'rganib, uni o'z hayotimizda sinab ko'rib foydalanyapmiz.

Xo'sh endi hozirgi paytdagi fan-texnika natijalari bo'lgan texnika, texnologiyalar bu buyuk shaxslar merosi oldida yana ojizligini namoyon qilmoqda. Hozirgi texnologiyalar shu darajada sun'iy lashib ketdiki, kasallikni davolasho'rniga qaytaniga yangisini yaratmoqda. Masalan, oddiy telefon, kompyuter tomografiyalari. Bular lazer nurlar va o'ta kuchli radioaktivlik xususiyatga ega bo'lib, hozirgi tibbiyotni

shularsiz tasavvur etib bo'lmaydi, ammo baribir tabiiy quyosh nuridan aslo ustun emas, albatta. U tushgan joyini kuydirib tashlab, falajlab tashlash kuchiga ega. Masalan, ko'zni ko'r qiladi, boshga tushsa kal qiladi, suyak va to'qimalarga tushsa o'simta va rak yaratadi. Bunaqa qudrat esa inson ongining yaratgan so'nggi hosilasidir. Ammo bu o'ziga dushman bo'lib xizmat qilyapti. Endi bitta savol tug'iladi. Insoniyat bu yaratgan ixtirolari bilan insoniyatni kasallikdan kelasi yillarda butunlay xalos eta oladimi? Tibbiyot sohasi mutaxassislari o'zlari ham bu muammoli savolni yechishga ojizdirlar.

Demak, taraqqiyot qanchalar shu darajada yuksalaversa, laboratoriyalarda turli tajribalar o'tkazilib, turli dorilar yoki boshqa organizmlar yaratilaversa, bu albatta insoniyat nafsining chegaradan chiqqanligini bildiradi, aksincha yaxshilikka emas, yovuzlikka xizmat qilinadi, xuddi koronavirus **COVID 19** pandemiyasi kabi xitoyliklar tomonidan yana boshqa bir millionlab insonlarni qirishga yetadigan kuchli virus yoki boshqa kasallik o'ylab topilgani kabi. Bulardan tashqari ko'plab sohalarning avtomatlashtirilishi, robotlashtirilishi ham jamiyatda ishsizlikni, tanballikni, harakatsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa tayanch-harakatlanish tizimi kasalliklariga sabab bo'ladi. Insonlar tobora semizlikka yanada moyil bo'ladi. Oddiy telefon va Internet quliga aylanadi, bu esa ruhiy va asab kasalliklari sonini oshiradi. Demak, taraqqiyot hali uzoq vaqt bizlarning oldimizga ko'ndalang muammolarni chiqarib tashlaydi. Shu sabab kasal bo'lmaslik uchun tibbiyotda eng to'g'ri yo'l buyuk tabiblarimiz qoldirib ketgan buyuk meros: badantarbiya qilish, sport bilan muntazam shug'ullanish, toza havoda nafas



olish, toza suv ichish, hamma narsada me'yorga amal qilish, tozalikka rioya qilish, haromdan chekinish, doim toza taomlar iste'mol qilish, toza kiyinish, uyini, xonasini, narsalarni toza saqlash, mehnat qilish, o'z vaqtida uxlab

dam olish, harakatdan to'xtamaslik, doim yaxshi narsalarni o'ylash, kelajakka ishonch bilan qarash, hech bir inson hayotida bir marta bo'lsa ham kasallanmaydi.

### **Xulosa**


Tibbiyot sohasidagi qilinayotgan ishlar, rivojlanish istiqbollari turli tuman bo'lib, bu biz insoniyatdan o'ta aql bilan ish yuritishni, ya'ni har bir bemorni davolashda unga qo'yiadigan tashaxis qanchalar muhim ekanligi, davolash usullarini va xato qilinmasligini har bir tabib, shifokor albatta bilishi va anglamog'I shart. Bu yerda bitta inson taqdiri demak butun millat taqdiri yotibdi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan tibbiyot sohasini o'qigan har qanday yosh avlod birinchi navbatda insonlarni sevishi, mehr ko'rsata olishi saht. Aks holda u tibbiyot sohasida umuman ishlay

olmaydi. Insonning salomatligi, uning har qanday og'ir sharoitda ham tibbiyot sohasi mutaxassislari tomonidan asrab qolinishi bu katta mardlik va jasorat deyishga arzigulik faxr va iftixorli kasb egalarining ishidir. Bu kasb egalari yana faxrli tomoni shundaki, ular o'z hayotlari evaziga o'zgalar hayotini asrab qolishga, ular uchun jon bera olishga qodir bo'lishadi. Shfokorga ishi tushmagan inson bo'lmaydi. Hech kimga ish topilmay ishsizlik kuchaygan davrda ham bu kasb egaloriga doim ish topiladi. Biz insonlar tibbiyot sohasi odamlari oldiga ko'pchilik hollarda murojaat qilmaymiz, kasallik kuchayib ketgach boramiz. Keyin aybni ularga ag'daramiz. Bu esa har bir mo'min musulmon uchun katta gunohdir. Ana shu gunohni bilib bilmay qilamiz va Yaratganning qahriga uchrab, har turli dardga muhtalo bo'lamiz. Agarda har bittamiz avvalo birovni ayblamay o'zimiznin ishlarimizga tavba tazarruda bo'lganimizda hech kim kasal ham bo'lmasdi, albatta. Xullas, ezgulik yo'lida xizmat qilayotgan millionlab tibbiyot sohasidagi shaxslar bor ekan, biz butun insoniyat ulardan butun umr minnatdormiz, Yaratgan doim o'zi ularni qo'llagay, ishlarida yuksak cho'qqilarni tilab qolamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tibbiyot tarixi. X.Rustamova., N.Storajova. T., 2003.
2. Janashiya P.X., Shevchenko N.M. Shifokorlar uchun qo'llanma 2010.
3. Jefri G. Suyak-muskul tizimini jismoniy tekshirish. 2-nashr 2018
4. G'oziyev E., Psixologiya fani XXI asrda, T., 2002.
5. Internet saytlari
6. Tibbiyot.uz
7. Ziyo.uz
8. Fiziologiya.uz
9. Tarix.uz





## ЎЗБЕКИСТОНДА ИСЛОМ МАДАНИЯТИ РИВОЖИ: ЎТМИШ ВА БУГУН

Юлдашбоев Муҳаммадюсуф Муҳаммадкарим ўғли

Фарғона вилояти Бағдод тумани 35-ИДУМ маънавий-маърифий  
ишлар бўйича директор ўринбосари,  
muhammadyusufuldasboea@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6024190>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021  
Ma'qullandi: 15-yanvar 2022  
Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Ўзбекистон ислом маданияти, Ислом дини, масжид ва мадраса, ислом тарихи ва фалсафаси, Собиқ шўро даври.

### ANNOTATSIYA

Ушбу мақолада Ўзбекистон ислом маданиятининг ўтмиши ва бугунги кундаги муқаддас динимизнинг тинчлик, бағрикенглик ва эзгулик дини эканини аҳоли, айниқса, ёшлар орасида тарғиб қилишда ушбу соҳа вакилларининг зарур билим ва салоҳиятига эга бўлиш муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, бугун дин ниқоби остида турли бузғунчи гуруҳлар томонидан дунёда ёвуз ҳаракатлар содир этилаётган мураккаб вазиятда бу ўта долзарб масала бўлиб қолмоқда.

Маълумки, бир асрдан ортиқ давом этиган мустабид тузум даврида маънавий илдизларимиздан айириш, динни жамият ҳаётидан сиқиб чиқаришга уринишлар бўлди. Натижада, маънавият ва маърифат ўрнини маълум даражада жаҳолат эгаллаб, юртдошларимиз фикр, тафсир, ҳадис, тасаввуф илмлари ҳақида ҳатто умумий тушунчага ҳам эга бўлмади қолдилар. Шунини таъкидлаш жоизки юртдошларимиз орасида ҳатто, “ислом дини, мусулмончилик нима?” деган саволларга жўйали жавоб бера оладиганларнинг сони ҳам озчиликни ташкил этиб қолди. Моварауннаҳр диёри азалдан дин-у-диёнат ўчоғи, олим-у фузалолар юрти эканлагини унутиб қўйдик.

Истиқлолнинг дастлабки кунлариданоқ диёримизнинг барча фуқаролари ҳақиқий эътиқод

эркинлигини ҳис эта бошладилар. Бугунги кунда Ўзбекистонда турли дин вакилларининг ҳуч қандай тўсиқларсиз ўз динларига эътиқод қилишлари учун барча шароитлар яратилган. Собиқ шўро даврида республикамизда бор-йўғи 87 та масжид ва иккита мадраса фаолият кўрсатган бўлса, ҳозир Ўзбекистон мусулмонлари идораси бошқаруви остида расмий рўйхатдан ўтган, барча қулайликлар яратилган 2244 дан ортиқ масжид, 10 та мадраса ва Тошкент Ислом институти фаолият кўрсатиб турибди. Мустақиллик йилларида 110 мингдан ортиқ мусулмонлар ҳаж сафарига ва 80 мингдан ортиқ Умра сафарини амалга оширишдилар.

Шунингдек, мамлакатимизда истиқомат қилаётган 130 дан зиёд миллат ва элат вакиллари ҳам ўзлари эътиқод қилаётган динларида эмин-





эркин ибодат қилмоқдалар. Бугун республикамизда 16 турдаги 170 дан зиёд ноисломий диний ташкилотлар расман фаолият кўрсатмоқда. Булар жумласига: 157 та христианлик, 8 та яхудий, 6 та бахаи, 1 та кришнаитлар жамоаси ва 1 та буддавий ибодатхоналар киради.

1999 йил 7 апрел куни Давлатимиз биринчи президенти И.А.Каримов Фармонига асосан Тошкент Ислом университети ташкил этилди. Ҳар йили мазкур олийгоҳ диний қонунчилик, иқтисод ва табиий фанлар факултетларига 100 дан ортиқ талабаларни қабул қилади. ислом тарихи ва фалсафаси, Университет қошида Исломшунослик илмий тадқиқот маркази, манбалар хазинаси ҳамда академик лицей фаолият кўрсатмоқда.

Таъкидлаш жоизки, ҳар қандай мамлакатда жамият хавфсизлиги ва мамлакат барқарорлигинитаъминлашда энг аввало, диний маърифий ва бағрикенглик конфессиялараро ҳамкорлик муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, мазкур омиллар юртимизда ўзига хос ёндашувни тақозо этиб, кўп миллатли мамлакатимизда тинчлик, хотиржамлик ва барқарорликни таъминлаши орқали осуда ҳаётни ҳукм суришига замин яратади. Ўтмишдан маълумки, юртимизда азалдан зардуштийлик, буддавийлик, насронийлик, монийлик ҳамда ислом дини вакиллари ўзаро иноқ ва тинч-тотувликда истиқомат қилишган. Бу ҳақда, фикр юритганда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев қайд этганидек: “Маълумки, бизнинг қадимий ва саховатли заминимизда кўп асрлар давомида

турли миллат ва элат, маданият ва дин вакиллари тинч-тотув яшаб келган. Меҳмондўстлик, эзгулик, қалб саховати ва том маънодаги бағрикенглик бизнинг халқимизга доим хос бўлган ва унинг менталитети асосини ташкил этади”.

Дунёдаги энг инсонпарвар дин бу албатта, ислом дини саналади. Сабаби исломда инсонлар ирқи, келиб чиқиши, мансаби, жинсидан қатъий назар улар Аллоҳ олдида бирдирлар. Худди шу принцип ислом динида инсон омили қанчалар юксак эканлигини кўрсатиб беради. Ислом дини юзасидан гапирадиган бўлсак инсоннинг ҳар бир қилган ҳаракати саволдир ва севинч ёки қайғуси жавоб бўлади. Гўзал жавоб учун Аллоҳга шукрона келтириш, ёмон жавоб учун эса, Аллоҳга тавба қилиш лозим.<sup>1</sup>

“Бизнинг балойимиз етганда ҳам тазарру қилмадиларми?!(Албатта, тавба-тазарру қилишлари лозим эди,) лекин уларнинг диллари қотиб қолган”<sup>2</sup>, - дея буйрулганидек, улар жавобнинг саволга мувофиқлигини тушунмадилар. Яъни буни шундай изоҳлашимиз мумкинки, инсонлар ўз саволларига берилган жавобларга қараб: бу хунук жавоб саволга лойиқ эмасдир, - дейишлари мукин. Бунга шундай мисол келтириш мукин. Тутун олвдан эмас, балки ўтиндан эканлиги. Бу эса, ўтин қанча қуруқ бўлса, тутун ҳам шунча оз бўлади. Ёки бўлмаса, гул боғидан ёмон ҳид келса, айб гулдами? Йўқ асло! Бу ерда айбдор фақат боғбондир.

Кўриниб турибдики инсонда юзага келадиган турли хил саволларга

<sup>1</sup> Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичиндадур.-Т. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2018.

<sup>2</sup> Куръон, 6-сура, 43-оят



жавоб излашда беихтиёр динга мурожаат қилади. Инсонлар қайси динга эътиқод қилишларидан қатъий назар улардаги барча саволларга ечим ҳар доим ҳам топила вермайди. Биз инсонмиз шундай экан бизнинг ожиз томонларимиз ҳам мавжуд. Инсондаги бу ожизлик агар динда бўлса у ўзи билмаган ҳолда турли хил кўнгилсиз ҳолатларга тушиб қолиши мумкин. Билиб-билмай кимларнидир камситиш ҳолатлари ҳам бўлиши мумкин. Бу борада инсонга ўз дини бўйича агар тўғри таълим ва тарбия берилмаса унда йўлдан адашиш юзага келади.

Ислom дини қарийб минг йиллардан бери Марказий Осиё халқлари ҳаётининг ажралмас қисмига айланган. Орадан асрлар ўтиб, минтақада ҳукмронлик диний ғоялардан холи дунёвий давлатлар қўлига ўтган бўлса-да, исломий асосга эга урф-одатлар, дунёқараш ва


маданият оддий халқ ҳаётидан, хусусан, диний амаллардан узоқ дунёвий одамлар турмушидан ҳам мустаҳкам ўрин олган.

Сўнгги йилларда минтақанинг диний ҳаётини ўрганишга қаратилган илмий изланишлар сони ортди. Ислomнинг, асосан, сиёсий жиҳатига эътибор қаратувчи тадқиқотчилар, кўпинча, диндорлар сонининг ошишини радикализм ва экстремизмнинг кучайиши билан боғлашади. Питсбург университети тадқиқотчи Девид Монтгомерига кўра, бундай қараш юзаки бўлиб, ислом ва мусулмонларга ҳақиқий баҳо бериш имконини йўққа чиқаради. “Марказий Осиёда зўравон исломий экстремизм жуда кам учрайдиган ҳолат. Динни ўрганишда унинг давлат тартибига алоқадор бўлмаган бошқа жиҳатларини ҳам ўрганиш муҳим”, - дейди олим.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. «Қиссаси Рабғузий».-Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2018 йил.
2. Лернер Макс. Развитие цивилизации в Америке. Образ жизни в Соединенных Штат сегодня. – М.: Радуга.1992 йил.
3. Мухтаров О. Глобаллашув шароитида ахборот-психологик хавфсизликни шакллантириш масалалари.-А.: Ўзбекистон. 2014 йил.
4. Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичиндадур. -Т. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2018 йил.





## БУГУНГИ КУН ТАРБИЯСИ

Иброхимов Акмалдин Абдумалик ўғли

Фарғона вилояти Бағдод тумани 35-ИДУМ ёшлар етакчиси,

ibroximovakmaldin@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6024239>

### МАҚОЛА ТАРИХИ

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Тарбия, фарзанд, оила, телевидения, интернет, мобил телефон.

### ANNOTATSIYA

Мақолада ҳозирги кунда телевидения, интернет ва мобил телефонлар фарзандларимиз тарбиясига салбий таъсир этаяпти деймизу, лекин фарзандларимизнинг улардан фойдаланиши учун бир кунлик вақтини белгилаб бермаймиз. Тарбия жуда мураккаб ва нозик масала, айниқса бугунги кунда. Тарбиядаги олтин меёрни топа билиш - унда жазо ва рағбатни ўрнини тўғри белгилаш фарзанд тарбиясида жуда муҳимдир.

**Тарбия биз учун ё ҳаёт ё мамот, ё нажот ё ҳалокат, ё саодат ё фалокат масаласидир.**

### Абдулла Авлоний

Дунёда ўзбек миллати каби маънан етук, гўзал миллий қадриятлар, удумлар, анъаналар соҳиби бўлган миллатни топиш жуда қийин. Биз ўзимизнинг миллийлигимиз билан фахрлансак арзийди. Нима учун шундай гўзал қадриятлар соҳиби бўла туриб бугунги кунда бизнинг фарзандларимиз европага тақлид қилиши керак. Наҳот уларни ўз миллийлигимиз доирасида кийиниш, муомала маданиятини намоиш этиш ва ўзбекка хос фикрлаш ва яшашга тўла-тўқис ўргатолмасак. Бугунги кунда тарбиядаги намоён бўлиб қолаётган айрим оғувчанлик ҳолатига бир қатор сабабларни важ этиб кўрсатамиз. Булардан бири телевидениядир. Ҳозирги кунда

телевидения болаларимиз тарбиясига салбий таъсир этаяпти деймизу, болаларимизнинг телевизор кўриш учун бир кунлик вақтини белгилаб бериш, улар кўрадиган телекўрсатувларини саралаб беришга аҳамият бермаймиз.

Биз тарбиясини бузаяпти деб айблайдиган иккинчи — айбдор шубҳасиз — интернет. Биз глобаллашув даврида яшаймиз ва бу болаларимиз тарбиясига таъсир этмоқда деймиз. Глобаллашув ҳақида буюк сулоланинг ёрқин вакили бўлган Махатма Гандининг шундай фикри бор: "Мен уйим эшик ва деразаларини ланг очиб қўёлмайман, чунки уйимга чанг-тўзон киришини хоҳламайман. Уйимга чанг-тўзон кирмасин деб унинг эшик ва деразаларини зич ёпиб ҳам қўёлмайман, чунки уйимда зах ҳаво ривожланишига йўл қўёлмайман".

Биз ҳам фарзандларимиз шахсида интернет тармоғидан



зарарсиз тарзда фойдаланиш кўникма ва малакаларини шакллантиришимиз мумкин. Фарзанд тарбиясига салбий таъсир этувчи омиллар қаторида мобил телефонлар ҳам бор. Биз ота-оналар ҳали вояга етмаган фарзандларимизга нима учун мобил телефон олиб беришимиз керак. Ахир бу восита ҳали турмуш тажрибаси кам бўлган, яхши-ёмонни яхши фарқлай олмайдиган, ўсмирларга хос бўлган оғиш хусусиятига молик ўсмир ва ўспирин болаларимиз учун хавфли эмасми. Ахир биз бу ҳаракатимиз билан ўз фарзандимизга оқилу нооқил кириб, фарзандимизга ўз таъсирини ўтказиши мумкин бўлган воситани-мобил телефонни тутқазиб қўймаймизми. Дейлик ўсмир ёки ўспирин қизингизга телефон олиб бердингиз. Ким кафолат беради эртага бирор йигитнинг унинг телефон рақамини қай йўл билан бўлса-да ололмаслигига. Ҳали ғўр, содда қизнинг руҳиятига мобил телефон орқали ҳеч бир киши таъсирини ўтказолмайди деб сиз айта оласизми?! Шу ўринда бир ҳаётий воқеани мисол қилиб айтиб ўтаман. Бир оилали йигит бир қиз билан анча муддат телефон орқали танишиб, сўзлашиб юради. Улар телефон воситасида шу қадар —яқин бўлиб кетадиларки, суҳбатларда ҳаёсиз сўзлар ҳам бемалол ишлатиладиган даражага етади. Уларнинг бир-бирига қизиқиши учрашишга эҳтиёжни туғдиради. Улар телефон орқали учрашув жойини тайин этадилар. Қиз учрашувга қандай кўйлак кийиб чиқишини йигитга тасвирлайди. Йигит (оилали) учрашув жойига келадию ҳайратдан саросимага тушади. У ойлар давомида телефонда турли маза-бемаза мавзуларда сўзлашган қиз ўз синглиси

бўлиб чиқади. Бу вазиятга ким айбдор?! Наҳот Отабек ва Кумушбибилар каби маънавиятли инсонларни дунёга тухфа этган ўзбек миллатига бугун бу қадар тубанлик бемалол хавф солиб турибди?

Бугунги кунда содир этилаётган жиноятларнинг 70 фоизига ҳам телефон сабаб бўлмоқда. Мобил телефон ихтирочиси Мартин Куппер ҳам шундай сабаблар туфайли ўзи яратган ихтирони бекор яратган эканман дея афсусланган бўлса эҳтимол. Текширишларга кўра мобил телефондаги сўзлашишларнинг асосий қисми пул ҳақида кетар экан. Тўғри, моддий қадриятлар маънавий қадриятлардан устунлик қилаётган жамиятда яшаймиз. Лекин ана шу жамиятни шундай томонга ўзгартираётганлар ҳам ўзимиз эмасми? Биздан олдинги авлодларимиз икки хонали уйда ўнлаб фарзандларни яхши тарбия қила олганлар. Биз эса ўн хонали уйда икки нафар фарзандни тарбиялаш борасида муаммоларга учраганимиз-учраган. Нима учун шундай? Ҳар бир инсонни ҳаётдан икки қарзи бор: бири ниҳол ўстириш, иккинчиси фарзанд тарбиялаш. Инсонлар ана шу ҳаётий қарзларини тўқис адо этишлари уларни икки дунё саодатига эриштиради. Чунки ота-она вафотидан кейин ҳам улар фарзандларининг хайрли амалларидан ота-онаси ҳаққига савоб ёзилиб турар экан. Маълумки, олма тагига олма, беҳи тагига беҳи тушади. Агар бизнинг шахсимиз комилликдан йироқ экан, комил шахсни тарбиялашимиз қийин. Тарбия жуда мураккаб ва нозик масала, айниқса бугунги кунда. Тарбиядаги олтин меёрни топа билиш - унда жазо ва рағбатни ўрнини тўғри



белгилаш фарзанд тарбиясида жуда муҳимдир. Фарзандингизга меҳр беринг. Унинг бетакрор ва қайтарилмас шахсини ҳурмат қилинг. Уни ҳар куни 10-12 марта бағрингизга босинг. Унинг учун ҳар куни камида ярим соат вақт ажратинг, суҳбатлашинг, биргаликда дарс тайёрланг, муаммоларига биргаликда ечим изланг, уни руҳий қўллаб-қувватланг.

Кунлардан бир кун қалам ўчирғичга шундай дебди:

-Жуда афсусдаман.

-Нима учун? Ҳеч бир хато иш қилмадинг-ку!

-Ҳар доим мен қилган хатоларни ўчирасан. Шу аснода кундан кун кичрайиб бораверасан.

-Лекин мен кўриб турганингдек шу вазифани бажариш, сенга кўмаклашиш учун яратилганман. Афсусланишни бас қила қолгин. Сени хафа ҳолда кўришни истамайман. Мен қалам ва ўчирғични суҳбатига қулоқ тутиб шундай фикрга келдим. Ота-оналар худди фарзандларини хатоларини тўғрилайдиган ўчирғичга ўхшайдилар. Улар ҳам вақт ўтган сари жуссалари ўз шакл-шамойилини йўқотиб, кундан кун кичрайиб бораверадилар. Модомики ўчирғич бўлиб шаклланган эканмиз фарзандларимиз-қаламларимизни шундай тарбият этайликки, улар яратган ижодлари шоҳ асар даражасига етсин.

**Фарзанд тарбияси борасида тавсиялар:**

Фарзандингизнинг бетакрор ва қайтарилмас шахсини ҳурмат қилинг.

Фарзандингизга доимо дўст бўлиб яшанг, қизиқишларини ҳурмат қилинг. Унинг сизга ишонган сирларини сақлай билинг.

Фарзандингиз келажагига доир режаларни биргаликда тузишга ҳаракат қилинг.

Комил шахс бўлиши учун ҳар куни 10-12 марта бағрингизга босинг.

Фарзандингиз билан муносабатда сабрли ва мулойим бўлинг.

Фарзандингизга ўзингиз шахсий наъмуна бўла олинг.

Фарзандингиз шахсида иродавий сифатларни шакллантиришга эътибор қаратинг.

Керак пайтида унга —йўқ дея олишни билинг.

Фарзандингизни миллий маънавиятимиз талаблари доирасида тарбиялашга интилинг.

Оилангизда осойишта ҳаётнинг барқарорлигини таъминланг.

Оилада турмуш ўртоғингиз шахсини асло камситманг.

Оилада миллий қадриятлар ва удумлар устуворлигига аҳамият беринг.


Тарбияда жазо ва рағбатнинг ўрнини тўғри белгиланг. Болага жисмоний жазо бериш оқилона тадбир эмаслигини ёдда сақланг

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Аверченко А.Т. Вопрос воспитания. —М.: ЭНАС-КНИГА. 2012.-64 с
2. Алимов Х., Азимова Ф. Болалар тарбияси бўйича саволларга-жавоблар (Ота-оналарга тавсиялар).-Т.,2014.—48 б
3. Мухтаров О. Глобаллашув шароитида ахборот-психологик хавфсизликни шакллантириш масалалари.-А.: Ўзбекистон. 2014 йил.







## YOSHLAR VA ULARNING HUQUQIY TARBIYASI

Tojiyeva Naziraxon Boqijonovna

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 35-IDUM

Ingliz tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6024313>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

O'zbekiston Respublikasi;  
jamiyat; kichik qatlam;  
huquqiy madaniyat;  
maqsad; huquqiy ong;  
tizim; xalqimiz; yoshlar;  
huquqiy ta'lim; Adliya  
vazirligi; Yuridik  
texnikumlar; yurtimiz;  
siyosat.

### ANNOTATSIYA

*Maqolada hozirgi kunda jamiyatimizning eng quyi qatlamining ham yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdan haqida so'z boradi.*

O'zbekiston Respublikasi o'z Mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab yosh avlodning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jismonan va ma'nan sog'lom bo'lishi uchun bir qator tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. 1997- yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarorining eng asosiy maqsadi jamiyatimizning eng kichik qatlamigacha huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan edi. Yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdan iborat bo'lgan. Huquqiy madaniyat ham xalqimizning umumiy madaniyatning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Insonlar ongida huquqiy madaniyat shunday ishonch qaror topishi kerakki, huquqiy

bilimlarga ega bo'lgan va ularni amaliyotda qo'llay oladigan har qanday inson madaniyatli va bilimli deb hisoblanishi kerak. Yuqorida ta'kidlanganidek, aholining eng kichik qatlamigacha huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida shu kungacha bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bularga misol qilib aytadigon bo'lsak "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarning huquqiy ta'limini



takomillashtirish kompleks dasturi to'g'risida"gi Qarori kabilarni aytsak bo'ladi. Bu qonun hujjatlarining ijrosi sifatida qator amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan, Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik texnikumlar tomonidan yosh huquqshunoslardan iborat "street law" loyihasi tashkil etilgan va bu faoliyati e'tirofqa loyiqdir.

Huquqiy savodxonlikni oshirish uchun yetarli huquqiy ta'lim-tarbiya orqali erishishimiz mumkin. Shu yaqin yillarda Adliya Vazirligi tizimidagi Toshkent Davlat Yuridik Universiteti qoshida tashkil qilingan Yuridik texnikumlar va Toshkent Davlat Yuridik Universitetiga qabul qilishdagi test sinovlari uchun Huquq fani qoshilgani umumiy o'rta ta'lim sohasida o'z o'zidan huquqiy fanlarga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga erishish uchun bir turtki bo'la oladi. Kelgusi yillarda kutilayotganideg yuridik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun "Huquqshunoslik" faniga ixtisoslashtirilgan sinflarning bo'lishi ham huquqiy madaniyatga, huquqiy ta'lim-tarbiyaga foydali bo'la oladi. Huquqiy ta'lim-tarbiyani maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlash samarali bo'ladi. Bu yoshda huquqiy ta'limning eng quyi bosqichi yani, bu yoshdagi bolalarga konstitutsiya, qonun, fuqarolik, huquq, majburiyat kabi tushunchalarni singdirib borish lozim, Huquqiy ta'limning bunday bosqichdan boshlanishi bolaning yoshligidanoq oz huquq va majburiyatlarini taniy olishini, ulardan qanday foydalana olishini tushunib yetishiga kafolat bo'la oladi. Huquqiy tarbiya har bir shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi bir tizimdur. Shuni ta'kidlash kerakki, yaqin o'tmishda ham huquqiy tarbiyaga hozirgi kundagi

kabi imkoniyatlar hamda e'tibor berilmas edi. Umumiy o'rta ta'limga doir darsliklarda ham huquqiy tarbiya xususida eslatilsada lekin o'quvchilar uchun bu narsalar qiziq bo'lmagan va qiziqtirilmagan edi. Bularning oqibatida o'sib kelayotgan avlodning ayrim qismini huquqiy ongi, huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

Shu yaqin yillarda O'zbekistonda huquqiy davlat barpo etishda juda ham katta qadamlar qo'yila boshladi, bu maqsadga erishish yo'lida huquqiy tarbiya, huquqiy ongni takomillashtirish masalalariga katta etibor bera boshlandi. Bu jaroyonda yuridik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etilgan Yuridik texnikumlar va Adliya vazirligining vilyatlardagi boshqarmalari bilan birgalikdagi har yili tashkil etiladigon "Adliya sayillari" orqali va turli xalqning eng quyi qatlamigacha kirib borgan holda "Yosh volantyorlar" guruhlarini tashkil qilinib turli sorovnomalar orqali aholining huquqiy ongini o'rganish ishlari olib borila boshladi. Ammo o'tkazilgan so'rovnomalarning natijalariga muvofiq huquqiy tarbiyali bo'lish uchun har bir shaxs umumhuquq bilimiga, uni ongli ravishda qabul qilishga va huquqiy madaniyatni alohida bajarishga yetarli darajada huquqiy saboq olish kerak degan hulosaga kelindi. Lekin hozirgi paytgacha huquqiy tarbiya tushunchasi, uning tushuntirish usullari, metodlari qonunshunos olimlarimiz tomonidan to'laligicha yoritilmagan.

Huquqiy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan hozirgi kundagi yangi tajribalar va o'zgarishlar orqali huquqiy tarbiya natijasida keng ommaga yoki har bir shaxs o'z hatti - harakatlarining qonuniy ekanligini tushuna boshlamoqda, huquq tartibotni buzmaslikka ongli ravishda



harakat qilmoqda, va bu orqali huquq normalariga rioya etishdagi ko'plab natijalarga erishilmoqda.

Hozirgi kunda yoshlar qatlami deganda, dunyoning turli mamlakatlarida turli yoshdagi fuqarolar tushuniladi. Masalan, AQSh va Yaponiyada 13-14 yoshdan 29-30 yoshgacha bo'lgan shaxslar yoshlar hisoblansa, Bolgariyada 15 yoshdan 29 yoshgacha, Rossiyada 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar yoshlar toifasiga kiradi.

Germaniyada «kichik yoshdagi yoshlar» 14-18 yosh hamda «katta yoshdagi yoshlar» 18-27 yoshga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasida esa 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar toifasini tashkil etishi O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida belgilab qo'yilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2016-yilning 14-sentabrida qabul qilingan ushbu qonun yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu qonun o'z ichida yoshlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash; ularning huquqiy ongi va madaniyati darajasini yuksaltirish kabilar nazarda tutilgan.

Huquqiy madaniyat uchun huquqiy ong zaruriy element ekanligini hisobga olgan holda shuni e'tirof etish kerakki, huquqiy ong bo'lishi uchun avvalo huquqiy savodxonlik juda zarurdir. Huquqiy savodxonlik fazilati shaxs – jamiyat – davlat munosabatlariga muhim ta'sir ko'rsatadi, hayotda mehnat faoliyatida yoki boshqa bir sohada yuzaga keladigan muammolarni adolatli va xolis hal qilish imkonini vujudga keltiradi. Umumiy qilib aytadigon bo'lsag huquqiy savodxonlik – bu yuridik matnlardagi atamalarni tushunish, ulardan umumiy xulosalar chiqarish va bu

bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni bilishdan iboratdir. Xalqaro huquqning yuridik manbalarida ham shunga yaqin mazmunda ifodalangan, ya'ni shaxsning o'z huquq va majburiyatlarini tanishi, qaysi holatlar yuridik nizo ekanligini bilishi va ularga qonuniy yechim topa olishi, huquqiy axborotni qayerdan topishni, yuridik yordamni qayerdan va qanday qilib olishni, qonunchilik tizimida qaysi choralar borligini hamda protsessual tartibni bilishi huquqiy savodxonlik belgilari hisoblanadi.

Hozirgi kundagi yoshlarning huquqiy sohadagi erishilayotgan ko'plab natijalar oldingi yillarga qaraganda sezilarli darajada o'sgani quvonarli holat ammo hali ham ayrim yoshlar orasida huquqiy savodxonlikning pastligi nafaqat ularning o'zlari uchun, balki jamiyat va davlat uchun ham zararli va global muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi yoshlarning o'z huquqlaridan to'laqonli foydalana olmasliklariga, majburiyatlaridan bexabar qolishlariga sabab bo'lib qolmoqda.

Majburiyatlardan bexabarlik yoki harakatlarining huquqiy oqibatini anglamaslik bugungi kunda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bizning eng asosiy maqsadimiz huquqiy-demokratik davlat qurishni oldimizga maqsad bo'lsa, bu mashaqqatli yo'lda huquqiy ongi va madaniyati yuksak yoshlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bunga esa huquqiy savodxonlikni oshiribgina erishishimiz mumkin. Qisqasini aytganda, Faqat chuqur o'ylangan va tezkor davlat siyosatigina yoshlarning huquqiy madaniyatini ko'tara oladi va ularning huquqiy ongi darajasini yuksaltirishga yordam beradi.






**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun (2016.09.14)
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – O'zbekiston, 2019.
3. Karimova O. Huquqni o'qitish metodikasi.- TBPU. 2010.
4. U.Tojihonov, A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi. I-II tomlar. T.: Akademiya, 1998.
5. Islomov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga. -T .: TDYI, 2002, -87b

**Elektron manbalar:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. [www.ziyonet.Uz](http://www.ziyonet.Uz)
4. [www.uwed.uz](http://www.uwed.uz)
5. [blog.habar.uz](http://blog.habar.uz)
6. [my.gov.uz](http://my.gov.uz)





## O'ZBEKISTONDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH METODIKASI TARIXI VA RIVOJLANISHI

Yuldasheva Mashxura Mo'minjonovna

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 35-IDUM o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6024693>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Matematika, o'qitish  
metodikasi, tarixi, ta'lim  
to'g'risida, Kadrlar  
tayyorlash milliy dasturi,  
analiz va sintez,  
Faroziyxon.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada matematik fanlarni o'qitish metodining o'ziga xos xususiyatlari, asosiy interaktiv metodlarni yoritib berishga harakat qilindi. Hozirgi paytda keng qo'llanilayotgan metodlar, matematik fanlarni o'qitishdagi ilg'or mamlakatlarda to'plangan tajribalar ham hisobga olingan.

Mazkur maqolada shu sohadagi eng ilg'or qadamlardan bo'lib, uning tuzilishi va mazmuni to'g'risida bildirilgan fikr va mulohazalar kelajakda uni yanada takomillashtirishga yordam beradi, deb o'ylayman.

### XX asrgacha O'rta Osiyo madrasalarida matematika fanining o'qitilishi

Matematika fani qadimiy va doimiy navqiron fandır. U kishilik jamiyati paydo bo'lgandan boshlab rivojlanib, taraqqiy etib kelmoqda. Hozirgi kunda biron bir soha yo'qki, unga matematika kirib bormagan bo'lsin. Matematikaning bu darajada yuksalib borayotganligida, albatta, o'tmish ajdodlarimizning, shu jumladan Al-Xorazmiy, Beruniy, Al-Farg'oniy, Ali Qushchi, Al-Koshiy, Ibn Sino, Ulug'bek va x.k. larning ham xizmatlari buyuk ekanligini e'tirof etamiz.

Ota-bobolarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan ilmiy boyliklar, ular tomonidan yaratilgan asarlar xalqimiz, davlatimiz tomonidan asrab avaylanib, saqlanib o'rganilib kelinayotganligini kelajagimiz vorislari bo'lgan o'quvchilarimizga ham aytish, allomalarning ilmiy meroslari bilan ularni muntazam tanishtirib borishimiz shartdir.

### Zero, A.Kasiriy aytganidek, -"Moziyga qaytib ish ko'rishlik xayrlikdir".

Matematika fanining paydo bo'lish tarixi qanchalik uzoq davrlarga borib qadalsa, ushbu fanni o'rganish, uni o'qitilish tarixi ham shu qadar uzoqdir. XV asrdan XX asrgacha O'rta Osiyo hududi madrasalarida matematikani o'qitish qanday amalga oshirilgan? Bu savolga S.A.Axmedovning "O'rta Osiyoda matematika taraqqiyoti va uni o'qitish tarixidan" ("O'qituvchi" - 1977 y) nomli kitobida ma'lum darajada javob berilgan. Unda keltirilishicha Madrasa o'sha davrning oliy diniy maktabi hisoblangan. Madrasada diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham berilgan ekan. Madrasada, qat'iy dastur va o'quv rejasi bo'lmasada, mavzular uzoq yillik tartib asosida o'qitilgan. Unda arab tili grammatikasi, arab tilidagi diniy kitoblar, tibbiyot, geografiya, astronomiya va "Xisob" nomi bilan arifmetika, algebra hamda geometriya ham o'qitilgan. O'rta asr





sharq matematiklarining ilmiy asarlari takomillashgan ko'rinishida madrasada dastur (o'quv-reja) tariqasida qo'llanilgan. Masalan, Xorazmiy o'zining asarlarida sonlarni yozishning o'nli sistemasini bayon etgandan keyin sonlarni ikkilantirish va yarimlatishdan boshlab, ildiz chiqarish amali bilan tugatgan bo'lsa, madrasada ham shu tartibda o'qitilgan. Qolgan mavzular ham Xorazmiy va undan keyingi o'rta asr matematiklari yozgan asarlar tartibida bayon etilgan.

Madrasalarda matematikaning o'qitilishi keltirilgan ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan. Madrasada o'qitilgan matematikaning oxirgi qismi arifmetika, algebra va geometriya fanlarini amaliyotda tatbiq qiluvchi katta xajmda "Meros taqsim qilish" dan iborat bo'lib, bu o'rta asr sharq matematiklarining asarlari asosida tuzilgan, shariat normalariga qarab, merosxo'rlar o'rtasida mulkni taqsimlashga doir turlicha nomlar bilan aniq xarakterdagi murakkab masalalar hal qilinadi. Madrasada matematika o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri meros taqsimlashning ilmiy va amaliy nazariyasini biluvchi mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir, bunday mutaxassis "Faroziyxon" (Meros bo'luvchi) nomi bilan ataladi. Tayyorlangan faroziyxonlar mahalliy sud (qozixona) organlarida meros taqsimlash bilan shug'ullangan.

O'z davrida oliy tipdagi o'quv yurti hisoblangan madrasada matematika o'qitish formasi, asosan, dars bo'lgan. O'qituvchi talabalarga yangi mavzuni bayon etgandan so'ng, ularga shu mavzu yuzasidan Madrasa xujrasida ma'lum muddatga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. Uning bajarilganligi o'qituvchi tomonidan tekshirilib, baho qo'yiladi, so'ngra yangi mavzu o'tiladi. Mustaqil

ishlar ko'proq amaliy xarakterga ega bo'lib, talabalar uchun zerikarli: va ularning ko'p vaqtini olgan. Masalan, birni ketma-ket ikkilantirish bilan 264 gacha davom ettirib, buning teskarisi 264 dan boshlab ketma-ket yarimlanishni bir chiqquncha davom ettiriladi. yoki, 20 va undan ortiq xonali sonlardan aniq va taqribiy (ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va istalgan ko'rsatkichli) ildiz chiqarishga doir juda ko'p miqdorda misollar yechiladi.

Matematika o'quvchilarda iroda, diqqatni to'plab olishni, qobiliyat va faollikni, tasavvurini, shaxsning axloqiy sifatlarini (qat'iyatli, aniq maqsadga intilish, ijodkor, mustaqil, ma'suliyatli, mehnatsevar, intizomli va tanqidiy fikrlash) hamda o'zining qarash va e'tiqodlarini dalillar asosida himoya qila olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Matematikani o'rganish jarayonida inson tafakkurining usul va metodlari qatoriga induksiya va deduksiya, umumlashtirish va aniqlashtirish, analiz va sintez, abstraksiyalash, analogiya, tasniflash va sistemalashtirish kabilar qo'shiladi.

Matematikani o'rganishda o'quvchilar o'zlarining fikr, mulohazalarini aniq va tugal, lo'nda va mazmunli bayon qilishga, matematik yozuvlarni tushunarli, batartib, bajarish malakalarini egallaydilar.

### **O'zbekistonda matematika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish - davr talabi**

O'zbekistonda barcha fanlar kabi matematikani o'qitish metodikasi ham tubdan takomillashtirildi.

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti qoshida "Maktabda matematika, informatika va XT asoslarini o'qitish" bo'limini tashkil etilishi, mazkur fanlarning ko'lami, mazmuni, o'qitish usullarini tadqiq



qilish va maktabga joriy etish ishlari bilan shug'ullanishga olib keldi.

Ushbu bo'lim dastlab 1940-yilda fizika va matematika sektori tarkibida tashkil topdi. I.A.Teplov boshchiligida ilg'or tajribani umumlashtirish va uni ommalashtirish bo'yicha ishlar olib borildi. Keyinchalik 1964-1967 yillarda A.A.Samig'jonov, 1967-1970 yillarda J.Ikromov, 1971-1978 yillarda N.G'aybullayev, 1978-1989 yillarda E.Yangiboyeva va E. Turlikulovlar sektorga rahbarlik qilganlar.

Shu yillar mobaynida sektor xodimlari M.Saxayev, M.Muxamedov, X.Sodiqova, N.G'aybullayev, R.Vafojev, E.Bozorova, E.Yangibosva, M. Raimov, SH.Odilxujayeva, J.Sultonov va boshqalar davrning dolzarb muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib bordilar. Ularning O'zbekiston, yaqin xorijiy davlatlar matbuotida bir qator darsliklari, metodik qo'llanmalari, tavsiyanomalari jumladan, J.Ikromovning «5-sinfda matematika darsligi (dars ishlanmalari)», 6-sinf uchun «Matematika» o'quv qo'llanmasi, «Geometrik isbotlash metodlari», «Maktab matematika tili», «Maktab matematika lug'ati», «Stereometrik mashqlar sistemasi», «Yangi programma asosida matematika o'qitish» nomli ishlari, N.Faybullayevning «Maktabda matematikadan ta'limiy praktika» kitobi va 7-sinf «Geometriya» darsligi, E.Yangiboyevaning 1,2,3 va 4-sinflar uchun «Matematika» darsliklari, SH.Odilxo'jayevaning «Darslik bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini shakllantirish» va «Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda didaktik materiallardan foydalanish» kabi metodik tavsiyalari nashr qilinadi. 1975-85 yillarda ilmiy tadqiqotlar olib borib R.Vafojev, E.Bozorova, E.Yangiboyeva,

J.Sultonov, K.Ostonovalar nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildilar.

Bo'lim xodimlari yillar davomida institut tomonidan o'tkazilgan va tashkil etilgan qator pedagogik o'qishlarda, shuning bilan bir qatorda 1994-yili «O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish muammolari» yuzasidan o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanda, 1999-yilda o'tkazilgan «Yangi pedagogik texnologiyalar (muammolar, yechimlar)» ilmiy-amaliy anjumanida hamda institut tomonidan nashrdan chiqqan barcha ilmiy to'plamlarda o'z maqolalari bilan faol qatnashdilar.

### **Mustaqillik va ta'lim tizimida islohotlar**

Mustaqillik e'lon qilingan (1991-yil 1-sentyabr) dastlabki yillardanoq O'zbekiston hukumati ta'limga ustivor soha sifatida e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida aniq va ravshan hamda ilmiy asoslangan davlat siyosati mavjud bo'lib, u insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanadi hamda har bir fuqaroning bilim olishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonuniylashtirilgan.

Mustaqil Respublikamizda xalq ta'limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarur edi. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlarda asosiy maqsad ham barcha fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iboratdir.

Ana shu maqsadni amalga oshirish borasida Respublikamiz hukumati xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilishni va milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni tobora ortib borayotganligini hisobga olib ta'lim tizimini ham yangilashni taqozo etar edi.



Shu maqsadda 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida" Qonun hamda "Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" keng muhokama qilindi va tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim, tarbiya fuqarolar kasbiy tayyorgarligi va har bir fuqaroning ilm olish konstitutsion huquqini ta'minlash kabi qator dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

Respublikamiz bugungi kunda tubdan yangi davlat bo'lib, unda har bir siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohadagi islohotlar ham yangi ta'lim tizimida bosqichma-bosqich olib borishni nazarda tutadi. Zero, ta'lim sohasidagi islohotlar ham yangi bosqichma-bosqich o'tish tamoyiliga asoslangandir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ham uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asosi bo'lib hisoblanadi. Milliy dasturning asosiy maqsadi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish bo'lib, u ijodiy va mustaqil fikrlovchi, tafakkuri rivojlangan, erkin shaxsni shakllantirish bilan barcha sohalarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni kafolatlash bilan ahamiyatlidir.

Shunga ko'ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq boy madaniyatimizni tiklash va uni rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish, uni zamon talablariga javob bera oladigan jahon andozalari darajasiga ko'tarish maqsadiga e'tibor berib borilmoqda.

Ta'lim sohasida "Ta'lim to'g'risida" Qonun qabul qilinganligi, 1996—1997 yildan boshlab birinchi sinflarda o'qishning lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda

dastur, qo'llanma, dasrliklarning yaratilganligi — bu ta'lim sohasida qo'yilgan dastlabki odimlar edi.

O'tgan davrda yangi turdagi ta'lim muassasalari tashkil etildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida litseylar ochildi. Qobiliyatli o'quvchilar chet ellarda ta'lim ola boshladi. O'qituvchilar xorijiy davlatlarda bo'lib, ilg'or tajribalarni o'rganib kela boshladilar.

Oliy maktab sohasida test usuli joriy etildi. Viloyatlardagi pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi, chet el mutaxassislari respublikamiz o'quv muassasalariga jalb etildi.

"Mahalla", "Kamolot", "Sog'lom avlod uchun", "Nuroni", "Ulug'bek", "Umid" jamg'armalari ham ta'lim sohasini rivojlantirishga hissalarini qo'shmoqdalar.

Mustaqillik yillarida Oliy ta'lim sohasida ham islohotlarni o'tkazish talab qilina boshladi. Bularning barchasi hisobga olinib, 1997 yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga muvofiq, ta'lim tizimini isloh etilish, kadrlar tayyorlash jarayoniga zamon talabi darajasida o'zgartirishlar kiritish maqsadida maxsus komissiya tuzildi va natijada "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida" Qonun Oliy Majlis sessiyasida qabul qilindi.

Bu ikki hujjatga binoan ta'lim tizimi isloh qilishni bosqichma-bosqich amalga oshirish nazarda tutiladi:

*Birinchi bosqich* — o'tish davri. 1997—2001 yillar. Bu yillarda yangi talab doirasida pedagog kadrlar tayyorlash, ta'lim standartlarini yaratish, o'quv dasturlari ustida ishlash, umumta'lim maktablarini qayta qurish, o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari tizimiga zamin tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimiga asos solish.

*Ikkinchi bosqich* — 2001—2005 yillarga mo'ljallanadi. Bu davrda milliy



dasturni to'liq amalga oshirish mo'ljallanadi. Uning ba'zi g'oyalari va qoidalariga o'zgartirishlar kiritilish ham ko'zda tutilgan.

*Uchinchi bosqich* — 2005 yil va undan keyingi yillar bo'lib, islohot tajribalari tahlil etilib, umumlashtiriladi hamda kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirilib, rivojlantirilib boriladi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunga asosan Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor deb e'lon qilindi.

*Ta'lim sohasidagi davlatning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:*

- Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterida ekanligi;
  - Ta'limning uzluksiz va izchilligi;
  - Umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
  - O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litsey va kasb-hunar kollejida o'qishni tanlash ixtiyoriyligi;
  - Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
  - Davlat standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
  - Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
  - Bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish;
  - ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish.
- Xalq ta'limining asosiy bo'g'ini — uzluksiz ta'limi tizimini tashkil etadi.

*O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi.*

O'zbekiston Respublikasida quyidagi uzluksiz ta'lim tizimi asos qilib olingan.

Bola shaxsini sog'lom va etuk o'qishga tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Mazkur ta'lim uch yoshdan olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa xil ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

### **Umumiy o'rta ta'lim.**

Umumiy o'rta ta'lim quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

Boshlang'ich ta'lim (I-IV sinf)

Umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar)

Boshlang'ich ta'limda umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikmalar asoslari shakllantiriladi. Birinchi sinfga bolalar 6—7 yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'limda bilimlarni zarur hajmi beriladi. Bolalarda mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Kasbga yo'naltiradi, ta'limning navbatdagi bosqichiga yordam beradi. Ixtisoslashtirilgan maktalar ham tashkil etilishi va bolalar qobiliyati, iste'dodga ko'ra bunday maktablarda ta'lim olishi mumkin.

### **O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi.**

Har bir yigit-qiz umumiy o'rta ta'limga ega bo'lgandan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishni ixtiyoriy ravishda tanlashi mumkin. Bu ta'lim muassasalarida o'qish muddati uch yildan kam bo'lmaydi.

Litsey va kollejlarda egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradi va hamda ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirishi uchun asos bo'ladigan maxsus, kasb-hunar ta'lim beradi.

### **XULOSA**

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi shuni ko'rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to'g'ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun faqat an'anaviy uslublarga tayanib dars o'tish yetarli emas. Bu esa ta'lim tizimida o' mentalitetini



unutmagan holatda jahon tajribasidan keng foydalanishni talab etadi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, matematika fani sir-asrorlarini o'rganishga bo'lgan talablarni ham kuchaytirdi. Bu esa, o'z navbatida, to'g'ri qaror qabul qilish malakasiga ega bo'lgan matematiklar tayyorlashnigina emas, balki ularni o'qitadigan pedagoglar tayyorlashni ham talab qiladi.

Matematik fanlarni yoshlarga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi bu fanlarni yaxshi bilishi, dars berish metodlarini mahorat bilan qo'llay olishi talab etiladi. Shu bilan birga, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarni ham chuqur bilishi zarur bo'ladi.

Kadrlar tayyorlashdagi asosiy maqsad zarur bilimlarni o'zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Matematika darsida aqliy yuklamani oshirib borishi, hamda o'quvchini o'tilayotgan materialni darsda faolligi va qiziqishini butun dars jarayonida oshirish kerakligi haqida o'ylantirib qo'yadi. Shuning uchun yangi faol o'qitish metodlarni va metodik usullarni, o'quvchilar fikrini faollashira olish, ularni mustaqil bilimga ega bo'lishni ifodalashni o'rgatilmogda.

Matematikaga qiziqish uyg'otish o'qitish usulini yuqori darajasiga va o'quv ishini qanchalik bilan qurishiga bog'liq. Darsda har bir o'quvchi faol va zavq bilan ishlashi, hamda bilimga intilishini paydo bo'lishi va rivojlanishini boshlang'ich nuqta qilib foydalanish, bilim olishga qiziqishini chuqurlashtirishga e'tiborli bo'lish kerak. Bu ayniqsa o'smir yoshdagilarga muhim, qachon yana shakllantiriladi, faqat doimiy qiziqishlari va shu yoki boshqa fanga qiziqishini aniqlash kerak. Shu vaqtda matematikani jalb qiladigan jihatlarini tanqid qilinishi tez bo'lishi kerak.

Zero, akademik M.S.Salohiddinovning aytishlaricha: "Matematikaning bevosita amaliy tadbirlaridan tashqari yosh avlodni har taraflama rivojlangan yetuk kishilar qilib tarbiyalashda uning alohida o'rniga ega ekanligini ta'kidlash zarur. Tahliliy mulohaza, mantiqiy mushohada, fazoviy tasavvur, abstrakt tafakkur inson faoliyatining barcha sohasi uchun zarur qobiliyatdirki, bular matematikani o'rganish jarayonida shakllanib, chuqurlashadi". muhim, qachon yana shakllantiriladi, faqat doimiy qiziqishlari va shu yoki boshqa fanga qiziqishini aniqlash kerak. Shu vaqtda matematikani jalb qiladigan jihatlarini tanqid qilinishi tez bo'lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» T. «O'zbekiston» 1998 yil.
2. Sayidahmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar». T. «Moliya» 2003 yil.
3. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Osiyo taraqqiyot banki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish loyihasi. Toshkent-2002 yil.
4. K.Hashimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent— 2005






UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA SINFLAR RAHBARLARINI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODLARI

Feruza Otanazarova Baxtiyorjon qizi

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani

55-umuniy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6024821>



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Madaniyat, mahorat,  
individual, axloqiy  
normalar.

ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf rahbarlarining o'quvchilar bilan ishlash metodlari, innovatsion usullar orqali yoritilgan. Unda sinf rahbarining o'quvchilari oldidagi burch va vazifalari tarmoqlab ko'rsatilgan. O'quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlikda o'quvchilarni tarbiyaviy ishlarini olib borishlari nazarda tutilgan.*

Sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sarmazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. Sinf rahbari ishining asosiy qismi o'quvchilarni o'rganish. O'quvchilar bilim sifatini oshirish hamda ularning tartib intizomini mustahkamlash. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazish. O'quvchilarning ota-onalari bilan olib boriladigan ishlar ham sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biridir. O'quvchilar jamoasi - sinf rahbarining tayanchi. O'quvchilarni tarbiyalashda sinf jamoasidagi barcha o'quvchilarning bir-birlariga ta'sirlari katta ahamiyatga ega. Ularni bir-biriga ko'rsatadigan o'rnaklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga, ularni xulq madaniyatini, odatini, ko'nikmasini

hosil qiladi. Sinf rahbar har jabhada barchaga o'rnak bo'ladigan zukko, aqlli, bilimdon hamda pedagogik mahoratga ega bolmog'i darkor.

- *Madaniyat* sinf rahbarining yuksak fazilatlaridan darak beradi.
- *Mahorat* sinf rahbarini kasb egasi darajasiga ko'taradi.

Sinf rahbari bolalarni yaxshi bila olishi uchun ularni o'rganish darsda, darsdan tashqari vaqtlarda umuman bolaning hayoti o'tadigan barcha sharoitlarda amalga oshiriladi. Bolani o'rganish bilan sinf rahbari uning individual xususiyatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'ladi.

Bolaning individual xususiyati uning xulqiga, o'zlashtirishiga munosabatlariga jamoadagi o'rniga ta'sir etadi. Shu boisdan ham jamoadagi individlar tarbiyalanayotganda alohida o'quvchini unitish yaramaydi. Chunki sinf rahbari ko'pgina tashkiliy ishlarni uyushtirishda kimga suyanish, kimga qanday vazifa yuklash, kimga mustaqillik berish va kimga



muntazam yordam berish kerakligini faqat ularning individual xususiyatlarini yaxshi bilish tufayligina bexato aniqlaydi. Demak, individual munosabat bolaga tarbiyaviy ta'sir etishning eng samarali yo'lini topish imkoniyatini beradi. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbari butun sinf jamoasini ham o'rganishi kerak. Sinf rahbari o'ziga berilgan sinfni qabul qilib olish bilan bolalar haqida ko'pgina ma'lumotlarni aniqlaydi. Bu ma'lumotlar bolaning oilasidan o'qituvchilardan, o'rtoqlaridan olinadi va tarbiyaga yagona ta'sir birligi ham shu asosda vujudga keladi.

mashaqqatlarga duch keladi. Shuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

Bolalarga  
tarbiyaviy  
ta'sir etuvchi

O'quvchilarni  
tarbiyalashda  
o'quvchining  
talablari

Sinf  
rahbarining  
o'quvchilarni  
o'rganish  
metodlari

O'quvchiga  
individual  
munosabatda  
bo'lish

Tarbiyaviy  
ishlarni to'g'ri  
tashkil etish

Sinf rahbari tarbiyaviy ishning turli bosqichlarida o'quvchi hulq-atvorining ayrim tomonlarini o'rgatishga e'tiborini qaratishi mumkin. O'quvchini har tomonlama o'rgatishga erishmoq uchun dasturni oldindan yaxshi o'ylab tuzish, o'quvchilarni o'rgatish rejasini, suhbat savollarini, insholar mavzularni tayyorlab olish zarur. Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir nechta bola-sinf jamoasini tashkil etadi va ilmu-adab o'rgatadi. Bu jarayonda sinf rahbari ko'p

*Xak yulida senga bir harf o'qitmish  
ranj ila,*

*Aylamak bo'lmas ado oning haqin  
yuz ganj ila.*

Tashqi  
qiyofa  
madaniyati

Nutq  
madaniyati

Sinf rahbarning  
mahorati

Munosabat  
madaniyati

O'z-o'zini  
boshqarish  
madaniyati

- Sinf rahbari o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalar ekan, u o'z faoliyatida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

- sinf rahbari o'quvchi ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.

- sinf rahbari bolalarga ahloqiy normalarni o'rgatishi kerak.

- gerdayishi, manmanlik, ta'magirlik, nodonlik kabi illatlar o'qituvchi ahloqiga yod sifatlardir.

- xalq nazarida olim hisoblanadigan o'qituvchilar yomon ishlardan, fiskufasoddan o'zlarini tiya bilishlari zarur.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan to'g'ri muomila qila olishi murakkab, nozik ish. Chunki hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar, ular vaqtli matbuot, televidinie, radio orqali ko'pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. Shunday vaziyatlar ham bo'ladiki, o'g'il yoki qiz bola maktabda o'zboshimchalik qiladi, lekin

oilada xushyor va gapga quloq soladi, yoki aksincha. Oilada muomalasi qo'pol, o'zboshimcha, maktabda esa o'zini xushmuamola, intizomli tutadi. Buning sababi nimada? Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to'g'ri javobni topish amri mahol. Chunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Demak, sinf rahbari va ota-onalarning maqsadlari bir hil bo'lsa ham, ularning hamkorligi, bir-birini tushunishi, muomala munosabatlari qaramaqarshiliklarsiz bo'lmaydi. Sinf rahbarining faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilganidir. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, xarakter va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Agar tarbiyachi pedagog nimaga intilayotganini ravshan va aniq tushunilmagan joyda tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo'lmaydi, balki tarbiyada o'tkaziladigan ish tasodifiy tusga ega bo'lib, buning uchun ajratilgan vaqtni to'ldirish



uchungina olib boriladi. Tarbiya faoliyatining maqsadlarini aniq bilmagan va bu maqsadlarni hisobga olmagan holda to'la qimmatli tarbiya yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy ahloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Sinf rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinflarda dars beruvchi boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etadi. O'quv ishlarida sinf


rahbarining va shu sinfda ishlaydigan boshqa o'qituvchilarning bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi, o'quvchilarga nisbatan yagona talabni amalga oshirish va o'quvchilarning bir-biriga o'zaro yordamlari ta'lim-tarbiya sifatini oshiradi. Sinf rahbar bir bog'bon bo'lsa, o'quvchilarning har biri har xil gullardir. Har bir gul alohida parvarish talab qilinganidek, har bir o'quvchi ham o'ziga e'tiborni talab qiladi. O'quvchi e'tibordan chetda qoldimi, bas, u parvarishsiz gulga o'xshab qoladi, yo o'zi xohlagan tomonga o'sib, go'zallik tarqatmaydi.

GULLARIMIZ HAYOTIMIZ KABI  
GO'ZAL BOLSIN!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Avloniy. "Turkiy Guliston yohud ahloq" - Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi - Qarshi: 2007.
3. Kaykavus. "Qobusnoma". - Toshkent. O'qituvchi, 1986.
4. "Axloq - odobga oid hadis namunalari". Toshkent: Fan, 1990.
5. Musurmonova O. "Oila ma'naviyat - milliy g'urur". - Toshkent: o'qituvchi. 1999.
6. Ochilova M. "O'qituvchi odobi". - Toshkent: O'qituvchi, 1993





## DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJIDA IQTISODIYOT VA UNING O'RNI VA ROLI

Turg'unov Anvar Yashnar o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6024902>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Ma'naviy hayot, ta'lim, iqtisod, iqtisodiy tizim, davlat, ta'lim-tarbiya.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan davlat va jamiyat rivoji hamda unga ta'sir etuvchi omillar va iqtisodiyotni barqarorlashtirish orqali davlatning rivojiga erishish shartlari haqida so'z yuritilgan.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda davlat va jamiyatning to'g'ri tamoyillar ostida boshqarilishi hamda, rivojlanishi albatta uning iqtisodiy barqarorligiga bog'liq. Bu esa o'z-o'zidan bizga iqtisodiyotni bugungi hayotimiz ravnaqi uchun qanchalar ahamiyatli ekanini anglatadi. Buning kechiktirib bo'lmaz chorasi sifatida amaldagi qonunchilikda iqtisodiyotni to'g'ri va chuqur anglay oladigan hamda, bugungi globallashtirish jarayonida iqtisodiy muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish masalalarini yecha oladigan mutaxassislarini tayyorlash va ularni davlat va jamiyat rivoji uchun to'g'ri taqsimlashdek mukammal vazifa turibdi. Biroq, eng avvalo davlat va jamiyat tushunchasiga tarif bersak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Davlat jamiyatning oliy siyosiy instituti bo'lib, shu jamiyatda yashayotgan mamlakat fuqarolari manfaatini himoya qilish uchun o'rnatiladi. Davlat mamlakat chegaralarini himoya qiladi, boshqa mamlakatlar bilan aloqada bo'ladi, qonunchilik bilan

shug'ullanadi va hokazo. Davlat — mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma. Davlat jamiyatni o'z qonun-qoidalariga ko'ra idora qiladi, turli tip, shakllarda tashkil topadi. Davlat masalasi haqidagi qarashlar, ta'limotlar, davlat hokimiyati hamda iqtisodiy xayot hodisalari hamma zamonlarda alohida dolzarblik kasb etib kelgan. Shu o'rinda qadimgi davrda ham iqtisodiyotni davlat rivojining asosiy tamoyili sifatida ko'rilganligi ahamiyatlidir. «Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oraliq'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi»<sup>1</sup> degan edilar O'zbekiston respublikasining 1-Prezidenti

<sup>1</sup> «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» 2007y 154b.





I.A.Karimov. Shunday ekan “Avesto”da ham bizning xalqimiz iqtisodiyotining tarixiy tamoyillari haqida bir qancha asosli ma’lumotlar keltirib o’tilgan. Kitobda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aks ettirilgan holda shunday deyiladi: «Yomon ovqatlangan xalq na yaxshi, kuchli ishlovchilarga va na sog’lom baquvvat bolalarga ega bo’ladi... Yomon ovqatlanishdan odob-ahloq ham aynib ketadi. Agar non mo’l-ko’l bo’lsa, muqaddas so’zlar ham yaxshi qabul qilinadi»<sup>2</sup>. Bu yerda biz sog’lom avlod to’g’risida, iqtisodiy va madaniy, ma’naviy yuksalish o’rtasida o’zaro bog’liqlik mavjudligi to’g’risida fikr yuritilganligini ko’ramiz. O’sha davrda aytilgan bunday fikrlar, ajdodlarimiz Qadimgi Dunyo madaniyatida yuqori yutiqlarga erishganligidan dalolat beradi. Bu noyob kitobda patriarxal urug’ jamoasi haqida, uning tugatilishi davrida iqtisodiy tengsizlik, sinfiy tabaqalanish haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi. Bundan tashqari tarixda iqtisodiy tamoyillar haqida bir qancha olimlarning fikrlari va qarashlari ham ahamiyatli hisoblanadi. Ulardan quyidagilari ahamiyatli hisoblanadi: U.Stafford(Angliya), G.Skaruffi(Italiya)lar dastlabki merkantilizm maktabi asoschilari hisoblanishadi. Merkantilizm (italiyancha «merkante» so’zidan kelib chiqqan – savdogar ma’nosini anglatadi), bu bozor (kapi-talistik) iqtisodiyotga bo’lgan birinchi ilmiy qarashlar tizimidir. Dastlabki merkantilizm «pul balansi» siyosatini olib borgan. Bu siyosat pul muomalasini, tashqi savdoni qattiq tartiblab turishni ta’minlovchi ma’muriy yo’l bilan mamlakatning pul boyligini ko’paytirishga qaratilgan (mamlakat puli qancha ko’p

bo’lsa, u shuncha boy hisoblangan). Dastlabki merkantilizm oltin va kumushni boylikning mutlaq shakli deb qaradi va uni chetdan olib kelish yo’lini qidirdi. Tashqi savdoda ijobiy saldoga erishish uchun dastlabki merkantilistlar maqsadga muvofiq hisobladilar:

eksport qilinadigan tovarlarga maksimum yuqori baho o’rnatishni;

• tovarlar importini har tomonlama cheklashni;

• mamlakatdan oltin va kumushning oqib chiqib ketishiga yo’l qo’ymaslikni ilgari surishgan. Bulardan tashqari R.Kantilon o’zining kitobida «Qo’shni mamlakatlarga qaraganda muomalada ko’p puli bo’lgan har qanday davlat, ularga nisbatan ustunlikka ega...»<sup>3</sup> deb, qayd qilib o’tgan. Uilyam Pettining(1623-1687) fikri bo’yicha esa, nafaqat qimmatli metall va toshlar hamda pul boylik hisoblanadi, balki mamlakatning yeri, uylar, kemalar, tovarlar va xatto uy jihozlari ham boylikni tashkil etadi. Bu masala bo’yicha o’z fikrini rivojlantirib bizning davrda keng tarqalgan «Mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasi» degan iborani ishlatdi. Yuqorida keltirib o’tilganlardan tashqari Fransua Kene(Fransiya) ham davlat va jamiyatning rivojlanishi bir-biriga uzviy bog’liqligi va bunda esa iqtisodiyot yetakchilik qilishini «Dehqonlar kambag’al bo’lsa qirollik kambag’al bo’ladi, qirollik kambag’al bo’lsa qirol kambag’al bo’ladi» deb yuqoridagi so’zlari orqali isbotlab berdi. Amerika olimi Uolter Rostou (1916) o’zining «Iqtisodiy o’sish bosqichlari» (1960) kitobida jamiyatning xo’jalik rivojlanishi bosqichlarini ko’rsatib berishga harakat qildi. Rostou jamiyat taraqqiyotini bosqichlariga ajratishda texnikaviy –

<sup>2</sup> “”Avesto”-Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi”. Boboyev H., Do’shtonov T., Hasanov C,- “Toshkent”,2004, 155 b

<sup>3</sup> «Savdo tabiati to’g’risida ocherk» (1775) 147b



xo'jalik ko'rsatkichlarini – texnika taraqqiyoti darajasi, jamg'arish normasi, iste'mol darajasini asos qilib oladi. Unda sotsial omillar ikkinchi o'ringa suriladi va ular texnologik sharoitlarni ta'minlash uchun qancha zarur bo'lsa, faqat shuncha darajada tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish qonuniyatlari iqtisodiy tizim xususiyatlariga bog'liq emas, ular bozor va shuningdek buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotda bir xil hisoblanadi.

U.Rostou iqtisodiy taraqqiyotning beshta bosqichini ko'rsatib bergan:

An'anaviy jamiyat: «Njutongacha bo'lgan fan va texnika» bilan hamda qishloq xo'jaligining ustunligi bilan ifodalanadi.

O'tkinchi jamiyat. Bu yerda iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'ladi: fan yutuqlari ishlab chiqarishga tadbiriq etiladi, banklar paydo bo'ladi, ishlab chiqarishni investitsiyalash kuchayadi.

Yuksalish davri (sanoat inqilobi): eski an'anaviy uklad asosan tugatiladi, iqtisodiy o'sish normal holat hisoblanadi, ishlab chiqarish sanoatning asosiy tarmoqlarining jadal rivojlanishi amalga oshiriladi, davlat eksportni rag'batlantiradi.

Yetuklik bosqichi: aholining o'sishga qaraganda mahsulot ishlab chiqarishning doimo ortiq bo'lishi ta'minlanadi, milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi kuchayadi, an'anaviy jamiyat batmom tugatiladi.

Ommaviy iste'mol bosqichi: uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari va xizmat ko'rsatish asosiy ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha iqtisodiy olimlar va o'z davrining yetuk olimlarining fikrlarini mujassam qiladigan bolsak, davlat va jamiyatning rivoji uchun iqtisodiyotni rivojlantirmay turib mukammal davlat va jamiyat rivojiga erishib bo'lmasligini takidlashgan. Shuning uchun Hozirgi globallashgan dunyoda rivojlanayotgan O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantrish

va takomilashtrish maqsadida bir qator loyihalar va strategiyalar amalga oshirilgan va yana yangi loyihalar amalda misol uchun: 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturini aytishimiz mumkin. Shunday bo'lsada oldimizda hali yechilmagan masalalarni borligi va amalga oshirilayotgan islohotlarning to'liq amaliyotga joriy etilmayotganligini ko'rishimiz mumkin, chunki iqtisodiyotimizda izga solish mushkul bo'lgan hufyona iqtisodiyotning mavjudligi ya'ni, statistik tahlilga va davlat byudjetiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan davlat ro'yhatidan o'tmasdan turib soliqlardan qochib faoliyat yuritayotganlarni misol qilshimiz mumkin. Bu o'z navbattida iqtisodiy sektorlarni uzviy bog'liqligini hisobga olgan holda, yani Davlat, Bank, Ishlab chiqarish, Iste'mol sektorlari o'rtasidagi nomutanosiblikni keltrib chiqazadi. Misol uchun: ishlab chiqarish sektorida aniq statistik tahlil amalga oshirishni imkoniyatini cheklovchi davlat ro'yhatidan o'tmagan holda amalga oshirilayotgan hufiyona mikroiqtisodiyotlar natijasida, statistik noaniqliklar yuzaga keladi. Bu ma'lumotlar asosida Bank sektori iqtisodiyotga qancha



pul emissiyasini amalga oshiradi. Iqtisodiyotga ortiqcha pul massasi chiqishi natijasida Inflatsiya yuzaga kelshni ko'rshimiz mumkin yoki aksincha tovar va xizmatlarning narxini keskin tushib ketishini ko'rishimiz mumkin.

Shunday ekan, yuqoridagi muammolarni inobatga olgan holda, quyidagilarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz:

1. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rasatish sohalarida daromad soliqlarini kamaytirish, bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rag'batlantiradi. Bu bilan teskari proporsional o'sishga erishiladi ya'ni soliq to'lovchilar soni oshadi va o'z daromadlarini yashirishga asos qolmaydi bu esa o'z navbatida umumiy miqdorda soliq tushumini oshiradi.

2. Iqtisodiyot infratuzilmalarni takomillashtirish.

3. Iqtisodiyotni to'g'ri va chuqur anglay oladigan hamda, bugungi globallashuv

jarayonida iqtisodiy muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish masalalarini yecha oladigan mutaxassislarni tayyorlash va ularni davlat va jamiyat rivoji uchun tog'ri taqsimlash.


4. Iste'molchilarning kredit olish jarayonini yengillashtirish va qulay qilish maqsadida onlayn bank tizmini yaratish.

To'plangan bilimlardan, pedagogik tajribalardan oqilona foydalanish davlatimiz qonunlari va qoidalariga muntazam rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim-tarbiyaning samarali amalga oshirish garovidir. Bu esa davlat va jamiyat rivojida ahamiyatli tushuncha hisoblanadi. Demakki, yuqoridagilarni bugungi kunda amalda joriy etadigan bo'lsak, davlatimiz siyosati hamda iqtisodiyotidagi bir qancha muammolarning yechimini topgan bo'lar edik. Bundan tashqari davlatimiz rahbari aytganlaridek xalqimiz farovonligiga erishish yo'lida sezilarli qadamlardan birini qo'yamiz. Zero, iqtisodiy barqarorlik farovon hayot garovidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Каримов И.А. "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари" "Ўзбекистон" нашриёти Т.1997й
2. Форобий А.Н. Фозил одамлар шахри.Т.,1993.
3. Темур тузуклари.Т.,1996.
4. Издевать дороги и пути праведных. Пехлевийские назидательные тексты.- С. 78; Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк.(форс тилидан тарж. Сўз боши ва изохлар муаллифлари:Шодмон Вохид Хусайнзода,А.Эркинов). Т.Адолат,1997-190 б.(хуқуқий меросимиз хазиначидан).
5. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" 2007y 154b.
6. «Savdo tabiati to'g'risida ocherk» (1775) 147





## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING METODIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Tursunova Aziza Ixtiyorovna

Qarshi davlat universiteti pedagogika instituti

O'zbekiston respublikasi Qashqadaryo viloyati shahrisabz tumani,

Pedagogika Maktabgacha ta'lim

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6024940>

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining faoliyati pedagogik faoliyatdan iborat bo'ladi. Rahbar bajaruvchilarga qat'iyat bilan o'z g'oyasini o'tkazadi va ularni amalga oshirishni o'rgatadi.

Har bir rahbar psixologik bilimlar bilan bir qatorda muayyan pedagogik bilimga ham ega bo'lishi kerak. Shular yordamida u xodimlarga ularni tarbiyalash va mukammallashishlariga ta'sir etuvchi shakl hamda usullarning yanada samaraliligini topish mumkin.

Tarbiya jarayonida rahbar quyidagi pedagogik muammolarni hal etishi kerak:

- aqliy rivojlanish (xodimlarning umumiy va kasbiy ma'lumoti);
- ma'naviy boyish (madaniy tadbirlar tashkil etish, etik muammolarni yechish);
- muomalani dorilomonlashtirish;
- bunda quyidagi pedagogik tamoyillarga rioya qilish lozim:
  - ezgu ideallar bilan mashg'ul bo'lish;
  - shaxsiy xislatlarni shakllantirish

Tashkilotlar, xodimlar, jarayonlarni va h.k. boshqarishning o'rganilishi ham turli umumboshqaruv yondashuvlari g'oyalari asosida olib borilishi mumkin. Shu boisdan, tadqiqotlar predmeti ham turlicha bo'ladi. Zero boshqaruv nazariyasining evolyutsiyasi, eng avvalo, uning predmetiga bo'lgan qarashlarning o'zgarishidir. Garchi turli yondashuvlarda tadqiqotlar predmetini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lsa-da, ularning barchasi, biron-bir tarzda, boshqaruvni

tashkil etishda alohida funktsiya sifatida tushunishdan kelib chiqadi. Bu funktsiyani amalga oshirish bilan uning hayot faoliyati aniq maqsadga qaratilganligi va uyushganligi ta'minlanadi hamda boshqaruv tizimi tarkibiy qismlarining tuzilishi va o'ziga xosligi, tashkilot faoliyatining ichki hamda tashqi shart-sharoiti va uning natijalari o'rtasidagi aloqalarni o'rganishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Umumetirof etilgan boshqaruv tushunchasi bo'magani kabi ta'lim muassasalari va ta'lim sifatini boshqarishning ham umumqabul qilingan tushunchasi yo'q. Ilmiy bilim rivojlanib borgan sari bu tushuncha doimiy ravishda boyib boradi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi" da ko'rsatib o'tilganidek, maktabgacha ta'lim - bu ko'p tomonlamali, maqsadga yo'naltirilgan, bolani ta'limning keyingi bosqichi - maktab ta'limiga tayyorlovchi, jismoniy, ruhiy, individual va yoshga doir rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim va tarbiya jarayonidir.

### **Maktabgacha ta'limning vazifalariga esa quyidagilar kiradi:**

- 1) bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umum-bashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;





2) bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;

3) maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilim olish «ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tarbiyalash

4) bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;

5) bolalarning jisimiy va ruhiy salomatligini ta'minlash. Maktabgacha ta'lim muassasalari hududlarining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va tugatish Qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari yo'nalishiga qarab quyidagi *turlarga* bo'linadi:

- bolalar yaslisi, bolalar bog'chasi, bolalar yasli bog'chasi, xonadon bolalar bog'chasi;

- bog'cha-maktab majmuasi;

- tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir necha ustuvor yo'nalishlarda rivojlantiradigan maktabgacha ta'lim muassasasi (til o'rgatuvchi, musiqa, sport yo'nalishlari bo'yicha);

- tarbiyalanuvchilarning jisimiy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarini bartaraf etishish ustuvor ravishda amalga oshiruvchi maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari;

- sanitariya-gigiyena, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlarini muolajalari ustuvor ravishda amalga oshiriladigan sog'lomlashtiruvchi bolalar bog'chasi;

- aralash turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari.

Mazkur maktabgacha ta'lim turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi.

O'zbekiston Respublikasida *maktabgacha ta'limni rivojlantirish maqsadi* quyidagilarda aks etadi:

1. maktabgacha ta'lim muassasalarining maqomini oshirish;

2. ota-onalarning talab va takliflarini inobatga olgan holda. maktabgacha ta'limni muassasalarining xilma-xil turlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish zaruriyati mavjud:

maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat tizimini saqlab qolish;

maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablarini aniqlashtirish;

maktabgacha ta'limning yangi mazmun va texnologiyasini ishlab chiqish:

variativlik, ochiqlik, oila, maktab va mahalla hamda nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etish tamoyiliga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalarining tashkiliy tuzilishiga o'zgartirishlar kiritish;

jamiyat rivojlanishi bilan bog'liqlikda qo'yiladigan talablar va shart-sharoitlardan kelib chiqib maktabgacha ta'limning o'z vaqtida va muvafaqqiyatli moslashuviga erishish;

maktabgacha ta'limdagi o'zgarishlarga tezda moslashaoladigan maktabgacha ta'lim muassasasi uchun kadrlar tayyorlashning tizimini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining birinchi-maktabgacha ta'lim rivojining zamonaviy bosqichi qator o'zgarishlar bilan tavsiflanadi: maktabgacha ta'lim ochiq turdagi ta'lim muassasasi sifatida shakllandi; maktabgacha ta'lim muassasalarining eng muhim funksiyasi bolalarning hayotiy faoliyatini muhofaza qilish va salomatligini mustahkamlash;





tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga muvofiqiyatli tayyorlash va boshqalar. Shuningdek, bugungi kunda respublikamizda xilma-xil (yasli, bolalar bog'chasi, bolalar bog'chasi-boshlang'ich maktab, davlatga qarashli va xususiy) turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritmoqda. Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi - ko'plab omillar ta'siriga uchrashi natijalarning tezda namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdir. Ko'p bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o'tish bilan tavsiflanadi. Shunga asosan V.S.Selivanov tarbiya jarayoni, uning bosqichlari ketma-ketligi murakkab o'ziga xoslikka ega ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Tarbiya, shaxs sifatlarini shakllantirish amaliyotini yo'nalganlik, xulqning ma'lum shakliga ijodiy munosabat uyg'otishdan boshlanadi, ikkinchi bosqich harakatni to'g'ri bajarish malakasini, ya'ni to'g'ri xatti-harakat qilishni mashq qilish sanaladi. Keyinchalik harakatni unga ijobiy munosabat bilan ko'p marta bajarish davomida oqilona xulq-

atvoriga o'dallantiriladi. Tushunchani o'zlashtirish (shakllantirish) - tarbiya jarayonining keyingi bosqichi. O'zlashtirilgan tushunchalar asosida ijtimoiy xulq tajribasi tashkil qilinadi. Axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayonining pedagogik maqsadlari uning ijtimoiy maqsadlari, ijtimoiy mohiyati va ijtimoiy funksiyalaridan kelib chiqadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki bolalarning axloqiy ko'rinishlar va tegishli faoliyat usullarini amaliy tatbiq etish ko'nikma va malakalarini egallashini ta'minlash; ikkinchidan, shu asosda o'rganilayotgan sifatning yuqori darajasini shakllantirishdan iborat. Bu maqsadlarga quyidagi pedagogik shartlar bajarilganidagina erishish mumkin: bolalarni zarur sifatning yo'naltirilgan rivojlanishiga olib keladigan axloqiy mazmun bilan boyitilgan real hayotiy vaziyatlarga kiritish; bolalarni rivojlantirishga qaratilgan o'z-o'zini axloqiy takomillashtirish vazifalarini ongli ravishda o'z oldiga qo'yishlari; pedagogik ta'sir ilgari lab borish tavsifiga ega bo'lishi, o'zida yangi, biroq hozirgacha shaxsiy tajribada sinovdan o'tganlarni aks ettirishi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya ta'rifi, uning psixologik asoslari va mezonlariga asoslanib, loyihalangan axloqiy *fazilatlarini shakllantirish texnologiyasi* sifatida quyidagi tizimli ketma-ketlikka asoslanish maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova P, Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. — T.: O'qituvchi. 1993.
2. Xasanboeva O,U,va boshqa. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.—T.:Ilm ziyo.2006.
3. Sh.A.Sodiqova“Maktabgacha pedagogika”.“Tafakkursarchashmalari”—T.:2013-y





## MAHALLIY XOMASHYO ASOSIDA ESSIN VA UNING HOSILALARINI OLISH VA STANDARTLASH

Voxidov Bekzod Botir o'g'li

Toshkent farmatsevtika instituti 3-kurs talabasi, Toshkent sh.,

O'zbekiston, e-mail: bekdovokhidov21@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6024999>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

soxta kashtan, triterpen saponini, essin, fraksiya, SARS-CoV-2, YuSSX-MS.

### ANNOTATSIYA

*Essin – Aesculus hippocastanum L. urug'ida asosiy komponent bo'lib, u 30 ga yaqin izomer va hosilalar ko'rinishida uchraydi. Essin – kapilyarprotektorlik, antiexsudativ, antitrombotik va yallig'lanishga qarshi faollikga ega. O'zbekistonda yetishtirilgan soxta kashtan urug'idan 95,0±3,6% tozalikdagi essin substansiyasi olish usuli ishlab chiqildi. Tozalangan essin moddasi saponinlarning molekulyar massasiga ko'ra 8 ta fraksiyaga ajratilib ularning o'zaro nisbatari tadqiq etildi. Essin substansiyaning asosiy qismini SF-1, SF-2, SF-4 va SF-7 fraksiyalari tashkil etishi isbotlandi.*

So'nggi yillarda o'simlikdan olingan tabiiy ekstraktlar tibbiyot, farmakologiya va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida katta rol o'ynamoqda. Tabiiy ravishda ajratib olingan biologik faol moddalar turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan noyob biologik faollikni saqlaydi. Xususan, soxta kashtan tarkibidagi essin "Tibbiyot tarixidagi eng muhim hodisa" lardan biri bo'lgan SARS-CoV-2 viruslarini sezilarli darajada ingibirlashi isbotlangan. Bundan tashqari, soxta kashtandan ajratilgan birikmalarda saratonga qarshi faollik ham topilgan. Essin asosida olinadigan dori preparatlari Yevropa fitoterapiyasida yallig'lanish va venoz trombozini davolashda, mikrosirkulyatsiyasini yaxshilashda, shuningdek membrana o'tkazuvchanligini oshirish uchun dori vositasida sifatida keng qo'llaniladi. O'zbekistonda yetishtiriladigan soxta kashtan tarkibidagi kimyoviy

komponentlar shu kungacha batafsil o'rganilmagan.


Soxta kashtan urug'idan spirtli ekstrakt olish uchun ekstragent kontsentratsiyasi muhim rol o'ynaydi. Chunki, uning tarkibidagi biofaol moddalar (triterpen glikozidlar) spirt-suv aralashmasida yaxshi eriydi. Ekstraksiya jarayoni uchun spirt-suv aralashmasi kontsentratsiyasini aniqlash maqsadida quyidagi izlanishlar amalga oshirildi. Buning uchun xomashyo dastlab qattiq po'st qismidan (1-rasm) tozalash uchun 6 soat davomida tozalangan suvga solib qo'yildi (po'stini yumshatish uchun). So'ngra suvi to'kib tashlanib, urug'lar po'st qismidan tozalandi. Olingan toza kashtan urug'lari kukun holiga kelguncha maydalandi. So'ngra ekstragentning optimal kontsentratsiyasini aniqlash maqsadida 35, 45, 55, 65, 75 va 96 % kontsentratsiyali etil spirt bilan birgalikda 50 va 70 % kontsentratsiyali metanol, 0,5

mol/l li natriy gidrokarbonat eritmalaridan



1-rasm. Soxta kashtan urug'larining tashqi ko'rinish


hamda suvdan foydalanildi.



2-rasm. Essin saponinlarning umumiy tuzilish formulasi

Buning uchun dastlab 10 ta ekstraktorga tozalab maydalangan soxta kashtan urug'i solinib, turli xil konsentratsiyali (35, 45, 55, 65, 75 va 96%) etil spirti, 50 va 70% metanol, 0,5 mol/l natriy gidrokarbonat

hamda suv bilan ekstraksiya jarayoni olib borildi. Ajaratib olingan ekstraktlar tarkibidagi triterpenlar glikozidlar (TTG) yig'indisi aniqlandi. Olingan natijalar 3-rasmda diagramma ko'rinishida keltirilgan.



### Turli xil erituvchilar

3-rasm. Soxta kashtan biologik faol moddalarini ajralishida turli xildagi erituvchilarning ta'siri

3-rasmdan ko'rinib turibdiki, dastlab spirtning konsentratsiyasi oshishi bilan ekstrakt triterpenlar glikozidlar miqdori oshgan, 55% va undan yuqori konsentratsiyali spirt, 50% va 70% li

metanol hamda 0,5 mol/l natriy gidrokarbonatning ekstraksiya jarayoni uchun qo'llanilishi ekstrakt triterpenlar glikozidlar miqdorini oshishiga olib kelgan. Soxta kashtanning biologik faol moddalari



(TTG) yaxshi ekstraksiyalanib o'tadigan ekstragent 65% etil spirti (hajm bo'yicha) ekanligi tajribalarda aniqlandi. Bundan tashqari tajribadan olingan natijalarga ko'ra 70% li metanol (hajm bo'yicha)da ham 65% li etil spirti singari natija olingan lekin bu erituvchi zaharli va iqtisodiy jihatdan qimmat hisoblanadi.

3-rasmdan ko'rinib turibdiki ekstraksiya jarayonini konsentratsiyasi 75 % va 96% li etil spirtida olib borilganda triterpenlar glikozidlarning miqdori kamayishi kuzatildi buning asosiy sababi 2-rasmda ko'rsatilgan essin saponinlarining tuzilish formulasidir, ya'ni C-3 dagi -OH guruhiga glyukoza, ksiloza va glukuron kislotalarining birikganligi, bundan tashqari C-21, C-22 va C-28 xolatdagi -OH guruhlarning eterifikatsiyalanishidir.

Shunday qilib, ekstraksiya jarayoni uchun optimal ekstragent tanlandi. Ekstraksiya jarayonni quyidagicha amalga oshirildi. Tozalab maydalangan soxta kashtan urug'i 65% etil spirti (hajm bo'yicha) bilan 1:5 nisbatda 70°C haroratda 300 ayl./daq. tezlikda 1 soat davomida aralashtirildi. Olingan aralashma sovutildi va filtrlandi. So'ngra neytral holatdagi kation almashinuvchi kolonkadan 2 soat davomida o'tkazildi. Ekstrakt dagi spirt rotorli bug'latkichda vakuum ostida haydaldi. Quruq qoldiq 0,05 M natriy gidrokarbonat eritmasi yordamida (1:10) ultratovushli suv hammomida 20 daqiqa davomida ekstraksiyalandi. Olingan suvli ekstraktning pH qiymati xlorid kislota eritmasi bilan 2,5-3,0 ga keltirildi. Kislotali filtrat ajratuvchi voronkada teng miqdordagi kanakunjut moyi bilan

aralashtirildi. Yog' fazasi ajratildi va boshqa ajratuvchi voronkaga o'tkazildi, teng miqdordagi 80 % etanol bilan aralashtirilib, saponin fraksiyasi etanol fazasiga o'tkazildi va ushbu jarayon yana ikki marta takrorlandi.

Soxta kashtan ekstrakti tarkibidagi triterpenlar glikozidlarni sifat va miqdorini aniqlashda an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy tezkor yuqori aniqlikdagi (YuSSX-MS) usullardan ham foydalanildi. Bu usul o'zining o'ta aniqliligi va soxta kashtan o'simligi tarkibidagi essin va uning izomerlarini massa zaryadlari bilan identifikatsiya qilish bilan boshqa fizik-kimyoviy usullardan ajralib turdi.

Tayyorlangan tekshiriluvchi va standart namuna eritmalari alohida-alohida 20 mkl miqdorda uskunaga (Shimadzu, LC-MS 2020) yuborildi. Xromatografiya 16 daqiqa davomida olib borildi. Qo'zg'almas va yuqori bosim ostida qo'zg'aluvchi fazalarda ajralgan moddalar ultrabinafsha va mass detektorlar yordamida qayd etildi.

YuSSX-MS usulining sharoitlari: qo'zg'almas faza Shim-pack XR-ODS II 75 L x 3 mm poralar o'lchami 2.2 mkm, qo'zg'almas faza harorati 40°C, qo'zg'aluvchan fazaning oqim tezligi 0,250 ml/min, to'lqin uzunligi 225 nm, tekshiriluvchi eritmaning yuborilish miqdori - 20 mkl, tekshiruv davomiyligi 16 min.

MS usulining sharoitlari: ESI- (manfiy), gaz harorati 350°C, skanerlash MS Scan, Nebulirer 1,5 ml/min, Dry Gas 15 l/min, massa zaryadlari 100-2000 m/z, dastur LabSolution va MassHunter.

**1-jadval**

**Qo'zg'aluvchi faza o'zgaruvchan tarkibi (vaqtga mos ravishda)**

№	Vaqt, daq.	Qo'zg'aluvchi A faza, %	Qo'zg'aluvchi B faza, %
1	1	90	10
2	5	50	50






3	6	50	50
4	12	30	70
5	13	30	70
6	15	90	10
7	16	90	10

Qo'zg'aluvchan A fazani tayyorlash: 1 ml chumoli kislotasi olinib 1000 ml suvda eritildi. Hosil qilingan eritma muhiti potentsiometrik usulda aniqlandi (pH=2,5).

Qo'zg'aluvchi B faza: YuSSX uchun ishlatiladigan atsetonitrildan foydalanildi.

**Natijalar:** ESI- MS orqali o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, massa spektrlari massa/zaryad [M-H]<sup>-</sup> 1129, 1099, 1131,


1113, 1089, 1117 va 1057 bo'lgan birikmalar aniqlandi (4-rasm). Saponinlar va hosilalarining kimyoviy tuzilishini tasdiqlash uchun ushbu birikmalarning strukturaviy tahlillari mass-spektrdan tashqari adabiyotlardagi <sup>1</sup>H NMR va <sup>13</sup>C NMR ma'lumotlaridan foydalanib amalga oshirildi.



#### 4-rasm. Essin substansiyasining YuSSX-MS xromatogrammasi

YuSSX-MS asosida sakkizta cho'qqilar guruhi identifikatsiya qilindi. Bizning tadqiqotda ES molekulyar massasiga ko'ra 8 ta fraksiyaga ajratildi va saponin fraksiya (SF) deb belgilandi (5-rasm va 2-jadval). Albatta bu fraksiyalarni biologik faolliklarini strukturasi bog'lab o'rganish

va ular orasidagi bog'liq qonuniyatlarini aniqlash juda muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ES tarkibida 30 ta triterpen saponinlari mavjud ekan. ES tarkibidagi 8 ta fraksiyaning miqdoriy ko'rsatkichlari o'rganildi.








### 5-rasm. Ajratib olingan essin substansiyasining fraksiyalar tarkibi miqdori

Ularning miqdorlari SF-1 (Essin Ia, Essin Ib, Essin IVc, Essin IVd, Essin VIb, Isoescin Ia, Isoescin Ib, Isoescin VIIa) – 25,9%; SF-2 (Essin Ila, Essin IIb, Isoescin Ila, Isoescin IIb) – 23,7%; SF-3 (Essin IIIa, Essin IIIb, Isoescin IIIa, Isoescin IIIb, Isoescin VIIIa,) – 6,6%; SF-4 (Essin IV) – 14,7%; SF-5 (Essin IVe, Essin IVf, Essin IVg, Essin IVh,

Deacetylescin Ia, Deacetylescin Ib) – 6,5%; SF-6 (Essin V, Isoescin V) – 4,9%; SF-7 (Essin VI, Isoescin VIa) – 12,8%; SF-8 (Deacetylescin Ila, Deacetylescin IIb) – 4,7%. Ushbu natijalardan ko‘rinib turibdiki, ES ning qariyb 50% ni SF-1 va SF-2 lar tashkil etmoqda. Eng kam miqdorni esa SF-8 tashkil etgan.



6-rasm. Soxta kashtan urug' ekstrakti namunasining YuSSX-DMD xromatogrammalari

Tadqiqotlar natijasida essinni ajratishda qo‘llanilgan usul boshqa usullardan farq qilib, substansiya tarkibida essinning asosiy komponentlari ( $m/z$  lari  $[M-H]^- = 1099$ ,  $[M-H]^- = 1113$ ,  $[M-H]^- = 1129$ ,  $[M-H]^- = 1131$ ) miqdori oshirishga erishildi. Essin substansiyasini uning tarkibidagi moddalar molekular massasiga qarab fraksiyalarga ajratish orqali miqdori ko‘p bo‘lgan izomer hosilalar aniqlandi. Jumladan, essin substansiyasi tarkibidagi fraksiyalarning miqdorlari nisbati mos ravishda 5,51; 5,04; 1,40; 3,14; 1,38; 1,04; 2,72; 1 bo‘lishi tadqiqotlar orqali isbotlandi. Bu esa o‘z navbatida uning biologik faolligi ham tarkibidagi fraksiyalar bilan bog‘liq deyish mumkin. Buning uchun essinning har bir fraksiyalari biologik

faolligini alohida-alohida tadqiq etilishi, so‘ngra yakuniy xulosa qilish mumkin bo‘ladi.

**Xulosa:** O‘zbekistonda yetishtirilgan soxta kashtan urug‘idan birinchi marta essin ekstrakti ajratildi. Urug‘lardagi essinlar miqdori  $4,2 \pm 1,3$  % ekanligi aniqlandi. Ekstraktni qayta ishlash asosida essin miqdori  $95,0 \pm 3,6$  % dan yuqori bo‘lgan substansiya olish usuli ishlab chiqildi. Tozalangan essin moddasi saponinlarning molekulyar massasiga ko‘ra 8 ta fraksiyaga ajratilib ularning o‘zaro nisbatari tadqiq etildi. Essin substansiyaning asosiy qismini SF-1, SF-2, SF-4 va SF-7 fraksiyalari tashkil etishi isbotlandi.





2-jadval.

Soxta kashtan urug'laridan ajratilgan essin saponinlarining fraksiyon guruhlari.


Fraksiya	Ushlanish vaqti, daq.	Nomi	R <sub>1</sub>	R <sub>2</sub>	R <sub>3</sub>	R <sub>4</sub>	R <sub>5</sub>	R <sub>6</sub>	m/z; [M-H] <sup>-</sup>
SF-1	11.941	Essin Ia	H	Tig	Ac	OH	H	Glc-p	!129
		Essin Ib	H	Ang	Ac	OH	H	Glc-p	
		Essin IVc	H	H	Tig	OH	Ac	Glc-p	
		Essin IVd	H	H	Ang	OH	Ac	Glc-p	
		Essin VIb	Ang	Ac	H	OH	H	Glc-p	
		Izoessin Ia	H	Tig	H	OH	Ac	Glc-p	
		Izoessin Ib	H	Ang	H	OH	Ac	Glc-p	
SF-2	10.791	Essin IIa	H	Tig	Ac	OH	H	Xyl-p	1099
		Essin IIb	H	Ang	Ac	OH	H	Xyl-p	
		Izoessin IIa	H	Tig	H	OH	Ac	Xyl-p	
		Izoessin IIb	H	Ang	H	OH	Ac	Xyl-p	
SF-3	11.343	Essin IIIa	H	Tig	Ac	H	H	Gal-p	1113
		Essin IIIb	H	Ang	Ac	H	H	Gal-p	
		Izoessin IIIa	H	Tig	H	H	Ac	Gal-p	
		Izoessin IIIb	H	Ang	H	H	Ac	Gal-p	
		Izoessin VIIIa	H	Ang	H	H	Ac	Glc-p	
SF-4	10.782	Essin IV	H	Ac	Ac	OH	H	Glc-p	1089
SF-5	13.210	Essin IVe	H	H	H	OH	Tig	Glc-p	1087
		Essin IVf	H	H	H	OH	Ang	Glc-p	
		Essin IVg	H	H	Tig	OH	H	Glc-p	
		Essin IVh	H	H	Ang	OH	H	Glc-p	
		Deasetilessin Ia	H	Tig	H	OH	H	Glc-p	
		Deasetilessin Ib	H	Ang	H	OH	H	Glc-p	
SF-6	10.343	Essin V	H	MP	Ac	OH	H	Glc-p	1117
		Izoessin V	H	MP	H	OH	Ac	Glc-p	
SF-7	10.938	Essin VI	H	MB	Ac	OH	H	Glc-p	1131
		Izoessin VIa	H	MB	H	OH	Ac	Glc-p	
SF-8	12.587	Deasetilessin IIa	H	Tig	H	OH	H	Xyl-p	1057
		Deasetilessin IIb	H	Ang	H	OH	H	Xyl-p	

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Fang, L., G. Karakiulakis, and M. Roth](#), *Are patients with hypertension and diabetes mellitus at increased risk for COVID-19 infection?* The Lancet. Respiratory medicine, 2020. **8**(4): p. e21-e21.
2. [Avci G.](#), *Effects of escin mixture from the seeds of Aesculus hippocastanum on obesity in mice fed a high fat diet.* Pharmaceutical biology, 2010. **48**(3): p. 247-252.



3. [Komes, D., et al.](#), *Phenolic composition and antioxidant properties of some traditionally used medicinal plants affected by the extraction time and hydrolysis*. *Phytochemical analysis*, 2011. **22**(2): p. 172-180.
4. [Zhang, Z., S. Li, and X.-Y. Lian](#), *An overview of genus Aesculus L.: ethnobotany, phytochemistry, and pharmacological activities*. *Pharmaceutical Crops*, 2010. **1**(1).
5. [Kim, J.W., et al.](#), *Antiviral escin derivatives from the seeds of Aesculus turbinata Blume (Japanese horse chestnut)*. *Bioorganic & medicinal chemistry letters*, 2017. **27**(13): p. 3019-3025.
6. [Pittler M.H. and E. Ernst](#), *Horse chestnut seed extract for chronic venous insufficiency*. *Cochrane database of systematic reviews*, 2012(11).
7. [Wilkinson, J. and A. Brown](#), *Horse Chestnut–Aesculus Hippocastanum: Potential Applications in Cosmetic Skin-care Products*. *International journal of cosmetic science*, 1999. **21**(6): p. 437-447.
8. [Wu, C.Y., et al.](#), *Small molecules targeting severe acute respiratory syndrome human coronavirus*. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 2004. **101**(27): p. 10012-10017.
9. [Li, B., et al.](#), *TIGAR knockdown enhanced the anticancer effect of aescin via regulating autophagy and apoptosis in colorectal cancer cells*. *Acta pharmacologica Sinica*, 2019. **40**(1): p. 111-121.
10. [Cheong, D.H., et al.](#), *Molecular targets and anti-cancer potential of escin*. *Cancer letters*, 2018. **422**: p. 1-8.
11. [Yoshikawa, M., et al.](#), *Bioactive saponins and glycosides. XII. Horse chestnut.(2): Structures of escins IIIb, IV, V, and VI and isoescins Ia, Ib, and V, acylated polyhydroxyoleanene triterpene oligoglycosides, from the seeds of horse chestnut tree (Aesculus hippocastanum L., Hippocastanaceae)*. *Chemical and pharmaceutical bulletin*, 1998. **46**(11): p. 1764-1769.
12. [Matsuda, H., et al.](#), *Antiinflammatory effects of escins Ia, Ib, IIa, and IIb from horse chestnut, the seeds of Aesculus hippocastanum L.* *Bioorganic & Medicinal Chemistry Letters*, 1997. **7**(13): p. 1611-1616.



## JAJI AKADEMIKLAR KAMOLOTIDA REKLAMANING AHAMIYATI

Meyliyeva Adiba G'ayrat qizi

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti 1 bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6025108>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### ANNOTATSIYA

*Maqolaning mazmuni bolalar nashrlaridagi reklamaning ularga ta'siri foydali va foydasiz tomonlarini ochib berishdan iborat*

### KALIT SO'ZLAR

*Bolalar, reklama, televideniya, tarix, bugun, gazeta, jurnal.*

#### Reklama tarixiga nazar:

Reklama- bugun hamma joyda biz bilan birga. Arxeologik topilmalar bir hodisani qadimgi dunyoda juda jiddiy munosabatda ekanligini ko'rsatadi. Ba'zi olimlar reklamaning ildizini Misrga taqashadi. Bir qul savdosi e'lon qilinishi bilan birinchi papirusga yozishgan ekan. Biroz vaqt o'tgach qadimgi Yunoniston va Rimda ayrim tovar sotish haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan suyak plitalari va mis plitalar topilgan. Ular 6-8 ming yillik tarixga ega. Yaponlar reklamali tanaffusni vaqtini aniqlab tv ni o'chirishgan, tugashi bilan televizorni yoqadigan gadjetni o'ylab topishgan. Qancha urinishmasin o'z mahsulotini reklama qilishda Amerikachalik bo'lisha olmagan.

Reklama tarixi tadqiqotchilar topgan savdo kelishi bilan boshlanadi. Reklama eng gavjum joylarda papirus, suyak va misga yozib osib qo'yilgan. Uni ko'rgan xaridor ongida tovarga qiziqish paydo bo'lib xarid qilgan. Reklama tarixi 1472-yilga borib taqaladi. Ilk bosma matbuotdayoq reklama chiqa boshlagan. Uning mazmuni Cherkov ibodatiga barchani jalb qilgan.

Birinchi reklama 1630-yilda paydo bo'lgan. Birinchi fransuz ishbilarmoni Theophrastus Renaudotning «Fransuz gazetasida» o'g'irlangan otlarni topgan shaxs munosib taqdirlanishi haqida bo'lgan. Shundan keyin sekin astalik bilan reklama banneri paydo bo'lgan. Unga rasm chizilgan, parcha yozilgan, oshxonalarni maqtagan.

**Reklama** – lotincha (reklamo-qichqirmoq) tovarning sifati, uni sotib oladigan naf haqidagi axborot, bevosita yoki bilvosita daromad olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxsning mahsulot haqidagi tarqatadigan axboroti. Reklama marketingning tarkibiy qismi hisoblanadi. Talab istemolchi didining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Reklama korxonada imijini yaratish, joriy sotish hajmini ko'paytirish xaridorga nima sotib olish zarurligini hal qilishda yordam beradi.

Reklamaning asosiy vazifasi, xaridorni qiziqtirish, mijozni yo'qotmaslik va kengaytirishdan iborat. Hozirda reklama 19 asrning ikkinchi yarmida Aqshda paydo bo'lgan. Dastlab yozma reklama



xaridorlarni magazin va unda sotiladigan tovarlardan xabardor qilgan. Bu taxta lavhaga yozish, vitrina tashkil qilish orqali amalga oshirilgan.

Keyinchalik reklama xaridorga nashr orqali murojaat shakliga aylandi. Afishalar, kitob jurnal, gazetalarda axborot reklama e'lonlari paydo bo'la boshladi. Reklama ishiga ommaviy axborot vositalari jalb etildi.

Qadimda savdogarlar savdo rastalarida o'zlari taqdim qilayotgan mahsulotlarini narxi va uning o'ziga xosligini baland ovozda baqirib namoyish qilganlar. Kimning da'vatlari qiziq bo'lsa, va ovozi baland chiqsa ular o'zlariga ko'proq e'tiborni jalb qila bilganlar. Reklamaning ana shu ko'rinishi bugungi kungacha saqlanib qolgan. Chunki hozirda ham deyarli barcha bozorlarda mahsulotlarning yaxshi ekanligini ovozini boricha aytib odamlarni chorlayotgan sotuvchi (diler) larni topishimiz mumkin. Og'zaki reklama bilan bir vaqtning o'zida qayerda xizmat qilishi mumkinligi haqida axborot beruvchi chizma haqida reklamalar ham amalda qo'llanmoqda. Mehmonxona yoki boshqa ana shunday dargohlar egalari ularni ko'zga tashlanib turishini xohlagani uchun ularga kiraverish joylarida reklama xizmatlari ko'rsatilishi haqidagi yozuv va peshtaxtalar osib qo'yishgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, keyinroq matbuotda reklamalar savdosi keskin pasayib ketgan. Biroq ommaviy kundalik gazetalar reklamani ommaviylashishiga sabab bo'lgan. II asrda boshlang'ich ko'rinishdagi reklama matbuotda, bizning asrgacha bo'lgan davrda (Xitoyda) ma'lum bo'lgan mashhur Acta Diurna Populi romani bizning asrgacha bo'lgan davrda Yuliy Sezar tomonidan asos solingan. Ammo bu keyinchalik Gutenberg tomonidan kashf qilingan. 1450- yilda

quyma metall harflarni chiqaruvchi apparat, bosma stanok yaratilgan. Ko'plab gazeta oluvchilar ko'plab reklama oluvchiga aylangan. 1480-yilda Angliyada pasxa ruhoniyligining yo'l yo'riq ko'rsatuvchi qoidalari chop etilgan **birinchi reklama paydo bo'lgan.**

Birinchi kundalik gazeta XVI asrning o'rtalarida Leyptsigda chiqqan. XVI asrning ikkinchi yarmida Italiyada birinchi oylik to'plam nashr qilingan. Shundan keyin matbuot bozori avj olgan. 1612-yilda « Journal Generald'Affiches nomli parij jurnali matbuot uchun birinchi reklama tarixini nashr qilgan. Shundan so'ng 1632-yilda haftalik Rebodota gazetasi ham doimiy e'lon rubrikasini e'lon qilgan. 1614-yilda Angliyada reklamaga taalluqli birinchi huquqiy norma qabul qilingan. Sal kam yuz yildan keyin 1704-yilda Amerika matbuotida birinchi hujjatli reklama paydo bo'ldi.

OAV dagi reklama guruh uchun yoki alohida shaxs uchun yohud ma'lum bir qatlam uchun mo'ljallangan bo'ladi. Reklamada haqiqatni aks ettirish funksiyasi bo'lishi kerak. Lekin ko'p marketologlar bu shartmas deb hisoblaydi. Reklamaning alohida xususiyatlari

- Ma'lum vaqt
- Ma'lum auditoriya
- Ma'lum mablag'

Asosida amalga oshadi. Reklama turlari

**Chop etilgan**-turli gazeta jurnal, bukletlarda aks etgan reklamalar.

**Tashqi reklama**-banner, flayer, transport va devorlardagi reklamalar.

**Audiovizual**- radio, televideniya dagi reklamalar

Ommaviy axborot vositalarini turar joy haqidagi reklamaga doir materiallar qiziqtirgan. Sovet davri nashrlarida reklama tushunchasi bo'lmagan, keyinchalik bolalarda u-bu yerda osilgan





reklamaga qiziqish uyg'ongan. Birinchi bolalar jurnali va unda bolalarni qiziqtirgan narsalarning reklamasi chiqqan boshlagan. Bolalar birinchi reklamalardan hayron bo'lishgan. Ota-onasini reklamadagi narsani olib berishga undagan. Talab ortgan sari tanlov ham ortib bunday nashrlar ko'paygan. Undagi kerak, keraksiz narsalarning reklamasi ham chiqqan boshlagan. Buni payqagan ota-onalar sekin uzoqlashtirishgan. Bu narsa davriy nashrlar bozorini sinishiga olib kelgan va qattiq nazorat ostida bolalarga taaluqli narsalar chop etilgan. Reklama auditoriyaga moslashgan muvaffaqiyat qozona boshlashgan. Reklamadagi ma'lumotlar atrof-muhit va shunga o'xshash zararsiz narsalar orqali singdirilgan. Bolalarda reklamaga nisbatan iliq munosabat paydo bo'la boshlagan. Keyinchalik maqsad, ijobiy fikrni shakllantirish bo'lgan. Qolaversa, reklama ijtimoiylashgani sari bola hayotidagi roli o'zgarib, xatti-harakati ham shunga yarasha bo'lgan. Reklamaga bog'liqlik jurnalning asosiy manbayi hisoblangan.

Muntazam zamonaviy nashrlarni kuzatadigan bolalarda «men qila olaman» degan fikr paydo bo'lgan. Xulq-atvorida sezgirlik oshgan. Jurnallar ota-onalarga «xizmatkor» vazifasini o'tagan. Sababi, kattalar kun bo'yi ishda kechqurun charchab uxlab qoladi. Bola ota-onasidan so'ray olmagan, o'rgana olmagan narsasini jurnallarni o'qib ongi oshavergan. Ilk bor Maskvaning «Murzilka» jurnalida faqat rasmi voqealar chiqqan. Ummuman reklama bo'lmagan. Keyinchalik kulgili narsalar, bolalar kitob, o'yinchoq reklamasi chiqqan boshlagan. Obunaga talab ortgan, tiraji sezilarli darajada o'sgan.

Bolalarning ba'zi tematik nashrlarida mo'tadil ravishda reklama materiallari yoritib borilgan. Faqat rasmi jurnallarda

bolaning auditoriyasiga moslab qisqa dialoglar paydo bo'lgan. Bu esa multfilmlar kirib kelishiga asosdir. Ilk bor **Toshka va kompaniya, smeshariki, luntik, masha va ayiq**, dialogi chiqqan. Ularga reklama shunday joylashtirilganki, jurnaldan ko'p mahsulot sotilgan. Bola o'zi uchun nima keragu, nima kerakmas ekanligini yaxshi biladi. Yaxshi ko'rgan narsasiga qaysi yo'l bilan bo'lsa ham erishish qobiliyatiga ega. Aynan multfilmlarda o'z-o'zini tushuntirish va saboq berish imkoniyati yuqori. Kundan kunga turli xil reklama uzatish turlari ham ko'paymoqda. Bolalarning izlanishi, o'qishi uchun xizmat qiladigan, reklamalarning soni ortishi quvonarli hol albatta.

Reklama ma'lum bir mahsulotga talab bilan birgalikda sifatning oshishiga ham imkon beradi. Mahsulot haqidagi ma'lumot qaysiki reklama beruvchiga yoqsa, o'sha odam e'lon qiladi. O'quvchiga o'ylash va tanlash imkonini beradi. Nashrlardagi reklama yaxshi natija beravergach, ko'chalarga chiroyli rasmi banner, plakatlar ham osila boshlangan. Avvaliga yarmi rasm, yarmi matn joylashtirilgan. Bora-bora faqat reklama mazmunini ochib beradigan rasm qo'yiladigan bo'ldi. Qandolat mahsulotlarini misol qilish mumkin.

Jurnal sahifasida beriladigan reklama neytral joylashtiriladi. Buni joylovchilar bolaga reklama ta'sir qilishning agressiv usullarini o'ylab topishgan. Bundan tashqari material oxirida, qisqacha tushuntirish ham berilgan. Masalan shokolad haqida umuman tushunchasi yo'q bola reklama orqali uni sotib olsa, tarkibini ham bilib olgan.

«Smesharikov sirlari» kitobini olib o'qishingizni tavsiya qilaman. Chunki uni ichida bolani qiziqtirgan har bir narsa haqida ma'lumot ochiq shaklda berilgan. Shu uchun ham ko'p tanqidga uchragan.



Sababi buni o'qigan bola ota-onasini ham savolga tuavergan u nima?, bu qayerda? Xolbuki kitob ichida kattalar o'rganishga qiziqib ham ko'rmagan ma'lumotlar juda chiroyli tarzda berilgan. O'qigan bolani idroki oshgan. Eng quvonarlisi ma'lumotlar yosh va jinsga qarab ajratib berilgan.

Voyaga yetganlarga alohida, yetmaganlarga alohidaligi bilan auditoriyani jalb qilgan. Multfilmlar bolalarni ajralmas vositasiga aylangach, reklama beruvchilar, mashhur multfilm qahramonlaridan foydalanishgan. Qahramonlar esa iste'moldagi narsaga juda katta kafolat berishgan.

In conclusion, by the end of the primary school age, strong-willed character traits such as Independence, perseverance, endurance are formed. At this age, the assimilation of moral norms and rules of conduct will be: the child shows attention to the moral side of behavior in public places, masters are more accurate in their behavior and understand the norms of behavior in different houses. Thus, children's emotions change its expressive side, the emotional sphere serves as a more general, arbitrary, social arrangement, complex. Motivation at the end of primary school age is a deep motivational crisis, which is associated with the desire to obtain a new social position for education, tired and meaningful reasons, in the age of 8-10 years. Young school age is characterized by a person aged 6-7 years to 10-11 years of age, high sensitivity, hospitality, self-esteem, internal plan of action, self-control and reflection. Primary School Age covers the period from 6 to 11 years of age and is determined by the most important factor in a child's life - his or her entry into school. This is an improvement in the formation of cognitive processes (perception, memory, attention), higher mental functions (speech, writing, reading, counting), which allows a child of primary school age to produce more complex, already compared with preschool, mental operations. In favorable conditions, in education and on this basis, at a sufficient level of intellectual development, there are necessary conditions for the development of theoretical thinking and consciousness. At this age, the child first begins to understand the reasons for social behavior, moral evaluation, the importance of conflict situations, begins to clearly





understand the relationship between him and others, gradually entering the


conscious stage of the formation of equality.

#### References:

1. Cairns, R. B. 1998. "The Making of Developmental Psychology." In *Handbook of Child Psychology: Vol. 1*, 5th edition, ed. R. M. Lerner and W. Damon. New York: Wiley.
2. Freud, Sigmund. 1957. *A General Selection From the Works of Sigmund Freud*. New York: Liveright.
3. Kagan, Jerome. 1983. "Classifications of the Child." In *Handbook of Child Psychology: Vol. 1*, 4th edition, ed. W. Kessen and P. H. Mussen. New York: Wiley.
4. Piaget, Jean. 1951. *Play Dreams and Imitation in Childhood*. New York: Norton.
5. <https://en.healthyliving-healthnetwork.com/4290479-psychological-readiness-of-children-for-school-general-characteristics-types-methods-of-determination>
6. <https://findmykids.org/blog/en/psychological-readiness-of-the-child-towards-studying>
7. <https://www.encyclopedia.com/medicine/psychology/psychology-and-psychiatry/child-psychology>
8. <https://znanio.ru/media/psychology-of-primary-school-age-2494995>







## ЗАРАРЛИ АХБОРОТ ХУРУЖЛАРИНИНГ ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРГА ТАЪСИРИ ВА УЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Ниёзова Дилноза Ойбековна

Тошкент шаҳар Олмазор тумани

249-сонли умумий ўрта таълим мактабининг инглиз-тили фани

ўқитувчиси, [salomat.niyozova@mail.ru](mailto:salamat.niyozova@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6026617>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Зарарли ахборот, ахборот асри, глобаллашув, хуружлар, вояга етмаганлар, олдини олиш, ҳимоя қилиш, таъсири, зўравонлик, ғоявий.

### ANNOTATSIYA

Мазкур мақолада зарарли ахборот хуружларининг вояга етмаганларга таъсири ва уларнинг олдини олиш масалалари баён этилган. Шунингдек, мақолада олимларнинг фикрлари таҳлил этилиб, вояга етмаганларни зарарли ахборот хуружларидан ҳимоя қилишга доир қонунчилик нормаларини такомиллаштириш юзасидан таклиф ва тавсиялар берилган.

### КИРИШ

Маълумки, ахборот асри шароитида юртимиздаги ислохотларнинг истиқболи ва самараси миллий истиқлол ғояларини ёш авлод онги ва қалбига сингдириш, уларни турли салбий иллатлардан ҳуқуқий ҳимоя қилишни ва улар ҳуқуқларини таъминлашни амалий фаолият дастурига айлантириш вазифаларини амалга ошириш билан боғлиқ бўлиб, бунинг ҳуқуқий механизмини такомиллаштиришнинг ўрни муҳимдир. Зеро, ёш авлодни ҳар томонлама баркамол шахс сифатида шакллантириш ва уларнинг ҳуқуқларини ҳар томонлама таъминлаш, бунда турли субъектларнинг родини ошириш, ҳозирги замон тараққиётининг асосий хусусиятларини чуқурроқ ўрганиш, миллий кадриятларни асраш ва келгуси

авлодларга етказиб бериш каби муҳим масалалар ечими билан узвий алоқадордир. Шу боисдан ҳам баркамол шахс тарбияси жамиятда асрлар давомида муҳим ҳаётий ва ижтимоий муаммо сифатида қараб келинганлиги бежиз эмас.

Дарҳақиқат, вояга етмаганларни ахборот хуружларидан ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий асослари ва механизмини такомиллаштиришга доир халқаро стандартлар, миллий ва хориж тажрибасига доир муаммоларига алоҳида эътибор бериш ва илмий даражада тадқиқ этиб, ўрганишнинг муаммоли ва долзарб эканлиги қуйидаги омиллар билан изоҳланади: Биринчидан, Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришганидан сўнг, яъни ахборот асри шароитида ёшларнинг ижтимоий фаоллигини юзага чиқарувчи, уларни турли салбий



иллатлардан, шунингдек зарарли ахборот хуружларидан, зўравонлик ва шафқатсизликдан ҳимоя қилувчи, уларни моддий, маънавий жиҳатдан рағбатлантирувчи ҳуқуқий асосларини ижтимоий сўровлар ўтказиш ва амалий жиҳатдан ўрганиб, илмий ва назарий томонларини ёритиш билан боғлиқ муаммоларнинг ечимини топиш зарурати юзага келганлиги;

Иккинчидан, ахборот асри шароитида вояга етмаганларни ахборот хуружларидан ҳимоя қилишга доир миллий қонунчилигимизни такомиллаштириш ва бу борада хорижий давлатлар тажрибаси, уни ўрганишда халқаро стандартларнинг ўрни каби масалалар тобора долзарб аҳамият касб этаётганлиги, масаланинг амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ва ҳуқуқий ислохотларнинг ҳозирги даврда муҳимлигини инобатга олган ҳолда етарли даражада илмий тадқиқ этилмаганлигида;

Учинчидан, Ўзбекистон Республикасида бугунги ахборот асри шароитида вояга етмаганларни ахборот хуружларидан ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий асослари ва механизмини такомиллаштиришга доир халқаро стандартлар, миллий ва хориж тажрибаси масалалари борасидаги муаммони ҳуқуқий жиҳатдан тадқиқ этувчи комплекс тадқиқотларнинг камлигида;

Тўртинчидан, вояга етмаганларни ахборот хуружларидан ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий асослари ва механизмини такомиллаштиришга доир халқаро стандартлар, миллий ва хорижий тажрибанинг нафақат объектив шарт-шароитлар, балки субъектив омиллар моҳиятини ҳам очиб бериш масаласининг ҳаётий заруратга айланганлигида;

Бешинчидан, вояга етмаганларни ахборот хуружларидан ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий механизмини такомиллаштириш масалаларига доир миллий қонунчилигимизни хорижий давлатлар қонунчилиги билан қиёсий таҳлил қилиш ва бу борада тегишли таклиф ва тавсиялар бериш ва уларни ҳал этишнинг илмий асосланган чоратadbирларини ишлаб чиқишнинг зарурлигидадир.

### АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ

Мазкур мақолани таҳлил этишда индукция ва дедукция, таҳлил ва синтез, мантиқий ва тизимли, статистик, моделлаштириш ва формал-мантиқий, қиёсий-ҳуқуқий методлардан фойдаланилган.

“Ўтган асрнинг сўнгги 10–15 йилида дунё миқёсида юз берган оламшумул тарихий ўзгаришлардан келиб чиқиб, ҳозирда биз яшаб турган XXI асрга камтаргина “Ахборот асри” дея ниҳоятда муносиб таъриф берилди. XX асрнинг сўнгги чорагида ҳам дунё ахборот оқимининг шиддати йил сайин кучайиб борди. Инсоният навбатдаги асрга ахборот оқими тезлигида сакраб ўтди ва янги аср уни нафақат янада шиддатлироқ, балки ахборот оқими, ахборот тўфони билан қамраб олди. Оммавий ахборот ва ҳоказо коммуникация имкониятлари шу қадар ривожланиб кетдики, ахборот оқими зўрайгани устига эндиликда у чек-чегара билмай қолди”<sup>1</sup>.

Бундай даврда оммавий ахборот воситалари муҳим рол уйнайди. Оммавий ахборот – коммуникация

<sup>1</sup>Дўстмуҳаммад Х. Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришнинг демократик андозалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б.25.



воситаларида асосан уч усулда ажратилади:

– оммавий ахборот воситалари – нашр этиладиган ахборот белгиланган инсонлар гуруҳига мўлжалланган бўлиб, улар инсонга мунтазам равишда таъсир кўрсатади (Газеталар, журналлар, радио, телевидения, интернет–нашрлар ва б.қ.);

– оммавий таъсир этиш воситалари – ўртача истеъмолчига мўлжалланиб, мунтазам равишда таъсир кўрсатмайди (Реклама, мода, кинофильмлар ва бошқалар);

– техник коммуникация воситалари – инсонинг бошқа инсонлар билан бевосита мулоқат қилиш имконини яратади ва шахсий хусусиятли ахборотни узатиш воситаси сифатида хизмат қилиши мумкин (Интернет, телефон алоққаси)<sup>2</sup>.

Шунинг учун ҳам “XXI асрда яшаётган замондошларимиз учун ахборотнинг аҳамияти сув ва ҳавонинг аҳамиятидан кам эмас. “Дунё ахборот макони” тушунчаси онг ва шуурларга шу қадар чуқур сингиб кетдики, дунё ҳамжамиятининг ҳақли аъзоси – субъектига айланиш истагидаги ҳар қандай давлат ва шу давлат фуқаролари мазкур ахборот маконидан мустаҳкам ўрин эгаллашининг аҳамиятини сўз билан таърифлаш қийин”<sup>3</sup>.

“Ахборот асри” деб аталаётган ҳозирги замонда маълумот олиш ва ахборот алмашишнинг қулай воситаси

интернетдир. Бироқ бу тармоқда ҳамма нарса аралаш-қуралаш, оқ билан қора, эзгулик билан ёвузлик, маълумот тарқатиш, бизнес ва реклама учун катта майдонга айланган глобал тармоқни назорат қилишнинг имкони йўқ. Шунинг учун ҳам “ўргимчак тўри”да бузғунчи ғоялар тарғиботи ва террорга чақриқлар жуда кўп учрайди<sup>4</sup>.

М.Нажимовнинг фикрича, “Ахборот глобаллашуви ва ёшлар маънавияти, ҳар қандай ахборот оқимининг ёшлар маънавиятига таъсири хусусида сўз юритганимизда, аввало, бу масала замирида жамиятимизнинг, давлатимизнинг миллий хавфсизлиги ётганини назарда тутишимиз лозим. Зеро, бу мавзуда сўз юритар эканмиз, аввало, икки масала мавзунинг долзарб нуқтасига айланади: биринчиси, ахборот оқими – мафкуравий таҳдид; иккинчиси, ёшлар маънавияти, яъни турли хилдаги ахборотларга нисбатан ёшларда шаклланган иммунитет масалаларидир<sup>5</sup>”.

Аммо шуни ҳам эътибордан четда қолдирмаслик лозимки, янги ахборот-коммуникация технологиялари бутун дунёда жадал суръатларда ривожланишининг салбий томони ҳам йўқ эмас. Зеро, мазкур воситалар орқали ҳуқуқбузарликларнинг янги турлари ва ҳатто жиноятчиликнинг янги шакллари ҳам пайдо бўлиши учун имкониятлар вужудга келди. Таҳдидларга, яъни ахборот ва компьютер технологиялари

<sup>2</sup>Маджидова Д.А., Азизов М.А. Замонавий авлод маънавий, ахлоқий қиёфасининг шаклланишига “оммавий маданият”нинг таъсири.//Болаларни маънавий ва жисмоний ривожланишида ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг долзарб масалалари республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т., 2017. – Б.33.

<sup>3</sup>Хуршид Дўстмуҳаммад. Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришнинг демократик андозалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б.24–25.

<sup>4</sup> Айдарбек Тулепов. Интернетдаги таҳдидлардан химоя. – Т.: Movarounnahr, 2015. – Б.213.

<sup>5</sup>Нажимов М. Ёшлар ҳуқуқий онгини юксалтиришда ахборот технологияларининг ўрни ва аҳамияти. Давлат бошқаруви органлари фаолиятида электрон ва информацион технологияларнинг тутган ўрни мавзусидаги давра субхати материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2015. – Б.47.



орқали содир этиладиган ҳуқуқбузарликларга нисбатан миллий ва халқаро даражада курашиш чоратадбирлари кўрилмоқда. Мана шундай вазиятда ёшларнинг ҳуқуқий онгини ривожлантириш, бу борада самарали ҳуқуқий тарбия тизимининг ҳуқуқий асосларини ва ташкилий механизмларини такомиллаштириш долзарб аҳамият касб этади.

Аммо бугунги кунда ахборот асри шароитида вояга етмаганлар, ёшларимизнинг онгини заҳарлайдиган, уларни турли ижтимоий иллатларга бошлайдиган салбий ҳолатлар ва ахборот хуружлари ҳам учраб туради.

Дарҳақиқат, XXI асрда мафкуравий курашларнинг ақл бовар қилмайдиган турлари пайдо бўлмоқда. Айрим ғоявий тузоқлар кўринишидан аср янгилигига ёки “маданияти”га ўхшасада, улар кишиларга, айниқса, ёшларга ёқиши билан янада хатарлидир. Бугунги кунда ҳеч бир халқнинг миллий-маънавий анъаналарига асосланмаган, фақат шаҳватларга, инсоний ахлоққа зид ҳаёт тарзига чақирувчи оммавий маданият ёки салбий жиҳатни ҳисобга олиб айтганда, “оломонча маданият”нинг ана шундай ташвишли томонлари жуда кўп. Булар оммавий маданият деб аталсада, аслида у бутун ер юзи, ҳатто ҳар бир киши онгига чанг солиб, маънавият кушандасига айланмоқда. Ачинарлиси, кўп инсонлар мазкур “маданият” таъсирига берилиб қолган ёки унинг қурбонига айланаётганини ҳам сезмайди<sup>6</sup>.

Бугунги кунда ахборот асри шароитида ёшларимизнинг онгини заҳарлайдиган, зарарли ахборот таъсири оммавий

маданият ниқоби остида кириб келаётган ахлоқсизлик ва таҳдидлар ёшларимизни ўз домига тортиб, улар онгини заҳарлаш, айниқса, вояга етмаганларни ахлоқсиз хатти-ҳаракатларга, фоҳишалikka жалб қилиш ҳолатлари ачинарлидир. Бундай ҳолатлар ҳам, ўз навбатида, ёшларимизнинг ҳуқуқий тарбияси шаклланмаганлигидан далолат беради.

Шу ўринда А.Тулупов “Ёшларнинг ахлоқи ва маънавиятига салбий таъсир кўрсатаётган “оломонча маданият”нинг қуйидаги баъзи кўринишларини кўрсатиб ўтади. Жумладан, биринчидан, ҳозир жаҳон медиа бозорининг тўртдан уч қисмини ғарб телевизион дастурлари эгаллаган. Уларнинг тумтароқ мусиқалари, маъноси ва ғайритабиий қўшиқларига бутун дунё тақлид қилаётгани ҳам ачинарли ҳолдир. Бундай кўринишлар ёшларни маҳлиё қилиб, ўз домига тортмоқда. Оқибатда айрим ўсмирлар уйда, мактабда ва ҳатто йўлда ана шундай зарарли нарсалар билан банд бўлишяпти.

Иккинчидан, бугун Ғарбда аксарият ёшлар маънавияти таназзулга учраётгани аниқ. Шунга қарамай, айрим оммавий ахборот воситаларида уларнинг турмуш тарзи тарғиб этилаётгани ажабланарли. Гарчи бундай вазият мамлакатимизда кузатилмасада, хотиржам бўлишга асос йўқ.

Учинчидан, хорижда ишлаб чиқарилаётган андозасиз кийимлар ва уларда акс эттирилган маъносиз сўзлар ёки ёвузликка чорловчи суратлар ёшлар онги ва феълига билмаган ҳолда салбий таъсир ўтказади. Масалан, хорижда тайёрланган кийимлардаги “killer” (қотил), “danger” (даҳшат) каби сўзлар ва ҳаёсизликни ифода этувчи

<sup>6</sup>Айдарбек Тулепов. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. – Т.: Movarounnahr, 2015. – Б.110.





манзараларнинг ҳам туб моҳиятига эътибор қаратиш керак. Акс ҳолда, фарзандларда зўравонлик ва жонига қасд қилиш каби иллатлар одатий ҳолатга айланиб қолиши мумкин.

Тўртинчидан, Ғарб ёшларида уюшган жинойтчилик ва зўравонликка берилиш ҳолатлари анча юқори. Бунга сабаб болаларга меъеридан ортиқ эркинлик берилганидир. Бунинг устига, “оломонча маданият” эр-хотин ва болаларнинг оиладаги вазифалари, бурч ва масъулиятларидан “озод” этиб, оилавий бирлик, меҳр-мурувватни йўққа чиқаряпти, оилани инқирозга олиб келмоқда.

Бешинчидан, ғарб турмуш тарзида ғурур-ор, эркаклик шаъни, аёллик иффати деган нозик тушунчалар емирила бошлаганига анча бўлди”<sup>7</sup> деб таъкидлайди.

Шунингдек, “Оммавий маданият” шуниси билан ҳам хатарлики, у ёшлар қайси миллатга, қайси қатламага мансуб бўлишига қарамасдан бирдек қамраб олади<sup>8</sup>.

АҚШлик геосиёсатчиси Збигнев Бжежинскийнинг фикрича, “оммавий маданият” жозибадорлиги асосида ижтимоий эгалитаризмга алоҳида аҳамият берадиган, айни пайтда, индивидуализм ва шахс муваффақиятларини инкор қилмайдиган америкача демократия ётибди. “бир сўз билан айтганда, “оммавий маданият” одамларни фикрлашдан тўхтатиб, тайёр

истеъмолчига айлантирадиган ҳодиса ҳисобланади”<sup>9</sup>.

Оммавий маданият – бу компьютер (интернет), бу қўл телефон, бу айрим телеканаллар, бу турли хил порнографик маҳсулотларни тайёрлаш, олиб кириш, тарқатиш, реклама қилиш, намоиш этиш, турли ахлоқсиз фильмлар намоиш этиш орқали вояга етмаганларни турли усуллар билан ўз домига тортадиган маданиятдир. Бу, ўз навбатида, инсоннинг ҳаётини заҳарлайдиган, уни ҳаётдан маҳрум этадиган оммавий маданият қуролидир. Бу орқали мана шундай иллатларга жалб қилувчи кишилар ёшларимизни оммавий қиришгача боради. Биз бундай иллатлардан огоҳ бўлишимиз лозим.

Ахборот асри шароитида ахборот воситалари айниқса интернет орқали порнографик маҳсулотларини тарқатиш натижасида ёшлар онгини заҳарлаш каби ҳолатлар учрамоқдаки, бунинг олдини олиш ҳам муҳим долзарб масалалардандир.

Интернет сайтларида ёшларга кучли таъсир этувчи ахборотларни қуйидагича таснифлаш мумкин:

Биринчи тоифадаги ахборотлар сирасига ёт, бузғунчи ғоялар (диний экстремизм ва террорчилик ғоялари, миллатчилик, ирқчилик, садизм кабилар)ни киритиш мумкин.

Иккинчи тоифадаги ахборотлар эса ғарб ҳаёт тарзига хос, ўзбек менталитетига зид одатлар ва кўникмаларни тарғиб этади. Бу, айниқса, ғарб ёшларининг кийиниши, одатларини тарғиб қилувчи

<sup>7</sup> Айдарбек Тулепов. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. – Т.: Movarounnahr, 2015. – Б. 112–13.

<sup>8</sup>Каримбеков Қ. Ғоявий-маънавий таҳдидлар ва “Оммавий маданият” хавфи. Маънавиятимизга таҳдид – келажакка таҳдид. – Т., 2011. – Б.169.

<sup>9</sup> Ғаффоров А. Тақлидий эмас, танқидий ёндашмоқ зарур. – Т.: “Миллий тикланиш”. 2010. – Б.4.





мақолалар, клиплар, фильмларда яққол намоён бўлади.

Учинчи тоифага порнографик ахборотларни, туртинчи тоифага эса ҳали текширилмаган, ўз исботига эга бўлмаган турли ҳужумкор ахборотларни киритиш мумкин.

Шулардан келиб чиқиб, инсоният ҳар доим учинчи тоифага эга бўлган интернет сайтларида ёшларга кучли таъсир этувчи порнография билан шафқатсиз жанг олиб борган. Ҳуқуқшунослар порнографияга аниқ тушунча бера олмайдилар ва айни пайтда у Голландиядан ташқари дунёнинг барча мамлакатларида тақиқланган.

Зарарли ахборотнинг ўзига хос хусусияти шундаки, уларни тарқатиш юзасидан инфорацион ҳуқуқларнинг чекланиши учун асос бўлиб, давлатнинг конституциявий тузуми асосларини, жамият маънавиятини ва фуқароларнинг соғлиғини ҳимоя қилиш ҳисобланади.

Таъкидлаш керакки, зарарли ахборотдан ҳимояни таъминлаш бир қанча омиллар таъсирида қийинлашади. Ўзининг ҳуқуқини ҳимоя қилиш учун, аввало, уни бузилганлигини англаш лозим, ахборот оқими орқали амалга ошириладиган руҳий таъсир, одатда у таъсир қилган шахс томонидан англамайди. У ёки бу ахборотнинг зарарли эканлигини англаш одамнинг ёшига ҳам боғлиқ. Шу сабабли Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги БМТнинг 1989 йилдаги Конвенцияси давлатларни “болани ахборотдан ва унинг камолига зарар етказувчи материаллардан ҳимоя қилувчи

тегишли тамойиллар”ни ишлаб чиқишга йўналтиради<sup>10</sup>.

### **НАТИЖАЛАР**

Бунинг натижасида *биринчидан*, ахборот асри шароитида ёшларнинг ижтимоий фаоллигини юзага чиқарувчи, уларни турли салбий иллатлардан, шунингдек зарарли ахборот хуружларидан, зўравонлик ва шафқатсизликдан ҳимоя қилувчи, уларни моддий, маънавий жиҳатдан рағбатлантирувчи ҳуқуқий асослари яратилади;

*Иккинчидан*, ахборот асри шароитида вояга етмаганларни ахборот хуружларидан ҳимоя қилишга доир миллий қонунчилигимизни такомиллаштирилиб, бу борада хорижий давлатлар тажрибаси, уни ўрганишда халқаро стандартлар таҳлил этилади;

*Учинчидан*, вояга етмаганларни ахборот хуружларига тушиб қолишининг нафақат объектив шарт-шароитлар, балки субъектив омиллар очиб берилади;

Тўртинчидан, вояга етмаганларни ахборот хуружларидан ҳимоя қилиш ва унинг олдини олиш ва бу борада тегишли таклиф ва тавсиялар бериш ва уларни ҳал этишнинг илмий асосланган чора-тадбирлари ишлаб чиқилади;

### **МУҲОКАМА**

Бу масалада бир қанча нормати-ҳуқуқий ҳужжатларни таҳлил этилиб, муҳокама қиламиз. Масалан, Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 8 сентябрдаги “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуннинг 16-моддасида, “Болаларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотни таснифлаш”

<sup>10</sup> Международная защита прав и свобод человека. Сборник документов. – М.: Юрид. лит, 1990. – С. 395.



ҳақида сўз юритилган бўлиб, “Болаларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборот жумласига болалар ўртасида тарқатилиши тақиқланган ахборот маҳсулоти, шунингдек муайян ёш тоифаларидаги болалар ўртасида тарқатилиши чекланган ахборот маҳсулоти киради.

Болалар ўртасида тарқатилиши тақиқланган ахборот маҳсулоти жумласига:

болаларни уларнинг ҳаётига ва (ёки) соғлиғига хавф соладиган хатти-ҳаракатларни содир этишга, шу жумладан ўз соғлиғига зарар етказишга, ўз жонига қасд қилишга ва шундай ҳаракатларни тарғиб қилишга ундайдиган; болаларда алкогольли ва тамаки маҳсулотларини, гиёҳвандлик воситаларини, психотроп моддаларни ёки ақл-ирода фаолиятига таъсир этувчи бошқа моддаларни истеъмол қилиш, қимор ўйинларида, оммавий тартибсизликларда иштирок этиш, фоҳишалик, дарбадарлик, тиланчилик ёки ғайриижтимоий хатти-ҳаракатнинг бошқа шакллари билан шуғулланиш истагини пайдо қиладиган; одамларга ёки ҳайвонларга нисбатан зўравонлик ва шафқатсизлик қилиш мумкинлигини асослайдиган ёки оқлайдиган ёхуд зўравонлик хатти-ҳаракатларини амалга оширишга ундайдиган; оилавий қадриятларни инкор этадиган, ахлоқсизликни тарғиб қиладиган, шунингдек ота-онасига ва оиланинг бошқа аъзоларига нисбатан ҳурматсиз муносабатни шакллантирадиган; ғайриқонуний хулқ-атворни оқлайдиган ва ҳуқуқбузарлик содир этишга олиб келадиган; жамиятда бузғунчилик ғояларини тарғиб этишга чақирадиган; уятли сўзларни ўз ичига олган; порнография хусусиятига эга

бўлган ахборотни ўз ичига олган; ғайриқонуний ҳаракатлар натижасида жабрланган болалар тўғрисидаги, шу жумладан бундай боланинг фамилияси, исми, отасининг исми, унинг ота-онаси ва бошқа қонуний вакилларининг фото-ва видеотасвирлари, бундай боланинг туғилган санаси, унинг овози ёзилган аудиотасма, яшаш жойи ёки вақтинча турган жойи, ўқиш ёки иш жойи тўғрисидаги, бундай боланинг шахсини бевосита ёхуд билвосита аниқлашга имкон берадиган бошқа ахборотни ўз ичига олган ахборот маҳсулоти киради. Муайян ёш тоифаларидаги болалар ўртасида тарқатилиши чекланган ахборот маҳсулоти жумласига:

шафқатсизлик, жисмоний ва (ёки) руҳий зўравонлик, жиноят ёки жамиятга қарши бошқа хатти-ҳаракатлар тасвири ёки баёни тарзида тақдим этиладиган;

болаларда қўрқув, ваҳима ёки саросима уйғотадиган, шу жумладан куч ишлатилмаган ўлимни, касалликни, ўз жонига қасд қилишни, бахтсиз ҳодисани, аварияни ёки фалокатни ва (ёки) уларнинг оқибатларини инсон қадр-қимматини камситадиган шаклда тасвирлаш ёки баён этиш тарзида тақдим этиладиган;

эркак ва аёл ўртасидаги жинсий муносабатларни тасвирлаш ёки баён этиш тарзида тақдим этиладиган; уятли сўзлар жумласига кирмайдиган ҳақоратли сўзларни ўз ичига олган ахборот маҳсулоти киради<sup>11</sup>.

Шунингдек, ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва халқаро ҳуқуқда у ёки бу ахборотни

<sup>11</sup>Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 8 сентябрдаги “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонунни <https://lex.uz/docs/3333797>.



тарқатишнинг олдини олувчи, чекловчи ёки тақиқловчи жуда ҳам кўплаб нормалар мавжуд.

Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрдаги 406-сонли “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”<sup>12</sup>ги Қонуннинг 5-моддасида “Ёшларга оид давлат сиёсатининг асосий йўналишлари кўрсатиб ўтилган бўлиб, шулар қаторига “ёшларни ўзини ўзи ўлдириш даражасига олиб келадиган ва ундайдиган зарарли ахборот хуружларидан ҳимоя қилиш”, йўналишини ҳам киритиш лозим. Чунки, ушбу моддада ёшларни ўзини ўзи ўлдириш даражасига олиб келадиган ва ундайдиган зарарли ахборот хуружларидан ҳимоя қилиш масаласи четда қолган бўлиб, бундай таклиф бериш ўз навбатида ёшларни сиёсий фаоллигини амалга ошириш билан бир қаторда уларни турли салбий зарарли ахборот хуружларидан ҳам ҳимоя қилишга қаратилгандир.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”<sup>13</sup>ги Қонун 4-моддасида вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикасига доир фаолиятнинг асосий вазифалари сифатида “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва

ҳуқуқбузарликларнинг профилактикасига доир фаолиятнинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

вояга етмаганлар назоратсизлиги, қаровсизлиги, улар томонидан ҳуқуқбузарликлар ёки бошқа ғайриижтимоий хатти-ҳаракатлар содир этилишининг олдини олиш, уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборот хуружларидан ҳимоя қилиш, уларга таъсир этадиган алкоғолизм, гиёҳвандлик ва ичкиликбозликка қарши курашиш ва уларга имкон берадиган сабаблар ва шарт-шароитларни аниқлаш ҳамда бартараф этиш”дан иборат эканлигини ҳам киритиш лозимдир.

#### **ХУЛОСА**

Хулоса қиладиган бўлсак, ҳозирги глобаллашув жараёнларида ахборот олами билан ёшлар ўртасига қандайдир девор ўрнатиб бўлмаслиги, бироқ фарзандларимизни чалғитишга, тўғри йўлдан тойдиришга қаратилган информацион таҳдидлардан, ғаразли ахборот хуружларидан ҳимоялаш чораларини кўриш долзарб вазифадир. Дарҳақиқат, “Ғояга қарши фақат ғоя, фикрга қарши фақат фикр, жаҳолатга қарши фақат маърифат билан” баҳсга киришиш мумкинлиги диққат-эътиборимизда бўлиши керак. Ахборот маконида турли таҳдидлар бор экан, келажакимиз ворисларининг эртанги тақдирини ўйлаб, ёшлар учун соғлом ахборот муҳитини яратиш давр тақозосидир. Ахборот хавфсизлигини таъминлашда қуйидаги асосий омиллардан фойдаланиш зарур: ҳар биримиз фарзандларимизни она Ватанга муҳаббат, бой тарихимизга, ота-боболаримизнинг муқаддас динига садоқат руҳида тарбиялашимиз учун

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрдаги 406-сонли “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонунни. <https://lex.uz/docs/3026246>

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги Қонунни. <https://lex.uz/docs/1685726?twolang=1>




уларнинг онги ва қалбида мафкуравий иммунитетни кучайтириш;  
миллий ахборот маконимизга чегара қўйиб бўлмаслигини назарда тутиб, ёш авлоднинг соғлиғи ва маънавий оламининг дахлсизлигини таъминлайдиган, вайронкорлик ва бузғунчилик мазмунидаги ахборот оқимидан ҳимоя қилишнинг муҳим омили сифатида алоҳида “Хавфсиз Интернет” дастурини ишлаб чиқиш;  
ёшларни мустақил фикрлайдиган, ахборотни фарқлай оладиган инсонлар бўлиб етишишида олиб бораётган тарбиявий ишларимизни янада кучайтириш;  
энг ривожланган давлатлар амалиётидан келиб чиқиб, турли носоғлом ғояларга қарши ҳаракат

тизимининг ҳуқуқий асосларини янада мустаҳкамлаш;  
бугунги шиддат билан ривожланиб бораётган соҳага оид қонунчиликни ҳам шунга мутаносиб равишда такомиллаштириб бориш;  
ёшлар тарбиясига мутасадди бўлган барча марказий ва маҳаллий ташкилот ва муассасалар, фуқаролик жамияти институтлари вакилларининг бу борадаги фикр-мулоҳазаларини билиш ҳамда ёш авлоднинг ахборот олишга бўлган ҳуқуқларини кенг миқёсда рўёбга чиқариш, уларни маънавий таҳдидлардан ҳимоялаш, миллий қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялашдаги масъулиятини оширишни давр тақозо этмоқда.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 8 сентябрдаги “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонунни <https://lex.uz/docs/3333797>.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрдаги 406-сонли “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонунни. <https://lex.uz/docs/3026246>
3. Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги Қонунни. <https://lex.uz/docs/1685726?twolang=1>
4. Айдарбек Тулепов. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. – Т.: Movarounnahr, 2015. – Б. 112–13.
5. Каримбеков Қ. Ғоявий-маънавий таҳдидлар ва “Оммавий маданият” хавфи. Маънавиятимизга таҳдид – келажакка таҳдид. –Т., 2011. – Б.169.
6. Ғаффоров А. Тақлидий эмас, танқидий ёндашмоқ зарур. – Т.: “Миллий тикланиш”. 2010. – Б.4.
7. Дўстмуҳаммад Х. Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришнинг демократик андозалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б.25.
8. Маджидова Д.А., Азизов М.А. Замонавий авлод маънавий, ахлоқий қиёфасининг шаклланишига “оммавий маданият”нинг таъсири.//Болаларни маънавий ва жисмоний ривожланишида ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг долзарб масалалари республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т., 2017. – Б.33.
9. Хуршид Дўстмуҳаммад. Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришнинг демократик андозалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б.24–25.





## ТУПРОҚ ҚОПЛАМИНИНГ МЕЛИОРАТИВ-ЭКОЛОГИК ҲОЛАТИНИ ЯХШИЛАШДА РЕСУРСТЕЖАМКОР ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Мухамадов Қамориддин Мухтор ўғли

Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш  
муҳандислари институти Бухоро филиали 3- босқич талабаси.

qmuxamadov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6026708>

### МАҚОЛА ТАРИХИ

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Тупроқ, шўрланиш, эрозия, картограмма, ер фонди, пецтисидлар, мелиоратив-экологик ҳолати, суғориладиган, шўр ювиш, қатламлар, тупроқ қоплами.

### ANNOTATSIYA

*Ушбу мақола Бухоро воҳаси суғориладиган ерлари мелиоратив-экологик ҳолатида содир бўлаётган салбий жараёнларни аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тадбирларни ишлаб чиқишга қаратилган бўлиб, тупроқларнинг мелиоратив-экологик ҳолатини яхшилаш, унумдорлигини сақлаш, ошириш ва улардан самарали фойдаланиш, иккиламчи шўрланиш жараёнларига қарши курашда ресурстежамкор технологияларни жорий этиш бўйича тавсиялар берилган.*

**Мавзунинг долзарблиги.** Бугунги кунда дунё ер фондининг асосий муаммолари тупроқлар унумдорлигининг камайиши, тупроқ эрозияси, уларнинг ифлосланиши, биологик ҳосилдорлигининг йўқолиши, суғориладиган майдонларнинг шўрланиши ва ботқоқланишидир. Ҳисоб-китобларга қараганда инсоният ҳозирга келиб 2 миллиард гектар ҳосилдор ерларни йўқотиб бўлди, жумладан, биргина эрозия сабаб ҳар йили дунё бўйича қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган 5-6 миллион гектар, шўрланиш ва ботқоқланиш сабабли 1,5 миллион гектар ер майдонлари қишлоқ хўжалигида фойдаланишдан чиқиб кетмоқда [1]. Шу сабабли суғориладиган ерларнинг самарадорлигини ошириш, тупроқ қопламининг мелиоратив-экологик ҳолатини яхшилаш, деградация жараёнларидан муҳофаза қилиш, уларни олдини олиш ва

унумдорлигини оширишга қаратилган чора-тадбирларни илмий асосланган ҳолда ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади [3, 4, 5].

Дунёда тупроқларнинг ҳозирги ҳолатини ва уларнинг антропоген омиллар таъсирида ўзгаришини аниқлаш, дегумификация, сувга чидамли донадор структуранинг йўқолиши, зичлашиш, сув-туз мувозанатини мақбуллаштириш, иккиламчи шўрланиш, эрозия ва бошқа салбий жараёнларнинг олдини олиш, мелиоратив-экологик ҳолатини яхшилаш бўйича бир қатор устувор йўналишларда илмий ишлар олиб борилмоқда. Бу борада тупроқларни сув-физикавий, технологик, агрокимёвий хоссаларини ва мелиоратив ҳолатини баҳолаш, ҳудудларни тупроқ-иқлим шароитига мос келадиган агромилиоратив, агротехник чора-тадбирларни ишлаб





чиқиш, тупроқ унумдорлигини сақлаш, тиклаш ва оширишга доир тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Республикамизда суғориладиган тупроқларнинг мелиоратив-экологик ҳолатини яхшилаш, унумдорлигини сақлаш, ошириш ва улардан самарали фойдаланиш, иккиламчи шўрланиш жараёнларига қарши курашда ресурстежамкор технологияларни жорий этиш орқали илмий асосланган деҳқончиликни ривожлантириш бўйича кенг қамровли мелиоратив чоратадбирлар ва илмий-тадқиқот ишлари амалга оширилиб, муайян натижаларга эришилмоқда. Ўзбекистон

Республикасини ривожлантиришнинг 2017–2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясида «...суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини янада яхшилаш, мелиорация ва ирригация объектлари тармоқларини ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш соҳасига интенсив усулларни, энг аввало, сув ва ресурсларни тежайдиган замонавий агротехнологияларни жорий этиш» [2]. бўйича вазифалар белгилаб берилган. Шу боис, республикамиз қишлоқ хўжалигини янада ривожлантиришда суғориладиган ерлардан самарали фойдаланиш, уларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, тупроқларнинг сув-туз мувозанатини, сизот сувлари сатҳи ва минераллашганлик даражасини барқарорлаштириш, тупроқларнинг экологик ҳолатини ифодаловчи кўрсаткичларни аниқлаш ва шу асосда агро-мелиоратив чора-тадбирларни табақалаштирилган ҳолда амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади.

**Тадқиқотнинг мақсади** сув танқислиги шароитида Бухоро воҳаси

суғориладиган тупроқларининг мелиоратив-экологик ҳолатида содир бўлаётган жараёнларни аниқлаш ва уларни яхшилашга қаратилган тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

**Тадқиқотнинг вазифалари**

суғориладиган ерларда сизот сувлари чуқурлиги ва минераллашганлик даражасини тупроқнинг мелиоратив ҳолатига кўрсатадиган таъсирини аниқлаш; коллектор-зовур сувлари оқими ва уларнинг минераллашганлик даражасини таҳлил қилиш; воҳа суғориладиган тупроқларида табиий ва антропоген омиллар таъсирида кечаётган шўрланиш жараёнлари ўзгаришини аниқлаш; суғориладиган тупроқларнинг сув-туз мувозанатини аниқлаш; суғориш ва зовур сувларидаги заҳарли моддалар миқдорини ўрганиш; суғориладиган тупроқларнинг қишлоқ хўжалигида қўлланиладиган заҳарли моддалар билан ифлосланиши даражасини аниқлаш ва улар асосида ҳудуд тупроқларининг экологик ҳолатини баҳолаш; Бухоро воҳасидан танланган таянч ҳудудларнинг 1:10 000 масштабда «Тупроқ шўрланиши картограммалари»ни тузиш, шу асосда суғориладиган тупроқларнинг мелиоратив-экологик ҳолатини яхшилаш бўйича илмий асосланган тавсиялар ишлаб чиқиш ҳисобланади.

**Тадқиқотнинг объекти** сифатида Бухоро воҳасида тарқалган қадимдан суғориладиган ўтлоқи-аллювиал тупроқлар танланган.

Тупроқ экологик-мелиоратив ҳолатини яхшилаш, унинг унумдорлигини ошириш, сув-туз тартибини мақбул даражада бошқариш, ҳозирги кунда содир бўлаётган жараёнларни ифодаловчи асосий кўрсаткичларни тўғри таҳлил қилишни тақазо этади. Бу



борада Бухоро вилоятида олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишлари эътиборга лойиқ. Бухоро вилоятининг умумий майдони 4183,1 минг гектар бўлиб, у 11 та қишлоқ хўжалик туманларига бўлинади. Суғоришга яроқли ерлар 954,3 минг гектарни, шундан суғориладиган ерлар 226,6 минг гектарни ташкил қилади, ушбу майдоннинг 192,8 минг гектари ёки 85,1 фоизи турли даражада шўрлангандир.[6, 7]

Бир қатор тупроқшунос ва мелиоратор олимларимиз томонларидан олиб борилган илмий тадқиқотлар республикамиз суғориладиган тупроқларининг мелиоратив ҳолатини аниқлаш, мавжуд салбий ҳолатларнинг олдини олиш ва оқибатларини бартараф этишга бағишланган бўлиб, чўл минтақаси худудлари тупроқларининг турли даражада шўрланиши, шўрхоқларнинг ҳосил бўлиши-бу антропоген омил таъсирида суғориладиган ерларда суғориш сувидан самарасиз фойдаланиш, мавжуд коллектор-зовур тармоқларининг ишчи ҳолатда эмаслиги эканлиги келтириб ўтилган. [8, 9, 10, 11, 12]

Тупроқнинг шўрланиши ўсимликларнинг ҳосилдорлигининг кескин пасайиб кетишига, экинларни парвариш қилиш ва ҳосил етиштириш учун кўп меҳнат сарфланишига олиб келади. Кучсиз шўрланган ерларда пахта ҳосили 20-30 фоизгача, ўртача шўрланган ерларда 40-60 фоизгача ҳамда кучли шўрланган ерларда эса 70-80 фоизгача камайиши кузатилган. Шу боисдан ҳам тузларнинг ўсимликка кўрсатадиган зарарини камайтириш учун шўрланган ерларда экинларни парваришlashда агромилиоратив ва агротехник тадбирларининг ўзига хос

усулларини ишлаб чиқишни тақозо этади. Ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш қишлоқ хўжалиги соҳасидаги энг долзарб масалалардан биридир. Негаки, фермер ва деҳқонларнинг даромади кўп жиҳатдан тупроқлар унумдорлигига, экинларнинг ҳосилдорлигига, демакки, айнан ерларнинг мелиоратив ҳолатига боғлиқ. Шунинг учун ҳам юртимизда ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, сизот сувлари сатҳини пасайтириш, ерларнинг шўрланиш даражасини камайтиришга қаратилган чоратадбирлар кўлами йил сайин кенгайтирилмоқда.[13, 14, 15, 16]

Бухоро вилояти субтропик ва мўътадил иқлим минтақаларининг шимолий чегарасида жойлашган бўлиб, қуёш радиацияси оқимининг юқори даражаси, ер юзаси ва атмосфера циркуляцияси хусусиятлари билан биргаликда ҳаво ҳароратининг мавсумий ва суткалик катта тебранишлари, давомли қуруқ ва иссиқ ёзи, нам баҳор ва беқарор қиши билан ҳаракатланадиган континентал типини вужудга келтирган. Вилоятнинг кўпчилик туманларида июлнинг ўртача ҳарорати  $+28^{\circ}\text{C}$  га тенг бўлиб, Когон ва Қоровулбозор туманларида эса  $+30^{\circ}\text{C}$  гача етади. Ҳароратнинг мутлоқ максимуми  $+44-46^{\circ}\text{C}$ , январнинг ўртача ҳарорати шимолда  $-8^{\circ}\text{C}$  дан жанубда  $0^{\circ}\text{C}$  гача ортади, минимал ҳаво ҳарорати  $-18^{\circ}\text{C}$  га етади. Воҳада совуқсиз даврлар 205–220 кунни, шамолсиз даврлар эса 90–100 кунни ташкил этади. Вегетация давридаги мусбат ҳаво ҳарорати 4700 дан 4800<sup>0</sup> C гача ўзгариб туради, самарали ҳарорат эса 2600-2700<sup>0</sup> C ни ташкил қилади. Атмосфера ёғинларининг ўртача йиллик миқдори 98-144 миллиметрни ташкил этади,



ёғинларнинг асосий қисми қиш ва баҳор ойларига тўғри келади.

Геологик нуқтаи назардан Бухоро вилояти ҳудуди эгарсимон тузилишда бўлиб, қалинлиги 400 метрга етадиган континентал ётқиқиқлар билан тўлдирилган. Улар ҳамма ерда кенг тарқалган палеоген даврининг денгиз гиллари устида ётади. Сизот сувлари чуқурлиги 1,5–3,0 метр. Оқим йўналиши шимолий-ғарбга томон, нишаблиги 0,001–0,004. Сизот сувларининг кимёвий таркиби воҳанинг юқори қисмида гидрокарбонатли ва гидрокарбонат-сульфатли, марказий қисмида сульфатли, чекка қисми ва сахро-чўлларида сульфат-хлоридли ва хлорид-сульфатли. Ҳаво ҳароратининг юқори бўлиши ва иссиқ кунларнинг кўп бўлиши, ер юзасига яқин жойлашган сизот сувларининг эвапотранспирацияга кўп сарфланишига олиб келади. Бу эса ўз навбатида аэрация зонасида туз миқдорининг кескин ошишига сабаб бўлади. Оқибатда суғориладиган майдонларда шўрланиш қайта тикланади.

Бухоро ва Қорақўл дельталарининг суғориладиган майдонларида асосан эскидан суғориладиган ўтлоқи-аллювиал, чўл зонасининг ўтлоқи-чўл ва ўтлоқи-тақир тупроқлари тарқалган. Суғориладиган тупроқларнинг механик таркиби енгил, ўрта ва оғир қумоқлидан, қумли ва қумлоқларгача ўзгариб, пастки қатламлар асосан, ўрта ва енгил механик таркибдан иборат. Экологик-мелиоратив жараёнлардаги ўзгаришларни аниқлаш мақсадида стационар кузатувлар алоҳида танланган массивлар ҳудудида ўтказилди, уларнинг тупроқ қоплами, асосан, эскидан суғориладиган ўтлоқ-

аллювиал тупроқлардан иборат. Тупроқ намуналарининг аналитик маълумотлари таҳлилига кўра, тупроқларнинг юқори (0–100 см) қатламида физик лой (<0,01 мм) заррачалар миқдори 21,3 дан 43,6 фоизгача. Қорақўл туманининг айрим жойларида қумли ва енгил қумоқ механик таркибли тупроқлар мавжуд, улар қумлоқ ва лойли қатламлар билан алмашиб келади.[17, 18].

Қишлоқ хўжалиги экинларидан мўл ва юқори ҳосил олиш учун қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш, суғориш ва мелиорация ишларини олиб бориш, ўсимликшунослик ва деҳқончиликнинг сўнгги ютуқларини жорий этиш билан бир қаторда, ўғитлар ва пестицидларни кенг миқёсда қўллашни, шунингдек, зараркунанда ва касалликларга қарши кимёвий воситаларни қўллашни талаб этади. Шу билан бирга, ишлатилган кимёвий ўғитлар ва пестицидлар тупроқда йиғилиб шудгор тагига сув, ҳаво ўтказишни, модда алмашувини, микроорганизмларнинг ривожланишини ёмонлаштирувчи зичлашган қатлам ҳосил қилади ва охир оқибат тупроқларнинг экологик ҳолатининг бузилишига олиб келади. Маълумки, ҳар бир тупроқ-иқлим зонаси табиий ва антропоген жараёнлар билан доимий алоқада. Турли омилларнинг комбинацияси таъсири остида доимий динамикада бўлиш, улар чўлланиш жараёни ривожланиши ёки рухсат этилган чегаралар бўйича токсик моддаларни тўплаш натижасида хоссаларини ва табиий маҳсулдорлигини сақлаб қолиши ёки уларни йўқотиши мумкин. Бироқ ижобий таъсирга қўшимча равишда агрохимикатлардан фойдаланиш асосан



атроф-муҳитни ифлослантирувчи ва айниқса йирик қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг фонида хавфли оқибатларга олиб келиши мумкин. Кимёвий моддалар қолдиқларини атроф муҳитда тўпланиши атмосфера, тупроқ, биосфера ва ер ости сувларининг ифлосланишига олиб келади. Бу ҳолат пахта етиштириладиган суғориладиган тупроқлар майдонларини кескин ёмонлашувининг асосий сабабларидан биридир. Бу тупроқлар жуда кўп миқдорда минераллар ва турли хил пестицидлардан фойдаланилганлиги сабабли оғир юкни бошидан кечирмоқда: инсектицидлар, гербицидлар, дефолиантлар ва бошқалар шулар жумласидандир. Бунинг оқибатида нафақат тупроқнинг, балки бутун атроф-муҳитнинг ифлосланиши ва заҳарли моддалар миқдорини ортиши йилдан-йилга ошиб бормоқда [19, 20, 21, 22].

**Тадқиқот натижалари:** Тадқиқотлар учун асосий объект сифатида Бухоро вилояти Қоракўл тумани «Ўзбекистон» массиви ва Ромитан тумани «Халқобод» массивларининг суғориладиган ерлари танланди. Умумий майдонларнинг ҳар бирида тупроқларнинг хосса-хусусиятлари ва шўрланиш даражалари, унумдорлигини ҳисобга олган ҳолда, кузатув майдончалари белгиланди. Дала шароитида таянч кесмаларининг морфологик белгилари ёзилиб, генетик қатламлардан тупроқ намуналари олинди, шунингдек, алоҳида танланган ҳудудлардан 0–30 см ва 0–100 сантиметргача қатламлардан тупроқ намуналари олиниб, кимёвий таҳлиллар ўтказилди. Тупроқнинг мелиоратив-экологик ҳолатига тўлиқ баҳо бериш мақсадида суғориш сувлари ва

коллектор-зовур сувларидан ҳам намуналар олиниб таҳлил қилинди. Юқорида келтирилган тупроқларнинг таркиби ва хосса-хусусиятларини ўрганиш учун тупроқшуносликда умумқабул қилинган услублардан фойдаланилди.

Агрокимёвий таҳлиллар натижасига кўра, воҳа суғориладиган тупроқлари гумуснинг оз миқдорга эга эканлиги билан изоҳланади, бу ҳолатни тупроқ профилида унинг тақсимланиши бўйича кузатиш мумкин. Ҳайдалма қатламдаги гумуснинг миқдори 0,8–1,4%, азот 0,06–0,12%, умумий фосфор 0,11–0,18 фоизни ташкил қилади. Ўзлаштириладиган ҳаракатчан фосфор миқдори 1 кг қуруқ тупроқда 8–13 миллиграммни, алмашинувчи калий миқдори 120–150 мг/кг ни ташкил қилади. Ўрганилган тупроқ таркибида гипс ( $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ) айрим жойларда тупроқ юзасидан 70–80 см чуқурликда бўлиб, улар миқдори кам (0,1–0,8%). Тупроқларда  $\text{CO}_2$  карбонатлар миқдори 4,5 фоиздан 8,5 фоизгача ораликда тебраниб туради ва уларнинг тупроқ профилидаги тарқалишида ҳеч қандай қонуният кузатилмади. Карбонатлар таркибидаги  $\text{CaCO}_3$  нинг улуши умумий миқдорининг 85–90,  $\text{MgCO}_3$  10–15 фоизни ташкил этади.

Суғориладиган тупроқларнинг мелиоратив-экологик ҳолатига баҳо бериш мақсадида 2016 ва 2021 йилларда Қоракўл тумани ҳудудидан оқиб ўтувчи Қораун ариғи, ички хўжалик суғориш канали, хўжаликлараро ва хўжалик ички коллектор-зовур сувлари кимёвий таркиби ҳамда суғориш ва коллектор-зовур сувларининг пестицидлар ва бошқа элементлар билан ифлосланиш даражасининг ўзгаришларини кузатиш





ишлари амалга оширилди. Суғориш сувининг кимёвий таркиби маълумотларини таҳлил қилиш қўйидаги келтирилган рақамларда ўз аксини топган. Қуруқ қолдиқ бўйича жами тузлар миқдори 0,940–8,360 мг/л ни ташкил қилгани ҳолда, минераллашганлик даражасига кўра камайиб боровчи тартибда анионлар қўйидаги миқдорда аниқланди: сульфат иони–219,74–274,88 мг/л, бикарбонатлар ( $\text{HCO}_3$ ) –158,6–244,0 мг/л, хлор иони–95,57–138,68 мг/л. Катионлар бўйича эса натрий ионининг миқдори нисбатан юқори–181,0–106,0 мг/л. Кўриб чиқиладиган коллекторлар кесимида энг юқори минерализация миқдори хўжаликлараро коллекторда аниқланиб, оқимнинг минераллашуви энг юқори кўрсаткичлари 2016 йилда 41,536 г/л, 2018 йилда 13,188 г/л миқдорда кузатилди.

Бухоро воҳасининг баъзи коллектор-зовур сувлари аналитик таҳлиллари маълумотларининг кўрсатишича, 2016–2021 йилларда пестицидлардан кам миқдордаги альфа гексохлорциклогексан ( $\alpha$ -ГХЦГ) ва гамма гексахлороциклогексан ( $\gamma$ -ГХЦГ) мавжуд. 2016 йилда Бош Қоракўл коллекторининг сувида альфа гексохлорциклогексан ( $\alpha$ -ГХЦГ) нинг энг кам миқдори – 0,002 мг/л, Чорбакир коллекторида энг юқори миқдори–0,090 мг/л бўлган. Шунингдек, лаборатория таҳлилларида ўрганилган даврда Марказий Бухоро ва Парсанкўл коллекторларида мос равишда – 0,045 ва 0,068 мг/л гача пестицидлар мавжудлиги аниқланди. Кейинги йиллардаги такрорий лаборатория таҳлилларга кўра,  $\alpha$ -ГХЦГ пестицидлари хўжаликлараро коллектор сувида нисбатан юқори–0.014 мг/л, Бош

Қоракўл коллекторида ДДЕ ва ДДТ мос равишда 0,001 мг/л ва 0,003 мг/л миқдорларда мавжудлиги қайд қилинди. Бу пестицидларнинг излари хўжаликлараро ва хўжалик ичидаги коллекторларнинг сувларида ҳам кам миқдорда учрайди.

Ўрганилган тупроқларнинг экологик ҳолати таҳлил қилинганда танланган ҳудудлардан олинган тупроқ намуналаридаги қишлоқ хўжалигида ишлатилиб келинган айрим пестицидлар миқдори аниқланди. Олинган маълумотларнинг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, бугунги кунда Бухоро воҳасининг суғориладиган ўтлоқли-аллювиал тупроқлари кўпчилик ҳолларда  $\alpha$ -ГХЦГ,  $\gamma$ -ГХЦГ, ДДЕ ва ДДТ каби пестицидларнинг рухсат этилган миқдордан (0,1 мг/кг) пастроқ ва умуман олганда уларнинг тупроқ, суғориш ва зовур сувлари тизимидаги экологик вазиятга салбий таъсири нисбатан кам. Фақатгина 1004-кесмадан олинган тупроқларда пестицидлардан гамма гексохлорциклогексан ( $\gamma$ -ГХЦГ) рухсат этиладиган миқдор (РЭМ) дан бир неча баробар юқори эканлиги аниқланди. Ўтказилган лаборатория аналитик натижаларини таққослаш ва уни таҳлилига кўра аниқланган пестицидларнинг миқдори 1-расмда келтирилган.


Суғориладиган ҳудудлар экологик ва мелиоратив ҳолатини тавсифловчи асосий омиллардан бири–ўсимлик илдизи тарқалган фаол қатлам зонасида тузлар миқдори ва таркиби ҳисобланади. Агротехнологиянинг барча оптимал шароитларидаги кам шўрланган тупроқларда ҳосилнинг йўқолиши тахминан 20–30 фоизни; ўртача шўрланган ерларда 40–50%; кучли шўрланган ерларда 60–80 фоизни





ташқил қилади. Табиий ва хўжалик шароитларининг таъсирида, тупроқлардаги тузларларнинг миқдорий кўрсаткичлари, шўрланиш

жараёни ҳамда тузларнинг тупроқ қатламларидан чиқариб юборилиши жуда кенг оралиқларда кузатилади.



1-расм. Қадимдан суғориладиган ўтлоқи-аллювиал тупроқлардаги пестицидлар миқдорининг ўзгариши

Бу жараёнлар Қорақўл туманида олиб борилган тадқиқотларимиз натижаларида аниқ ифодаланган. Кузатишлар учун танланган тупроқ кесмаларида олиб борилган изланишлар натижасида қадимдан суғориладиган ўтлоқи-аллювиал тупроқларнинг шўрланиш даражаси турли оралиқларда ўзгаришини

кўрсатади. 0–100 см тупроқ қатламидаги тузлар миқдори куруқ қолдиқ бўйича 0,090–0,925 фоиздан (1001, 1021 кесма), 1,090–2,740 фоиз (1059, 1021 кесма) гача, ўсимликлар учун хавfli бўлган заҳарли хлор ионининг миқдори 0,01–0,35% оралиғида тебраниб туради (1-жадвал).

1-жадвал

Қадимдан суғориладиган ўтлоқи-аллювиал тупроқларда сувда осон эрувчи тузлар миқдори ва ионлар таркиби, %

	Қ	HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	Cl <sup>-</sup>	SO <sub>4</sub> <sup>-2</sup>		Mg <sup>+2</sup>		Т	С	аниш	
											си
1001	0-30	0,125	0,038	0,024	0,025	0,015	0,006	0,010	0,118	с-х	Кучсиз
	30-60	0,128	0,037	0,017	0,025	0,015	0,006	0,008	0,108	х-с	Кучсиз
	60-100	0,115	0,038	0,014	0,025	0,015	0,006	0,007	0,105	х-с	Кучсиз
1021	0-30	2,740	0,024	0,353	1,380	0,090	0,125	0,558	2,530	х-с	Жуда кучли
	30-44	1,105	0,024	0,123	0,565	0,070	0,080	0,127	0,989	х-с	Кучли
	44-68	1,300	0,030	0,178	0,615	0,040	0,073	0,237	1,173	х-с	Кучли



	68-100	0,940	0,021	0,150	0,425	0,040	0,056	0,157	0,849	х-с	Ўртача
	100-130	0,925	0,027	0,109	0,445	0,020	0,046	0,184	0,831	х-с	Ўртача
1011	0-30	<u>0,306</u>	<u>0,021</u>	<u>0,031</u>	<u>0,138</u>	<u>0,020</u>	<u>0,018</u>	<u>0,037</u>	<u>0,265</u>	х-с	Ўртача
	30-60	<u>0,225</u>	<u>0,015</u>	<u>0,070</u>	<u>0,053</u>	<u>0,015</u>	<u>0,009</u>	<u>0,042</u>	<u>0,204</u>	с-х	Кучсиз
	60-100	<u>0,205</u>	<u>0,015</u>	<u>0,070</u>	<u>0,035</u>	<u>0,015</u>	<u>0,006</u>	0,039	0,180	с-х	Кучсиз
1059	0-30	<u>0,110</u>	<u>0,018</u>	<u>0,016</u>	<u>0,038</u>	<u>0,015</u>	<u>0,006</u>	0,007	0,100	х-с	Кучсиз
	30-40	<u>0,190</u>	<u>0,018</u>	<u>0,014</u>	<u>0,087</u>	<u>0,020</u>	<u>0,009</u>	<u>0,017</u>	<u>0,165</u>	х-с	Кучсиз
	40-60	<u>1,090</u>	<u>0,018</u>	<u>0,110</u>	<u>0,545</u>	<u>0,080</u>	<u>0,074</u>	<u>0,107</u>	<u>0,934</u>	х-с	Кучли
	60-115	<u>0,126</u>	<u>0,018</u>	<u>0,014</u>	<u>0,049</u>	<u>0,020</u>	<u>0,006</u>	<u>0,005</u>	<u>0,112</u>	х-с	Кучсиз

Кузатишлар олиб борилган Қоракўл воҳаси суғориладиган ерларнинг 70 фоиздан кўпроғини қадимдан суғориладиган ўтлоқи-аллювиал, ўтлоқи-аллювиал-тақир, кумли чўл тупроқлардан иборат. Ушбу тупроқларнинг 40–45 фоизи турли даражада шўрланган ва зичлашган, улардаги гумус ва асосий озика элементларининг миқдори ҳам турлича эканлиги аниқланди. Бухоро воҳасида тарқалган суғориладиган тупроқларда ҳам юқорида баён қилинган ҳолат кузатилди. Дала изланишлари ва лаборатория таҳлиллари асосида тузларнинг миқдорий кўрсаткичлари, шўрланганлик даражаси ва шўрланиш типлари Қоракўл ва Ромитан туманларининг турли майдонларида турлича эканлигини кўрсатди. Таҳлил натижалари синчиклаб ўрганилиб чиқилиб, тупроқ профилидаги сувда осон эрувчи тузларнинг ялпи миқдори ва уларнинг умумий захиралари аниқланди. Туз захираларининг миқдорий кўрсаткичлари бўйича тупроқнинг мелиоратив ҳолати баҳоланди ва массивларнинг тупроқ шўрланиши картограммаси ишлаб чиқилди.

**Хулосалар.** Ҳозирги кунда суғориладиган майдонларда мавжуд коллектор - зовур тармоқларининг

техник ҳолати ва иш фаолияти, ҳудуднинг сув билан таъминланганлик даражаси, суғориш сувларининг сифати ҳамда тупроқларни шўрсизлантириш тадбирларининг ўтказилиш ҳажми ва технологияси суғориладиган массивларда мелиоратив-экологик жараёнларни мақсадли бошқариш учун етарли эмас. Воҳада суғорма деҳқончиликни юритиш қуйидагилар билан характерланади:

- ❖ вегетация даврларида ўсимликлар илдиз қатламида (0–1 м) туз тўпланиш жараёнларининг юқорилиги;
  - ❖ суғориладиган ерларда ер ости сувларининг чуқурлиги ва минераллашганлик даражасининг кескин салбий томонга ўзгарувчанлиги;
  - ❖ тупроқларнинг сув-туз мувозонатини (балансини) мақбуллаштиришда мавжуд коллектор-зовурлар тармоқларининг гектар ҳисобида етарли эмаслиги ва иш самарадорлигининг пастлиги;
  - ❖ пестицидлар ва биоген моддаларни ишлатиш қоидалари, меъёрлари ва технологиясида номуносибликларнинг мавжудлиги.
- Суғориладиган тупроқлар қопламанинг мелиоратив-экологик ҳолатини яхшилашда шўр ювиш асосий тадбирлардан ҳисобланиб, Бухоро



шароитида бундай шўр ювишлар кузги-қишки атмосфера ёғинлари билан табиий шўрсизланишини тезлаштиради. Қишки профилактик суғориш натижасида ҳайдов ва ҳайдов ости қатламларида туз миқдорининг қониқарли даражада камайишига эришиш мумкин. Қишки профилактик суғоришлар нормаси 1500–3000 м<sup>3</sup>/га бўлганда яхши самара беради. Шўр ювиш тадбирларини тупроқнинг механик таркиби, шўрланганлик даражаси ва сув ўтказувчанлик қобилиятини ҳисобга олган ҳолда, кучсиз шўрланган қадимдан суғориладиган ўтлоқи-аллювиал тупроқларини 2,0–2,5 минг м<sup>3</sup>/га, ўртача шўрланган тупроқларни 3,5–5,0 минг м<sup>3</sup>/га ва кучли шўрланган, механик таркиби оғир тупроқларни 5,0–6,5 минг м<sup>3</sup>/га сув меъёрларида шўрини ювиш ва уни бир неча босқичларда амалга ошириш, бу борада

массивларнинг тузилган шўрланиш картограммасидан фойдаланиш ижобий натижалар беради.

Ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилашда агромилиоратив тадбирлар билан бир қаторда экинларни алмашлаб экиш тизимини жорий қилиш ҳам муҳим ҳисобланади. Бухоро воҳаси тупроқ-иқлим шароитида беда ўсимлиги ўсув-амал даврида ер ости сизот сувларининг кўтарилишини ўртача 30–60 сантиметргача пасайтиради. Сув танқислиги шароитида ерларнинг мелиоратив-экологик ҳолатини яхшилаш учун Бухоро воҳасида ресурстежамкор агротехнологияларни қўллаган ҳолда иш юритиб, тупроқ унумдорлигини оширувчи ғўза:беда:ғалла (4:3:3) алмашлаб экиш тизимини жорий қилиш орқали ерлардан унумли фойдаланиш усулларини кенг миқёсда қўллаш тавсия қилинади.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. <https://hozir.org/jahon-qishloq-xo`jaligiga-umumiy-tarif.html>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги Фармони
3. Асатов С.Р. Сув танқислигида Бухоро воҳаси суғориладиган тупроқларининг мелиоратив-экологик ҳолатини яхшилаш йўллари. Биология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 45 б.
4. Асатов С.Р. Пути улучшения эколого-мелиоративного состояния орошаемых почв Бухарского оазиса республики Узбекистан при дефиците воды. // Ж.: «Актуальные проблемы современной науки». – Москва, 2021. – №4 (121). – С.98-100. (06.00.00; №5).
5. Асатов С.Р., Адизов Ш.Б., Нуриддинов О.Х. Бухоро вилоятида тарқалган суғориладиган тупроқларининг мелиоратив ҳолати // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива, 2020. – №1. – Б.69–71. (03.00.00; №12).
6. Асатов С.Р., Нуриддинов О.Х. Сув танқислиги шароитида Бухоро вилояти шўр тупроқлари мелиорацияси. // «O`zbekiston qishloq va suv xo`jaligi» журнали. – Тошкент, 2019. Махсус сон. – Б. 32–33. (06.00.00; №4).
7. Жўраев У.А. Коллектор-зовур сувларининг минерализациясини биологик усулда пасайтириш ва ундан суғорма деҳқончиликда фойдаланиш. Автореф. дис. қ/х фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). Тошкент, 2017. – 44 б.



8. Гофуров К, Абдуллаев С. Характеристика почвенного покрова орошаемой зоны Бухарской области. Изд-во. «ФАН», Ташкент, 1982. - С. 83-125.
9. Комилов О.К. Мелиорация засоленных почв Узбекистана. – Ташкент: Изд-во. «ФАН», 1985. - С. 230.
10. Фелециант И.Н., Конобеева Г.М., Горбунов Б.В., Абдуллаев М.А. Почвы Узбекистана (Бухарская и Навоийская области). Ташкент, Изд-во. «ФАН», 1984. - С. 150.
11. Ахмедов А.У. Актуальные проблемы мелиорация засоленных почв аридной зоны // Вестник аграрной науки Узбекистана. – Ташкент: «ТашГАУ» 2002. №3 (9). –С.6-7.
12. Ахмедов А.У., Абдурахмонов Н.Ю., Рузметов М.И., Каримов Х.Н. Особенности формирования и направленности процесса засоления орошаемых почв Низовьев Амударьи // Актуальные проблемы почвоведения, экологии и земледелия. Сборник докладов Международной научно-практической конференции Курского отделения МОО «Общество почвоведов имени В.В. Докучаева». -Курск, 2018. - С. 35-39
13. Рамазанов А.Р., Насонов В.Г., Кошекков Р.М. Основные пути и задачи по преодолению дефицита водных ресурсов в Узбекистане. «БИЛИМ», Нукус. 2009, - С. 31.
14. Рамазанов А.Р., Насонов В.Г. Шўрланган тупроқларни аниқлашда зовурлар чуқурлигининг аҳамияти. // «Ўзбекистон тупроқларининг унумдорлик ҳолати, муҳофазаси ва улардан самарали фойдаланиш масалалари». Республика илмий-амалий конференцияси илмий мақолалари тўплами. –Тошкент, 2013. –Б. 109 -114.
15. Таджиев У., Артикова Х.Т., Нарзиева С. Влияние процессов засоления на экологическое состояние орошаемых почв дельты рр. Зеравшан и Кашкадарья Узбекистана // Материалы международной научно- практической конференции. - Украина, 2012. - С. 64-65.
16. S Asatov, S Axtamov, M Mahmudov - E-Conference Globe, 2021 [removal of chemical weed killers and organics from irrigated land](#)
17. Erkin Kodirovich Karimov, Behzod Obidovich Ahmadov, Sallax Atayevich Khamrayev., & Asadbek Oybekovich Khudaynazarov. (2021). MECHANISMS OF RICE GROWING AND RICE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN . &quot;ONLIN - CONFERENCES&quot; PLATFORM, 13-15.
18. SB Adizov, AB Obidovich, MM Maxmudov - Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2021 [Rights and Responsibilities of the Spouses](#)
19. Сатторов Ж. Ер ресурсларининг мелиоратив ҳолати, унумдорлигини яхшилаш, улардан самарали фойдаланиш ва муҳофаза қилиш.// Агро илм.-Тошкент,2014-№1(29). –Б.53-54.
20. Kaledhonkar M.J., Meena B.L.and Sharma P.C. Reclamation and Nutrient Management for Salt-affected Soils., Indian Journal of Fertilisers 15 (5): 566-575, May 2019. – P. 567.
21. Urazbaev I.U. Bonitation Soil on an Exposition and Steepness of Slopes. // East European Scientific Journal. - Warsaw, 2016 - № 6 (10). - P. 68-70.
22. Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). THE IMPORTANCE OF THE CLUSTER SYSTEM TODAY. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(ISPCIEI), 3-3.







**YOSHLARNI ILM-FAN VA XORIJIY TILLARNI O'RGANISHGA QIZIQTIRISHDA, HAMDA TURLI TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHDA KUTUBXONALARNING O'RNI VA ROLI**

**Shovqiyeva Shohida Bobosher qizi**

O'zbekiston Davlat San'at va madaniyat instituti

shohidashovqiyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6026781>

**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

*huquqiy ta'lim, urf-odat, chet tillari, milliy ong, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, taraqqiyot.*

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan yoshlar ta'lim-tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibor hamda, buning kutubxonalardagi ahamiyatining qay darajada ekanligi va buning bir qancha muammo va ushbu muammolarning yechimlari haqida yoritib berilgan.*

Bilamizki bugungi kunda yoshlar ta'lim tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishning chora tadbirlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda. Buning kechiktirib bo'lmas chorasi sifatida amaldagi qonunchilikda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga oid qonun va normativ-huquqiy hujjatlar mohiyatini ta'lim muassasalarida chet tili, adabiyot, huquq fanlari o'qituvchilari hamda ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimlari orqali yetkazish va singdirish vazifasi turibdi. Shuning uchun ham bugungi kunda aynan xorijiy tillarni o'rganishni kuchaytirishning ahamiyati va buning davlat va jamiyat ravnaqi uchun qanchalar muhim ekanligi ta'kidlanmoqda. O'zbekistonda barcha jabhalarda kechayotgan islohotlar jarayoni ta'lim sohasini tobora kengroq va chuqurroq qamrab olmoqda. Xususan, bu yili ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida ilm-fan bilan bir qatorda xorijiy tillar tanlanishi e'tirofga sazovordir. Shu o'rinda beixtiyor 19-asr oxiri 20-asr

boshlaridagi ma'rifat fidoyilari – jadid bobolarimizning g'oya va qarashlari yodga tushadi. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy dunyo donishmandlari asarlaridan xabardor bo'lish, jahon adabiyoti durdonalaridan chinakamiga lazzatlanish, shuningdek, zamonasini anglash, taraqqiyot uchun chet tilini bilish o'ta muhimligini ta'kidlaydi. Chunonchi, jadidlar yetakchisi millat farzandlari o'z na'fi, jamiyatda muhim mavqe va obro'ga ega bo'lishi uchun xorijiy tilni bilishi zarurligi haqida so'zlab, qat'iyat bilan **“Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilda tahrir va taqdir etguvchilar kerak”**<sup>1</sup>, deya bong urgan edi. Barchaga ma'lumki, jahon hamjamiyatiga integratsiya jarayonida, dunyo bozoriga dadil va faol kirib borilayotgan pallada xorijiy til bilimlariga ehtiyoj ortishi tabiiy. Shu bois bugungi kunda soha mutaxassisining har tomonlama yetukligi mezonlari o'z ona tili bilan bir qatorda, bir emas, bir necha chet

<sup>1</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy “Sayoxat xotiralari” 1914-y.





tilini bilishi lozimligini taqozo etmoqda. Shu yilning 6-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi ana shu dolzarb masalaga bag'ishlandi. **“Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”**<sup>2</sup>,– deya ta'kidlaydi qat'iyat bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev. Milliy ta'lim tizimimiz jiddiy islohotlarga muhtoj ekanligi ayni haqiqat. Xususan, hozirgi kunda kadrlarning til savodxonligi darajasi talabga javob bermayapti. Og'zaki va yozma nutq madaniyati yuqori, mantiqiy fikrlash va uni ifoda eta olish ko'nikmalariga ega, nutq uslublarini farqlay oladigan, fikrini usluban to'g'ri bayon eta oladigan, tahliliy fikrlash ko'nikmalari shakllangan mutaxassisga ehtiyoj katta. Bu borada bir qator masalalar o'z yechimini kutmoqda. Bundan tashqari, bugungi globallashuv jarayonida bir qancha tahdidlarning yoshlar ongiga ta'sir doirasi ham kengayib bormoqda, bu ham dilni hira qiladigan holatlardan biri hisoblanadi. XXI asr boshidagi tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, muayyan davlat va millat xavfsizligi barqarorligi taraqqiyoti hamda istiqboli ko'p jihatdan mazkur millatga xavf solayotgan xavf-xatar va tahdidlarni anglab yetish saloxiyati va

qobilyati darajasiga bog'liqdir. Tahdidni yuzaga keltiradigan manbalarini ildiz otmasdan bartaraf qilish, unga nisbatan doimo ogoh, hushyor bo'lishg'ofillikka yo'l qo'ymaslikka haqidagi fikrlar alloma ajdodlarimizning siyosiy tafakkuridan keng o'rin olgan muhim jihatlardir. Bu borada mutafakkir Abu Nasr Farobiyning “Davlatni aql-idrok bilan boshqarish-xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir” degan hikmatli fikrlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim<sup>3</sup>. Buyuk ajdodlarimiz nazdida yurtga bo'ladigan ichki va tashqi xavf-xatarlarga nisbatan ogoh bo'lish muhim tamoyil darajasiga ko'tarilgan hamda ularning oldini olishning asosiy shartlaridan biri bo'lgan. Jumladan Amir Temur o'z saltanatini idora etishda barcha voqea hodisalar ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan yetarli darajada bohabor bo'lib turish masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Real xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilish uning xafilik darajasini aniqlash maqsadida sohibqiron muntazam uzluksiz ishlaydigan o'z davri darajasidagi axborot tizimini shakllantirishni bosh vazifa qilib qo'ygan. “Har bir diyoy aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakat ahvoli, sipohu raiyatning kayfiyatini turish-turmushini, qilmish-qidirmishlarini, bular o'rtalaridagi aloqalarini yozib menga bildirib turish uchun diyonatli, to'g'ri qadamli kishilardan voqeanavislar belgiladim”, deyiladi “Temur tuzuklari”da<sup>4</sup>. Amir Temur mamlakat ichkarisida ham tashqarisida ham yuz berayotgan kattayu kichik voqea hodisalar haqida xabar berishlarini talab qilgan va buni davlat xavsizligini ta'minlashning muhim chorasi

<sup>2</sup> Yangi O'zbekiston 2021-y 10-iyun. 206 soni

<sup>3</sup> Форобий А.Н. Фозил одамлар шахри.Т.,1993.

<sup>4</sup> Темур тузуклари.Т.,1996.



deb hisoblagan hamda saltanat barqarorligiga qaratilgan chora tadbirlarni ko'rishda mablag'ni ayamaslikga da'vat qilgan. Buyuk ajdodlarimiz jamiyatga nisbatan davr o'rta qo'ygan talablar mohiyatini anglab yetishga intilib kelgan. Bunda tahdidli vaziyatni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan ichki omillar taxlili, chiqarilgan xulosalar ularning faoliyatida alohida o'rin egallaydi. Jumladan, davlat siyosatidagi sog'lom fikrlilik, uning davr muddaosi bilan hamnafas bo'lishiga doir masalaga ham e'tibor berilgan. Ma'lumki jahonda vujudga kelgan murakkab vaziyat tufayli hozirgi davrning ma'naviy-mafkuraviy tahdidlari tuzilishi yanada kengayib ketdi. Zamonaviy mafkuraviy tahdid omili siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy sohalarini, ya'ni kishilik jamiyati hamda hayotning barcha sohalarini qamrab olgan. Shu o'rinda bunday tahdidlarga qarshi kurashish jarayonida sohibqiron yosh-avlodni ta'lim-tarbiyasiga juda kata e'tibor qaratgan va buning isboti sifatida har bir bosib olgan hududidan noyob kitoblarni Samarqandga olib kelgan bir qancha kutubxonalar qurdirgan. Demakki, bu o'rinda aynan kutubxonalarning ham o'rni beqiyos. Lekin afsuski bugungi kun kutubxonalarida huquqiy kitoblarni hamda aynan xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganishni targ'ib qilish darajasi past ekanligi dilni xira qiladi. Vaholanki kutubxonalar ilm o'chog'i, jamiyatdagi ziyolilarni hamda ilm olishga ishtiyoqi baland izlanuvchilarni birlashtiradigan maskan hisoblanadi. Bizning minglab yillik tarixga ega bo'lgan yurtimizda ham ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratilganligi ham yuqoridagi fikrlarimizning isboti hisoblanadi. Hususan, eng qadimiy tarixni o'z ichiga olgan,

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"da ham **"Ta'lim-tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi xulq-odobni, yaxshi o'qishni so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin"**<sup>5</sup>-deb yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilish kerakligi ta'kidlangan. O'z o'rnida, yosh avlodning ta'lim-tarbiya olishida sezilarli darajada ta'sir o'tkaza oladigan kutubxonalar bugungi kunda o'z vazifasini maqsadga muvofiq darajada amalga oshira olayaptimi? Bugungi 21-asr-Axborot texnologiyalar asrida kutubxonalarning o'rni sezilarli darajada yo'qolganligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli ham agar chet tillarini o'rganishni hamda, yoshlarni turli tahdidlarni tahdid ekanligini tushunib yetishida ko'maklashadigan tadbirlarni keng ko'lamli tashkillashtirsak va adabiyotlarni kutubxonalarda targ'ib etadigan bo'lsak bir qancha muammolarning yechimini topgan va shu o'rinda kutubxonalarning mavqeini hamda foydalanish darajasini oshirgan bo'lar edik. Zero rus faylasufi, pedagogi **A.Gersen** ta'kidlaganidek **"Kutubxona bu g'oyalar maskani, unga xammani taklif qilish mumkin"**<sup>6</sup>. Shu o'rinda 766-809-yillarda xalifa Horun ar-Rashid tomonidan Bag'dodda tashkil etilgan Bayt ul-Hikmat (yoki "Xizonat ul-hikmat") deb nomlangan "Donishmandlar uyi" shu davrning yetuk va yetakchi kutubxonasi bo'lib xizmat qilgan. Ushbu kutubxona nafaqat ilim maskani balki, yetuk tarjimonlik ishlarini olib

<sup>5</sup> "Avesto"-Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi".

Boboyev H., Do'stjonov T., Hasanov C., -  
"Toshkent", 2004, 155 b

<sup>6</sup> А.Герцен. «Былое и Думы», Художественная литература. 1969г.



boriladigan yirik tarjimonlik uyi vazifasini ham o'tagan. Bundan ko'rinib turibdiki hatto 9-10-asrlarda ham chet tillarini o'rganish va o'rgatish yetakchi vazifalardan biri hisoblangan. Holbuki, bu yirik tarjimonlik maskanida bir qancha turli mamlakatlardan kelgan nufuzli tarjimonlar, ular bilan bir qatorda esa Turkiston olimlaridan Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abbas ibn Sayd Javhariy va Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar tarjimonlik ishlari bilan shug'ullanishgan. Bu yerda olimlar chet tilidagi murakkab va noyob adabiyotlarni tarjima qilish bilan bir qatorda, bir qancha chet tillarini yosh izlanuvchilarga o'rgatish bilan ham shug'ullanishgan. Ushbu kutubxonaning tarixda o'chmas iz qoldirishining sababi ham bir soxa - kitoblarni saqlash va ularni foydalanishga berish bilan shug'ullanmaganligi va ko'p tarmoqli bo'lganligidir. Aynan shu davrda O'rta Osiyoda yetuk mutaxassislar hamda olim-u fuzalolarning yetishib chiqishi hamda namoyon bo'lishiga sababchi bo'lgan dargoh hisoblanadi. Bundan kelib chiqib shunday xulosaga kelsak bo'ladiki, bugungi kunda kutubxonalar barcha yoshdagilarni qamrab olishi va bir turdagi ish bilan chegaralanib qolmasliklari davr talabi ekanligini bilishimiz mumkin. Bugungi dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'layotgan, yangi O'zbekistonning ertangi kelajagi aynan har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarning qo'lida ekan, bunday yoshlarni tarbiyalashda kutubxonalarning o'rni beqiyosdir. Demak-ki, kutubxonalar nafaqat bugungi kunda balki paydo bo'lgan davrdan boshlab davlat va jamiyat hayotida yosh-avlod tarbiyasiga o'z ta'sirini sezilarli darajada o'tkazib kelmoqda. Yuqoridagilarning ahamiyatligini inobatga olgan holda, bugungi kunda

kutubxonalarning yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'sirini oshirishimiz hamda, vazifalariga yana qo'shimcha vazifa yuklashimiz kerak deb o'ylayman. Vaholanki, bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ham kutubxonalar alohida e'tibor qaratilmoqda. "Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning bir hikmati bor: "So'z - gul, ish - meva". O'ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalarimiz qanchalik pishiq-puxta bo'lsa, ishingiz ham shunchalik yaxshi samara beradi, Sizlar ko'p kitob o'qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o'tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg'oniylar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda."<sup>7</sup>- deydilar prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. Biz bejizga davlatimiz rahbarining aynan shu fikrlarini keltirib o'tmadim. Toki biz o'z vazifalarimizni yetarli darajada mukammal belgilab olmas ekanmiz, kelajakdagi qilmoqchi bo'lgan barcha ishlarimiz biz o'ylagan darajada o'z samarasini bermaydi. Bu esa shunday buyuk ajdodlarning qoni tomirlarida oqayotgan biz yoshlarga also to'g'ri kelmaydi. Vaholangki biz buyuk tarixga ega bo'lgan, qanchadan-qancha allomalarga beshik bo'lgan ushbu kurrai-zamin uchun har qancha jon fido qilsak oz. Haqiqatdan ham buyuk ajdodlarimizdan qolgan ilm-fanga oid qo'lyozmalar bugungi kundagi bir qancha kashfiyotlarning poydevoridir. Biz-bugungi kun yoshlari bunday sharafni his etar ekanmiz, har birimiz ich-ichimizdan ulkan mas'uliyat hissini tuymog'imiz lozim.

<sup>7</sup> Yangi O'zbekiston 2020-y 26-dekabr. 200 soni



Shunday ekan, yuqoridagi muammolarni inobatga olgan holda, quyidagilarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'layman:

1.Foydalanuvchilar uchun chet tili kurslarini ochish zarur. Bu holat kutubxonalarda qo'shimcha daromad olish bilan bir qatorda chet tili o'qituvchilari uchun qo'shimcha shtatlar ochilishiga imkon beradi.

2. Kutubxonalarda huquqiy madaniyatni yanada rivojlantirish maqsadida huquqiy bilimlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasidan hamda savol-javoblardan iborat bo'lgan **elektron saytni** tashkil etish, hamda ushbu saytda yangi nashrdan chiqqan kitoblarning reklamasini ham uzluksiz berib borish bu bir vaqtning o'zida ham yoshlarni kitobga bo'lgan qiziqishini orttiradi va ularni huquqiy madaniyatini samarali takomillashishiga xizmat qiladi

3.Har bir kutubxonada foydalanuvchilar uchun mutaxassislar tomonidan maxsus

hamda uzluksiz o'tkaziladigan chet tilidagi debat (munozara)larni olib borilishi;

4.Har bir kutubxonada chet tili bilimdoni (masalan:Ingliz tili bilimdoni, fransuz tili bilimdoni, arab tili bilimdoni) kabi ko'rik tanlovlarining o'tkazilishi;

5.Yoshlar orasida tarjimonlarni ko'paytirish hamda tarjimonlikga qiziqtirish uchun ularga haftada 1-marotaba to'garaklarni tashkil etish, oyida 1-marotaba o'tkaziladigan sovrinli tanlovlarni tashkillashtirish

6.Har bir kutubxonaning elektron bazasini hamda elektron kitoblar fondini tashkil etish

Bizning fikrimizcha ushbu takliflarning amalga oshishi yoshlarni kutubxonalarga kengroq jalb etish bilan birga yoshlarimizning jahon ilm-fani va madaniyatidan kengroq bahramand bo'lish imkoniyatini yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy "Sayoxat xotiralari" 1914-y.
2. Yangi O'zbekiston 2021-y 10-iyun. 206 soni
3. Форобий А.Н. Фозил одамлар шахри.Т.,1993.
4. Темур тузуклари.Т.,1996.
5. ""Avesto"-Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi". Boboyev H., Do'stjonov T., Hasanov C,- "Toshkent",2004, 155 b
6. А.Герцен. «Былое и Думы»,Художественная литература. 1969г.
7. Yangi O'zbekiston 2020-y 26-dekabr. 200 soni
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori
9. Издавать дороги и пути праведных. Пехлевийские назидательные тексты.- С. 78; Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк.(форс тилидан тарж. Сўз боши ва изохлар муаллифлари:Шодмон Вохид Хусайнзода,А.Эркинов). Т.Адолат,1997-190 б.(хуқуқий меросимиз хазинасидан).




**ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНТЕРАКТИВНЫЙ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ КЛАСТЕР И МОДЕЛИ КЛАСТЕРНОЙ  
ИНТЕГРАЦИИ**

**Жумаева Дилафруз Абдужалиловна**

Ташкентский государственный педагогический университет имени  
Низами Факультет педагогики и психологии, менеджмент 2-курс,

[mittijasmin@mail.ru](mailto:mittijasmin@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6027067>



**ИСТОРИЯ СТАТЬИ**

Принято: 15-декабрь 2021  
Утверждено: 15-январь 2022  
Опубликовано: 5-февраль 2022

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

*Интегрированный регион, сетевой регион, кластерный подход, сетевое взаимодействие, образовательный инновационный кластер общеобразовательных учреждений, кластерная политика, инновация.*

**АННОТАЦИЯ**

*Раскрывается сущность кластерной политики в развитии региональной системы и целью статьи является рассмотрение педагогического значения термина «образовательный кластер», Термин «инновационный образовательный кластер» отличается в смысловом отношении от слов «ряд, группа, объединение, серия, сектор». При этом рассматриваются актуальные вопросы сетевого взаимодействия общеобразовательных учреждений. Проанализированы подходы, принципы, а также факторы, обеспечивающие формирование отраслевых образовательных кластеров.*

Новые образовательные стандарты отражают требования рынка, и поэтому несколько изменилась роль работодателя. Эта роль стала ведущей как при разработке учебных планов в части профессиональных модулей с набором дисциплин, отвечающих требованиям работодателя, так и в отношении расширения рамок профессиональных компетенций, которыми должен обладать будущий специалист. Актуальность сетевого взаимодействия в сфере образования сегодня заключается в том, что оно предоставляет технологии, позволяющие динамично развиваться образовательным учреждениям. При сетевом взаимодействии происходит не просто сотрудничество, обмен

различными материалами и инновационными разработками, а идет процесс работы образовательных учреждений над совместными проектами, разработка и реализация совместных программ, взаимообогащение накопленным методическим и иным опытом, обсуждение и совместное решение насущных проблем современного российского образования и многое другое. Управляющие усилия государства всегда конкретны, имеют определенную направленность, решают актуальные задачи развития территории, осуществляются посредством допустимого в условиях рыночной экономики набора инструментов кластеризации. Поэтому с





одной стороны, важна четкая идентификация кластера, как объекта кластерной теории, а с другой стороны, как предмета государственного управления. В образовательном процессе всегда есть некоторое волшебство, испытание случая, отсутствие твердых правил, присутствие догадок и находок. Поэтому главным для нас является приобщение будущего специалиста к активному участию в образовательном процессе с учетом собственных интересов и пристрастий, которые называются вдохновением, научным открытием. В наши дни использование кластеров для повышения эффективности свободных экономических зон в Узбекистане стало очень актуальной темой. Актуальность создания Интерактивное педагогического образовательного кластера связана с обеспечением эффективной интеграции институтов образования в единую систему, позволяющую обеспечить высокую инновационную активность участников кластерного взаимодействия. Готовым продуктом деятельности педагогического образовательного кластера, по нашему мнению, будут являться инновационные технологии, внедряемые в среду образовательных организаций посредством кластерной интеграции, основанной на развитии формальных и неформальных связей между участниками взаимодействия. К сожалению, последних лет в системе среднего и высшего профессионального образования сегодня немало проблем, в их числе ухудшение (старение, износ)

материально-технической базы учебных заведений, ее несоответствие современным требованиям образовательного процесса; снижение образовательного уровня абитуриентов; неподготовленность поступающих к обучению; падение производства и ухудшение социально-экономического положения региона, что сказывается на отношении молодежи к профессиям и трудоустройстве выпускников учебных заведений; «вымывание» основных профессий и специальностей, возрастание доли подготовки по малозатратным специальностям других профилей – юристов, бухгалтеров, страховщиков, которых готовят в количестве, намного превышающем потребности; осложнение взаимоотношений учреждений образования с предприятиями в вопросах организации обучения, трудоустройства выпускников. Главная причина – образование и производство существуют сами по себе, нет прогнозирования потребности в кадрах. Решением данной проблемы, на наш взгляд, являются создание и развитие кластеров, способствующих интеграции образовательных учреждений и предприятий. Понятие «кластер» в настоящее время является одним из наиболее популярных. Тем не менее анализ специальной литературы показал, что единого подхода к этому понятию нет.

[2]. С позиции системного подхода кластер – это совокупность субъектов хозяйственной деятельности взаимосвязанных различных отраслей, объединенных в единую



организационную структуру, элементы которой находятся во взаимосвязи и взаимозависимости, совместно функционируют с определенной целью [3]. М. Портер показал, что конкурентоспособность компании во многом определяется конкурентоспособностью ее экономического окружения, которая, в свою очередь, зависит от базовых условий (общего ресурса) и конкуренции внутри кластера. Применительно к образованию понятие *кластер* используется уже в течение двух десятилетий.

Применительно к образованию понятие *кластер* используется уже в течение двух десятилетий. В работе М. Портера дан анализ образовательного кластера Массачусетса, лидерами которого являются Массачусетский и Гарвардский университеты, подробно описана его роль в образовательной сфере в стране в сравнении с другими штатами (прежде всего, с Калифорнией) и другими

Кластер образовательной организации и предприятия — один из способов решения вышеуказанных проблем. Интеграция экономических субъектов — работодателя и образовательной организации — в части освоения профессии будущим молодым специалистом всегда являлась приоритетной в системе образования. Но особенно пристальное внимание к взаимодействию и развитию связей между работодателем и образовательной организацией обозначилось в последнее время [1]. Подготовка квалифицированных

специалистов нового уровня осуществима лишь при интеграции образования и производства. К этому имеются очевидные предпосылки, среди которых в качестве первостепенных называют следующие: – отсутствие точных и однозначных сведений по количеству и структуре требуемых на производстве кадров; – несоответствие подготовки выпускников образовательных организаций потребностям производства; – отсутствие у студентов логической связи образования и последующей работы по специальности («лишь бы получить диплом»); – ситуация, когда образование не успевает «угнаться» за быстро развивающимися технологиями; Инновационное развитие профессионального образования – устаревающая исследовательская база учебных заведений [2]. Американская теория кластеров и кластерной политики в наибольшей степени ориентирована на практику. Британский подход к конкурентоспособности уделяет больше внимания развитию цепочек добавленной стоимости и локальных кластеров между развитыми и развивающимися странами.

**Важную роль в функционировании и развитии педагогического образовательного кластера играют:**

---

сокращение времени установления устойчивых взаимосвязей между участниками кластера и выявления их специфических потребностей;

---

деятельность Координационного совета и комиссий, с помощью которых

---



будут обеспечены обоснованные и согласованные действия по развитию педагогического кластера;  
распределение рисков в различных формах совместной образовательной и инновационной деятельности;  
увеличение инвестиций;  
совместное использование знаний и основных фондов, в том числе снижение затрат на материальную базу, инфраструктуру, информационное обеспечение, обучение и переобучение новым технологиям кадров для образовательной и инновационной деятельности, апробация разрабатываемых новшеств.  
более активное внедрение инноваций в деятельность образовательных организаций педагогического (образовательного) кластера;  
повышение конкурентоспособности всех участников кластера за счёт внедрения новых технологий.  
сокращение сроков обработки информации об инновационных проектах путем создания и использования единой информационной системы  
ускорение обмена информацией и установления контактов, упрощение доступа к новым технологиям, ускорение и повышение эффективности процессов передачи знаний, использования интеллектуальных, материальных и информационных ресурсов при подготовке педагогических работников  
ускорение темпов инновационного развития за счет ускоренного доступа к новым технологиям и методам работы;  
ускорение и повышение

эффективности и качества процессов обучения и профессиональной подготовки кадров.  
повышение конкурентоспособности участников взаимодействия

Развитие педагогического образовательного кластера строится на основе принципов взаимодействия, интеграции, корпоративности, саморазвития, самоорганизации и социальной адаптации. Организация взаимодействия членов педагогического образовательного кластера на основе этих принципов обеспечивает непрерывность и многоуровневость педагогического профессионального образования и совершенствование материально-технической базы образовательных организаций.

К тому же способствует отбору и структурированию содержания профессионального педагогического образования с учетом интересов всех субъектов педагогического образовательного кластера при этом стимулирует профессиональный рост преподавательского состава образовательных организаций. Обеспечивает образовательным организациям гарантированный оплачиваемый заказ на подготовку педагогических кадров разной квалификации и даёт возможность развития экспериментально-учебной базы, повышения уровня и диверсификации предоставляемого образования.

В этом случае совокупность образовательных организаций можно рассматривать так:



- ❖ как элемент инновационного образовательного кластера региона;
  - ❖ как самостоятельный педагогический (образовательный) кластер, который также может являться частью межрегиональных и международных образовательных систем, обладая при этом своей сложной внутренней структурой.
- Деятельность по формированию педагогического (образовательного) кластера может включать следующие этапы:**

- ❖ оценка возможности формирования кластера и наличия заинтересованных его участников;
- ❖ выявление участников, заинтересованных в развитии интеграции;
- ❖ определение основных принципов функционирования кластера, стратегической цели интеграции, целей конкретных участников кластерного взаимодействия;
- ❖ выявление взаимосвязей и взаимозависимостей внутри педагогического кластера;
- ❖ разработка положений, норм и правил обеспечения функционирования кластера;
- ❖ определение функциональных обязанностей участников взаимодействия;
- ❖ выделение творческих команд в образовательных организациях кластера для осуществления конкретной деятельности;
- ❖ формирование структуры управления кластером и механизма его функционирования:

- ❖ создание Координационного совета и формирование состава его рабочих комиссий;

Ядром инновационного образовательного кластера является взаимодействие между исследователями, образовательными и коммерческими партнерами. При этом образовательный кластер характеризуется такими инновационными признаками, как выход в публичные инфраструктуры, обратная связь с существующими реалиями и наличие пилотных возможностей в образовании. Частота употребления рассматриваемого термина вместе с прилагательным «инновационный» подтверждает тезис о том, что кластеры и кластерный подход характерны, прежде всего, для инновационного образования, а образовательные кластеры являются одной из форм организации инновационного обучения. Кластерная форма организации приводит к созданию совокупного инновационного продукта и подготовке высококвалифицированных специалистов, обладающих необходимыми профессиональными компетенциями [15].

Суть концепции образовательных кластеров заключается в объединении под эгидой ведущего отраслевого вуза учреждений начального и среднего профессионального образования, профильных школ, базовых предприятий, основных заказчиков и потребителей специалистов. В статье Е. Куценко отмечается, что главное отличие образовательного кластера



заключается не столько в составе его участников (в состав образовательного кластера могут входить коммерческие организации, органы государственной власти, организации по сотрудничеству) и не в главенствующей роли вузов (они могут служить ядром и обычного кластера), а в том специфическом продукте, который является результатом его деятельности. Если в автомобильном кластере главным продуктом является автомобиль, в химическом – продукция химической производства, то в образовательном кластере **главный продукт – это образовательные услуги** [16]. Представляется, что образовательный кластер все-таки нацелен не столько на создание образовательных услуг, сколько на обучение личности, которая способна к конкуренции в постоянно меняющихся условиях конъюнктуры рынка.

Приведем определения образовательного кластера, найденные в русскоязычных источниках:

1. Образовательный инновационный кластер – объединение представителей отрасли: вузов, научно-исследовательских центров, промышленности, посредством создания локальных зон с определенными преференциями, где все участники цепочки от начала разработки до инновационного готового продукта (научные учреждения, маленькие инновационные компании, центры испытаний, центры коллективного пользования дорогостоящим оборудованием, специализированные сертифицированные лаборатории, вузы

и центры обучения, поставляющие нужных именно этим компаниям специалистов, патентные конторы) находились бы в постоянном взаимодействии [11].

2. **Образовательный кластер** – система обучения, взаимообучения и инструментов самообучения в инновационной цепочке образование – технологии – производство, основанная преимущественно на горизонтальных связях внутри цепочки (построение целостной системы многоуровневой подготовки специалистов для предприятий на основе интеграции образовательного учреждения и предприятий-работодателей, обеспечивающей повышение качества, сокращение сроков подготовки, закрепление выпускников на предприятиях, создание гибкой системы повышения квалификации квалифицированных специалистов предприятиям с учетом текущих и прогнозных требований производства) [12].

3. Научно-образовательный кластер – это единая система непрерывного образования от школы до производства [13].

4. Под образовательным кластером понимают «соединение работодателя и образовательных учреждений при помощи комплекса сквозных программ» [14]

В соответствии с описанием метафорической модели определим исходную понятийную область термина «инновационный образовательный кластер». Новой понятийной областью является перенос термина “кластер” в





образование. Концептами, относящимися к данной модели, являются: взаимодействие, взаимозависимость, тесное переплетение всех элементов, создание на выходе нового конкурентоспособного образовательного продукта. На сегодняшний день исследователи выделяют две основные модели пространственной организации территорий: 1) интегрированную; 2) сетевую. Интегрированная модель была реализована в эпоху индустриализации

и связана с доминированием в хозяйстве крупных массовых производств. Сетевая модель основана на том, что включает в себя автономные и взаимозаменяемые звенья – производственные комплексы и предприятия. Сетевым организациям присуща гибкая специализация, способность к инновациям, более гибкая реакция на изменения в системе глобальных обменов предлагаются следующие модели сетевого взаимодействия в системе профильного обучения:

- "вертикальное" взаимодействие

- социальное партнёрство образовательных учреждений различного уровня;

- "горизонтальное" взаимодействие

- партнёрами являются несколько общеобразовательных учреждений;

- комбинированное взаимодействие

- объединение двух выше приведённых вариантов.

В тот же период создаются и начинают успешно функционировать новые виды сетей в образовании, деятельность которых основывается не на реализации Концепции профильного образования, а направлены на решение других задач, решаемых системой образования: - создание сетей и развитие сетевого взаимодействия между учреждениями образования и культуры, между учреждениями дошкольного образования и школами, между школами и учреждениями дополнительного образования детей;

**создание сетевого взаимодействия образовательных учреждений как основы воспитательного пространства.**

**создание сетевого взаимодействия образовательных учреждений в области обмена опытом методического взаимообогащения .**

Таким образом, при сетевом взаимодействии объединяются следующие ресурсы участников сети:



Однако, главной проблемой рассматриваемого периода являлась отсутствие законодательной базы для дальнейшего развития сетевого взаимодействия общеобразовательных учреждений. Появление разнообразных моделей взаимодействия общеобразовательных учреждений, типов кооперации свидетельствуют о необходимости сотрудничества различных сфер образования, развития такого сотрудничества, наполнения его новым содержанием, а также новых моделей и механизмов управления этими процессами. Говоря о развитии сетевого взаимодействия, надо отметить, что без предоставления достаточной самостоятельности самим общеобразовательным учреждениям, такое взаимодействие было бы вряд ли возможным. К настоящему времени разработаны и определены в основном общие контуры и ориентиры сетевого взаимодействия общеобразовательных учреждений. Специфика образовательного кластера как формы интеграции образования и производства требует нового механизма участия профессионального образования в процессе формирования

и реализации его стратегии развития. Основная задача по созданию образовательного кластера заключается в повышении привлекательности кооперации между местными учебными заведениями профессионального образования и предприятиями отрасли. Образовательно-производственный кластер позволит построить такую систему обучения, которая будет основана преимущественно на горизонтальных связях внутри цепочки. Многоуровневая подготовка специалистов для предприятий на основе интеграции образовательной организации и предприятий-работодателей обеспечит повышение качества профессионального образования, сокращение сроков подготовки, закрепление выпускников на предприятиях, создание гибкой системы повышения квалификации квалифицированных специалистов для предприятий с учетом текущих и прогнозных требований производства. Работодатель определяет, чему учить, образовательная организация — как учить, а профессиональное образование рассматривается как процесс, в основе которого лежит его интеграция с производством. При этом и время,



затрачиваемое на подготовку востребованного специалиста, и период его профессиональной адаптации сокращаются. Развитие образовательного кластера как формы интеграции образования и производства включает в себя

организационный, управленческий, технологический, содержательный уровни, позволяющие четко представить целенаправленный процесс развития партнерства, определить соответствие поставленной цели конечному результату.

#### **Использованная литература:**

1. Education Innovation clusters. URL: <http://www.educause.edu/ero/article/innovation-clusters-datapalooza-accelerating-innovation-educational-technology>
2. Растворцева С. Н., Череповская Н. А. Идентификация и оценка региональных кластеров // Экономика региона. 2013. № 4. С. 123–133.
3. Анисцына Н. Н. Инновационный научно-образовательный кластер как способ организации инновационной деятельности в вузе // Креативная экономика. 2010 № 4 (40). С. 91–97.
4. Красикова Т. Ю. Формирование и развитие образовательного кластера как часть механизма интеграции вузовской науки в инновационную национальную систему. URL: <http://www.moluch.ru/conf/econ/archive/10/782/>
5. Куценко Е. С. База данных кластеров в регионах Российской Федерации. Проект по выявлению кластеров, 2010. URL: <http://evg-ko.livejournal.com/5992.html> [1].
6. 17. Мухаметшина Р. Ф. Кластерный подход в системе непрерывного гуманитарно-педагогического образования. URL: [kpfu.ru/docs](http://kpfu.ru/docs)





## JURNALISTIKADA JANRLARNING KLASSIFIKATSIYALANISHI

**Kuramboyeva Dildora Ulug'bek qizi**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi  
va jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi,  
dildorakuramboyeva2000@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6027098>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021  
Ma'qullandi: 15-yanvar 2022  
Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*janr, publitsistika, tasnif,  
ma'no.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada jurnalistikada janrning ma'nosi masalasi tahlil qilinadi. U birinchi navbatda janr tushunchasining ma'nosini bildiradi va janrlarga xos xususiyatlarni beradi. Bundan tashqari, sohadagi janrlarning mazmuni haqida fikr-mulohazalar berilgan.*

Ma'lumki, jurnalistikaning asosiy vazifasi axborot berishdir. Biroq, ma'lumotni qanday tartibda etkazishning eng yaxshi usuli haqida soha mutaxassisleri turli xil fikrlarga ega. Ba'zi ekspertlar har qanday voqea haqidagi ma'lumot ma'lum bir janrga mos ravishda tayyorlanishi kerak, deb hisoblasa, boshqalari ma'lumotni bunday janr "ramkalari" ga kiritmaslik tarafdori. Ba'zilar hattoki, bugungi kunda jurnalistikada janrlarga ehtiyoj yo'q, deb hisoblaydi. Ular buni hozirda axborotning ortiqchaligi va unga ehtiyoj ortib borayotgani bilan izohlaydilar. Ya'ni, hozirgi vaqtda asosiy masala - axborotni qanday uzatish emas, balki uni qanday zudlik bilan uzatish, birinchilardan biri. Badiiy va publitsistik janrlarning materiallari muallif idrokidan o'tgan faoliyatning hissiy va badiiy umumlashtirilishi bilan tavsiflanadi. Jurnalist obrazli umumlashtirish, matn terish, turli badiiy usulblardan foydalanadi.

Ushbu turdagi asosiy janrlar:

- yozish,
- feleton,
- parodiya,

- broshyura.

Insho janr sifatida

Bir versiyaga ko'ra, insho tushunchasi sirli "kontur" dan kelib chiqadi. Ushbu janrda ob'ektlar yoki jarayonlarni tavsiflovchi, tushuntiruvchi materiallar mavjud. Insholar sintetik janr bo'lib, unda vizual-majoziy va tadqiqot elementi mavjud. Insho tayyorlash uchun siz muhim jurnalistik tajribaga ega bo'lishingiz kerak. Odatda yozishmalar, reportajlar va maqolalarni "zabt etgandan" keyin bu janr bilan ishlashga kelishadi. Ko'zoynak muhiti ayniqsa muammoli, portret, sayohatni ta'kidlaydi.

Obraz mavzusidagi birinchi turdagi inshoda muammoli vaziyat yuzaga keladi, u jurnalist tomonidan tahlil qilinadi. Analitik printsipning sezilarli darajada mavjudligi sababli, muammoli insho davlatga ayniqsa yaqin. Ammo davlatdan farqli o'laroq, bu turdagi materiallarda muammo nafaqat raqam va faktlarda, balki qahramonlarga ix ta'sirlarda ham ko'rsatiladi. Muammoli insho real hayotdagi odamlarni o'z ichiga oladi. Barcha ix afzalliklari va kamchiliklari bilan. Muammo ko'pincha inshoning asosiy



qahramonlari o'rtasidagi ziddiyat orqali, shuningdek, o'zi orqali ko'rsatiladi.

Qahramonning portretida u doimo shaxsdir. Barcha materiallar qahramonning ichki dunyosini ochib berishga, uning tashqi dunyo bilan o'zaro ta'siriga, uning harakatlari motivatsiyasini, hayotiy mazmuni va ustuvorligini tushunishga qaratilgan. Bunday qahramon, qoida tariqasida, ma'lum bir "epoksi ramz", "zamonamiz qahramoni", tomoshabinning "odatiy vakili" va boshqalar.

Sayohat inshosi - bu voqealar, odamlar bilan uchrashuvlar, sayohat paytida jurnalist bo'lgan ishtirokchi tasvirlangan voqea. O'z yo'lida insho ko'pincha kundalik yozuvlarga o'xshaydi - voqealar tavsifi, muallifning ular bilan oddiy tanishligiga ko'ra, ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Hodisalar muhiti auditorlar uchun eng qiziqarli, ahamiyatlisi tanlanadi. Ko'pincha jurnalist yordamchi, misol, statistik ma'lumotlarni, o'tmishdagi shaxsiy kuzatishlarni sayohat inshosiga qo'shadi.

Feleton janr sifatida

Feleton har qanday kamchilikni, uni masxara qilish maqsadida yovuzlikni satirik tarzda namoyish etadi. Feletoning predmeti sifatida hozirgi davrda jamiyatga xos fakt yoki hodisa tanlanadi. Axborot shunday beriladiki, inson yoki hodisaning yaratilgan tasviri nuqsonli xususiyatlarga ega bo'ladi, kulgili bo'ladi. Feleton yozish yuqori jurnalistika mahoratini talab qiladi.

Janr sifatida parodiya

Parodiyaning maqsadi, xuddi feleta kabi, odamlarni masxara qilishdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun ushbu yanra materiallarida insonning xatti-harakati taqlid qilinadi.

Parodiya yaratish uchun giperbola, grotesk, ironiya kabi badiiy vositalar qo'llaniladi. Shunday qilib, masalan, giperbola yordamida ma'lum bir shaxsning

ahamiyatsiz, ammo xarakterli xususiyatlari va boshqalar bo'rttiriladi.

Buklet janr sifatida

Broshyura - bu uning qahramoni yoki qahramonini yo'q qilishga yordam beradigan insoniy nuqsonlarni aniqlashga bag'ishlangan material. Pamfletda, parodiyada bo'lgani kabi, giperbola ham, istehzo ham qo'llaniladi, lekin ularga ko'pincha ochiq kinoya qo'shiladi.

Biroq jurnalistikada "janr" tushunchasi alohida o'rin tutadi va turli janrlarning turlari va qo'llanish usullari bo'yicha ko'plab mutaxassislar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Sohada bu tushunchaning mohiyati va mazmunini tushunish uchun uning nazariy asoslarini ko'rib chiqish zarur. Jurnalistika nazariyasi boshqa sohalar qatori uning materialini, mahsulotlarini tasniflaydi. Jurnalistik materiallarning xilma-xilligi ularni janrlarga bo'linishni taqozo etadi. "Janr deganda ommaviy axborot vositalari (ommaviy axborot vositalari) matnlarida umumlashtirilgan va tiplashtirilgan voqelikni aks ettirishning badiiy va publitsistik shakli tushuniladi". Agar uning ma'nosiga murojaat qiladigan bo'lsak, "janr" so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, "mehribon", "saralash" ma'nolarini bildiradi. Ko'pchilik jurnalistlarning fikricha, umuman olganda, jurnalistik material tayyorlashda janrlar haqida hech narsa bilish shart emas. Buning asosiy sababi shundaki, ular janrlarni bir-biridan aniq ajrata olishmaydi. Xo'sh, nima uchun bizga janrlar kerak, ular endi faqat nazariy jihatdan qolmoqdam? Har qanday gazetani o'qish orqali siz yangiliklar, reportajlar, insho yoki maqolalarni topishingiz mumkin. Lekin ular nima deb atalishi, ma'lum bir jurnalistik asar qaysi janrga mansubligi kitobxonni qiziqitirmaydi. Shunga qaramay, janrlar bir qator





xususiyatlarga ega, ularning ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi ahamiyati har doim ham hayratlanarli emas. Bu xususiyatlarni ko'rib chiqish uchun ularning tasnifi haqida ma'lumotga ega bo'lish kerak. Janrlarni tasniflashda turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, tadqiqotchi Lev Kroychik quyidagi yondashuvni taklif qildi:

1. Operatsion yangiliklar - bu barcha turdagi yangiliklarni o'z ichiga oladi;
2. Operatsion tadqiqot - bu guruh reportaj, reportaj, intervyu kabi janrlardan iborat;
3. Tadqiqot yangiliklari - yozishmalar, sharhlar;
4. Tadqiqot - maqola, xat;
5. Tadqiqot shaklidagi - bu guruhga felyeton, ocherk kabi janrlar kiradi.

Lev Kroychikning qarashlari o'zbek publitsistikasidagi janrlar tasnifiga juda o'xshash. O'zbek jurnalistikasida odatda uch guruh janrlari ajratiladi:

- axborot — eslatma, reportaj, reportaj, intervyu;
- Analitik - maqola, yozishmalar, suhbat, taqriz, taqriz;
- Badiiy-publitsistik - insho, ocherk, felyeton, risola.

Ko'rinib turibdiki, L.Kroychik tasnifida janrlarning ichki o'ziga xos xususiyatlari alohida hisobga olinadi, shuning uchun guruhlar soni ko'proq. O'zbek publitsistikasida janrlar umumiy o'xshashlik va belgilarga ko'ra umumlashtiriladi. Tadqiqotchi Semyon Gurevich butunlay boshqacha yondashadi:

Yangilik axboroti janrlari;

- dialog janrlari;
- Situatsion-tahliliy janrlar;
- epistolyar janrlar;
- Badiiy va publitsistik janrlar;
- satirik janrlar

Bu holatda suv tashlagich kanali orqali suv, muntazam oqib turadi. Sababi, kutilmaganda avariya holat yuz bersa, suv toshqini bo'lmasligi uchun. Natijada, zahira suvlari yetarlicha to'planmaydi. 2. Avariya holat yuzaga kelganda zatvorlarning barchasi birdaniga ochilish holati. Bunday vaziyatda chiqarish kanali katta tezlik va bosimda kelayotgan suvga dosh berolmay buzulish ehtimoli juda yuqori bo'ladi. Mazkur holatlarni nazarda tutgan holda suv omborlarida yangi avtomatlashgan tizim ishlab chiqarildi. Bu tizim har bir zatvorning tovush datchigi yordamida ketma-ket ishga tushishidir. Ya'ni tizim, zatvorlarning ketma-ket ishga tushgan holda avariya holatni bartaraf etishiga asoslangan. Agar avtomatik ravishta ishga tushgan 1-zatvor avariya holatga barham berolmasa, keyingi zatvorlar avtomatik holatda ketma-ket ochiladi va suv omboridagi mavjud muammo hal etiladi. Suv omborlarida shunday holatlar bo'ladiki, avariya holati



yuzaga kelganda barcha zatvorlarni baravariga ochib yubormasdan, ketma-ket ochish asnosida xavfni ortda qoldirish mumkin. Masalan, suv omborida avariya holati yuzaga kelsa va barcha zatvorlar baravar ochilsa ham mavjud muammoni hal etish mumkin. Lekin, juda katta tezlik va

bosim bilan harakatlanib kelayotgan suv, chiqarish kanalini ta'mirtalab holatga keltirishi iqtisodiy samadorlikning pasayishiga olib kelishi turgan gap va tinch aholi uchun ham bir nechta muammolarni keltirib chiqaradi.



3-rasm. Suv omborlaridagi avariya holatning oldini olish uchun avtomatik boshqaruv tizimining funksional sxemasi.

**Tadqiqot natijasi.** Suv omborlaridagi yuqorida sanab o'tilgan holatlarni 3-rasmda ko'rsatilgan tizim asosida hal etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, negaki tizim avariya holatni avtomatik bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan. Ya'ni avariya holatida zatvorlar ketma-ket ishga tushishi va me'yordan ortiq suvning bosqichma-bosqich chiqarish kanali orqali oqizib yuborilishi ijobiy samara beradi [5]. Chunki, chiqarish kanalining buzulishiga va suv omboriga yaqin hududda yashovchi aholining tinchligiga xavf solmaydi. Bu esa tizimning avtomatik holatiga bevosita bog'liq. 3-rasmda ko'rinib turibdiki, tovush datchigi kontroller yordamida rele-modulga bog'langan va kontrollerga

yoziqlan maxsus dastur asosida rele-modul avariya holatda zatvorlarning avtomatik ravishda ketma-ket ishga tushushini ta'minlaydi va bu hozirda mavjud muammolarning hal etilishiga yechim hisoblanadi [6].

**Xulosa.** Bu boshqaruv bloki tizimga moslashuvchan, tizimning turg'unligini oshirib beradi, ekspluatatsiya jarayonida qulayligi va iqtisodiy samaradorlikning oshishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqilgan avtomatik tizimi bo'yicha ko'zda tutilgan maqsadlardan biri eng avvalo, suv omborlarida avariya holatlarini keskin kamaytirish va tizimning mukammalligini oshirishdir.

**Dastur kodi:** 1-jadval







```

1  int trigPin = 13;
2  int echoPin = 12;
3  int duration, distance;
4  void LedON(int dist){
5      digitalWrite(10, dist <= 25);
6  }
7  void setup() {
8      Serial.begin (9600);
9      pinMode(trigPin, OUTPUT);
10     pinMode(echoPin, INPUT);
11     pinMode(10, OUTPUT);
12     pinMode(8, OUTPUT);
13     pinMode(7, OUTPUT);
14     pinMode(5, OUTPUT);
15 }
16 void loop() {
17     digitalWrite(trigPin, LOW);
18     digitalWrite(trigPin, HIGH);
19     delayMicroseconds(10);
20     digitalWrite(trigPin, LOW);
21     duration = pulseIn(echoPin, HIGH);
22     distance = duration / 58;
23     Serial.println(" cm");
24     LedON(distance);
25     delay(100);
26 }
    
```

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Автоматизация технологических процессов, I.F.Borodin., Yu.A.Sudnik., Moskva 2007 у.
2. Технические средства автоматизации. B.V.Shandrov., A.D.Chudakov. Moskva 2007 у.
3. Jekson R.G. Мир электроники., Moskva 2007 у.337 s.
4. Kruxmalev V.V., Gordienko V.N., Mochenov A.D. Цифровые системы передачи. Наука-М-2007 у.277 s.
5. Kotyuk A.F. Датчики в современных измерениях., Moskva 2006 у.225 s.
6. Lavrentev B.F. Схематехника электронных средств., Moskva 2010 у.278 s.



**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TADBIRKORLIKNI  
RIVOJLANTIRISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH**


**Nasimova Maftuna Sunnatullayevna**

Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti

101-menejment Magistranti

[nasimovamaftuna@gmail.com](mailto:nasimovamaftuna@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6027620>



**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

*mamlakat, ta'lim, tajriba,  
xorijiy ta'lim tizimi,  
innovatsion, tuzilma.*

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola oliy ta'lim muassasalarida talabalar innovatsion faoliyatini rivojlantirishga bag'ishlangan. Maqolada Italiya, Amerika, Kanada, Buyuk Britaniya kabi ilg'or xorijiy ta'lim tizimi tajribasi va zamonaviy ta'lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek ta'lim tizimidagi yutuqlari, ta'lim standartlari monitoring qilingan. O'zbekistonning ayni damdagi qurilish sohasi e'tirof etilgan. Iqtisodiyotni qanday usul bilan yanada rivojlantirish to'g'risida tahlil qilingan.*

Mamlakatimiz rivojlanishi asosan turli sohalarda innovatsiyalarni yaratish va joriy etish bilan tavsiflanadi. Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan ushbu o'zgarishlarning asosiy maqsadi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish. Iqtisodiyotda ushbu o'zgarishlar insonlar tomonidan yangi fanlarni sotib olish, ularning rivojlanish darajasi va sifatiga o'z xissalarini qo'shish bilan bog'liq. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ilmiy sohani tijoratlashtirish muammosi alohida dolzarb masala hisoblanmoqda. Uning salohiyati, innovatsion tizimni shakllantirish, rivojlangan mamlakatlarda barqaror iqtisodiy o'sish uchun manba hisoblanadi. Har qanday iqtisodiy tadqiqotlar asosan innovatsiyalarni yoki ilm fandagi yangidan yangi g'oyalarni taqdim etish muammosiga bag'ishlangan bo'lib, ular orqali biz tijoratlashtirishning makro va mikro ko'rinishlari hamda salohiyat va yaratish bilan bog'liq bo'lgan barcha muammolar yechimlarini ko'rishimiz

mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida ushbu ilmiy mehnat mahsulotlari tovar sifatida tavsiflanadi, chunki u o'ziga xosligi tufayli daromad keltira oladigan iqtisodiy foyda hisoblanadi. Yangidan yangi ixtiro qilingan texnologiyalar, tovarlar, ishlab chiqarish vositalari kabi mahsulotlardan foydalanish innovatsiyalarni yuzaga keltirib chiqaradi. Asosiy amaliy tadqiqotlar esa rivojlanish va sanoat ishlab chiqarishining o'zaro aloqasi bo'lib, iqtisodiy muammolarning yangi yechimlari sifatida qarashimiz mumkin.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotida va uning hududlarida ishlatiladigan turli xil mahsulotlar innovatsiyalar iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir sifatida aynan foyda manbai hisoblanishi mumkin. Ilmiy mehnat mahsulotlarning sifat darajalari asosan yangilikka qiziqqan iste'molchilar tomonidan baholanadi hamda ular natijasida raqobat yuzaga keladi. Iste'molchilar tomonidan baholangan natijalarni o'z vaqtida olish bozor tizimida



raqobatbardoshlikni oz vaqtda bilishga olib keladi va natijalarining ishonchligi aniqliligi darajalari ularning keyinchalik tijoratlashtirish yoki uzatish, yanada kengroq foydalanish, yaroqliligi va boshqalar tahlil qilinadi. Rivojlangan innovatsion bozor sharoitida ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning manfaatleri muvozanatini tez-tez ta'minlanmaydi. Tadqiqotlarga ko'ra mamlakatimizda ishlab chiqarmoqchi bo'lgan tovarlarga talabning yetishmasligi bilan bogliq bo'lgan ko'plab muammolar yuzaga kelib chiqadi ba'zi bir darajadagi manfaatdor shaxslarning manfaatlarini muvofiqlashtirish uchun katta qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin. Hatto yetakchi mamlakatlarda ham ushbu muammolar bozor munosabatida o'ziga xos xususiyatlarni yaratadi. Yangidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bozorning talab va taklif dinamikasi asosida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida tavsiflanishi mumkin.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi korxonalarining maxsulotlari aholiga taqdim etilmaganligi sabab bunday bozorlar rivojlanmagan. Shuni hisobga olgan holda iste'molchi va xaridorlar munosabatlarni ularning iqtisodiy manfaatlarini shartnomada taqdim etgan holda ushbu korxonlarni tashkil etish zarur. Ushbu korxonani tashkil etish mobaynida zarur harajatlar tashkil etilgan modeli, ishning murakkabligi samarasiz izlanishlar ilmiy va texnologik mahsulotlarini yaratish xarajatlari va boshqa xarajatlarning barchasi hisobga olinishi kerak. Tegishli koeffisientlar ustamalar va chegirmalar shartnomada aniq ko'rsatilishi lozim. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifat darajasi birinchi navbatda jahon mamlakatlari ta'lim standartlariga javob bera olishi lozim.

Bunda barcha manfaatdor tomonlarning ayniqsa davlatning manfaatlariga qo'l keladi. Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini va talabalarning amaliyotlari aynan nazariya bilan hamkorlikda olib borildi. Talabalarda ta'limni yana davom ettirish uchun imkoniyat paydo boladi.

Yuqori ta'lim darajasi innovatsion va iqtisodiy fikrlashni yuqori texnologik madaniyatni, ishlash qobiliyatidan turli xil foydalanish kabi xususiyatlarni kafolatlaydi. Innovatsion iqtisodiyot o'zgaruvchan tashqi sharoitda chuqur bilimga ega bo'lgan zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan mutaxassislarni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim masalalarini mustaqil ravishda faoliyat olib olib borgan holda yangicha ta'lim berish strategiyalarni yaratish hamda ushbu jarayonni amalga oshirishda mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga majbur etadi. Ushbu muammoni hal etishning eng samarali usullaridan bir talaba va magistrnlarni tadbirkorlik faoliyati hamda ishlab chiqarishga keng jalb qilishdir. Talaba yoshlar tadbirkorlik tashabbusi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion darajasini oshirish mumkin bo'lgan asosiy omillardan biridir. Qaysiki mamlakatda, qaysi davrda bolmasin yangidan yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga qodir iste'dodli yoshlar doimo innovatsiya manbai bo'lib kelgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash togrisida"gi farmoni imzolandi. Bugungi kunda barcha sohalarga katta e'tibor qaratilayotgani singari mamlakatimiz iqtisodiyotini oliy ta'lim muassasalari orqali rivojlantirish sohasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Unga ko'ra oliy ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda



nodavlat oliy ta'lim muassasalar faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50% dan oshirib, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish. Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'lim ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan, amaliy ko'nikmalarni yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish. Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi boqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining beqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishdan iborat. Bundan tashqari oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlashni maqsad qilib qo'yish.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish asosida ularni respublika oliy ta'lim muassasalari sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish masalasida biz quyidagilarni ko'rib chiqdik. Talabalar tadbirkorligini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasining zimmasiga balki davlatning hal qilishi kerak bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi. Ular orasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun maxsus chora-tadbirlar va ma'muriy ko'maklar mavjud emasligi, moliyaviy ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarining yo'qligi va bundan tashqari yana bir nechta shunga o'xshash muammolarning hal etilmaganligi yoshlarning tashabbuskorligini cheklaydi. Ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladi shu bilan birga ko'plab xorijiy mamlakatlar oliy o'quv yurtlarida malakali kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim

sifati bilan shug'ullanuvchi birlashmalar bilan hamkorlik yoki ularga qarashli bo'lgan korxonalarda standartlar bilan ishlab chiqish rejalarini hamda amaliyot rejaari ustida ishlar olib borishlari zarur. Oliy o'quv yurtlari ta'lim olayotgan talabalarining aksariyat qismi oliygohni bitirgach muvaffaqiyatli kompaniyalarda o'z faoliyatni olib borishni mo'ljallashadi. Bir tomondan talabalarni ish toppish va ishlab chiqarishda ularning kasbiy malakasini oshirish va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga undash kerak. Boshqa tomondan esa talabalarining dastlab nazariy tayyorgarligini kuchaytirish orqali ta'lim sifatini oshirish kerak, bu esa ma'ruza va seminarlarga jalb etish kerak bo'lsa so'ngra amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish uchun esa talabalarni amaliyotga jalb etish zarur. Bu esa oliy o'quv yurtlari uchun ham talabalar uchun ham birmuncha qiyinchilik tug'diradi. Ishlaydigan talaba-mehnat bozori va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi aloqaning bir turi. U mehnat bozoriga o'qish jarayonida sotib olingan qadriyatlarini ya'ni muloqot madaniyati, innovatsion fikrlash, yuqori axloq, va boshqalarni, shuningdek, talaba muhitida mehnat faoliyati jarayonida olingan amaliy ko'nikmalarni keltirib chiqaradi. Bu esa oliy o'quv yurtlarining amaliy faoliyati va zamonaviy jamiyatning haqiqatlari bilan yaqinlashishiga yordam beradi.

Oliy o'quv yurtlarida talaba tadbirkorligini rivojlantirish uchun nima qilishi mumkin? Barcha mavjud muammolar uchun talabalarni tadbirkorlikka jalb qilish muammosini hal qilish kerak. Bu vaziyatda oliy o'quv yurtlari korxonalar bilan hamkorlik qilibgina qolmay balki shaxsiy korxonalarini yo'lga qo'yishlari lozim buning natijasida bunday natijaga erishish uchun oliy oquv yurtlarda





dastlab ko'plab tadqiqotlar amalga oshirish zarur. Dastlab oliy o'quv yurtlari yo'lga qo'yilishi mumkin bo'lgan sohalarni tanlab olishlari lozim. Buning uchun talaba yoshlar o'rtasida hamda professor-o'qituvchilar o'rtasida ko'plab so'rovnomalar o'tkazish zarur. Bundan tashqari oliy ta'lim muassasalarida ko'plab ko'rik-tanlovlarni amalga oshirish, ularni esa "Sart up" loyihalari ko'rinishida olib borish lozim. Bunda asosan talabalar hamda magistrlar ishtirokida biznes ideani hayotga tatbiq etish orqali buning ortidan katta daromad orttirish maqsadida ushbu ko'rik tanlovni yo'lga qo'yish zarur. Har bir oliy ta'lim muassasasi o'zining sohasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish, yoki tijorat korxonalarini yaratadilar.

Hozirgi kunda iqtisodiy rivojlanish ko'plab sohalarda bo'lgani kabi qurilish sohasida ham o'z muvaffaqiyatiga erishib kelmoqda. Bu jarayon nafaqat chet mamlakatlarida, balki O'zbekistonda ham o'z aksini topdi. So'nggi yillarda barcha sohalarda kabi qurilish sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Arxitektura sohasi, arxitektura kasbi har doim obro'li bo'lib kelgan va hozirda ham obro'li hisoblanadi. Biz qaysi davlatda, qaysi shaharda bo'lishimizdan qat'iy nazar arxitektura sohasiga oid narsalarni qiymatini ko'rishimiz mumkin. Arxitektura nafaqat me'morchilik balki dizayn bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga u qurilish, ko'chmas mulk bilan ham bog'liqdir. Bunda biz aynan bir obyekt ya'ni binoga emas balki biznes-arxitektura, IT-arxitekturasi, texnologik arxitektura haqida aytib o'tamiz. Arxitektura sohasiga bog'liq insonlar odatda qiziqarli, gormonal odamlar ya'ni san'at ahli hisoblanadi, chunki arxitekturaning o'zi san'atdir. Biz buni Italiya arxitekturasida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Insonlar Italiya arxitekturasiga

nazar solar ekan faqat va faqat hayratlanishadi, aynan shu inshootlarni insonlar qilganmi deya ajablanishadi. Aynan mana shunday inshootlar qurilishi jarayonini arxitektura va ularning asoschilarini haqiqiy arxitektorlar deyishimiz mumkin. Yoki uncha uzoqqa ketmagan holda ko'rishimiz mumkinki o'zimizning Toshkent City Yangi O'zbekistonning timsoli bo'lmoqda. Bu zamonaviy arxitekturadir. Yana bir narsani ta'kidlash joizki bizlarda arxitektura sohasi bo'yicha fanlar maktablarda o'tilmaydi, ammo ko'plab chet mamlakatlarida aynan arxitektura sohasini fan sifatida maktablarda ta'lim tizimiga kiritilgan. Arxitektura, haykaltaroshlik, dizayn, texnologik dizayn bularning barchasi maktab davridanoq o'tib boriladi. Arxitektura oliy o'quv yurtlari shuning hisobidan bizning oliy o'quv yurtlarimizdan arxitektura darajasi ancha yuqori. Chunki bizda oliy o'quv yurtlariga kirishlaridan oldin maktablarda boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lishmaydi.

Buyuk Britaniya, Amerika, Kanadani olib qaraydigan bo'lsak, u yerda talabalar aynan arxitektura oliy o'quv yurtiga topshirgan holda aynan arxitektura fanini tanlamasliklari mumkin. Aynan shu yo'nalishda nafaqat Buyuk Britaniya balki dunyo bo'yicha birinchiliklarda turgan oliy ta'lim muassasasi bu Barlett Arxitektura maktabi (The Barlett school of Architecture). Bu yerda ta'lim olish to'lovi hamda ta'lim olish juda murakkab bo'lib, u yerda ta'lim tizimi huddi diktaturaga o'xshaydi. Bu universitetda talabalar nafaqat ta'lim olishadi balki, o'zlarining shaxsiy ko'rgazmalarini tayorlashlari va bu orqali mumaygina mablag' ishlab topishlari mumkin. Bu aynan nima maqsadda qilinadi. Birinchi navbatda maktab mashhur arxitektura kompaniya homiyligida.





Foster+Partners kompaniyasi arxitektura kompaniyalarining ichida eng oldi kompaniyalardan biridir. Bu kompaniyada talabalar o'z amaliyotlarini shu kompaniyada qilgan holda o'z bilimlarini oshiradi va yaxshi xulq-atvorini, a'lo bilim ko'nikmalarini namoyon etgan holda kelajakda shu kompaniyada ishlab qolish yutug'ini qo'lga kiritishadi. Bu yerda Talabalar amaliyot o'tash orqali o'z o'quv harajatlarini qoplashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aynan oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida ijtimoiy – iqtisodiy samaradorlikni oshirishdan asosiy maqsad, prezidentimiz 2019-yil murojaatnomada aytganlaridek “Yoshlar qaysi sohada yuqori qiymatga ega mahsulot yaratsa, biz ana shu sohani birinchi navbatda qo'llab-quvvatlaymiz”. Shuning uchun iqtisodiyot rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishimiz lozim. Oliy ta'lim muassasalar tadbirkorligini yo'lga qo'ygan holda moliyaviy xarajatlarini oliy ta'limning o'zini o'zi qoplashi. Bunda talabalar amaliyoti oliy o'quv yurtida ya'ni oliy ta'lim muassasalariga tegishli korxonaning o'zida amalga oshirilishi nafaqat ishlab chiqarishga balki mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir korsatadi. Oliy talim muassasining nufuzi ham oshadi, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatlilik darajasiga qarab oliy


ta'lim muassasasi hamda unga tegishli korxonaning obro'yi ham ko'tariladi. Undan tashqari oliy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan talabaning salohiyati, bilimi ham yanada yaxshilanadi.

Shunday qilib, oliy ta'lim sohasida o'zini o'zi iqtisodiy ta'minlash faoliyatini rivojlantirish, bir tomondan, uning ishtirokchilarining moddiy ahvolini yaxshilash, boshqa tomondan esa mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mexanizmini shakllantirishga qaratilgan, shuningdek, talabalar uchun kelajakka kuchli ijtimoiy ko'mak berishga imkon beruvchi jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichining ob'ektiv zaruriyati va haqiqati sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun rivojlanish oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy rivojlanishi davlat yoshlar siyosati tizimida alohida o'rin tutishi kerak. O'zbekistonda ishlab chiqilgan, “Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash togrisida”gi farmoni yoshlarni, shu jumladan, talabalarni iqtisodiyot sohasiga ustuvor jalb qilishni ta'minlaydi, kichik biznesni rivojlantirishda iqtisodiy faol xatti-harakatlar va yoshlarning fikrlash tarzi, ko'nikma va motivatsiyani shakllantirish kabi vazifalarni hal etishga yordam beradi. Korporativ madaniyat va korporativ ongni shakllantirishda yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) - Toshkent: 1995- yil
2. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilm fan (metodik qo'llanma). Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
3. Reznik Savenkova. Universitetning raqobatbardoshligi omili sifatida sodiqlik dasturini shakllantirish boshqaruv nazariyasi va amaliyoti muammolari. 2009.
4. <http://www.rian.ru/edu/analysis/20090811/18088805.html>
5. O'qishni ish bilan birlashtirish foydali bo'ladimi? — (axborot portali [www.ubo.ru](http://www.ubo.ru))





## БОЛАЛАР НОГИРОНЛИГИ ШАКЛЛАНИШИДА ИЖТИМОЙ-ГИГИЕНИК ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ (СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Жалилов Жамшед Жафар ўғли

Тошкент тиббиёт академияси Термиз филиали ассистенти,

jamshedjalelov40@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6027656>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

болалар ногиронлиги,  
болалар касалланиши,  
туғма ногиронлик,  
атроф-муҳит,  
орттирилган  
ногиронлик, санитар -  
демографик  
қўрсаткичлар, туғма  
нуқсонлар, анемия,  
токсикозлар.

### ANNOTATSIYA

Ушбу мақолада Ўзбекистоннинг Сурхондарё вилоятидаги болалар ногиронлигига оид маълумотлар ва хулосалар берилган бўлиб, қолаверса дунё ҳамжамиятининг бугунги кунда болалар ногиронлигининг ўсиш тенденцияси, унинг энг муҳим сабаблари, экологик муаммолар, ижтимоий-иқтисодий шароитларнинг ёмонлашуви, турмуш даражасининг пасайиши ва аҳоли овқатланишининг ёмонлашу каби маълумотлар келтирилган.

Болалар ногиронлик даражасини ҳисобга олиш бир томондан, болалар саломатлиги ҳолатини баҳолаш учун, бошқа томондан, мамлакатдаги болаларнинг аҳолини, давлат тизимларининг ривожланиш даражаси ва самарадорлигини ҳамда ногирон болаларга ёрдам берадиган ташкилотларнинг фаолиятини, шунингдек, болалар орасида ногиронликнинг олдини олиш сиёсатини амалга ошириш учун зарурдир.

Ногиронликни рўйхатга олишнинг амалдаги тизими ногиронликнинг фақат тиббий жиҳатларини инобатга олади ва уни жисмоний, ақлий, руҳий ёки сенсор бузилишлар оқибатида юзага келган

ҳаёт ёки меҳнат фаолияти чеклашларига тенглаштиради. Бироқ фақат тиббий нуқтаи назар билан эътиборни биргина инсон организмига қаратиш ногиронликнинг инсон ҳаракатига таъсир кўрсатадиган ижтимоий жиҳатларини унуттириб қўяди. Шу сабабли бугунги кунда асосий эътиборни ногирон болаларни парваришlash ва уларни янада ижтимоий қўллаб қувватлашга қаратмоқ лозим. Шу нуқтаи назардан, мамлакатимизда бу борада кўплаб чоратadbирлар амалга оширилмоқда. Маълумки, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси доирасида мамлакатимизда



ногиронлиги бўлган шахсларни, жумладан 16 ёшгача ногиронлиги бўлган болаларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, уларга тиббий-ижтимоий ёрдам кўрсатиш, ҳаёт сифатини яхшилаш тизимини такомиллаштириш бўйича кенг қўламли ишлар олиб борилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 1 августдаги Ф-5006-сонли “Ногиронларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги фармойишига кўра ногиронлиги бўлган шахсларнинг турмуш даражаси ва сифатини янада яхшилаш, уларга тиббий-ижтимоий ёрдам кўрсатиш, бундай шахсларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини рўёбга чиқаришга, жамиятдаги фаол позициясини шакллантиришга кўмаклашиш юзасидан аниқ таклифлар ишлаб чиқилди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12 июлдаги ПФ-5765-сон “Иш ҳақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдорини ошириш тўғрисида” ги Фармони аҳолининг ижтимоий заиф қатламларини, шу жумладан ногиронлиги бўлган шахсларни янада ижтимоий қўллаб-қувватлаш учун асос бўлди.

Баён этилганларни инобатга олиб, ногиронларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, тиббий-ижтимоий ёрдам бериш тизимини янада такомиллаштириш мақсадида қўрилаётган чора-тадбирларни янада кучайтиришни, мазкур соҳада чуқур илмий тадқиқотлар олиб боришни тақозо этади. Шу сабабли тадқиқотларимизни Сурхондарё вилояти мисолида болалар ногиронлиги

шаклланишида ижтимоий-гигиеник омилларнинг таъсири борасидаги фаолиятларни ўрганишга ва таҳлил қилишга қаратдик.

**Тадқиқотнинг мақсади.** Сурхондарё вилоятида 16 ёшгача бўлган болалар ногиронлиги шаклланишида ижтимоий-гигиеник омилларнинг таъсири, ногиронлик сабабларини ва ногирон болалар туғилишнинг олдини олишда тиббиёт ходимларининг ролини илмий жиҳатдан асослаш.

**Тадқиқот материали ва усуллари.** Ҳозирги кунда тератоген таъсиротга эга бўлган 500 дан ортиқ моддалар мавжуддир. Уларнинг қаторига турли кимёвий таркибга эга бўлган моддалар: этанол, тестостерон, кўрғошин, хлоропрен, симоб, этиленамин, бензол, кўпчилик пестицидлар, олтингугурт углерод, ёмон сифатли ўсмалар ва диабетга қарши воситаларнинг бир қисми, ҳаттоки, витамин Д ҳам киради. Турли табиий шароитларга мослашган популяцияларга тааллуқли бўлган бир тур вакилларининг гибридланиши наслнинг юқори ўлими, уни ёмон сифатли ўсмалар билан юқори касалланишига ва бошқа номақбул асоратлар, шу жумладан, ривожланиш аномалияларининг вужудга келишига олиб келиши исботланган. Бундай оқибатларни кўпинча атроф-муҳитнинг турли шароитларида бўлган организмларнинг мослашув хусусияти билан тушунтириш мумкин бўлади.

Болалар саломатлиги ҳолатида уларнинг касалланиши ва ўлимига сезиларли таъсир этувчи жиддий силжишларга ривожланишнинг туғма нуқсонлари киради. Сўнгги йилларда болалар ва ўсмирлар ўртасида



патологиянинг ушбу тури частотаси кўрсаткичларининг ўсиши кузатимоқда. Бу ҳолатда, тиббиёт фанининг ривожланиши ва такомиллашувига қарамасдан, 17 ёшдан катта бўлган аҳоли орасида, яъни ўсмирлар ва катталар гуруҳида бирламчи аниқланган туғма аномалиялар сони қисқармади, аксинча 1,1% га ортди. Туғма аномалиялардан гўдаклар ўлимининг ўсишига мойиллик кузатилмоқда. Ушбу патология частотаси кўрсаткичлари паст бўлган ҳудудлар уларнинг даражаси юқори бўлган ҳудудлар билан чегарадош бўлади. Мазкур тафовутларнинг сабаблари, ташҳис қўйишнинг тўлиқлиги ва сифати, маълумотларни бирламчи ҳисобга олиш ва тўплаш тўғрисида саволлар пайдо бўлади. Бундан ташқари, ҳудудларнинг табиий ва ижтимоий-иқтисодий хусусиятининг турли-туманлигини ҳисобга олиб, болалар ногиронлиги ривожланишининг шаклланишига атроф-муҳит омилларининг таъсири қизиқиш уйғотади.

Онанинг ёши ўтиши билан болалар ногиронлиги ривожланиши частотасининг ортиб бориши исботланган. Давлат санитария эпидемиологик назорат маркази маълумотлари бўйича Денов туманида 2 йил давомида балоғат ёшига етмаган оналардан туғилган болаларнинг 3% ида ногиронлик кузатилган, 20% ногирон болалар оналари 30 ёшдан катта бўлган, шу жумладан, 7,1% 35 ёшда бўлган. Аёлнинг никоҳ ёши қанчалик кичик бўлса, туғилишлар сони шунчалик кўп бўлади. Ёшлар жинсий ҳаётни қанчалик эрта бошласалар, унинг никоҳ билан боғлиқ эмаслик эҳтимоли, шунингдек, биологик, руҳий ва

ижтимоий жиҳатдан етуксизлиги билан ажралиб турувчи ўсмирларда режалаштирилмаган ҳомиладорлик, сунъий абортлар ёки исталмаган туғруқларнинг вужудга келиш хавфи бўлади. Ўсмирлар ва 20 ёшдан кичик бўлган аёллар учун ҳомиладорлик ва туғруқларнинг ўзи ҳам хавф омили бўлиши мумкин: туғруқларнинг патологик кечиши, Кесарача кесиш ва ундан кейинги асоратлар, тез-тез учровчи, яққол намоён бўлган вегетотомир дистония синдроми, гестозлар сонининг ортиши (30-40%). Маълумки, алкоголь ҳар ўнинчи эмбрионал патологиянинг бевосита сабаби бўлиб, ногирон бола туғилишига сабаб бўлади. Ҳар 10 нафар руҳий жиҳатдан тўлақонли бўлмаган болалардан 2 нафари пияниста ота-оналардан туғилган. Анкеталар таҳлили шуни кўрсатдики, 5,3% оналар ва 50% га яқин оталар алкоголь маҳсулотлари ичган, 6,6% оналар ва 61,7% оталар эса чекканлар. Ногирон болаларнинг оналарида кўпроқ анемия, пиелонефрит, юрак-қон томир касалликлари, шунингдек, қалқонсимон безнинг патологияси, қизилча ва таносил (венерик) касалликлари учраши кузатилди. 53% аёлларнинг анамнезида соматик касалликлар, 26,3% гинекологик касалликлар мавжуд бўлиб, шу билан боғлиқ равишда 50% аёллар дори воситаларини, шу жумладан, бир нечта воситаларни бир вақтнинг ўзида истеъмол қилганлар. Ҳомиладорлик давригача 37,4% аёллар, ҳомиладорлик даврида 33,4% аёллар касбга оид зарарли шароитлар билан мулоқотда бўлганлар.

Болалар ногиронлигини ҳисобга олишда ягона усулбуй ёндошувнинг йўқлиги уларнинг тарқалганлиги динамикасини ўрганишда сезиларли



камчиликлардан бири ҳисобланади. Бу эса турли тадқиқотчилар томонидан олинган маълумотларни ўзаро таққослашни янада қийинлаштиради. Хорижий илмий ишларга нисбатан маҳаллий матбуотларда ёритиб ўтилган ривожланиш болалар ногиронлигини тарқалганлиги чегараларининг кенглигини айнан ушбу ҳолат билан тушунтириш мумкин. Буларнинг барчаси экологик жиҳатдан номақбул ҳудудлар пайдо бўладиган вазиятлар тўғрисида фикр юритиш учун ҳақиқий фикр юритиш имкониятини бермайди, турли минтақалардаги тиббий ҳужжатларни ретроспектив таҳлил этиш ривожланишнинг болалар ногиронлиги частотаси тўғрисида аниқ маълумотларни бермайди. Бу эса гипер-ва гиподиагностика, паспорт маълумотларини қайд қилишнинг ноаниқлиги (туғруқхонадан чиққандан кейинги яқин вақт ичида фамилиядаги эҳтимоли бўлган ўзгаришлар), тиббий ҳужжатларнинг тўлиқ сақланмаслиги (болани даволашни давом этдириш учун тиббий ҳужжатнинг болалар касалхонасига ўтказиш эҳтимоллиги, ҳужжатларнинг йўқолиши) билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Ирсий ва туғма касалликлар ҳамда юрак ривожланишининг нуқсонлари нафақат соғлиқни сақлаш тизимида, балки бутун бир давлат миқёсида жиддий муаммолардан бири ҳисобланади, чунки уларнинг давоси, шунингдек, афсуски, болаларнинг ногирон бўлиши катта моддий ҳаражатлар талаб этади ва туғилиш пасайишининг сабабларидан бири ҳисобланади – кўпгина оилавий жуфтликлар иккинчи ва учинчи болаларни дунёга келтиришни ҳоҳламайдилар. Келтириб ўтилган

касалликларнинг нисбий улуши кичик бўлишига қарамай, ушбу касалликларни коррекция қилиш ва даволаш кейинчалик нафақат касалланиш даражаси, балки аҳолининг ногирон бўлишини келтириб чиқаради. Ҳақиқатда, сўнгги ўн йилликда бутун жаҳонда ривожланишнинг болалар ногиронлиги педиатриянинг асосий муаммоларидан бири ҳисобланади. Ривожланишда туғма нуқсонларнинг оғир шакллари ва баъзи ирсий касалликлар болалар касалланиши ва ўлими таркибида етакчи ўринни эгаллайдилар. Қатор муаллифларнинг маълумотлари бўйича, ривожланишнинг туғма нуқсонлари 20% гача болалар касалланиши, ногиронлиги, 15-20% болалар ўлимининг барча ҳолатлари билан кечади.

Ўзбекистон Республикаси Сурхондарё вилояти Соғлиқни сақлаш бош бошқармасининг маълумотлари бўйича болалар ногиронлиги ичида асаб тизими касалликлари 24,3% ни ташкил этади. Бироқ ушбу масалада кўп ҳолатлар етарлича ўрганилмаган. Мазкур патологиянинг иқлим-географик, ишлаб чиқариш, ижтимоий-маиший омиллар билан боғлиқлиги тўғрисида маълумотлар кўп эмас. Асаб тизими билан касалланган болаларнинг касалланиши ва ўлими, оналарининг ҳомладорлик вақтидаги саломатлик ҳолати ўрганилмаган. Иқтисодий-географик омиллар бевосита, ҳамда билвосита равишда у ёки бу аҳоли гуруҳи ҳаёт тартибининг ижтимоий хусусиятлари орқали аҳоли саломатлиги учун етакчи аҳамиятга эгадир. Алоҳида иқтисодий-географик ҳудуд баъзида биогеохимёвий маъмурий бўлинма (вилоят) сифатида тавсифланиб, у ерда аҳолининг феъл-атвори ва унинг





турмуш тарзига ташқи муҳит омиллари маълум даражада таъсир этади.

Маълумки, бирламчи ва умумий болалар ногиронлиги таркибидаги етакчи ўринларни туғма аноманиялар, асаб тизими касалликлари ва руҳий касалликлар эгаллайди. Болаларда асаб касалликларининг асосий сабаби болалар церебрал патологияси (1000 болага 2-2,5 ҳолат) ҳисобланади.

Бир қатор тадқиқотлар шуни кўрсатдики, болалар мия фалажи тарқалиши 1000 боладан 1,5-3,0 ҳолатни ташкил этади. болалар мия фалажи тарқалиши ҳақида гап кетганда, Америка Қўшма Штатларида унинг учраши 1000 болага 3,6 ҳолатни ташкил этади. Белоусова Э.Д. маълумотларига кўра, Россияда болалар мия фалажининг тарқалиши 1000 болага 5-8 ҳолатни ташкил этади. Сурхондарё вилоятида болалар мия фалажи ногирон болаларнинг 9% ни ташкил этади.

Болалар мия фалажи билан зарарланган болалар бошқа ногиронларга қараганда репрезентатив бўлишади, чунки улар кенг диапазондаги оғирлик билан, бир қатор жисмоний, интеллектуал, эшитув, кўрув ва коммуникатив бузилишларга эга. Шуни айтиб ўтиш керакки, ногиронлик тиббиёт ҳодимлари назаридан четда бўлган оилаларда тарбияланувчи болаларга расмийлаштирилмайди. Шунингдек, бунинг сабаби бўлиб, оналарнинг боласини ногирон деб тан олишини хоҳламаслиги ёки уларнинг ҳуқуқ ва имтиёзлар ҳақида маълумотга эга эмаслиги ҳисобланади.

Оилаларда тиббий ёрдам сифатини биз ногирон болалар туғилган оилалардан сўров анкета усули ёрдамида Сариосиё, Узун ва Денов туманлари оилавий поликлиникаларида

100 та соғлом ва 100 та ногирон болалари бўлган оилаларда сўров ўтказдик.

Оила тури қариндошлик алоқаси мавзусида ўтказган тадқиқотларимиз натижалари шуни кўрсатдики, 69% оилаларда (қариндошлар ўртасида) ногирон болалар йўқ, 31% оилаларда эса ногирон болалар мавжуд (1-расм).


Ушбу маълумотларни Денов ва Сариосиё туманлари (1-4-7-10-оилавий поликлиникаларида) ва Денов, Узун туманларида ўтказган сўровномаларимиз орқали тўпладик. Расмда кўриниб турганидек, 31% оилаларда Даун касаллиги, куён танглай, туғма юрак касалликлари, туғма сон чиқиши, қўл ва оёқ туғма аномалиялари, гидроцефалия, орқа мия чурраси ва бошқа касалликлар мавжудлиги аниқ бўлди. 69% оилаларда эса оналарнинг ёши 17-18 ёшдан ошмаганлиги, қариндош уруғчилик муносабатлари йўлга қўйилганлиги, она ҳомиладорлик пайтида нотўғри овқатланганлиги, ҳар доим сиқилиш-асабийлашишда ўтказганлиги, экстрагенитал касалликлари (юрак қонтомир касалликлари, буйрак касалликлари, диабет, камқонлик, ТОРЧ, сифилис, токскоплазмоз, бруцеллез инфекциялар) борлиги, ҳомиладорлик асоратли ўтганлиги (ҳомиладорликнинг биринчи ва иккинчи ярмида қон кетишлар, эрта токсикозлар, преэклампсия, кўп сувлилик, кам сувлилик), хомиладорлик даврида кўп маротаба дори воситаларини қабул қилганлиги, ота онада зарарли одатларнинг борлиги (чекиш, ичиш) ёки маҳаллага бириктирилган патронаж ҳамшираси ҳафталаб кузатувга бормаганлиги, ҳомиладорликнинг илк даврларида тиббий кўриклардан



ўтмаганлиги натижасида ногирон болалар туғилганлиги кузатилди.

Ота-оналарнинг саломатлиги оиланинг саломатлигини белгилайди. Ота-оналарда сурункали касалликларнинг мавжудлиги ёки ота-оналардан бири тез-тез ўткир касалликлар билан оғриган оиладаги болаларнинг касалланиш хавфи соғлом ота-оналардан туғилган болаларга қараганда 2,0 марта юқорилиги саломатлик ҳолатига кучли тасир этади.

аниқланди. Олинган маълумотлар шуни кўрсатдики, болаларнинг турли хил наслий касалликлар билан туғилиши, болалар ногиронлигининг ривожланишида онанинг экстрагенитал касалликлари (анемия, нефропатиялар, гипотония, қандли диабет, юрак-қон томир етишмовчиликлари, гинекологик касалликлар), ҳомиладорликнинг кечиши (токсикоз, гестоз, преэклампсия) болаларнинг




### 1-расм. Оила тури ва қариндошлик алоқаси бўйича

Ўтказган анкета-сўровномаларимизда аёлларни ҳомиладорлик пайтида бошдан кечирган касалликлари, ҳомиладорлик асоратлари натижасида ҳам болалар ногиронлиги кўп учраганлиги қайд этилди.

Тиббий-ижтимоий омилларни ўрганиш жараёнида шу аниқ бўлдики, ҳомиладорлик вақтида сурункали ва гинекологик касалликларга эга аёллар кўпчиликти ташкил этган, бу албатта

туғилажак болалар саломатлигига ўз таъсирини ўтказмай қўймайди. 28,4% оналарда туғиш вақтида анамнезиядан анемия, 24,2% да буйрак касалликлари, 21,5% да қон-томир касалликлари, 11,2% да юқумли инфекцион касалликлар, 9,8% да асаб тизими касалликлари, 3,7% да юрак нуқсонлари бўлган. Буларнинг барчаси туғилажак боланинг саломатлигига ўз таъсирини ўтказмай қўймайди (2-расм).






**2-расм. Ҳомиладорлик даврида аёлларда энг кўп учрайдиган касалликлар**

Ногирон болаларнинг оналарига биринчи ҳомиладорлик даврингизни кечиши ва натижалари? деган саволларимизга 30% оналар ҳомиласининг тушганлиги, ўлик туғилишлар бўлганлиги ҳақида айтишди. Жумладан анамнезияда абортлар (20,2%), ўз-ўзидан бола ташлаш (15,8%), патологик туғруқлар (13,5%), ўлик туғилиш (5,5%), нормал туғруқлар (45%) қайд этилди (3-расм).

Оналарнинг ҳомиладорлик даврида бошдан кечирган ҳомиладорлик асоратлари мавзусида берган саволларимизга 45,7% оналар ҳомиладорлик вақтида яққол токсикоз,


25,3%да эса ҳомиланинг тушиш хавфи, 29% оналарда эса ҳомиладорликнинг биринчи ва иккинчи ярмида қон кетиш ҳолатлари кузатилганлиги маълум бўлди (4-расм).

Яна шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, биологик омиллар орасида туғруқлар орасидаги интервал болалар саломатлигига кучли таъсир этувчи омиллардан ҳисобланади. Туғруқлар орасидаги интервал билан болалар саломатлик кўрсаткичлари бир-бирига тескари пропорционал бўлиб, интервал қанчалик кичик бўлса, ногирон болалар туғилиш хавфи шунча юқори бўлиши қайд этилди.






3-расм. Оналарнинг биринчи ҳомиладорлиги кечиши



4-расм. Ҳомиладорлик асоратлари

Ўтказилган сўров натижалари шуни кўрсатдики, туғруқлар орасидаги интервал 40% оналарда 3 йил ва ундан кўпроқ, 30% оналарда 2-3 йил, 24% да 1-

2 йил ва 6% ҳолатда ҳаттоки туғруқлар орасидаги интервал 1 йил бўлган (5-расм).



5-расм. Туғруқлар орасидаги интервал






Қариндошлар орасидаги никоҳ болалар саломатлик кўрсаткичларига салбий таъсир кўрсатишини эътиборга олиб, уни ўрганишни лозим топдик. Бизнинг тадқиқот натижаларимизга кўра, ота-оналари қариндош бўлган оила болаларининг болалар ногиронлиги билан туғилиш хавфи ота-оналари қариндош бўлмаган оиладаги болалар хавфидан 3 марта юқорилигини кўрсатди. Ногирон туғилган болаларнинг 64% ида ота-оналари яқин

қариндошлар, 23% ида эса узоқ қариндошлар эканлиги, 13% ота оналар қариндош эмаслиги аниқланди (6-расм).

Тадқиқотларимиз натижалари бола туғилган даврдаги онанинг ёши ҳам болалар саломатлигига сезиларли таъсир этишини кўрсатди. Жумладан, онанинг ёши 19 дан кичик ва 40 ёшдан катта бўлса, ирсий касалликлар билан ногирон болалар туғилиш хавфи ортади.



6-расм. Қариндошлар орасидаги никоҳ

Тадқиқот натижаларига кўра, 50,1% ногирон болалар 19 ёшли оналардан, 8,2% и 20-29 ёшли оналардан, 17,5% и 30-39 ёшли оналардан туғилган бўлса, 24,2% болалар 40 ёш ва ундан катта ёшли оналардан туғилган (7-расм).

Ногирон болаларнинг оналаридан олган анкета сўровномаларимиздаги ногирон болангиз нечанчи фарзандингиз? деган саволларимиздан

шу нарса маълум бўлдики, 35% ногирон болалар биринчи туғруқдан, 30,4% иккинчи туғруқдан, 19,6% учинчи туғруқдан, 11,7% тўртинчи туғруқдан, 3,3% бешинчи туғруқдан туғилганлиги аниқланди.

Ота-оналарнинг маълумоти, тиббий билимлари болаларнинг соғлом дунёга келиши, уни тўғри парваришлаб вояга етказишида катта аҳамиятга эга.








Оналарнинг маълумот даражасини ўрганиб чиқишда қуйидаги натижалар қайд қилинди: 28% маълумоти йўқ,

мактабни 9-11-синфгача ўқиган, 51% и ўрта махсус, 21% и олий маълумотли.




**7-расм. Ногирон бола туғилган вақтида онанинг ёши**

Оналарнинг ижтимоий ҳолатини кўриб чиқсак, 31% оналар ишчилар гуруҳига, 26% хизматчилар ва 43% уй бекаларига тўғри келган (8-расм).

Болаларнинг касалланиши билан яшаш шароити ўртасида ўзаро боғлиқлик борлиги бир қатор ўхшаш тадқиқотларда ҳам келтирилган. Оила яшаш (уй) шароити оила аъзоларининг соғлиғига бевосита таъсир этиб, айрим касалликларнинг келиб чиқишида

туртки бўлувчи омил сифатида тиббиётда ва соғлиқни сақлашда катта аҳамиятга эгадир. Шунинг учун ҳам ҳар бир тиббиёт ходими, айниқса профилактика ишлари билан шуғулланувчи шифокорлар оила яшаш шароитига тўғри баҳо бера олишлари ва тегишли хулоса чиқариб касалликларни олдини олишда чора-тадбирлар ишлаб чиқишлари лозим.





8-расм. Оналарнинг ижтимоий ҳолати

Тадқиқотимиз натижаларига кўра уй шароитининг сифат тавсифи қанчалик паст бўлса, болалар касалланиши шунчалик юқори бўлишини кўрсатди, жумладан 19% ногирон болали оилалар қониқарсиз уй шароитига эга.

Соғлом турмуш тарзини шакллантириш ва касалланишнинг олдини олишда тамаки чекишга қарши курашиш катталарда қандай катта аҳамиятга эга бўлса, болаларда ҳам шундай аҳамият касб этади. Ота-оналарнинг чекиши болалар саломатлигига ҳомиладорлик давридан бошлаб таъсир этса, туғилгандан сўнг чақалоқлар бевосита пассив чекувчига айланади ва ушбу зарарли одатнинг таъсири янада кучаяди. Туғма ногирон болалари бўлган ота-оналарнинг 38% зарарли одатларга эга, 62% ота-оналар спиртли ичимликлар тез-тез ичиб турган.

Болаларнинг саломатлик ҳолатига салбий таъсир этувчи омиллардан бири бу оиладаги руҳий ҳолат ёки оила аъзоларининг ўзаро муносабати ҳисобланади. Руҳий ҳолатни баҳолаш учун биз барча ижтимоий тадқиқот ўтказилган оилаларни 2 гуруҳга бўлдик: 1 гуруҳга - оиладаги руҳий ҳолат, ўзаро муносабатлар қониқарли бўлган оилалар, яъни оилада ота ва онаси бор, уларнинг орасидаги ўзаро муносабатлар яхши, оила аъзоларида зарарли одатлар мавжуд бўлмаган оилалар киритилди.

Агарда оилада ота-онадан биронтаси бўлмаса ёки улар ўртасида ўзаро келишмовчиликлар, зиддиятлар тез-тез такрорланиб турса, оила аъзоларидан бири зарарли одатларга берилган бўлса, бундай оилаларни биз 2-гуруҳга, яъни оилада ўзаро



муносабатлар қониқарсиз ёмон руҳий ҳолат деб баҳоладик. Руҳий ҳолат қониқарсиз деб баҳоланган оилаларда болаларнинг касалланиш хавфи руҳий ҳолат қониқарли бўлган оилаларга қараганда 3 марта юқорилиги аниқланди.

Мунтазам жисмоний машқлар билан шуғулланиш ота оналарнинг саломатлигини мустаҳкамлашда ва болаларнинг саломатлиги шаклланишида муҳим аҳамият касб этади, жумладан тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, 43% ота-оналар жисмоний машқлар билан шуғулланмайди.

Ҳомиладорлик вақтида тўғри овқатланиш, дам олишни тўғри ташкил этиш, шифокор тавсияларини бажариш ҳомиланинг соғлом ўсиб улғайиши, соғлом болани дунёга келишида муҳим рол ўйнайди. Сўров натижалари шуни кўрсатдики 40,1% оналар ҳомиладорлик вақтида овқатланиш ва дам олиш режимига эътибор қаратишмаган. Бу эса ўз навбатида ногирон болалар туғилишига замин яратади.

Оила аъзоларининг тиббий фаоллиги, хусусан, онанинг тиббий билимлари ва малакаси болалар саломатлигининг шаклланишида муҳим аҳамиятга эгадир. Агар оила аъзоларининг тиббий билимлари етарли бўлса, бу оилада шифокор тавсиялари тўлиқ, ўз вақтида бажарилади, профилактик кўриклардан тизимли равишда ўтилади. Доимий тизимли равишда профилактик кўриклардан ўтказилган оилаларда болалар касалланиш хавфи доимий, тизимли равишда профилактик кўриклардан ўтказилмайдиган оила

болаларига қараганда 2 марта кам касалланиши аниқланди.

Барча ёшдаги болалар саломатлигини сақлашда долзарб вазифалардан бири ота-оналарнинг касалликни дастлабки белгиларини аниқлаши, ўз вақтида шифокорга мурожаат этиши, уларнинг мунтазам ташрифи, даволанишни тўлиқ, охиригача олиб бориши, касалликни олдини олиш масалалари бўйича ота-оналарнинг билими, биринчи тиббий ёрдамни кўрсата олиши ва бемор болага тўғри парваришни ташкил эта олишидан иборатдир.

Тадқиқотларимиз натижаларига кўра, ота-оналар бола касалланганда ўз вақтида мурожаат этмайдиган тартибсиз ота-оналар, нерегуляр ташриф буюрадиган ва тиббий, гигиеник тавсияларни бажаришни тушунмайдиганлар ёки маъсулиятини ҳис этмаган ҳолда ёндашадиган оилаларда болаларнинг касалланиш хавфи 2,5-3 баробаригача ортиши қайд қилинди.

Ота-оналарнинг касалликларни олдини олиш соҳасида етарли билимга эга эмаслиги туфайли оилаларда бу юзасидан фаол чоралар қабул қилинмайди. Натижада бундай оилаларда ривожланиш нуқсонлари билан болаларнинг туғилиш хавфи ортади.

Касалликларнинг олдини олиш ва даволашнинг сифатли бўлишида, болалар саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлашда ота-оналар томонидан биринчи тиббий ёрдамни кўрсата олиш ва касал болани парваришлаш каби омиллар муҳим аҳамиятга эга. Тиббий ёрдам сифати ва ота-оналарнинг тиббий фаоллигини кўтариш, айниқса профилактик кўриклардан мунтазам



ўтиш бола саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш йўлида ҳал этувчи аҳамиятга эга эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим.

**Хулоса.** Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, инсонни ўраб турган муҳитга кўпроқ саноат, транспорт, қишлоқ хўжалигининг ўзига хослиги таъсир этади. Атроф-муҳит омиллари ўзининг характери ва таъсирининг жадаллиги бўйича аҳоли саломатлиги кўрсаткичларининг кўпчилигини ўзгартириши мумкин. Муҳитнинг саломатликка таъсири мослашувнинг

кескинлигидан бошлаб ўлим ҳолатлари билан яқунланувчи чегараларни ўз ичига олган ҳодисаларнинг кенг спектри билан намоён бўлишини ҳисобга олиш лозимдир.


Болаларнинг турмуш тарзи, турмуш шароити омилларини яхшилаш бўйича фаол тадбирлар ўтказиш, энг аввало, болалар саломатлигини муҳофаза қилиш ва мустаҳкамлаш борасида оилаларнинг тиббий фаоллигини оширишга йўналтирилган мақсадли чора-тадбирлар ишлаб чиқиш кераклигидан далолат беради.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. "Ногиронларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2017 йил 1 августдаги ПФ-5006-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" ги Фармони.
3. Мирзиёев Ш.М. "Иш ҳақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдорини ошириш тўғрисида" 2019 йил 12 июлдаги ПФ-5765-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Сурхондарё вилояти "Она ва бола скрининг" марказининг 2016-2019 йиллардаги ҳисоботи.
5. Ўзбекистон Республикаси Сурхондарё вилояти соғлиқни сақлаш бошқармасининг 2017-2020 йиллардаги ҳисоботи.
6. Елисинова А.М. Совершенствование медико-социальной помощи семьям, воспитывающим детей-инвалидов вследствие детского церебрального паралича. Диссертация на соискание ученой степени доктора философии (PhD). Республика Казахстан Семей, 2013 год.
7. Жалилов Ж.Ж. Болалар ногиронлигининг олдини олиш, уларни парваришлаш ва ижтимоий ёрдам кўрсатишни такомиллаштириш // Монография. Тошкент, 2020 й.
8. Жалилов Ж.Ж. Сурхондарё вилоятида ногирон бўлиб туғилишни олдини олишда тиббиёт ходимлари ва скрининг марказларининг роли. Тиббиётга яни кун // Халқаро илмий журнал, Ўзбекистон - 2019 й. С. 28-32.







## ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS

Mingboyev Ibrohim Alisher o'g'li

Student of Tashkent Institute of Finance, Tashkent, Uzbekistan. E-mail:

mingboyevibrohim9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6027730>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*sovereign fund, Fund for Reconstruction and Development, Transparency Index, investment, economic effectiveness, investment projects, Linaburg-Madwell Transparency Index.*

### ABSTRACT

*This article examines and analyzes the criteria for maximum transparency, which is the main criterion for evaluating the effectiveness of sovereign funds. Two globally recognized methods for assessing the maximum transparency of sovereign wealth funds have been analyzed. The Santiago Principles and the Linaburg-Madwell Transparency Index, approved by 26 member countries of the International Monetary Fund and based on generally accepted rules, have been studied and analyzed in detail. Foreign experience in ensuring maximum transparency of sovereign wealth funds has been studied. A number of problems in ensuring the maximum transparency of the Fund's activities, which are the main criteria for assessing the effectiveness of the Fund for Reconstruction and Development in our country, were analyzed, scientific, and practical suggestions and recommendations were made to ensure maximum transparency of the Fund's activities.*

### Introduction

In order to create favorable conditions for attracting foreign investment to our national economy, to ensure a state and individual approach to assessing the financial and economic efficiency of investment projects, to put an end to bureaucracy, red tape and bureaucracy, to increase the responsibility of officials for expertise. many Resolutions and Decrees were adopted. In particular, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of February 7, 2017 "On the Action Strategy for further development of the Republic of Uzbekistan", PF-5614 of January 8, 2019 "On additional measures to further develop the economy and increase

economic policy" , Decree No. PF-5635 of January 17, 2019 "On the State Program for the implementation of the Action Strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021 in the" Year of Active Investment and Social Development "December 18, 2017 PQ-3437- Resolution "On the introduction of a new procedure for the formation and financing of state development programs of the Republic of Uzbekistan." In addition, President Mirziyoyev highlighted this issue in his speeches on the effective implementation of the tasks of complex socio-economic development, the timely identification and elimination of a number of shortcomings that hinder the timely





implementation of reforms in the country, and determines the priority of investment projects in order to gain a foothold in the international arena [1].

The Fund for Reconstruction and Development of the Republic of Uzbekistan plays an important role in the implementation of projects on modernization and technical re-equipment of leading sectors of the economy in our country, as well as effective structural reforms and investment policies. One of the main tasks of the Fund is to finance strategic investment projects in the implementation of priorities related to the development of leading sectors of the economy, the formation of production infrastructure.

The existence of a number of problems in ensuring maximum transparency of the Fund, which is the main criterion for assessing the effectiveness of the Fund for Reconstruction and Development in our country, has a negative impact on the intensification of the Fund's investment processes, development of social infrastructure and investment efficiency.

These circumstances require a radical overhaul of the procedure for forming investment programs, its financing mechanisms, increasing the transparency and efficiency of the selection of proposed projects.

Homiladorlarda tish cho'tkasi o'rtacha qattqlikda bo'lishi kerak. Tishlarni yuvgandan keyin darrov achchiq choy, qahva, qizil rangdagi kompot va boshqa rangli ichimliklarni ichish, shokolad, lavlagi kabi rangli mahsulotlarni iste'mol qilish mumkin emas. 15-20 daqiqaga ulardan tiyilib turing. Aks holda ularning rangi tish emaliga singib, hech qachon ketmaydi. Shifo beruvchi o'tlardan foydalanish. Ushbu vosita juda ko'p afzalliklarga ega va asosiysi tabiiydir. Maxsus tanlangan o'tlar tish go'shtini tozalash va mustahkamlashga va og'iz bo'shlig'ining sog'lig'ini yaxshilashga yordam beradi. Kerakli:kekik, chinnigullar, yalpiz. Qulaylik uchun o'tlar kukunga aylanadi va ozgina nam tish cho'tkasi bilan tishlarga qo'llaniladi. Propolis va kalamus aralashmasi ham yaxshi. Agar siz ushbu kompozitsiyani muntazam ravishda ishlatsangiz, tish va tish go'shti bilan bog'liq muammolar kamroq bo'ladi. Yalpiz infuzioni bilan yuvish orqali yaxshi natijaga erishiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'simliklardan foydalanib tozalash usuli hamma uchun mos emas, chunki ular kuchli allergiyaga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tishlarni oqartirishga yordam beradigan kislotalar mavjud. Pasta yumshatilgan berryani soda bilan aralastirish yoki hech qanday qo'shimchalardan foydalanmasdan tayyorlash mumkin.


Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki og'iz bo'shlig'I va uning gigiyenasiga to'g'ri amal qilish va tishlarni to'g'ri yuvish qoidalariga amal qilib biz nafaqat og'iz va tish kasalliklarini va organizmdagi boshqa kasalliklarning ham kelib chiqishini oldini olishimiz mumkin. Shuning uchun quyida ko'rsatib o'tilgan oddiy qoidalarga amal qilib o'z sog'ligimizga befarq bo'lmagan holda bu ishlarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Terapevtik stomatologiya - M.F. Ziyayeva , R.N. Bahodirova 9 , 262 , 279 betlar
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi – 2000 – 2005 yillar
3. Mahmudova N. M., Ijtimoiy gigiyenadan qo'llanma, T., 1993; Otaboyev Sh. T., Iskanderov T. I., Kommunal gigiyena, T., 1993.
4. A.Rahimberdiyev ixtisoslashtirilgan bolalar stomatologiyasi ,
5. "Berlin kurer " nashri Tishlar haqida umimiy ma'lumot





## TEXNOLOGIK TA'LIMNING KASB TANLASHDAGI AHAMIYATI

**Kucharov Sardorbek Akmalovich**

Termiz davlat universiteti Milliy libos va san`at fakulteti

Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

sardor\_@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034840>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Zamonaviy ishlab chiqarish, ilmiy texnika taraqqiyoti, tajriba, bilim, ko'nikma, malaka, professional xarakatchanlik, ijodiy xususiyatlar, murakkab avtomatik jarayonlar.*

### ANNOTATSIYA

*Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulot darslarini tashkil etish o'qituvchilardan yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lishni talab qiladi. Ular o'quvchi psixologiyasiga oid bilimlar, amaliy ko'nikmalar, yangi pedagogik va kompyuter texnologiyalar, hayotiy tajribalarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. Muallif umum ta'lim maktablarida texnologiya fanidan o'quv jarayonida kasb tanlashga o'quvchilarni yo'llash bo'yicha o'z fikrlarini bayon qilgan.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida va professional bosqichdagi ta'lim muassasalarida texnologik ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarda texnologik operatsiyalarni bajarish ko'nikma va malakalarini shakllantiradigan, ularni kelajakda ishlab chiqarish sohalari mehnat qilishga tayyorlaydigan, shuningdek, texnik dunyoqarashni shakllantiradigan, shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishiga yordam beradigan samarali, natijaviy ta'lim berishga qaratilgan. Shuningdek, texnologik ta'limning mazmuni o'quvchilarga ishlab chiqarish sohalari to'g'risida bilimlar tizimini berishdan va shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlarda, mehnat faoliyatida eng ko'p uchraydigan asbob uskunalar, texnik vositalardan foydalanishni o'rgatish ko'nikma va malakasini shakllantirish orqali o'quvchilarni kasb tanlashga ham tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik ta'lim mazmunining samaradorligi yuqori darajada bo'lishi, kasb tanlashdagi muammolar yechimi shunchalik kamayadi. Chunki, texnologik ta'lim o'quvchilarni kasbga tayyorlashning asosi bo'lib xizmat qilishi kerak.

Texnologik talim jarayonlarida o'quvchilarni kasbga yo'llash ishlari bilim berish, ko'nikma va malakalar asoslarini shakllantirishda, ilmiy texnik to'garaklarda, ijodiy ishlarga jalb qilish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda texnologik ta'limning mazmuni quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Texnologiya fanining ilmiy asoslarini bilish va ularni amalda qo'llash, shuningdek ma'lumotni amaliyotga baholash usullarini o'zlashtirish, bilimlardan foydalanishni izlash, samarali mehnatni takomillashtirish jarayonida bilimlardan foydalanish, ishlab





chiqarish hodisalarini tahlil qilishda fanlararo bilimlarga tayanishni, kompyuter savodxonligini oshirish;

- O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda texnologiya darslarining mazmuni o'quvchilarning iste'dod va qobiliyatlari, ayniqsa texnik, dizayn va tadqiqot ishlarini ochish omili sifatida qaralishi kerak;

- Texnologik ta'lim didaktik (o'qitish) va tarbiyaviy (shakllantiruvchi) funksiyalarini bajaradi. Didaktik funktsiya asosiy vazifalardan hisoblanib, ya'ni o'quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida fan yutuqlaridan maksimal darajada foydalanishga tayyorlaydi.

Bunga:

1) zamonaviy ishlab chiqarish asoslari bo'yicha texnik dunyo qarashni shakllantirish;

2) ilmiy texnika taraqqiyoti bilan fan dunyosi fsoslariga yo'llash;

3) o'quvchilarni umuminsoniy amaliyotida zarur bo'ladigan ilmiy bilim asoslari bilan qurollantirish;

4) tarmoqlararo munosabatlarni qo'llash uchun muhim bo'lgan zamonaviy ishlab chiqarishning umumiy iqtisodiy tamoyillarini o'rgatish;

5) yoshlarning professional harakatchanligi uchun zarur bo'lgan bozor iqtisodiyotiga yo'naltirish;

6) keyinchalik ishning ijodiy xususiyatini va kasb tanlashni belgilaydigan o'quvchining kuchi va qobiliyatlarini rivojlantirish;

7) o'quvchilarni murakkab avtomatik jarayonlarni boshqarish uchun psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash.

Texnologik ta'lim mazmuni barcha shakllarining umumiy maqsadi o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ishlab chiqarish, fan va madaniyatning rivojlanish darajasi bilan bog'lashga qaratilgan.

Biroq, bu masalada texnologik ta'lim mazmunini ishlab chiqarishning rivojlanish istiqbollari ham hisobga olishi kerak.

Maktab o'quvchilarini to'laqonli yuqori samarali texnologik ta'lim uchun nazariy va amaliy shart-sharoitlarni yaratish, vazifasi quyidagi asosiy yo'llar bilan amalga oshiriladi:

1) o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan texnologik mashg'ulotlardan samarali va o'rinli foydalanish;

2) kasbga yo'naltirish ishlari, kasb tanlash va kasbiy moslashuv jarayonida mehnat va kasb ta'limi o'rtasidagi bog'liqlik;

3) barcha o'quv fanlarini o'qitishning amaliy yo'nalishini mustahkamlash va chuqurlashtirish;

4) turli xil ish tajribasini shakllantirish uchun talabning majburiy muntazam ishlab chiqarish mehnatini joriy etish;

5) maktabning asosiy ishlab chiqarish korxonalarini bilan uzviy aloqalarini yanada mustahkamlash.

Texnologik ta'lim kasbni to'g'ri tanlashni ta'minlashda, amalga oshirilayotgan ilmiy-texnik o'zgarishlarda va texnologik jarayonlarga doimiy tadbiriq etilayotgan yangiliklarda tezkor harakat qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikda maqsadli ustaxonalarni tashkil etish, ta'lim muassasalarida mavjud ishlab chiqarish o'quv-moddiy bazasidan foydalanish ishlab chiqarish korxonalaridagi mehnat jarayonlarining nazariy asoslarini o'rganishni kuchaytirish, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish orqali kasbga tanlash ishlarini yaxshilash mumkin. Hozirgi vaqtda texnologik ta'lim va mehnat ta'lim muammolarini hal qilishning eng samarali usullarini topish



orqali o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash maqsadida texnik ijodkorlik sohasida turli xil sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish tajribasi puxta o'rganilib, umumlashtirilishi zarur.

Texnologik ta'lim mazmuni o'quvchilarning kasbni to'g'ri tanlashlarini ta'minlashda, amalga oshirilayotgan ilmiy-texnik o'zgarishlarda va texnologik jarayonlarda doimiy ravishda amalga oshirilayotgan yangiliklarda tezkor harakat qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy maktablarda texnologik ta'lim fan asoslarini o'qitish jarayonida birinchi navbatda texnik - matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya va boshqa bir qator fanlarni o'rganishda talabalar zamonaviy eng muhim tarmoqlari asosidagi jarayonlarning ilmiy tamoyillari bilan tanishadilar. Ishlab chiqarish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etish sohasidagi bilimlar bilan jihozlash, shuningdek, maxsus mehnat ta'limi jarayonida amalga oshiriladi.

O'quv dasturiga akademik fan sifatida kiritilgan texnologik ta'lim I sinfdan boshlanadi va I-VIII sinf o'quvchilariga texnik, qishloq xo'jaligi va maishiy mehnat sohasida hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning boshlang'ich doirasini berishga, ularning texnik tafakkurini rivojlantirishga, dizayn qobiliyatlari, umumiy ish madaniyatini tarbiyalash. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini o'qitishdagi muhim texnologiyalardan biri zamonaviy ishlab chiqarish faoliyatining umumiy tamoyillarini tushunishga asoslangan mehnat ko'nikmalarini egallashga o'rgatishdir. Ushbu bilimlar esa umumiy va texnologik ta'lim asosida beriladi.

Maktabda yoki maxsus ishlab chiqarish amaliyotida amaliy mashg'ulotlar shaklida

o'tkaziladigan ilmiy-texnik seminarlarda ishtirok etish katta ahamiyatga ega.

Ijodiy texnik tafakkurni rivojlantirish muammolarini samarali hal yetish uchun talabalarni turli xil texnik ijodkorlik va dizayn turlariga jalb qilish muhimdir.

Ushbu turdagi mashg'ulotlar amaliy mashg'ulotlar jarayonida ham, sinfdan tashqari ishlarda ham - har xil turdagi texnik to'garaklar va bo'limlarda, maktabni texnik qayta jihozlashni amalga oshirishda bo'lishi mumkin: sinf xonalarini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash, avtomatlashtirilgan dasturlashtirilgan o'quv mashg'ulotlari, til laboratoriyalari yaratish, maktab radio markazini o'rnatish. va h.k.

Kasbni to'g'ri tanlash - inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jixatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlashiga bog'liq.

Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining ob'ektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'ligini, o'zlashtirishni va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi.

Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbini zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday xolda har bir shaxs jamiyatda eng ko'p naf keltiradi.

Mana shu aytilgan gaplaridan kasb tanlashning g'oyat muhim ijtimoiy ahamiyati mavjud. Agar inson shug'ullanayotgan kasbini yaxshi ko'rsa, e'zozlasa bundan u xursand bo'ladi,



qoniqish hosil qiladi, zo'r tashabbus ko'rsatadi, toliqmay mehnat unumdorligini oshiradi.

Maktab o'quvchilarning kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy muddaolarini qondirish lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari obe'ktiv zaminga ega bo'lib, voqelikda har kuni amalga oshirilmoqda. Sanoat tez rivojlanganligi, qishloq xo'jaligini mexanizat-tsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo'yilganligini ilm-fan, texnikasi va madaniyatini yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga


muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi, umumiy ta'lim maktabida mehnat politexnika ta'limi sharoitida kasbga yo'naltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun shart-sharoitlar mavjud.

Yosh avlodda mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishini tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir. Qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud bo'ladi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar ular o'z o'yinlarida ota-onalariga, tevarakatdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat harakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga ana shu yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev, Shavkat Miromonovich - Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017.-104 b.
2. "Maktabgacha pedagogika". Tahrir V. I. Yadeshko va F. A. Soxina "Ta'lim", Moskva, 1978 yil.
3. Sh.S. Sharipov "Kasbiy pedagogika" (metodik qo'llanma) – Toshkent TDPU, 2006 yil.
4. R.A. Mavlonova, M.T. Satbaeva "Mehnat o'qitish metodikasi" – Toshkent Noshir nashriyoti, 2013 yil.
5. Sh.S. Sharipov, N.A. Muslimov, O.A. Qo'ysinov "Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb-tanlashga yo'llash" (o'quv qo'llanma) Toshkent 2014 yil
6. Yu. A. Konarjevskiy Pedagogicheskiy analiz uchebno-vospitatelnogo protsessa i upravlenie shkoley. Maskva, Ch-1, 1997 god
7. "Kasbiy fanlar metodikasi" ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy metodik jurnal.





**“YUZ OH, ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR...” DOSTONIDA VATAN TUYG‘USI IFODASIDA BADIY SHAKL VA MAZMUN UYG‘UNLIGI**

**Turapova Marhabo Abdumajidovna**

Toshkent shahar Uchtepa tumani 116-sonli IDUMning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi, marhabo.turapova@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034889>

**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma’qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO‘ZLAR**

*Vatan, qalb, poetik ifoda, leymotiv, Ona yurt, firoq, sog‘inch.*

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” nomli asarida Vatan madhi hamda Bobur ijodida yurt ishq alohida o‘rganilgan. Dostonida o‘zga yurtida Vatan ishqida yurgan Bobur haqida yozadi.*

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbeklar nomini jahonga tanitgan ulug‘ allomalardan biridir. U noyob qobiliyatga ega sarkarda va podshoh, ulkan tafakkur qudratiga ega tarixchi, olim va shoir sifatida dunyoni hayratga soldi.

U adabiyotimizning Alisher Navoiydan keyingi eng teran fikrli va sohir tuyg‘ular kuychisi ekanligi bilan qadrlil.<sup>1</sup>

O‘zbek xalqi o‘tmishda o‘tgan ko‘plab buyuk daholari bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Ularning ko‘plari nafaqat, o‘z diyorida, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ma‘lum va mashhurdirlar. Ana shunday mo‘tabar zotlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Sirojiddin Sayyid ijodida Bobur obrazi talqini alohida sahifalarni tashkil qiladi. Uning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” nomli bag‘ishlov asarida Bobur haqidagi she‘rlari jamlangan ekan, unda Vatan madhi alohida o‘ringa ega...

She‘riyat - qalb holatidir. Uni qabul etmoq ham qalb holatiga bog‘liq. She‘r ma‘nosini so‘z bilan bayon qilish mumkin

emas. So‘z bilan anglatish mumkin bo‘lgan fikr esa she‘r qilib aytilmaydi.

<sup>1</sup> N. Jumaxo‘ja. I. Adizova. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Innovasiya-Ziyo, 2020. – B.52.

She‘r – zavq, hayrat, kulgu, iztirob, armon, tazarru, mu nojot... demakdir. She‘r – ishq demakdir, ibodat demakdir, - deb yozadi O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov.<sup>1</sup>

“Sirojiddin Sayyid dardli shoir, – deydi f.f.d. Nurboy Jabborov, “She‘riyat – ruh ozodligi” nomli maqolasida. – Uning zohiran quvonchli holatning go‘zal poetik ifodasi berilgandek ko‘ringan misralari zamirida ham elning, yurtning g‘amida yashayotgan ko‘ngil iztiroblari sirqib turadi. “Ayvonlari nurga talosh, kayvonisi oy-u quyosh” bo‘lgan Vatan haqida “ko‘zida yosh, yuzida yosh” bilan yozishning sababi shunda. Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni... Benihoya jozibali misra.

<sup>1</sup> S. Sayyid. Asarlar. II jild. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2018. – B.6.



Binobarin,uyning ayvoniga qaldirg'och qo'nishi – baxt timsoli.Shoirning she'rlarida ana shunday ko'ngilga yaqin, qalbdagi nozik torlarni chertib yuboradigan misralar ko'p"<sup>2</sup>.

Sirojiddin Sayyid ozod, dilbar Vatanni bir farzand yanglig' sidqidildan, ko'nglini osmonlarday keng ochib kuylaydi. Xokisor, mehnatkash elini, ulug' Vatanini o'ziga xos, hammaga tushunarli qilib tarannum etadi.Shoirning qaddu bastini, qalbining qiyofasini, ko'ngil dunyosini she'ri ko'rsatadi, uning zohiri ham, botini ham o'z she'ridir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, nafosatni, go'zallikni, betakror badiiyat namunalarini, aslida, betakror shaxsiyat egalari yaratadi. Ushbu ijod yo'li faqat xohish-istak bilan yuzaga chiqaradigan bir narsa emas. Iste'dod va yorqin shaxsiyat go'zal badiiyat namunalariga hayot bag'ishlaydigan nurdir, aslida. U umr, tiriklik yo'lining bir bosqichi. Shoirning badiiy talqini, ijtimoiy-estetik umumlashma fikrlari samarasida voqelikning ana shu mitti bo'lagi millat va Vatan taqdiriga daxldor mohiyati bilan namoyon bo'ladi.

“Yozuvchi asarda ilgari surgan asosiy g'oya leymotiv deyiladi. Asosiy g'oya, aytganimizdek, asarning butun badiiy to'qimasidan kelib chiqadi. Shu sababli har bir obraz, har bir tafsilot muayyan g'oyaviy vazifani bajaradi”<sup>3</sup>.

Sirojiddin Sayyidning aksariyat asarlari leymotivini Vatanparvarlik, yurtsevarlik tashkil etadi. Vatan mavzusida she'r bitib, yurt manzaralarini chizar ekan tuproq tandir, yog'och so'ri, tog'-u qirlar,

chinorlar-u minorlardan oddiy xasgacha umumlashma xarakter kasb etadi.

Xalqni sevgan va bor mehr-u muhabbatini ayamagan insonni xalqi ham sevadi, ardoqlaydi. Sirojiddin Sayyid tom ma'noda yurt oshig'i.

Shoir “Turkiston” gazetasiga bergan interviyusida, “Shu bobobog'lar-u bobotog'lar menga oq fotiha berdilar, bu suvlar-u jilg'alardan qalbinga navolar oldim, shoir bo'lib nimaiki kuy va ohang topgan bo'lsam, avvalombor, shu tuproqdan, shu tog'-u dashtlardan minnatdorman. Bu bog'ning katta harflar bilan yoziladigan nomini ham bilasiz: VATAN. Men bir kuychi sifatida jondan aziz shu bog'ning ko'rkli, tarovatli bo'lishiga ozroqqina foydam tegayotgan bo'lsa – o'zimni g'oyat saodatli deb bilaman”<sup>4</sup>, - deydi. Sirojiddin Sayyid “Yuz,oh Zahiriddin Muhammad Bobur... ” dostonida o'zga yurtida Vatan ishqida yurgan Bobur haqida to'lib to'lqinlanib yozadi.

Mirzo Bobur Vatandan yiroqlarda chekkan oh-nolalari, qalb qo'ri va yurak qoni bilan inja bir Vatan yaratdi. U “Boburnoma”edi. Mirzo Bobur “Boburnoma”ni Vatan tutdi. Bugun “Boburnoma” mutolaasi umumjahon miqyosiga chiqqan. Mirzo Bobur har bir “Boburnoma”o'quvchisining qalbida o'z Vatani bilan qolmoqlik saodatini butun hayoti va ijodi bilan kashf etdi va bu muqaddas g'oyani avlodlarga meros qoldirdi.

Uning eng suygan va sadoqatli mavzusi – bu Vatan. Ona yurt shoni – shavkati, hurriyati haqida so'ylaganda ichiga sig'may ketadi. To'lib - toshib she'r yozadi. “Vatan abadiy”, “Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni singari o'nlab majmualari, dostonlari, she'riy turkumlari

<sup>2</sup> Mustaqillik davri adabiyoti. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2006. – B.287.256-sahifa.

<sup>3</sup> Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: “O'AJBNT”Markazi, 2003. – B.361.69-sahifa.

<sup>4</sup>S.Sayyid. So'z yo'li.Tanlangan asarlar.Ikki jildlik.1-jild. – T.: Sharq, 2008. – B.384. 364-sahifa.





Sirojiddin Sayyid nomini ona yurt sarhadlaridan tashqariga olib chiqdi. She'r sehri, she'r mehri ko'ngillarni zabt eta borgani sayin sarhadlarini kengaytirar ekan.

"Bu arziyas bitiklarim ham o'z ko'nglim oldida, hayotim-u ko'rgan - kechirganlarim oldida ma'lum ma'noda o'zimning kamtarona sarhisobimdir. O'choqdagi o't boshqa-yu yurakdagi o't boshqa deganlaridek, yozganlarim balki mening yana bir urinishim, ko'ngilga tomon mening yana bir cho'g'lanishimdir. Yozilmagan katta she'rlarning parchalaridir balki, kunlarim, tunlarimning bo'laklaridir, bilmayman. Nima bo'lganda ham boshimdan ko'nglimdan kechirdim shularni". Ko'rinadiki, Sirojiddin Sayyid shoirlikni mehnat deb, qismat deb biladi. Non-tuz ichgan el-yurtning, kindik qoni tomgan tuprog'ining sha'nini yuksaltirish deb biladi.

Xalqimiz Sirojiddin Sayyid she'rlarini sevishlari, ardoqlab o'qishlari bejiz emas. Har gal "Vatan abadiy", "Andijon ko'rinadur", "Bolalik qaytmaydi", "Samarqand yodi", "Qismat taqozosi", "Qovun birla uzum hajri", "Men ko'ngil dunyosining dog'idaman", "Andijon ko'rinadir", "Vatanni o'rganish", "Vatan", "Vatan nadir", "Ilinj", "Vatan yodi", "Bag'ishlov" va boshqa o'nlab she'rlarini o'qiganda doimo yangi-yangi fikrlar uyg'onaveradi. Ajib sehri tuyg'ular girdobiga tushaveradi. Sirojiddin Sayyid she'rlarida hayotga sezgirlik, hayotiy hodisalarga qiziquvchanlik, odamlar taqdiriga mas'ullik hissi hukmron. Shoir jo'shqin hayotining dolzarb muammolari, qaynoq nafasi og'ushida yashab kelmoqda.

Vatan haqida yozmagan birorta ham shoir bo'lmasa kerak. Lekin Sirojiddin Sayyidning bu mavzudagi bitiklari, salafllari va zamondoshlari nazmini takrorlamaydi.

Shoirning badiiy talqini, ijtimoiy-estetik umumlashma fikrlari samarasida voqelikning ana shu mitti bo'lagi millat va Vatan taqdiriga daxldor mohiyati bilan namoyon bo'ladi.

Mana bu misralar ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Gar odamlar so'rasha mendan :

Bu dunyoda istaging nedur?

Ne istaysan, amal yo shuhrat,

Yo hisobsiz boylukmi, bildir.

Lol bo'lmasdan berurman javob:

Bular menga aslo kerakmas.

Yolg'iz istak qalbda hukmron.

Vatan mehri tark etmasa bas.<sup>5</sup>

Darhaqiqat, shoir satrlari tonggi shabbodalardek, dillarga o'y-xayollarni olib kiradi. Ko'nglimizda betakror obrazlari bilan muhrlanib qoladi. Gard, nasim, sas, barg, serfayz, so'zlari lirik qahramonning mehr-muhabbatini tiniqlashtirib, aniq va to'liq mag'izli ma'nodorlik hosil qilganini bildiradi.

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,

Kipriklarim o'psalar bas gardlaringdan.

Men bir nasim bo'lib keldim, men bir nasim,

Aytib o'tsam deyman ko'hna dardlaringdan.

Menga qadim minorlarda bir sas yetar, Shul sas mening ko'nglim axir serfayz etar.

Menga dunyo kerak emas, bir xas yetar,

Yassaviylar yotgan aziz yerlaringdan.<sup>6</sup>

Sirojiddin Sayyidning she'rlarini o'qigan odam bunga yana bir karra amin bo'ladi. Shoirning she'rlari uzoq yillar qalb

<sup>5</sup> S. Sayyid. Asarlar. II jild. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2018. – B.6.

<sup>6</sup> O'sha asar. – B.250.





vatan qal'asida to'plangan, ruh iqlimlarini  
makon etgan, ong va shuur zaminida ildiz  
otgan sog'inchlardan tarkib topadi.

Yomg'irlar yig'lashib sel bo'ldi, ona,  
Sog'inchlilar birlashib yil bo'ldi, ona,  
To'planib, to'planib barcha og'riqlar,  
Mening ko'kragimda dil bo'ldi, ona.

Sog'inch dilni o'rtaydi va dilning o'ziga  
aylanadi. Sog'inch – hamisha dilni  
o'rtaguvchi hissiyotdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur  
"Boburnoma" asarida shunday yozadi :

*" Ul viloyatlarning latofatlarini kishi  
nechun unutmay. Alalxusus mundaq toyib va  
torik bo'lg'onda qovun va uzumdek mashru'  
hazni kishi netavr xotirdan chiqarg'ay. Bu  
fursatta bir qovun keltirub edilar, kesib  
yeg'ach, g'arib ta'sir qildi. Tamom yig'lab  
edim."*

*(To'qqiz yuz o'ttiz  
beshinchi (1528) yil voqealari )<sup>7</sup>*

Sirojiddin Sayyid esa "Yuz oh,  
Zahiriddin Muhammad Bobur..." (Firoq va  
Sog'inch ) dostonida Vatanga bo'lgan  
sog'inchini quyidagicha ta'riflaydi:

Ey falak ,berding menga g'urbatlaru  
ozorlar,

Qolmish o'z yurtimda xushbuy rastayu  
bozorlar.

Dil qonim sog'inch aro bo'lmish  
uzumning qoniday,

Yig'layurman bir qovun hajrida men  
zor-zorlar.<sup>8</sup>

Bu to'rtlik orqali shoir Boburning  
Vatan ishqida yonib-kuyganini yorqin aks  
ettirgan. Qovun sog'inchi orqali o'z yurti  
ishqida o'rtanganini va taqdirida g'am-  
g'urbat borligini, undan ozor  
chekayotganini aytib, shu joyda o'z yurti  
bo'lmish Andijonning xushbo'y rastalarini,

bozorlarini bir ajib his bilan sog'inganini  
Sirojiddin Sayyid mohirlik bilan ta'riflaydi.

Dil qonim sog'inch aro bo'lmish  
uzumning qoniday,

Yig'layurman bir qovun hajrida men  
zor-zorlar.

Dil qoniga sog'inch qo'shilib, go'yoki  
uzumning qoniga o'xshatganini,  
qovun uchun emas, kindik qoni to'kilgan  
Vatanga bo'lgan sog'inch, muhabbat  
Boburga azob berayotganini yozadi.  
Sirojiddin Sayyid ijodi o'z tarovatiga  
egaligi bilan ajralib turadi. Vatan, yurt, Ona  
diyor haqida yozmagan shoir va yozuvchi  
bo'lmasa kerak. O'z tug'ilib o'sgan yurti  
haqida yozgan har bir qalam sohibi va  
sohibalari baxtlidir...

*"Samarqand shahri ajab orasta  
shahredur, bu shaharda bir xususiyati  
borkim, o'zga kam shaharda andoq bo'lga'y....  
Xo'b nonvoliqlari va oshpazliqlari bordur.  
Olamda yaxshi qog'az Samarqanddin chiqar.  
Juvozi qog'azlar suyi tamom Konigildin  
keladur. Konigil Siyohob yoqasidadurkim, bu  
qora suvni Obirahmat ham derlar.  
Samarqandning yana bir matoi qirmizi  
mahmaldurkim, atrof va javopibqa eltarlar  
".*

*(To'qqiz yuz  
uchinchi (1497—1498) yil voqialari)<sup>9</sup>*

Ey Samarqand, chiqmagay yoddan sira  
qo'rg'onlaring,

Ko'zlarim o'ngidan aslo ketmagaydir  
nonlaring.

Shoir she'rlariga nazar solsak, bir umr  
Samarqand va Andijon yodi bilan  
yashaganini, bu esa uning qalb daftaridagi  
bitiklarda namoyon bo'lganini guvohi  
bo'lamiz.

To'plamdagi har bir she'rgina emas, har  
bir baytda shoir bir yangi ta'sirchan fikriy

<sup>7</sup> Bobur. Boburnoma. –T.: Yulduzcha. 1990. –B.312

<sup>8</sup> O'sha asar. –B. 136.

<sup>9</sup> Bobur. Boburnoma. –T.: Yulduzcha. 1990. –B.42.





kashfiyot manzur etishga urinadi va bunga muvaffaq bo'ladi. "Andijon ko'rinadir" she'rining to'rt baytiga nazar tashlasak, Samarqandni olib, bag'ri qon bo'lib qamaldan chiqqani, ulug' orzusi katta bobosi Amir Temur shaxsi, umidsizlik fojiasi, kelgusidagi falokatlar tahlikasi sharpalari o'ta ta'sirchanlik bilan qalamdan quyilganiga amin bo'lamiz:

Andijon ko'rinadir, payvandi jon ko'rinadir,

Osmoni yerda, yeri osmon ko'rinadir.

Ot chopib yurganlarim yodimga tushsa har zamon,

Qirlarida lolalar bag'rimda qon kurinadir.

Ey Samarqand, alvido, osmonlaringni o'ylasam,

Har bulutdin menga bir sohibqiron ko'rinadir.

Bir xazon yaprogidek men bu diyordin ketmisham,

Ko'zima ikki jahon bargi xazon ko'rinadir.

Tog'laring ham boshima sermar chaqinlardin qilich,

Ey falak, niyatlaring asru yomon ko'rinadir.<sup>10</sup>

To'plamni o'qib turfa kayfiyatlar tuygan kitobxon yengil tortib, "Bobur yozishi kerak bo'lgan she'rlarni Sirojiddin Sayyid davom ettiribdi" deya qoniqadi. Zamondosh shoirimizning ushbu "Boburnoma" voqealariga o'ziga xos naziralarini bastakorning she'r bag'ishab, musiqa bastalaganiga ham o'xshatish mumkin. Chunki Sirojiddin Sayyid she'r bag'ishlagan u yoki bu voqeani "Boburnoma"dan o'qigan kitobxon unchalik ahamiyat bermasligi yoki unda bu

darajada kuchli taassurot qoldirmasligi mumkin edi.

Sirojiddin Sayyid Amir Temur bobomizning qurgan imoratlari ularning bizga qoldirgan tuzuklaridan ilhomlanib, quyidagi misralarni tazmin sifatida qo'llab, **"...Ul fursatlar Temuriya salotini dasturi bila to'shak ustida o'lturur edim".**

**(To'qqiz yuz biriichi (1495—1496) yil voqialari)** quyidagi "Temur tuzuklari" ini yozadi:

Bobomdan qolgan ey so'zlar, ayo so'zlar,

Menga darmonu quvvat ham davo so'zlar.

Bobom qurgan saroylar ichra sizlar ham

Buyuk bir qo'rg'onsiz dahr aro, so'zlar.

Mening sha'nu g'ururim ham sharafshonim,

Turar dunyo turar to bu bino, so'zlar.

Jahongirlik bila fathu zafarlardin

Dilimga siz beribdirsiz safo, so'zlar.

Ikki kaftin ochib turgandayin bobom,

Qolibdursiz menga misli duo, so'zlar.

Ushbu misralar ostida qancha sir-u sinoat va ma'naviy merosga, ota-bobolarimizga bo'lgan e'tirof yashiringanini anglashimiz mumkin.

Ulug'vor saltanat shundoq bino bo'lmas,

Ko'ribsiz qanchalar jabru jafu, so'zlar.

Og'irdir podshohlik birla baxt yo'li,

Bo'lingiz menga ham siz rahnamo, so'zlar.<sup>11</sup>

Temuriyzoda Boburning "Boburnoma" sida yuz xil mavzu va siyosiy-axloqiy masalalarga daxl etiladi. Shoir sidqidildan yozilgan, mehr va samimiyat bilan bitilgan o'z bag'ishlovlarida kitobxonni buyuk qadriyat sohiblari va milliy qadriyatlarimiz mohiyatini anglashga, shoh va

<sup>10</sup> Sayyid S. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur... - T.: O'zbekiston, 2011.-B.19.

<sup>11</sup> Sayyid S. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur... -T.: O'zbekiston, 2011.-B. 21.





sultonlarimizning millat tarixidagi buyuk shaxsiyatlarini kashf etishga urinadi.

*“Sayhun suyining shimoli tarafidagi qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar... Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi. Sayhun daryosi qo'rg'onining ostidin oqar... Qovuni yaxshi bo'lur. Bir nav' qovundirkim “Mir Temuriy” derlar, andoq, qovun ma'lum emaskim olamda bo'lg'ay”.*

*(Sakkiz yuz to'sson to'ssqizinchi (1494) yil votsialari)<sup>12</sup>*

Bobur “Boburnoma”da yozishicha “Mir Temur” qovunlari faqat o'z yurtida bo'lishi va bunday qovun olamda yo'q deb ta'riflaydi. Vatan tuprog'ida o'sgan “Mir Temuriy” qovunlarning hidlari, asal kabi husayni uzumlar, yurtining zahmatkash odamlarining sog'inchlaridir. Axsida joylashgan Sayxun daryosi qo'rgonning ostidan o'tar edi. Shu yerda yetilgan qovunlarni eslab, yurt taftini sog'inchini Sirojiddin Sayyid “Mir Temuriy qovunlar”ida quyidagicha ta'rifladi:

Men baxtimdan mudom yurdim ilgari,  
O'tdi yana ramazonu iydlari.

Dimog'imdan hargiz ketmadi nari  
Mir Temuriy qovunlarning hiddari.  
O'z bobomdan yodgor qolgan ziroat,  
Anglarmidi buni Hirot, Hindlari.

Bu ne sog'inch erur, ne sir-sinoat —  
Mir Temuriy qovunlarning hidlari?<sup>13</sup>

Shoir qalbi g'ururlarga to'lib, Bobur tilidan yurak tubidan otilib chiqayotgan bir sado bilan o'ta mohirona ta'riflaydi. Sirojiddin Sayyid Bobur haqida yozar ekan, shunday dahyo zotni qadrlamagan beqadr odamlardan nafratlanadi:

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,  
Muttahamlar dunyosida shoh Bobur.  
Andijonu Hindu – yetti iqlimda

Topilmadi Sizga bir dodxoh, Bobur.  
Ollohimning dargohlari keng,  
Lekin sig'dirmadi Sizni bu dargoh  
Bobur.

Kecha uzun, manzil olis, yo'l uzoq,  
Sizga faqat yolg'iz oy hamroh, Bobur.  
Nonko'r beklar, beoqibat mirzolar,  
Kimlar Sizga qazmadilar choh, Bobur!

14

She'rni ko'zdan kechirganimizda, unda shoirning kuyunchak qalbini ko'ramiz. Shunday buyuk zotni qadrlamagan kimsalarni ayovsiz fosh etadi, ularga nafratini oshkor izhor qiladi.

Sirojiddin Sayyid lirik qahramoni hayotining mazmunini, umrning mohiyatini, jamiyatdagi o'rnini Vatan koriga yarashdi, deb biladi.

Darhaqiqat, Bobur umri mobaynida shunchalik ko'p boylklarni qo'lga kiritdi-yu, ammo o'zini baxtli his qilmadi. Sabab shundaki, u baxt tushunchasini oliy darajada idrok etadi. O'zi hukmronlik qilgan mamlakatlarning boylklariga sira ko'z olaytirmadi. Aksincha, qaysi yurtga qadami tegsa, uni obod va ma'mur qilishga harakat qildi. Bobur tasavvuridagi baxt oliy maqomda turadi. Odamlarga yaxshilik qilishni, bunyodkorlikni, yaratuvchanlikni, ezgulikni baxt deb bildi. Zahiriddin Muhammad Boburning umri Vatan hajrida o'rtangan umrdir. Sirojiddin Sayyidning “Kobulda bahor” nomli she'rida Boburning iztiroblariga sheriklik hissi bo'rtib ko'rinadi:

Kobulda bahoru g'amim ortadi,  
Hasrat umrim aro cherik tortadi.  
Musofir savdolar meni o'rtadi,  
Bu gulshan ichra men bir tirik mozor,  
Kobulda bahordir, Kobulda bahor.<sup>15</sup>

<sup>12</sup> Bobur. Boburnoma. –T.: Yulduzcha. 1990. –B. 25.

<sup>13</sup> O'sha asar. –B. 147.

<sup>14</sup> Sayyid S. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur... –T.: O'zbekiston, 2011. –B. 33.

<sup>15</sup> O'sha asar. –B. 65.



Bobur keng dunyoqarashi, mukammal aql-zakovati, bilimi bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. O'zbek adabiyotida o'ziga xos boburshunoslik yuzaga keladi. Uning shaxsi va ijodi adabiyotshunos, tarixchi, tilshunos va boshqa soha kishilarining e'tiborini tortib keldi. Boburning adabiy merosi ko'p qirralidir. Uning she'rlari, "Boburnoma"si alohida o'rganiladi.

Umrini o'g'liga nisor etgan mehribon ota, g'urbatlardan zada ko'ngil sohibi,

buyuk musofir, buyuk mag'lubiyatlarga uchragan zot, buyuk g'alabalar nashidasini totgan masrur qalb egasidan buyuk armon kitobi meros qoldi.


Xulosa qilib aytganda, milliy qahramonlarimiz bo'lgan buyuk shaxslar hayotining serma'no hikmatlari jamiyatimizning kelajagi bo'lgan yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatib, ularni fikran va ruhan tarbiyalaydi, ma'naviy komillikka hozirlaydi, da'vat etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bobur.Boburnoma. -T.:Yulduzcha. 1990. -B.25.
2. S.Sayyid.Asarlar. II jild.Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati,2018.-B.6.
3. Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. - T.: 2011.
4. Mustaqillik davri adabiyoti. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2006. - B.287.256-sahifa.
5. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. - T.: "O'AJBNT"Markazi, 2003. - B.361.69-sahifa.
6. S.Sayyid. So'z yo'li.Tanlangan asarlar.Ikki jildlik.1-jild. - T.: Sharq, 2008. - B.384. 364-sahifa.
7. Vohidov E. Iztirob. Toshkent.: O'zbekiston, 1992.







## НЕКОТОРЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ РАЗРАБОТКИ ТЕХНОЛОГИИ ТАБЛЕТОК ИЗ СУХОГО ЭКСТРАКТА

Аъзамова Гулрух Азимжон қизи

Ташкентский фармацевтический институт

azamovagulrux@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034952>

### ИСТОРИЯ СТАТЬИ

Принято: 15-декабрь 2021

Утверждено: 15-январь 2022

Опубликовано: 5-февраль 2022

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

сухой экстракт, прямое прессование, влажное прессование, качество, технологические свойства.

### АННОТАЦИЯ

*Разработка новых лекарственных средств является одной из главных проблем современной медицины. В этом отношении определенный интерес представляет создание комплексных препаратов. Их применение дает возможность расширить диапазон фармакотерапевтического действия, усилить определенные стороны лечебного эффекта, снизить нежелательные токсические проявления. В данном сообщении приводятся результаты исследования в области разработки технологии таблеток из сухого экстракта. Изучено влияние технологического процесса таблетирования на качество рекомендуемых таблеток. Изучены технологические свойства полученных таблеточных масс и готового продукта.*

**Актуальность.** Лекарственное растение содержит в себе одно или несколько веществ, способных при наличии известных условий проявлять в организме человека и животного те или иные целебные свойства. В сравнении с синтетическими препаратами лекарственные растения как известно, менее токсичны. Поэтому в современной фармации создать лекарственный препарат на основе лекарственных растений является актуальной задачей. Известно, что растительное сырье служит источником получения свыше трети всех лекарственных средств (1). Люди с почечной недостаточности входят в группу риска по состоянию здоровья. В этих условиях поиск и разработка новых мочегонных средств на основе лекарственных растений

приобретает особую актуальность. В последнее время во всем мире значительно повысился лекарственным растениям. Они не воспринимаются как чужеродные и, в отличие от синтетических препаратов, не отторгаются защитными системами организма. Среди растительных препаратов широкое распространение в лечебной практике находят такие лекарственные растения, как тысячелистник обыкновенный, солодка и зизифера лекарственный. Калийсберегающие диуретики оказывают незначительное воздействие на уровень натрия и жидкости в организме, а также на кровяное давление как таковое. Они не имеют самостоятельного значения в лечении гипертонии, но часто используются в



сочетании с другими мочегонными препаратами, чтобы усилить их действие и избежать чрезмерной потери калия организмом пациента. В настоящее время разработка новых, удобных в применении, стабильных лекарственных препаратов из местных лекарственных растений является одной из главных проблем современной фармации (2,4).

Учитывая свойства препаратов растительного происхождения, на кафедре фармакогнозии при Ташкентском фармацевтическом институте проводились научно-исследовательские работы по созданию сбора «Сухой экстракт». Этот сбор состоит из равных частей: Укроп аптечный - *Foeniculum officinalias*, Календула лекарственная - *Calendula officinalis*, Хвощ полевой - *Equisetum arvense*, Руян - *Rubia*, Тысячелистник обыкновенный - *Achillea filipendulin*. В связи с выше изложенным, стал актуальным вопрос о создании удобной в применении, стандартизированной таблетированной лекарственной формы из сухого экстракта отличающейся достаточной биологической доступностью и стабильностью при хранении.

Учитывая вышеизложенное, целью научных исследований явилась изучение фармако-технологических аспектов разработки технологии отдельных отечественных диуретических лекарственных средств и препаратов и внедрение в отечественное производство разрабатываемых лекарственных форм.

**Материалы и методы:** В качестве объектов исследования использовали сухой экстракт полученный нами рекомендуемым технологии. Сухой

экстракт представляет собой сухой гигроскопичные, мелкодисперсные порошки от красного до темно-бурого цвета со специфическим запахом. Анализ технологических характеристик сухого экстракта и вспомогательных веществ проводили на приборах фирмы «Erweka» (Германия), размер частиц оценивали методом микроскопии с использованием программы видео тест. Для разработки таблеток нами были апробированы составы с различными композициями вспомогательных веществ и их соотношениями. Основными требованиями, предъявляемыми к данной группе вспомогательных веществ, это: стабильность при хранении, хорошая прессуемость, способность быстро и полностью высвободить действующее вещество и образовывать прочные таблетки. Анализ таблеток осуществляли по действующей нормативной документации.

**Результаты:** Исходя из технологических свойств сухого экстракта первоначально мы изучали возможность получения таблеток методом прямого прессования, который, как известно, имеет ряд преимуществ. Анализ полученных технологических параметров сухого экстракта показал необходимость добавки вспомогательных веществ, улучшающих сыпучесть. Были использованы различные вспомогательные вещества, рекомендуемые ГФ XI как индивидуально, так и в сочетаниях: глюкоза, лактоза, крахмал картофельный, микрокристаллическая целлюлоза, кальция карбонат, магния оксид, кальция стеарат. Прямое прессование позволяет исключить 3-4 технологические операции и, таким



образом имеет преимущество перед таблетированием с предварительным гранулированием порошков. Однако, несмотря на кажущиеся преимущества, прямое прессование данной субстанции не дает требуемого качества готового продукта. Это объясняется тем, что для производительной работы таблеточных машин прессуемый материал должен обладать оптимальными технологическими характеристиками (сыпучестью, прессуемостью, влажностью и др.) (3,5).

Таковыми характеристиками не обладает нами полученный сухой

экстракт. Исследованные составы представлены в табл.1.

Сущность этого метода заключается в том, что необходимое количество сухого экстракта смешивается с вспомогательными веществами до однородной массы. В эту массу в последнем очередь добавляют кальция стеарата при постоянном перемешивании. Полученный таким образом таблеточной массы прессуют в ручном гидрокпрессе в диапазоне давлений от 100 - 180 МПа. Таблетки, полученные прямым прессованием, не соответствовали требованиям ГФ XI.

Таблица 1

**Составы для приготовления таблеток из сухого экстракта методом прямого прессования**

Ингредиенты	Количество ингредиентов, г				
	Серии				
	I	II	III	IV	V
Сухой экстракт					
Сахароза	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3
Лактоза					
МКЦ		0,0975			0,08
Кальций карбонат	0,095		0,08	0,0975	
карбонат					0,095
Крахмал картофельный	0,01	0,0975	0,095	0,0975	
Кальция стеарат			0,020		0,020
	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005
Средняя масса	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5

В последующих исследованиях изучали технологические свойства полученных таблеточных масс сухого экстракта, приготовленных для прямого прессования. В табл.2 приведены результаты изучения технологических свойств выше указанных исследованиях.

Из данных таблицы следует, что введение вспомогательных веществ приводит к изменению фракционного состава и соответственно других

технологических показателей. Прессуемость в смеси понизилось от 80 до 41. Полученные данные свидетельствуют об уменьшении степени гигроскопичности от 10,42 до 5,71 и адгезионных свойств порошков. Эти положительные показатели. Отмеченные некоторые различия по коэффициентам уплотнения, насыпной плотности прессуемых масс 95, 32-100, 12% объясняется близкой насыпной





плотностью использованных Таблица  
вспомогательных веществ.

2

**Результаты изучения технологических свойств прессуемой массы  
приготовленных для прямого прессования (n=5)**

Изучаемые показатели	Значения показателя				
	I	II	III	IV	V
Фракционный состав, мкм, %:					
+2000	15,19	11,10	9,10	12,52	14,05
-2000+1000	22,50	24,05	23,06	21,43	31,34
-1000+500	37,19	39,23	36,85	36,45	27,67
-500+250	19,87	21,57	25,32	24,71	21,79
-250	5,25	3,60	5,67	4,89	5,20
Сыпучесть, 10 <sup>-3</sup> кг/с	2,55	2,42	3,45	4,34	2,67
Угол естественного откоса, градус	35,56	40,16	37,96	34,11	39,78
Насыпная плотность, кг/м <sup>3</sup>	721,34	754,32	767,04	744,34	765,81
Прессуемость, Н	32,56	37,45	41,23	39,11	40,77
Коэффициент уплотняемости	1,99	1,54	1,78	1,80	1,65
Остаточная влажность	4,98	5,71	4,81	5,07	4,89

В табл.3 приведены результаты изучения качественных показателей таблеток из сухого, полученных методом прямого прессования.

Как видно из представленных в табл.3, таблетки из сухого экстракта полученные по пяти сериям методом прямого прессования, удовлетворяют требованию по внешнему виду,

отношению высоты таблеток к диаметру, по количественному содержанию действующего вещества, растворимости. Но, по другим показателям не отвечают требованию предъявляемым к таблетированным лекарственным формам.

Таблица 3

**Результаты изучения качественных показателей таблеток сухой экстракт  
методом прямого прессования**

Исследуемые Свойства	Показатели				
	Серии				
	I	II	III	IV	V



Внешний вид	Таблетки коричневог о цвета, с вкрапления ми	-//-	-//-	-//-	-//-
Отношение высоты таблеток к диаметру, %	40	37	35	40	39
Средняя масса и отклонение от средней массы, %	0,501±3,39	0,511±5,12	0,490±5,56	0,501±6,33	0,502±3,67
Прочность на излом, Н	25	26	35	30	25
Прочность на истирание, %	85,33	87,45	80,78	85,45	84,20
Распадаемость, мин	16	14	15	12	17
Количественное содержание действующего вещества, %	98,94	97,95	99,90	98,92	98,78
Растворимость, %	97,5	90,4	97,8	96,1	97,7

В связи с вышеизложенным в дальнейшем исследованиях нами проводились исследования по разработке технологии таблеток сухой экстракт методом влажного гранулирования.

Необходимое количество связывающих веществ устанавливали опытным путем для каждой таблетуемой массы. Для этого, чтобы порошок вообще гранулировался, он должен быть увлажнен до определенной степени. О достаточности увлажнения судили так: небольшое количество массы (0,5-1г) сжимали между большим и указательным пальцем; образовавшаяся «лепешка» не должна прилипать к пальцам (чрезмерное увлажнение) и рассыпаться при падении с высоты 15 - 20см (недостаточное увлажнение).

Для приготовления таблеточной массы были приготовлены 7 серий прессуемых масс из сухого экстракта по прописям, представленным в табл.4. В исследованиях выбраны вспомогательные вещества, отличающиеся между собой как по виду, так и по количеству использованных вспомогательных веществ. Учитывая физико-химические и технологические свойства сухого экстракта, при разработке состава и технологии изучена возможность использования таких наполнителей, как лактоза, сахароза, крахмал, производные целлюлозы МКЦ, ГМПЦ, кальция карбонат. В качестве разрыхлителей использовали картофельный крахмал, а в качестве антифрикционного вещества-кальция стеарат.

Предварительный отбор наполнителей проводили также на





основании их способности снижать поглощение влаги веществом.

Были приготовлены экспериментальные образцы таблеток из сухого экстракта с добавлением в различных соотношениях и сочетаниях вспомогательных веществ. В табл. 4. приведены составы семи прописей таблеток, которые отличаются между собой как по виду, так и по количеству использованных вспомогательных веществ. Выбор этих количественных наполнителей проводился на основании предыдущих экспериментов.

Сущность влажного гранулирования заключается в следующем: необходимое количество активного вещества и наполнитель смешиваются до получения однородной массы. Полученная однородная масса увлажняется соответствующим количеством увлажняющей жидкости, и влажная масса высушивается в калориферных сушильных шкафах при температуре 40-50°C. Время сушки определяется экспериментальным путем до оптимальной остаточной влажности. Затем масса гранулируется и опудривается смесью из крахмала и

кальция стеарата. Для увлажнения применяли воду очищенную, сахарный сироп, этиловый спирт различной концентрации - 30, 40, 50, 70%, 90% и 2-10% растворы крахмала.

В последующих экспериментах увлажнение производили крахмальным клейстером различной концентрации. По результатам исследования выявлено, что низкие концентрации крахмала удлиняют время распада мост таблеток, и также высокие концентрации крахмального клейстера влияют на уменьшение прочности.

При использовании воды и сахарного сиропа образовались комки, которые ухудшали качества готового продукта. Этиловый спирт разной концентрации тоже не дали желаемого эффекта. Поэтому, после проведенных многочисленных экспериментов увлажнение осуществляли 70% этиловым спиртом, так как он обеспечивал хорошее гранулирование таблеточной массы. При увлажнении массы спиртом гранула после сушки получался крепким, полученные таблетки имели качественный внешний вид.

Таблица 4

**Исследуемые составы для получения таблеток приготовленных методом влажного гранулирования**

Ингредиенты	Номер прописи и количество ингредиентов, г						
	1	2	3	4	5	6	7
Сухой экстракт	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	<b>0,3</b>
Лактоза	0,095				0,020		
Сахароза		0,0975					
Крахмал картофельный	0,100	0,0975	0,020	0,1000	0,080	0,090	<b>0,095</b>
МКЦ			0,080		0,095	0,150	<b>0,100</b>
ГМПЦ				0,0975			
Кальция карбонат			0,095				





Кальция стеарат	0,005	0,0050	0,005	0,0050	0,005	0,005	<b>0,005</b>
Средняя масса	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	<b>0,5</b>

Изучая свойства полученных таблеток по семи прописям убедились, что приготовленные таблетки по 7 составу отвечали всем требованиям представленным по ГФ Х1. Показатели распадаемости таблеток по 1 и 5 составу, не отвечали требованиям ГФ Х1. Таблетки полученные по 2 и 3 составу имели время распадаемости около 15 минут. Поэтому эти составы нами не выбраны на следующие эксперименты. Наилучшие показатели по требованию дали таблетки полученные по 7 составу.

Дальнейшее исследование проводилось с таблетками полученных по 7 составу. Таким образом, при подборе состава таблеток было изучено влияние вспомогательных веществ на качество готового продукта.

Изучены технологические свойства прессуемой массы по 7 составу, и полученные результаты приведены в таблице 5.

В качестве технологических показателей прессуемой массы были изучены фракционный состав, насыпная плотность, сыпучесть, угол естественного откоса, пористость, коэффициент уплотняемости, коэффициент прессуемости и

остаточная влажность. Определение вышеуказанных параметров проводили согласно методикам ГФ Х1 и соответствующей НТД. Использованные вспомогательные вещества улучшали некоторые технологические свойства субстанции - сыпучесть, насыпную плотность.

Также, по данным таблицы 5, можно отметить, что сыпучесть сухого экстракта в гранулах увеличивалась, вдвое возросла насыпная масса. Результаты гранулирования указывают на значительное укрупнение размеров частиц, где основная часть массы соответствует фракции -1000+500 мкм. Такие технологические показатели, как насыпная плотность ( $625 \text{ кг/м}^3$ ), сыпучесть ( $6,5 \cdot 10^{-3} \text{ кг/с}$ ), угол естественного откоса (30 градус), коэффициенты прессуемости (1,23), уплотняемости (2,5) и др. имели более позитивные значения у прессуемой массы, чем у экстракта, что свидетельствует о правильном подборе вспомогательных веществ и хода технологического процесса. Оптимальной является остаточная влажность в пределах 3,22 - 3,5 %.

Таблица 5

**Результаты изучения технологических свойств прессуемой массы**

Исследуемые показатели	Единица измерения	Значения показателя
Внешний вид		Однородные гранулы кремового цвета, сладкого вкуса, без запаха
Фракционный состав: +2000	мкм, %	10,14



-2000+1000		27,55
-1000+500		37,19
-500+250		17,87
-250		7,25
Сыпучесть	$10^{-3}$ кг/с	6,5
Угол естественного откоса	градус	30
Насыпная плотность	кг/м <sup>3</sup>	625
Прессуемость	Н	40
Коэффициент прессуемости		1,23
Коэффициент уплотняемости		2,5
Остаточная влажность	%	3,2
Пористость	%	52

гликопротеинларни хусусан ўсимлик лектинларини фарқлашда қўлланилади. Гликопротеинлар-лектинлар умумий хусусияти ега бўлмаган иммун келиб чиқиши оқсилларнинг бир гуруҳ эканлигини таъкидлаш лозим. Лектинлар бактериал ҳужайралар ва вирусли оқсил юзаси билан боғланиш учун махсус ретсепторларга эга бўлган юқори молекуляр моддалар ҳисобланади. Бундан ташқари, баъзи лектинлар антивирал препаратлар сифатида ишлатилади ва антибактериал таъсирга ега ҳамда ўсимта ҳужайра линиялари пролеферациясини кўпроқ бостиради. Енг аниқ ситотоксик таъсири саратон ўсимта ҳужайралари нисбатан намоён бўлади. Бундан ташқари лектин моддасидан қон гуруҳлари белгилашда, турли касалликларни ташхис қўйиш ва даволашда фойдаланиш мумкин. Шу билан бирга лектиннинг цитотоксик фаоллиги юқори бўлганлиги сабабли,

саратон касалликларини даволашда ишлатилади ва онкомаркер сифатида қўлланилади. [2]

**Тадқиқотнинг мақсади:**

Нўхатдан лектин моддасини ажратиб олиш ва унинг баъзи хусусиятларини ўрганиш.

**Тадқиқотнинг объекти:** Нўхат ва ундан ажратиб олинган лектин моддаси.

**Амалий қисми:**

Нўхатдан лектинни ажратиш учун 250 грамм миқдорида нўхат тарозида ўлчаб олинди ҳамда сараланади ва аввал механик тарзда ҳовончада, сўнг гомогенизаторда майдаланди ҳамда сокслет аппарати ёрдамида ёғсизлантирилди. [3] Олинган намуна қуритилиб, 100 г миқдорида ўлчаб олинди ва 400 мл PBS(Phosphate-Buffered Saline) да 1 сутка давомида 4° С да совитгичда экстракция қилинди. [4]

1-жадвал PBS(Phosphate-Buffered Saline)

Туз	Концентрация (mmol/L)	Концентрация (g/L)
<a href="#">NaCl</a>	137	8.0
<a href="#">KCl</a>	2.7	0.2
<a href="#">Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub></a>	10	1.42
<a href="#">KH<sub>2</sub>PO<sub>4</sub></a>	1.8	0.24

ёрдамида 1 сутка давомида 4° С да совитгичда чўктирилди. Сўнгра 7000

Бир суткадан сўнг экстракт 7000 айланма/минут тезликда 20 минут давомида қайта центрифугаланиб, супернатант ажратиб олинди. Олинган супернатант дастлаб 30 % ли аммоний сульфат ёрдамида 1 сутка давомида 4° С да совитгичда чўктирилди. Сўнгра, 7000 айланма/минут тезликда 20 минут давомида центрифуга қилиниб, чўкма ажратиб олинди ҳамда супернатант қисми 90 % ли аммоний сульфат

айланма/минут тезликда 20 минут давомида центрифуга қилиниб, чўкма ажратиб олинди. Центрифугадан сўнг





ажратиб олинган чўкма 2 сутка давомида дистилланган сувда диализ қоплари ёрдамида тузсизлантирилди. Олинган намуналар суюқ азот ёрдамида музлатилиб, лиофил қуритгичда қуритиб олинди.[8,9]

Қуритиб олинган намунамизнинг биологик фаоллигини аниқлаш учун сифат тақлили гемаглютинация реакцияси амалга оширилди. Бунинг учун дастлаб 2мл эритроцит суспензияси олинади ва уни суултириш учун 5мл рингер

эритмасидан солинади.[5]Бу ўринда шуни қайт этиш лозимки лектиннинг биологик фаоллигини аниқлашда эритроцитни қандай манбадан олиш муҳим рол ўйнайди. Тадқиқотимиз учун биз инсон,сичқон ва каламуш қони эритроцитларидан фойдаландик.Эритроцит суспензиясини тайёрлаш учун дастлаб 2мл қон (инсон,каламуш,сичқон) олинади ва уни суултириш учун 5мл рингер эритмасидан солинади.

2-жадвал Рингер эритмасини тайёрлаш.

Рингер эритмаси	MW	mM/1l	mM/2 00ml	g/1litr	g/500 ml		MW	M	g/1l	g/200 ml
NaCl	58,4	135	27	7.884	3.942					
KCl	74.5	5	1	0.3725	0.1863					
MgCl <sub>2</sub> *6H <sub>2</sub> O	203.3	1	0.2	0.2033	0.1017	Таёрлаш 1M	203.3	1	203	40.66
CaCl <sub>2</sub> *6H <sub>2</sub> O	219	2	0.4	0.438	0.219	Таёрлаш 1M	219	1	219	43.8
HEPES	238.3	10	2	2.3831	1,1916					
1										
Глюкоза	180,2	5	1	0,901	0,4505					
pH7.4 довести NaOH										

Қонни плазмаси, шакли элементларидан ажратиш учун 10 минут 3000 айланишда центрифугага кўямиз, бу жараёни 3 марта қайтарамиз ҳар бир босқичдан сўнг пробиркадаги плазмани олиб ташлаймиз ва қайтадан рингер еритмаси билан суултираамиз. Сўнгра 10мкл қонга 990мкл рингер еритмасидан солиб қонни суултириб оламиз мақсад эритроцитларни алоҳида-алоҳида ҳолда кўриш. Суютириб олинган қондан 1мкл буюм ойначасига соламиз ва микроскопда

кузатамиз сўнг буюм ойначасидаги қоннинг устига 1мкл текшираётган моддамиздан томиздик ва микраскопда кузатдик сўнг унинг устига трипсин ферментимиздан томизамиз ва микроскопда жараёни кетишини кузатамиз ва натижаларини қуйидаги жадвалларга жойлаштирамиз. Бунда лектин эритроцит хужайраси мембрана қаватида жойлашган рецепторларга специфик мумкин эканлиги адабиётлардан маълум.Ушбу мақсадда биз турли хил эритроцит суспензияларидан





фойдаландик. Тадқиқотимиздан шу нарса маълум бўлдики эритроцитларга трипсин билан ишлов берилгандан сўнг лектиннинг эритроцитларда юқори гемаглютинация даражаси маълум бўлди. Бу ўринда шуни қайд этиш лозимки, адабиётлардан маълумки эритроцитлар мембранасида сиалопротеидлар мавжуд бўлиб, ушбу моддалар гликопротеидларни эритроцит мембранаси билан ўзаро боғлаб гемаглютинация жараёнини амалга оширишда халақит беради. Шу

сабабли биз тадқиқотимизда инсон қони эритроцитларига трипсин ферменти билан ишлов берилди ушбу жараёнда трипсин ферменти эритроцит мембранасидаги сианопротеидларни гидролизлаб хужайра мембранасини лектин билан ўзаро таъсирланишига имкон яратади. Бунинг натижасида гемаглютинация даражаси юқори даражада бўлганлигини қуйида келтирилган жадвалларда кузатишимиз мумкин. [ 6,7]

**3-жадвал 90%ли тузда чўктирилган лектин фаоллигини текшириш.**

N	Лектин миқдори мл	Гемаглютинатцияга кетган вақт мин	Гемаглютинатция даражаси	Трипсин миқдори мг	Гемаглютинатция даражаси
1	1,0	15	паст	1,0	ўртача
2	1.5	15	паст	1.5	ўртача
3	2,0	15	ўртача	2,0	юқори

**4-жадвал 90%ли тузда чўктирилган лектин фаоллигини текширишда трипсиннинг миқдорини ўзгаришига асосланган жадвал.**

N	Трипсин миқдори мг	Лектин миқдори мг	Гемаглютинатсия даражаси
1	1	1	Паст
2	2	1	ўртача
3	3	1	ўртача
4	4	1	Юқори
5	5	1	Юқори

**4-жадвал 90%ли тузда чўктирилган лектин фаоллигини текширишда лекиннинг миқдорини ўзгаришига асосланган жадвал**

N	Трипсин миқдори мг	Лектин миқдори мг	Гемаглютинатсия даражаси
1	10	1	Паст
2	10	1.5	Паст
3	10	2	ўртача
4	10	2.5	ўртача
5	10	3	ўртача

**5-жадвал 90%ли тузда чўктирилган лектин фаоллигини текширишда лекиннинг миқдори ҳамда вақтнинг ўзгаришига асосланган жадвал**






N	Трипсин миқдори мг	Лектин миқдори мг	Вақт дақиқа	Гемаглютинатсия даражаси
1	2	2	10	паст
2	2	2.5	15	паст
3	2	3	20	ўртача
4	2	3.5	30	юқори

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. В.В.Игнатов Углеводсвязывающие белки — лектины. Соросовский образовательный журнал 1997, № 2, С. 14–15
2. М.В.Лахтин, В.М.Лахтин, С.С.Афанасьев, Л.В.Пожалостина, Н.А.Кахановская, В.Ф.Карсун Лечебный и пробиотический потенциал лектинсодержащих фитопрепаратов. Практическая фитотерапия. Москва, 2009. 5-12С.
3. Методы контроля. Химические факторы. Руководство по методам контроля качества и безопасности биологически активных добавок к пище. Руководство Р 4.1.1672-03. М.: Федеральный центр госсанэпиднадзора Минздрава России, 2004.
4. Rekha Marndi Isolation and Characterization of Concanavalin A from the seeds of Canavalia ensiformis. A Thesis submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the degree of Master of Science In Life Science Submitted To National institute of technology, rourkela. India 2012. P. 1-44.
5. Галиханова Ульяна Александровна “Молекулярно-Биохимические Механизмы Действия Дитерпеновых Гликозидов На Рост И Устойчивость Растений” Федеральное Государственное Автономное Образовательное Учреждение Высшего Образования «Казанский (Приволжский) Федеральный Университет» Уфа 2020
6. Сытников, Д.М. Лектиновая активность различных органов сои в условиях эффективного и неэффективного симбиоза / Д. М. Сытников, С.Я. Коць, С. М. Маличенко // Физиология и биохимия культ. растений. – 2006.– Т. 38. – С. 53–60.
7. Сытников, Д.М. Лектиновая активность различных органов сои в условиях эффективного и неэффективного симбиоза / Д. М. Сытников, С.Я. Коць, С. М. Маличенко // Физиология и биохимия культ. растений. – 2006.– Т. 38. – С. 53–60.
8. Сытников, Д.М. Участие лектинов в физиологических процессах растений / Д.М. Сытников, С.Я. Коць // Физиология и биохимия культурных растений. – 2009. – Т. 41. – С. 279-296.
9. Тимофеева, О.А. Активность и состав лектинов клеточной стенки пшеницы при действии низких температур и ингибиторов кальциевой сигнальной системы / О.А. Тимофеева, Ю.Ю. Невмержицкая, М.А.





## НҲАТДАН ЛЕКТИН МОДДАСИНИ АЖРАТИБ ОЛИШ ВА УНИНГ БАЪЗИ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ

Турсунова Солиха Зафар қизи

Тошкент Фармацевтика институти

магистратура талабаси

[solikhazamonova@gmail.com](mailto:solikhazamonova@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035140>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

гликобиология,  
гликопротеинлар, лектин  
, PBS (Phosphate-Buffered  
Saline), Аммоний сульфат,  
Рингер эритмаси,  
гемаглютинация  
реакцияси, трипсин  
ферменти, эритроцит  
суспензияси.

### ANNOTATSIYA

Лектин бугунги кунда гликобиология соҳасида тез суратлар билан ривожланмоқда. Бунга сабаб, лектин иммунологик хусусиятга эга бўлмаган бироқ ўзига хос углеводлар билан боғлана олиш хусусиятига эга бўлган моддалар мураккаб оқсиллар синфига мансуб бўлиб, ушбу моддага турли ўсимликлар, жумладан дукакли ўсимликлар жуда бойдир. Ўсимликлар таркибидаги гликопротеидларнинг ўзига хос бўлган бундай хусусияти унинг турли соҳаларда жумладан тиббиётда, диагностикада, биотиббиётда ва шу билан бирга биотехнология соҳаларида қўллаш имконини яратди. Ўсимликлардан ажратиб олинган гликопротеидлар бугунги кунда бир қатор олимлар томонидан ўрганилган ва ўрганилмоқда. Сабаби, ўсимликлардаги гликопротеидлар яъни лектин деб номланувчи моддалар юқори спецификликка эга бўлиб, қандли моддалар қолдиқларига боғланади ва шу билан бирга хужайра усти углеводлари ва оқсиллари ва вирус гликопротеидлари ва гликолипидлари билан боғлана олади.

Лектинларнинг яна бир ўзига хос хусусиятларидан бири қондаги эритроцитлар билан боғланиш хусусиятидир ва шу билан бирга улар гемагглютинация реакциясини амалга оширади. Лектинларнинг ушбу функцияси уларнинг фаоллигини аниқлаш имконини беради.

Шу сабабли, турли манбалардан олинган лектинлар юқумли касалликлар диагностикасида, қон гуруҳини аниқлашда, қондаги баъзи бир кераксиз қолдиқларни чиқариб ташлашда кенг қўлланилмоқда

**Ишнинг долзарблиги**

Сўнгги ўн йилликда гликобиология соҳасига бўлган эътибор кучайиб ушбу соҳада бир қатор илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Бунга асосий сабаб бугунги кунда ўсимлик гликопротеинларининг ноёб хусусиятга эга эканлигидир. Гликопротеинлар кимёвий модификацияга олиб келмасдан маълум карбонгидрат тузилмаларини юқори даражада ўзига хос тарзда таний оладиган ва қайта тиклаши мумкин бўлган оқсилларнинг махсус гуруҳидир. [1] Бу ноёб биологик хусусият турли тиббий ва биологик муаммоларни ҳал қилишда, ферментлар ва бошқа оқсиллардан





гликопротеинларни хусусан ўсимлик лектинларини фарқлашда қўлланилади. Гликопротеинлар-лектинлар умумий хусусияти ега бўлмаган иммун келиб чиқиши оқсилларнинг бир гуруҳ эканлигини таъкидлаш лозим. Лектинлар бактериал ҳужайралар ва вирусли оқсил юзаси билан боғланиш учун махсус ретсепторларга эга бўлган юқори молекуляр моддалар ҳисобланади. Бундан ташқари, баъзи лектинлар антивирал препаратлар сифатида ишлатилади ва антибактериал таъсирга ега ҳамда ўсимта ҳужайра линиялари пролеферациясини кўпроқ бостиради. Енг аниқ ситотоксик таъсири саратон ўсимта ҳужайралари нисбатан намоён бўлади. Бундан ташқари лектин моддасидан қон гуруҳлари белгилашда, турли касалликларни ташхис қўйиш ва даволашда фойдаланиш мумкин. Шу билан бирга лектиннинг цитотоксик фаоллиги юқори бўлганлиги сабабли,

саратон касалликларини даволашда ишлатилади ва онкомаркер сифатида қўлланилади. [2]

**Тадқиқотнинг мақсади:**

Нўхатдан лектин моддасини ажратиб олиш ва унинг баъзи хусусиятларини ўрганиш.

**Тадқиқотнинг объекти:** Нўхат ва ундан ажратиб олинган лектин моддаси.

**Амалий қисми:**

Нўхатдан лектинни ажратиш учун 250 грамм миқдорида нўхат тарозида ўлчаб олинди ҳамда сараланади ва аввал механик тарзда ҳовончада, сўнг гомогенизаторда майдаланди ҳамда сокслет аппарати ёрдамида ёғсизлантирилди. [3] Олинган намуна қуритилиб, 100 г миқдорида ўлчаб олинди ва 400 мл PBS(Phosphate-Buffered Saline) да 1 сутка давомида 4° С да совитгичда экстракция қилинди. [4]

Туз	Концентрация (mmol/L)	Концентрация (g/L)
<a href="#">NaCl</a>	137	8.0
<a href="#">KCl</a>	2.7	0.2
<a href="#">Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub></a>	10	1.42
<a href="#">KH<sub>2</sub>PO<sub>4</sub></a>	1.8	0.24

1-жадвал PBS(Phosphate-Buffered Saline)

Бир суткадан сўнг экстракт 7000 айланма/минут тезликда 20 минут давомида қайта центрифугаланиб, супернатант ажратиб олинди. Олинган супернатант дастлаб 30 % ли аммоний сульфат ёрдамида 1 сутка давомида 4° С да совитгичда чўктирилди. Сўнгра, 7000 айланма/минут тезликда 20 минут давомида центрифуга қилиниб, чўкма ажратиб олинди ҳамда супернатант қисми 90 % ли аммоний сульфат

ёрдамида 1 сутка давомида 4° С да совитгичда чўктирилди. Сўнгра 7000 айланма/минут тезликда 20 минут давомида центрифуга қилиниб, чўкма ажратиб олинди. Центрифугадан сўнг ажратиб олинган чўкма 2 сутка давомида дистилланган сувда диализ қоплари ёрдамида тузсизлантирилди. Олинган намуналар суюқ азот ёрдамида музлатилиб, лиофил қуритгичда қуритиб олинди. [8,9]





Қуритиб олинган намунамизнинг биологик фаоллигини аниқлаш учун сифат тақлили гемаглютинация реакцияси амалга оширилди. Бунинг учун дастлаб 2мл эритроцит суспензияси олинади ва уни суултириш учун 5мл рингер эритмасидан солинади.[5]Бу ўринда шуни қайт этиш лозимки лектиннинг биологик фаоллигини аниқлашда

эритроцитни қандай манбадан олиш муҳим рол ўйнайди. Тадқиқотимиз учун биз инсон,сичқон ва каламуш қони эритроцитларидан фойдаландик.Эритроцит суспензиясини тайёрлаш учун дастлаб 2мл қон (инсон,каламуш,сичқон) олинади ва уни суултириш учун 5мл рингер эритмасидан солинади.

2-жадвал Рингер эритмасини тайёрлаш.

Рингер эритмаси	MW	mM/1l	mM/2 00ml	g/1litr	g/500 ml		MW	M	g/1l	g/200 ml
NaCl	58,4	135	27	7.884	3.942					
KCl	74.5	5	1	0.3725	0.1863					
MgCl <sub>2</sub> *6H <sub>2</sub> O	203.3	1	0.2	0.2033	0.1017	Таёрлаш 1M	203.3	1	203	40.66
CaCl <sub>2</sub> *6H <sub>2</sub> O	219	2	0.4	0.438	0.219	Таёрлаш 1M	219	1	219	43.8
HEPES 1	238.3	10	2	2.3831	1,1916					
Глюкоза	180,2	5	1	0,901	0,4505					
pH7.4 довести NaOH										

Қонни плазмаси, шакли элементларидан ажратиш учун 10 минут 3000 айланишда центрифугага қўямиз, бу жараёни 3 марта қайтарамиз ҳар бир босқичдан сўнг пробиркадаги плазмани олиб ташлаймиз ва қайтадан рингер еритмаси билан суултирамиз. Сўнгра 10мкл қонга 990мкл рингер еритмасидан солиб қонни суултириб оламиз мақсад эритроцитларни алоҳида-алоҳида ҳолда кўриш. Суутириб олинган қондан 1мкл буюм ойначасига соламиз ва микроскопда кузатамиз сўнг буюм ойначасидаги қоннинг устига 1мкл текшираётган моддамиздан томиздик ва микраскопда

кузатдик сўнг унинг устига трипсин ферментимиздан томизамиз ва микроскопда жараёни кетишини кузатамиз ва натижаларини қуйидаги жадвалларга жойлаштирамиз. Бунда лектин эритроцит хужайраси мембрана қаватида жойлашган рецепторларга специфик мумкин эканлиги адабиётлардан маълум.Ушбу мақсадда биз турли хил эритроцит суспензияларидан фойдаландик.Тадқиқотимиздан шу нарса маълум бўлдики эритроцитларга трипсин билан ишлов берилгандан сўнг лектиннинг эритроцитларда юқори гемаглютинация даражаси маълум бўлди.Бу ўринда шуни қайд этиш





лозимки, адабиётлардан маълумки эритроцитлар мембранасида сиалопроteidлар мавжуд бўлиб, ушбу моддалар гликопротеидларни эритроцит мембранаси билан ўзаро боғлаб гемаглютинация жараёнини амалга оширишда халақит беради. Шу сабабли биз тадқиқотимизда инсон қони эритроцитларига трипсин ферменти билан ишлов берилди ушбу

жараёнда трипсин ферменти эритроцит мембранасидаги сианопроteidларни гидролизлаб хужайра мембранасини лектин билан ўзаро таъсирланишига имкон яратади. Бунинг натижасида гемаглютинация даражаси юқори даражада бўлганлигини қуйида келтирилган жадвалларда кузатишимиз мумкин.[ 6,7]

**3-жадвал 90%ли тузда чўктирилган лектин фаоллигини текшириш.**

N	Лектин миқдори мл	Гемаглютинатцияга кетган вақт мин	Гемаглютинатция даражаси	Трипсин миқдори мг	Гемаглютинатция даражаси
1	1,0	15	паст	1,0	ўртача
2	1.5	15	паст	1.5	ўртача
3	2,0	15	ўртача	2,0	юқори

**4-жадвал 90%ли тузда чўктирилган лектин фаоллигини текширишда трипсиннинг миқдорини ўзгаришига асосланган жадвал.**

N	Трипсин миқдори мг	Лектин миқдори мг	Гемаглютинатсия даражаси
1	1	1	Паст
2	2	1	ўртача
3	3	1	ўртача
4	4	1	Юқори
5	5	1	Юқори

**4-жадвал 90%ли тузда чўктирилган лектин фаоллигини текширишда лекиннинг миқдорини ўзгаришига асосланган жадвал**

N	Трипсин миқдори мг	Лектин миқдори мг	Гемаглютинатсия даражаси
1	10	1	Паст
2	10	1.5	Паст
3	10	2	ўртача
4	10	2.5	ўртача
5	10	3	ўртача

**5-жадвал 90%ли тузда чўктирилган лектин фаоллигини текширишда лекиннинг миқдори ҳамда вақтнинг ўзгаришига асосланган жадвал**


N	Трипсин миқдори мг	Лектин миқдори мг	Вақт дақиқа	Гемаглютинатсия даражаси
1	2	2	10	паст



2	2	2.5	15	паст
3	2	3	20	ўртача
4	2	3.5	30	юқори

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. В.В.Игнатов Углеводсвязывающие белки — лектины. Соросовский образовательный журнал 1997, № 2, С. 14–15
2. М.В.Лахтин, В.М.Лахтин, С.С.Афанасьев, Л.В.Пожалостина, Н.А.Кахановская, В.Ф.Карсун Лечебный и пробиотический потенциал лектинсодержащих фитопрепаратов. Практическая фитотерапия. Москва, 2009. 5-12С.
3. Методы контроля. Химические факторы. Руководство по методам контроля качества и безопасности биологически активных добавок к пище. Руководство Р 4.1.1672-03. М.: Федеральный центр госсанэпиднадзора Минздрава России, 2004.
4. Rekha Marndi Isolation and Characterization of Concanavalin A from the seeds of *Canavalia ensiformis*. A Thesis submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the degree of Master of Science In Life Science Submitted To National institute of technology, rourkela. India 2012. P. 1-44.
5. Галиханова Ульяна Александровна “Молекулярно-Биохимические Механизмы Действия Дитерпеновых Гликозидов На Рост И Устойчивость Растений” Федеральное Государственное Автономное Образовательное Учреждение Высшего Образования «Казанский (Приволжский) Федеральный Университет» Уфа 2020
6. Сытников, Д.М. Лектиновая активность различных органов сои в условиях эффективного и неэффективного симбиоза / Д. М. Сытников, С.Я. Коць, С. М. Маличенко // Физиология и биохимия культ. растений. – 2006.– Т. 38. – С. 53–60.
7. Сытников, Д.М. Лектиновая активность различных органов сои в условиях эффективного и неэффективного симбиоза / Д. М. Сытников, С.Я. Коць, С. М. Маличенко // Физиология и биохимия культ. растений. – 2006.– Т. 38. – С. 53–60.
8. Сытников, Д.М. Участие лектинов в физиологических процессах растений / Д.М. Сытников, С.Я. Коць // Физиология и биохимия культурных растений. – 2009. – Т. 41. – С. 279-296.
9. Тимофеева, О.А. Активность и состав лектинов клеточной стенки пшеницы при действии низких температур и ингибиторов кальциевой сигнальной системы / О.А. Тимофеева, Ю.Ю. Невмержицкая, М.А.



## MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA OYDIN HOJIYEVA

Asatjanova Iroda Maqsudbek qizi

UrDU Filologiya fakulteti talabasi

asatjonovairoda@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035242>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*epkin tuyg'ular, badiiy butunlik, atributlar, ibtido, g'oya, mazmun, ijtimoiy-estetik falsafa, poetik fikr, shaxsiy iqtidor, to'qima, estetik ideal*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada so'z san'atkori Oydin Hojiyevaning mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi roli e'tirof etildi. Shoiraning yuksak badiiyatga, his-tuyg'u va kechinmalarga boy she'riyati chuqur tahlilga tortildi. Uning she'riy jimjimalarga, badiiy o'xshatishlarga boy she'rlari o'rganildi.*

Ruhiy munosabat ifodasi «she'riyat<sup>1</sup> bu inson qalbidagi ichki kechinmalarni, epkin tuyg'ularni, nozik hislarni, inja orzularni o'zida mujassamlashtirgan badiiy butunlikdir. She'r yozmoqchi bo'lgan inson qalbidagi bor his-tuyg'u, kechinmalarini qog'ozga minglagan jilolar bilan ko'chiradi, borliqdagi turli ranglar bilan uni bezab, zeb beradi. She'riyat bu « bir so'z bilan aytganda san'at hisoblanadi.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda: «She'r shoir qalbida tug'ilgan hayotiy tuyg'ularni ifoda qiladi va shu bilan o'quvchi yuragini rom qiladi. Shoir o'zi yonmasa, boshqalarni yondirolmaydi, qalb hislarida otash bo'lmasa, boshqa qalblarga harorat bera olmaydi. Bu sehrli otashsiz har qanday she'riy jimjimalardan, badiiy vositalardan, mahoratdan naf yo'q. Shoirlik o'sha tuyg'ularning tabiiyligi va haqqoniyligiga

she'rxonni ishontira olishdir. Ishontira olish qobiliyati esa is'tedodning ibtidosidir.”<sup>2</sup>

Bugungi kunda o'zbek she'riyatida barakali ijod qilayotgan ijodkorlar soni behisob. O'tgan asr ijodkorlari va yangi davr o'zbek she'riyati vakillarini solishtirsak ularning she'rlarida ifodalanayotgan g'oya, mazmun deyarli bir xil. Ijod namunalarining barchasida o'zbek xalqining boy madaniyati, keng tarixi, xalqimizning badiiy tafakkuri ifodalanadi. Istiqlol yillarida o'zbek she'riyati o'ziga xos, yangicha talqinga ega bo'ldi. Bu davrda yurtimizda erkin ijodiy muhit, mafkuralashgan eski siyosatdan voz kechish keng an'anaga aylanadi. Mustaqillik davri she'riyati mazmunan yangilandi. «She'rni ta'siri, kuchi, quvvati yanada oshdi. Istiqlol sharofati tufayli yuzaga kelgan ijodiy o'ziga xoslik ijodkor «meni, o'zini kashf etish orqali poetik fikrning ijtimoiy-estetik

<sup>1</sup> Oripov Abdulla. Jonfidolik:. – T.: “Sharq”, 2000. – 3-bet.

<sup>2</sup> Vohidov Erkin. She'r va hayot haqida:. – T.:, 2002. – 34-bet.





mohiyatini chuqurlashtirish, shaxsiy iqtidori, obrazli ifoda va tasvir uslublaridan samarali foydalanish kabi omillardan ham namoyon bo'layotir. Bu jarayonda har bir shoirning voqelikka estetik munosabatining darajasi va miqiyosi uning shaxsiyati, «menidagi badiiy funktsiya, qalamga olingan mavzular, obrazlar ulubiy qiyofasini o'zgartirdi.<sup>3</sup> Bu jarayonda o'zining odob-axloq, insof, diyonat, Vatan, ona, tabiat go'zalligi haqidagi qarashlari bilan Zebo Mirzayeva, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Xosiyat Rustamova kabi ijodkorlar jonbozlik ko'rsatganlar.

O'z she'rlarida millatparvarlik, vatanparvarlik, milliy e'tiqod tuyg'ularini tarannum etgan ijodkor Oydin Hojiyevadir. Uning «Xushxabar, «Mushfiq onajon, «Chashmalarimni izlayman, «Ko'zimning oq-u qorasi, «Tamal toshi, «Ishonch yulduzi, «Tong tuhfalari kabi she'riy to'plamlarida voqea va hodisalardan katta mahorat bilan foydalana olish, poetik xulosalar chiqarish ustunlik qiladi.

Ijodkor she'riyati haqida so'z yuritar ekanmiz, undagi mazmun va shakl masalasi haqida to'xtalmasligimizning iloji yo'q. She'rni shakl va mazmuni bir-biriga mutanosib, teran, yuksak bo'lsa, she'rning o'qilish darajasi ham yuksak hisoblanadi. «She'riy shakl so'zlardan ajoyib imkoniyatlarni maksimum darajada so'rib oladi, tuyg'ularning nozik va turfa to'qimalariga e'tiborni qaratadi, hissiy-shuuriy ta'sirchanlik holatlari tasavvurini beradi.<sup>4</sup>

Qor yo'gar ko'k peshtoqidan,  
Oq supra yoyar falak.  
Qor yog'adi oppoqqina

Pildiragan kapalak.

Qor yog'adi go'yo qorqiz  
Bahori un elaydi.

Qor rezgilar huv poyonsiz  
Ko'kni yerga ulaydi.<sup>5</sup>

Shoir she'rlarida tabiat manzaralari, yil fasllari yorqin bo'yoqlarda aks etadi. Oydin Hojiyeva fasllar go'zalligini shoirona misralar orqali ifoda etgan. Shuning uchun ham she'rxon aynan bu she'rni go'zalligini bir o'qigandan ilg'ay oladi. U badiiy obyekt sifatida ko'proq yil fasllariga, qor, yomg'ir, tun, osmon obrazlarini oladi. Qor yog'ishini «falakning oq supra yoyishi, «pildiragan kapalak, «qorqizga o'xshatish kamdan kam ijodkorlarda uchraydi. Oppoqqina qor parchasini ko'rib, dilingiz zavq oladi, qalbingiz quvonadi. Shoir qalbidan oqib chiqayotgan ulkan tuyg'ular faslning aziz va mukarramligini ifodalaydi. Qor rezgilari dilni orziqtiradi. Qish manzarasi talqini ichki evrilishlar sifatida namoyon bo'lgan. Shoira mahorati shundaki, bu she'rni kitobxon o'qimaydi, o'sha go'zal portretni tomosha qilib, undan chuqur estetik ma'no oladi.

«Navbahorda nomli she'rga e'tibor qaratamiz:

Bir tashvishdan nido ikkimiz,  
Bir quvonchdan sado ikkimiz,  
Iqbol va'da qilgusi faqat,  
O'tli muhabbat, o'tli muhabbat.  
Navbahorda tutash yo'limiz,  
Chorlar meni sen suygan chaman.  
Umidlarim betin, qo'nimsiz,  
Xayol ichraman, xayol ichraman.<sup>6</sup>  
Ushbu she'rda yuqoridagi qish fasli o'rnini bahor egallaydi. Lirik qahramonning

<sup>3</sup> Rahimjonov.N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati: – "Sharq". – 1999. 15-bet.

<sup>4</sup> Хализев В.Е. Теория литературы. Пoesия и проза.: М.: "Высшая школа". 1999. 237.

<sup>5</sup> Hojiyeva Oydin. Mushfiq Onajon. T.: "G'afur G'ulom":, 1983. 20-bet.

<sup>6</sup> Hojiyeva Oydin. Mushfiq Onajon. T.: "G'afur G'ulom":, 1983. 16-bet.





ruhiyatida tushunarsiz holat sodir bo'lmoqda. Unga iqbol va'da qilgan, quvonchida ham, tashvishida ham u bilan birga bo'lgan muhabbat yo'llari bahor faslida tutashadi. Lirik qahramon xayol o'ylariga cho'mib suygan chamani tomon intiladi. Keyingi misralarda lirik qahramon biroz hadiksiraydi. Unga nasib etilgan baxtning buyukligiga shubha uyg'onadi. Ishqing qadar baxting ham kuyga to'liqmi deya o'yg'a toladi. Ushbu she'r asl inson sezimlariga, uning shuuriga ta'sir qiluvchi kuchga o'xshaydi go'yo.

"Har bir davr boshqa davrlardan o'zining muayyan siyosiy-ijtimoiy-psixologik kayfiyati bilan farq qiladi. She'r, umuman, har qanday san'at asari, ana shu muhit kayfiyatlaridan o'sib chiqadi va birinchi galda o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Real-voqelik faktlari faqatgina o'ziga xos belgi-xususiyatlari bilan emas, balki ijodkorning estetik idealiga xos atributlar bilan boyitilgan, muayyan darajada o'zgartirilgan, qaytadan idrok etilgan holda aks etgandagina badiiy obraz vujudga keladi.<sup>7</sup>

Sen borki g'oyatda suluvdir hayot,  
Azizdir bu ne'mat, bu nasiba « non.  
Sen borki, orzumdan orzular bunyod

«

Olamning noparmon guliday  
g'ujg'on.<sup>8</sup>

Ayollarimiz bitgan  
misralar adabiyotimizning eng nafis  
navolaridir. «Oydin Hojiyeva muhabbatning  
«qizg'aldoq guliday nafosati boyagi  
notanish dugona-yu notanish singillarning  
da'vati ekanini ular qalbiga quyish bilangina

kifoyalanmaydi. Uning she'rlarida siyosi yorqin lirik qahramon o'z sevgisiga sadoqati bilan baxtli. U saodat daraxtining doim gullab-yashnab turishi, shirin mevalar berishi uchun suyukli yorining qadriga yetishga, uning oson bo'lmagan yo'llariga poyonoz yozishga, hatto o'zini fido qilishga ham tayyor.<sup>9</sup> Pokiza ishq va ruhiyat tasviri, ishq dardini pinhon tuta olmagan lirik qahramon qalb kechinmalari ushbu she'rda ifodalangan. Lirik qahramon hayolida «yashamoq « ishq bo'lib tug'yon urgan kuch, «quyosh isli yorug' dunyo baxti hisoblanadi. Mavjudlik bilan yashamoq o'rtasidagi farqni mufassal ifodalab bera olgan shoira yoriga rag'batim, tobi-toqatim, mehri ummonim. sevgim, umrimning oltin fursati deya ta'rif beradi. Lirik qahramon nazdida yordan ayrilmoq boshga judolik tushib, muhabbat xazonining ro'y berishidir. Bu she'rni faqat ma'shuqaning oshiqqa intizorligi deb tushunish to'g'ri emas. She'rda shoira muhabbat tuyg'usini garchi qiz tomonidan izhor etilayotgan bo'lsa ham qo'rqmay e'tirof etadi. Ushbu she'rda muhabbat unsurlari ustunlik qilsa ham shoira lirik qahramonga hayotning, umrning qadrini uqtirishga harakat qilayotgandek ko'rinadi. Buni ushbu misralardan ham ilg'ash qiyin emas:

Yashamoq!

Osmonga yetadi boshim

Bu oddiy, mehnatkash so'z  
qudratidan.

Ko'zimdan tirqirab ketadi yoshim

Quyosh isli yorug' dunyo baxtidan.<sup>10</sup>

O'zbek adabiyotining zabardast  
vakillaridan biri Oydin Hojiyeva lirikasi  
o'zining betakrorligi, orginalligi, poetik

<sup>7</sup> Hamdamov Ulug'bek. Yangi o'zbek she'riyati. – T.: "Adib"; 2012-yil. 11-bet.

<sup>8</sup> Hojiyeva Oydin. Shom shu'lalari. – T.: "Sharq"; 2010-yil. 26-bet.

<sup>9</sup> Hojiyeva Oydin. Shom shu'lalari. – T.: "Sharq"; 2010-yil. 10-bet.

<sup>10</sup> Hojiyeva Oydin. Shom shu'lalari. – T.: "Sharq"; 2010-yil. 27-bet.




yuksakligi, turli timsollarga boyligi bilan ajralib turadi. Ijodkorning hayot, xayol, tabiat go'zalliklari haqidagi she'rlari

o'quvchiga ayricha ilhom bag'ishlaydi. Shuning uchun ijodkorning she'rlari hanuzgacha o'qishli va maroqli.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oripov Abdulla. Jonfidolik.: « T.: «Sharq, 2000. « 3-bet.
2. Vohidov Erkin. She'r va hayot haqida.: « T.:, 2002. « 34-bet.
3. Rahimjonov.N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati.: « «Sharq. « 1999. 15-bet.
4. Хализев В.Е. Теория литературы. Пoesия и проза.: М.: "Высшая школа". 1999. 237.
5. Hojiyeva Oydin. Mushfiq Onajon. T.: "G'afur G'ulom";, 1983. 20-bet.
6. Hamdamov Ulug'bek. Yangi o'zbek she'riyati. – T.: "Adib";, 2012-yil. 11-bet.
7. Hojiyeva Oydin. Shom shu'lalari. – T.: "Sharq";, 2010-yil. 26-bet.





## КРИТЕРИИ ДИАГНОСТИКИ И РАСПРОСТРАНЁННОСТЬ МЕТАБОЛИЧЕСКОГО СИНДРОМА И ЕГО КОМПОНЕНТОВ

Юлдошева Лайло Одилбек кизи

ТМА Ургенчский филиала Педиатрического факультета 3-курс

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035332>

### ИСТОРИЯ СТАТЬИ

Принято: 15-декабрь 2021

Утверждено: 15-январь 2022

Опубликовано: 5-февраль 2022

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Метаболический синдром (МС) ИМТ, артериальная гипертензия, гиперлипидемия и гиперинсулинемия

### АННОТАЦИЯ

*Метаболическому синдрому (МС) в основе которого лежит инсулинорезистентность. Этот синдром включает ряд факторов риска (ФР): артериальную гипертензию (АГ), НТГ, дислипидотемию (ДЛП), ожирение, гиперурекемию и другие факторы риска. Следует отметить, что в отдельных исследованиях количество компонентов, включаемых в МС различается. Вместе с тем, АГ, ИМТ, гиперлипидемия и гиперинсулинемия остаются основными компонентами МС.*

### Актуальность

В последние годы большое внимание уделяется метаболическому синдрому (МС) в основе которого лежит инсулинорезистентность. Этот синдром включает ряд факторов риска (ФР): артериальную гипертензию (АГ), НТГ, дислипидотемию (ДЛП), ожирение, гиперурекемию и другие факторы риска. Следует отметить, что в отдельных исследованиях количество компонентов, включаемых в МС различается. Вместе с тем, АГ, ИМТ, гиперлипидемия и гиперинсулинемия остаются основными компонентами МС.

Концепцией реформирования системы здравоохранения Узбекистана предусмотрено дальнейшее совершенствование работы по сохранению и укреплению здоровья населения. Своевременное выявление и профилактика его основных компонентов является приоритетным направлением современного

здравоохранения. С целью повышения эффективности профилактики ХНИЗ в Узбекистане к основным направлениям медицинской науки и практики отнесены меры по разработке и реализации целевых программ формирования здорового образа жизни, профилактики и борьбы с неинфекционными заболеваниями и факторами их риска [Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-4063 «О мерах по профилактике неинфекционных заболеваний, поддержке здорового образа жизни и повышению уровня физической активности населения» от 18 декабря 2018 года]. Заболеваемость метаболическим синдромом часто совпадает с заболеваемостью ожирением и диабетом 2 типа (один из МС). Согласно данным NHNES, в течение 1988–2010 гг. средний ИМТ в США увеличивался на 0,37% в год как у мужчин, так и у женщин, а окружность



талии (ОТ) увеличивалась на 0,37 и 0,27% в год у женщин, соответственно. Согласно данным CDC, опубликованным в 2017 году, около 30,2 миллиона взрослых в возрасте 18 лет и старше или 12,2% взрослых в США имели диабет 2 типа (СД2). Четверть этих людей (23,8%) не знали о наличии диабета. Заболеваемость СД2 увеличивалась с возрастом, достигая 25,2% среди пожилых людей в США (65 лет и старше). Распространенность преддиабета или МС была примерно в три раза больше. Так, около трети взрослых в США имеют метаболический синдром. Заболеваемость СД2 выше среди определенных этнических групп - 15% среди американских индейцев, но ниже среди китайцев - 4,3%. Американцы из Южной Азии имели очень высокую распространенность метаболического синдрома и более высокую частоту абдоминального ожирения [PalaniappanLP, et al., 2017]. В Китае в период с 1992 по 2002 год распространенность избыточного веса и ожирения увеличилась с 14,6 до 21,8% - на основе критерия ВОЗ. Используя китайское определение ожирения, с более низким сокращением ИМТ, увеличение составило от 20 до 29%. Заболеваемость МС увеличилась с 8 до 10,6% в городских районах и с 4,9 до 5,3% в сельских районах. Принимая во внимание тот же темпы роста, распространенность МС в Китае в 2017 году составит около 15,5%.

Особое значение имеет СД у больных туберкулезом. Согласно данным метаанализа опубликованного в феврале 2019 года и основанного на данных обследования 2.291.571 больных с активным туберкулезом [Noubiar].J.

etal., 2019] средняя распространенность СД среди них составляет 15,3%, а в отдельных странах достигает 20%. На формирование СД может оказывать влияние профессия. Среди таксистов в Южной Африке распространенность СД и МС в 2 раза выше, чем в целом среди населения этой страны [AdedokunA.O. et al., 2019]. Распространенность преддиабета и диабета составляла среди них составила 17% и 16% соответственно.

По данным ВОЗ в целом в мире СД страдают 8,8% населения. Однако распространенность СД значительно колеблется в зависимости от региона, популяции и других факторов. Так по данным популяционного исследования в Пакистане было показано, что распространенность диабета 2 типа и преддиабета намного выше, чем считалось ранее в Пакистане [AamirA.H. et al., 2019]. Среди 18 856 обследованных распространенность преддиабета составила 10,91% (95% ДИ от 10,46 до 11,36, n = 2057), а диабет 2 типа составил 16,98% (95% ДИ от 16,44 до 17,51, n = 3201).

В целом, средний уровень HbA1c составил 5,62%, а среди вновь выявленных - 8,56%. Распространенность была самой высокой в возрасте 51–60 лет (26,03%, p <0,001), без формального образования (17,66%, p <0,001), ожирением III класса (35,09%, p <0,001), семейным анамнезом (31,29%, p <0,001) и женщины (17,80%, p = 0,009). При многофакторном анализе была выявлена выраженная между диабетом 2 типа и более старшим возрастом, увеличением индекса массы тела и центральным ожирением, положительным семейным анамнезом, наличием гипертонии и обратной связи





с образованием. По подвыборке (n=1027) суммарная статистика по диагностике диабета на HbA1c показала чувствительность 84,7%. Авторы пришли к выводу о необходимости разработки комплексной стратегии для включения скрининга, профилактики и лечения диабета 2 типа на уровне сообщества.

Согласно глобальному исследованию ожирения в 195 странах, проведенному в 2015 году, 604 миллиона взрослых и 108 миллионов детей страдали ожирением. С 1980 года распространенность ожирения удвоилась в 73 странах и увеличилась в большинстве других стран. Еще большее беспокойство вызывает тот факт, что темпы роста были еще выше при детском ожирении. Согласно этому опросу, ожирение больше не является болезнью достатка. Наибольшее увеличение распространенности ожирения у молодых мужчин (25–29 лет) имело место в странах с низким социально-экономическим индексом (СОИ).

За последние три десятилетия распространенность снизилась с 1,1% в 1980 году до 3,85 в 2015 году. В период с 1990 по 2015 год общий уровень смертности, связанный с высоким ИМТ, увеличился на 28,3%. Ожирение также способствовало 120 миллионам лет жизни с поправкой на инвалидность. Наибольшее процентное изменение в стандартизованных по возрасту смертности, связанных с ИМТ, и количества лет жизни с поправкой на инвалидность произошло в Бангладеш - одной из самых бедных стран мира. С другой стороны, стандартизированные по возрасту заболеваемость и смертность, связанные с ИМТ, в Турции

снизились на 37,2 и 43,7% соответственно.

Роль МС в развитии сердечно-сосудистых заболеваний и высокой смертности от них может считаться доказанной. Однако, многие механизмы формирования сердечно-сосудистых заболеваний при синдроме инсулинрезистентности во многом требуют дальнейшего изучения. Одним из основных факторов риска формирования и смертельных исходов ряда сердечно-сосудистых и эндокринных заболеваний является возраст. Старение организма сопряжено со многими факторами. Возраст относится к не модифицируемым факторам риска. Поэтому, оценка состояния организма, степени риска заболеваний, их осложнений и преждевременной смерти требуют других подходов, чем в отношении традиционных, модифицируемых факторов риска.

В частности, принимая возраст как не модифицируемый фактор риска, следует принять его как отправную точку диагностического поиска и уже исходя из особенностей определённого возрастного периода проводить оценку состояния пациента.

#### **ЗАДАЧИ ИССЛЕДОВАНИЯ**

Провести анализ структуры распространённости метаболического синдрома основных компонентов и гормонально-биохимических показателей. Критери диагностики и распространённости метаболического синдрома и его компонентов.

Наличие инсулинорезистентности или глюкозы > 6,1 ммоль / л (110 мг / дл), 2 ч глюкозы > 7,8 ммоль (140 мг / дл) (обязательно) наряду с любыми двумя или более из следующих:





б) Холестерин ЛПВП <0,9 ммоль / л (35 мг / дл) у мужчин, <1,0 ммоль / л (40 мг / дл) у женщин;

в) Триглицериды > 1,7 ммоль / л (150 мг / дл);

г) Соотношение талия / бедро > 0,9 (мужчины) или > 0,85 (женщины) или ИМТ > 30 кг / м<sup>2</sup>;

д) Артериальное давление > 140/90 мм рт.

Уровень глюкозы в крови выше 5,6 ммоль / л (100 мг / дл) или медикаментозное лечение для повышения уровня глюкозы в крови;

б) Холестерин ЛПВП <1,0 ммоль / л (40 мг / дл) у мужчин, <1,3 ммоль / л (50 мг / дл) у женщин или медикаментозное лечение при низком уровне ЛПВП;

в) Триглицериды в крови > 1,7 ммоль / л (150 мг / дл) или медикаментозное лечение повышенных триглицеридов;

г) Талия > 102 см (мужчины) или > 88 см (женщины);

д) Артериальное давление > 130/85 мм рт.ст. или медикаментозное лечение гипертонии.

Заболеваемость метаболическим синдромом часто совпадает с заболеваемостью ожирением и диабетом 2 типа (один из результатов МС). Согласно данным NHNES, в течение 1988–2010 гг. средний ИМТ в США увеличивался на 0,37% в год как у мужчин, так и у женщин, а окружность талии (ОТ) увеличивалась на 0,37 и 0,27% в год у женщин, соответственно. Согласно данным CDC, опубликованным в 2017 году, около 30,2 миллиона взрослых в возрасте 18 лет и старше или 12,2% взрослых в США имели диабет 2 типа (СД2). Четверть этих людей (23,8%) не знали о наличии диабета. Заболеваемость СД2 увеличивалась с возрастом, достигая

25,2% среди пожилых людей в США (65 лет и старше). Распространенность преддиабета или МС была примерно в три раза больше. Так, около трети взрослых в США имеют метаболический синдром [2].

Заболеваемость СД2 выше среди определенных этнических групп - 15% среди американских индейцев, но ниже среди китайцев - 4,3%. Американцы из Южной Азии имели очень высокую распространенность метаболического синдрома и более высокую частоту абдоминального ожирения [3]. В Китае в период с 1992 по 2002 год распространенность избыточного веса и ожирения увеличилась с 14,6 до 21,8% - на основе критерия ВОЗ. Используя китайское определение ожирения, с более низким сокращением ИМТ, увеличение составило от 20 до 29%. Заболеваемость МС увеличилась с 8 до 10,6% в городских районах и с 4,9 до 5,3% в сельских районах. Принимая во внимание тот же темпы роста, распространенность МС в Китае в 2017 году составит около 15,5% [4].

При хронической физической нагрузке или увеличении ФА наблюдаются структурные изменения в мышцах, увеличение количества митохондрий в клетчатке, секреция метаболически полезного гормона, такого как ирисин, с инверсией мышечной резистентности к инсулину и снижение постпрандиального липогенеза печени [14]. Однако, согласно данным NHANES, в период 1988 и 2010 годов, когда средний ИМТ и показатель WC увеличивались у взрослых в США, доля взрослых, сообщивших об отсутствии физической активности в свободное время (ФАСВ), увеличилась с 19,1 до 51,7% у женщин и



с 11,4 до 43,5% у мужчин. Согласно этому исследованию, среднее потребление калорий за это время не изменилось, а тенденции ИМТ и окружность талии (ОТ) были связаны с уровнем ФАСВ, а не с потреблением калорий.

### **Заключение**

Метаболический синдром - это сложное патофизиологическое состояние, которое возникает, главным образом, из-за дисбаланса потребления калорий и расхода энергии, но также зависит от генетического эпигенетического состава человека, преобладания сидячего образа жизни над физической активностью и других факторов, таких как качество и состав пищи и состав кишечных микробов. Ни одно лекарство не может быть предписано для его искоренения или даже сокращения.


Эпидемия не произошла внезапно, и ее нельзя быстро контролировать, но

при наличии воли общества, это можно сделать. Как и в случае других эпидемий, очень важно информировать население об опасности для здоровья метаболического синдрома. Поскольку метаболический синдром является сложным медицинским диагнозом, требующим анализа крови, необходимо простое антропометрическое определение, которое может быть легко использовано и принято населением. Хотя точные меры, которые необходимо принять, могут быть обсуждены, повышение риска увеличения обхвата живота или талии / бедер может быть отправной точкой. Лозунг, как, если ваш размер пояса увеличивается на ступеньку, может скрываться опасность внутри живота. Или «сладости для слабых, острые перцы для мачо».

### **Использованная литература:**

1. Каримов Т.М., Атаниязов А.С., Дальжанов М.Д. Изучение смертности от основных сердечно-сосудистых заболеваний в зоне экологической катастрофы Каракалпакстана. // IV Съезд кардиологов Узбекистана. Тезисы докладов. - Ташкент, 12-14 декабря, 2000г. - С.102.
2. Каюмов У.К., Мусаева Ш.З., Хатамова Д.Т., Адилова М.С. Некоторые данные о распространенности артериальной гипертонии среди женщин детородного возраста // Центрально Азиатский Медицинский журнал. II конгресс ассоциации кардиологов СНГ. Тез. докл. - Бишкек. - 1999. С.58.
3. Каюмов У.К., Каримова С.К., Хатамова Д.Т. Распространённость различных проявлений ИБС среди лиц с сахарным диабетом и нарушенной толерантностью к глюкозе. // Вестник врача общей практики. - 2000. - № 4. - С.50-53
4. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-4063 «О мерах по профилактике неинфекционных заболеваний, поддержке здорового образа жизни и повышению уровня физической активности населения» от 18 декабря 2018 года.
5. Рустамова, Мирахмедова Х.Т. Псориастик артрит ва ортиқчата наваз билан касалланган беморларнинг ҳаёт сифатини баҳолаш // Ўзбекистон врачлар ассоциациясининг бюллетени. 2016. №2, 44-47





## РЕСПУБЛИКАМИЗДАГИ ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИНГ ЭКСПОРТДАГИ ЎРНИ

Маҳмудова Равшана Абдумўмин қизи

Талаба, Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти,

ravshanamahmudova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035395>

### МАҚОЛА ТАРИХИ

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

тўқимачилик, инвестиция, экспорт, ип калава, газлама, трикотаж, пайпоқ маҳсулотлари, тикувчилик, пахта толаси.

### ANNOTATSIYA

Мақолада тўқимачилик саноати корхоналарида, тўқимачилик маҳсулотларини дунё бозорига олиб чиқиш ҳамда республиканинг инвестиция ва экспорт салоҳиятини кенг тарғиб қилиш масалалари ўрганилган.

Жаҳонда аҳоли сонининг доимий ошиб бориш тенденцияси кийим-кечак маҳсулотларига бўлган эҳтиёжнинг доимий ошиб боришини келтириб чиқармоқда. Шу боисдан тўқимачилик тармоғининг саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш умумий ҳажмидаги улуши ривожланган мамлакатларда, хусусан Германия, Франция, АҚШда 6-9 %ни, Италияда 12 %ни ташкил этган. Жаҳонда охириги 10 йилда иқтисодиётнинг глобаллашуви натижасида тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш марказлари Европа ва АҚШдан Жанубий-Шарқий, Марказий Осиё, Жанубий Америка мамлакатларига кўчди.(1) Шу боисдан тўқимачилик саноати ишлаб чиқаришни замонавий бошқарув усуллари қўллаган ҳолда янада ривожлантириш муҳим вазифа ҳисобланади.

Жаҳонда тўқимачилик корхоналари фаолиятини бошқаришда

мақсадлар бўйича бошқариш, қиймат асосида бошқариш, фаолият самарадорлигини бошқариш йўналишлари бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилган. Шу билан бирга, ривожланиш стратегияси билан боғлиқ стратегияни моделлаштириш, баланслаштирилган кўрсаткичлар тизими (BSC), жараёнга йўналтирилган режалаштириш ва функционал-қиймат таҳлили, бюджетлаштириш ва бизнесни моделлаштириш, фаолият таянч кўрсаткичлари мониторинги (Key performance indicators - KPI) каби бошқарув технологиялари долзарб илмий масалалардир. Бу борада жаҳон амалиётида тўпланган тажрибаларни республикамиз тўқимачилик корхоналари амалиётига жорий этиш орқали улар фаолиятини бошқариш самарадорлигини ошириш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири саналади.





Республикамизда мустақиллик йилларида тўқимачилик саноатини янада ривожлантиришга жиддий эътибор қаратилиб, тармоқга хорижий инвестицияларни жалб этиш, сифат менежменти тизимини жорий этиш, бошқаришда инновацион усулларни қўллаш борасида кенг қўламдаги амалий ишлар қилинмоқда. Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “принципал жиҳатдан янги маҳсулот ва технология турларини ўзлаштириш ва шу асосда ички ва ташқи бозорларда миллий товарларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш”(2)

устувор йўналиш сифатида белгиланди. Мазкур вазифаларнинг муваффақиятли бажарилиши республикамиз тўқимачилик саноати корхоналарининг фаолияти самарадорлигини бошқариш механизмларини такомиллаштиришни тақозо этади.

Ҳозирги пайтда республикамиз тўқимачилик саноати “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси таркибига жамланган бўлиб, у ўз таркибига 19 тармоқни, 90 дан ортиқ йирик корхона ва бирлашмаларни олади. Тармоқнинг бугунги кундаги ҳолати қуйидаги расмда йиллар кесимида ишлаб чиқариш қувватлари бўйича маълумотлар берилган.(3)





## 1-расм. Тўқимачилик саноатида ишлаб чиқариш қувватлар

Тўқимачилик саноатида ишлаб чиқариш қувватлари ип калава, газлама, трикотаж мато, пайпоқ маҳсулотлари, трикотаж маҳсулотлари ва тикувчилик маҳсулотлари 2016-2021 йилларда ишлаб чиқарилганлиги 1-расмда кўрсатилган.

Тўқимачилик ва тикув трикотаж саноати республикамизнинг жадал ва шиддат билан ривожланиб келаётган саноатларидан биридир. Бунга юртимизнинг барча туманларида амалга оширилган тўқимачилик лойihalари ва яратилган иш ўринлари яққол далил бўла олади.

Сўнгги йиллар мобайнида тўқимачилик саноати кескин ўзгаришларга юз тутди. Бу энг аввало халқаро бозорларда ўзбек тўқимачилик маҳсулотларига бўлган қизиқиш ортаётганидан акс этмоқда. Айни дамда маҳсулотлар дунёнинг 70 дан ортиқ давлатларига 2.1 млрд.долларлик маҳсулот етказиб берилмоқда, маҳсулотларнинг 50% дан ортиғини тайёр тикув-трикотаж маҳсулотлари – яъни юқори қийматли маҳсулотларга тўғри келади.

Пандемия билан боғлиқ вазиятга қарамай тўқимачилик корхоналари томонидан 2020 йил натижаларига кўра 1.9 млрд.доллардан ортиқ маҳсулот экспорт қилинди. Янги бозорлар – Австрия, Греция, Қувайт давлатларига илк бор маҳсулот етказилди. Албатта, тўқимачилик маҳсулотларини дунё бозорига олиб чиқиш ҳамда республиканинг инвестиция ва экспорт салоҳиятини кенг тарғиб қилиш, ҳорижий инвесторлар ва савдо компанияларини жалб қилишда кўрғазма ва форумларинг ўрни алоҳида

таъкидлаш керак. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 декабрдаги ПФ-5285 фармони, 2019 йил 16 декабрдаги ПҚ-4186 сонли қарорида доимий равишда тўқимачилик кўрғазмаларини ўтказиш ва уларни халқаро кўрғазмалара календарига киритиш бўйича қатор топшириқлар берилган.

Ўзбекистон энгил саноати етакчи ва жадал ривожланаётган тармоқлардан биридир. Давлат статистика қўмитаси маълумотларига кўра, 2017-йилда саноатнинг мамлакатимиз умумий саноат ҳажмидаги улуши қарийб 30 %ни, ялпи ички маҳсулотдаги улуши қарийб 4%ни, ноз-неъматлар ишлаб чиқаришдаги улуши эса 44 %дан ортиқни ташкил этди. Сўнгги йилларда ишлаб чиқаришнинг йиллик ўсиши қарийб 18 %ни, экспорт ҳажми эса 10 %ни ташкил этди.

Ўзбекистон дунёдаги энг йирик табиий тўқимачилик толалари, ип-калава ва трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқарувчилардан биридир. Мамлакатда йилига маҳсулот ишлаб чиқарадиган 1000 дан ортиқ тўқимачилик корхоналари мавжуд бўлиб, уларнинг қуввати:(4)

пахта толаси 706 минг тонна ва 510 млн. квадрат метр газламалар, шу жумладан:

- трикотаж – 89 та корхона;
- тайёр тўқимачилик маҳсулотлари – 495 та корхона;
- тикувчилик маҳсулотлари – 354 та корхона;
- пайпоқ – 54 та корхона;
- тўқимачилик галантерия – 20 та корхона етди.



Жанубий Корея, Ҳиндистон, Сингапур, Германия, Швейцария, Италия, Япония ва АҚШ давлат инвесторлари иштирокида 156 та тўқимачилик корхонаси ташкил этилди. Ушбу ассоциация корхоналарида кенг турдаги маҳсулотлар, жумладан, тиббиёт буюмлари, тўқилмаган матолар ишлаб чиқарилмоқда. Пахтадан тайёрланган буюмлар, комбинзонлар ва бошқа товарлар, шу билан бирга янги авлод маҳсулотлари - янги инновацион маҳсулотларни ишлаб чиқиш ва уларнинг амалга оширилишини таъминлаш, ҳамда тўқимачилик соҳасида пахта занжирида энг юқори қўшилган қиймат тайёр трикотаж ва кийим-кечак маҳсулотларига тўғри келади.

Ўзбекистонда тўқимачилик саноатининг мамлакатимиз иқтисодий ривожланишидаги аҳамиятини инобатга олиб, 2017-2020-йилларда тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари дастури амалга оширилмоқда. Дастурга кўра, 2020-йилга қадар ип-калава ишлаб чиқаришни 2,5 баробар, тайёр газламаларни – 2,8 баробар, тўқилмаган матоларни – 1,5 баробар, трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқаришни 2,7 баробар ошириш режалаштирилган. Тикув-тикув маҳсулотлари ишлаб чиқаришни 3,2 баробар, трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқаришни 2,1 баробар, ипак ишлаб чиқаришни 2,1 баробарга ошириш режалаштирилган.



2-расм. Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари дастури

2011 йилда газламалар ишлаб чиқариш ҳажми 85,63 миллион долларни ташкил

этган ва 2020-йилга бориб бу кўрсаткич 459,2 млн. квадрат метрни ташкил этиб





ва ишлаб чиқариш ҳажмининг 5,4 баробар ўсишини таъминлайди. 2017 йилда тахминан 1,2 млрд. АҚШ доллари миқдорида тўқимачилик маҳсулотлари экспорт қилинди. Шу билан бирга, инқироз даврида асосий турдаги хом ашё ва тўқимачилик нархлари пасайди. Тўқимачилик маҳсулотларининг асосий экспортчилари Россия, Туркия, Хитой, Европа Иттифоқи мамлакатлари, Жанубий Корея давлатларидан иборат.

2020-йилдан бошлаб Ўзбекистондан пахта экспорти бутунлай тўхтатилиши, барча хомашё республика ҳудудида қайта ишланиши очиқ эълон қилинди. 2018-йилнинг ўзидаёқ пахта толаси ишлаб чиқаришнинг 2016-йилга нисбатан 8% га ўсиши, экспорт қилинадиган пахта улуши кескин пасайиб, 18,4 фоизга тушиб, терилган пахтанинг 81,6 % мамлакатимизда қайта ишланган. Ўтган йили бу кўрсаткич экспортда 11%ни, маҳаллий қайта ишлашда эса 89 %ни ташкил этди. Шу билан бирга, пахта экспорти ҳажмининг қисқариши тўқимачилик, тикувчилик ва трикотаж маҳсулотлари экспорти ҳажми фақат ўсди. Шунини таъкидлаш керакки, оқ олтиннинг давом этаётган экспорти узоқ муддатли экспорт шартномалари бўйича мажбуриятларни бажариш билан боғлиқ. 2021-йилда қайта ишланган пахта толасининг 99 % аллақачон маҳаллий саноат эҳтиёжлари учун ишлатилиши кутилмоқда. Соҳанинг сифат жиҳатидан ривожланишининг

асосий кўрсаткичлари қаторида унинг маҳсулотларига ташқи бозорда талабнинг ортиб бориши ҳам киради. Айни пайтда Ўзбекистон тўқимачилик саноати экспортга йўналтирилган. Маҳаллий корхоналарда ишлаб чиқарилаётган тўқимачилик ва тикувчилик маҳсулотлари ҳам ички, ҳам ташқи бозорда харидорлар орасида харидоргир бўлиб, йиллар ўтган сайин хорижий истеъмолчилар орасида тобора оммалашиб бормоқда. Тўрт йил давомида экспорт ҳажмини 2,1 баробар оширишга эришилгани ҳам яққол далолат беради. 2016-йилдаги 899 миллион доллардан 2020-йилда 1 млрд. 867 миллион долларда Ўзбекистон тўқимачилик ва тикувчилик маҳсулотлари дунёнинг кўплаб мамлакатларига етказиб берилмоқда, экспорт ҳам географияси йил сайин кенгайиб бормоқда. Мисол учун, 2016 йилда 60 та давлатга маҳсулот етказиб берилган бўлса, 2020 йилда бу кўрсаткич 71 тага етди. Аммо шунини таъкидлаш жоизки, ҳозирда тўқимачилик ва кийим-кечак экспортининг 89 фоизи фақат олти давлат ҳиссасига тўғри келади.(5)

Жадвал № 1

**Тўқимачилик ва кийим-кечак экспортдаги улуши**

№	Давлатлар	Экспортдаги улуши, %
1	Россия	36,5
2	Хитой	21,6
3	Қирғизистон	15,2
4	Туркия	11,4





5	Полша ва Қозоғистон	2,3
6	Полша ва Қозоғистон	2,3
	Жами	89

Демак, 2020-йил якунига кўра Россия 36,5 фоиз, Хитой 21,6 фоиз, Қирғизистон 15,2 фоиз, Туркия 11,4 фоиз, Полша ва Қозоғистон 2,3 фоизни ташкил этади. Шу билан бирга, тайёр тикувчилик ва трикотаж маҳсулотлари экспортининг 95 фоизи МДХ давлатлари ҳиссасига тўғри келади.

Ўзбекистон Президенти Олий Мажлисга Мурожаатномасида таъкидлаганидек, тўқимачилик саноатида бу маҳсулот экспортини йилига қарийб 300 миллион долларга ошириш имконини беради. Бундан ташқари, тайёр тикувчилик ва трикотаж маҳсулотлари экспорт географиясини янада диверсификация қилиш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Масалан, 2020 йилда деярли барча МДХ давлатларига етказиб берилган бўлса, шундан 52,5 Россия бозорига тўғри келган.(4)

2018-йилнинг ўзидаёқ пахта толаси ишлаб чиқаришнинг 2016-йилга нисбатан 8%га ўсиши экспорт қилинадиган пахта улуши кескин пасайиб, 18,4 %га тушиб, терилган пахтанинг 81,6 % мамлакатимизда қайта ишланган. Ўтган йили бу кўрсаткич экспортда 11 %ни, маҳаллий қайта ишлашда эса 89 %ни ташкил этди. Шу билан бирга, пахта экспорти ҳажмининг қисқариши тўқимачилик ва тикувчилик ва трикотаж маҳсулотлари экспорти ҳажми фақат ўсди. Шунини таъкидлаш керакки, оқ олтиннинг давом этаётган экспорти узоқ муддатли экспорт шартномалари бўйича мажбуриятларни бажариш билан боғлиқ. 2021-йилда қайта ишланган пахта толасининг 99 фоизи аллақачон маҳаллий саноат

эҳтиёжлари учун ишлатилиши кутилмоқда.

Жанубий Корея, Ҳиндистон, Сингапур, Германия, Швейцария, Италия, Япония ва АҚШ давлат инвесторлари иштирокида 156 та тўқимачилик корхонаси ташкил этилди. Ушбу ассоциация корхоналарида кенг турдаги маҳсулотлар, жумладан, тиббиёт буюмлари, тўқилмаган матолар ишлаб чиқарилмоқда, пахтадан тайёрланган буюмлар, комбинезонлар ва бошқа товарлар, шу билан бирга янги авлод маҳсулотлари - янги инновацион маҳсулотларни ишлаб чиқиш ва уларнинг амалга оширилишини таъминланди. Тўқимачилик соҳасида пахта занжирида энг юқори қўшилган қиймат тайёр трикотаж ва кийим-кечак маҳсулотларига тўғри келади. Ўзбекистонда тўқимачилик саноатининг мамлакатимиз иқтисодий ривожланишидаги аҳамиятини инобатга олиб, 2017-2019-йилларда тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини янада ривожлантириш чоратадбирлари дастури амалга оширилмоқда. Дастурга кўра, 2020-йилга қадар ип-калава ишлаб чиқаришни 2,5 баробар, тайёр газламаларни – 2,8 баробар, тўқилмаган матоларни – 1,5 баробар, трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқаришни 2,7 баробар ошириш режалаштирилган. Тикув-тикув маҳсулотлари ишлаб чиқаришни 3,2 баробар, трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқаришни 2,1 баробар, ипак ишлаб чиқаришни 2,1 баробарга ошириш режалаштирилган. 2011 йилда газламалар ишлаб чиқариш





ҳажми 85,63 миллион долларни ташкил этди.

Хулоса қилиб, 2020-йилда бу кўрсаткич 459,2 млн. квадрат метрни ташкил этди ва ишлаб чиқариш ҳажмининг 5,4 баробар ўсишини таъминланди. 2017

йилда тахминан 1,2 млрд. АҚШ доллари миқдорида тўқимачилик маҳсулотлари экспорт қилинди. Шу билан бирга, инқироз даврида асосий турдаги хом ашё ва тўқимачилик маҳсулотларининг нархлари пасайди.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [www.oecd.org](http://www.oecd.org)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони.
3. [www.uzts.uz](http://www.uzts.uz) – “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси расмий сайти.
4. Азимова Ф.П., Юлдашев С.Н. Vidyabharati International Interdisciplinary Research Journal 13(2) ИССН 2319-4979. 2021-йил 25-декабр
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 12-февралдаги “Тўқимачилик ва тикувчилик саноатини ислоҳ қилишни янада чуқурлаштириш ва унинг экспорт салоҳиятини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-4186-сон қарори.






## ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТИНИ АНИҚЛАШНИНГ МЕТОДИКАСИ

Ярашов Шерзод Шавкатович

Бухоро Давлат Университети талабаси

E-mail: sher\_yarashov\_2021@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035444>



Умумтаълим мактабларнинг 9 - синф “Информатика ва ахборот технологиялари” фанини ўқитишда ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини аниқлаш учун ПДВ (Scratch дастури), ўқувчи ва ўқитувчига, ўқувхонаси, техника ва операцион тизимга бўлган талабларга асосланган ҳолда интеллектуал салоҳиятга йўналтирилган топшириқ ва масалаларни ишлаб чиқиш механизмига асосланиб, ишлаб чиқилган талаблар, таклиф қилинган Scratch дастури ва топшириқларни яратиш механизмларини умумтаълим мактабнинг алгоритмлаш бобга доир машғулотида фойдаланиш тизими амалга оширилади.

Интеллектуал салоҳиятни аниқлашнинг яқка ва кичик гуруҳли ёндашиш ва фойдаланиш методикасини 9 - синфнинг 23-дарси “Амалий машғулоти. Такрорланувчи алгоритмлар” мавзусини дарс ишланмаси орқали келтириб ўтишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз, унда такрорланувчи алгоритмларга доир топшириқларни бажариш назарда тутилади. 9- синфнинг 2020 йилда нашр қилинган дарсликда бу мавзуга оид битта топшириқни уч хил усулда блок-схема орқали тасвирлаш ва мустаҳкамлаш учун 4 та топшириқ берилган [4]. Биз scratch дастуридан фойдаланилган ҳолда, ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини аниқлашга йўналтирилган топшириқларнинг

алгоритмларини тузишда яқка ва кичик гуруҳли ёндашув орқали дарс ишланмасини ишлаб чиқдик.

*Дарсинг мақсадлари:*

*Таълимий:* такрорлаш алгоритмларини тузиш имкониятларини ўрганишга эришиш;

Scratch дастуридаги такрорланувчи алгоритмларини тузиш ускуналари ва усулларини билишга эришиш;

Алгоритмларни тузишда “математик”, “мантиқий” ва такрорланиш амалларнинг фарқи ва вазифасини билишга эришиш;

Алгоритмларни тузишда мавжуд функцияларнинг ёзилиш ва фойдаланиш тартибини билишга эришиш;

*Тарбиявий:*

ПДВларнинг Scratch дастурида такрорланувчи алгоритм ускуналари орқали бажариладиган амаллар, уларнинг аҳамиятини ва фойдаланиш тартибини тушунтириш орқали ўқувчиларни бу фанга қизиқиш руҳида тарбиялаш;

*Ривожлантирувчи:*

компьютер билан мулоқот қилиш маданиятини, компьютер саводхонлигини ошириш билан бирга ўқувчиларнинг олган билимларини, айниқса, такрорланувчи алгоритмларни тузиш ҳақидаги билимларини қўллаш орқали ривожлантириш ҳамда интеллектуал салоҳиятини аниқлаш.



*Дарснинг шакли:* амалий.

*Дарсда қўлланиладиган усуллар:* муаммоли вазият, машқ қилдириш, тажриба синов, якка ва кичик гуруҳларда топшириқ бажариш.

*Дарснинг жиҳозланиши:* компьютер синфи ва Scratch дастури, проектор, экран, олдиндан тайёрланган алгоритмларнинг лойиҳалари ва топшириқлар ва улар бўйича вазифалари ёзилган файл.

*Дарсдан кутилаётган натижалар:* ўқувчилар

такрорланувчи алгоритмларни тузишни ўрганишади;

такрорланувчи алгоритмларнинг блокларини амалда бажара олишади;

Scratch дастурининг ускуналаридан фойдаланиш усуллари ва вазифасини ўрганишади;

такрорланувчи алгоритмларнинг ўзига хос хусусиятини, алгоритмларни тузишнинг кетма-кетлигини билиб олишади.

алгоритмдаги математик ифода ва мантиқий амалларни алмаштириш орқали янги алгоритмларни ҳосил қилишни ўрганади.

### **МАШҒУЛОТНИНГ БОРИШИ**

Дарс бошлашдан олдин ўқитувчи ўқув хонасидаги компьютерларга Scratch дастури ўрнатилганлиги, ишчи ҳолати ва компьютерлар сони ўқувчилар сонига мослигини аниқлайди. Амалий машғулотда ўқувчиларга бериладиган вазнли топшириқлар сони ва уларни бажариш тартибини, интеллектуал салоҳиятини аниқловчи топшириқларнинг тайёр лойиҳаларни текшириб кўради. Якка ва кичик гуруҳ учун топшириқларни ажратиб алоҳида тайёрлигини текширади. Якка ва кичик гуруҳларда ишлаш 2 босқичда амалга оширилади, яъни топшириқни бажариш,

тайёр алгоритм лойиҳасини интеллектуал салоҳияти орқали ўзгартириб, топшириқ алгоритмини тузиш талаб қилинади. Ўқув хонасидаги компьютерларнинг ҳаммаси ёқиб қўйилади ва сервер компьютердан мижоз компьютерларга тасодифий тақсимлаш орқали файллар ёзилган папка дарс санаси билан узатилади.

### **Ташкилий қисм (2 дақиқа).**

Кўнғироқ чалиниб, дарс бошланади. Ўқувчилар олдиндан биладиган қонуният ёрдамида компьютерларга ўтиришади. Ҳар бир ўқувчига битта компьютер бўлиши шарт. Ўқитувчи ўқувчиларга дарс бошланганлигини айтади ва дарсга ҳаммининг тайёргарлигини сўрайди. Шу пайтда ўқувчилар ўтирган компютери ишлаётгани ва топшириқлар ёзилган папка борлигини текширади. Ўқувчиларнинг жавобларига нисбатан ўқитувчи муаммоси бўлган ўқувчиларга ёрдам бериш билан бирга навбатчи кимлигини аниқлайди ва ундан ўқувчилар сони, сабабли ва сабабсиз дарсга келмаган ўқувчиларни сўрайди. Ўқувчилар ИТ бўйича 3-4 та янгиликларни айтади. Шу вақтда ўқитувчи гуруҳ журнали тўлдириб қўяди.

**Уйга вазифа ҳамда ўтилган мавзунинг такрорлаш (2 дақиқа).** Уйга вазифани бугунги папканинг ичига ташлаб қўйишни тайинлайди ва ўқувчиларга 5-6 та саволлар билан ўтган мавзунинг такрорлатиб олади. Масалан, қуйидаги саволлар билан:

1. Такрорланиш алгоритмларнинг асосий турлари қайсилар?

2. Олд шарт ва сўнг шартга асосланган такрорланиш алгоритмларини фарқи нимада?



3. Scratchда такролланиш жараёнларига оид элементларнинг нечта тури бор?

4. 1 дан 10 гача сонларнинг йиғиндисини ҳисоблаш алгоритмини ким оғзаки баён қилади.

5. Юқоридаги алгоритмни тузиш учун Scratchнинг қайси элементларидан фойдаланилади.

Саволларга ўқувчилар томонидан жавоблар кўп вариантларда олинади ва қисман ўқувчилар, тўлиқ ўқитувчи томонидан жавоблар тўлдирилади.

**Янги мавзуга замин тайёрлаш (3 дақиқа).** Ўқувчилар диққатини проектор экранига тортиб, Scratch дастурида такролланивчи алгоритмларга ишлатиладиган элементларни кўрсатади. Берилган n гача бўлган сонларнинг йиғиндисини топиш алгоритмининг лойиҳасини очади. Ўқувчиларга бу қандай алгоритм ва нима вазифани бажариши сўралади. Шунингдек, берилган n! ни ҳисоблаш алгоритмини қандай тузиш мумкинлиги масаласини кўяди. Ўқувчилар томонидан бу муаммоли вазиятда турли ечимлари эшитилади ва агар тўғри ечим айтилса тўхталади. Агар ечимнинг тўғри жавобини ўқувчилар айтмаса, ўқитувчининг ўзи олдинги алгоритмга битта ўзгартириш кириш орқали бу алгоритмни яратиш мумкинлигини кўрсатади. Бу эса ўқувчиларда ижодий фикрлашнинг натижасини кўрсатиши

керак. Бу топшириқлар дарснинг асосий қисмидаги якка ва кичик гуруҳда ишлашда биринчи топшириқни бажариш ва берилган лойиҳанинг ижодий ёндашув орқали ўзгартириб, иккинчи топшириқнинг алгоритмини тез яратишдир. Бунда айнан иккинчи топшириқнинг бажарилиши ўқувчининг интеллектуал салоҳиятини аниқлашга ёрдам беради.

**Асосий қисм.** Бу қисм якка ва кичик гуруҳларда ишлаш босқичларга бўлинади.

**Якка ишлаш (15 дақиқа).** Бу босқичда ўқувчиларга жорий дарс учун берилган папканинг ичидаги “Якка ишлаш учун” файлни очиб, ундаги 2 та топшириқ ва топшириққа оид вазибаларни олади.

**Топшириқ бажариш босқичи.** Файлдаги берилган топшириқларни бажариш ва лойиҳа сифатида жорий папкада сақлаш талаб қилинади.

Қуйидагича топшириқлар берилган бўлсин:

1. Берилган N гача бўлган бутун сонларнинг 5 га карралиларининг йиғиндисини ҳисоблаш алгоритмини тузинг.

2.  $y = 4 \cdot x^3 + 3$  функциянинг  $x \in [-10, 10]$  оралиқда  $p = 0,25$  қадам билан ҳисоблаш алгоритмини тузинг.

Топшириқни олган ўқувчи тестлаш вариантларини ишлаб чиқади. Масалан, 1-топшириқ учун қуйидагича:

**1-жадвал  
Топшириқ**

Топшириқ		
Берилган N гача бўлган бутун сонларнинг 5 га карралиларининг йиғиндисини ҳисоблаш алгоритмини тузинг.		
Тестлар вариантлари		
Кириш маълумотлари	Чиқиш маълумотлари	Натижанинг тўғрилиги
30	105	
10	15	



52	275	
101	1050	
15	30	

Бу топшириқни бажариш учун ўқувчи:


1. 3 та N, S, i ўзгарувчиларни яратади.
2. Берилган N учун муносабат шартини киритади.
3. 5 га каррали эканлигини аниқлаш шартини киритади.

4. Йиғиндини ҳисоблаш амалини ёзади.

5. i ўзгарувчининг қийматини бирга оширувчи амални ёзади.

6. Кетма-кет 10 алгоритмлаш элементларини жойлаштиради.

7. Шарт ва амалларни алгоритмга жойлаштиради.



2-расм. Топшириқнинг алгоритми

Берилган 2-топшириқни ҳам шу каби бажарилади. 2 та топшириқни бажариш учун ўқувчига жами минимал 5 дақиқа ва максимал 7 дақиқа вақт ажратилади.

Бажарилган топшириқлар жорий дарс папкасига жойлаштирилади.

**Интеллектуал салоҳиятни аниқлаш босқичи.** Ўқувчиларга 3 та лойиҳа файли ва мос равишда вазифа берилган бўлади. Ўқувчи берилган лойиҳани очиб киритиш керак бўлган ўзгаришни топиши керак. Бунда берилган ўзгаришни вазнлиларидан фойдаланилади. Масалан, қуйидагича 3 та вазифа берилган бўлсин.

2-жадвал.

Топшириқ намунаси

1-топшириқ (1 вазнли)
-----------------------



```

    ni bosilganda
    N= ni so'ra va kut
    set N to javob
    set i to 1
    set S to 0
    gacha takrorla i > N
    agar i ni S ga qoldiqi bo'l = 0 dan keyin
    set S to S + i
    set i to i + 1
    S ni ayt
    
```

3-расм. Алгоритм лойиҳаси

Вазифа

Берилган алгоритм лойиҳасини 3 математик ифодани алмаштириш билан  $n!$  ни ҳисоблаш алгоритмига айлантиринг.

Тестлаш учун вариантлар

Кириш маълумотлари	Чиқиш маълумотлари	Натижани белгилаш
2	2	
3	6	
5	120	
8	40320	
0	1	

Бу берилган вазифани бажариш учун қуйидаги амалларни бажариши керак:

1.  $S$  қийматини 1 га тенглаштиради.

2. Такрорланиш жараёни ичидаги шарт амалини олиб ташлайди.

3.  $S$  га қиймат беришдаги “+” амалини “\*” амалига алмаштиради.






4-расм. Вазифанинг алгоритми.  
2-жадвал.

Топшириқ намунаси

2-топшириқ (2 вазли)



5-расм. Алгоритм лойиҳаси

Вазифа

Берилган алгоритм лойиҳасини 4 та ўзгартириш билан N натурал соннинг рақамлар йиғиндисини ҳисоблаш алгоритмига айлантиринг.

Тестлаш учун вариантлар

Кириш маълумотлари	Чиқиш маълумотлари	Натижани белгилаш
52	7	
25	7	
108	9	
2365	16	
5632	16	



Бу берилган вазифани бажариш учун қуйидаги амалларни бажариши керак:

1.  $i$  ўзгарувчини алгоритм лойиҳасидан олиб ташланади.

2. Такрорланиш жараёнидаги  $i$  ўзгарувчи ўрнига 0 ни ёзилади.

3.  $S$  га соннинг рақамларини йиғиш ифодаси ёзилади.

4.  $S$  натижани чиқариш амалини алгоритмнинг охирига ёзиб қўйилади.

```

graph TD
    Start([ni bosilganda]) --> N[N = ni so'ra va kut]
    N --> SetN[set N to javob]
    SetN --> SetS[set S to 0]
    SetS --> LoopStart[N = 0 gacha takrorla]
    LoopStart --> SetS2[set S to S + N ni 10 ga qoldiqi bo'l]
    SetS2 --> SetN2[set N to N - N ni 10 ga qoldiqi bo'l / 10]
    SetN2 --> LoopStart
    LoopStart --> PrintS[S ni ayt]
    
```

6-расм. Вазифанинг алгоритми

3-жадвал. Топшириқ намунаси

3-топшириқ (3 вазнли)

```

graph TD
    Start([ni bosilganda]) --> N[N = ni so'ra va kut]
    N --> SetN[set N to javob]
    SetN --> SetI[set i to 1]
    SetI --> SetS[set S to 0]
    SetS --> LoopStart[i > N gacha takrorla]
    LoopStart --> SetS2[set S to S + 1 / i]
    SetS2 --> SetI2[set i to i + 1]
    SetI2 --> LoopStart
    LoopStart --> PrintS[S ni ayt]
    
```

7-расм. Алгоритм лойиҳаси

Вазифа

Берилган алгоритм лойиҳасини ўзгартириш билан  $S = 1 + \frac{1}{2!} + \frac{1}{3!} + \dots + \frac{1}{N!}$  математик ифодани ҳисоблаш алгоритмига айлантиринг.

Тестлаш учун вариантлар

Кириш маълумотлари	Чиқиш маълумотлари	Натижани белгилаш
2	1.50	
3	1.67	
10	1.72	
15	1.72	
1	1	

Бу берилган вазифани бажариш учун қуйидаги амалларни бажариши керак:

1. Факториални ҳисоблаш учун  $P$  ўзгарувчи яратилади.

2.  $P$  ўзгарувчига 1 қиймат берилади.





3. Такрорланиш жараёнида  $P$  ўзгарувчига факториални ҳисоблаш учун ифода киритилади.

4. Такрорланиш жараёнида  $S$  ўзгарувчини ҳисоблаш ифодасига  $i$  ни ўрнига  $P$  ўзгарувчи кириталади.



8-расм. Вазифанинг алгоритми


Бу вазифаларни бажаришда ўқувчилар бошқача ёндашувлар билан ҳам лойиҳа алгоритмларини ўзгартириши мумкин. Аммо берилган тест мисоллари тўғри чиқиши лозим. Ўқувчилар вазифаларни бажариб, жорий папканинг ичига янги яратилган алгоритмларни жойлаштириб қўяди.

**Мустаҳкамлаш қисми (Якка ишлаш босқичини тугатиш)**

(1 дақиқа). Ажратилган вақт тугаганидан сўнг, ўқитувчи ўқувчилардан бажарилган алгоритм лойиҳалари ва натижалари файлга ёзиб, папкага жойлаштиришни айтади. Ўқувчилардан муаммоли, тушунмай қолган саволларга қисман ўқувчилар ва тўлиқ ўқитувчи томонидан жавоб берилади.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муродова З.Р. Psychological and pedagogical aspect of the emergence of intellectual models of autor'stests. // Electronic journal of modern science, education and training, №1. Khorezm. 2020. P. 284-291
2. Муродова З.Р. Methods of formation and identification of intellectual potential in the field of information technologies. // Electronic journal of modern science, education and training, №4. Khorezm. 2020. P. 56-62
3. Муродова З.Р. Intellect the mechanism for the development of tasks oriented to the visual potential // Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT) Vol.12 No. 4 (2021). (Scopus) DOI: <https://doi.org/10.17762/turcomat.v12i4.478>.
4. Муродова З.Р. Theoretical basis, methods and methods of formation and Determination of potential in the educational system // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), Impact Factor: 6.410. Case of Asia.
5. Murodova Z.R. The formation and definition of the intellectual potential in education. ISJ Theoretical & Applied science. Philadelphia, USA. 2020. P. 113-116.



## ALISHER NAVOIY RUBOIYLARI BADIYYATI

Davlatova Zuxra Eshchon qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035562>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

"Nazm ul-javohir", ruboiy, istiora, tashbeh, nido, ruju', tajohuli orif, tazod, takrir, talmih, tanosub, irsoli masal, mukarrar

### ANNOTATSIYA

*Hazrat Navoiy "Nazm ul-javohir" asari ruboiylari badiyyati, undagi ma'naviy san'atlarning qo'llanishi, ulardan ayrimlarini o'rganish, misollar yordamida ochib berish, ularni bevosita tahlil etish, badiiy san'atlarda shoir mahoratini yoritish.*

Ming yillik tarixga ega bo'lgan adabiyotimizda badiyyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu san'atkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma davrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. She'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchan ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqin gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyli, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. U yoki bu shoir ijodi, asariga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va

ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida e'tibor qilingan. Badiiy san'atlar Sharq mumtoz adabiyotining, shu jumladan, o'zbek adabiyotining o'ziga xosligi, milliyli, latofati, nazokati, rang-barangligi, jozibadorligi va ta'sirchanligini ifodalovchi vositadir. Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy iqtidorini namoyish qilish emas, balki ijodkor badiiy tafakkuri dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan.<sup>1</sup> So'z balog'atida yuksak martabaga ega bo'lgan hazrat Navoiy ijodi buning yorqin dalilidir. Alisher Navoiy she'riyatida qo'llanilgan turfa xil badiiy san'atlarni kengroq tadqiq qilish orqali shoir

<sup>1</sup> Hojiahmedov.A.Mumtoz badiyyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406



poetikasiga oid muayyan xulosalarga kelishimiz mumkin. Ushbu maqsadga erishish uchun Navoiy ruboiylarida istifoda etilgan badiiy san'atlarni tahlilga tortishni joiz deb topdik.

Navoiy ruboiylarida qo'llangan badiiy san'atlar jozibasi beqiyosdir. 266 ruboiydan iborat "Nazmul-javohir"(1485)da axloqiy-ta'limiy qarashlar o'z aksini topgan. Navoiy "Nazmul-javohir"("Gavharlar tizmasi")asarida Hazrat Alining hikmatlarini she'riy san'atlar vositasida, ruboiylar orqali talqin qilgan. Asar Husayn Boyqaro "Risola" siga javoban 1485-yilda yozilgan."Nazmul-javohir" ("Gavharlar tizmasi") asari, asosan, tasavvuf g'oyalari targ'ibiga bag'ishlangan. Unda tasavvufdagi asosiy tushuncha va tamoyillar nihoyatda sodda va tushunarli tilda talqin qilinadi".<sup>2</sup> Ushbu asar boshidan oxirigacha ta'lim-tarbiyaga doir.

Alisher Navoiy «Nazmul-javohir» asari tarkibidagi ruboiylarda misralarni turfa badiiy san'atlar bilan bezagan. Shu bilan birga tilining mumkin qadar sodda, aniq bo'lishiga intilgan. Navoiy "Nazmul-javohir" muqaddimasida shunday deb yozgan:

*Yo rab, bu javohirlarniki, manzum etdim,  
Chekkanim anga har nukta<sup>3</sup>ki, ma'lum etdim,  
Har nuktaga bir tarona marqum etdim,  
Ko'p gavhar aning zimnida maktum etdim<sup>4</sup>*

Ma'nosi:

*Ey xudo, bu javharlarni she'r bilan yozib  
chiqdim,*

<sup>2</sup>To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

<sup>3</sup>Nukta - chin tozama'noli so'z.

<sup>4</sup>Navoiy A.Mukammal asarlar to'plami.20 tomlik.T.15. - B. 210. Keyingi o'rinlarda sahifani ko'rsatish bilan cheklanamiz.

*Turli nozik ma'noli so'zlarni terib  
ularning(mazmunini) ma'lum qildim.*

*Har bir shunday so'zga bir ohang berdim.*

*Ularning orasiga ko'p gavharlarni  
berkitdim<sup>5</sup>.-*

Ruboiyda Hazrat Navoiy "Yo rab" deya Ollohga xitob qiladi. She'riyatda juda keng qo'llangan ushbu nido usuli lirik qahramonning boshqa shaxslarga, narsalarga xitob qilishi, ularga murojaat etgan xolda o'zining ichki kechinmalari, tuyg'ulari, tilaklari, mulohazalarini bayon qilishni nazarda tutadi. Bu xil tasvir asardagi timsollarning ma'naviy qiyofalarini jonliroq, ta'sirchanroq ifodalashga xizmat qiladi. "Nazm ul-javohir" asari diniy mazmundagi asar hisoblanadi. Bunday mazmundagi asarlarda hamd, na't, munojot va boshqalarda Ollohga, payg'ambarga iltijo tarzida aks etadi.<sup>6</sup> Ruboiydagi "javohir" va "gavhar" so'zlari majoziy ma'noda qo'llangan. Shoir bu bilan hazrat Alining hikmatlarini javharga, o'zi qo'shgan so'zlarni gavharga qiyos qiladi. Bu hol bayt ma'nosiga xalal bermagan, aksincha, uni yanada kuchaytirgan. Mumtoz adabiyotda bu istiora san'ati deb ataladi. U so'zni o'z ma'nosida emas, balki majoziy ma'noda qo'llash san'ati sanaladi. Anvar Hojiahmedov "Mumtoz badiiyat malohati" asarida ikki ma'no o'zaro o'xshashlikka asoslanganligi jihatidan istiorani tashbih san'atiga yaqin turishini qayd etadi<sup>7</sup>. Istiora aksar hollarda kinoyaga, ya'ni mushabbihi tushirilgan tashbihga teng keladi. Tuzilishiga ko'ra bir so'zdan yoki iboradan

<sup>5</sup>Qayumov A. She'r durdonalari.<https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/aziz-qayumov-she-r-durdonalari.html>

<sup>6</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(110-111b)

<sup>7</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(53b)





tashkil topgan istiora (“gul” kabi ) sodda istiora deyiladi.<sup>8</sup> “Javohir” va “gavhar” istioralari tuzilishi jihatdan sodda istiora hisoblanadi. Ifodalanishiga ko’ra otlardan tashkil topgani istioralar “istiorai asliyya”, fe’llardan tuzilganlari esa “istiorai tabiiyya” deyiladi.<sup>9</sup> Biz tahlil qilayotgan istioralarimiz otlardan tarkib topganligi sababli “istiorai asliyya”dir. Tarkibiga ko’ra ham istioralar ikkiga bo’linadi. O’xshatilgan narsa yo tushuncha, ya’ni mushabbih tushirilgan istioralar “istiorai musarraha”, o’xshagan narsa, ya’ni mushabbihun bih tushirilgani esa “istiorai makniyya” deb ataladi.<sup>10</sup> “Javohir” va “gavhar” istioralari “istiorai musarraha” sanaladi.

“Adab ul mar’i xayrun zahabihi”. Bu to’rlik adabga tegishli. – Adab ko’zga tashlanib ko’rinib tursa, u oltindan yaxshiroqdir. Navoiy ana shu fikrga shoirona libos kiygazgan.<sup>11</sup>

*Oltin-kumush etma kasb davlat kunidin,  
Kim tortar adab ulusni mehnat tunidin,  
Gar yo’qtur adab ne sud oltun unidin,  
Ening adabi xushroq erur oltunidin(230-  
bet) -*

Baytdagi misralarda hazrat Navoiy “Adab oltindan yaxshi” degan fikrni kengroq sharh etmoqda. Baytda “irsoli’masal” san’ati mohirona qo’llangan. Baytning oxirgi misrasidagi “Ening odobi uning oltinidan yaxshiroqdir” - degan hikmat orqali irsoli’masal san’ati yuzaga kelgan. Irsoli masal “misol keltirish” ma’nosini bildirib, she’riyat va nasrda ifodalanayotgan biron

fikrni isbotlash uchun xalq maqoli yoki hikmatini keltirish san’ati sanaladi. Shuningdek baytda “mehnat tunidin” birikmasi o’z ma’nosida kelmagan, balki “qiyin vaziyat,og’ir damlar” ni anglatadi. Demak, u istiora san’ati bo’la oladi. Ushbu istiora tuzilishiga ko’ra “murakkab istiora”, ifodalanishiga ko’ra “istiorai asliyya”, tarkibiga ko’ra esa “istiorai musarraha” hisoblanadi.

*Har kimki, xushu’ uyi<sup>12</sup>ni maskan qilg’ay,  
Olam siji<sup>13</sup>nin haq anga ma’man qilg’ay<sup>14</sup>.  
Haq vahmidin ulki yig’lamoq fan qilg’ay,  
Ul ashk<sup>15</sup> aning ko’zini ravshan qilg’ay”-*

Baytdan shunday xulosa kelib chiqadi: xudo vahmidan qo’rqib yig’lagan kimsaning ko’z yoshlaridan uning ko’zi nur topadi, ravshanlashadi. Ammo bu hikmatning shakli boshqacharoq. “Buqoul mar’iy min hashyat illahi qurratul ayni”. Bu hikmat “Kishining ollohdan qo’rqib yig’lashi ko’zni ravshan qiladi” deb tarjima qilingan (Navoiy, MAT, 15-jild. B.230).<sup>16</sup> Demak bu baytda ham irsoli’masal san’atining betakror ko’rinishiga guvoh bo’lamiz. Ruboiyda “yig’lamoq” va “ashk” ya’ni “ko’z yosh” so’zlari tanosub san’atini yuzaga keltirgan. She’r baytlarida ma’no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so’zlarni qo’llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san’ati tanosub deb ataladi.<sup>17</sup>

*Xushxo’yliq<sup>18</sup> ilaki, sarnavisht<sup>19</sup>o’ldi anga,  
Do’zax so’zi lutfi din bihish to’ldi anga,  
Voy ul kishigakim, xulqi zisht<sup>20</sup>o’ldi anga,*

<sup>8</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(53b)

<sup>9</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(54b)

<sup>10</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(54b)

<sup>11</sup>Qayumov A. She’r durdonalari.<https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/aziz-qayumov-she-durdonalari.html>

<sup>12</sup>Xudodan qo’rquv uyini

<sup>13</sup>Olam ishi ma’nosida

<sup>14</sup>Omonlik beradi

<sup>15</sup>Ko’z yosh

<sup>16</sup>Qayumov A. She’r durdonalari.<https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/aziz-qayumov-she-durdonalari.html>

<sup>17</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(80)

<sup>18</sup>Yaxshitabiat,go’zalxulq

<sup>19</sup>Taqdir,qismat

<sup>20</sup>Xunuk xulq



*Bu xulqi bila yamon sirisht<sup>21</sup>o'ldi anga.*

Ushbu ruboiyda "Vaylun liman so'a xulqahu va qabaha xalqahu – "Xulqi yomon va xalqiga «huradigan» kishining holiga voy! " - hikmati she'riy usulda sharh qilingan. Bu baytda ko'pgina she'riy san'atlar o'z ifodasini topgan. Ikkinchi misradagi "do'zax" va "bihisht", birinchi misradagi "xush xo'yliq" ya'ni "go'zal tabiat" va uchinchi misradagi "xulqi zisht" – "xunuk xulq" so'zlari o'zaro tazod san'atini yuzaga keltirmoqda. Bilamizki, tazod san'ati asosini zid ma'noli so'zlar tashkil etadi.

*So'z durki nishon berur o'lukka jondin,*

*So'z durki berur jong'a xabar jonondin,*

*Insonni so'z ayladi judo hayvondin,*

*Bilkim, guhare sharifroq yo'q andin.-*

Ruboiyning birinchi va ikkinchi misralari boshida kelgan "so'z durki" lafzi takror qo'llangan va takrir san'atini hosil qilgan. Takrir "takrorlash" ma'nosini ifodalovchi lafziy san'at bo'lib, she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish ushbu san'atning asosiy xususiyati sanaladi.<sup>22</sup> Hazrat Navoiy ushbu san'at orqali so'z ta'rifini go'zal istifoda qilgan. U yana boshqa

*Rif'at<sup>23</sup>aro favq<sup>24</sup>i Arshi a'zam<sup>25</sup>so'z emish,*

*Jonbaxsh<sup>26</sup>dami Masihi Maryam so'z emish,*

*Ma'ni durri anda barcha mudg'am<sup>27</sup>so'z emish,*

*Ulkim anga ma'ni o'lmag'ay ham so'z emish.-*

ruboiysida ham so'z ta'rifini davom ettirgan. Misralarda so'z "rif'at aro favqi Arshi a'zam" ya'ni "yuksaklik aro yuqorida turuvchi eng ulug' arsh", "jonbaxsh dami Masihi Maryam" - "jon bag'ishlovchi Masihi

Maryam" va "ma'ni durri" – "ma'no marvaridiga" o'xshatilgan. Bu xil tasvir tashbih san'atining betakror namunasi. Tashbih - Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, "o'xshatish" ma'nosini ifodalaydi. Tashbih san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'zi o'ngida aniqroq, jozibalibroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi.<sup>28</sup> Ruboiyning ikkinchi misrada talmih san'ati mavjud. Talmih ("nazar solmoq") she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir. Shoirilar muhabbat mavzusidagi asarlarda ko'pincha Sharqda keng tarqalgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Vomiy va Uzro", "Tohir va Zuhro" kabi qissalar, dostonlarning nomiga ishora qiladilar.<sup>29</sup> Hazrat Navoiy "Masihi Maryam"ga ishora orqali, so'zni ruhululloh Iso Masihga qiyoslaydi. Iso-payg'ambar dami (nafasi) bilan o'liklarni tiriltira olishi, og'ir bemorlarni davolay olishi kabi xususiyatlari bu nomning adabiyotda faol qo'llanishiga sabab bo'lgan. Iso (a.s) nomi o'rniga Masih, Ruhulloh nomlari ham faol qo'llanadi.

*Olloh, Olloh! Bu dag'i inshomu ekin,*

*Yo ruhi quds fayzidin iymomu ekin,*

*Insho demay, anfosi Masihomu ekin,*

*Yo qudrati Ollohu taolomu ekin.-<sup>30</sup>*

Ushbu ruboiyda takrir, talmeh, ruju' va tajohuli orif kabi she'riy san'atlar mavjud. Birinchi misradagi "insho" so'zi uchinchi misrada takrorlanar ekan, shoir shu so'z

<sup>21</sup>Xulq, xislat

<sup>22</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(100b)

<sup>23</sup>Yuksaklik, baland martabalik

<sup>24</sup>Ust,yuqori

<sup>25</sup>Eng ulug' arsh

<sup>26</sup>Jon bag'ishlovchi

<sup>27</sup>Kirishgan,birikkan,yashiringan.

<sup>28</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(14b)

<sup>29</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(42b)

<sup>30</sup>Navoiy A.Nazm ul-Javohir.http://library.ziyonet.uz/uz/book/71893



anglatayotgan ma'noni ta'kidlash maqsadida takrir san'atidan foydalangan. Uchinchi misrada "anfosi Masihomu" deya Iso Masihga ishora qilinmoqda. Bu tasvir esa talmeh san'atini yuzaga keltirgan. Misralarda ruju' san'ati ham mavjud dedik. Hazrat Navoiy so'zga ta'rif berar ekan, ikkinchi misrada uni "qudsi fayzidan iymo"ga o'xshatib, uchinchi misrada bu fikridan qaytib "anfosi Masiho"ga qiyoslaydi. Ruju'-arabcha "qaytish" ma'nosini bildirib, she'riyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalagan fikri, qo'llagan badiiy tasviriy vositasidan qaytgandek bo'lib, keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda, she'riy san'atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to'ldirish usulidir.<sup>31</sup> Ruboiy misralarida boshdan oxirigacha tajohuli orif san'ati qo'llangan. Tajohuli orif "bilib turib bilmaslikka olish" ma'nosini ifodalovchi ushbu she'riy san'at shoirning baytda aks ettirilayotgan biron obrazli ifodani aniq aytmasdan o'zini bilib bilmaslikka olgandek ko'rsatishni nazarda tutadi.<sup>32</sup> Baytlarning har birida biron o'xshatish keltirilgan bo'lib, shoirning bilib bilmaslikka solishi misralar jozibadorligini kuchaytirgan. Anvar Hojiahmedov ta'kidlaganidek, to'g'ridan to'g'ri o'xshatishga nisbatan bu xil yashirin qiyoslash o'quvchiga zavq bag'ishlaydi.

She'riy san'atlar hazrat Navoiy lirik ijodida o'zgacha jilo kasb etganini yuqorida "Nazm ul-javohir" asaridagi ruboiylar tahlili orqali ko'rib chiqdik. Ular baytlarning badiiyatini va ma'nosini yanada ta'sirchan, aniq, shu bilan birga betakror tasvirlashga xizmat qilgan

<sup>31</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(47b)

<sup>32</sup>Hojiahmedov.A.Mumtoz badiiyat malohati.- T.:Sharq,1998-2406(35b)




## XOLCHAYON YODGORLIGINING ARXEOLGIK AHAMIYATI

Toshmurodova Sarvinoz Quvondiq qizi

Denov tadbirkorlikva pedagogika instituti talabasi

saratoshmurodova908@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035600>



### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Pugachenkova,  
Qorabog'tepa, Yunon-  
Baqtriya, Xotan madaniyati,  
Samarqand, Pandjikent

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Xolchayon majmuasi tarkibiga kiruvchi Qorabog'tepa yodgorligining organilishi, uning arxeologik topilmalari, tuzilishi, tarixiy va bugungi kundagi ahamiyati haqida keng yoritib berilgan.*

### KIRISH

Barchamizga malumki Mustaqillik yillarida qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu ananalari ruhida tarbiyalash boyicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli bizga ma'lum va noma'lum bo'lgan arxeologik obyektlar va qadamjolarini chuqurroq o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu orqali biz o'z hududimizda mavjud bo'lgan obyektlarni jahonga tanitishimiz va yosh avlodni vatanga muhabbat hissini yanada chuqurroq singdirishimiz mumkin. Mana shunday arxeologik obyektlardan biri Xolchayon yodgorligidir.

Xolchayon — Yunon-Baqtriya va kushonlar davri madaniyatiga oid yodgorliklar majmuasi (mil. av. 4— mil.5-asr). Surxondaryo viloyatining Denov tumani hududida joylashgan. Bir necha tepalik (Xonaqohtepa, Qorabog'tepa, Maslahattepa va boshqalar)dan iborat. San'atshunoslik institutining G.A.Pugachenkova rahbarligidagi arxeologiya san'at

ekspeditsiyasi o'rgangan (1959—63). Xonaqohtepadan mil. av. 2—1-asrlarga oid hukmdor saroyi qoldig'i topilgan. Bino to'g'ri to'rtburchak shaklda, maydoni 35×26 m bo'lib, markaziy fasadi (old tomoni) to'rt ustunli ochiq ayvon (16,5×7 m)dan iborat. Yog'och ustunlar ohaktoshdan ishlangan tagkursiga o'rnashtirilgan. Ayvondan katta zalga (17,6×6,1 m) o'tilgan. Zal devorlari osti bo'ylab keng supa yasalgan. Bino fundamenta kvadrat shakldagi xomg'ishtlardan ishlangan, g'ishtlarning sirtiga turli shakldagi tamg'alar bosilgan. Bino bir qavatli, usti tekis qilib yopilgan bo'lib, tashqi qalinligi 2,2 m, ba'zi joylarda 4 m ga yetgan. Zal va ayvon devorlarining pastki qismida devoriy surat izlari topilgan, yuqori qismiga esa haykalchalar ishlangan. G.A. Pugachenkovaning taxminiga ko'ra, saroy yuyechji qabilalaridan birining jabg'usi Gerayga tegishli bo'lgan. Saroy xonalaridan ko'plab paykonlar, oltin ishlangan yirik ko'krak nishonasi, oltin taqinchoklar, ipak parchasi, qimmatbaho tosh munchoq va gemma parchalari, shisha



idishlar, temir qilich, shuningdek, turli qadaxlar, sopol idishlar, ot mingan chavandoz haykalchalari topilgan. Xolchayon majmuasiga kiruvchi Qorabog'tepaning atrofi mudofaa devori (qalinligi asosida 8 m ga yetgan) bilan o'ralgan. Tepada hayot mil. 3-asr boshigacha davom etganligi haqida Vasudeva I tangalari guvoxlik beradi. Umuman, Xolchayondan 50 dan ortiq turli asrlarga oid tangalar topilgan. Ularning eng kadimgisi Yunon-Baqtriya podsholaridan Demetriy (mil. av. 200 y.) kumush tangasi, Geliokl (mil. av. 156—140 y.) tetradraxmasi, Kushon podsholaridan Kadfiz I, Kadfiz II, Kanishka, Xuvishka, Vasudeva I va Vasudeva II tangalari bo'lib, ular nafaqat Janubiy Baqtriya, balki Shimoliy Baqtriya hududlarida ham keng tarqalgan. Xolchayon majmuasi tarkibiga kiruvchi Qorabog'tepa ham alohida ahamiyatga ega. Hattoki uni Qorabog'tepa madaniyati desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qorabog'tepa yodgorligi o'rganishda ko'plab arxeolog olimlar ishtirok etishgan va ish yakunida o'zlaring xulosalarini berishgan. Ayniqsa rus arxeologi G.A.Pugachrnkovaning Xolchayon yodgorligiga bag'ishlab yozgan "Халчаян к проблеме художественной культуры северной Бактрии" va "Северная Бактрии- Тохаристан очерки истории и культуры" asarlari juda qimmatli manba hisoblanadi. Bu manbalar orqali biz Xolchayonning tarixiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglaymiz.

#### NATIJALAR

Qorabog'tepa Qadimgi Xalchayon yodgorligini yanada chuqurroq o'rganish

maqsadida 1962-1963-yillarda qazib o'rganilgan. Dastlab Qorabog'tepa aholi punktining ikkita joyida - shimoliy-sharqiy burchakdagi g'arbiy yonbag'irda va qal'a devorining g'arbiy yuzi o'rtasida ya'ni taxmin qilingan asosiy kirishning shimoliy qismida qazish ishlari olib borildi. Otopsislar birinchi navbatda, Qorabog'tepa hududi uni mustahkam ulkan qal'a devori bilan o'ralganligini tasdiqlashdi. Qorabog'tepa, qurilishi qadimgi davrga borib taqaladi va uchta asosiy qurilish davriga ega, ularning oxirgisi, ehtimol ta'mirlash va tiklash deb nomlangan. Qazish ishlari uning poydevori ulkan chuqurga tushirilganligini, shu bilan birga qal'ani o'rab turgan xandaqqa mo'ljallanganligini ko'rsatdi. Poydevor g'ishtdan qurilgan (kvadrat yon tomonida 40-41 sm, qalinligi 10-12 sm) va balandligi 80 sm ga yetadi. Xom ashyodan qilingan to'siq devorining 44 x 44 x 12-15 sm va 1,30 m ga chiqib ketganligi sababli, asosiy devor paxsa qatorlaridan iborat bo'lib, ulardan uchinchi va to'rtinchisi hisoblanadi. Qurilishda sof, zich qadoqlangan loydan ishlangan mukammal sifatli paxsadan foydalanilgan. Paxsa (balandligi 75-80 sm) qatorlari kesmalar bo'yicha bloklarga bo'linadi (kengligi 1,10 m gacha). Ichkarida, bu bo'shliqlar chizig'i orqasida shaharni mustahkamlashning muhim qismi - qal'a darvozasini qo'riqlagan soqchilar uchun qo'riqchi xonasi bor edi. Hujraning tagligi bo'shliqdan 75-80 sm pastda, tashqi to'siq osti qavatining tagida yotar edi, bu asosan dushmanning faqat plantar o'q otishini ta'minlar edi. Asl devorning yuqori devorlari saqlanib qolmagan Qo'riqchi xonasining kengligi 3,10 m; uning ikkinchi hajmi hali ko'p mehnat talab qiladigan tuproq ishlarining hajmi tufayli aniqlanmagan. Xuddi shu sababga ko'ra, butun devor bo'ylab tortishish yo'lagi,





yakka xonalar yoki faqat tortishish maydonchasi bu yerda cho'zilganmi, deyish mumkin emas. Devorni tubdan qayta qurishning yangi davrida uning qurilishida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Qadimgi devorning pastki qismida, taxminan bo'shliqlar poygasi o'rtasiga qadar, g'arbiy tomondan 1,38 m kenglikda va janubiy tomondan 1,80 m balandlikgacha chiziq chizilgan. Vaqt o'tib, xandaq pastki qismi bo'ylab tosh va qum bilan qattiq tortilgan edi, xuddi shu kabi qadimgi ariqqa suv ham oqib tushayotgan notinch Surxondaryo bugungi kungacha Xalchayan sug'orish kanallari yotog'ini olib yuribdi. Avvalgi xandaqning ushbu qum va shag'al poydevorida yuqorida aytib o'tilgan g'ishtdan yasalgan astar chiqarildi, bu xuddi paxsov massivining uzluksiz qatorini qurish uchun asos bo'ldi. Paxsa zich, ammo asl devor paxsa singari toza emas; unda keramika, suyaklar va boshqa arxeologik qoldiqlar parchalari aralashtirilgan. Ushbu yangi devor devorining massivida, kuchukchalarda (dastlabki taglikdan 3 metr balandlikda 102 ga bo'linmasdan, kengligi 2,30 m<sup>3</sup> bo'lgan otish xonasi tashkil etilgan, ko'rinishda bu yerda bo'shliqlar saqlanib qolmagan, chunki g'arbiy qismning yuqori qismlari tortishish kameraning tomi kamarga o'ralgan va bir muncha vaqt u yonib ketgan, shu sababli qavatda uzluksiz yonib ketgan qatlam mavjud bo'lib, u zinapoyaga tushib ketgan (ko'rinishda, chunki otishni o'rganuvchilarning devorga qarshi qulay pozitsiyasi). Qo'rg'ondan keyin Qorabog'tepa devorining qalinligi poydevorida allaqachon 8 m ga yetgan, unga qo'shni bo'lgan bino, keyinchalik u oxirgi tark etishdan bir oz oldin sodir bo'lgan yong'inda vayron bo'lgan. Qorabog'tepa qal'asi devorining shlyuz qismi va unga qo'shni binolar vayron bo'lganida, devor mavjud bo'lib, uning yuqori o'q otish xonasi

bir tekis loy bilan qoplangan edi. O'q otish xonasining ustma-ust tushishi to'sinli edi. Biroz vaqt o'tgach u yoqib yuborildi, shu sababli yerga doimiy yonib ketgan qatlam bor, u pog'onali pasayishga ega (aftidan, otishchilarning devorga qulay joylashishi uchun). Qayta tiklangandan so'ng Qorabog'tepa devorining umumiy qalinligi poydevorida allaqachon 8 metr ga yetgan edi, o'sha paytda devor bilan qal'a ichki tomondan bir bino tutashgan edi. Keyinchalik u Qorabog'tepaning istehkomlarini tark etishdan biroz oldin, uning qal'a devorining shlyuz qismi va unga tutash binolar vayron bo'ldi. Devor mavjud bo'lishining so'nggi bosqichida yuqori tortishish xonasi daryo toshlari, keramika parchalari va boshqalarni mo'l-ko'l qo'shib qo'ygan bir tekis loy bilan qoplangan, ehtimol to'ldirilgan massa to'g'ridan-to'g'ri xandaqdan olingan va bir vaqtning o'zida tozalangan. Devor allaqachon uzluksiz massivga aylanib ulgurgan - o'q otish, aniqki, faqat tizmalardan amalga oshirilgan. Ammo so'nggi ta'mirdan ko'p o'tmay, Qorabog'tepaning istehkomlari abadiy tark etildi, ko'p asrlik buzilish jarayoni boshlandi, ular shishgan, yumshatilgan devor va puflanadigan qatlamlar tomonidan ushlanib qoldi. Sarkma devorining tepasida, loydan qilingan ramkali inshootlarning ahamiyatsiz qoldiqlari topilgan, bu yerda 16-17 asrlarga oid sirlangan keramika buyumlari topilgan. Devorning keramika parchalari fraksiyonel, past ifodali, ammo xronologik jihatdan ularning barchasi, har qanday holatda, qadimgi sanalar chegaralaridan tashqariga chiqmaydi. Hatto eng so'nggi loy-toshli plomba tarkibida ko'zoynaklar va idishlarning o'ziga xos tagliklari mavjud. Qorabog'tepa istehkomlarini tubdan qayta qurish yillarida shuningdek so'nggi ta'mirlash va qurilish bosqichida tangalar



topilgan. Bu yerga kelgan keramika tarkibida Kushondan keyingi davrga tegishli bo'laklarning yo'qligi sababli I asrga taaluqlidir. Keyinchalik, devorlar va shahar ichkarisidan tutashgan binolar yonib ketadi va devorlarning o'zi asrlar davomida asta-sekin yo'qolib boradi. Poydevordagi xom devorni tubdan tiklash jarayonida uning asosiy massividagi paxsovo ma'lum darajada paxsa ichiga tushgan keramika parchalari bilan belgilanadi. Ularning mavjudligi o'z-o'zidan loy madaniy qatlamlar to'plangan joylarda olinganligini ko'rsatuvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Barcha keramika miloddan avvalgi I asrdan eramizning I asrigacha keng doirada ishlatilgan. Ular arxeologik qazishmalar paytida Toshkent viloyati, Farg'ona, Qarshi vohasi, ammo shu bilan birga qo'chqorlarning stilize qilingan tasvirlari bilan yozilgan qalamlar ustun bo'lgan joylarda joylashgan. Qorabog'tepa singari it haykalchasi shaklidagi miniatyura dastasi Buxoro vohasi chekkasidagi Xo'ja-Azduvani shahridagi chuqurdan Kushon davri qavatida topilgan ham edi. Kema shaklidagi idishlar, yirtqich hayvonlar, grizonlar, maymunlarning figuralari Kushon seramika Xotan madaniyatiga xosdir. Topilmalar orasida qizil gil, qizil burchakli kostryulkalar, devorlarining parchalari, ularning birida ikkita konsentrik chiziqlar orasidagi to'lqinli chiziq shaklida bezak, ikkinchisida esa naqshinkor shtamp mavjud. Miloddan avvalgi II asrgacha. Qorabog'tepaning qal'a devorining paydo bo'lish sanasiga yakuniy aniqlik kiritish loy poydevorining burchak qismida g'isht qazib olingan yirik Kanishki xalkox tomonidan belgilanadi. Ayni shu poydevorlarni o'rganish jarayonida poydevor ichidan tangalar topilgan. Tanga bu yerga tasodifan kelib tushgani aniq emas, balki sehrli maqsadlar uchun qal'a devorini qurish

paytida toshning tamal toshiga tashlangan bo'lishi mumkin. Tanga tashlash odati yaqinda qurilgan bino poydevori Markaziy Osiyo hunarmandlari orasida saqlanib kelingan. Shubhasiz, aynan shu qudratli hukmdor davrida Qorabog 'qal'asini mustahkamlash uchun ikki tepalik o'rtasida kapital ish olib borildi. Birinchi "ildiz" devoriga kelsak, uning sanasi quyidagi mulohazalar asosida belgilanadi: avvalo, bu devor I asrlarga oid G'arbiy uy singari madaniy qatlamlarga o'rnatilmagan. Miloddan avvalgi I asrda qurilgan, ammo materikda va shuning uchun u ulardan oldinda joylashgan bo'lib, devorlar ingichka devorli, qizil-loydan yasalgan bo'laklar, ko'pincha qizil rang bilan ishlangan. Qobadiyan va Balxdan miloddan avvalgi III-II asrlar keramikasiga tipologik jihatdan yaqin bo'lgan (ular orasida bitta bezakli yoki kulrang gil yo'q). Qopqoqli qoplama, bu devorning me'moriy xususiyatlari paxsov devorlarining yotqizilgan qatorlar bilan kombinatsiyasi asosiy massividagi g'isht g'ishtlari Key-Kobad-Shoh qal'a devorlarini yotqizishda qurilish texnikasiga yaqin bo'lib, uning tarixi miloddan avvalgi III-II asrda Paxsova tomonidan tashkil etilgan bo'lib, bo'shliqlar Xayrabadtepning asl, eng qadimgi devori hisoblanadi. Ehtimol, Qorabog'tepaning dastlabki devori tanazzulga yuz tutguncha ancha vaqt o'tishi kerak edi, eng muhimi, uning himoya xususiyatlari rivojlanish shartlariga javob berishni to'xtatdi.

Qadimgi odamlarning harbiy texnologiyasining maqsadi va shaharlarni qamal qilish san'ati. I-I asrlarning oxirida Kanishka boshchiligida amalga oshirilgan devorga o'ralgan qurollar uchun ko'proq istehkomlar yaratish zarur edi. Qorabog'tepaning asl devorlarining tarixini taxminan III-II asrdan kechiktirmasdan boshlash mumkin. Qorabog'tepaning



shimoli-sharqiy burchak massivining eng baland qismida keng tushirilgan qazish ishlari olib borildi. Tabiiy lyuss bu sohada platforma singari gorizental tomon tekislangan. Ko'rinib turibdiki, biz ochmagan qatlamlar tubida, qazish ishlarida qoldiqlari topilgan qadimiy qal'a devori bor. Ba'zi bir bosqichda ushbu devorga tashqi tomondan bino biriktirilgan, uning bir xonasining burchak qismi bizning kesimga tushdi. Qalinligi 80 sm bo'lgan devorlar paxsadan olib tashlandi va qadimiy platformadan atigi 1,20 m balandlikda omon qoldi. Xona ikki qavatli bo'lib, 106 107 yarim metrli to'ldirish bilan ajralib turadi, bu ta'mirdan o'tgan uyning uzoq muddatli yashash ko'rsatkichidir. Pastki qavat zich gips bilan yoritilgan, yuqori qismi quyilgan g'isht bilan yotqizilgan, keyinchalik tanlangan, shu tufayli faqat 4-5 sm qalinlikdagi parchalar saqlanib qolgan, bu qavatdan yuqorida bo'shashgan to'plangan uy qoldiqlari bilan bo'shashgan loy qatlami - keramika parchalari, hayvon suyaklari, organik chirindi topilgan. Devorning etagida, sharq tomonida sopol idishlar va antifiks parchasi topilgan. Keyingi buyuk qurilish davri vayron bo'lganlarni o'zlashtiradigan kuchli Adobe massivini yaratish bilan belgilandi. G'arbiy qismida yuqorida aytib o'tilgan binoning tashqi devoridan yana 3,5 m masofada joylashgan bo'lib, bu massiv gorizental lyuss platformasidan 4,5 m gacha balandlikda saqlanib qolgan, bu yerda Paxsa ketma-ket uchta qatlamda chiqarilgan. qazilmaning bu qismiga keramika parchalari bilan bo'shashgan loy tushdi. Shubhasiz, biz kesgan ulkan paxsi massivi yodgorlik plitasini yaratdi. Ko'p asrlardan so'ng, tepalik yana ishlatilgan. Bu yerda balandligi 0,5-1,0 m gacha saqlanib turadigan, devorlari 75 sm qalinlikdagi g'isht devorlari bo'lgan, sopol parchalari,

o'tin bo'laklari, ko'mir, spool, parchalangan qamish qoldiqlari loy bilan ishlangan. Ushbu uy barpo etilguniga qadar qadimiy paxsi massivi allaqachon qulab tushgan edi. Uning tarkibida oshxona qoldiqlari - kul kostryulkalar, kuygan loy, ko'mirlar, hayvonlarning suyaklari, sopol parchalari topilgan. Ushbu qatlam sirt ustida sodalangan. Yaqinda kolxoz binosi joylashgan tepalikning tepasida, endi biz uchburchak belgisi o'rnatildi, biz uni arxeologik qavatlarini hisoblashda etalon sifatida qabul qildik. Qorabog'tepaning shimoliy-sharqiy qismida qazishma ishlarining tavsiflangan stratigrafiyasida xronologik aniqliklarni kiritamiz. Miloddan avvalgi II-I asrlarning eng qadimgi devori bizning bo'limimizga kirmadi - u shimib olgan paxsoy massivining ochilmagan qatlamiga kiradi. Uning qal'a devorining tashqi yuzi orqasida qurilishi, shubhasiz, o'sha davrda sodir bo'lishi mumkin edi. Deyarli mudofaa ahamiyatini yo'qotdi - devor yonida har qanday maishiy binolarning qurilishi qal'ani himoya qilishning asosiy tamoyillariga ziddir. Shunday qilib, ushbu bino Qorabagtepining dastlabki istehkomlari qurilgan paytdan ma'lum bir xronologik interval bilan ajralib turadi. Uchrashuv uchun xonaning tagida to'plangan ba'zi arxeologik materiallardan foydalanish mumkin, bu uning ishlashining so'nggi bosqichini belgilaydi. Kuydirilgan g'isht bilan yuqori (ikkinchi) qavatning qoplamasi I asrdan II asrgacha bo'lgan zaminni ta'mirlashning o'xshash uslubiga o'xshaydi. Topilmalar orasida bronza halqa va kumush qoplama qalin tanga (diametri - 17-20 mm) bo'lgan juda yashil bronza mavjud bo'lib, ularni afsuski, tozalashdan keyin ham aniqlab bo'lmadi, undagi tasvirlar shu qadar o'chib ketgan edi. Ushbu uyning tashqarisidagi topilmalar orasida antifiksning bir qismi juda qiziq. Bu birinchi





(pastki) qavat bilan ajralib turadigan bino tomining me'moriy dizaynining bir qismi bo'lganmi yoki boshqa bino bilan bog'langanmi, degan xulosaga kelish qiyin. , chunki u jarlikning bo'shashgan qatlamidan olingan. Qanday bo'lmasin, ushbu jar orqali yuvilgan barcha keramika parchalari, asosan, asl nusxada edi.

### **MUHOKAMA**

Tekshiruvda ishtirok etgan arxeologlar o'rtasida bu yodgorlik bahs munozalarga sabab bo'ldi. Yodgorlikning aniq davrini aniqlashda turli xil fikrlar jamlandi. SHu sababli tekshiruvlar davom ettirildi. Olimlarning Qorabog'tepadagi keyingi tekshiruvlari qiziqarli natijalarni beradi, chunki qadimiy shaharning mustahkam qismi asosan Xonaqohtepa singari qadimgi davrga tegishli. Shubhasiz, bu yerda

garnizon joylashgan shahar va osoyishtalikni qo'riqlaydigan ma'muriy va ma'muriy binolar va kazarmalar to'plangan edi.


### **XULOSA**

Bu ma'lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki o'lkamiz qadim davlardan oq rivojlangan madaniyatlarga ega bo'lgan. Yuqorida o'rgangan Qorabog'tepa yodgorligi muhim obyekt hisoblanadi. Uni organish orqali tarixni chuqqurroq o'rganishimizga yordam beradi. Mana shunday arxeologik obyektlarni o'rganish jarayonida ozimiz bilmagan yangi mazlumotlarga ham ega bolamiz va ular haqida bemalol o'z fikrlarimizni bildirishimiz mumkin. Biz bu yodgorliklarimizni tadqiq qilish orqali uni butun dunyoga tanitishimiz va turizm soxasini keng yo'lga qo'ya olamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Пугаченкова. Г.А. Халчаян к проблеме художественной культуры северной Бактрию Т-1966
2. Пугаченкова. Г.А, Ртвеладзе Е.В, Северная Бактрии- Тохаристан очерки истории и культуры Т-1990
3. Ртвеладзе Е.В, Великий шёлковый пут. Т-1999





## TURKISTON – YIRIK MUHADDISLAR YURTI

Mamasidiqov Fazliddin Muzaffar o'g'li

Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, tarix  
yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035628>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*hadis, payg'ambar, islom dini, sahoba, xalifa, sahih, sanad, Al-jome' as-Sahih, Yurishlar kitobi.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola islom tarixida, Turkiston o'lkasidan yetishib chiqqan muhaddislar, ularning ilmiy me'rosi shuningdek hadis ilmi va uning ustunlari haqida ma'lumotlar va mulohazalardan iborat.*

Hadislar haqida so'z borar ekan, ularning tarixi va vazifasi haqida to'xtalmay ilojimiz yo'q. Sobiq ateistik mafkura ta'sirida hadislar xalqimiz e'tiboridan chetda qolgan, natijada ko'pchilik u to'g'risida to'la ma'lumotga ega emas. Ma'lumki, payg'ambar Muhammad alayhissalom hayotlik vaqtlarida jamiki mojarolar ul zot tomonidan Qur'onga muvofiq hal etilib kelingan edi. Payg'ambar vafotlaridan keyin musulmon jamoasi hamda shu davlat tarkibiga kirgan turli xalqlarning har xil masalaga oid savollari va muammolarini xal etishda katta qiyinchiliklar paydo bo'la boshladi. Shunday ayrim muammolarga Qur'onda javob topa olmagan kishilar, payg'ambarning so'zlari, odatlari va ayrim masalalarni xal etishda tutgan yo'llarini eslab, shular asosida hukm chiqara boshlaganlar. Natijada VII asrning o'rtalaridan boshlab Muhammad (s.a.v.) sunnalarini to'plash va kitob holiga keltirish qizg'in tus ola boshlagan. Arabcha Sunna (as-sunna, ko'plikda sunan) – yo'l, yo'nalish, ya'ni "rivoyat", "naql", "xotira",

"odat", "an'ana", "xatti-harakat" ma'nolarini anglatadi. Sunna islomda Qur'ondan keyingi, uni to'ldiruvchi manba, islom ilohiyoti va shariatining ikkinchi asosi sifatida e'tirof etilgan. Shu tariqa hadislarga (payg'ambarning so'zi, odat amali haqidagi ma'lumotlarga) extiyoj va e'tibor kuchayib, turli xil hadis to'plamlari yaratildi. "Hadis" so'zi arab tilida "xabar, hikoya" ma'nosini anglatadi. Bu so'zga sinonim tarzida "Sunnat" so'zini ham qo'llaydilar va u arabchada "yo'l, odat, xabar" ma'nolarini bildiradi [1].

Arab manbalarida yozilishicha, Avvalo, hadis ilmi – rivoyatdir. Tilshunoslik jihatidan "hadis" o'tmishning yangiligidir. Ma'juziy ma'noda esa Rasulullohning gaplari, amallari, qarorlari, xulqlari va ahloqiy sifatleri majmuasi bo'lib, sahoba (payg'ambar safdoshlari) va tobeinlar (payg'ambar safdoshlarining shogirdlari) orqali yetib kelgan". Ma'lumki, hadislarda islom ahkamlari, ya'ni farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, gunoh kabi amal turlaridan tashqari, axloq-odobga





doir dasturlar talqin etiladi. Unda xalq orasida keng tarqalgan axloq-odobga oid maqol, qimmatli hikmatli gaplar ham qamrab olingan. Hadislarda ibodatning tartib-qoidalari va ularni astoydil bajarishga da'vat etish bilan birga insoniy fazilatlar keng tashviq qilingan, insoniylik sha'niga dog` tushiradigan razil xatti-harakatlar keskin qoralangan. Shuning uchun ham islomning ilk tarqalish davridanoq musulmonlar orasida hadislarga juda katta ahamiyat berilgan. Eshitgan har bir hadisni yanglishmay, asl holicha boshqalarga yetkazishga qat'iy rioya qilingan. Bu to'g'rida Muhammad Payg`ambar o'zi musulmonlarni tez-tez ogohlantirib turgan. Hadis mazmuni va iborasini buzib yoki o'zicha yangi hadis to'qib tarqatuvchilar qattiq qoralangan. Bunday talabchanlik payg`ambar vafotidan ancha keyingacha ham hadislarning sof holda saqlanib turishiga imkon bergan.

Lekin keyinchalik turli sinfiy va ijtimoiy ziddiyatlar, islomdagi ichki g'oyaviy kurashlar natijasida ko'pincha soxta hadislar ham yuzaga kela boshlagan. Natijada yirik ulamolar hadislarni ishonchli manbalar asosida qayta ko'rib chiqish va ularni turli xatolardan tozalab, asl holiga qaytarish uchun ancha zahmat chekishgan. Hadislarni og'zaki holdan kitob shakliga keltirish hijriy yil hisobining ikkinchi asridan, ya'ni milodning VIII asridan avj olib ketgan. Muayyan bir hadis asosida huquqiy va urf-odat bo'lgan yo'l-yo'riqlar, diniy marosimlar sofligi, noz-ne'matlar haqidagi ko'rsatmalar, maishiy turmushdagi axloq va odob tartib-qoidalari keltirib chiqarilgan. Qur'onning ayrim ko'rsatmalariga amal qilish ham ko'pincha uning ma'lum matni bilan bog'liq bo'lgan hadis orqali belgilanar edi. Shu bilan birga tarixiy xarakterga ega bo'lgan hadislar bo'lgan; ular Muhammad (s.a.v.) yoki sahobalar tarjimai holidagi

ayrim tafsilotlarni aks ettirgan edi. Shu hadislar asosida VIII - IX asrlarda Muhammad Payg`ambar va uning yaqinlari, harbiy yurishlari haqida "Yurishlar kitobi" yozilgan. Bu arab tilidagi ilk tarixiy asar va Muhammad Payg`ambar tarjimai holi edi. Shu tariqa, hadislarni muayyan qismi - ilk islom tarixi bo'yicha bir manba bo'lib xizmat qilgan.

Rus sharqshunos olimi I.P. Petrushevskiyning yozishicha, hadislarning dastlabki bilimdonlari va tarqatuvchilari - sahobalar bo'lgan. Umuman "sahoba" so'zi arabcha bo'lib, "suhbat" so'zidan olingandir. Hadislardan biriga ko'ra payg`ambarni ko'rgan, u bilan muloqotda bo'lgan har bir musulmonni "sahobiy" deyilgan. Imom Buxoriy ham shu fikrni tasdiqlagan. Ibn Xanbal ta'biricha, payg`ambar bilan bir yil, yoki bir oy, bir kun va yoki hatto bir soat suhbat etgan, yoki bo'lmasa hayotida bir marta bo'lsa hamki uni ko'rgan musulmon kishi sahobalardan hisoblangan.

Ibn Mahlud "Musnad" nomli asarida zikr qilishicha, hadis to'plagan sahobalarning soni 1300 ga yetadi. Ibn al-Javziyning mazkur asariga tayanib ko'rsatishicha, sahobalar soni 1060 nafardir. Boshqa olimlarning fikricha, ularning orasida ikkitadan hadis rivoyat qilinganlarning soni 1000 ta bo'lsa, qolgan 300 tasi qisman hadis rivoyati bilan mashg'ul bo'lgan desa bo'ladi.

Xalifa Umar o'g'li Abdulloh, u rivoyat qilgan 2630 hadisdan 2019 tasini ibn Hanbal o'z kitobida naql qilgan.

Ibn Molik 2286 hadis rivoyat qilgan. Ibn Hanbal esa o'zining "Musnad"ida 2178 hadisni keltirgan. Ibn Molik rivoyat etgan 2210 hadisni payg`ambarning rafiqasi Oysha (r.a.) ham ta'kidlagan.

Ibn Abbos, u 1660 hadis rivoyat etgan. Undan keyin 1540 hadis yozgan al-



Xudriydir. Ibn Hanbal o'z kitobida Jobirdan 1206, al-Hudriydan 958 hadis keltirgan[2].

Hadis rivoyat qilgan sahobalar soni har xil bo'lib, mualliflar ham har xildir. Masalan, 149 sahobiyning rivoyat qilgan hadislar al-Buxoriy va Muslimning "Sahih" nomli asarlarida mushtarak kelgan. Umuman Imom al-Buxoriyda 208 ta, Muslimda esa 213 ta sahobiydan rivoyat qilingan hadislar keltirilgan. Ibn Molikning "Muvatto" asarida 98, Abu Dovudning "Musnad"ida 218, ibn Hanbal "Musnad"ida 700 ga yaqin sahobiy rivoyat qilgan hadislar berilgan. Yuqorida keltirilgan raqamlar hadislarini sahobalar rivoyat qilganligi tufayli bizning davrimizga yetib kelganligiga dalil bo'la oladi. IX asrda hadis ta'lif etish sohasida "musnad", "sahih", "sunan" deb ataladigan yo'nalishlar vujudga kelgan. "Musnad" yo'nalishida tasnif etilgan to'plamlarda turli mavzudagi hadislar bir joyda keltirilib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtiga qarab joylashtirilgan. Abu Hanifa, Ahmad ibn Hanbalning hadis kitoblari ushbu yo'nalishga mansubdir.

Hadis ilmi borasida "Sahih" hadislariga qo'yilgan shartlar ham alohida e'tiborga molikdir. "Sahih" – arab tilidagi lug'aviy ma'nosiga ko'ra, "kamchilik-nuqsonsiz", "sof", "toza" – kabi ma'nolarni beradi[3]. Hadis "Sahih" bo'lishi uchun quyidagi shartlar qo'yilgan:

– "Ittisol as-sanad" – Hadis "sanad" qismidagi roviylar tabaqasida har bir tabaqa vakili hadisni bir-biridan bevosita eshitib qabul qilgan bo'lishi;

– "Adalat ar-ruvat" – Hadis "sanad" qismidagi barcha roviy musulmon, aqli raso, xotirasi o'tkir va haqgo'y bo'lishlik kabi shartlarga ega bo'lishi;

– "Dabt ar-ruvat" – Hadis "sanad" qismidagi barcha roviy hadisni yoddan

bo'ladimi yoki kitobdanmi o'ta aniq darajada rivoyat qilgan bo'lishi;

– "Adam ash-shuzuz" – Hadis "shozz" tur hadis bo'lmasligi, ya'ni ishonchli rivoyat yo'li bilan naql qilingan hadis undan ko'ra ishonchliroq bo'lgan boshqa bir rivoyat yo'li bilan naql qilingan hadisga muxolif, zid kelib qolmasligi;

– "Adam al-illa" – Hadis kamchilik-nuqsonlardan xoli bo'lishi, ya'ni hadis zohiran ishonchli hadis ko'rinsada, biroq zamirida hadisning ishonchlilik sha'niga dog' tushuradigan ma'lum bir illat, kamchilik-nuqsonlardan xoli bo'lishidir;

Hadis ushbu yuqoridagi shartlardan atigi bittasiga ega bo'lmasa "sahih" tur hisoblanmaydi. Bu yo'nalishga Imom al-Buxoriya asos slogan[4].

"Sunna" yo'nalishdagi to'plamga esa to'g'ri, ishonchli hadislar bilan bir qatorda "zaif" hadislar ham kiritilgan. Abu Dovud, Abu Iso at-Termiziy, Nasoiy, Ibn Moja to'plamlari ushbu yo'nalishga oiddir[5]. Shu tariqa hadislarini jamlash ishlari rivojlangan. Ilk bor tuzilgan hadislar to'plamidan biri 709 – 795-yillar mobaynida yashagan Anas ibn Molik tomonidan jamlangan "Al-Muvatta" (arabchadan tarjimasi – "so'qmoq, oson yo'l") kitobi edi. U o'z ichida 1700 ta hadisni jamlagan. Keyingi davrlarda mavzular bo'yicha boblarga ajratilgan, foydalanish uchun ancha qulay hadis to'plamlari vujudga kelgan. Ana shunday to'plamlardan oltitasi butun musulmon olamida tan olingandir. Ular:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810 – 870) tomonidan yozilgan "Al-jome' as-Sahih" (Ishonchli to'plam) yoki qisqacha "as-Sahih al-Buxoriy". Oldingi to'plamlarga nisbatan bu ancha mahorat bilan tuzilgan. Muallif, bu to'plamda faqat qonunshunoslikka va urf-odatlargagina emas, Muhammad hayoti va



sahobalar, hatto Muhammad davri tarixiy va etnografik tomonlariga xos hadislarni to'plagan. Tanqidiy yondashgan holda 600 mingga yaqin hadis to'plab, bu to'plamga ishonchli deb bilganlaridan 7275 tasini kiritgan. Bu to'plam katta shuhrat qozongan va ko'p marta nashr qilingan.

2. Imom Muslim ibn al-Xajjoj an-Nishopuriy (817 – 875) tomonidan yozilgan “As-Sahih”. U 300 mingga yaqin hadislarni ko'rib chiqqan va ulardan 12 ming, ya'ni 4 foizini tanlab olgan.

3. Imom Ibn Mojja (886-yil vafot etgan) tomonidan yozilgan “Sunan”.

4. Imom Abu Dovul Sulaymon Sijistoniy (888-yil vafot etgan) tomonidan yozilgan “Sunan”.

5. Imom Ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan “Al-Jome` al-Kabir”.

6. Ahmad yan-Nisoiy (915-yil vafot etgan) tomonidan yozilgan “Sunan” kabi to'plamlardir.

Bu to'plamlarning deyarli barchasi IX asrda tuzib chiqilganiga qaramay, xali ham o'z mavqeini yo'qotmagan.

Ma'lumki, Markaziy Osiyoda islom dini VIII asr boshlaridan keyin keng tarqala boshlaganligiga qaramay, ilohiyot qatori

muhaddislik ham ildam rivojlangan. Islom olamida mashhur va eng ishonchli deb e'tirof etilgan 6 hadislar to'plami mualliflarining aksariyati Markaziy Osiyodan chiqqanlar. Masalan, Ismoil Buxoriy (810 – 870), Imom at-Termiziy (824 – 892), ad-Dorimiy as-Samarqandiy (797 – 868) An-Nasa'i (915-yilda vafot etgan) va Kaspiybo'yi xalqalridan ibn Moja (824 – 886) va boshqalar bu sohaning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar.


Movarounnahrda birinchi bo'lib, Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy hadis to'plamini ta'lim qilgan. Bundan tashqari Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, al-Marvaziy, Abu Bakr Qaffol Shoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Barakotiy, Abu Mu'in Nasafiy kabi Movarounnahrlik muhaddislar hadis to'plamlarini tasnif qilishgan[6].

Bugun biz tarixdagi manashunday buyuk zotlarning avlodlari ekanligimizdan faxrlanishimiz va ularning ilmiy me'roslarini o'rganib, nomlarini ulug'lashimiz joizdir. Bugungi kunda ham millatimizdan buyuk ishlar qilishga qodir kishilar chiqishiga ishonchimiz komildir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алимов У. Қуръони Каримдан кейинги иккинчи муқаддас китоб. Имом ал-Бухорий сабоқлари.Тошкент.2009. Б. 7.
2. Алимов У. Қуръони Каримдан кейинги иккинчи муқаддас китоб. Имом ал-Бухорий сабоқлари.Тошкент.2009. Б. 7-8.
3. Уватов У. Буюк муҳаддислар (Имом ал-Бухорий, Имом Муслим, Имом ат-Темизий).Ўзбекистон миллий энциклопедияси.Тошкент.1998. Б.178.
4. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/h/hadis/>
5. <https://shosh.uz/abdulloh-ibn-abdurahmon-dorimiy-797-869/>
6. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=520>





## ASALARI KASALLIKLARI UCHUN PREPARATLAR

Zohida Mamadaliyeva Rasuljon qizi

Namangan Davlat Universiteti Kimyo yo`nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035678>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma`qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO`ZLAR

Asalari, asal, asalarichilik, kasallik, varroatoz, akarapidoz, nozematoz, parazit, tadqiqot, apivar, apilife.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada asalarichilikda kuzatilayotgan asalariga xos bo`lgan kasalliklar, ularni davolash uchun foydalanilayotgan preparatlar, hamda ularni tayyorlash bo`yicha xorijda va mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar haqida ma`lumotlar keltirilgan. Chet el olimlari tomonidan qo`llanilayotgan dorilar, ularning samaradorligi, kutilgan natijalar aniq asoslab berilgan.*

Tirik jonzot borki, uning sog`ligi bilan birga bemorligi ham butun hayot yo`lini to`ldirib turadi. Asalarilar boshqa hayvon va hasharotlar singari, turli kasalliklarga moyil. Tashqi muhit, sovuq, yuqori namlik va boshqa omillarning salbiy ta`siridan tashqari, asalarilarning yuqumli, xavfli kasalliklari mavjud. Agar yuqumli bo`lmagan kasalliklarning sababi asalarichining nazorati ostida bo`lsa, u holda bakteriyalar, viruslar, patogen zamburug`lar, har xil turdagi shomil va parazit hasharotlar infeksiyaning manbai hisoblanadi. Hozirgi kunda asalarilar quyidagi kasalliklar bilan kasallanmoqda:

#### 1. Zararkunandalar va parazitlar;

- Varroa oqadilar
- Akarin (trakeal) oqadilar
- Nozematoz kasalligi
- Kichik uya qo`ng`izi
- Mum kuyalari
- Tropilaelaps kasalligi

#### 2. Bakterial kasalliklar;

- Amerika qo`ziqorini (Amerika chirish kasalligi)
- Yevropa yirtqich go`shti (Yevropa chirish kasalligi)

#### 3. Virusli kasalliklar;

- Surunkali ari falaj virusi
- O`tkir ari falaj virusi
- Bulutli qanot virusi
- Umurtqasizlar irideskent virus turi (IIV-6)
- Kakugo virusi
- Tamaki ringspot virusi
- Sinay ko`li virusi

#### 4. Dizenteriya;

#### 5. Sovutilgan zot;

#### 6. Pestitsidlar ta`siri;

#### 7. Koloniyaning buzilishi.

Varroa oqadilar ( varroa destruktori, varroa jakobsoni deb ham yuritiladi) tashqi parazit kana bo`lib, asalarilarga hujum qiladi va oziqlanadi.





Shomillar keltirib chiqaradigan kasallik vorroatoz deb ataladi. Varroa oqadilar faqat asalari koloniyasida ko`payadi. U ari tanasiga yopishadi, yog` tanalaridagi gemolimfa suyuqligini so`rib, uni zaiflashtiradi. U asalarilar kaloniyasining o`limiga olib keladi, odatda kech kuzdan erta bahorgacha. Varroa oqadilar asalarichilik sanoatiga eng aniq iqtisodiy ta`sir ko`rsatadigan parazitdir, butun dunyo bo`ylab asalarilarni yo`qotishning yuqori darajasiga hissa qo`shadigan ko`plab stress omillaridan biri hisoblanadi. Bu parazitni oddiy ko`z bilan ari ko`krak qafasida mayda qizil yoki jigarrang dog` sifatida ko`rish mumkin.

Varroa oqadilar birinchi marta Janubi-Sharqiy Osiyoda 1904-yilda topilgan, ammo hozir Avstraliyadan tashqari barcha qit`alarda mavjud. 1977-yilda Germaniyada, Amerika Qo`shma Shtatlarida 1987-yilda, Yangi Zelandiyada 2000-yilda, 1992-yilda esa Buyuk Britaniyada va boshqa ko`plab mamlakatlarda topilgan. 2012-yilning o`rtalariga kelib, Avstraliyada kana yo`q deb


isbotlangan. 2010-yilning boshida Kufrada (Liviya janubi-sharqida) asalarilarning izolyatsiyalangan kichik turi topildi, u kanadan xoli ko`ringan. Gavayining Maui va Kauai orollari ham kanadan xoli. Varroa oqadilar bilan kurashish uchun turli kimyoviy va mehanik davolash usullari qo`llaniladi. Tabletka, ampula va ko`proq plastik shakllardagi preparatlardan foydalaniladi. Apivar , Apistan, Bayvarol, PolyVar kabi qattiq kimyoviy dorilar davolash uchun ishlatiladi. Ampula holda ishlatiladigan kimyoviy muolajalar orasida timol ("ApiLife-VAR" va "Apiguard" sifatida sotiladi), saxaroza oktanat efirlari ("Sukrotsid" sifatida sotiladi), oksalat kislotasi va chumoli kislotasi (suyuqlik shaklida yoki Mite Away Quick sifatida jel tasmalarida sotiladi) qo`llaniladi. AQSH atrof-muhitni muhofaza qilish agentligining ma`lumotlariga ko`ra, asalari uyasida ko`rsatmalarga muvofiq foydalanilganda, kimyoviy davolash Varroa oqadilar katta qismini o`ldiradi, lekin asalarilarning xatti-harakati yoki umrini sezilarli darajada





buzmaydi. Kimyoviy nazoratdan foydalanish odatda tartibga solinadi va turli mamlakatda turlicha amalga oshiriladi, ya'ni bir-biridan farqlanadi. Bir nechta istisnolardan tashqari, ular sotiladigan asal ishlab chiqarishda foydalanish uchun mo'ljallanmagan. Germaniya olimlari tomonidan varroatozga qarshi ApiLife VAR, Bienenvohl, IPM kabi preparatlar, Italiya olimlari BeeVital, Apitraz, Oxuvar, Bipin, Bipin-T preparatlaridan, Buyuk Britaniyada olimlar Apivar, Domino, Api-


Bioxal Oxalic Acid, AQSHda Kumafos, Apistan kabi preparatlar bilan birga, Timol, Orgonofosfat, Fenpiroksimat moddalari bilan tadqiqotlar olib borishdi. Bu preparatlar 99,2-99,6% samaradorlikka ega ekanligi isbotlangan, biroq narhi juda qimmatligi sababli ko'plab mamlakatlar asalarichilari foydalanmaydi, hasharotlar kaloniyasi nobud bo'lish havfida turibdi. Chetgan kelayotgan hamma preparatlar ham biz kutgan natijani beravermaydi.



Akarin oqadilar (akarapis) ham parazit kana bo'lib, asalari ko'krak qafasining birinchi juft shpiklaridan chiqadigan traxeyani zararlaydi va Akarapidoz kasalligini vujudga keltiradi. Bu parazit diagnostikasi odatda uyadan asalarilar namunasini ajratish va mikroskopik tekshirishni o'z ichiga oladi. Yetuk urg'ochi

akarin oqadilar ari nafas yo'lini tark etib, ari tuklariga chiqib, yosh asalarilarga o'tib tarqaladi. Yangi ari paydo bo'lgach, ular nafas olish yo'llariga o'tib, tuxum qo'yishni boshlaydilar. Kasallangan asalarilar shunchaki zaif emaklaydilar, uchaolmaydilar.





Bu parazit 1984-yilda Meksikadan AQSHga kirib kelgan va asalari koloniyalariga tarqalishni boshlagan. Akarapidoz kasalligidan aziyat chekmaslik uchun dastlabki belgilarida uni davolash usullariga murojaat qilish kerak. Buning uchun

asalarilarning ommaviy tarqalishi har jihatdan rag'batlantiriladi. Va kimyoviy dori-darmonlardan ignabargli ekstrakt asosida Folbeks, Polisan, Bipin, Bipin-T va ApiMax preparatidan foydalanish samaraliroq hisoblanadi.



Asalari kasalliklaridan yana bir xavfli turi bu- Nozematoz ya'ni asalari diyareyasi. Asalari Nozematozining asosiy sababi, ba'zida ozuqadagi nomaqbul aralashmalar, hasharotlarning sifati pastligi yoki uyadagi juda oz sonli yosh asalarilarning parvarishidir. Bu omillar asalari oilasini zaiflashtiradi va kasallikning patogenlari oziq-ovqat bilan yoki uyadagi ozuqa bilan tuproqqa kirib, ularning halokatli faoliyatini boshlaydi. Bemorni sezilarli darajada kattalashgan qorin orqali aniqlash mumkin. Agar shoshilinch choralar ko'rilmasa, kasallik hasharotlar ko'pini yo'qotish va qolgan asalarilar zaiflashishi bilan tahdid soladi. Kasallikni davolash usuli sifatida dunyoning ko'p mamlakatlarida, jumladan respublikamizda ham asalarilarga Fumagillin bilan aralashtirilgan shakar siropi taklif etiladi. 25 litr sirop uchun 20

gramm preparat bo'lishi kerak. Asalarilar uchun bu miqdor besh oila uchun yetadi xolos. Shu bilan birga yuqorida sanab o'tilgan barcha kasalliklar butun dunyo asalari populyatsiyasini havf ostiga olmoqda. Dunyo tajribasiga nazar solsak, turli rivojlangan davlatlar yuqori samarali preparatlarning juda ko'p turini amalda sinab ko'rishgan va hozirga qadar foydalanib kelishadi. Lekin bu preparatlar zararli kasalliklarni butunlay yo'q qilish qobiliyatiga ega emas.

**Xulosa.** Hozirgi kunda O'zbekistonda ham asalarichilik sohasida ulkan islohotlar olib borilyapti. Respublikamiz asalari koloniyalarida varrotoz, akarapidoz, nozematoz, amerika va yevropa chirish kasalligi, surunkali va o'tkir falaj kasalliklari asalarilar ish faoliyatiga katta salbiy ta'sir ko'rsatib turibdi. Yuqorida sanab o'tilgan




preparatlar har doim ham kutilgan natijani bermayapti, yaxshi samara bersada, narhining qimmatligi bois asalarichilar doim ulardan foydalana olmayptilar. Shuning uchun asalari kasalliklariga qarshi dorilarni mahalliyashtirgan holda ishlab chiqarish asalarichilikdagi asosiy muammo

bo'lib qolmoqda. Ilmiy tadqiqotlarimiz davomida shu masala doirasida yuqori samaradorlikka ega dori mahsulotlarini ishlab chiqarishni ustuvor yo`nalishini topib, asalarichilik tarmog`ini rivojlantirish maqsadidamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.I.Isamuhamedov, H.K.Nikadambayev "Asalari kasalliklari va zararkunandalari" Toshkent-2013.
2. AQSH atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi hisoboti. 2005.
3. N.Damiani, B.L.Gende, P.Baylak "Varroa destruktori va Apismellifera ustidagi efir moylarining akaritsid va insektitsid faolligi" 2009.
4. L.Bailey, B.V.Ball "Asalari patologiyasi" 1991.
5. I.Fries "Nosema apis-Asalari kaloniyasidagi parazit" Bee World. 1993.
6. Internet saytlari: <https://kitobxon.com/uz/asar/3249>
7. <https://www.ebay.com>
8. <https://www.apidologie.org>.





## COVID-19 NING TURKIYA TURIZMIGA TA'SIRI KAPADOKIYA MISOLIDA

Yo'lchiyeva Yorqinoy Umarboy qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

yorqinoyyolchiyeva56@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035764>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

bo'g'oz,prognoz,epidemiya,s  
ektor,xizmat  
ko'rsatish,turoperator.

### ANNOTATSIYA

*Turkiya Respublikasi hozirgi kunda turizm sektori eng rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi.Turkiya turizmi markazlaridan biri bo'lgan Kappadokiya ham barcha sharoitlari yaratilgan turizm o'z faoliyatini olib bormoqda.Butun dunyoga o'tkazgan salbiy ta'siri bilan COVID-19 Turkiyani ham chetlab o'tmadi.Turizm sektori eng zarar ko'rgan sohalaridan biri bo'ldi va bu Turkiya iqtisodiyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi.*

Turkiya geografik joylashuvi nuqtai nazaridan ham noyob mamlakat.Turkiya ikkita qit'a: Osiyo va Yevropani,boshqacha qilib aytganda Yevroosiyoni birlashtirib turuvchi kam sonli mamlakatlar tarkibiga kiradi.Osiyo bilan Yevropani suv va quruqlik yo'llari bilan bog'laydigan strategik ahamiyatdagi Bosfor va Dardanell bo'g'ozlari – Qora dengizni dunyo okeani bilan bog'laydigan xalqaro yo'l ekanligi bilan muhim ahamiyatga ega.Shu yo'llar orqali Turkiya dunyoning ko'plab davlatlari bilan bog'lanadi.Dengizlar,bo'g'ozlar mamlakat turizmini shakllantirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatni ochib berdi. Turkiya turizmiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilar:

- iqlim;
- geografik joylashuv;
- o'simlik va hayvon turlari;
- suv manbalari;
- tabiiy go'zalliklar;
- tarixiy asarlar va madaniy yodgorliklar.

Turizm bugungi davrda valyuta kirishini orttiruvchi,xalqaro munosabatlarni ijobiy tarafga o'zgartiruvchi xususiyati bilan xalqaro iqtisodiyotda alohida o'ringa ega


bo'lgan,xalqaro madaniy aloqalarni bog'lovchi ta'siri bilan dunyoda tinchlikni ta'minlab turuvchi muhim sektordir.1982-yilda Turkiya turizm sohasi bo'yicha o'zining ilk marotaba keng ko'lamli islohotlarini boshlab 2000-yilga kelib bu sohada dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirib olgan edi.Amalga oshirilgan islohotlarning qanchalik maqsadli va aniq bo'lganligini 2000-yilning o'zidayoq Turkiya tashrif buyurgan turistlar soni bo'yicha jahonda 20-o'ringa chiqib olganligidan ko'rishimiz mumkin.2009-yilda esa bu o'rindan 7-o'ringa o'tib olgan edi.Demak Turkiya ana shu paytda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning boshqa sohalariga qaraganda ko'proq daromad olib kelishiga katta ahamiyat qaratgan edi.Turkiya iqtisodiyotida turizm ulushi 2018-yil I chorakda bir yil oldingi xuddi shu muddatga nisbatan 31,3% ortib, 4425237ming dollar bo'lgan edi.2019-yildagi statistikalarga ko'ra, ushbu yilda daromad o'tgan yilgiga nisbatan 17%ga ortgan bo'lib 34 mlrd 520mln 332ming dollarga yetgan.Ana shu davrda kishi boshiga o'rtacha tungi xarajati 68 dollar,xorijliklarning o'rtacha tungi





xarajati esa 73 dollarni tashkil qilgan. Turkiya Madaniyat va turizm vazirligi bayonotida 2019-yilda Turkiya jami 51,7 million ziyoratchini qabul qilib, turizm sohasida yangi rekord yilni ortda qoldirganini qayd etgan. Bugungi kunga kelib


jahonda Turkiya sayyohlarni jalb etish bo'yicha oltinchi o'rinda turadi. Ammo bu davlat uchun ushbu ko'rsatkich yetarli emas, davlat sayyohlar sonini yanada ko'paytirish maqsadida turizmga alohida e'tibor qaratmoqda.



Jahon Turizm Tashkiloti ma'lumotlariga asosan

Kappadokiya - Turkiya Respublikasining yuragida joylashgan bo'lib, noyob turizm maskani hisoblanadi. Avvalo uning landshafti e'tiborni tortadi. Bu yerda qoyalar va u qadar baland bo'lmagan go'zal tog'larni ko'rish mumkin. Bu yerda haqiqiy yer osti saltanati saqlangan. Ilk xristianlar yer ostini o'yib, g'orlarda shaharlar barpo etganlar. Ularning chuqurligi 85 metrga yetadi va u yerda 10 ming atrofida insonlar yashagan. Ushbu markaz 2019-yilning birinchi 4 oyida 800 mingdan ortiq yil davomida esa 3 milliondan ziyod sayyohga mezbonlik qilgan rekordni qayd etdi. Kappadokiyaning osmondan ko'rish uchun

havo sharida sayohat qilish turistlar e'tiborini o'ziga tortadi. Mintaqaga kelayotgan sayyohlarga hamrohlik qilayotgan professional turistik gid Tohir Ozozen Kappadokiya qiziqishning yil sayin ortib borayotganini, 2019-yilda faol mavsumni boshdan kechirgan mintaqadagi turizm mutaxassislarning ham 2020-yildan umidvor ekanligini aytgan edi. U o'z fikrini davom ettirgan holda mintaqada qiziqish tufayli har yili yangi bozorlar ochilayotganini, Lotin Amerikasi, Xitoydan Yevropa, Shimoliy Amerika turistlarining soni aynan Kappadokiya ortishi ko'zda tutilayotganini ta'kidlab o'tgandi. 2019-yilda Kappadokiya tashrif buyurgan turistlar soni o'tgan yilgiga nisbatan 13% ga ortgan edi.








Mintaqa madaniyat va turizm boshqarmasi tomonidan tayyorlangan ma'lumotlarga ko'ra muzeylar,xarobalar va yerosti shaharlariga,Goreme ochiq osmon muzeyiga,Kaymakli yerosti shahrini,mintaqaning eng ko'p tashrif

buyurilgan hududlaridan biri bo'lgan Derinkuyu yerosti shahriga ziyoratchilar soni ortgan.Quyidagi diagrammada 2019-yilda eng ko'p tashrif buyurilgan hududlar bilan tanishamiz:



Yuqoridagi tahlillar orqali ko'rinib turibdiki, Turkiya Respublikasi hukumati davlat iqtisodiyotida katta ulushga ega bo'lgan turizmga islohotlar o'tkazib,uni jadal rivojlantirayotgan paytda 2019-yilning oxirida Xitoyda paydo bo'lgan koronavirus ushbu sektorga juda katta zarar keltirdi.Ushbu virus jahonning 215 davlatiga tarqaldi.Kundalik,ijtimoiy va ish hayot tarziga to'satdan ta'sir ko'rsatgan virus sababli butun jahonda iqtisodiyot juda jiddiy zarar ko'rdi. Covid-19 pandemiyasi butun insoniyat uchun noyob global tahdid sifatida paydo bo'ldi.Hatto eng rivojlangan davlatlar ham epidemiyaning ayniqsa sog'liqni saqlash tizimlari va hayotning barcha sohalaridagi qiyinchiliklaridan larzaga

keldi.Shuningdek Turkiya davlatining ham iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi.Yeryuzi aholisi pandemiya tufayli o'z uylarida qolganlari butun jahon turizmiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi.Barcha turistik hududlar turistlar tashrifisiz qoldi va buning orqasidan turizm sektoridagi barcha ishchilar shaxsiy daromadidan ajraldi va ishsizlikning ortishiga olib keldi.Turizm sektorida Turkiyaning asosiy bozoridagi davlatlar bilan O'rta Yer dengizi hududidagi raqobatining iqtisodiy ko'rsatkichlari berilgan jadvalni tahlil qilish orqali COVID-19ning turizmga ta'sirini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

<b>TURKIYANING TURIZMDAGI RAQOBATDOSHLARI VA ULARNING BOZORIDAGI IQTISODIY KO'RSATKICHLARI (JAHON VALYUTA FONDI 2020)</b>	
<b>DAVLAT</b>	<b>O'ZGARISH,%</b>
GRETSIYA	-9,5
ITALIYA	-10,6
ISPANIYA	-12,8



FRANSIYA	-9,8
GERMANIYA	-6
BUYUK BRITANIYA	-9,8
ROSSIYA	-4,1

COVID-19 pandemiyasi Turkiya zamonaviy turizmi qarshilashgan eng katta muammolardan biri bo'ldi. Statistika va berilgan ilmiy ma'lumotlarga ko'ra pandemiya tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyat, sayohatning qisqartirilishi, havo yo'li aloqalarining to'xtatilishi, ijtimoiy masofa qoidalari turizmni pandemiya davrida amalga oshirib bo'lmaydigan darajada to'xtatib qo'ydi, ya'ni turizm faoliyati cheklandi. Turizm sektorining shu davrigacha ko'rmagan bunday vaziyati va zarari pandemiyadan so'ng sektorning qachon oldingi holatiga qaytishiga taxmin ham qilib bo'lmaydigan qilib qo'ydi. Birgina

misol orqali buni tahlil qilib ko'rsak bo'ladi: kruiz turizmi sektorining pandemiyadan oldingi ko'rsatkichlari 42 mlrd dollar daromad olib kelgan bo'lsa, 2020-yilda uning ko'rsatkichi umuman nolga tushib ketganligi turizm sektoriga zarar keltirdi.

2020-yilning yanvar-oktabr oylari orasida Turkiyaga kelgan xorijlik turistlarning soni 2019-yilning ayni shu davriga qaraganda 72,5%ga tushib ketishi kuzatildi. 2019-yilning shu davrida Turkiyaga kelganlar soni 40,7 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 11,2 mlanni tashkil etdi.

<b>Turkiyaga eng ko'p turist kelgan mamlakatlar</b>	
<b>DAVLAT</b>	<b>KELGAN TURISTLAR SONI</b>
ROSSIYA FEDERATSIYASI	1911264
GERMANIYA	1037293
BOLGARIYA	997470
UKRAINA	928105
BUYUK BRITANIYA	787540

Turkiya Statistika Tashkilotining bergan ma'lumotlariga ko'ra 2020-yil yanvar-iyun oylari davrida ichki turizm 13 mln 934 ming kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning aynan shu davriga ko'ra 58,3%ga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Turkiyada COVID-19 tufayli turistlar soni juda kamayib ketgani bo'yicha statistikalarni Turkiya Sayohat Agentliklari Birlashmasi ma'lumotlari ko'rsatib turibdi. 2018-yilda 39 mlndan ziyod turist kelgan bo'lsa, 2019-yil ushbu ko'rsatkich bir yil oldingi natijadan 6 mlnga ko'paygan, ya'ni 45 mlndan ziyod turist tashrifi kuzatilgan. Lekin 2020-yilda tashriflar soni juda kamayib 11 mlanni tashkil

etdi. Buning eng asosiy sababi virus tufayli Turkiya xorijiy davlatlarga o'z chegaralarini yopganligi edi. Dengiz transportida ko'rilgan chora-tadbirlar doirasida Turkiyadagi portlarga kelishdan 24 soat oldin amalga oshirilishi kerak bo'lgan kema kelishi haqida xabar berish majburiyati 48 soatga oshirildi. Pandemiyaning turizmga keltirgan zararlaridan eng ko'p havo yo'llari, dengiz transporti, turoperatorliklar, agentliklar iqtisodiy zarar ko'rdi. Ya'ni sayohati va ta'tillari bekor qilinganidan so'ng mijozlarning turagentliklarga to'lovlari bo'yicha murojaati agentliklarning hukumatdan iqtisodiy ko'mak olishiga yoki



chiptalarning muddati kechiktirib berilishini taklif qilishiga olib keldi.


Kappadokiya tashkil etilgan turizmning pandemiya davrida va undan keyingi muddatlarda qanday holatda bo'lganligini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu mintaqah koronavirusdan juda katta zarar ko'rdi. Turkiya mehmonxonachilar federatsiyasi vitse-prezidenti va Kappadokiya turistik mehmonxonalar va operatorlar uyushmasi prezidenti Yakup Dinler COVID-19 pandemiyasi davrida Kappadokiya 4 oy davomida nol faoliyat ko'rsatgan mintaqada normalizatsiya jarayoni bilan ba'zi mehmonxonalar ochilgan edi va bundan so'ngra mintaqa asosan mahalliy aholi, chet elliklar va Rossiya va MDH davlatlaridan kelgan sayyohlarni qabul qilishni boshlagan edi. Kappadokiya mintaqasiga asosan Lotin Amerikasi va Uzoq Sharqdan kelgan turistlar uchun turistlar tashrif buyurishadi. Pandemiya tufayli bu tashriflar juda kamaydi. Mintaqada ichki turizm ham muhim ahamiyatga ega ekanligi pandemiya davrida muzey va xarobalarni 700mingga yaqin sayyoh ziyorat qilganidan tahlil qilsa bo'ladi. Bu yerda koronavirus chora-tadbirlari doirasida ma'lum muddatga to'xtatilgan havo sharlari sayohatlarini boshlash Kappadokiyaning turizmi jonlanishiga olib keldi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek Kappadokiya 2019-yilni rekord yil sifatida yakunlagan edi va 2020-yilda 5million sayyoh qabul qilishni statistikada bergan edi, lekin pandemiya sababli 1million sayyohni qabul qila oldi. Pandemiya davri va

undan keying muddatlarga Kappadokiya turizmi uchun ishlab chiqarilgan strategiyada ahamiyat 2021-yilga emas, 2022-yilga qaratilganligi berilgan. Kelgusi yil uchun hukumat Turizmni rivojlantirish strategiyasi Harakat rejasini tayyorlangan va tahlil statistikalariga ko'ra 2022-yilda 7million sayyoh tashrifi kutilmoqda. Turizmdan olinadigan daromad o'tgan yillarda 600 dollarni tashkil etgan bo'lsa, kelgusi yilda ushbu ko'rsatkichni 800dollarga yetishi sharoitdan kelib chiqib statistikasi berilgan.

Kappadokiya turizmni pandemiya davridan so'ng avvalgi holatiga qaytarish uchun qilinayotgan chora-tadbirlardan reklama ishlari asosiy o'ringa qo'yildi. Bundan so'ng Kappadokiya turizmni sport bilan qo'llab-quvvatlash, sport tadbirlari bilan hududni yanada jozibador qilish bo'yicha ishlar olib borilishi strategiyaning maqsadli islohotlaridan biri edi. Bu yerda biz ahamiyatimizni qaratishimiz kerak bo'lgan narsa Kappadokiya pandemiya davrida masofani saqlash kabi karantin qoidalariga qat'iy amal qilinganligi bo'lsa, turistlar bu yerda koronavirusdan o'zlarini xavfsizroq his qilganligi ham bor, ya'ni salomatlik nuqtai nazaridan xavfsizlik borligi ijobiy holat edi. Kappadokiya turizmni dastlab umuman faoliyati to'xtatilib, so'ng yana jonlanganligining dunyoning boshqa turistik hududlaridan ajratib turadigan sababi uning ochiq osmon ostidagiligi ya'ni tabiat bilan bog'liqligida deb hisoblayman.





Taxminlarga ko'ra yuqoridagi islohotlar o'tkazilsa Turkiya turizmi 2022-yilda 40milliondan ortiq sayyohlarni qabul qilishi va turizmdan daromad 30milliard dollarga yetishi prognoz qilinayapti. Pandemiya tufayli ushbu ko'rsatkichlar normal holat bo'lib tursa 2019-yilgi ko'rsatkichlarga juda yaqin. Agar koronavirusdan eng yaxshi holatga o'tilsa bu prognozlar ko'tarilishi taxmin qilinmoqda. 2019-yilda rekord natijalar ko'rsatgan turizm 2020-2021-yillarda juda pasaygani holda hukumat 2022-yildan yaxshi natijalarni prognoz qilmoqda. Yuqoridagi tahliliy diagrammada so'nggi 3yilning tashrif buyuruvchilar soni va turizmdan kelgan daromad ning qiyosiy tahlilini ko'rib chiqamiz: 2019-yilda 45milliondan ziyod tashriflar soni bilan daromad 34,5milliard dollarni, 2020-yilda 15milliondan yuqori tashriflar soni bilan 12,06milliard dollarni, 2021-yilda esa dastlabki 9oyda natija 21milliondan ko'p tashriflar soni bilan 16,8milliard dollarni

tashkil etdi. Ko'rishimiz mumkinki pandemiyadan oldingi va keyingi iqtisodiyotdagi turizm ko'rsatkichlarining katta farqi bor.

Turkiyaning turizmini Kappadokiya misolida pandemiyadan oldin va keyingi natijalarini tahlillarda ko'rib chiqdik. Turkiya iqtisodiyotida katta ulushga ega bo'lgan turizmni pandemiyadan so'ng jonlantirish bo'yicha qilinayotgan islohotlari: hukumat pandemiyadan so'ng turizmga yangi dunyo o'rnatishi, aqlli, xavfsiz va sog'lom turizm juda kerak va bu o'zgarishlarga tayyor turishi kerak. Antaliyada "Pandemiyadan keyingi mintaqaviy rivojlanish yig'ilishlari"ning navbatdagisi bo'lib o'tdi va turizmni jonlantirish masalalari ko'rildi. Kelishib olingan islohotlar va yuqorida keltirgan prognozlarimizga ko'ra aytishimiz mumkinki, Turkiya turizmi pandemiyadan avvalgi holatiga qaytishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.tursab.org>;
2. <https://sozcu.com>;
3. <https://ttyd.com>;
4. <https://assets.ey.com>;
5. <https://resmiistatistik.gov.tr>.

## CATEGORIES OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODS


**Erkinova Saida Zufar qizi**

Jizzakh State Pedagogical Institute Faculty of Foreign Languages:

English Language and Literature 3rd year student

Email: [saidaerkinova0107@gmail.com](mailto:saidaerkinova0107@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035804>



### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Method, principle, foreign language, methodology, profession, methodology, teacher, term, meaning, subject, teacher, student.*

### ABSTRACT

*This article describes in detail the basic concepts of foreign language teaching methods, the basic principles of foreign language teaching and the general didactic principles of foreign language teaching methods.*

Those who choose to teach a foreign language as a profession are tasked with a thorough knowledge of the theory of teaching that language. The science of teaching is covered by the science of methodology, the word “methodology” is a Greek word meaning “a set of methods of doing a job in accordance with a purpose”. The term “methodology”, which is common in pedagogical communication, has three meanings. The first refers to the subject matter (e.g., “tomorrow’s first lesson is methodology”), the second is a set of methodological approaches to teaching (e.g., “I like our teacher’s methodology”), and the third is educational theory and specialization science (e.g., “the methodology is well covered in this manual”). This chapter discusses the third terminological meaning of the word “methodology”. In other words, methodology is the science of teaching a foreign language, defining “foreign language” as a subject of study, studying the activities of teachers and educators, and

mastering the achievements of other disciplines and developing their own law explores ways. According to Prof. Yefim Izrailevich Passov, the method is goal-oriented in the learning process and is a system of principles related to the types of speech activities. Hence, principles shape the method. Here, we are talking about a broad methodological direction. (Passov, 1991)

It is worth recalling the example of experiments in a number of studies on the development of foreign language teaching methods in Uzbek schools. Talented Methodist scholar Khoshimjon Soynazarov in his scientific works has given an experimental and theoretical basis for the transfer of language experience in the receptive plan (perception) of English lexical units. (Kh. Soynazarov, 2010)

Talented Methodist prof. Tojimat Khaydarovich Sattarov has developed an experimental method of active learning of foreign language grammar. (Sattarov, 2010) An exemplary experiment was conducted to





study the syntax of the German language in the Uzbek audience. In several scientific studies, experiments in the field of foreign language teaching have risen to the level of exemplary examples. Eduart Abramovich Shtulman, one of the Methodists, conducted an in-depth research on the subject of experiments. (A. Shtulman) In the sciences that study education (pedagogy and private methodology), the term “principle” also expresses specific concepts.

According to Prof. Y. I. Passov, “principle is the foundation of the so-called teaching process.” - a rule. In education, a set of different principles is described. Methodists of foreign language teaching effectively use the research of educators, but their existence cannot be recognized without change, indifference, that is, learning taking into account the subject and applying them.

The issues of application of principles in the methodology of teaching foreign languages, their scientific and theoretical substantiation attract the attention of many Methodists. Sources of foreign and domestic methodology cover controversial issues in this area. First of all, the criteria for promoting the principles of foreign language teaching methods are discussed. The first is the inappropriateness of applying this criterion to the methodology of a subject other than a foreign language, that is, the criterion of the specificity of the subject. The second is that the scientific concepts of the principle formed in the methodology of a foreign language do not apply even to related sciences, which is a criterion for the study of this field. For example, the principle of limiting difficulties may also be involved in the teaching of other subjects. Therefore, the principles of pedagogy or psychology are applied in foreign language methodology, taking into

account the specifics of this science. Just one example: the other side of the principle of limiting difficulties is also manifested in a foreign language, i.e. the principle of easy to difficult is realized without direct acceptance (remember the consonant of the tooth space), by distributing difficulties. Secondly, methodological principles are studied on the basis of these criteria. The principles of foreign language teaching methodology are not the same in content and form. Some are generalized (e.g., the principle of speech orientation), while others are very specific to the essence of the subject (e.g., the principles of teaching grammar).

Consequently, general private and special principles of foreign language teaching methodology have been developed. It should be noted that the differentiation and consistent substantiation of these principles has not been fully achieved in science. In scientific sources, the principle of the first name is unanimously recognized by all experts. The second principle recommended by G. H. Rogova, third principle occurs in the research of M. V. Lyakhovitsky. While the fourth principle is approved by most Methodists, there is a significant difference in its naming. The term “principle of accountability of the mother tongue” has been adopted in the scientific literature published in Russian or reflecting the experience of Russian schools. In the works of foreign language teaching researchers in Uzbek schools, it is used as a “principle of taking into account language experience.” This principle is so named because students learn their mother tongue and second language before a foreign language. The general principles of the methodology are:

- 1) the principle of speech orientation of foreign language teaching



2) the principle of limiting (differentiating) and integrated learning of a foreign language

3) the principle of giving priority to exercise

4) the principle of taking into account language experience

The general principles can be interpreted as follows. According to the principle of speech orientation, the educational process is organized in order to acquire a foreign language as a means of communication, that is, to develop speaking skills and competencies within the topics of the curriculum. Practical acquisition of a foreign language is achieved through speech exercises. If the amount of exercises that teach the language material is too large, the speech orientation will be impaired. Continuation of lexical, grammatical, pronunciation exercises ends with their application in speech in a foreign language. The mastery of language units is subordinated to the mastery of speech activity. Completion of the final result with the receipt/transmission of information in a foreign language is a prerequisite for the principle of practical orientation. Among the general principles, the consideration of language experience is of particular importance. Events in which the learner has already mastered the native language and the second language, as well as the foreign language itself, can be a facilitating or

resisting factor in the presentation of new material. The three languages that come into contact in the reader's mind collide at the levels of operation, movement, and activity. In other words, previously acquired language abstraction, skill, and speech skills have a negative/positive effect on the language being studied. In short, the accumulated language experience should be taken into account in the acquisition of future speaking skills and competencies. Information about the positive (transposition) or negative (interference) transfer of speech skills should be taken into account when creating a system of exercises, and students are not informed about them in the learning process. The more or less effort and time spent is determined by the ease or difficulty of the language unit.

The use of game technology in German lessons increases the interest and activity of students in the lesson, has a positive effect on the effectiveness of the lesson. The use of educational games in the classroom allows students to master the language material and create a free psychological environment during the lesson. Before giving examples of games, we consider it appropriate to get acquainted with the materials on games and game types in the methodological literature in German.

#### **References:**

1. Jalolov J. "Methods of teaching a foreign language" Tashkent, "Teacher's Publishing House" 1996.
2. Thomson A. L. "Obizuchenii inostrannyx yazykov v sredne-uchebnyx zavedeniyax" Pedagogicheskix sbornik. 1891 g.
3. Mirol'yubov A. A., Rahmonov M.V., Setlin V. S. "General methods of teaching foreign languages in secondary schools" Tashkent "Teacher".
4. Rakhmatova D. Proceedings of the scientific-practical conference "Istiqlol va til" Tashkent 2007, Part 3, pages 209-211.





## УТИЛИЗАЦИЯ НАВОЗНЫХ ОТХОДОВ ЖИВОТНОВОДСТВА

**Акмаканова Асель Жаналыковна**

магистрант Архитектурно – Строительного Факультета, ЕНУ  
им. Л.Н.Гумилева, Казахстан, г. Астана

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6036175>

Президентом Республики Казахстан Н.А. Назарбаевым поставлена задача ускоренного развития мясного животноводства с целью удовлетворения внутренних потребностей в мясе и достижению к 2016 году его экспорта до 60 тысяч тонн.

Одним из аспектов решения этой задачи является проблема утилизации отходов животноводства, а также обеспечение экологических требований путем обеззараживания навозных стоков. Образуемое в Казахстане огромное количество отходов сельскохозяйственного производства, ставит проблему разработки и внедрению технологий по обезвреживанию и утилизации отходов в целях уменьшения загрязнения окружающей среды. Количество образующихся в сельском хозяйстве отходов животноводства, их химический и микробиологический состав позволяют считать животноводческие комплексы опасными для окружающей среды. Ежегодно в хозяйствах Казахстана от животноводства образуется около 92млн.т. экскрементов.

Навоз и помет содержат органические и неорганические вещества. Питательные

элементы (азот, фосфор, калий) содержатся как в растворимой, легкодоступной форме, так и в составе органических соединений и переходят в доступную для растений форму после их минерализации. Подготовка навоза и помета к использованию может быть осуществлена различными способами – физическими, химическими и биологическими и их комбинацией.

авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда, “Тарбия қанча мукамал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди”, дейди донишмандлар.

Агар оила маъносиз ҳаёт кечирса, фақат шахсий ҳузур-ҳаловат билан машғул бўлса, оилада раҳмсизлик ва худбинлик ҳукм сураётган бўлса, буларнинг ҳаммаси боланинг маънавий қиёфасига салбий таъсир этмасдан қолмайди, албатта. Шунинг учун ота-оналар учун оила тарбияси, аввало, ўз-ўзини тарбиялашдан иборат бўлмоғи керак. Ота-оналарнинг юксак ижтимоий онги болаларда ҳам шунга мос онг таркиб топишига ёрдам беради.

Ота-она олдидаги масъулиятнинг нақадар муҳимлиги шундан иборатки, улар боланинг ҳар бир қадамини, ҳар бир хатти-ҳаракатини зимдан кузатиб борадилар. Ҳар бир ота-она ўз фарзандини севади. Ҳеч ким улардан ёмон ва бахтсиз инсонлар етишиб чиқишини истамайди. Фарзандининг ҳар бир ютуғи ота-онанинг юрагини тоғдек кўтаради, фахр ва ғурур туйғуларини вужудга келтиради. Лекин ота-онанинг мақсад ва ниятини фарзандлар қандай тушунадилар, бу мақсадларни амалга ошириш учун улар қандай йўл ва воситалардан фойдаланадилар, булар ниҳоятда муҳим масалалардир.

Ота-онанинг жамиятда тутган ўрни, нуфузи фарзанд тарбиясида катта аҳамиятга эга. Бу нарса мансаб билан белгиланмайди. Энг яхши обрў ва эътибор ҳалол меҳнатдир. Ҳалол меҳнат билан жамиятда орттирилган обрў оилада фарзанд тарбиясига ижобий

таъсир қилади. Фарзанд ҳам ота-оналаридек бўлишга интилади.

Ота-оналар ўз болаларидан қандай кишилар тарбиялаб етиштиришларини, унда қандай фазилатлар ҳосил қилишларини аниқ тасаввур қилишлари керак. Болани тўғри тарбиялаш учун уни яхши билиш ва тушуниш керак, бунинг учун эса педагогик билимлар зарур бўлади. Улар ота-оналарнинг бола хулқини тўғри таҳлил қилишга, унинг тарбияси учун тўғри йўлни танлашга ёрдам беради.

Оиланинг турмуш маданияти, оила аъзоларининг бир-бирига ҳурматли муносабати ва бутун оилавий ҳаётни тўғри ташкил этишни ўз ичига олади. Бундай оилада тарбияланаётган болалар секин-аста катталарнинг ҳаёт тажрибаларини эгаллаб борадилар. Бола билан дилдан суҳбатлашиш болани ота-оналарга яқинлаштиради, улар ўртасида меҳр-оқибат кучаяди. Оилада кун тартибига риоя килинмаса, уйдаги юмушлар оила аъзолари ўртасида тўғри тақсимланмаса, оилада аёлга нисбатан нотўғри муносабатда бўлинса, ичкиликбозлик ва бошқа иллатлар ҳукм сурса, бундай оилада ўсган бола юқори таъсирчанлиги, ҳаётий тажрибаси кам бўлганлиги сабабли воқеаларни ўзи мустақил баҳолай олмайди, шунинг учун натижасида у индамас, жаҳлдор, кўпол ва паришонхотир бўлиб қолади.

Боланинг тарбиясига оиладаги ташқи шарт-шароит: уйнинг жиҳозланиши, гигиеник, умумий маданият ва эстетик дидга жавоб бериш учун ҳар бир оилада зарур шарт-шароит, боланинг ўйнаши ва шуғулланиши учун жой бўлиши керак. Болалар уйда саранжом-сарийшта



бўлишлари, уй жиҳозлари ва ўз анжомларини эҳтиёт қилишлари зарур.

Инсоннинг қандай киши бўлиб етишиши кўп жиҳатдан оиладаги тарбияга, ота-онанинг масъулиятига бола тарбиясининг умумий қонуниятларини яхши билиб, ҳаётда уларга қанчалик амал қилишига ҳам боғлиқ. Ота-оналар ўз болаларининг тарбияси учун жамият олдида жавобгардирлар. Ота-оналар ўз болаларининг асосий тарбиячилари ҳисобланадилар. Шунинг учун улар фарзандларини ўз халқининг энг яхши урф-одатлари ва оилавий анъаналари руҳида олижаноб фазилатли, билимдон, маданиятли шахс қилиб тарбиялашлари керак.

Оилавий тарбиянинг ўзига хос хусусиятлари ва таъсир қилиш омиллари мавжуд. Буларни ҳисобга олмасдан туриб, бола тарбиясини оилада яхши йўлга қўйиш мумкин эмас. Бунинг учун, энг аввало, ота-оналарнинг ўзлари тарбияланган бўлишлари лозим.

Ота-оналарнинг бутун ҳаёти, уларнинг фуқаролик қиёфаси, маънавий дунёси бола тарбиясининг негизини ташкил этади. Зотан, ота-она болалари учун азиз ва муқаддас кишилардир. Шу сабабли уларга тақлид қиладилар, уларга ўхшашга интиладилар.

Тартиб ва интизом бўлган жойдагина қонун-қоида амал қилади. Тартиб бўлмаган жойда иш ҳам юрмайди, ривожланиш ҳам бўлмайди. Оилада тинчлик- хотиржамликнинг бўлиши, оила аъзолари орасида меҳр-оқибатнинг мавжудлиги, ота-она ва фарзандларнинг ўзаро самимий муносабатлари бу кичкина жамият деб номланган оиланинг ички-тартиб қоидалари ҳисобланади. Бизнинг

оиламиз катта оролдаги танҳо оила эмас, балки ака-укаларимиз, опасингилларимиз, амаки-тоғаларимиз, амма-холаларимиз, биз билан яқин борди- келдиси бўлган дўсту ёр, кўни-қўшнилари оилалари орасида эканини эсимиздан чиқармайлик.

Янги ишга кирган ходимга ҳам аввал бошида керакли шарт-шароитини яратиб бериб, ички тартиб-қоидалар билан таништириб, ундан кейин иш талаб қилинади. Оилада ҳам худди шундай бўлиши керак эмасми? Оиламизда тартиб ўрнатганмиз, болаларим айтганларимни қилади, тўғри йўлда олиб кетяпман деймиз-у, жойи келганда, фарзандларимизнинг қилиб қўйган ишларини кўриб ёқамизни ушлаб қоламиз. Йўқ, бу менинг фарзандим эмас, бу унинг иши эмас, буни бошқа биров қилган, уни мажбурлаган..... Кошки бу важларнинг энди фойдаси бўлса?

Ота-онага хизмат қилиб, уларнинг розилиklarини олиш бутун бир бошли оила, қариндош-уруғ, ҳатто кўни-қўшни, ёру дўстлар жамоасини ўз ичига оладиган комплекс хизматлар мажмуаси десак, муболаға бўлмайди. Чунки оят ва ҳадислардан шу нарса маълум бўлмоқдаки, бу борадаги илк қадам оилада бевосита ота-онадан бошланса-да, у бориб-бориб ака-укалар, амаки-тоғалар, ота-онанинг ёру дўстларига бўлган муносабатларни ҳам ўз ичига олмоқда.

Икки ё уч ёки ундан кўп фарзандли оилаларда, кейинчалик уларнинг ҳар бири оила қуриб болачақали бўлгандан кейинги бир бутун катта оилани кўз олдингизга келтиринг. Бу кичкина жамият гарчи ҳаммаси бир ота ва онадан кўпайган бўлса-да, турли характердаги ҳар хил салоҳиятдаги



катта-ю кичикодамларни ўз қарамоғига олади. Мана шу кичкина кишилик жамиятида ҳеч кимнинг кўнглини оғритмасдан, имкон қадар ҳамма билан яхши муносабат ўрнатган ҳолда ота-онанинг хизматини қилиб, розиликларини топиш лозим бўлади. Камчилик ва хатолар ҳаммада ҳам бўлади. Айниқса, бу болаларда кўп учрайди. Зотан инсон қусурлардан холи эмас.

Оила аъзолари орасидаги, айниқса ота-она ва фарзандлар ўртасидаги муомаланинг яхши бўлишлиги, энг аввало, уларнинг баъзи қусур ва камчиликларига кўз юмишликка боғлиқдир.

Агар оила аъзолари ҳисобланган фарзандларнинг бирортасида ёмонроқ одати бўлса, буни унга чиройли қилиб, юмшоқлик билан тушунтириш лозим. Бу чиройли сўзни мисоллар ёки ибратли ҳикоялар билан тушунтирилса, янада яхши бўлади. Бу жараёндаги, яъни оила аъзоларига тарбия беришдаги энг муҳим жиҳат, сўздан бошқа ортиқча ҳаракатларга эҳтиёж қолдирмасликдан иборатдир. Демак, айтилиши билан хато ва камчиликлар бартараф этиладиган бўлса, ортиқча гап-сўзларга ўрин қолмайди ва бу тарбиянинг яхши таъсиридан дарак беради.

Ота-она томонидан буюрилган ишлар фарзанд томонидан қаршилик билан қабул қилинса, ижроси кечиктирилса ёки бажарилмайдиган бўлса, бундай буйруқларни бергандан кўра бермаслик маъқул, дейилган тарбия китобларимизда. Чунки айнан мана шу зарурат болани ота-онанинг амрига исён қилиб, Аллоҳнинг азобига гирифтор бўлиб қолмаслиги учун ҳам керакдир. Зеро ҳадиси шарифда: “Фарзандининг итоатига ёрдам берган

отага, Аллоҳ раҳмат қилади”, деб марҳамат қилинган (Саҳовий, “Мақосидул-Ҳасана”, 516). Бу ҳадиси шарифда фарзанди қарши чиқиб осий бўлиб қолишига сабаб бўладиган буйруқни бермаган ота назарда тутилган. Бу аслида ҳар бир ота-она учун энг муҳим ва керак бўладиган кўрсатма ҳисобланади. Чунки бола то ақлини таниб, оқ-қорани ажратиб, савобу гуноҳ нималигини яхши билиб олгунича қанчадан- қанча қовун пишиғи ўтиши лозим бўлади. Ҳатто бола катта бўлиб, ҳаётда ўз ўрнини топиб кетганда ҳам ота-она айнан шу масалада жуда эҳтиёткор бўлса, фақат яхши бўлади.

Тарбия китобларимизда устознинг даражаси отаникидек улуғлиги айтиб ўтилади. Бу бежизга эмас. Чунки устоз инсоннинг маънавий тарбияси билан шуғулланиб, уни комил инсон бўлиб етишига асосий эътиборини қаратади. Шунинг учун ҳам уларнинг таълим-тарбия бериш усулларида, аввало, устознинг ўзи чиройли одоб эгаси бўлишлиги, кейин оғир-вазминлик, сабр- тоқатлик, чидамлилиқ каби қобилиятларга эга бўлиш энг биринчи талаблардан ҳисобланган. Ислом оламининг буюк шайхлари ҳаёти ҳақидаги тарихий манбаларда ёзилишича, илм даргоҳларида таълим олаётган айрим шогирдларда кузатилган камчилик ёки нуқсонни талабага айтиш учун устози йиллаб, ҳатто, айримлари қирқ йил кутганлари баён этилган. Бу нима дегани? Инсон хато ва камчиликдан холи бўлмаганидек, шу нуқсонларини бирданига қабул қилиб, уни бартараф этишга ҳам лойиқ эмас дегани. Инсонга ўз хатосини то ўзи ақл- идроки билан тушуниб етиши учун унга йиллар керак



бўлади. Баъзида эса шу камчилигини унга айтиш учун зарур ва қулай фурсатни топиш учун ҳам ота- оналарга кунлар, балки ойлар керак бўлар. Шунинг учун фарзанд тарбиясида, айниқса, ота-оналарнинг уларга нисбатан муносабатларида тарбиянинг мана шунга ўхшаш нозик жиҳатларини эсларидан чиқармасликлари айтиш мумкинлиги, етти ёшдан ўн тўрт ёшгача ота-онанинг хизматчиси экани, кейин эса ё душманингиз ёки дўстингиз бўлади, деб айтилган.

Ўқиган-билганларимиздан шу нарса маълум бўлмоқдаки, бирорта кишига, шу жумладан, ўз фарзандига ҳам бир нарсани ўргатишда тарбияни шуни қилгин, буни бажармагин каби кескин буйруқ ва мажбурлаш тарзида бермаслик керак экан. Ҳар қандай тарбия жараёнида чиройли ўрнак кўрсатиш энг яхши натижа бериши тажрибалардан билинмоқда.

Шундан келиб чиқиб, ота- оналар ҳам яхши ва хайрли ишларни фақат тушунтиравермасдан, насихатларини амалда ўзлари бажариб кўрсатиб турсалар, яхши ўрнак бўлади.


«Энг катта бахт, мен буни минг марта қайтаришдан чарчамайман, оиламиз тинч бўлсин! Оила кичик ватан, оила тинч бўлса, бахтли бўлса, ватан тинч бўлади. Ўша бахтли кунларни, ватанимизнинг, ёшларимизнинг камолини ҳозир ният қилаётганимиз каби кўриш ҳаммамизга насиб этсин!», - дея таъкидлаган Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев. Умуман олганда, оила тарбия масканидир. Шундай экан, тарбия оиладан бошланади. Ўзбек оиласининг маънавияти ўзбекнинг миллий ғуруридир.

Хикмат. Абу Лайс Самарқандийнинг “Танбеҳул ғофилийн” асарида аллома Фузайл ибн Иёз раҳматуллоҳи алайҳнинг қуйидаги хулосалари ифода этилган: “Шу ишларни қилган одам мутлақо мурувват ва фазилат соҳиби бўлади: ота- онасига яхшилик қиладиган, қариндошларини зиёрат этадиган, дин биродарларига илтифот ва ҳурмат кўрсатадиган, аҳли аёли, болалари ва хизматчиси билан яхши муомалада бўлиб, ҳаёт кечирадиган, динини муҳофаза қиладиган, молини шариат буюрган тарзда ҳалол сақлаб, ортиғини эҳсон қиладиган, тилини тийган, кўзлари уйига, ибодатга қаратилган тарзда ҳаёт кечирадиган, беҳуда ишлар ва кераксиз одамлардан узоқда юрган.” Тарбия китобларимизда болалар етти ёшгача оиланинг райҳонлари экани, уларни мазза қилиб ҳидлаш

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. Оила ва бахт ҳақида. <https://www.gazeta.uz/uz/2018/07/25>
2. Абдурауф Фитрат. Оила. -Т.: Маънавият, 2000. 112 -б.
3. Арапбаева Д.К, Арапбаева В.К., Шарқ мутафаккирларининг оила ватарбия ҳақидаги қарашлари. “Оила ва мактаб” Журнали. 2015. 69-б





## “ALPOMISH” DOSTONIDA LEKSIK-FONETIK DIALEKTAL SO‘ZLAR

Xusniddin Xaitov

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034211>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma’qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO‘ZLAR

Leksik-fonetik dialektal so‘z, undosh, til o‘rta, sirg‘aluvchi, jarangli, “Laqaylar: ba’zi so‘zlar va iboralarning dialektolgik mazmuni”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Zomin til qomusi”, N.Nazarov, B.To‘ychiboyev, Q.Qashqirli.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Alpomish” dostoni leksikasidagi leksik-fonetik dialektal so‘zlarning qo‘llanilishiga oid fikr-mulohazalar bayoni keltirilgan. Doston matnida uchragan leksik-fonetik dialektal so‘zlar ajratib olinib, har biriga batafsil tavsif berilgan. Shuningdek, doston matnidagi leksik-fonetik dialektal so‘zlar dialektizmning bir turi sifatida ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil etilgan.

O‘zbek dialektologiyasi adabiy tilimizni boyituvchi ichki manbadir. Biroq faqatgina so‘zlar bilan emas, shevashunoslikdagi bir qancha dialektal qonuniyatlar ham adabiy tilga singib borishini ko‘rish mumkin.

“Milliy tilning quyi formalari bo‘lgan mahalliy dialektlar va xalq shevalarining ham adabiy til bilan bog‘liqlik jarayoni va o‘zaro aloqasi doimiy hodisa sifatida davom etib turadi. Mahalliy dialektlar va xalq shevalaridan qandaydir formalar doimo asta-sekinlik bilan adabiy tilga o‘ta boradi, uni to‘ldiradi va boyita boradi”. [1, 6] Adabiy tilga asta-sekinlik bilan o‘tib borgan formalardan biri dialektal fonetik hodisadir.

“Muayyan fonetik sharoitda so‘z o‘zaklari yoki negizlaridagi yondosh tovushlarning bir-biriga ta’siri, birikuvchi bo‘g‘in yoki so‘zlardagi tovushlarining

to‘qnashuvi, ohangdoshlik va shu kabilar orasida yuz beradigan tovush o‘zgarishlari fonetik hodisalar hisoblanadi. Fonetik ma’lum hodisalar ma’lum qonuniyat zaminida vujudga keladi”. [2, 57] Natijada so‘z tarkibida fonetik o‘zgarish kuzatiladi:

**“FONETIK O‘ZGARISH.** So‘zning fonetik tuzilishida bo‘ladigan o‘zgarish; fonetik o‘zgachalik yuz berishi. Mas., sarg‘aymoq so‘zi asli sarg‘armoq bo‘lgan, ya’ni so‘zida fonetik o‘zgarish – r ning y ga aylanishi (o‘zgarishi) yuz bergan.” [3, 123]

Fonetik o‘zgarishlar esa dialektal xususiyatdir. Bunday dialektal xususiyatlarni xalq dostonlari matnida ham ko‘rish mumkin. Milliy eposimiz “Alpomish” matnida uchraydigan dialektizmlarni o‘rganish va tadqiq qilish fonetik hodisalar dialektal so‘z turlarining xususiyatlarini ta’minlovchi omil ekanligini ko‘rsatdi deyish mumkin.



Turli fonetik hodisalar ham hududiy-mahalliy xususiyatdir. “Har bir xalq o‘z mahalliy shevalarida muloqat yuritadi, binobarin, xalq o‘z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig‘ini, moddiy va ma‘naviy dunyosini, his-tuyg‘ularini ifoda qiladi...” [4, 3]

Xalqning butun borlig‘ini, moddiy va ma‘naviy dunyosini, his-tuyg‘ularini ifodalashda fonetik hodisalar bilan bog‘liq leksik-fonetik dialektal so‘zlar ham muhim deyish mumkin.

**Leksik-fonetik dialektal so‘zlar** – ba‘zi dialektal asosning tarkibida bir va undan ortiq tovushning fonetik o‘zgarishi natijasida shakllanadi. Leksik-fonetik dialektal so‘zlar adabiy tildagi so‘zning fonetik hodisalar bilan ifodalanishidir. Quyidagi parchada leksik-fonetik dialektal so‘zlarni adabiy tildagi so‘zdan farqlanadi:

*Biylar: “Mazmuni bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi”, – deb otini o‘zi boylab, ma‘raka-maylisga kelib o‘tira berdi.*[5, 13]

Berilgan parchada majlis so‘zining birinchi bo‘g‘inidagi til oldi, portlovchi, jarangli [j] undoshi til o‘rta, sirg‘aluvchi, jarangli [y] undoshiga o‘zgarishi natijasida **maylis** leksik-fonetik dialektal so‘zni hosil qilgan. Doston matnida dialektal so‘zning bu turi ham juda ko‘p uchraydi. Bu tabiiy, albatta, negaki dialektal birliklarning muhim xususiyatlaridan bir ham so‘zning adabiy tildagi holatidan fonetik jihatdan farqlanishidir. Dialektalogiya sohasida o‘rganilgan aksariyat tadqiqotlarda leksik-fonetik dialektal so‘zlar e‘tibordan chetda qoldirilgan. Dialektizmning bu turi N.Nazarovning monografik tadqiqot ishida uchraydi.

*Qirq kecha-yu qirq kunduz bo‘lgandan kay to‘y tarqaydigan kuni bo‘ldi.* [5, 14] Bu gapdagi **kay** birligi adabiy tilda **keyin** ma‘nosida qo‘llanilgan. Keyin ravish

so‘z turkumiga mansub, paytni ifodalaydi. So‘z tarkibidagi [i], [n] tovushlarning tushishi, birinchi bo‘g‘indagi [e] unlisi [a] unlisiga almashgan, bu xususiyatlar leksik-fonetik dialektal so‘zga xosligini qayd etish mumkin.

*Kalma shahodat musurmonning tiliga,*

*Azamat bosh berar dinning yo‘liga.*

*Turarim yo‘q Boysun-Qo‘ng‘irot eliga.*

[5,19]

Birinchi satrdagi **kalma** birligi ham fonetik hodisaga uchragan. Bunda ikkinchi bo‘g‘indagi [i] unlisi tushib qolgan hamda dialektal ma‘no hosil qilib, leksik-fonetik dialektal so‘zning namunasiga aylangan. Bu so‘z arabcha bo‘lib, jumla, so‘z, qisqa gap ma‘nolariga ega. So‘zdagi fonetik hodisa esa mahalliylikni ta‘minlagan, dialektal xususiyat va ma‘no kasb etishga sabab bo‘lgan.

*Davlat qo‘nsa bir chibinning boshiga,*

*Semurg‘ qushlar salom berar qoshiga,* [5, 19]

Parchadagi **chibin** dialektal birligi – leksik-fonetik dialektizmdir. Bu dialektal so‘z “Alpomish dostonining izohli lug‘ati”da ham sharhlangan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Chibin *dial.* Chivin” dir. [6, 365] Chibin so‘zidagi [v] tovushi [b] tovushiga almashgan, natijada dialektal xususiyat shakllantirgan.

*Seni ko‘rib ichim o‘tday kuyadi,*

*Quvrab ketgan emchaklarim iyadi.*

[5, 343]

Ikkinchi qatordagi **quvrab** ravishdoshi tarzida kelgan dialektizmning asosi quvra – so‘l, (gullarning so‘lishi) quri ma‘nolarini bildiradi. Quri asos tarkibida [v] tovushi ortishi, [i] tovushining [a] tovushga almashishi natijasida leksik-fonetik dialektizm turiga aylangan va bu birlik **-b** ravishdoshi bilan qo‘llanilgan.



*Borganda tegadi bodom qobog'ing,  
Qulli bo'lsin, akajon, arg'umog'ing,*  
[5, 78]

Misrada kelayotgan qoboq birligi leksik-fonetik dialektizmning namunasi. Qoboq – ko'z va kiprik oralig'idagi qism. Bu birlikning adabiy tilda qovoq deb atalishi ma'lum. "Qovoq – ko'z kosasini qoplovchi, ochilib-yopiluvchi teri". [6, 591] Aksariyat yozma badiiy adabiyotda qaboq tarzda ham ishlatiladi. Nasriddin Nazarov monografiyasida: "Qabaq – 1.Qosh bilan ko'zning orasi, qovoq. Ana sho, badam qabaq qiz jaxti" deya izohlangan. [7, 137]

*Ko'p aynalib mening ko'nglim bo'lmagin,*

*Meshni so'rab sen ham ishdan qolmagin.* [5, 348]

Birinchi qatordagi **aynalib** ravishdosh ko'rinishidagi dialektizm N.Nazarovning "Laqaylar: ba'zi so'zlar va iboralarning dialektologik mazmuni" kitobida **aynalip-uyriluv** juft holatida uchramiz. "Aynalip-uyriluv – mulozamat ko'rsatmoq, erkalamoq. Aynalip-uyriluv qudagiylarg'a xizmet qip jiri". [7, 8] Ikkinchi qatordagi **mesh** idishi tilga olingan. Xuddi shu kitobda bu so'z ham uchraydi. "Mesh – suv yoki ayron quyish uchun molning terisidan yoki brezentdan ishlangan idish. Meshke suv suv quyip shamlga ilip qo'ysang, yaxlab turadi". [7, 86] "Zomin til qomusi"da: "Mesh. 1. Suv, qimiz, ayron, moy saqlash uchun teridan tayyorlangan to'rvaga o'xshash idish. Enam har qishta bir mesh sarimoy jo'natadi". [8, 366]

*Men biluvda erta choshka o'lasan,  
Yodigorga nega zulm qilasan?!* [5, 351]

Dastlabki misra tarkibidagi **biluv** birligi **bilishimcha** ma'nosida kelyapti. Bil asosiga **-uv** harakat nomi qo'shilgan. Adabiy til variantida gap tarkibida

bilishimcha so'zi kirish so'z sifatida ishlatiladi. N.Nazarovning "Laqaylar: ba'zi so'zlar va iboralarning dialektologik mazmuni" kitobida **choshka** dialektizmiga berilgan izoh: "Choshke – ertalab, quyoshning ko'tarilgan vaqti". [7, 128] Faqat dostonidagi dialektizmning oxirgi tovushi [a] tovushi, N.Nazarov izohidagi dialektizmida esa [e] tovushi farqli holatda ekanligini ko'rish mumkin.

*Yig'laydi Barchinoy chochini yoyib,  
Kanizlarman birga turib sarg'ayib.*  
[5, 111]

Adabiy tilda qo'llaniladigan soch so'zining ilk tovushi – til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz [s] undoshining o'rnida til oldi, qorishiq, jarangsiz [ch] tovushi kelishi bu birlikka dialektal ma'no yuklagan.

*Qul ichinda mehribonim sen eding,  
Sen ham meni unutdingmi, bobojon?*  
[5, 337]

Dastlabki qatorda kelayotgan **ichinda** birligi tarkibida til oldi, portlovchi, jaranli [n] undoshining ortishi natijasida dialektal ma'no kasb etgan.

Asarning boshlanish qismidagi quyidagi gaplarga e'tibor qaratish mumkin: *Boybo'ri bilan Boysari – ikkovi katta bo'ldi. Boysari boy edi, Boybo'ri shoy edi.* [5, 12] Har ikki gap tarkibida **ikkovi, shoy** so'zlari leksik-fonetik dialektizmdir. Birinchisida [i] tovushi tushgana bo'lsa, ikkinchisida bo'g'iz [h] undoshi o'rnini til o'rta [y] undoshi egallagan.

*Biylar shul vaqtda ovdan qaytdi; bu yoqdan shul vaqtda farzandlar yer yuziga tushdi.* [5, 14] Gap tarkibidagi **shul**ni ham dialektizm deyish mumkin. Adabiy holatdan farqlanadi. Bunda [l] tovushi qo'shilgan holatda tarixiy dialektizm deb aytishga asos adabiy tilning shakllanib borib, shu olmoshining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

*Xudo deyin, yaratganga jilayin,*



*O'z akama qanday zakot berayin.* [5, 17]

Jilayin – yig'layin degani. So'zboshidagi [y] undoshi [j] undoshiga almashgan. Dostonda bu kabi holatlar juda ko'plab uchraydi.

*Qo'lim **chechib** ozod qilgin o'zimdi,  
Munday kunda menga o'lim lozimdi(r).* [5, 34]

Birinchi qatordagi **chechib** hamda ikkinchi qatordagi **munday** birliklari – leksik-fonetik dialektizmlardir. Til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli [y] tovushi o'rnida til oldi, qorishiq, jarangsiz [ch], lab-lab, portlovchi, jarangli [b] tovushining o'rnida lab-lab, portlovchi, jarangli [m] tovushi kelgan. Tovush almashish fonetik hodisasi yuz bergan.

*Davlatimdan adras-kimxob kiyaman,  
Haqdan kelgan ishga bo'ynim **iyaman**,*

*Alpomishga tekkin desa, kuyaman,  
Yurt egasi Kayqubodga **tiyaman**.* [5, 296]

Yuqorida qo'llanilgan **iyaman**, **tiyaman** fe'llari leksik-fonetik dialektal so'zdir. Adabiy tildagi egmoq, tegmoq so'ziga mos keladi. Ushbu birliklardagi [e] unlisi va [g] undoshi fonetik hodisaga uchrab [i] va [y] undoshiga almashib ketgan.

*O'li-tiri ekanimni bilmasa,  
Uchib chiqay desam, qanot bo'lmasa,  
Chiqmoqqa tangirim yo'lni bermasa,  
G'arib o'ldim, hech kim meni bilmasa.* [5, 223]

**O'li-tiri** birigidagi –k undoshi tushishi leksik-fonetik dialektizmga asosdir.

*"Saman **sariga** tush, yo olapocha to'riga tush, shapaqning zo'riga tush", – deb qo'riqni soldi, yollari eshilgan ipakday bir chipor otning bo'yniga tushdi.* [5, 77]

Ushbu gapda **sari** dialektal so'zining

tarkibidagi [q] undoshi fonetik hodiasaga uchragan. Sariq so'zi sifat so'z turkumiga mansub bo'lib, bu holat hozir ham qipchoq sheva vakillarida o'zgarmagan. "**Sari** – sariq. Sharqiy gruppada qipchoq shevalarida sariq so'zining ham bir nechta ma'nolari bor. Avvalo, u ham asosan rangni bildiradi". [9, 28]

*Orqamdagi chochbovmatim **tuyildi**,  
Solib qo'ygan bul to'shagim **jiyildi**,  
O'ylab ko'rsam, ko'rgan tushim qiyindi(r),*

*Bul tushning tabgiri, qizlar ne bo'ldi?* (5, 95)

Misralarda kelayotgan **tuyildi** – tugildi, **jiyildi** – yig'ildi ma'nolariga ega bo'lib, dialektal xususiyatni ifodalab kelgan. Birinchi birlikda [g] undoshi [y] undoshiga, ikkinchisida esa [y] undoshi [j] undoshiga almashgan.

*Xonning Chibor oti toza **tingnab** qaradi.* [5, 96]

Gapdagi **tingnab** dialektal so'zi tarkibida ham undosh almashgan. Ya'ni [l] unodoshi o'rnida [n] undosh kelgan. Bu birlik eshitmoq ma'nosini bildiruvchi tinglamoq ma'nosini ifodalaydi.

*Japsar yorib Chilbir cho'lga qaradi,  
Boychiborman Qorajonni ko'radi,  
Ko'p pushaymon qilib oyim **jiladi**.* [5, 110]

**Jiladi** – dialektal so'z. Matnda yig'lamoq ma'nosida ishlatilgan bo'lib, tarkibidagi [y] undoshi [j] unodoshiga almashgan, asosdagi [g'] undoshi tushib qolgan. Shuningdek, jiladi (jilmoq) – ketadi ma'nosida ham kelishi mumkin, ya'ni jilmoq – ketmoq, lekin bu holat sof dialektal so'zga mansubdir.

*Yo'lovchiman, senga burilib qarayman,*

*Kim biladi yilqilarning **soyibi**?* [5, 313]





Bu misrada kelayotgan soyib dialektal birligida [h] bo'g'iz undoshi [y] til o'rta undoshiga almashgan bo'lib, ega ma'nosini ifodalaydi. Lekin dostonning ba'zi o'rinlarida fonetik hodisaga uchragan holati tahrirlanganligini ham ko'rish mumkin:

*Yilqining sohibini so'rab turasan,  
Yo'q narsani so'rab nima qilasan?* [5, 314]

Bu misralarda kelayotgan **sohib** so'zi doston tahriri davomida tuzatilib, adabiy til holatiga keltirilgan bo'lishi mumkin.

*Mundayg'achiq ahmoq bo'lgani nesi,  
Bog'onog'i so'zimni ayt mang  
to'rama.* [5, 114]

Misrada kelayotgan **nesi** dialektal birligi tarkibida gonetik hodisa yuz bergan. Nima so'roq olmoshidan [m] va [a] tovshulari tushirilgan hamda qisqargan shakliga -si qo'shimchasi qo'shilgan.

*Xazon bo'lmay bog'da gullar  
so'lmasin,*

*Masti tarqab, yana turib qolmasin,  
Erta bo'nglar, zindon kechga  
qolmasin.* (5, 220)

Mazkur satrlarda kelayotgan **bo'nglar** dialektal so'zining tarkibidagi -l undoshi tushib qolgan. Natijada yopiq bo'g'inga aylanib, -ing shaxs-son qo'shimchasi tarkibidagi [i] unlisining tushishiga sabab bo'lgan. Bu esa **bo'linglar** tarzida qo'llaniladi. Leksik-fonetik dialektal so'z sifatida satrdagi bo'g'inlar miqdorining saqlab qolinishiga ham sabab bo'lgan.

*Lochinday aynalma bunda,  
ahmoqlar,*

*Bora bergin o'z yo'lingga  
badbaxtlar.* [5, 61]

**Aynalma** - dialektal birlik. Aylanma tarzida ifodalanadi. Bo'lishsiz fe'l vazifasida kelgan bo'lib, [n] undoshi bilan

[l] undoshining o'rni almashgan holatni ko'rish mumkin.

*Unday deb chiqarma sen ham  
dovshingni,*

*Tanimaysan undayg'achiq  
kishingni.* [5, 309]

**Dovshingni** dialektal birligining asosi - tovush. Ya'ni [t] undoshi [d] ga o'tgan bo'lsa, [u] unlisi tushib qolgan, natijada dialektal holatda matnda ishtirok etgan.

*Har qaysisi bir darada bir-biriga  
yonashmay, ayiqdan chinqirib yubordi.* [5, 56]

Gapda kelayotgan **yonashmay** dialektal birligida [d] undoshi tushib qolgan. **Yonashmay** - yondashmoq fe'lining dialektal holati deyish mumkin. Yaqinlashmay ma'nosini bildiradi.

*Egam onsot qilgay bunda  
mushkulni,*

*Shul zamonda soldi otning ustiga,  
Zarliyu zardobdan bo'lgan chirgini.* [5, 79]

Gapdagi **onsot qilgay** birligini tarkibida [n] undoshi orttirilgan, asos oxiridagi [n] undoshi [t] undoshiga almashib ketgan. Bu birlik oson qilmoq so'zining dialektlashgan holatidir.

*Qorajonbek men ham senga qarayin,  
Bir kelar bo'ljalning sendan so'rayin.* [5, 124]

**Bo'ljalning** - dialektal birlik. Mo'ljal, taxmin, chama ma'nosida kelgan. Birlik boshidagi [m] undoshi [b] tovushiga almashgan. Qilayotgan taxmining - mo'ljalning bir kelib qoladi, shuning sendan so'rayin, deya ta'kidlangan.

*Zil tog'ida bordir bitta aydarhor,  
Borsang aydarhoga bo'larsan  
duchor,*

*Qaytgin endi toqqa-toshga  
bormanglar.* [5, 274]





**Aydarhor** – dialektal soʻz boʻlib, adabiy tilda ajdarhodir.

Koʻrinib turibdiki, [j] undoshi [y] undoshiga oʻtgan, [r] undoshi orttirilgan. X.Doniyorov monografiyasida shunday izohlar bor: “adabiy tilimizdagi aslida arabcha yoki fors-tojikcha boʻlgan koʻpgina soʻzlar sharqiy gruppaga qipchoq shevalarida quyidagi fonetik oʻzgarishlar bilan qoʻllaniladi: **aydahar** – ajdaho. Bu holni biz, birinchidan qipchoq sheva vakillarining xususan, arab va fors tillari vakillari bilan nisbatan kam munosabatda boʻlganliklari, bu sheva vakillarining turmush sharoitlarining oʻziga xosligi (qishloq joyda yashab kelganliklari, koʻproq chorva bilan shugʻullanganliklari va hunarmadlik bilan nisbatan kam shugʻullanganliklari) kitobiy terminlarni kam qoʻllaganliklari va shu kabi oʻziga xos tomonlar bilan izohlaymiz”. [9, 78]

*Men bildim, yangitda soʻrab turaman,*

*Sizni bilib men ham xizmat qilaman,*  
[5, 266]

**Yangitda** dialektal birligida [t], [d], [a] undoshlari orttirilgan. Payt ravsidoshi boʻlib kelgan **yangitda** – boyadan beri maʼnosini ifodalaydi.


*Enang bilan sen topishding yoʻllarda,  
Oʻkranib enangni emgin, Boychibor.*  
[5, 313]

**Oʻkranib** – dialektal soʻz boʻlib, lugʻatda izohini uchratmadik. Bu soʻz oʻkirmoq soʻzining dialektlashgan holati. Misrada: yoʻllarda engan bilan topishding oʻkirib, yani (xursandligingdan) baqirib emgin, deyilmagan. Hatto bu soʻz eski turkey tilga oid lugʻatlarda koʻkramak tarzida uchraydi. Bu soʻzning asosidagi [oʻ], [k], [r] tovushlaridan maʼnoga ishora qilib turibdi.

Doston matnida uchragan yuqoridagi kabi leksik-fonetik dialektizmlar miqdor jihatdan koʻp. Baʼzilari doston matnining turli oʻrinlarida takror qoʻllanilgan. Fonetik hodisalar jarayonida yuzga kelgan shevaga oid birliklar nafaqat dialektal maʼno, balki intonatsiyaga, ijroga ham hamohanglikni taʼminlashga xizmat qilgan deyish mumkin. Chunki tovushlarning uygʻunligi baxshi uchun ham muhim jarayon boʻlib, bunda leksik-fonetik dialektizmlarning oʻrni beqiyosdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doniyorov X, Yoʻldoshev B. Adabiy til va badiiy til. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 1988. 208 b.
2. Abdurahmonov Gʻ tahriri ostida. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 1966. 390 b.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent:, Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2002, 158 b.
4. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent:, “Nodirbegim” nashriyoti, 2021. 176.
5. Fozil Yoʻldosh oʻgʻli. “Alpomish” dostoni. – Toshkent:, “SHARQ” nashriyot matbaa aksiyadorlik jamiyati bosh tahririyati. 2010. 400 b.
6. Z. Maʼrufov. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Moskva: 1981. II jild.632 b.
7. Nazarov N. Laqaylar: baʼzi soʻzlar va iboralarning dialektologik mazmuni. – Toshkent:, “Iqtisod -moliya” nashriyoti. 2005.202 b.
8. B.Toʻychiboyev. “Alpomish” va xalq tili. – Toshkent:, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 2001.160 b.
9. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 1979.160 b.
10. Mirzayev T, Eshonqul J, Fidokor S. – Toshkent:, “Alpomish” dostonining izohli lugʻati. 2007. 164 b.



## INGICHKA ICHAKNING TURLI QISMLARIDAGI INTRAEPITHELIAL LIMFOTSITLARI MIQDORIIY KO'RSATKICHLARI

**Salomov Shoxabbos Nozimjon o'g'li**

Andijon davlat tibbiyot instituti,

“Davolash ishi” fakulteti 2-bosqich 207-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034237>

**Dolzarbli.** Anatomik jihatdan ingichka ichakni o'n ikki barmoqli ichak, och va yonbosh ichaklarga ajratib o'rganiladi. Ingichka ichakda ximusning hazm bo'lishi glikokaliks fermentlari, oshqozon osti bezi shirasi va o't suyuqligi fermentlari yordamida yakunlanadi. Ingichka ichak vorsinkalari jiyakli epiteliysi ovqat hazm qilish mahsulotlarini qon va limfa ichiga tanlab so'rilishini ta'minlaydi. Oshqozon-ichak shilliq qavatining juda katta yuzasi ko'plab yuqori invaziv potentsialli mikroorganizmlardan ta'sirlanadi. Sekretor immunoglobulinlarning A tipi (IgA) shilliq qavatning birinchi himoya chizig'ini tashkil qiladi.

Yana bir himoya mexanizmi - bu mikroorganizmlarning kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi epiteliya hujayralarining to'siqlarini yaratadigan zich hujayralararo birikmalardir. Shu bilan birgalikda, asosiy himoya to'sig'i bo'lib, oshqozon-ichak traktida antitelolarni chiqaradigan - makrofaglar va shilliq qavatda hamda, shilliq osti qavatida joylashgan juda ko'p miqdordagi limfotsitlar va plazmatik hujayralari mavjud. Vorsinkalarning shilliq qavatidagi limfotsitlar so'ruvchi enterotsitlar orasida joylashgan bo'lib, ular intraepitelial limfotsitlar deyiladi. Birgalikda bu toplan hujayralar KALT (ichak bilan bog'langan limfoid to'qima - *gut-associated lymphoid tissue* — GALT) deb ataladi.

Ovqat hazm qilish tizimi organlarining turli xil eksperimental ta'sirlar ostida moslashish muammosi mahalliy va xorijiy mualliflarning ko'plab sharhlarida ta'kidlangan. Ushbu asarlarning salmoqli qismi ingichka ichakdagi kompensator-adaptiv jarayonlarni, struktura va funktsiya munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ingichka ichakning turli qismlari, ham strukturaviy (vorsinkalarning balandligi, kriptalar chuqurligi, epiteliy va qadahsimon hujayralari nisbati va boshqalar) ham funktsional (fermentativ va transport faolli, bioelektrik faollik, ozuqa moddalarining so'rilishi) jihatidan proksimo - distal gradientining mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Ingichka ichak mikroflorasi, shuningdek, ichak epiteliysining arxitektonikasiga va hujayra tarkibiga, uning proliferativ - migratsiya holatiga, shilliq qavatning immun apparatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Amalda sog'lom odamlarda vorsinka balandligi, kengligi va shakli keng chegaralarda o'zgarib turadi. Vorsinka va kriptalarning chiziqli parametrlariga muvofiq, ingichka ichak vorsinka uzunlamasidagi bo'limlarida hujayralar soni o'zgaradi.

Ushbu ilmiy ish ham proksimo - distal yo'nalishda ingichka ichak vorsinkasini gistologik tarkibiy qismlarini o'rganishning davomi hisoblanadi.



**Tadqiqot maqsadi.** Oq kalamushlarning ingichka ichaklari vorsinkalar intraepitelial limfotsitlarining morfometrik ko'rsatkichlarini o'rganish.

**Materiallar va uslublar.** Tadqiqot materiali 20 ta erkak oq kalamush edi. Hayvonlar oddiy vivariya sharoitida kemiruvchilar uchun tabiiy oziq-ovqatda saqlangan, buning asosi bug'doyning butun donasi, shuningdek, katta bo'laklarga bo'lingan sabzavotlar edi. Oziqlantirish kuniga ikki marta amalga oshirildi, bunda hayvonlarga oziq-ovqat va suvdan kerakli oziqlanish imkoniyati berildi.

Yorug'lik- mikrosko'pida gistologik tekshiruv 12% neytral formalinda fiksatsiya qilingandan, ingichka ichakning qalinligi 5-6 mkm bo'lgan parafin kesmalarida o'tkazildi. So'ruvchi enterotsitlar, qadahsimon hujayralari va intraepitelial limfotsitlarni hisoblash uchun gistokimyoviy usullar bilan belgilangan bo'limlar kesmalari: neytral mukopolisaxaridlarni aniqlash uchun SHIK reaksiyasi va kislotali mukopolisaxaridlar uchun Xeyl usuli bilan bo'yaldi. Enterotsitlar, shilliq hosil qiluvchi qadahsimon hujayralari va intraepitelial limfotsitlar vorsinka bir tomonida yo'naltirilgan bo'limlarda hisoblandi.

#### **Natijalar va muhokama.**

Ingichka ichak vorsinkalar yuzasi bir qavatli baland prizmatik hujayralar bilan qoplangan, chegarasi aniq. Ular bir-biriga yaqin joylashgan va ular orasidagi chegaralar oddiy yorug'lik mikroskopida ko'rinmaydi. O'n ikki barmoqli ichak vorsinkasi bo'ylama qismining bir tomonida yuqori prizmatik enterotsitlar soni  $68,4 \pm 1,2$  dona, yuqori prizmatik enterotsitlar orasida joylashgan qadahsimon hujayralari soni  $14,8 \pm 1,6$  dona; bazal membranaga yaqinroq joylashgan intraepitelial limfotsitlar soni

$5,9 \pm 1,1$  dona. O'n ikki barmoqli ichak vorsinkalari bo'ylama kesimining bir tomonida, enterotsitlarga nisbatan vorsinkalar intraepitelial limfotsitlari soni deyarli 12 marta, qadahsimon hujayralari esa deyarli 3 barobar kam.

Ingichka ichakning och ichak qismi vorsinkasining bo'ylama kesimida bir tomonidagi enterotsitlar soni  $93,5 \pm 0,9$  dona; qadahsimon hujayralari soni  $19,7 \pm 1,7$  dona; intraepitelial limfotsitlar soni  $7,8 \pm 0,7$  donani tashkil etdi. Enterotsitlar soniga nisbatan vorsinkadagi intraepitelial limfotsitlar soni deyarli 15 marta, qadahsimon hujayralarini esa 3 barobar kam ko'rsatgichga ega bo'ldi.

Yonbosh ichakda vorsinka uzunlamasi kesimining bir tomonidagi enterotsitlar soni  $60,1 \pm 1,3$ ; qadahsimon hujayralari soni  $33,4 \pm 2,5$ ; vorsinkadagi intraepitelial limfotsitlar soni  $13,4 \pm 0,6$  ni tashkil qiladi. Enterotsitlar soniga nisbatan vorsinka intraepitelial limfotsitlar soni deyarli 5 marta, qadahsimon hujayralarini esa 3 barobar kam.

Shunday qilib, morfometrik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'ruvchi enterotsitlar soni proksimal yo'nalishda dastlab ortib, keyin kamayadi, qadahsimon hujayralar va intraepitelial limfotsitlar soni esa, aksincha, ortadi. Ko'rinib turibdiki, bu proksimo - distal yo'nalishdagi mikroorganizmlar kolonizatsiyasi bilan bog'liq.

#### **Xulosa :**

Birinchidan - ingichka ichakning yuqori qismida ya'ni o'n ikki barmoqli ichakda prizmatik epiteliylarning sonini o'rganib, sanab chiqqanimizda och ichakka o'tgan sari epiteliylar soni ortib bordi. Enterotsitlar asosan oziq moddalarni so'rish va uni keying qismlarga o'tkazish vazifasini bajaradi. Och ichakda o'n ikki barmoqli ichakka nisbatan enterotsitlar



soni o'rtishi kuzatildi. Yon bosh ichakka o'tgan sayin enterotsitlar soni kamayadi. Ikkinchidan – Ingichka ichakning dastlab o'n ikki barmoq ichak qismidagi vorsinkalaridagi qadahsimon hujayralar soni sanalganda ham ingichka ichakning har uch qismida tafovut sezildi. Ular sekret moddalar bilan to'lganda qadah shaklini oladi. Qolgan holatlarda silindrsimon holatda bo'ladi. O'n ikki barmoqli ichakdan yonbosh ichak tomon qadahsimon hujayralar soni ortishi kuzatildi. Bu esa


ichaklarning quyi qismlarida ya'ni yon bosh ichak qismlariga o'tgan sayin ichaklarning sekret ishlab chiqarish xususiyati ortisiga olib keladi.

Uchinchidan – endi shu vorsinkalardagi enterotsitlar orasida joylashgan limfositlar soni o'rganilganda, bu hujayralar ham, yon bosh ichakka tushgan sayin soni ortishi kuzatildi. Bu esa mikroflora ortishi bilan, asosiy himoya to'sig'ini ham kuchaytiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Зуфаров. К.А., Байбеков И.М., Хаджиметов.А.А. Компенсаторно-приспособительные процессы в кишечнике. – М. : Медицина. 1974. – 206 с.
2. Зуфаров. К.А. Структурные основы компенсаторно – приспособительных процессов. – Ташкент: Фан. 1976. - 222с.
3. Saydullayev.T, Aliev.H, Azizov.Yu , Tulanov D , Mamarasulova.S. The result of experimental studies of the lymphatic system of the small intestine in physiological condition. Journal of Critical reviews ISSN-2394 – 5125 . Vol 7, Issue 12,2020.
4. Dancygier H . Bacterien und intestinales Immunsystem/ Internist.-1989.-Bd.30,N6.-s.370-381.
5. Алиев Х.М. Рахманов Р.Р. Умарова . З.М. Камолдинова Р.А. Гистоструктура слизистой оболочки желудка крыс при однообразной белковой питании. „ Re-health “ электронный научно-практический журнал. N-3 . часть 2,2020. СТР . 204-208.





## OROLBO`YI HUDUDLARIDA KUZATILGAN ANTROPAGEN HODISALARINING KO`P YILLIK O`ZGARISHINI O`RGANISH

Raximbayev Otabek Davlatbayevich

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti,  
Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi yo`nalishi 1-bosqich  
magistranti, [Gidro-otabek@mail.ru](mailto:Gidro-otabek@mail.ru)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034261>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021  
Ma`qullandi: 15-yanvar 2022  
Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO`ZLAR

*Orolbo`yi hududlari, Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Nukus, Jasliq, Chimboy, meteorologik stansiya, qum va chang bo`roni, shamol, tezlik.*

### ANNOTATSIYA

*maqolada Orolbo`yi hududlarida kuzatilgan antropagen hodisalarining ko`p yillik o`zgarishlarini Nukus, Jasliq, Chimboy meteorologik stansiyalarining 1973-2020 yillardagi kuzatish ma`lumotlari asosida mazkur hududlarda qayt etilgan qum va chang bo`roni hodisalarining ko`p yillik o`zgarishi qiymatlari tahlil qilingan.*

### Kirish

Tabiat bilan inson o`rtasidagi munosabatlar tobora jiddiylashib, ayrim o`lkalarda bu ziddiyat juda chigal va xavfli tus olmoqda. Buning natijasida ekologik vaziyat joylarda, ba`zan tang yoki falokat darajasiga yaqinlashmoqda. Keyingi yillarda noxush hodisalar avvalgi davrlarga nisbatan planetamizda tez-tez qaytarilib, tobora katta hududlarni egalab olmoqda. Hududiy muammolar quruqlik va suv havzalarida, Yer kurasining ma`lum tabiiy chegaralariga ega bo`lgan ayrim qismlarida tarkib topmoqda. Binobarin, ularning ko`pincha bir necha davlat, ba`zan esa yirik bir mamlakat doirasida ham rivojlanishi kuzatilmoqda. Shuning uchun ham vujudga kelayotgan ekologik muammolar regional xususiyat kasb etmoqda.

1960-yillargacha Orol dengizi nisbatan barqaror edi. Amudaryo va Sirdaryoning unga tushuvchi suvlari va yog`in-sochin suvlari dengiz yuzasidan

bug`lanadigan suv hajmiga teng kelar edi. Sobiq sovet hokimiyati yillarida ilgari ko`chmanchi chorvachilik va sug`oriladigan dehqonchilik mavjud bo`lgan Orolbo`yi jadal sug`orishga asoslangan, ko`p tarmoqli qishloq xo`jalik ishlab chiqarish o`lkasiga aylandi. Ayniqsa, mustaqillikgacha bo`lgan chorak asr mobaynida sug`orish va sanoatni rivojlantirish uchun qaytarilmas suv iste`molining o`sishi, shuningdek qator yillardagi qurg`oqchilik Orol dengiziga daryo suvlari quyilishining asta-sekin kamayishiga, hatto butunlay to`xtab qolishiga olib keldi.

Paxta va boshqa ekin maydonlarini sug`orish uchun suvdan betartib foydalanish, keyingi yillarda Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo suvlari kelib quyilishining keskin qisqarishiga olib keldi. Dengiz sathi 16 metrdan ziyod pasaydi. Suv maydoni 1960 yillar boshlaridagiga nisbatan uch barobarga qisqarib, suv hajmi 60 %ga kamaydi.





Ta'kidlanganidek, Orol sathi 1961 yildan pasaya boshladi. 1961-1970 yillar mobaynida pasayish o'rtacha 21, 1971-1980 yillarda 68, 1981-1985 yillarda 80 sm ni tashkil qildi. Ayrim yillarda suv sathining pasayishi hatto 1 m ga yetdi.

Dengiz suvining sho'rlik darajasi barqaror ortib bormoqda. Hozirda bu miqdor har litr suvda 45-47 g ni tashkil qiladi. Suvning faqat bug'lanishga sarf bo'lishi, daryolar orqali kelayotgan suv miqdorining nihoyatda kamligi Orol suvida tuz miqdorining muntazam ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Orol dengizi suv sathining kamayib borishiga sabab nima va bu jarayon nima uchun davom etib kelmoqda degan savol albatta barchani o'ylantirishi tabiiy. Avvalo bu tabiatdan foydalanishning regionallik hamda tabiat komponentlarining bir butunlik qonuniyatini qo'pol ravishda buzilishi oqibatidir. Chunki, O'rta Osiyo iqlimi o'ziga xos bo'lgan quruqlik iqlimidir. Ayni paytda Orol havzasi berk havzadan iboratdir. Buning ustiga yog'in-sochin miqdori makon va zamon bo'ylab o'ta notekis taqsimlangan. Shu boisdan ham bu o'lkada "suv obihayot", "suv hayot manbai" kabi talqinlar bejiz paydo bo'lmagan.

Ammo, sobiq totalitar tizim o'lkaning tabiiy xususiyatlarini to'la inobatga olmagan holda, markazdan turib boshqaruv mexanizmi asosida uni qishloq xo'jalik mahsulotlari yetkazib berish manbaiga aylantirdi. Buning uchun yirik-yirik gidrotexnik inshootlar bunyod etilib, ularda saqlanib turgan suv hisobiga yangidan yangi yer maydonlari o'zlashtirila boshlandi. Oqibatda esa daryolarning suv sarfi keskin darajada o'zgarib Orol dengiziga borib quyuluvchi suv miqdori kamayib ketdi. Masalan, 1965 yilda Sirdaryoda Chordara suv omborining (suv hajmi 5,9 kub km.) ishga tushirilishi bilan

daryoning quyi oqimidagi suv rejimi pastlab qo'yildi. 1956 yilda Qoraqum kanali va 1974 yilda ulkan To'xtagul suv omborining ishga tushirilishi natijasida dengizga quyiladigan suv miqdori sezilarli darajada kamaydi. 1974 yilda G'azali (Qozog'iston) shahridan sal yuqoriroqda daryoga to'g'on solindi.

Amudaryo yetaklaridagi suv rejimi 1974 yilda Taxiatosh gidrouzelining ishga tushirilishi natijasida keskin o'zgardi. Bu vaqtga qadar bahor va yozda har yilgi suv toshqini tufayli deltada suv juda katta maydonlarda yoyilib oqardi, deltadagi sanoqsiz ko'l va ko'loblar hamda botqoqliklarni suv bilan ta'minlab turar edi. Taxiatosh gidrouzeli qurilganidan so'ng bu holat o'zgarib ketdi.

1986 yilda suv sig'imi 8,6 kub km. bo'lgan ulkan Tuyamo'yin suv ombori ishga tushdi, buning natijasida quyi Amudaryo etaklarida daryo suvining rejimi butunlay tartibga solindi, bu hol daryo toshqini va umuman o'zining to'lib oqishiga chek qo'ydi, foydalanilayotgan obihayot suv omborida jamg'arila boshlandi.

1974 yilga qadar Orol sathi juda sekinlik bilan pasayib bordi, chunki, bu vaqtlarda suv Sirdaryo va Amudaryo orqali me'yoridan kamroq bo'lsa ham har holda bir maromda kelib turgan edi. Orol stahi 1974 yilga kelib 3 m ga pasaydi. Shu yildan boshlab dengizga suv quyilishi turg'un kamayib borishi bilan uning sathi ham tez sur'atlarda sayyozlana boshladi.

Orol dengizi muammosining tabiiy va ekologik jarayonlarga ta'siri

Orol dengizining qurib qolgan tubi 3 mln hektardan ortiq bo'lib, tabiiy sharoiti o'ziga xos, eski qirg'oq (1961 yil)dan ichkari tomon 10-15 km (sharq tomonda bundan ham ko'proq) masofada sidirg'asiga qumli mintaqa mavjud, mazkur



qurigan qism asosan jo'yak do'ng barhanli relief shakllari bilan band. Qumli shakli tarkib topmoqda. Qumli mintaqada asosan siyrak (ba'zi joylarda umuman yo'q). Qora saksovul, ulg'un, bir yillik sho'ralar va boshqa o'simliklar mavjud. Mazkur mintaqadan so'ng taqirsimon sho'rxoklar (asosan bir yillik sho'ralar bilan majmuali holda sarsazan va ulg'un keng tarqalgan) katta maydonlarni egallagan, ba'zi qum uyumlari uchraydi. Grunt suvlari sathining 5-7 m dan pastga tushishi tufayli endilikda qoldiq sho'rxoklarga aylangan. Ushbu mintaqaning maydoni dengiz tomon yil sayin kengayib bormoqda, chunki grunt suvlari sathi ham Orol chekingan sari pasayib bormoqda.

Qurigan qism relefi yalang tekislikdan iborat bo'lganligi sababli grunt suvlarining yotiq (gorizontal) oqimi ham juda sekin, ba'zi joylarda amalda yo'q darajada. Ular asosiy qismining bug'lanishga sarf bo'lishi tufayli tuproqdagi tuz miqdori ham katta.

Qozog'istonlik mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra 1961-1970 yillar o'rtacha yillik tuz to'planishi 1,80 mln. t., 1971-1980 yillarda 2,95 mln. t., 1981-1985 yillarda 4,85 mln. t. ni tashkil qilgan. Binobarin uning qurigan qismi ulkan tuz manbaiga aylanib bormoqda. Hozirda Orolning qurigan qismida shamol ta'sirida qum, chang va tuz zarrachalari turli tomonlarga to'zimoqda. Janubiy Orolbo'yida ko'tarilgan tuz va sho'r changlarining tushishi SANIIRI ma'lumotlariga ko'ra har gektar maydonga o'rta hisobda 90-1000 kg dan to'g'ri keladi. Ammo dengizning eski qirg'og'idan janub tomon bu miqdor kamayib borishi aniqlangan, chunonchi Mo'ynoq atrofida har gektar maydonga 1242 kg dan tuz yig'lsa, Nukus atrofida bu miqdor 100-150 kg va undan kamroq.

Yana bir noxush holat shundan iboratki, Orol bo'yida tabiiy va ekologik sharoitning keskin o'zgarishi sababli mavjud yaylov va pichanzorlarning mahsuldorligi (o'sha vaqtlarda gektariga 10-50 s bo'lgan) 0,5-2 s gacha kamaydi. O'simliklar zichligining kamayib borishi, ularning siyrak golofitlar bilan almashishi oqibatida shamol eroziyasi kuchaymoqda, natijada tekislikning o'ydin chuqurligi ortib bormoqda. Qum relief shakllari tarkib topmoqda.

Davlat Hidrometeorologiya Bosh boshqarmasi ma'lumotlariga qaraganda, Orol dengizi turli tomonga yiliga 15-75 mln t chang va tuz tarqatuvchi asosiy manbaga aylanib bormoqda.

Orol tubidan ko'tarilgan tuz va qum zarrachalari Ustyurt yassi tog'lardan yengilgina uchib, janub va harbga tarqaladi. Kaspiyga borib yetadi. Kaspiyda suvning yuza bug'lanishi tik nayzasi bilan uchrashadi, natijada chang-tuz buluti hosil bo'ladi. Ular juda balandlikka ko'tarilib, eni 40 km, uzunligi 30 km bo'lgan hududlarga yetib boradi.

Orol dengizining qurishi mintaqaning iqlim vaziyatini o'zgartirib yubordi. Ilgari Orol bo'yida harorat va havo namligini o'ziga xos tartibga solib turuvchi to'siq bo'lib hisoblanardi.

Dengiz sathidan ko'tariluvchi bug' ustuni Amudaryo quyi oqimi hududida shimol shamollari kirib keladigan yoo'lda bamisoli qalqon bo'lib turgan dengizning mayinlashtiruvchi nafasi iqlim quruqligini kamaytirar, saraton issig'ini va qahraton sovug'ini mo'tadillashtirar edi. Endilikda Orol dengizining bu ahamiyati deyarli sezilmay qoldi. Natijada keyingi vaqtda iqlim sharoiti keskin o'zgardi. Yoz sib ketdi, qish esa sovuq bo'la boshladi, changli to'zonlar ko'payib, bahorgi va kuzgi sovuq urishlar tezlashdi, o'simliklarning




vegetatsiya davri 20-25 kunga qisqardi. Bu esa mazkur mintaqada issiqsevar o'simliklarni yetishtirish imkoniyatini kamaytirmoqda. Mintaqaning yuz minglab gektar yerlari jizg'anak bo'lib, sho'rlanib yotibdi. Paxta yetishtirishga ajratilgan yer maydonlarining anchagina yerlarning ko'pgina maydonlarida tuproq unumdorligi pasaymoqda. Asosan qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi keskin kamayib ketdi.

Kuchli shamollar hosilasi bo'lgan qum va chang bo'roni xavfli ob-havo hodisasi hisoblanib, Orolbo'yi hududlari Markaziy Osiyodagi chang bo'ronlari markazlaridan birida joylashgan. Yiliga chang bo'ronlari bo'lgan kunlarning

ko'pyillik o'rtacha davomiyligi 28 kun. Yillik qiymatda chang bo'ronlari bo'lgan kunlarning maksimal miqdori bahorda va yozning boshlarida, kuchli shamol harakatlari hamda tuproq yuzasi tez qurishi bilan sodir bo'ladi. Ko'p miqdordagi qum va chang bo'roni hodisalari, transport harakatining uzluksiz davomiyligiga, ayniqsa, aviatsiya transportida parvozlar xavfsizligi, meteorologik uzoqlik ko'rinuvchanligining yomonlashishiga olib keladi. Keyingi yillarda qum va changli bo'ron hodisalari davomiyligi ortishi jarayoni kuzatilmoqda.

Fikrimizning dalili sifatida quyida tahlil natijalarini grafik ko'rinishida keltiramiz (1 grafik).

1-grafik.



Qum va chang bo'roni kuzatilgan kunlar soni (1973-2020 yillar).


O'rganilayotgan yillarda qum va changli bo'ron hodisalarining eng yuqori ko'rsatgichi Nukusda 13 kun (1976), Chimboyda 19 kun (1979), Jasliqda esa 16 kun (1986) ni tashkil etgan. Ammo shuni takidlash o'rinliki, so'nggi 15 yillik (2005-2020) da barcha meteostansiyalarda qum va chang bo'roni qayd etilgan kunlar soni uzluksiz tarzda ortishi kuzatilmoqda.

Qum va chang bo'roni hodisalarining yuzaga kelishida asosiy omil kuchli shamol hisoblanib, keying o'rinda biz o'rganilayotgan yillarda meteostansiyalarda qaydetilgan shamolning o'rtacha ko'p yillik maksimal tezligi qiymatlarini tahlil qildik (2-grafik).





2-grafik.



**Shamolning ko'p yillik maksimal tezligi, m/s.**

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, shamolning maksimal tezligi Nukus meteorologik stansiyasida 30 m/s (01.10.1981), Chimboy meteorologik stansiyasida 28 m/s (27.12.2002), Jasliq meteorologik stansiyasida esa 30 m/s (26.09.1992) ni tashkil etgan. Jasliq meteorologik stansiyasida kuchli shamol

harakatlari tez-tez takrorlanib turish xususiyatiga ega, bunga sabab meteorologik stansiya joylashgan yer ochiq maydon hamda siklon - antisiklon harakatlarining barik maydonlarida keskin o'zgarishlar yuzaga keladigan hududda joylashganligidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. A. Q. Abdullayev, M. A. Jumanov, O. G. Sultashova ``Agrometeorologiya`` Darslik. -T.:2013
2. B. A. Ayzenshtata, V. N. Babichenko, G. N. Leuxinou, ``Климат Нукуса`` Monografiya. -L.: 1986
3. V. E. Chub `` Iqlim o'zgarishi va uning O'zbekiston Respublikasida Gidrometeorologik jarayonlarga, agro iqlim va suv resurslariga ta'siri`` Monografiya. -T.: 2007
4. Abdirov Ch.A., Konstantinova L.G., Kurbanbaev E.K., Курбанбаев E.K., Konstantino va G.G. Kachestvo poverxnostnix vod nizovev Amudaryo v usloviyax antropogenogo preobrazovaniya presnovodnogo stoka. Toshkent-Fan 1996-112.



## ALISHER NAVOIY MUAMMOLARIDA SHAKL VA MAZMUN MASALASI

**Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna**

O'zbekiston, Guliston, Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034277>



### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021  
Ma'qullandi: 15-yanvar 2022  
Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Alisher Navoiy, muammo janri, shakl va mazmun, badiiyat, she'r san'atlari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlar, muammonavis.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Alisher Navoiyning fors va turk tilida bitilgan muammolarida shakl va mazmun mutanosibligi masalasi tahlil qilindi. Navoiy muammolarining mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, muammo janrining shakli talablari haqida mulohazalar berildi.*

Alisher Navoiy qoldirgan ulkan adabiy-ilmiiy meros nafaqat o'zbek adabiyoti, balki, jahon adabiyoti va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotining katta bir asosini tashkil qiladi. Bir-biridan rang-barang g'azallar, pand-nasihatga yo'g'rilgan ruboiy va qit'alar, diniy-ma'rifiy mazmundagi risola va dostonlar hali hamon dunyo kitobxonlari tomonidan sevib o'qiladi. Ulug' shoirning fors-tojik va turkiy tilda yaratilgan muammolari tarixiy-ma'rifiy, ijtimoiy-tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega ekanligi bilan qimmatlidir. Biz bu kichik tadqiqotimizda Navoiy ijod bog'ining katta bir guldastasi – muammolarining shakl va mazmun jihatiga ahamiyat qaratdik. Alisher Navoiygacha o'zbek adabiyoti tarixida turk tilida yaratilgan muammolar bizga yetib kelgan emas. Buyuk shoir turk tilida yaratilgan dastlabki muammolarning muallifidir.

Abdurahmon Jomiydan mavlono Lutfiyga qadar muammonavislikda bir qancha tajriba to'plangan bo'lib, bu sohada

erishilgan yutuqlar Navoiy uchun muammo janri she'riyatini kamolot bosqichiga ko'tarishda asosiy zamin bo'ldi. Navoiy, ana shu an'analarga suyangan holda, muammo janri va uning taraqqiyoti uchun kurashdi va bu sohada fors-tojik adabiyotining buyuk namoyandalari bilan ijodiy musobaqalashdi. Navoiy o'ziga qadar fors-tojik tilida yaratilgan muammolardan farqli o'laroq o'z muammolarida shakl va mazmun mushtarakligiga erishdi. Muammonavis yaratgan muammolarida o'z davrining ijtimoiy masalalari bilan bir qatorda ishq-muhabbat va ma'naviy-maishiy mavzularga ham murojaat qildi.

Tuzilishi jihatdan ikki misra – bir baytdan tashkil topgan Navoiy muammolarining ilk namunalarida ishq-muhabbat motivi yetakchilik qilsa-da, shoirning har ikki tilda yaratilgan muammolarini kuzatib satirik, falsafiy, avtobiografik xarakterdagi muammolarga duch kelamiz. Navoiy kabi daholarning novatorligi hisobiga yaratilgan muammolar





har jihatdan rang-baranglik, mukammallik kasb etdi.

Professor A.Hayitmetovning “Navoiyning ijodiy metodi” asaridagi Alisher Navoiyning muammo merosini ilmiy o’rganish zarurligi haqidagi quyidagi fikrlari g’oyat muhimdir: “Shartlilik adabiyotning, hatto janr xususiyatlariga ham katta ta’sir ko’rsatgan. Bunga muammo yaqqol misol bo’la oladi. Bunda bir odamning nomi yashiringan bo’ladi. Lekin bu asarning asosiy ideyasi shu topishmoqlik xususiyatida, bir odamning nomini yashirib aytishda emas. Uning asosiy ideyasi odam nomida ham yashiringan bo’ladi. Navoiy kabi ulug’ san’atkorlar bu janrdan ham o’zlarining ilg’or g’oyalarni pardali ifodalash uchun foydalanganlar. Lekin Sharq xalqlari adabiyotining ba’zi tekshiruvchilari bu adabiyotlarning ko’zdan kechirilgan ushbu xususiyatlariga qarab, buning tarixiy sabablarini chuqur tekshirib ko’rmay uni kamsitadilar, unga yuzaki baho beradilar...”<sup>1</sup>

Professor Y.E.Bertel’s o’zining “Alisher Navoiy” monografiyasida davr adabiy hayoti haqida gapirganda, muammo va unga yaqin turgan janrlar haqida ham keng to’xtalib o’tadi. Y.E.Bertel’s bu davr adabiyotining xarakterli xususiyatlari sifatida adabiy asar formasini murakkablashtirish hisobiga mazmuni qurbon qilish avj olganligini formal qasidalar, muammo, tarix va hatto formal g’azallar misolida isbotlab beradi. Shakl hisobiga mazmuni qurbon qilish davr adabiyotining taraqqiyotiga salbiy ta’sir etganligini to’g’ri qayd etadi.<sup>2</sup> Y.E.Bertel’s XIV-XV asrlar adabiyotidagi

muammolarning shunchaki shaklbozlik san’atidan iborat ekanligi haqida fikr bildiradiki, saroy doiralarida faqatgina muammo emas, balki, g’azal kabi janrlar ham ramziy obrazlardan iborat bo’lganligi holda shaklbozlik, quruq ermak vositaga aylantirilgan edi. Adabiyotshunosligimizda keyinchalik Y.E.Bertel’s fikrlariga aniqlik kiritilib, muammo janrining o’z davridagi mavqeyi to’g’risida ahamiyatli fikrlar bildirildi. Jumladan, Sadridin Ayniy “Alisher Navoiy” monografiyasida Alisher Navoiy davri adabiyotida muammo janrining o’rni haqida so’z ochib unga bo’lgan turlicha munosabatlarni sharhlab beradi. S.Ayniyning ta’kidlashicha, XV asr o’zbek va fors-tojik adabiyotida bir qator shoirlar shaklbozlikka yo’l qo’yib bu janrga bir ermak sifatida qarab, vaqt o’tkazish uchun foydalanishga uringanlar. S.Ayniy bu yo’nalishdagi formalist shoirlarni tanqid qilish bilan birga, ilg’or shoirlar shu janrdan muhim g’oyalarni ifodalash uchun foydalanganliklarini ta’kidlab shunday deydi: “O’z fikr va maqsadini adabiyotda muammo yo’li bilan ifoda qilish o’z davrida muhim ahamiyatga ega edi. Feodallar mutlaq hokim bo’lib, hech qanday qonunni tan olmaydigan vaqtlarda nozik fikrli shoirlar ularga qarshi muammo orqali maydonga chiqar edilar”.<sup>3</sup> Anglashiladiki, davr adabiyotida muammo janri inqilobiy nuqtaga ham kelib qolgan. Bu janr o’zining teran g’oyaviy-badiiy xususiyatlaridan chekinib, shaklning qurboniga ham aylangan holatlar ham bo’lgan. Ana shunday og’ir bir vaziyatda Navoiy muammolarining adabiy jarayonga yoyilishi ulug’ shoirning ma’naviy jasorati va ijodiy mahoratini isbot etdi. Navoiy

<sup>1</sup> Abduqodir Hayitmetov. .Navoiy ijodiy metodi masalalari. -T.: Ma’naviyat. 1963. 152-153 betlar.

<sup>2</sup> Lutfullo Zohidov. Alisher Navoiy ijodida muammo janri. – T.: Fan. 1989. 39-bet.

<sup>3</sup> Sadridin Ayniy. Kulliyot. Dushanbe. 1963. 370-371 betlar





haroratli ishqiy muammolar bilan birga ijtimoiy-siyosiy mavzularda ham muammolar yozdi, shayx-zohidlarni tanqid qiluvchi hajviy muammolar yaratdi. Oshiq, mashuq va raqib obrazlari bilan chegaralanib qolmadi, obrazlar turkumiga shohlarni, shayx – zohid va voizlarni kiritdi. Haqiqatan, Navoiy muammo janrini baland cho‘qqiga olib chiqdi. Navoiyning badiiy mahorati, ayniqsa, har ikki tildagi muammolarini tahlil qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. Navoiy muammolari faqat son jihatdan emas, balki g‘oyaviy-badiiy salmog‘i jihatidan ham o‘rta asr muammochiligining yuksak namunalaridan bo‘lib qoldi. Navoiy muammolari qahramoni faqat es-hushidan ayrilgan oshiq sifatida emas, balki falsafiy, ijtimoiy, badiiy qiyofaga ega bo‘lgan obraz sifatida mukammallik kasb etdi. Bir muammoda ishq motivi yolg‘iz o‘zi kelmaydi. Aksincha, qorishiq holda falsafiy mushohadalar bilan, tasavvufiy ma‘no-mazmun kasb etadi.

Biz Navoiy muammolarining umumiy mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, muammolarini mavzu jihatdan ishqiy, tasavvufiy, satirik, falsafiy, vatanparvarlik va ijtimoiy kabi turlarga bo‘lishimiz mumkin.

Navoiy muammolaridagi lirik qahramonning kimligi ham mulohazalidir. Bu haqida fikr yuritar ekanmiz, M.Shayxzodaning “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni bo‘yicha qilgan tadqiqotlarida qayd etgan fikrlarini eslab o‘tish o‘rinlidir: “G‘aroyib us-sig‘ar”da ham lirik qahramon Navoiyning o‘zidir. Bu – murakkab bir zamonda yashagan, tushunuvchi, o‘ylovchi, hassos va olijanob bir shaxsning boy, serohang, rang-barang, sermazmun, sof ma‘naviy, botiniy dunyosini o‘zida gavdalantirgan bir qahramondir”.<sup>4</sup> Bu ta‘rif

garchi “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi barcha g‘azallar borasida aytilgan umumiy xulosa bo‘lsa-da, ishq mavzusidagi muammolar markazida turgan lirik qahramon qiyofasi uchun ham xos xususiyat hisoblanadi. Navoiy muammolaridagi oshiq axloqiy barkamol, ma‘naviyati yuksak, shaxs. Lirik qahramon – oshiq o‘z ma‘shuqasining faqat yuzi, ko‘zi, qoshi, sochi kabi suratini emas, balki uning go‘zal insoniy fazilatlarini, pok tuyg‘ulari-ichki olami, siyratini suyadi.

Navoiy muammolaridagi oshiq chinakam pok ishq sohibi. Ishqqa muhtalo bo‘lgan oshiq uchun ma‘shuqa hayot-mamot masalasi. Shu boisdan u bu ishq yo‘lida har qanday sinovlarni yengib o‘tishga, turli-tuman musibatlarni boshdan kechirishga tayyor. Sof muhabbat sohibi ayriliq azoblaridan cho‘chimaydi, firoqni o‘zi uchun muhabbat mevasi kabi shirin tuyadi. Shuncha dard-alamga giriftor qilgan ma‘shuqasini qattiq e‘zozlaydi, ishq ko‘yida jonini fido etmoqqa tayyor bo‘ladi.

Navoiy muammolari mohiyatida ishqning xarakterigina emas, balki uning muhim qonuniyatlari, ijtimoiy hayotda hamda shaxsning kamoloti jarayonida tutgan o‘rni masalalariga doir nazariy va falsafiy mulohazalar bayon etiladi. Har bir muammoni poetik tahlil qilish jarayonida yuqoridagi fikrlarimizga ishonch hosil qilamiz. Har bir misra sinchkovlik bilan tekshirilsa, badiiy tasvir vositalari va she‘riy san‘atlarning qo‘llanish sabablari tahlil qilinsa, baytning tagma‘nosidagi shoirning bosh muddaosini anglash mumkin bo‘ladi. Shuningdek, Navoiy muammolari orasida o‘z davrining podsholari va ijtimoiy-siyosiy masalalarga ham urg‘u berilgan. Borak ismidagi muammoda tashif qoidasi asosida manman shohlar tanqid qilinadi:

<sup>4</sup> Maqsud Shayxzoda. Navoiyning san‘atxonasi. – T.: Fan. 39-bet



### **Shohi zamon chu dar sar paydo kunad havoyash,**

#### **Durhoi toji torak rezad ba zeri poyash.<sup>5</sup>**

Mazmuni: (Zamon shohi agar boshida havo (manmanlik) paydo qilsa,

Uning toji ustidagi durlar oyog'i ostiga to'kiladi.)

Muammoda shoir o'z davri va bugungi kun podsholarini ham kamtar bo'lishga chorlaydi. Manman, qattiq kibrga berilgan kishiga nisbat, salbiy munosabat qo'pol so'zlar bilan ifodalanmagan. Kibrga berilgan shohning ahvolini har qancha yomon, salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar bilan tasvirlash mumkin aslida. Lekin shoir o'z fikrini odob doirasida ifodalashga odatlangan. Fikr beadab shaklda ifodalanganda u qanchalik to'g'ri bo'lmasin, kitobxonga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi. Lekin Navoiy kishi ruhiyatini shikastlovchi so'zlardan o'zini tiyadi.

O'zigacha shakllangan adabiy an'analarni o'zlashtirgan shoir o'ziga xos uslubda muammo bitarkan, hech bir detalni chetda qoldirmaydi. Lirik qahromonga xos ma'naviy-axloqiy yetuklik, ruhiy yuksaklik va qalb pokligini aks ettirish bilan kifoyalanmaydi.

Navoiy o'z muammolari haqida "Badoe' ul-bidoya" devoniga yozgan debochasida shunday deydi: "Barcha lutf va ravonliqda mufrad va nomi muammolar, barchasi ot yoshirurda sotir va kiromi lug'azlar bor".<sup>6</sup> Biz shoirning "Devoni Foni" dagi fors-tojik va "Navodir ush-shabob" dagi o'zbekcha muammolarini ko'zdan kechirsak, adib aytgan bu fikrining naqadar haqligiga ishonch hosil qilamiz.

Alisher Navoiy muammolarning tili ravon, sodda va tushunarli bo'lib, unda jonli so'zlashuv tilida qo'llaniladigan iboralar mahorat bilan misralarga singdirib yuborilgan. Masalan, ozor berish ma'nosida "bag'ri tosh", ozor bermaslik ma'nosida esa "pashsha ham qo'ndirmaslik", umidsizlanish ma'nosida "qo'lini yuvib qo'ltiqqa artish", da'vogar bo'lish ma'nosida "etagidan ushlar", xushkayfiyatni ifodalash maqsadida "boshi osmonga yetish", tez sodir bo'lish jarayoni "ko'z ochib yumguncha" kabi xalq iboralari orqali mahoratli ifodalangan, yoki go'zalning ariq bo'yiga chiqish manzarasi, etagini beliga qistirishi, sochlariga taqinchoq taqib chiqishi, mashuqaning dam o'zbekcha, dam tojikcha gapirishi tasviri ham muammolardagi lirik his-tuyg'ularni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Navoiy muammolari hayot va inson haqidagi teran mulohazalarning badiiy talqinidir. Shoir bu janrni mavzu va g'oyaviy maqsadning qo'yilishi jihatidagina emas, balki barcha obrazlar, lavhalar, badiiy tasvir vositalari va boshqalar bilan ham ijtimoiy hayotga, insonning qalbi va hissiyotiga yanada yaqinlashtiradi.

Navoiy doimo ma'noni birlamchi, suratni ikkilamchi hisoblagan va o'z muammolarida bunga hamisha rioya etgan. Navoiy uchun hech qachon she'riy san'atlar shunchaki bir san'atkorlikni namoyish qiluvchi vositalar bo'lgan emas. U haqiqiy novator ijodkor sifatida, o'zining san'atkorlik mahoratini, muhim ijtimoiy-siyosiy fikrlari, oliyanob g'oyalarini yuksak badiiy saviyada ifoda qilish uchun dadillik bilan ishga solgan. Mavjud san'atlarni yanada shakllantirib, mukammal bir shaklga keltirdi. Adabiyot tarixida muammo ko'p jihatdan boshqa badiiy san'at vositalari bilan bog'liq. Masalan,

<sup>5</sup> Alisher Navoiy. Mufradot. (Qo'lyozma). 11 a-varaq

<sup>6</sup> Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 5-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ijodiy-matbaa uyi. 2013. 701-bet



muammodagi talmeh, tarodif, kinoyat, tazhif, istiora, tashbeh, aks, qalb kabi qoidalar adabiyotshunoslikdagi turli badiiy san'at vositalari bo'lib, ular muammo amallarida foydalanib kelingan. Manbalarda muammo bir yoki ikki bayt she'rdan tuziladi, deyiladi. Lekin Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi shoirlarning muammo va muammo haqidagi risolalarini mutolaa qilar ekanmiz, muammoning fard, ruboiy, qit'a, tuyuq, g'azaldan ham iborat bo'lishini va u nasrda ham kelishi mumkinligini ko'ramiz.

Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylar badiiy asarning shakl va mazmun birligiga o'zlarining muammolarida ham e'tibor berganlar.

Mashhur olim Y.Is'hoqov Navoiyning badiiy mahorati borasida so'z yuritar ekan, uning badiiy san'atlarni qo'llash mahorati haqida shunday deydi: "O'zbek lirikasida bo'lmagan she'riy san'atlarni ham muvaffaqiyat bilan qo'lladi va ularni turkiy she'riyatning qonuniy usullariga aylantirdi". Navoiy ana shunday ijodiy jasorati tufayli bir qator san'atlarning yangi, mukammal shaklini yaratdi. Ta'kidlab o'tganimizdek, Navoiy muammoning mohiyatiga, obrazning holatiga qarab she'riy san'atni tanlaydi. Shularga mos so'z va ifodalarni topib, muammoning ruhini yaratadi. Masalan, Navoiyning "Navodir ush-shabob"ga kiritilgan 36-raqami bilan belgilangan Farrux ismiga bitilgan muammoda tashbehni shoir mahorat bilan qo'llaydi: **Gar yuzingdin husn eli yuzinda bir xol etsa fosh, Ul aroda besarupo zarradek kirgay quyosh.**<sup>7</sup>

<sup>7</sup> Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 2-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ijodiy-matbaa uyi. 2013. 703-bet

Tashbehning bir muammo doirasida qo'llanishi masalasida Navoiyning novatorligi yana ham diqqatli. U muammolarda tasvirni tashbeh asosiga qurish usullari talaygina. Ba'zi o'rinlarda bir baytning o'zida bir necha san'at qorishiq holda keladi. Bunda baytning badiiy kompozitsiyasi murakkablashadi. Bir san'atning vujudga kelishiga ikkinchi san'at asos bo'lib xizmat qiladi. Bir qator she'rlar uchun, xususan, muammo uchun bir nechta usulning qo'shilib ketgan holda – murakkab shaklda ishlatilishi xarakterlidir. Bunda baytning lirik jozibasi ortadi. Navbatdagi muammoda ham tashbehning bag'oyat go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin:

**Vasl say'idin emish ishq ahli ichra mojaro,**

**Zavqdin ko'rkim, yuzim oltundek o'lmish ishq aro.**<sup>8</sup>

Navoiy muammolarida "oy" tashbehi faqat yorning yuzini qiyoslash uchun ishlatilmaydi. "oy" tashbehi orqali oshiq ko'nglining siyrati – ahvol ruhiyati ochib berilgan shoh baytlar anchagina:

**Chu ul oyg'a qul o'ldi bu g'amkash, Qulidin yuz yoshurdi ul mahvash.**<sup>9</sup>

Baytning joziba siri nafaqat muqoyasaning hayotiyligida – oshiq dunyosiga xos g'aroyib hodisaning nozik she'riy did bilan misraga – so'zlar lavhasiga ko'chirilganida, ayni chog'da, an'anaviy fidoiylik – oshiq "ul oy" – ma'shuqa, yor ishqida g'amnok qul. Oshiq – quldan "mahvash"ning "yuz yoshurdi" syujeti ikki xil mazmun kasb etadi. Birinchisi, "mahvash" – ma'shuqa oshiqdan yuzini, chehrasi, jamolini

<sup>8</sup> Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 5-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ijodiy-matbaa uyi. 2013. 700-bet.

<sup>9</sup> Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 2-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ijodiy-matbaa uyi. 2013. 705-bet.





yashirdi, berkitdi. Ikkinchisi, ma'shuqa yuz marotaba yashirdi, ko'p bor berkitdi. Bir bayt muammoda shoir to'rtta badiiy san'atdan foydalangan. Navoiyning boshqa muammolarida ham xuddi shunday holatlarni uchratamiz. "yoshurdi" fe'lining ma'no qirralaridan tajnis hosil bo'lsa, "Oy", "qul", "g'amkash", "mahvash" so'zlari orqali istiora yaratilgan. Baytda shuningdek, 4-badiiy san'at – husni ta'lilni ham kuzatish mumkin.

**Ko'runsa ko'zga nogah-nogah ul oy,**

**Ko'zum hayron qolur yuziga, ey voy.**<sup>10</sup>

Yuqoridagi baytda "oy" so'zi istiora bo'lib, shoir bu so'z bilan yorni oyga mengzaydi, shu bois ma'shuqaga "oy" deb murojaat qiladi. Oyga tenglashtirilgan yor – ma'shuqaning goh-gohida ko'zga ko'rinishi husni ta'lilning betakror namunasi bo'lsa, misradagi "nogoh-nogoh" so'zi takrirni yuzaga keltiradi. Ikkinchi misradagi lirik qahramonning "ey voy"i iltifot san'atining go'zal namunasi. Bu baytning o'ziga xosligi yana shundaki, bayt sabab-oqibat munosabatiga qurilgan. Ikkinchi misradagi "ko'zum hayron qolur"ning sababi birinchi misra – "Ko'runsa ko'zga nogoh-nogoh ul oy"ning oqibati. Navoiy "oy" bilan mutanosib ravishda uning ma'nodoshi bo'lgan "moh"ni ham qo'llaydi:

**Girrihni turradin to ochti**

**mohim,**

**Parishon qildi filhol**

**oni ohim**<sup>11</sup>

Yoki

**Qaro edi ko'zum**

**hajringdin ey moh,**

**Yana ko'rdum yuzingni**

**shukrililloh.**<sup>12</sup>

<sup>10</sup> O'sha asar. 705- bet.

<sup>15</sup> O'sha asar. 702- bet.

<sup>12</sup> Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 5-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ijodiy-matbaa uyi. 2013. 701- bet.

Alisher Navoiy davr adabiyotida, xususan she'riyatda shakl va mazmun birligiga ham katta talablar qo'yganligi, bunga dastavval o'z ijodida qat'iy rioya etganligi va boshqa ijodkorlardan ham buni talab qilganligi ma'lum. Buyuk mutafakkir "Hayrat ul-abror"da bu haqda yozadi:

**Nazmda ham asl anga ma'ni durur,**

**Bo'lsa aning surati**

**har ne durur.**

**Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,**

**Ahli maoniy qoshida**

**xo'b emas.**

**Nazmki ham surat**

**erur xush anga,**

**Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga**<sup>13</sup>

Anglashiladiki, Navoiy har qanday she'rda mazmun va shakl mushtarak bo'lishini xohlagan. Mazmun va shaklning hamohangligi Navoiy muammolarida asosiy talab darajasida amalga oshirilgan. Daho ijodkorning har ikki tilda bitilgan muammolari suvrat va siyratning qorishqlik va mutanosiblik xarakterida ekanligi bilan ham badiiy qimmat kasb etadi.

<sup>13</sup> Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 6-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ijodiy-matbaa uyi. 2013.. 208- bet






**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami, 10 jildlik. Ikkinchi jild. "Devoni Foni". O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T:, – 2013.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami, 10 jildlik. Oltinchi jild. "Hayrat-ul abror" – T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
3. Navoiy A. G'aroyib us-sig'ar. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 3-tom. – T.: Fan, 1988.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
5. Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi – Toshkent: Fan, 2006.
6. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq NMAK, 1998.





## O'ZBEKISTON YOSHLARIDA INNOVATSION SALOHİYATINI OSHIRISH

Burxonov Bekzod

Samarqand iqtisodiyot va servis institute "Iqtisodiyot" fakulteti 3-bosqich

talabasi burxonovbekzod347@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034294>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*kamolotga erishish, maqsadli, strategik resurs, tizimli, harakatlar, tashqi va mintaqaviy siyosat, tashabbuslar, izchillik, tasavvurlar, mexanizm.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, ular ilgari suradigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish, jamiyatning ma'naviy-axloqiy jihatdan takomillashishi, tashqi va mintaqaviy siyosatning samarali tashkil etilishi istiqbollari, yoshlarning bilimlarini oshirish, ularning qobiliyati va iqtidoridan to'g'ri foydalana olish masalalari haqida so'z yuritiladi.*

Zamonaviy siyosiy, ilmiy yondashuvlarga ko'ra, yoshlar jamiyatning muhim strategik resursi hisoblanadi. Sababi mamlakat suvereniteti va uning barqaror rivojlanishi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy jihatdan takomillashishi, tashqi va mintaqaviy siyosatning samarali tashkil etilishi istiqbollari yoshlarning bilimlarini oshirish, ularning qobiliyati va iqtidoridan to'g'ri foydalana olish masalalari bilan bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan ham bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar siyosatiga<sup>1</sup> alohida urg'u berib kelinmoqda. Xususan, joriy yilda yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, ular ilgari suradigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning tegishli Qarori

qabul qilindi.<sup>2</sup> Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi. "Innovatsiya" so'zi bugun barchamizga tanish bo'lgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yangicha fikrlash, biror masalani echishda yangicha yondashuv, ishlab chiqarish sektorlarida texnologik o'zgarishlar kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Aynan innovatsiyani tatbiq etish esa innovatsion fikrlaydigan rahbar va liderlar tashabbusi orqali yuzaga keladi. **O'zbekiston - yoshlar mamlakati.** Shu bois, mamlakatimizda yoshlar siyosatiga davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda. Alohida faxr bilan aytamizki, keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning yoshlar bilan tez-tez

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 37-сон, 426-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2018 й., 03/18/486/1559-сон. URL: <http://www.lex.uz/docs/3026246>

<sup>2</sup> Ёшларни илм-фан соҳасига жалб этиш ва уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.08.2019 й., 07/19/4433/3673-сон. URL: <http://lex.uz/docs/4494504> 179



uchrashib, dildan suhbat qurishi yaxshi an'anaga aylandi.

Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali bayramda ham davlatimiz rahbarining yoshlar bilan bevosita uchrashib, juda muhim masalalarni gaplashib olgani, yigit-qizlar va ularning ota-onalari uchun manfaatli tashabbuslarni ilgari surgani barchamizning hayotimizda tarixiy voqea bo'ldi.

Prezidentimiz tantanali tadbirdagi ma'ruzasida xalq deputatlari kengashlari tavsiyasi asosida yosh, g'ayratli, fidoyi o'g'il-qizlarimiz bundan buyon Oliy Majlis deputati va senatorlariga biriktiriladi. Shu tariqa iqtidorli yoshlar orasidan yangi avlod zaxira kadrlari – "Kelajak liderlari"ni shakllantiramiz, dedi.

Ko'ryapsizmi, davlatimiz rahbari yoshlarga juda katta ishonch bildiryapti. Nafaqat ishonch bildiryapti, balki biz o'zimizni ko'rsatishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib beryapti. Shu bois, Prezidentimizning quyidagi gapini yana bir bor eslash o'rinli. Yurtboshimiz o'z ma'ruzasida shunday dedi: Bugungi kunda ko'pmillatli xalqimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun, O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratish yo'lida belini mahkam bog'lab, fidokorona mehnat qilmoqda. Bu yo'lda ulkan orzu-umidlar, katta rejalar bilan safimizga qo'shilayotgan yoshlarimiz – asosiy tayanchimiz va suyanchimizdir. Darhaqiqat, keyingi besh yildan buyon yangi O'zbekiston yoshlariga – bizga butun dunyo havas qilyapti. Bugun bizni hokim izlab keladi, muammolarimizni so'raydi, davlat qo'limizga pul beryapti, toki o'z yo'limizni topib olishimiz, hech kimdan kam bo'lmasligimiz uchun. Bunday muhitda ulg'aygan yoshlardan umid katta. Shu umid o'zining nishonalarini bera boshlaganiga ham bir-necha yil bo'ldi. Bugun O'zbekiston yoshlari xoh fan

olimpiadalarida, xoh AKT sohasida, qo'yingki, qaysi yo'nalishda bo'lmasin, dunyodagi tengdoshlaridan o'zib ketmoqda. Davlat va jamiyat boshqaruvida ham, biznesni taraqqiy ettirishda ham, umuman, barcha soha rivojida salohiyatli yoshlar muhim o'rin tutadi. Sababi ular jamiyat uchun "yangi qon" vazifasini o'taydi. Yangidan-yangi tashabbus-g'oyalarni ilgari surish, zamonaviy ish yuritish uslublarini joriy qilishda ana shu qatlamning nuqtai nazari va sa'y-harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois bugungi kunda yurtimizda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan, intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2018-yil 27-iyun sanasi yurtimiz yoshlari hayotida yangi sahifa ochilgan kun sifatida tarixga muhrlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur hujjatning muhimligi shundaki, u joylarda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarish, shuningdek, shu asosda yoshlar bandligini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizning kelajagi bo'lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi karantin kunlarida ham o'ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib



bormoqda. Zero, masofaviy ta'lim, onlayn rejimida uzluksiz tashkil etilgan holda yoshlarning bilim olish huquqini ta'limda ta'minlaganining o'zi O'zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta'lim-tarbiya va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, e'tiborning amaliy ifodasidir. Yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o'rnini beqiyos bo'lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo'naltirib va qo'llab-quvvatlab turishni talab etadi... Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo'lida erkin ijtimoiylashuvi va o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. Shu bois, mamlakatimizda eng katta e'tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bu vazifa O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son farmonlari, shuningdek, ko'plab qaror va yoshlarga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan. Ayniqsa, bu borada "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston

Respublikasi qonunining qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlarini yaratish sohasidagi yangilik bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumki, mazkur qonun 4 bob, 33 moddadan iborat bo'lib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish, ularning intellektual, ijodiy va boshqa salohiyatlarini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutgan. Unda belgilangan normalar yoshlar huquq va erkinliklarini ta'minlangan. Ayniqsa, uyushmagan yoshlar uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Bunda tuman va shaharlarda ushbu hududlar prokurorlari boshchiligida, tuman hokimining yoshlar siyosati bo'yicha o'rinbosari, ichki ishlar bo'limi boshliqlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqining tuman va shahar kengashlari raislari hamda tadbirkorlikka ko'maklashish markazlarining rahbarlari ishtirokida yosh tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiyalar tuzish belgilab qo'yilgandi. Besh tashabbusning har bir yo'nalishini tuman va shaharlarda tizimli amalga oshirish bo'yicha vazifalar belgilandi. Yoshlarimiz uchun, ayniqsa, qizlarimizning yana-da ilmiy bo'lishlari uchun, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga xotin-qizlarni o'qishga qabul qilish uchun 30 foiz maqsadli kvota ajratish masalasi ko'tarilgan bo'lsa, endilikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-fevraldagi qarorida Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlariga davlat oliy ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston



Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi va Davlat bojxona qo'mitasining oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozlar belgilangan edi. Jumladan, terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash chog'ida halok bo'lgan yoki olgan tan jarohati tufayli nogiron bo'lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlariga tavsiyanoma asosida: Oliy ta'lim muassasalariga kirishda tanlovsiz, belgilangan qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida o'qishga kirish imtiyozi berilgandi. Bu imtiyoz yoshlar uchun kutilmagan e'tibor: ularda vatanparvarlik va ota-onasiga nisbatan yana-da g'urur va iftixor baxsh etganining guvohimiz. Chunki, mazkur tavsiyanoma va taqdimnomalarning amal qilish muddati uch yil deb belgilab ham hikmatli qadamdir. Qadimda Aristotel litsey, Aflotun akademiya tashkil etib aholining bilim saviyasini oshirishga xizmat qilishgan bo'lsa, jadidlarimiz o'z mablag'i hisobidan maktab ochgan bo'lsa, hozirgi davrda yoshlar masalasi eng dolzarb mavzuligini bir daqiqa ham unutmasligimiz shart va zarur. Aynan ertangi kunimiz unib-o'sib kelayotgan yoshlarning idroki, dunyoqarashi, bilimi va hunariga bevosita bog'liq bo'ladi. Yoshlarning bilim olish istagini hamisha birinchi galdagi vazifa sifatida qaralishi muhimdir. 2020/2021 o'quv yili bakalavr darajasiga 145 mingdan ortiq, ya'ni o'quv yiliga nisbatan 15,6 foizga

ko'proq talaba qabul qilish ko'zlanmoqda, bu yilgi ya'ni 2020/2021 o'quv yili uchun OTMlarga qabulda 8694 ta imtiyozli grant kvotasi ajratilgani ham diqqatga sazovordir. Imtiyozli kvotalar 7 xil toifadagi abituriyentlarga berilmoqda. Yangi o'quv yilidan boshlab Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan beriladigan tavsiyanomaga ega bo'lgan qizlar uchun kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha tasdiqlangan davlat grantlariga nisbatan 4 foiz miqdorda alohida grant o'rinlari ajratiladi. Shuningdek, 2020/2021 o'quv yilida "Matematika" va "Tabiiy fanlar" ta'lim sohalari bo'yicha magistratura mutaxassislari uchun davlat buyurtmasi parametrlari to'liq davlat granti asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, So'x tumanida istiqomat qiluvchi umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga OTMlarga kirish uchun alohida 500 ta davlat granti kvotasi ajratilgani ham xushxabardir. Har tugul davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga o'qishga kirish, shuningdek, bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishni ko'chirish va qayta tiklash uchun hujjatlarni topshirish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali amalga oshirilishi ham yoshlar uchun yaratilgan eng maqbul imkoniyatdir. Bu O'zbekistonning kelajagi yoshlarimizning umid yulduzidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 37-son, 426-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son. URL: <http://www.lex.uz/docs/3026246>
2. YOshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti








Qarori. Qonun hujjatlari maълumotlari milliy bazasi, 31.08.2019 y., 07/19/4433/3673-son. URL: <http://lex.uz/docs/4494504179>

3. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va echimlar mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. – 296 b.
4. Zakon Respubliki Uzbekistan «O gosudarstvennoy molodejnoj politike».





## VIRTUAL BORLIQ(VB)NING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI VA UNING AHAMIYATI

Jakbaraliyeva Durdona Shavkatjon qizi

Namangan muhandislik qurilish instituti 3-bosqich talabasi

E-mail: z\_z\_kodirov@rambler.ru durdonajakbaraliyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034305>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

virtual borliq(VB), antik davr, vitarama, panorama, monumental, IMAX kinoteatr, stereoskopik, simulyatsiya, joystik, sun'iy intellekt, avatar.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada, yangi kirib kelayotgan texnologiya – VB ning ta'lim jarayonida qanday ahamiyatga ega ekanligi va asosi keng yoritilgan. VB insonning ijtimoiy hayotida va ta'lim jarayonida, yoki oddiy hayotidagi ahamiyati hozirda barcha uchun qiziq bo'lgan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Maqolada shuningdek VB ning yaratilish tarixi, yurtimizda rivojlanish jarayoni haqida ham yoritib o'tilgan.*

### Kirish.

VB ta'lim jarayoniga yaqindan beri



kirib kelayotgan bo'lsa, barcha foydalanuvchilarni o'ziga jalb eta oldi. Ta'limning har yo'nalishiga kirib bordi. Maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'lim tizimigacha tashrif buyurgan bu texnologiya, barcha o'rganuvchi yoshlar, talabalarni bilim saviyasini oshirishga va dunyo qarashini kengaytirishga yordam berdi. Fan o'rgatuvchisi bo'lmish ustozlarimiz yangi texnologiyalarga qiziqishlari qanchalik kuchli bo'lsa, uning fan dasturidagi ma'lumot ombori yanayam

mukammallashib boradi va uning qo'l ostidagi talabalari ham fan dasturini o'rganishga qunt qilishadi. Ana shu o'rganish "elektron o'rganish" ham deb ataladi. Ta'lim jarayonida virtual borliq yordamida bilimlarni elektron o'rganish jarayoni bizning yurtimizda hali keng yoyilmagan bo'lsada elektron o'qitish ayni rivojlanish davrida va yillar davomida virtual borliq texnologiyasi ham yetuk mutaxassislar bilan kirib keladi.

<https://www.sciencevr.com/>

(ScienceVR, Inc tomonidan ishtiyoq bilan yaratilgan. ©2021)- uning asoschilari bo'lmish Jackie-Lee va Yen Ling-Kuo larning aytishicha – " ScienceVR o'zining dastlabki kunlaridan VB studiyasidir. Biz inson bilimlari va mavhum g'oyalarni



immersiv va zavqli tajribaga aylantirib,




ularni vizualizatsiya qilishga ishtioqmandmiz. Biz XR prototiplari, o'qituvchilari va hikoyachilar jamoasimiz, inson bilimlarini yangi texnologiyasi qurilishida ishlaymiz." Hozirda mana shu ijtimoiy sahifada, fanlarga oid juda ko'p laboratoriyalar mavjud. Ulardan bir nechalarini sanab o'tamiz:


1. **Matematika**. Miloddan avvalgi 212. Arximedning Evrikasi. Arximed yordamida o'lchang va hisoblang. Sirakuzada quyosh nuri va trigonometriya bilan Rim kemalarini mag'lub qila olasizmi?
2. **Adabiyot**. Milodiy 1320 yil. Dante Alighieri bilan Infernoga sayohat qiling. "Umrimizning yarmida. Men o'zimni qorong'u o'rmonda ko'rdim, chunki to'g'ri yo'l adashgan edi."
3. **Adabiyot**. Milodiy 1589 yil. Shekspirning pyesalari. Uilyam Shekspirning mashhur pyesalariga qadam qo'ying. "Yoz tunidagi tush"dan boshlab. Siz devormisiz, shermisiz yoki oy nurimi?
4. **Fizika**. Milodiy 1590 yil. Galiley minorasi. Og'irroq to'p birinchi bo'lib erga tushadimi? Ob'ektlar qanday harakatlanishini o'rganish uchun bir qator tajribalar uchun Galileo Galileyga qo'shiling.
5. **Fizika**. Milodiy 1686 yil. Nyuton osmoni. Matematika tilidan foydalanib tabiatni qanday tasvirlaymiz? Tabiat qanday ishlashini bilish uchun Isaak Nyuton bilan ishleng.
6. **Biologiy**. Milodiy 1776 yil. Galvanining qurbaqalari. Luidji Galvani bilan hayvonlarning elektr energiyasini o'rganing. Qurbaqa oyog'ini nima harakatlantiradi? Hayvonlar elektr ishlab chiqarishi mumkinmi? Elektr nima?
7. **Musiq**a. Milodiy 1782 yil. Motsartning eslatmalari. Volfgang Amadeus Motsartning musiqiy notalarini o'rganing, chaling va yig'ing. Musiq har bir insonning hayotiga kirishiga imkon bering. Motsartdan qaysi musiqani yoqtirasiz?
8. **Kimyo**. 1800 yil. Volta batareyalar. Alessandro Volta bilan kimyoviy reaksiyalar asosida batareyalar yarating. Nima uchun har xil turdagi metallar elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun kimyoviy reaksiyalarga sabab bo'lishi mumkin? Elektrni qanday saqlashimiz mumkin?
9. **Ilmiy fantastika**. Milodiy 1816 yil. Shelli ijodi. Birinchi ilmiy fantastikaning kelib chiqishiga sayohat - Frankenshteyn; yoki, Zamonaviy Prometey. Meri Shelli, Persi Shelli va Lord Bayron bilan sharpa hikoyasini yarating. "Har birimiz arvoq hikoyasini yozamiz" - dedi lord Bayron. Nima yaratasiz?
10. **Informatika**. Ada dvigatellari. Viteslarni aylantirib, Ada Lovelace va Charlz Bebbij bilan Farq Dvigatellari qanday ishlashini o'rganish orqali dasturlashni boshlang.
11. **Biologiya**. Milodiy 2020 yil. Virus replikatsiyasi. Koronavirus nima? Koronavirus qanday takrorlanadi? Covid-19 ni qanday oldini olamiz? Ushbu VB tajribasi CDC ma'lumotlari asosida ta'lim maqsadlarida yaratilgan.
12. **Ekologiya**. Milodiy 2051 yil. Iqlim tizimi atmosfera, quruqlik yuzasi, qor va muzlar, okeanlar va boshqa suv havzalari, tirik mavjudotlardan iborat murakkab, interaktiv



tizimdir. VB texnologiyalaridan foydalanish ushbu mavhum fan tushunchalarini o'zaro ta'sir qilish va vizualizatsiya qilish imkonini beradi.



VB ayni sun'iy intellekt ya'ni sun'iy ong ko'nikmasi qatorida ekan, yana bir ma'lumotni berib o'tsak, ayni hozirgi davrda Birlashgan Arab Amirligida sun'iy ong rivojlanib kelmoqda



va ana shunday intellektlarni, xatto, vazirlik darajasiga ham olib chiqishdi. Sun'iy intellekt rivojlanar ekan VB ham keng quloch yozadi.

Ammo VB qurilmalari va uning ta'siri foydalanuvchiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, foydalanuvchida ana shu qurilmalarni ishlatish jarayonida bosh aylanishi, ko'ngil aynishi va qandaydur salomatlikdagi salbiy xolatlar kuzatiladi, sabab esa, bu kuchli texnologiya nafaqat inson ongiga balki, uning salomatligiga ham ta'sir qiladi.

oid olimlar, bu texnologiya har rivojlanish qadamini bosar ekan, ular yangi maqola yoki kitob yozishdan to'xtashayotgani yo'q. Ana shu maqola va kitoblarning aksarlarini keltirib o'tsak, foydali bilim ulashgan bo'lamiz.

1. "Ta'lim, san'at va muzeylarda VB." *Mualliflar:* Giuliana Guazzaroni va Anita S. Pillai (muharrirlar).

Bu yangi texnologiyalarning inson hayotining muhim jihatlariga ta'sirini ko'rsatadigan VB kitoblaridan biridir. Ta'lim, san'at va muzeylar odamlar uchun yuqori darajadagi ehtiyojlarning bir qismidir. Va bu maydonlar allaqachon VB tufayli katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Shunday qilib, ushbu kitob muharrirlari ta'lim, san'at va muzeyni foydalanuvchilar uchun yanada qulayroq va qiziqarliroq qilishda immersiv texnologiyalarning strategik roliga e'tibor qaratishga qaror qilishdi. Kitob VB texnologiyasini o'rganishga kirishning afzalliklari va odamlarning turli shakllardagi san'atdan zavqlanishiga imkon beradi. Bu rassomlar, o'qituvchilar, ishlab chiquvchilar, tadqiqotchilar, ta'lim koordinatorlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun o'quv qo'llanma.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

VB texnologiyalari ustida hozirda juda ko'p olimlar va yetuk texnolog-dasturchilar ilmiy ishlar olib borib, uning ko'lamini oshirishmoqda. VB haqida hozirda juda ko'p maqolalar yozib borishayotgan jurnalistlar va shu soxaga

2. "VB (MIT Press Essential Knowledge seriyasi). VB (MIT Press Essential Knowledge seriyasi)."







*Muallif:* Samuel Greengard.

Ushbu kitobda siz kengaytirilgan borliq, VB sohasidagi so'nggi ishlanmalarni kashf etasiz. Kitobda ushbu texnologiyalar, shuningdek, ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga, muallif ushbu texnologiyalarning turli sohalardagi, hozirgi va kelajakdagi rollarini va ularning odamlar hayotiga ta'sirini o'rganadi. Bu professional yoki immersiv texnologiyalar iste'molchisi sifatida XR holati bilan tanishishni istagan odamlar uchun eng yaxshi VB kitoblaridan biridir. Kengaytirilgan reallik, virtual reallik va aralash haqiqatdagi o'zgarishlar va ular hayotimizning har bir qismiga qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqida to'liq ma'lumot.

Ko'p yillik shov-shuvlardan so'ng, VB – asosiy mavzuga aylandi. Savdoda mavjud bo'lgan, nisbatan, arzon VB garnaturalari foydalanuvchilarni boshqa voqeliklarga - xayolot olamiga, uzoq mamlakatlarga, sport tadbirlariga - hatto eng yuqori aniqlikdagi, ekran ham qila olmaydigan tarzda olib boradi. VB ko'zoynaklari ma'lumotlarni vizual va eshitish shakllarida qabul qiladi, ular har qanday noutbuk yoki smartfon yetkazib beradigan multimedidan ko'ra sifatliroqdir. Immersiv VB muhirlari yangi voqelikni yaratish uchun jismoniy va VB aralashtirib yuboradi. MIT Press Essential Knowledge turkumidagi ushbu jildda texnologiya yozuvchisi Samuel Greengard kengaytirilgan voqelikdagi o'zgarishlarning

umumiy ko'rinishini taqdim etadi, texnologiyani tushuntiradi, ijtimoiy va psixologik holatlarni ko'rib chiqadi va kelajakdagi mumkin



bo'lgan sohalarni muhokama qiladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda, aynan mana shu texnologiya inson omili bilan keng qanot yozmoqda. Shu yashayotgan davrimizda VB rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. VB bilan juda katta yutuqlarga erishish mumkin. Masalan: ta'lim sohasida, tibbiyot sohasida, amaliyot jarayonlarida, imkonsiz voqeliklarni tasavvur qilish yoki ularni his qilish imkoniyatiga, hamda informatika sohasida juda katta yutuqlarga erishish mumkin. Yaqinda, Koreya davlatida mana shu VB yordamida juda yaxshi mutaxassislar Jang Ji-Sung ismli ayolning, bir necha yillar oldin vafot etgan Nayo'n ismli qizchasi uchun, katta dastur yaratdilar, dasturda Nayo'nning 3D virtual avatari yaratilgan bo'lib, ana shu dastur yordamida koreyalik ayol o'z qizini ko'rish, u bilan virtual muloqotda bo'lish, ayniqsa uni his qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ana shu dastur taqdim etilgan va amaliyot jarayonida zangori zal ichida ayolning bosh qismiga virtual shlemlil ko'zoynak va bir juft dasturlangan maxsus sensorli qo'lqop kiydirildi. Mana shu yaratilgan dastur -






“O’limni hayotga qaytarish” nomi bilan ham ataldi, ikkinchin nomi esa- “Men seni uchratdim” deya nomlangan dastur butun bir dunyo insonlarini hayratda qoldirdi va aksar insonlarni ko’z yoshiga ham sabab bo’ldi. Mening nazarimda bu dastur, koreyalik mushtipar ona uchun, hayotidagi

eng katta sovg’alardan biri deb o’ylayman. Insonlar omili yordamida yaratilayotgan bu texnologiyalarni yaxshi niyatlar uchun foydalanilyotgani bu texnologiyaning en katta yutug’i desam mutlaqo adashmagan bo’laman.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Virtual and Augmented Reality in Education, Art, and Museums *Authors: Giuliana Guazzaroni and Anitha S. Pillai (editors)*
2. Advances in Usability and User Experience *Authors: Tareq Ahram, Christianne Falcão (editors)*
3. Ready Player One *Author: Ernest Cline*
4. Virtual Reality (The MIT Press Essential Knowledge series) *Author: Samuel Greengard*
5. Research Handbook on the Law of Virtual and Augmented Reality *Authors: Woodrow Barfield and Marc J. Blitz*
6. Practical Augmented Reality: A Guide to the Technologies, Applications and Human Factors for AR and VR (Usability) *Authors: Steve Aukstakalnis*
7. Augmented Reality: A Practical Guide *Author: Stephen Cawood and Mark Fiala*
8. <https://www.googleadservices.com/pagead>
9. <https://vrscout.com/news/mother-reunites-with-deceased-child-vr/>
10. [https://slate.com/technology/2020/05/meeting-you-virtual-reality\\_documentary\\_mbc.html#:~:text=Jang%20may%20not%20have%20been,You%2C%20which%20aired%20in%20February.](https://slate.com/technology/2020/05/meeting-you-virtual-reality_documentary_mbc.html#:~:text=Jang%20may%20not%20have%20been,You%2C%20which%20aired%20in%20February.)
11. <https://www.youtube.com/watch?v=0p8HZVCZSkc>





## IMPROVING THE EFFICIENCY OF DENTAL IMPLANTATION OF THE UPPER JAW USING THE "ROOT MEMBRANE" METHOD

Usmanova(Isanova) Diyora Rovshanbek qizi

Second year master's student

of surgical dentistry and dental implantology, Diyora.isanova.97@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034318>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> December 2021

Accepted: 15<sup>th</sup> January 2022

Online: 05<sup>th</sup> February 2022

### KEY WORDS

*Phraseology, richness of speech, integrity of meaning, expression, stable connection, speech development*

### ABSTRACT

*The article discusses the role and importance of phraseology in the development and enrichment of speech in primary school students. The influence and special role of phraseology in increasing the clarity and effectiveness of speech was also analyzed because the speech of primary school students was narrow.*

One of the limiting factors for the widespread implantation is the insufficient volume of bone tissue for the installation of the implant.[1] The process of dental implantation into the frontal part of the upper jaw, which is atrophied at a high level or accompanied by a vertical fracture of the teeth, requires additional bone products and a long rehabilitation period, the reason for this is, that the vestibular plate of the frontal part of the upper jaw is thin and it is characterized by a fracture during tooth extraction.[2] Bone atrophy after tooth extraction is one of the most important issues of modern dentistry, since significant atrophy of the bone tissue of the jaws makes it impossible to perform intraosseous implantation, and also creates serious difficulties in the orthopedic treatment of patients.[3]

**The purpose of the study.** The study of dental implantation using the "root membrane" method in the upper jaw to

increase the efficiency of preservation of the dental-alveolar segment.

#### **Research objectives:**

1. The study of dental implantation by the "root membrane" method carried out due to complications of caries or fracture of teeth on the example of clinical, radiological and laboratory parameters.

2. Comparison of the results of the indicators of the traditional method and the "root membrane" method, to improve the efficiency of preserving the dental-alveolar segment.

**Materials and methods :** We treated 22 patients, aged 35 to 50 years, who came to us for dental implantation with partial dental adentia in the anterior part of the upper jaw, with chronic apical periodontitis and a tooth root fracture when it was impossible to restore these teeth with orthopedic structures.. There are 12 men and 10 women among them.



**Methods:** Clinical research methods, Radiation research methods (CBCT), Histological research methods.

Clinical example

The patient is 45 years old. Complaints: pain in 21 teeth; fracture in the crown of the tooth; the remainder of 1/3 of the crown of the tooth. Diagnosis: Chronic periodontitis of the 21st tooth.

Treatment plan: Traditional immediate implantation



Figure 1.

Figure 1. Fracture of the crown part of the 21st tooth, there are traces of filling material, it is clear that the tooth is not subject to endodontic treatment. After antiseptic treatment in the oral cavity, local infiltration anesthesia was performed.



Figure 2.

Figure 2. With the help of the ironer tool, the ligaments around the tooth were detached and with the help of the luxator, the tooth was loosened.




Figure 3.




Figure 4.

Figure 3. The tooth is removed. Curettage of the tooth well was performed. With the help of implantological instruments, the places for the implant was prepared.

Figure 4. Implant placement in the places.



Figure 5.

Figure 5. The upper part of the implant was closed with a plug. Figure 6. The space around the implant was filled with additional synthetic bone material and free connective tissue taken from the palate.



Figure 6.





Figure 7. Stitches are placed on the wound



Figure 8. Overview of the patient's oral cavity from different angles

### The "root membrane" method

This method is also known as partial extraction therapy, root membrane method, and partial root retention. It is aimed at preserving two-thirds of the buccal part of the root in the nest so that the periodontium, along with the bundle bone and the buccal bone, remains intact.[4] The buccal bone has a bilateral blood supply from the gum from above and the periodontal from below. After tooth extraction, the buccal bone is deprived of blood supply from the orbit, and this leads to the loss of part of the buccal bone. The root section preserves the periodontal attachment apparatus, which includes the periodontal ligament (PDL)[5], attachment fibers, vascularization, root cement, bundle bone and alveolar bone. The root fragment remains vital and intact and prevents the expected remodeling of the nest after extraction, as well as supports the cheek/ facial tissues.

### A clinical example using the root membrane method

The patient is aged 35 years. Complaints: pain in the 12th tooth; fracture in the crown of the tooth; aesthetic discomfort. Diagnosis: Chronic periodontitis of the 12th tooth (entodontic treatment is unprofitable).

Treatment plan: Implantation by Root membrane method.




Figure 9. Separation of the vestibular and oral fragment of the root of the 12th tooth.




Figure 10. Removed oral fragment of the 12th tooth.



Figure 11. Mechanical and drug treatment of the fragment vestibular root. The bed for the implant has been prepared. Figure 12.

An implant is installed in the prepared places.



Figure 13. A gum shaper is installed on the implant. Stitches are supplied. Figure 14. X-ray image after implant placement

**Research results:**

In the postoperative period, the patients underwent antibacterial therapy for 5-7 days, if possible taking into account the sensitivity of the seeded microflora. The patients complained only of a postoperative wound, moderate pain and swelling. Soreness in the area of the surgical wound stopped for 2-3 days. The skin and oral mucosa in the area of the surgical field are clean, not hyperemic. Moderate swelling of soft tissues was observed in the wound area for 2-3 days. The patients were given daily irrigation of wounds. The stitches were removed on day 7-8.

When checking patients who were treated by the traditional method, it was determined that  $2.6 \pm 1.5$  months were spent for osseointegration. the methods are

set. In addition, osteoresorption was observed in the vestibular plate, that is, changes from  $11.14 \pm 1.2$ mm were observed before surgery and up to  $6.8 \pm 1.5$ mm after surgery. At the same time, changes in the interdental papillae and the zenith of the gingival contour, changes in the biotype of soft tissues, fixation of the vestibular bone wall contributed to a decrease in aesthetic results. At the same time, when carrying out the established methods of checking patients treated with the root membrane method, it was revealed that it took  $1.8 \pm 0.7$  months for osseointegration. In addition, noticeable changes were detected during osteoresobtion of the vestibular plate, i.e. before surgery  $9.14 \pm 0.8$ mm and after surgery  $8.6 \pm 0.2$ mm.

Thus, it can be said that the operation leads to continuous and predictable osseointegration by minimizing the loss of cheek bones caused by the remodeling of the socket, which occurs after extraction.

**Conclusion:**

As the study shows, the reason is that when a fragment of the buccal root is intentionally left, the blood supply will be maintained uninterrupted, and, consequently, the dimensions of the alveolar process can be preserved. Based on these data, we can conclude that the root membrane method is a safe treatment method that ensures a high percentage of implantation success. In addition, this unique technique can ensure the stability of the size of facial and soft tissues around the implantation site without the use of additional biomaterials, such as bone grafts. The dental fibers preserved in the root fragment enhances the aesthetics of soft tissues when they are in the process of aesthetic immediate implant placement.








**List Of Used Literature:**

- 1.** О.А. Мукимов, Д.Р. Исанова // Сравнительная характеристика метода корневой мембраны и традиционного (одномоментного) метода установки имплантата/ Молодой ученый. – 2019. – № 13 (251). – С. 8 -89. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
- 2.** Усманова Д.Р., Мукимов О.А., Диего Лопс, Мукимова Х.О., Тургунов М.А., // Изучение дентальной имплантации с помощью метода “root membrane” в верхней челюсти для повышения эффективности сохранения зубо-альвеолярного сегмента./ «СТОМАТОЛОГИЯ».-2021.- №1.- С.-73-76. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
- 3.** Muqimov OA1, Usmanova DR2, Features Of Periodontal Care For Patients Living In Rural Areas. Page 1 European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 07, Issue 03, 2020 [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
- 4.** Hürzeler MB, Zuhr O, Schupbach P, Rebele SF, Emmanouilidis N, Fickl S, et al. The socket-shield technique: A proof-of-principle report. J Clin Periodontol. 2010;37:855-62. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
- 5.** Bäumer D, Zuhr O, Rebele S, Schneider D, Schupbach P, Hürzeler M, et al. The socket-shield technique: First histological, clinical, and volumetrical observations after separation of the buccal tooth segment – A pilot study. Clin Implant Dent Relat Res. 2015;17:71-82. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]





## PAXTA XOMASHYOSINI QURITISH JIHOZINING YANGI KONSTRUKSIYASI ORQALI SAMARADORLIGNI OSHIRISH

Rayimjonov Mirzavali Botirali o'g'li

Magistrant, Namangan Muhandislik-Texnologiya Instituti

[mirzavali1996@gmail.com](mailto:mirzavali1996@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034334>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*paxta xomashyosi, quritish barabani, ishchi kamera, issiq havo shnek-qoziqli baraban, magnitli baraban, kolosnikli panjara, minora, quritish jihozi, pnevmotransport, issiq bug', datchiklar, kamera.*

### ANNOTATSIYA

*Paxta xomashyosini quritish maqsadida yangi turdagi quritish jihozining tuzilishi hamda paxta xomashyosining namligiga qarab ikki yoki uch tomondan issiq havo jo'natish, har hil datchiklar, shnek qoziqli baraban, metallni tutib qolish barabani va tozalash sxemasi o'rnatilgan. Bu ko'rsatgichlar paxta xomashyosining quritish-tozalash, hamda uning iflosliklaridan tozalanadi.*

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27-avgustdagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №545-sonli qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2021 yil 1 apreldagi PF-6198-son Farmoni hamda "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 1 apreldagi PQ-5047-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilindi. Qishloq xo'jaligi sohasida qayta ishlash samaradorligini oshirishga qaratilgan qishloq xo'jaligi texnikasi konstruksiyalarining sanoat namunalari yaratiladi. Hamda paxta sanoati uchun ham

innovatsion jihozlar yaratish ta'kidlab o'tilgan.

Jahonda ko'pgina paxta tozalash korxonalari mavjuddir. Paxta xomashyosini qayta ishlash uni quritish dan boshlanadi. Chunki paxta xomashyosidan olinadigan mahsulotlar sifati va uni qayta ishlovchi texnologik jihozlarning ishlash samaradorligi paxta xomashyosining namligi gacha bog'liq bo'ladi. Quritish namlik va issiqlik almashinuvining murakkab jarayoni bo'lib, paxta xomashyosini qayta ishlashda eng muhim omil hisoblanadi. U quritish materialining issiqlik-fizik xossalari namlik bilan bog'lanish shakllari asosida belgilanadi. Butun dunyoda milliondan ortiq mahsulotlar quritiladi ularning xususiyatlari paxta xomashyosidan tubdan farq qiladi. Paxta xomashyosi ular ichidagi eng murakkab quritish ob'ekti hisoblanadi. Chunki undan turli teplofizik xossalarga ega bo'lgan ko'p komponentli mahsulotdir.



Shuning uchun paxta xomashyosini sifatli saqlagan holatda quritish, quritish uskunalari ishlar rejimini tanlash asosiy o'rin egallaydi. Paxta xomashyosi namligi uning texnologik va tovar qiymatiga ta'sir qiluvchi muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Paxtani qayta ishlash jarayoni uchun asosan 8-9 % namlikka ishlab chiqarishga jo'natish kerak. Chunki paxta xomashyosining namligi 9 % dan yuqori bo'lsa tozalash jinlash jarayoniga o'z zararini olib keladi. Bu ko'pgina mablag'larini sarf bo'lishiga sabab bo'ladi. 1954-yildan boshlab paxta xomashyosini quritish jihozlarida boshlangan bo'lib, ular aerofantani, tasmali va boshqa ko'rinishdagi quritish jihozlarida quritilgan. Hozirgi kunga kelib paxta tozalash korxonalarida SBO va 2SB-10 quritish barabanlaridan foydalaniladi. Ularning aksariyat qismi SSSR paytida ishlab chiqarilgan bo'lib hali hamon o'zgartirilmaydi. Kamchilik tarafidagi paxta xomashyosining quritishda boshidan oxiriga qadar harorati kamayib boradi hamda paxta xomashyosini quritish samaradorligini pasaytirib yuboradi. Issiqlik barabanning oxirida pasayib qoladi. Paxta xomashyosini quritish reklamaning buziladi. Paxtaning to'p bo'lib qolgan qismi yaxshi ajralmay namlik har xil s tilda bo'lgan holda keyingi jarayonlariga o'tib ketadi. Bu esa paxta tozalash korxonalariga iqtisodiy ham texnologik jihatdan zarar bo'lib kelmoqda. Namlik tozalash jarayonidagi jihozlarning qoziqli baraban qoziqlariga jinlash jarayoning arralari gacha ta'sir ko'rsatadi. Bu jihozlarning hozirga kunga qadar ishlab kelayotgani hali hamon o'zgartirilmayotgani texnologik jarayonlarni ish unumdorligi kamaytirib kelmoqda. O'zbekiston paxta tozalash korxonalarida asosan SBO va 2SB-10 quritish barabanlaridan foydalaniladi. SBO

quritkichi paxta xomashyosini quritadi ham tozalash agregatiga ega uning korinishi (1-rasm).

2SB-10 quritish barabani tuzilishi: 2CB-10 rusumli barabanli quritgich diametri 3200 mm va uzunligi 10000 mm bo'lgan metall listdan yasalgan quritish barabanidir (33-rasm). Uning asosi 2 mm li po'lat listdan tayyorlangan bo'lib, maxsus karkasga mahkamlanadi. Baraban ichida uning uzunligi bo'yicha 12 ta kurakcha joylashtirilgan bo'lib, ular paxta xomashyosini ko'tarish va baraban hajmi bo'yicha taqsimlash uchun xizmat qiladi.

Konvektiv issiqlik almashinuvining eng yaxshi gidrodinamik sharoitini yaratish hamda konstruksiyaga qattqlik berish maqsadida har bir metriga 250 mm balandlikdagi ko'ndalang kurakchalar o'rnatilgan. Barabanda 3 qator trubasimon sterjendan yasalgan va quritish kamerasi bo'ylab 6000 mm uzunlikdagi paxta xomashyosini to'xtatib qoluvchi panjaralar mavjud. Uning vazifasi - quritish agentini materialiga aktiv ta'sir qiladigan tushish zonasida paxta xomashyosining bo'lish vaqtini ko'paytirishdir. Paxta xomashyosi barabanga 300 mm diametrli va gorizontga nisbatan 30° qiyalikda joylashtirilgan vintli konveyer yordamida uzatiladi.

Buta'minlash moslasibara banga diametri 1190 mm bo'lgan vabarabanning oldingi qismiga qotirilgan sapfa orqali uzatiladi. Barabanning aylanish chastotasi 10 min<sup>-1</sup> bo'lib, paxta xomashyosi bilan to'ldirilishi - baraban hajmining




30%, ya'ni 1200 -1500 kg paxta xomashyosi bilan ta'minlanadi.

Ta'minlovchi shnek 2 orqali nam paxta xomashyosi barabanga uzatiladigan joyning o'zidan quritish agenti ham barabanga uzatiladi. Paxta xomashyosi kurakchalar yordamida, yuqoriga ko'tariladi va yuqoridan pastga tushish vaqtida ular orasidan quritish agenti o'tadi. Bunda quritish agenti issiqlikni nam materialga berib, namlikni oladi va atmosferaga chiqarish mo'risi orqali chiqarib yuboriladi. Paxta xomashyosi esa bir necha marta ko'tarilish-tushishdan so'ng, ma'lum darajada quritilgach, barabandan chiqib ketadi. Bunda paxta xomashyosi barabanning oxirgi

qismida o'rnatilgan kuraklar yordamida chiqarib yuboriladi.

Quritish agenti sapfa 3 orqali o'tayotganda qisman atrofidagi havoni tortib ketganligi uchun baraban ichiga shnek 2 bilan kiritilayotgan paxtaning to'kilishiga yo'lqo'ymaydivapaxtahavooqimida o'ldingasuriladi. Baraban vali elektrodvigatel 10 va reduktor 9 bilan harakatga keltiriladi. Quritgichga quritish agentining xarorati 280°S gacha ko'tarish mumkin.



1-rasm.2SB-10 rusumli barabanli quritgich sxemasi.

1-quritish agenti quvuri; 2-shnekli ta'minlagich; 3-oldingi

sapfa; 4-kurakchalar; 5-baraban; 6-mo'ri; 7- spisalar; 8-podshipnik; 9-reduktor; 10-







barabanni harakatlantiruvchi elektr dvigatel; 11 va 14 -orqa va oldingi tayanchlar; 12-tushurish kurakchasi;13-tushurish tarnovi.

Quritgichdanampaxtaquritilgan andabarabanningdastlabki to'rt metr masofasidaquritishagentining xarorati280<sup>o</sup>Sdan125<sup>o</sup>gachapasayadi vashuqismda asosan paxta xomashyosi qiziydi va qizish sirti katta bo'lib (250 m<sup>2</sup>/kg) toladagi namni bug'latib bo'ladi. Barabanning keyingi qismida quritish agentining xarorati 70...80<sup>o</sup>Sgacha pasayadi va chigitning bug'lanish sirti ancha kam (1,0 m<sup>2</sup>/kg) bo'lib, paxta xomashyosidagi namlikni ajratish sekinlashadi.

2CB-10 rusumli quritgichning nam paxta bo'yicha ish unumi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$G = \frac{600(100 - W_1)}{W_1 - W_2}$$

Barabanining quritilgan paxta bo'yicha ish unumi esa quyidagi formula bilananiqlanadi:

$$G = \frac{600(100 - W_2)}{W_1 - W_2}$$

bunda:600– barabanning namlik bo'yichaish unumi,kg/soat; W<sub>1</sub>,W<sub>2</sub>-Chigitlipaxtaning boshlang'ich quritilgandan keyingi namligi, %

2CB-10 quritish barabani konstruksiyasining oddiyliigi, ekspluatasiyaqilishning soddaligi va paxta xomashyosining to'planib

to'xtab qolishsiz ishlashi bilan ajralib turadi.

Bir qator olimlar tamonidan paxta xomashyosidan namlikni ajratib olish bilan birga qatorda undan iflos aralashmalarni ajratib olish masalasi ham ko'rilgan. Natijada bir qator izlanish va tadqiqotlarning olib borilishi natijasida 2CB-10 quritish barabani asosida CBO quritish barabani yaratildi (34-rasm).

CBO quritish barabaning boshlang'ich 6,0 m uchastkasi xuddi 2CB-10 quritish barabaniningkonstruksiyasibilanbir xilbo'lib, keyingi3metruzunlikdagiuchastka po'lat setkali yuzadan iborat bo'lib, uning atrofi qoplama bilan o'ralgan va pastki qismida ifloslikni olib ketuvchi vintli konveyer joylashtirilgan. Metall qoplamaning yuqori qismida issiq havo purkovchi soplo o'rnatilgan bo'lib u orqali uzatilgan havo setkali yuzani tozalash vazifasini bajaradi.

Setkali yuzaga tiqilib qolgan iflosliklarni tozalash maqsadida qoplamaning ichki tomonidan setkali yuza bilan o'zaro ta'sirda bo'ladigan metall cho'tka joylashtirilgan.


2CB-10 va CBO barabanli quritgich afzalliklari bilan bir qator kamchiliklarga ham ega. L 1 Quritish barabanlarida tolalarning eshilib qolish darajasi yuqori bo'lib, bu o'z navbatida tolaning sifat ko'rsatkichlarini pasaytiradi. Tadqiqotlar va tajribalar shuni ko'rsatdiki, shnekli ta'minlagich va paxta xomashyosini to'xtatib qoluvchi panjaralar tolalarning







eshilib, tugilib qolishini 20% gacha oshiradi.



2-rasm. SBO rusumli barabanli quritgich sxemasi

1-shaxta;2-  
shnekta'minlagich  
;3-sapfa;4-  
baraban;5-rolik;6-  
kurakchalar; 7-  
setka; 8-kojux; 9-  
quvur; 10-soplo;  
11-metall cho'tka;  
12- bunker;

13-shnek;14-  
mo'ri;15-  
reduktor





**2CB10vaCBOrusumlibarabana  
nliquritgichlarningtexnikva  
texnologik ko'rsatkichlari**

namlikni har xil miqdorda saqlash qobiliyatiga ega. Bunday xususiyatlar quritish uskunasi ish unumdorligini pasayishiga, chigit va tolaning tabiiy

No	Ko'rsatkichlari	2CB-10	CBO
1.	Nam paxtaxomashyosi bo'yicha ish unumi, kg/soat	10000	10000
2.	Quritish agenti harorati, °S	90-280	250
3.	Tozalash seksiyasiga berilgan quritish agenti xarorati °S	-	60-80
4.	Parlangan namlikbo'yicha ishunumi, kg/soat	700	700
5.	Tozalash effekti (mayda ifloslik bo'yicha)%	-	40 gacha
6.	1kg parlangan namlik bo'yicha issiqlik sarfi, kJ/kg	8820	8500
7.	Quritish agenti sarfi, m <sup>3</sup> /soat	18000-20000	18000-20000
8.	Barabanning aylanishlar soni ayl/min.	10	11±1
9.	Ta'minlagich vintli konveyerning aylanishlar soni ayl/min.	405	155±5
10	Ventilyator VVD	-	1600
11.	O'rnatilgan quvvat:kVt		
	-barabanu chun	13	13
	-vintli konveyer uchun	4	1.5
	-ventilyator uchun	-	11
12.	Quritish barabaning o'lchamlari mm.		
	Baraban uzunligi	10000	10000
	Baraban diametri,mm.	3200	3200
	Eni, mm	4745	3870
	Quritgich umumiy uzunligi, mm.	15400	14900
	Balandligi, mm.	7140	7970
13	Vazni, kg	10307	11550

Paxta xomashyosi tarkibidagi ortiqcha namlikni chiqarish masalasini paxta xomashyosi komponentlari tarkibi va xususiyatlari murakkablashtiradi. Tola va chigit qobig'i tuzilishi turlicha bo'lganligi sababli, ular

xususiyatlari buzilishiga olib keladi. Bundan tashqari quritish jarayonida haroratni to'g'ri tanlab olmaslik, paxtaxomashyosini quritishda yuqori haroratli quritish agent yuborilishi hisobiga quritish jarayoni jadal bo'lishiko'rsatilgan. Shu bilan birga paxta xomashyosini





konvektivusulda quritishda chigit qobig'i va yadrosidan namlikni sekin chiqarishiga olib keladi. Quritish davom ettirilsa tolaning namligi O'zDst 604 davlat standartida ko'rsatilgan 5,5% me'yordan kamayib ketadi.

Me'yordan ortiq quritilgan tolaning tabiiy xususiyatlari buzilib, tolaning yigiruvchanligi kamayadi va tolaning tarkibidagi iflos va kalta tolalar miqdori ortadi.

Paxta xomashyosi qayta ishlash muvofiqlashtirilgan texnologik jarayonida paxta xomashyosi namligini 8-9 % gacha kamaytirish talab qilinadi. Paxta xomashyosi tarkibidagi namlikning belgilangan me'yoridan yuqori bo'lishi uni tozalash jarayonini qiyinlashtiradi.

#### **ASOSIY QISM**

Malumki paxta tozalash korxonalarida kamchiliklari yetarli bo'lsada bu quritish jarayoni eng katta kamchiliklardan biridir. Quritish barabanlari paxta xomashyosini quritishda yong'inga ham olib kelishi mumkin bu korxonaning eng katta zarari dan biri hisoblanadi. Taklif qilmoqchi bo'lgan quritish jihozining tuzilishi huddi minora shaklida bo'lib uning ichki qismida qiya shaklda joylashtirilgan shnekli barabanlar joylashtirilgan bo'ladi. Shnek-qoziqli barabanlar yoki lentali barabanlaridan foydalanish ham mumkin. Shnek-qoziqli barabanlardan quritish jihozining tepa tarafidan paxta xomashyosi tushadi va uning tepadagi yon tarafidan issiq havo yuboriladi, issiq havo pnevmotransportda haydaladi uchun 2 ta Shnek-qoziqli baraban pastidan haydalgan day ham pastki tarafiga ham tepadagi axtarish xomashyosini quritadi. So'ngra yana 4ta shnek-qoziqli baraban pastidan issiq havo haydaladi. Bu jarayonda paxta xom ashyosini ham tutiladi ham tozalanadi

ham quritiladi. Quritish jihozining oxirgi Shnek-qoziqli baraban tagiga kolosnikli panjara joylashtiriladi hamda paxtaxomashyosi qoziqlari titib beradi va tozalanib o'tadi. Quritish jarayoni esa quritish jihozining tepasi hamda pastki qismlaridan issiq havo yuborilishi natijasida paxta xomashyosini quritadi. Bu jarayonda paxta tozalash korxonalaridagi paxta xomashyosini tozalash jinlash jarayoniga katta foyda keltiradi. Quritish jihozining shnek-qoziqli barabani qiya joylashganligi sababi bir jarayondan ikkinchi jarayonga paxta xomashyosining uzluksiz tushishini ta'minlashdan iborat. Quritish jihoziga nisbatan shnek-qoziqli baraban 10° qiya joylashgan bo'ladi. Bu tartibda o'rnatishimizdan maqsad uzluksiz paxta xomashyosini titib quritish tozalash jarayonini jadallashtirishdan iboratdir. Quritish jihozining ichki tarafiga yong'in havfini kamaytirish maqsadida datchiklar o'rnatilgan bo'ladi. Ushbu datchi orqali paxta xomashyosi bormagan ortiq qizishi yuzaga kelishi bilan nam bug' pnevmotransportda yuboriladi. Uning ichki haroratini aniqlash datchiklari qo'yiladi va tashqi tomondan paxta xomashyosini ko'rib turish uchun qo'shimcha kamera o'rnatiladi. Issiq havoning quritishdan keyingi jarayonidagi havo tepa qismidagi mo'ridan chiqib ketadi. Quritish jihozining eng oxirida paxta xomashyosi chiqib ketadigan joyida tozalash agregati o'rnatilgan bo'lib, unda birmuncha tozalashga yordam beradi. Undan chiqqan iflosliklarni chiqaruvchi joyi bo'ladi, avtomatik lentali baraban orqali siklonga yuboriladi. Paxta xomashyosi digital metal parchalarni ushlab qolish maqsadida pnevmotransportda tushadigan joyiga magnitli baraban o'rnatiladi, u qoziqli bo'lib, metallni tutib qolish vazifasini bajarishi uchun qo'llaniladi. Magnitli



baraban axtarish xomashyosining kirish va chiqish joylariga o'rnatiladi. Bu uskuna orqali biz paxta xomashyosini quritish tozalash hamda metall zarrachalarigacha tutib qolish, quritish jarayonini amalga oshirishdir. Samarali paxta quritish va tolaning ishlab chiqarish uchun shunday quritish jihozini yasash va paxta tozalash korxonalariga o'rnatish kerak.

#### **XULOSA**

Paxta tozalash korxonalarida paxtani xomashyosini quritish samaradorligini oshirish maqsadida yangi tipdagi konstruksiyani taklif qildik, ushbu qurilma quritish barabanidan katta farq qiladi. Hamda uning tuzilishi quritish barabanining mo'risiga o'xshash bo'lib, ammo silindri silindrik ko'rinishida bo'ladi. Paxta xomashyosini quritish uchun


qo'shimcha jihozlardan foydalaniladi. Bunda paxta xomashyosini quritish va titish hamda uni keyingi jarayonlariga o'tkazish maqsadida shnek qoziqli baraban, quritishni jadallashtirish uchun ikki yoki uch joyidan paxta xomashyosini namligiga qarab issiq havo yuborilish, yirik iflosliklardan tozalash jarayoni, metallni parchalarni tutib qolish barabani, har xil turdagi datchi hamda elektron boshqarish qurilmasi o'rnatilgan bo'ladi. Xulosa qilib aytganda paxta xomashyosini quritish eng katta muammolarni bartaraf etish uchun yechim bo'lib, bu yechimlari mana shunday quritish jihozi orqali amalga oshiriladi. Paxta tozalash korxonalarida sifatli tola hamda momiq olish eng katta rejalar dan biri hisoblanadi. Bu rejani bajarish uning namligiga ham bog'liqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2021 yil 1 apreldagi PF-6198-son farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi 545-sonli qarori 2021-yil 27-avgust
3. A.Salimov. "Paxtaga dastlabki ishlov berish". T.: "Bilim"-2005.
4. E.Zikriyev. "Paxtani dastlabki qayta ishlash". T.: "Mehnat"-2002.
5. A.Parpiyev. "Paxta xomashyosini quritish". T.: "CHO'lpon"-2009.
6. M.A.Gapparova , M.M.Ochilov, E.X.Berdanov "Sanoat sohalari texnologiyasi" o'quv qo'llanma.T.:2020







## MIJOZLARGA BANK XIZMATINI KO'RSATISHNING TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Gadoyev Nodirjon Odiljon o'g'li

Qarshi muhandislik va iqtisodiyot instituti Iqtisod fakulteti 4-kurs talabasi,  
gadoyevnodir805@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034348>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

bank xizmatlari, bank tizimi, mijozlar tarjimai, mijozlar bazasi, raqamli strategiya, xizmat ko'rsatish turlari, moliyaviy xizmatlar, kichik biznes.

### ANNOTATSIYA

*Bank xizmatlari bozori zamonaviy bozor iqtisodiyotining eng muhim va ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir. Shuning uchun bugungi kunda bank tizimlarining turli jihatlari va ularni boshqarish usullariga qiziqish ortib bormoqda. Bank mahsulotlari – bu bank daromadlarini oshirish va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xususiy va korporativ mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bank tadbirkorligining an'anaviy yo'nalishi. Ushbu maqolada ham bank xizmatlarini bozor iqtisodiyotiga moslashtirish hamda mijozga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash haqida nazariy qarashlar muhokama etilgan.*

Iste'molchi uchun raqobat doirasida va foyda olish maqsadida banklar keng ko'lamli xizmatlarni (turli shartlarda bank mahsulotlari) faol ravishda taklif qilmoqdalar. Bu iste'molchilarga o'z ehtiyojlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularga kirish imkonini beradi. Ko'pgina O'zbekiston fuqarolari kredit bilan yashaydilar va bank bundan foydalanishga harakat qilmoqda.

Bank xizmatlaridan foydalangan holda hech bo'lmaganda bir oz daromad olish va aldanmaslik uchun xizmatlar, ular qanday ishlashi va aholi uchun ahamiyati haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bu ushbu tadqiqotning tanlangan yo'nalishining dolzarbligini ta'kidlaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda bank tizimida turli islohotlar olib borilmoqda – amaliy hamda qonun jihatdan: “Bank

xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” [3], “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son qarori [1], “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270 – son qarori [2].

Mijozlarga xizmat ko'rsatish nafaqat moliyaviy xizmatlar sohasi uchun, balki barcha sohalarda raqobatbardosh farqlovchi asos hisoblanadi. Buni raqamlar ham tasdiqlaydi:



Mijozlarga xizmatni yaxshilashga e'tibor qaratadigan korxonalarining 84% daromadlari oshgani haqida xabar beradi; shuningdek, ushbu korxonlarda 92% mijozlarning san jihatdan oshishi ham kuzatilgan;


Forresterning CX Index reytingidagi 1 ballga yaxshilanishi o'rtacha ko'p kanalli brokerlik uchun boshqariladigan 19 milliard dollar ko'proq aktivlarni berishi mumkin.

Mijozlarga xizmat ko'rsatishni birinchi o'ringa qo'yadigan korxonalar xodimlarni jalb qilishda o'rtacha 20% o'sishga erishadilar.


Zamonaviy texnologiyalar asosidagi dunyoda banklar va kredit uyushmalari mijozlarga xizmat ko'rsatishdan boshlab, mijozlar tajribasini yangilash va yaxshilash imkoniyatlari kam emas. Bu shuni anglatadigan, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatli mijozlar tajribasining muhim tarkibiy qismidir, chunki u sizning mijozlaringiz tashkilotingiz bilan qanday munosabatda bo'lishiga bevosita ta'sir qiladi. Mijozlarga xizmat ko'rsatishdagi

nosozliklar, masalan, jonli xizmat ko'rsatish vakili bilan noxush munosabatda bo'lish yoki mijozning dolzarb ehtiyojini hal eta olmaslik, mijozning bank haqidagi taassurotiga osongina qora belgi bo'lib qolishi va butun mijozlar tajribasini buzishi mumkin. Shu maqsadda nafaqat banklarda mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'llarini izlash, balki mijozlarga xizmat ko'rsatish kutilganidan to'liq oshib ketishi shart.

**1-rasm. Mijoz uchun kurash va unga ta'sir etuvchi omillar [10]**



2-rasm. Bank xizmatlarini ishlab chiqish tamoyillari [11]



Bu borada mashhur rieltor Ron Gagnon [13] "Banklarda mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashning 8 ta asosiy yo'li"ni ishlab chiqqan. Quyida shuning tahlili berilgan:

1. Mijozlarni o'qitish orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish

Raddon tadqiqot instituti tomonidan o'tkazilgan so'nggi tadqiqotga ko'ra, moliyaviy savodli mijozlar ko'proq foyda



keltiradi, chunki "ular kreditga asoslangan va depozitariy mahsulotlardan ko'proq foydalanadilar". Ya'ni, ko'pchilik amerikaliklar o'zlarining moliyaviy savodxonligini yuqori baholaydilar va hayratlanarli darajada kam sonli moliyaviy adabiy resurslardan xabardor, ya'ni banklar mijozlarni moliyaviy savodxonlikka o'rgatish va bu jarayonda homiylikni oshirishdan foyda olish uchun mukammal tarzda joylashtirilgan.

Moliyaviy savodxonlik dasturni tuzishning bir qancha usullari mavjud, jumladan, mobil banking ilova orqali taqdim etiladigan onlayn ta'lim materiallaridan (keyinchalik mobil bank ilovalari haqida batafsilroq ma'lumot beriladi) mijozlarni turli ssenariylar orqali o'tkazishi mumkin bo'lgan ichki moliyaviy maslahatchilargacha. Jamiyat banklari va kredit uyushmalari o'quv seminarlari va yarmarkalarini o'tkazish, jamoatchilik bilan muloqot qilishda ishtirok etish va sinflar uchun moliyaviy savodxonlik bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqishda mahalliy maktab va kollejlardan hamkorlik qilishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ushbu oxirgi element nafaqat yosh avlodga oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi, balki banklarga bo'lajak mijozlar bilan muloqot qilish imkonini beradigan qo'shimcha afzalliklarga ega. Bizning texnologiyaga asoslangan jamiyatimizda ham mijozlar yuzma-yuz muloqotni qadrlashadi, shuning uchun mijozlar bilan insoniy yo'llar orqali muloqot qilish uchun har qanday imkoniyatdan foydalanish zarur.

### *2. Kichik biznes mijozlari uchun ishonchli maslahatchiga aylanish*

2008 yilgi iqtisodiy tanazzul, ehtimol, ba'zi kichik biznes mijozlarini banklarga nisbatan ehtiyotkor bo'lishga majbur qildi - axir, kichik biznes retsessiya ta'sirini yirik

firmalarga qaraganda qattiqroq his qildi, faqat 2008 va 2010 yillar orasida 170 000 ga yaqin kichik biznes yopildi.

Kichik biznes egasi kredit izlab o'z mahalliy bankiga ishonch bilan kiradigan kunlar o'tib ketdi; Bugungi kunda kichik biznes egasi tejamkor, ular aqlli bo'lishi kerakligini biladi va aksincha emas, balki banklar tomonidan xushmuomala bo'lishini kutadi.

Kichik biznes egalarining ishonchi va sodiqligini qozonish uchun bank kichik biznesni rivojlantirishga yordam beradigan kompleks xizmatlarni taklif qilish orqali kreditordan moliyaviy maslahatchiga o'tishi kerak.

### *3. Kontekstli ma'lumotlarni mijozlarga xizmat ko'rsatish strategiyani asosiy komponentiga aylantirish*


Stripe, SoFi va Avant kabi fintech firmalari bozordagi ulushini oshirib borishi bilan, eski moliyaviy institutlar rivojlanishi yoki o'lishi kerak - bu birinchi navbatda ushbu startaplarni muvaffaqiyatli qilgan strategiyalarni qabul qilishni anglatadi. Kontekstli ma'lumotlar shaxs yoki hodisa uchun qimmatli kontekstni ta'minlaydigan har qanday ma'lumotni anglatadi.

Kontekstli ma'lumotlar xulq-atvor xususiyatlari va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin, banklar keyinchalik mijozlar tajribasini xabardor qilish va boyitish uchun foydalanishi mumkin. Aslida, kontekstli ma'lumotlardan moliyaviy institutlarga har bir mijozning ehtiyojlariga moslashtirilgan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish imkonini berish orqali bank sohasida mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash uchun foydalanish mumkin. Misol uchun, mijozlardan pul yig'ish muammosiga duch kelganda, Finlyandiyada joylashgan kichik biznes raqamli banking startapi Xolvi mijozlarga



"to'lov ma'lumotlarini avtomatik ravishda to'ldiradigan va ogohlantirishlar yuboradigan professional ko'rinishdagi raqamli hisob-fakturalarni yaratish" imkonini beruvchi elektron hisob-faktura tizimini ishlab chiqish orqali javob berdi.

Kontekstli ma'lumotlarning eng qimmatli manbasi bu mijozlar bazasidir. Siz mijozlar bilan aloqalarni boshqarish (CRM) texnologiyasidan deyarli hamma narsa va mijozlar bilan bog'liq barcha narsalar haqida ma'lumot to'plash uchun foydalanishingiz mumkin, jumladan:



To'plagan har bir ma'lumot mijozning 360 graduslik ko'rinishini ta'minlaydigan batafsil profil yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu profillar bankning CRM-ning markaziy omborida saqlanishi mumkin, shuning uchun xodimlar mijozlarga xizmat ko'rsatish so'rovlarini yuborishda, maqsadli marketing

kampaniyalarini ishlab chiqishda, mahsulotlarni sotish va o'zaro sotishda va hokazolarda ko'proq ma'lumotli qarorlar qabul qilish uchun ularga osongina kirishlari mumkin.





#### 4. *Haqiqiy Omnichannel<sup>1</sup> mijozlar tajribasini ishlab chiqish [12]*

Odamlar o'zlarining mobil qurilmalariga qanchalik bog'langanligini hisobga olsak, bank ishi butunlay raqamli bo'lish yo'lida, deb taxmin qilish oson bo'lsa-da, ammo raqamlar buning aksini aytadi. Reuters ma'lumotlariga ko'ra, amerikaliklarning 60% hali ham raqamli kanallar orqali emas, balki bank filialida yangi hisob raqamini ochishni afzal ko'radi; Accenture kompaniyasining xabar berishicha, iste'molchilarning 86 foizi kelajakda jismoniy filiallarga tashrif buyurishni va odamlar bilan yuzma-yuz muloqot qilishni xohlashlarini bildirishi mumkin.

Bu, albatta, banklar raqamli strategiyani ishlab chiqishdan ko'ra, filiallar joylashuvini yaxshilashni birinchi o'ringa qo'yishi kerak, degani emas, balki omnichannel mijozlar tajribasini yaratish uchun an'anaviy va raqamli komponentlarni aralashtirish juda muhim.

#### 5. *Mijozlarga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini taqdim etish*

Iste'molchilarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish barcha sohalarida jadal rivojlanayotgan tendentsiyaga aylandi, mijozlarning 74% o'tmishda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni qo'llab-quvvatlash portalidan foydalanuvchiliklari haqida xabar berishdi; yana 81% jonli xizmat vakiliga murojaat qilishdan oldin muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga harakat qilganliklarini bildirishdi.

Raqobatning aniq farqlovchisi bo'lishiga qaramay, moliyaviy xizmatlar sanoati o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari va ilg'or tajribalarni amalga

oshirishda boshqalarga qaraganda sekinroq bo'ldi. Natijada, ko'plab muassasalar call-markazlar hajmini kamaytirish, 24/7 yordam ko'rsatish va bank sohasida umumiy mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash uchun qimmatli imkoniyatlardan mahrum bo'lmoqda. Xo'sh, tashkilot yoki bank ushbu o'sib borayotgan tendentsiyadan qanday foydalana oladi?

Bu savolga javob mobil bank ilovasida. Har bir inson o'z smartfoniga yopishib qolgandek tuyuladigan dunyoda mobil bankning afzalliklari banklar va kredit uyushmalarida yo'qolmaydi. Haqiqatan ham, o'z brendli mobil funksiyasini ishlab chiqmagan muassasani topish qiyin bo'ladi. Ammo mobil bank hamma joyda keng tarqalganligi barcha banklar o'z ilovalaridan iloji boricha samarali foydalanayotganini anglatmaydi.

#### 6. *Xodimlarni muvaffaqiyatga tayyorlash*

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qanchalik keng tarqalgan bo'lsa, har doim jonli xizmat vakillari uchun joy bo'ladi va odamlarning o'zaro ta'siri qadrlanadi. Shuning uchun, har bir o'zaro ta'sir imkon qadar ijobiy bo'lishini ta'minlash va oldingi safdagi xodimlarni muvaffaqiyatga erishish uchun zarur vositalar bilan jihozlash orqali ajoyib mijozlar tajribasiga hissa qo'shish bankning manfaati uchundir.

Avvalo, bank keng qamrovli treningga sarmoya kiritishingiz shart. Shuni eslatib o'tish kerak, bank sanoatini o'qitish texnikasi jadal rivojlanmoqda. Virtual simulyatsiyadan tortib texnologiyaga qadar xodimlarni o'qitish va doimiy ta'lim olish birinchi o'rinda turadi.

Keyingi qadam – xodimlar javobini bilmagan savollarga duch kelganda murojaat qilishlari mumkin bo'lgan ichki bilimlar bazasini yaratishdir. Ushbu

<sup>1</sup> Omnichannel marketing - bu doimiy brend tajribasini yaratish maqsadida iste'molchilar bilan o'zaro aloqa qilish uchun tashkilotlar foydalanadigan turli kanallarning integratsiyasi va hamkorligi.





ma'lumotlar bazasi siyosat va tartiblardan tortib tegishli sanoat qoidalarigacha bo'lgan barcha narsalar uchun markazlashtirilgan ombor bo'lib xizmat qilishi va mijozlarning javoblarni zarur bo'lgandan ko'proq kutishiga yo'l qo'ymaslik uchun yaxshi tashkil etilgan va harakatlanish oson bo'lishi kerak. Bilim bazani muntazam yangilab turish lozim, shunda u faqat eng aniq va tegishli materiallarni o'z ichiga oladi.

Xodimlarni kuchaytirishning yakuniy kaliti (va banklarda mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashning eng qimmatli usullaridan biri) eng so'nggi front-end va back-ofis bank texnologiyasiga sarmoya kiritishdir. Eng muhimi, ushbu tizimlarni bir xil ma'lumotlarga kirish imkoniga ega bo'lishi uchun integratsiyalashganligiga ishonch hosil qilishdir, shuningdek, xizmat vakillari mijozlar so'rovlarini yuborganda bir tizimdan ikkinchisiga o'tishlari shart emas.

#### *7. Mumkin bo'lgan hollarda mijozlarning fikr-mulohazalarini so'rash*

Mijozlarning fikr-mulohazalarini so'rashning bir qancha usullari mavjud, ammo eng amaliy yondashuv barcha aloqa nuqtalarida ro'yxatdan o'tishni o'rnatishdir. Misol uchun, agar mijoz xizmat so'rovi bilan bankning call-markaziga murojaat qilsa, ushbu so'rovni ko'rib chiqish uchun mas'ul vakil mijozning qo'shimcha savollari bor-yo'qligi va ular olgan xizmatdan qoniqqanligini so'rash orqali qo'ng'iroqni yopishi mumkin. Yoki mijoz tranzaktsiyani tugatgandan so'ng veb-saytda paydo bo'ladigan qisqacha

(ikki-uch savolni o'ylab ko'rsa bo'ladi) mijozlarga xizmat ko'rsatish so'rovi bo'lgan chiquvchi oynani dasturlash mumkin.

#### *8. Moslashuvchan va o'zgarishlarga ochiq bo'lish*

Moliyaviy xizmatlar landshafti doimiy ravishda o'zgaruvchan holatda bo'lib, har kuni yangi tendentsiyalar paydo bo'ladi. Tashkilot mijozlarning eng yaxshi tajribasini taqdim etishini ta'minlash uchun boshliq sanoatni yurak urish tezligida ushlab turishi zarur va o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishi kerak – bu doimiy ravishda yaxshilash yo'llarini izlash, yechim ekotizimini integratsiyalashgan va dolzarb bo'lishini anglatadi va raqamli transformatsiyani qamrab oladi. Mijozlarni tinglash, ochiq fikrda bo'lish va aqlli investitsiyalarni amalga oshirish orqali bankda mijozlarga ajoyib xizmat ko'rsatishni kafolatlash mumkin.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mijozlarning tajribasi biznesning yangi so'zidir. Har bir sektor endi mukammal mijozlar tajribasini taqdim etishga qaratilgan va moliya sektori bundan farq qilmaydi. Mijozlarning tajribasi bank ishida ayniqsa muhimdir, chunki mijozlar tanlash uchun juda ko'p imkoniyatlarga ega va ular o'z tanlovlariga juda ehtiyot bo'lishadi. Aynan mana shu ehtiyotkorlik bank ishni boshqa tarmoqlardan ajratib turadi. Mijoz yangi brendli naushniklarni sinab ko'rish imkoniyatidan foydalanishi mumkin, ammo ular yangi bankni sinab ko'rishlari uchun ishonch hosil qilishlari kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son qarori.





2. “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora – tadbirlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270 – son qaror.
3. “Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi markaziy banki boshqaruvining qarori. 02.07.2018. 3030 – son qarori.
4. Karimov I.A. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish – taraqqiyot garovi. Prezident Islom Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2001 yil birinchi yarim yil yakunlariga bag‘ishlangan nutqi. «Xalq so‘zi» gazetasi. 2001 yil 18 iyul.
5. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlash-tirish, ma‘naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. - T.: O‘zbekiston, 2007. – 320 b.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T: «O‘zbekiston», 2009. – 56 b.
7. Abdullaeva SH.Z. va boshq. Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. O‘quv qo‘llanma.- T.: IQTISOD-MOLIYA. 2007.-182 b.
8. Vahobov A., O.Ortiqov. Bank xizmatlari majmuining sifat ko‘rsatkichi // Bozor, pul va kredit. – T.: 2006. - №12.
9. Веснин В.Р. Управление персоналом. Теория и практика. Учебник. – М.: «Проспект», 2010 г. 35 с.
10. Краливецкая Л.Н. Банковское дело: кредитная деятельность коммерческих банков: учеб. пос. – М.: КНОРУС, 2008. – 280 с.
11. Лукина А.В.Маркетинг товаров и услуг: учеб.пос. - М.: ФОРУМ,2008. – 240 с.
12. <https://www.marketingevolution.com/knowledge-center/topic/marketing-essentials/omnichannel#:~:text=Omnichannel%20marketing%20is%20the%20integration,creating%20a%20consistent%20brand%20experience.&text=Omnichannel%20marketing%20enables%20them%20to,a%20better%20customer%20experience%20overall>
13. <https://www.zillow.com/profile/Ron%20Gagnon%20RE>




## РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ҲАЁТИМИЗДАГИ ЎРНИ

Дадабоев Дилшод Абдужалил ўғли

Наманган Муҳандислик Қурилиш институти 3-босқич талабаси,

dadaboyevdilshod@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034362>



Рақамли иқтисодиёт – бу иқтисодий, ижтимоий ва маданий алоқаларни рақамли технологияларни қўллаш асосида амалга ошириш тизимидир. Баъзида у интернет иқтисодиёти, янги иқтисодиёт ёки веб-иқтисодиёт деган терминлар билан ҳам ифодаланиши мумкин.

Рақамли иқтисодиётнинг оддий иқтисодиётдан фарқи нимада? Масалан, харидорга кийим керак. Уни бозорга тушиб ўзи бевосита танласа ва нақд пулга сотиб олса, бу анъанавий иқтисод. Телеграмдаги бирон савдо боти ёки канал орқали ўзига маъқул товарни танлаб, товар эгасига пулни электрон тўлов тизими орқали тўлаш (payme,click, paynet, qiwi, webmoney, visacard...) ва товарни етказиб бериш хизмати орқали олиш – рақамли иқтисодиёт дейилади. Бу масалани энг содда мисол орқали тушунтиришдир. Аслида, ҳаммамиз аллақачон рақамли иқтисодиёт ичидамиз, унинг қулайликларидан фойдаланамиз. Масалан, ойликларимиз пластик карталарга тушади, электрон тўлов орқали коммунал хизматлар, телефон, интернет ва бошқа маҳсулот ва хизматларга тўлов қиламиз, электрон тарзда солиқ декларацияси топширамиз, картадан картага пул узатамиз, уйга таом буюртма қиламиз ва ҳоказо.

Рақамли иқтисодиёт – бу нолдан бошлаб яратилиши лозим бўлган қандайдир бошқача иқтисодиёт эмас. Бу янги технологиялар, платформалар ва бизнес моделлари яратиш ва уларни кундалик ҳаётга жорий этиш орқали мавжуд иқтисодиётни янгича тизимга кўчириш деганидир.

Белгилари:

- юқори даражада автоматлаштирилганлик;
- электрон ҳужжат алмашинуви;
- бухгалтерлик ва бошқарув тизимларининг электрон интеграциялашуви;
- маълумотлар электрон базалари;

CRM (мижозлар билан ўзаро муносабат тизими) мавжудлиги;

1. Тўловлар учун харажатлар камаяди (масалан, банкка бориш учун йўлқира ва бошқа ресурслар тежалади).
2. Товарлар ва хизматлар ҳақида кўпроқ ва тезроқ маълумот олинади.
3. Рақамли дунёдаги товар ва хизматларнинг жаҳон бозорига чиқиш имкониятлари катта.
4. Фидбек (истеъмолчи фикри) ни тез олиш ҳисобига товар ва хизматлар жадал такомиллаштирилади.
5. Тезроқ, сифатлироқ, қулайроқ.

Яққол мисол.

Рақамли платформаларнинг ривожланиш соҳасидаги ёрқин мисоллардан бири сифатида “Алибаба” электрон савдо тизимига эга бўлган



Хитой компаниясини келтириб ўтиш мумкин. Ундан фойдаланиш тажрибаси шуни кўрсатадики, маълумотлар тўплаш жараёнида иқтисодиётнинг турли секторларига экспансия учун ўта рақобатли устунликлар яратилади. “Алибаба” бу – оддийгина рақамли платформа эмас, балки платформалар экотизимидир.

Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш бизга нима беради?

Рақамли иқтисодиёт коррупция ва “қора иқтисодиёт”нинг асосий кушандасидир. Чунки, рақамлар ҳамма нарсани муҳрлайди, хотирада сақлайди, керак пайтда маълумотларни тез тақдим этади. Бундай шароитда бирон маълумотни яшириш, яширин битимлар тузиш, у ёки бу фаолият ҳақида тўлиқ ахборот бермасликнинг иложи йўқ, компьютер ҳаммасини намоён қилиб қўяди. Маълумотлар кўплиги ва тизимлилиги ёлғон ва қинғир ишларга йўл бермайди, чунки тизимни алдаш имконсиз. Натижада “ифлос пулларни” ювиш, маблағларни ўғирлаш, самарасиз ва мақсадсиз сарфлаш, ошириб ё яшириб кўрсатиш имкони қолмайди. Бу эса иқтисодиётга легал маблағлар оқимини оширади, солиқлар ўз вақтида ва тўғри тўланади,

бюджет тақсимоли очик бўлади, ижтимоий соҳага йўналтирилган маблағлар ўғирланмайди, мактаблар, касалхоналар, йўлларга ажратилган пуллар тўлиқ етиб боради ва ҳоказо.

Рақамли иқтисодиётнинг ўз валютаси (криптовалюта, биткоин), пул сақлайдиган кармони (блокчейн), ҳисоблаш усуллари (майнинг) каби терминлари мавжуд. Улар ҳақида янада батафсил маълумот олиш тавсия қилинади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Лойиҳа бошқаруви миллий агентлиги рақамли иқтисодиётни жорий этиш ва ривожлантириш соҳасида ваколатли орган ҳисобланади. Бундан ташқари Иқтисодиёт, Молия, Ахборот технологиялари, Адлия вазирликлари ва бошқа қатор давлат тузилмалари рақамли иқтисодиётни ривожлантириш учун ўзига хос масъулият ва вазифаларга эга.

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирги вақтда Рақамли иқтисодиёт ҳаётимизнинг энг муҳим бўлагига айланиб бўлган. Биз рақамли иқтисодиётни ривожлантириш учун биринчи навбатда дастурий таъминотларни кўпайтиришимиз ва интернет сифатини оширишимиз керак.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарорлари, фармонлари ва фармойишлари.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари.
4. Ишлаб чиқиладиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар.




**ЯНГИ КОРОНАВИРУС ИНФЕКЦИЯСИ БИЛАН БОҒЛИҚ  
РУҲИЙ БУЗИЛИШЛАР ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Баҳриддинова Мафтуна Қахрамоновна**

Тошкент Педиатрия Тиббиёт Инститuti, 2 курс магистри,

e-mail: akbar\_bahriddinov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034371>



**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

коронавирус, Covid-19,  
руҳий саломатлик.

**ANNOTATSIYA**

*Коронавирус инфекцияси пандемиясининг шиддатли тарқалиш фонида дунё мамлакатларининг жуда кўпчилиги қисмида безовталиқ, ваҳима, кўрқувнинг ортиб кетиши пайдо бўлди. Санаб ўтилган симптомларга аҳамият берадиган бўлсак, булар аҳолининг алоҳида гуруҳлари: яъни қари ёшдаги кишилар соғлиқни сақлаш ходимлари ҳамда соғлиғида ёндош касалликлар бор бўлган кишилар.*

Фавқулотда ҳолатлар яъни касаллик тарқалиш масштаби ва тезлигининг юқорилиги, ўлим сонининг ортиб боришининг аҳоли учун хавфлиги, сезиларли даражадаги одамлар турмуш шароитининг ўзгариши ( карантин) буларнинг барчаси руҳий саломатликка жиддий таъсирини кўрсатмасдан қолмади. (2) Covid-19 пандемияси охириги ўн йилликда соғлиқни сақлаш тизими ҳамда омма учун энг оғир кризис бўлди. Бу ва бунга ўхшаш эпидемия, пандемиялар омма учун ҳар томонлама ноқулайлик ва албатта руҳий саломатликнинг сезиларли ўзгаришига олиб келади. ВОЗ маълумотларига кўра, ваҳима ва депрессия симптомларининг частотаси 16 дан 28 % гача, уйқу бузилишлари 8 % ни ташкил қилган. COVID-19 пандемиясининг шиддат билан тарқалиши бутун дунё аҳолисини руҳиятига салбий таъсирини кўрсатди. Эпидемияга қарши олиб борилган тадбирлар ва улар билан боғлиқ

ўзгаришлар, яъни биринчи ўринда карантин одамлар ўртасида депрессия, алкогольга ва наркотик моддаларга ружў қўйиш ва турли суицидал ҳолатларни кўпайишига олиб келди. Россия руҳшунослари маълумотларига кўра, пандемия бошланиши даврида ваҳимали бузилишли беморлар сони, иккинчи тўлқин даврида эса депрессив бузилишлар сони кўпайиб кетган. COVID-19 ҳанузгача авж олиб бораётган бир даврда, инфекциянинг беморлар руҳиятига салбий таъсирини ўрганиш жуда муҳим.

**Кириш**

2019-йил декабр ойида Хитой давлати Ухан провенциясида биринчи марта атипик инфекцион пневмония авж олди. Ухан балиқ бозорида биринчи бўлиб пайдо бўлган янги инфекция охириги 2 ойда жуда тез тарқалди ва 2020-йил январь ойида Хитойда фавқулотда вазият келиб чиқди. Хитой давлати ВОЗ билан биргаликда 10-февральда бутун дунёга эпидемия хабарини берди. Бу





пайтда Хитойда 40235 ҳолат аниқланган эди. Бундан 23589 шубҳали. 909 ўлим ҳолати эди. (3) 24 та давлатда ўтказилган тадбирлар натижасига кўра 319 янги касалланиш ҳолатига 1 ўлим тўғри келётганди. Летал ҳолатлар сонинг ўсиб борётганлиги туфайли ВОЗ 11 мартдан бошлаб пандемия режимини эълон қилди. Бу вақтгача ҳам бир қанча давлатлар қаттиқ сиёсий-чеклов тадбирларини. яъни ўз-ўзини изоляциялаш ва карантин режимига ўтишганди. 2020-йил 30-апрель да касалланганлар 3.3 млн, ўлганлар-233 млн (4). Ўз-ўзини изоляциялаш, карантин, пандемия –булар одатий турмуш тарзини ва шароитини сезиларли ёмонлаштириши табиий ҳолат. Мураккаб вазиятда одамлар руҳиятининг ўзгариши табиий реакциядир. Пандемиянинг дастлаб бошланиш чоғида ваҳима, стресс, кўрқув, депрессия каби эмоционал ҳолат ўзгариш симптомлари билан мурожаат қилган беморларга психиатрик ва психологик ёрдамни онлайн режимда бериб борилди.(5). Хитой олимлари олиб борган текшириш натижаларига қарайдиган бўлсак: (Wang et.al.,2020,) – n= 1210 та (умумий популяциядан) депрессия симптомлари энгил даражадан то оғир даражагача 16.5% ни, ваҳиманинг энгил даражасидан то оғир даражасигача 28.8% ни, 8.1% одамларда эса жуда оғир стресс кузатилди. (6) (Xiao et al.,2020, )- 14 кун ва ундан кўпроқ карантинда турган n=170 та одамдан ваҳима шкаласининг ўртача бали 55.4+-14.3 баллни ташкил қилди. (7) ЖССТ маълумотларига кўра,130 та давлатда олиб борилган онлайн сўровномаларга қараладиган бўлса, давлатларнинг 93% ида беморлар руҳий бузилишлар билан

мурожаат қилишган, 60 % дан ортиқ давлатларда эса одамлар руҳий саломатлигини сақлаш учун психологик ёрдам талаб қилишган, 67% давлатларда эса психиатрик ва психологик консультация ва психотерапия ўтказилган. 30% дан ортиқ давлатларда руҳий ва неврологик бузилишлардан ҳамда психоактив препаратлар қабул қилиш билан боғлиқ муаммолар ортиб кетган.(8). Lancet Psychiatry журналидаги маълумотларга кўра, британ ва американс олимлари олиб борган изланишлардан COVID-19 билан касалланган беморларнинг ҳар 3 тадан бирида неврологик ва руҳий бузилишлар касаллангандан кейин 3 ойдан 6 ой гача сақланиб қолган. Улар 230 мингдан ортиқ COVID-19 билан касалланган беморларни текширувдан ўтказганда, 33.6 % ида 6 ойгача неврологик ва руҳий бузилишлар сақланиб қолган. Энг кўп тарқалган симптомлар ваҳимали бузилишлар 17% касалланганларда ва 14% аффектив бузилишлар аниқланган. 5% да уйқусизлик, 0.7% деменция симптомлари аниқланган.

Covid-19 пандемияси билан боғлиқ инсон руҳий саломатлигидаги ўзгаришларни бутун дунё давлатлари қатори бизнинг давлатда ҳам сезиларли даражада кузата олдик. Шу мақсадда олиб борган ишимиз натижаларини куйида кўрсатиб ўтсак:

**Мақсад:** COVID-19 ўтказган беморларда руҳий бузилишлар спектрини ўрганиш.

**Материал ва текшириш усуллари:** Текшириш мақсадида Тошкент шаҳар руҳий касалликлар шифохонасидан COVID-19 билан касалланган ёши 18 дан 55 ёшгача булган 40 та бемор олинди. Уларни клинко-анамнестик ва клинко-



психопатологик, А.Бека нинг депрессия ва ваҳима шкаласи (The Beck Anxiety Inventory, BDI) бўйича текшириш - бу халқаро амалиётда кенг қўлланиладиган усуллардан, 21 та пунктдан иборат бўлиб, депрессиянинг турли интенсивликдаги соматик ва когнитив сипмтомлари текширилади, бунда охирги 2 ҳафта оралилиғидаги ҳолат тасдиқланади. текширув ўтказиш орқали текширилди. Хотирани текшириш учун 10 та сўз усули ишлатилди.

**Натижалар:** Ўтказилган текширишлар шуни кўрсатдики, короновирус ўтказган 1,5-2 ойдан сунг беморларда кайфият тушиши, паника хуружлари, бош айланиши, уйқусизлик, қўзғалувчанлик аниқланди. Беморлар анамнезини текширганимизда бу беморлар илгари ҳеч қачон руҳий ёрдам бўйича махсус шифоналарга мурожаат қилишмаган ва бу мурожаат

ҳаётларидаги биринчи марта бўлишидир. Руҳий бузилишларнинг психопатологик тузилишини ўрганилганда 18,4% беморларда депрессив бузилишлар, 19,6% беморларда хавотирли бузилишлар, 28,5% беморларда аралаш хавотирли-депрессив бузилишлар борлиги, 34,5% беморларда эса, постравматик стрессли бузилишлар борлиги аниқланди. Деярли барча беморлар короновирус инфекцияси билан қайта касалланганлар ва уларда сомато-неврологик белгилардан тортиб психопатологик белгиларгача турли асоратлар пайдо бўлган. COVID-19 касаллиги даврида улар ўзларининг оғир ҳолатларидан жуда ҳаяжонга тушишган. Буларнинг барчаси уйқунинг бузилиши, яъни уйқуга кетишнинг қийинлашиши ва тунги безовталикларга олиб келган.

**Бек нинг депрессия шкаласи (n=40)**

<b>Бек нинг депрессия шкаласи бўйича кўрсаткичлар</b>	<b>Беморлар</b>
Депрессив сипмтомлар йўқ	4 (10%)
Енгил депрессив сипмтомлар	16 (40%)
Ўрта оғирликдаги депрессив сипмтомлар	20 (50%)
Суицидал фикрлар	0
<b>Бекнинг ваҳима шкаласи: n=40</b>	
<b>Кўрсаткичлар</b>	<b>Беморлар</b>
Ваҳима сипмтомлари йўқ	6(15%)
Енгил ваҳима	16(40%)
Ўртача интенсивликдаги ваҳима сипмтомлари	5(12.5%)
Юқори интенсивликдаги ваҳима сипмтомлари	10 (4%)

10 та сўзни такрорлаш усули ёрдамида хотира текширилганда, 16,7% беморларда қисқа муддатли ва узоқ муддатли хотира пасайиши кузатилди.

Топшириқни бажариш вақтида беморларда диққатининг концентрациясини синаб кўриш






диққати тезда пасайганлиги учун қийин кечди.

**Хулоса:** COVID-19 пандемияси даврида беморлардаги руҳий бузилишларини ўрганиш узоқ муддатли текширувлар ва изланишларни талаб қилади. Касалланган беморлардаги руҳий бузилишларини ва уларга олиб келувчи омилларни ўрганиш беморларга ўз вақтида бирламчи тиббий-профилактик ёрдам беришда катта аҳамият касб этади. Бу эса руҳий касалликларнинг инсонлар орасида камайишига хизмат қилади. Юқорида айтиб ўтилган

текширувларда чекланган сондаги беморлар олинган. Пандемия даврида депрессиялар, безовталик, чарчаш, стресс-хавотирли бузилишлар генезини, механизмини охиригача ўрганилмаган ва изланишлар давом этмоқда. Пандемиядан кейинги келиб чиққан асоратлар ва Covid-19 SARS инфекцияси билан боғлиқ руҳий бузилишлар спектрини механизмини ўрганиш нафақат психиатрлар, балки соғлиқни саклаш тизимининг барча соҳа вакиллари учун долзарб мавзулардан десак муболаға қилмаган бўламиз.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Электронный ресурс. Режим открытого доступа. <https://www.euro/who/int//>
2. Banergee,D(2020).The Covid-19 outbreak:Crucial role the psychiatrists can play//Asian Journal of Psichiatry102014.doi:10.1016/j.ajp.2020.102014
3. Zhou,X(2020).Psychological crisis interventions in Sichuan Province during the 2019 Novel Coronavirus (2019-nCov) outbreak//Psychiatric Research,112895.doi:10.1016/psychres.2020.112895.
4. Электронный ресурс. Режим открытого доступа. <https://www.euro/who/int/ru/emergencies/diseases/novel-coronavirus-2019>
5. Jacovljevic,M.,Bjedov,S.,Jaksic,N. COVID-19 PANDEMIA AND PUBLIC AND GLOBAL MENTAL HEALTH FROM THE PERSPECTIVE OF GLOBAL HEALTH SECURITY// Psichiatria Danubina,32(1),6-14.doi;10.24869/psyd.2020.6
6. Wang,C.,Pan,R.,Wan,X.,Tan,Y.,Xu,L.,Ho,C.S.,Ho,R.C.,2020.Immediate psy-chological responcees and associated factors during the initial stage of the 2019 cor-onavirus disease (COVID-19) epidemic among the general population in China.Int.J.Environ.Res.PublicHealth 17 (5) E1729.
7. Xiao,H.,Zhang, Y.,Kong,D., Li, S., Yang,N.,2020 a/ The effects of social support on sleep quality of medical staff treating patients with coronavirus disease 2019 (COVID-19)in January and February 2020 in China. Med. Sci.Monit.26,e923549/
8. <https://www.who.int/news/item/05-10-2020-covid-19distrupting-mental-health-services-in-most-countries-who-survey>).



## TERMIZ SHAHAR AHOLISI O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH VA TARG'IBOT QILISH

**Baxodirov Sardor Baxodirovich**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

[@sardor.bakhodirov@bk.ru](mailto:sardor.bakhodirov@bk.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034387>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*kasbiy funksiyalar, immun tizimi, ovqatlanish ratsioni, nerv tizimi, tug'ma va ortirilgan nogironlik, zararli odatlar.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Termiz shahar aholisi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bilan bir qatorda, aholining turli qatlamlarining yashash sharoitlari o'rganib chiqilgan hamda olib borilgan targ'ibot ishlari ilmiy jixatdan asoslangan va xulosalar berilgan.*

**Kirish.** Hozirgi vaqtda yurtimizda qolayversa butun dunyoda aholisi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, salomatliklarini mustahkamlash va tibbiy savodxonliklarini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda dunyo bo'ylab koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish chora tadbirlari ichida sanitar-gigiyena, psixologiya va ovqatlanish gigiyenasi soxalariga e'tibor kuchaytirildi, buning eng muhim sabablari sifatida ko'plab mamlakatlarda sanitar-gigiyenik va psixologik muammolarning mavjudligi, koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish hali hamon davom etayotgani, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning yomonlashuvi, turmush darajasining pasayishi hamda aholi ovqatlanishining yomonlashuvi kabilarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 30-oktabrdagi PF-

6099-son Farmoni ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 28.04.2021 yil 253-sonli qabul qilingan qarorida aholini kunlik yurish va yugurishga targ'ib qilish maqsadida "Sog'lom turmush tarzi" platformasi tashkil qilindi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 253-son [qaroriga ilova tarzda](#) "Sog'lom turmush tarzi" platformasi faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida nizom abul qilindi.

Nizomga ko'ra, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida ming qadam yurgan fuqarolarga pul mablag'lari berish joriy qilindi va hozirgi vaqtda muntazzam berib borilmoqda. Xususan Termiz shahar aholisi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida shahar hokimiyati xabarivati, Termiz shahar yoshlar ittifoqi va ma'sul tashkilodlar tomonidan sport tadbirlari o'tkazilib kelinmoqda. Shu nuqtayi nazardan, aholi o'rtasida immun tizimining pasayishi, ovqatlanish ratsionining buzulishi, pandemiya



natijasida ruxiy tushkunlikga tushish va shaxsiy gigiyenik qoydalariga rioya qilmaslik natijasida turli xil kasalliklarga chalinish xolatlari ko'plab kuzatilmoqda. Tadqiqotimizni aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, kasalliklarni oldini olishga, sog'lom ovqatlanishni tashkil etishga, jismoniy rivojlanishni yaxshilashga, tug'ma va ortirilgan nogironlikni oldini olishga qaratdik.

**Tadqiqotning maqsadi.** Termiz shahar aholisi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va targ'ibot qilishni ilmiy jixatdan asoslash.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.**

Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllanishda birinchi navbatda sog'lig'ini mustahkamlash, hayot shaklini o'zgartirish, gigiyenik bilimlarini oshirish, zararli odatlar bilan kurashish, sog'om ovqatlanishni shakllantirish, gipodinamiya va xayot situatsiyalarini noqulay jihatlari bilan kurashishni o'rgatishdan iborat. Sog'lom turmush tarzi deganda, insonning har kungi tipik hayot shakli tushuniladi. Sog'lom turmush tarzi organizmni mustahkamlaydi, takomillashtiradi, o'zini ijtimoiy va kasbiy funksiyalarini yaxshilaydi.

Sog'lom turmush tarzining mazmuni mehnat qilish va dam olish, uyqu gigiyenasi, ovqatlanish gigiyenasi, jismoniy mashqlar, o'zini hurmat qilish, odamlar bilan munosabatda o'zini tuta bilish va boshqalardan iborat.

Qat'iy tartib asosida ritmilik mehnat qilish va dam olish ishchanlik qobiliyatining yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Bunda hayot sharoiti va alohida kategoriyadagi odamlar mehnati e'tiborga olinadi. Inson organizmida aniq tartib saqlanganda ma'lum biologik ritm ishlaydi,

shuningdek, shartli reflekslar tartib bilan ketma-ket kelib-qaytarilib dinamik stereotip hosil bo'ladi. Masalan, agarda aholi har kuni belgilangan vaqtda aqliy, jismoniy ish bilan shug'ullansalar, ishchanlik qobiliyati yuqori bo'lib salomatliklari kun sayin yaxshilanib boradi. Organizmning ritmlari mustaqil bo'lmaydi, balki u tashqi muhitning o'zgarishi, kecha-kunduzning almashishi, oy va fasllarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Mashhur olimlar Klod Bernar, Uolter, Kennonlar ichki muhitning birday saqlanishi nazariyasini ishlab chiqqanlar. I.M.Sechenov, I.P.Pavlov va boshqalar esa organizm holati o'zgarishining tashqi muhit xodisalari ritmik o'zgarishiga bog'liqligini bir necha marta ta'kidlaganlar. Mashhur olimlar nazaryalari va hozirgi tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki tunda almashinuv jarayonlari, yurak-tomir ishi, nafas tizimi, tana harorati pasayadi hamda bosh miyaga informatsiyani kamroq qabul qilib, toliqish hissi paydo boladi va nerv tizimining funksiyalari ortib boradi. Xususan maktab o'quvchilari oliy ta'lim talabalarning ishchanlik hamda aqliy qobiliyati soat 09<sup>00</sup>-11<sup>00</sup> larga qarab ortib boradi. Soat 13<sup>00</sup> dan keyin ishchanlik qobiliyat kamayib borib, soat 16<sup>00</sup>-17<sup>00</sup> larga borib ishchanlik qobiliyati yana kamayib boradi. Funksional imkoniyatlar o'quvchilar va talabalarda soat 21<sup>30</sup> dan keyin kamayadi.

Ishda, o'qishda va shaxsiy hayotlarida aholining kunlik nagruzkalarining ortib ketishi natijasida surunkali stress holatiga olib keluvchi asosiy sabablardan biri xisoblanib, bu tarzda holatlar kichik va kata yoshdagi bolalar hamda kattalar himoya funksiyalari susayib, turli kasalliklarga chalilib boshlaydilar. Ish, o'qish va shaxsiy hayotdagi ishlarning me'yorida olib





borishlari uchun, jismoniy faolyatlarini to'g'ri baholab, kun tartiblarini to'g'ri tashkillashtirishlari lozim bo'ladi. Mehnat, dam olish va ovqatlanish ratsionini buzilishi sababli kasalliklar kelib chiqadi. Masalan: Pankreatit, surunkali xoletsistit, semizlik, vazinsizlik, revmatizm, ich terlama, oshqazon yarasi, o't-tosh kasalliklari, meteorizm, gepatit kasalliklari va boshqa kasalliklarga chalinadilar.

Ishchanlik qobiliyatini yuqori saqlash va sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil etishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

- turli xil faoliyat turini belgilangan vaqtda bajarish;
- mehnat va dam olishni samarali almashtirish;
- to'g'ri va sifatli ovqatlanish;
- zararli odatlardan voz kechish;
- shaxsiy va umumiy gigiyena [talablariga rioya qilish](#);
- atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik madaniyatga erishish;
- yuqumli kasalliklar, jarohatlanish va baxtsiz hodisalarning ro'y berishini oldini olish;
- to'g'ri jinsiy tarbiya olish;
- psixogigiyena [talablariga amal qilish](#);
- har kuni 1-1,5 soat sport bilan shug'ullanish;
- har kuni 2-3 soat sof havoda bo'lish;
- axborot texnologiya vositalaridan foydalanganlarida gigiyenik qoidalarga rioya qilish;
- uyqu gigiyenasiga qat'iy rioya qilish.

Bu qoidalar nafaqat Termiz shahar aholisini balkim, butun Respublikamiz aholisini sog'lom bo'lishlarini, xayotga qiziqishlarini orttiradi va uzoq yillarga mehnat qobiliyatlarini saqlashga yordam beradi.

Teriz shahar aholisi o'rtasida yaqin qarindoshlar bilan quda-anda bo'lishga

intilishi kuzatilmoqda. Buning sababi qarindosh-urug'chilikni yanada mustahkamlash va mol-mulkni begonalar qo'liga o'tib ketishidan muhofazalash deb ko'rsatilmoqda.

Respublika Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda shaharlarda qarindoshlar o'rtasida oila qurish hollari o'n foyizga, qishloq joylarida yigirma-yigirma besh foyizga yetayotgan ekan.

Tadqiqotimizda yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohi tufayli tug'ma nogiron farzad o'stirayotgan yuzga yaqin oylalarni aniqladik. Tibbiyot olimlarning ta'kidlashlaricha, yaqin qarindoshlar nikohi sababli saksonga yaqin kasalliklar kelib chiqishi aniqlangan. Jumladan, yo'ldosh gematomasi, temir moddasining oshib ketishi, vaznning keskin kamayib ketishi aqliy o'sishda yoki jismoniy rivojlanishida salbiy holatlar yuzaga kelishi kuzatiladi. Begonalar oila qurganida esa kuchli gen kuchsiz genni yengadi. Ya'ni immuniteti kuchli bo'ladigan bo'lsa, boshqa tomonni o'sha kasalligiga qarshi tura oladi.

Tadqiqotimiz jarayonida yuzdan ortiq bemorlarning kasallik anketalari bilan tanishdim, ular orasidan irsiy kasalliklarga chalingan odamlarning o'zi bilan suhbatlashib, irsiy kasalliklarning tarqalishi bevosita qarindosh - urug'chilikka daxldor ekanligini kuzatdim. Homilador ayollar homilasini skringda tekshirganida, nogironligini aytishganini yana bir marta qaytadan tekshiruvdan o'tish niyati borligini ta'kidlashadi. Ular orasida uchinchi marta mutaxassisga qayta tekshiruvga kelayotganlari ham topiladi. Ular najot, umid istashadi.

Mutuxassislarning aytishicha, yaqin qarindoshlarning nikohi yetti avloddan keyin ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin ekan. Shuning uchun AQShning



ayrim shtatlarida yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh qonunidan ta'qiqlangan.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi barcha oliy o'quv yurtlarida va tibbiy maslahatxonalarda, mahallalarda bu borada olib borilayotgan tushuntirish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilganligiga qaramay, salbiy holatlar hamon tez-tez uchrab turibdi.

Termiz shahar aholisi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targibot qilish jarayonini quyidagi holatlarga qaratdik va aniqlangan natijalarga qarab profilaktik ishlar olib bordik.

Oila byudjetini to'g'ri taqsimlashda aholining ko'p qismi daromadlar bilan xarajat muvozanatini saqlash katta ahamiyat qaratmaydilar. Natijada pulni tejash maqsadida sog'lomlashtirish muolajalaridan bosh tortadilar. Xarajatlar aniqlanganda eng avvalo, ularning eng zaruriga pul ajratish maqsadga muvofiq. Eng zarur xarajatlarga: ovqatlanish, davolanish, kommunal xizmatlar va bilim olish sarflari kiradi. Kiyinish, dam olish, uy jihozlash, tomosha va nihoyat to'y-marakalar esa ikkinchi darajali sarflarga kiradi.

Oila mablag'ini oila a'zolarining ehtiyojlariga qarab, zarurlarini ajratib olib, to'g'ri taqsimlash davr talabidir.

Kishi boshiga 9m<sup>2</sup> va undan ko'proq turar joy to'g'ri keladigan oilalardagi bolalarning sog'lomligi 5m<sup>2</sup> turar joy to'g'ri kelgan oilalarga nisbatan 7-8 barobar yuqoriligi aniqlandi.

Hozirgacha oilada eng katta, bahavo xona bolalarga emas, balki mehmonlarga yoki ijarachilarga ajratiladi. Eng yaxshi, qulay sharoit bolalar uchun yaratilishi kerak, degan ko'nikma ayrim oilalarda hali shakllanmagan. Oilalarda bolalar uchun eng yaxshi sharoit yaratilishini targ'ib etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Xuxusan, ovqatlanish sog'lom turmush tarzini shakllantirishning muhim omili bolib, Termiz shahar aholisi turli ovqat maxsulotlarini, muntazam iste'mol qilish ko'nikmasi to'la shakllangan deb ayta olmaymiz. Vitaminlari yetishmaydigan, kimyoviy tarkibi past, sifatsiz ovqatlarni iste'mol qilish, ularning miqdori jihatidan ham nomutanosibliyi aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgani sir emas. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra Termiz shahar chekka hududlarida joylashgan maxallalarda kattalar va bolalar ovqatida V<sub>1</sub>, V<sub>2</sub>, E va S vitaminlarining miqdori ancha past darajada ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, bolalar organizmining yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish kuchi 21-25% pasayib ketganligi kuzatiladi.

Termiz shahar aholisi turli qatlamlari o'rtasida o'tkazilgan kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatdiki ularning asosiy qismi non va non mahsulotlarini ko'proq, iste'mol qilishlari aniqlandi. Bir kunda iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlar kaloriyasi o'rtacha 1474 kkl ni tashkil etdi. Vaholanki, mamlakatimizda oziq-ovqatlar quvvati darajasi 2567 kkl qilib belgilangan.

Tub aholining o'ziga xos xususiyatlardan biri yog'li, qovurilgan ovqatlarni muntazam iste'mol qilishdir.


Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki aholi sut va sut mahsulotlari, baliq mahsulotlarini kam iste'mol qilishi oqibatida bolalar va katta yoshdagilar orasida anemiya kasalligi ortib bormoqda. Bu ko'rsatkich nafaqat shahar balkim qishloq aholisi o'rtasida ham yuqon darajada.

Surxondaryo viloyati aholisini yaxshi, sifatli toza ichimlik suvi bilan ta'mialashda gigiyena qoidalariga ahamiyat bermaslik natijasida viloyatimizda ichak kasalliklarini 76% hovuz-ariq va kanal suvlarini ichish natijasida, 12% infeksiyali



ariqlarda cho'milish natijasida kelib chiqishi aniqlandi (1-rasm).

- hovuz, ariq, kanal va oqava suvlaridan istemol qilish natijasida
- infeksiyali ariqlar va suvlarda cho'milganda



**1-rasm. Sifatli toza ichimlik suvidagi gigiyena qoidalariga ahamiyat bermaslik natijasida yuqumli kasalliklarni yuqush yo'li va ko'rsatgichi**

Aholini sanitariya-gigiyena jihatdan tarbiyalash hozirgi vaqtda katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki jismoniy mehnatga nisbatan aqliy mehnatning ustuvorligi aholining kam harakat qilishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanmasligi, tozalikka rioya etmasligi sog'lom avlodni voyaga yetkazishimizga to'sqinlik qilmoqda. 60% oilalarda ota-onalar farzandlarining shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishini nazorat qilmaydilar.

Sog'lom turmush tarzi, bu — har qanday kasalliklar profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish garovidir. Sog'lom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan odam oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib o'tish, hayot qiyinchiliklari oldida o'zini yo'qotmaslikni o'rganadi.

Shuni unutmang! Sog'lom turmush

tarzi qoidalari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, biri ikkinchisiz sodir bo'lishi amrimahol. Ularni ertaga qoldirmasdan, hoziroq amalga oshirishni boshlash bilan sog'lom va baxtli hayot sari ilk qadamlarimizni tashlagan bo'lamiz.


**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqotlarimiz xulosasiga ko'ra Termiz shahar aholisi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda turli yoshdagi aholi o'rtasida immun tizimining pasayishi, ovqatlanish ratsionining buzulishi, pandemiya natijasida ruxiy tushkunlikga tushish va shaxsiy gigiyenik qoydalariga rioya qilmaslik natijasida turli xil kasalliklarga chalinish xolatlari ko'pligi aniqlandi va proflyaktika o'tkazildi. Nogiron bolalarni tug'ilishida asosiy sabablaridan biri yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh bo'lib, tadqiqotimizda tug'ma nogiron farzad o'stirayotgan yuzga yaqin oylalarni aniqladik. Olimlarning ta'kidlashlaricha, yaqin qarindoshlar nikohi sababli saksonga yaqin kasalliklar kelib chiqishi aniqlangan.



Shu sababdan aholi o'rtasida salomatlikni yaxshilash bilan birgalikda yaqin

qarindoshlar o'rtasidagi nikohni barham berish choralarini ko'riz zarur.





## TALQINDA YOZUVCHI INDIVIDUALLIGI

Ruziboyev Bobur Mirzaqulovich

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani 58-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034393>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*individuallik, yozuvchi mahorati, inson ma'naviyati, ruhiy olam, Sobir O'nar, Zulfiya Qurolboy qizi, yozuvchi uslubi.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada yozuvchining o'ziga xos yondashuvi, mahorati va uning dunyoqarashi zamonaviy nasrda qalam tebratayotgan ijodkorlar – Sobir O'nar, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari misolida ochib berilgan. Badiiy asarlarda adibning individualligi qanchalik muhim ekanligi, uning o'ziga xosligi asar saviyasiga ta'sir etishi zamonaviy hikoyalar orqali asoslangan.*

Yozuvchi o'ziga xos ijodkordir. U yaratgan asar o'zining dunyoqarashi, xarakteri, kayfiyati, hislarining aksi sifatida baholanadi. Yaratilgan asarda yozuvchi uslubi, individualligi alohida o'ringa ega. Aks holda, asarlar bir xil va takroriy bo'lib qoladi. Tabiiyki bu odamlarning asarlarga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Shu sababli ham yozuvchi uslubi masalasi alohida e'tiborga molik. "Uslub badiiy asarning umumiy kaloriti, toni, obrazlar sistemasi, san'atkorning obraz yaratish metodi, badiiy tasvir vositalaridagi o'ziga xos yaxlitlik, san'at asari shaklida namoyon bo'ladigan badiiy-g'oyaviy xususiyatlar birligi, ya'ni san'atkorning dunyoqarashi ifodasi, asardagi asosiy fikr, yetakchi g'oyaga xizmat qiladigan sujet, xarakterlar, tasvir vositalari doirasi, tili va boshqalardagi umumiylik, yaxlitlikdir, ma'no tarzidir"<sup>1</sup>.

Yozuvchining individualligi – uning

o'ziga xosligidir. Hozirgi kun hikoyachiligida ushbu xususiyatlar qay tarzda namoyon bo'layotganligi masalasini adiblar ijodi misolida kuzatamiz. "Hikoya nihoyatda qisqaligi, voqealar rivojining intensivligi – jadalligi bilan boshqa janrlarga mansub asarlardan ajralib turadi. Shuning uchun ham hikoya qisqa jumalarda keng ma'no berishni, so'zni tejab-tergab ishlatishni talab qiladi"<sup>2</sup>. So'nggi davr hikoyachiligida o'z o'rniga ega bo'lgan adib Sobir O'nar inson tuyg'ularining nozik qirralari va taqdir, hayot atalmish olamning aksini o'z asarlariga mahorat bilan singdira olgan ijodkordir. Uning asarlarida umuminsoniy masalalar bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Yaxshi bilamizki, har bir asarda bunday masalaning tor doirada qalamga olinishi odatiy holatdir. Lekin uning

<sup>1</sup>E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish – T,2008 – B.322.

<sup>2</sup>N.Shukurov va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.,1979. – B.154.





kitobxon qalbiga, ko'ngil torlariga o'tkazadigan ta'siri turlichadir. Bunda, albatta, yozuvchi mahorati muhim rol o'ynaydi. "Mahorat – yozuvchining o'zi bilan kitobxon orasidagi to'siqni olib tashlash qobiliyatidir".<sup>3</sup> Sobir O'narda, albatta, ushbu holatning guvohi bo'lamiz. Yozuvchining hikoyalari turli mavzularda yaratilgan bo'lsa-da, ularning hammasini hayotiy muammolar, o'ziga xos obrazlar olami birlashtirib turadi. Bular orqali ulkan mazmun namoyon bo'ladi. S.O'nar hayot materiallarini badiiylik libosiga o'rab har tomonlama etuk asar yaratadi. Uning asarlaridagi tasvirlar kitobxon kundalik hayotida kuzatgan, guvohi bo'lgan va bevosita ishtirok etgan voqealari asosida yaratilgan. Yozuvchi bevosita tasvirlarnigina keltirib o'tmaydi, balki insoniy tuyg'ular, ruhiy ziddiyatlar tasviriga munosabat bildiradi. "Badiiy adabiyot tushunchasining asosida, shubhasiz, inson ma'naviyati bilan bog'liq muammolarning badiiy ifodasi turadi. Shu boisdan ham hech bir ijodkor yo'qki, o'z asarida buni chetlab o'tgan bo'lsin"<sup>4</sup>. S.O'nar ijodida ham bu holatni kuzatish mumkin. Xususan, "Vijdon" nomli hikoyasida elning "vijdoni" bo'lgan kishilar xususida turli lavhalar keltiriladi. Insonning o'ziga, vijdonga to'g'ri bo'lishi, unga xiyonat qilmasdan hayotda yashashi e'tirof etiladi. Hikoya G'aybar momo haqidagi tasvirlar bilan boshlangan: "G'aybar momoning asl ismi Xonsuluv bo'lib, el uning shashtidan, polvonligidan shu nom bilan atashgan ekan. U xalqning boshini birlashtirgan, o'ziga xos xarakterdagi inson qiyofasida gavdalanadi:

masalan, nevaralarini azonlab qichqirib uyg'otardi. Har biriga yumushlar buyurib, har yoqqa tarqatib yuborar, o'choqda choy qaynaguncha, qozonda sut pishgancha ular bir dunyo ishni bitirib kelar edi"<sup>5</sup>. Qahramon ushbu tasvir orqali erta turishning xosiyatini o'z nevaralariga yoshligidan singdirib boradi. Yoki quyidagi tasvir orqali uning axloqiy fazilatlarini namoyon bo'ladi: "Mabodo kosada ovqat sarqit bo'lsa, o'zi non burdasini ikkiga yorib surtib kosani tozalab urib tashlardi. Choy yuqini, hatto shamani qoldirmas edi. Uvoldan qo'rq derdi". Isrofga yo'l qo'ymaslik, bor ne'matlarning qadriga yetish kabi jiddiy masalalar ushbu obrazning xarakterida o'z ifodasini topgan. Asar muallif tilidan hikoya qilinadi. Rivoyat usulida keltirilgan ushbu lavhani ijodkor hayotiy faktlarga tayangan holda sodda tilda bayon etadi. Hikoya qahramoni G'aybar ona ayol boshi bilan elga yetakchilik qiladi. U "g'ayir edi – yalqovlik, o'zi bo'larchilik, g'irromlik dushmani edi". Muallif tili bilan aytganda "vijdonli ayol edi". Ayniqsa, hikoyaning quyidagi o'rnida ushbu obrazning yorqin xarakteri ochilgan: "Aytaylik birgina qarindoshingga yoki qo'shningni yomonlikdan qaytarib qolsang, uni jaholat tuzog'idan qutqarib qolishing mumkin!"<sup>6</sup>

Ma'lumki, sharq mentalitetiga ko'ra badiiy adabiyot insonlarga estetik zavq berishdan tashqari ma'naviy ozuqa va ta'lim-tarbiya ham beradi. Bunday holat inson ma'naviyatiga jiddiy e'tibor bergan ijodkor S.O'nar ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu hikoyada yana qator axloqiy-ma'naviy masalalar, xususan, Nonber otaning xalq farovonligi uchun kurashishi, qishloq oqsoqoli Keldivoy Qo'shmurodovning mahalladagi

<sup>3</sup>Jon Golsuorsi. Olti adibning qiyofasiga chizgilar. (Jahon adiblari adabiyot haqida. O.Sharafiddinov tarjimasini). – T.,2010. – B.44.

<sup>4</sup>O'ljaboyev U. A.Qahhor saboqlari. Guliston.2013.40-bet

<sup>5</sup>Sobir O'nar. To'rt hikoya.www.google.uz. – P.4.

<sup>6</sup>Sobir O'nar. Tort hikoya.www.google.uz. – P.7.



obodonchilik ishlariga qo'shgan hissasi, loqaydlik, mas'uliyat kabilarga ham to'xtalib o'tilgan.

“Hikoya o'z tabiatiga ko'ra xarakterlarni eng mayda detallarigacha tasvirlashni talab etmaydi. Xarakterning shakllanishi ham roman va povestdagidek batafsil ko'rsatilmaydi. Aksincha, hikoyada shakllangan xarakter va tiplarning ma'lum bir momentlarigina yoritiladi”.<sup>7</sup> Hayotda do'stlik, mehr-oqibat kabi tuyg'ulardan o'z manfaati yo'lida voz kechadigan, uni zarracha qadrlamaydigan insonlar ko'plab uchraydi. Bu kabi holatlarning bir qismi S.O'narning “Tarvuz” hikoyasida o'z aksini topgan. Ushbu hikoyaning bosh qahramonlari Omondavlat va Xudoyqul ismli do'stlardir. Xudoyqul shaharda yashaydigan, o'ziga to'q inson sifatida tasvirlanadi. Tugun Omondavlatning bolachaqa bilan do'sti Xudoyqulnikiga kelishidan boshlanadi. Do'stining kelishini Xudoyqul noxush kayfiyatda qabul qiladi. Uning nazarida Omondavlat pul so'rab kelmoqda. “So'ng er-xotin ikkov mehmonlarni kutib olish rejasini tuzishdi. Undoq desa bundoq, bundoq desa undoq edi, deya chora gap topib beramiz, xullas, pul yo'qligiga ishontiramiz deb, kelishib olishdi”. Keyingi tasvirlar izchillikda davom etadi. “Mehmonlar kechin-ola yetib kelishdi. Omondavlat xotini, bir chaqaloq qizi, to'rt-besh yoshlardagi burni oqqan o'g'li bilan keldi. Do'stining uyida yo'qligini ko'rib chandon xafa bo'ldi, go'yo u hech qayoqqa qimirlamay kutishi shartday, u qo'ltig'ida ikkita tarvuz, xotini bir qo'lida chaqalog'i, bir qo'lida kattakon korzinkasifat sumkasi bor edi. Sumkada turshak, yong'oq, mayiz, qishloqning tegirmon unida yopilgan talay non va patirlar, Xudoyqulning yosh qizchasiga

atab tikilgan kiyim-bachkilar. Omondavlat tarvuzlarni oshxonaga qo'ydi, so'ng yuz-qo'lini yuvib zalga – mehmon kutiladigan joyga o'tdi”<sup>8</sup>. Asar davomida Xudoyqul do'stiga yomon munosabatda bo'ladi. Omondavlatning xatti-harakatlaridan ochiq-oydin g'ashlanadi, jirkanadi. Hatto, mezbonligini, yonidagi esa bolaligidan birga katta bo'lgan do'sti ekanligini unitadi. Do'sti bilan so'zlashar-so'zlashmas unga sal jahlini bildirib, bir oz sur ohangda shunday deydi: “Jon jo'ra, oyog'ingniyam, noskingdiyam yuvib kel vannaga borib”. Uning bu so'zidan mehmon hijolat bo'ladi. Do'sti Omondavlat esa uning so'zlarini yaqin insonning beg'araz so'zlari sifatida qabul qiladi: “begona bo'lsam betimga aytarmidi”. Hikoya davomida Xudoyqulning ma'naviy qiyofasi yanada tubanlashib boradi. Xudoyqul dabdurustdan pul topish ancha mushkul bo'lib ketgani, birovga bergan pulini ham, molini ham qaytarib olish o'limdan og'irligini so'zlay ketdi. Bu ishoralar, albatta, sodda, ko'nglida kiri yo'q Omondavlatga etib bormaydi. Omondavlat bolalik chog'larini eslashni, do'sti bilan gurunglashishni chindan xohlaydi. Yigirma uch yil avvalgi sinfdosh bo'lib yurgan kunlarini, maza-bemaza qilgan ishlarini eslab miriqib o'tirgisi keldi. Sinfdoshlarining ahvolidan so'zladi. Lekin do'stining ensasi qotadi. Yo pulni, yo do'stlarini mensimaganday bo'ldi. “Ichlaringda joni bori kim o'zi?” deb kulmish qildi. Do'sti xafa bo'layotganini ko'rib “xo'p-xo'p, boshqa bunday demayman, men seni masxara qilmadimku”, dedi va tag'in kuldi”. Uning yana kulishi dilidagi va tilidagi gaplarning uyg'unligini tasdiqlaydi. Muallif buni ochiq aytmaydi, qahramonning harakati orqali

<sup>7</sup>N.Shukurov va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.,1979. – B.173.

<sup>8</sup>Sobir O'nar. Chambilbelning oydalasi. – T.,2006 – B.200.



holatni ifodalaydi. Xudoyqulning “tag’in kulishida” bir zamonlar qadrdon bo’lgan do’stining, sinfdoshining, hatto, o’zi voyaga yetgan tuproqning ustidan kulish, uni mensimaslik tuyg’ulari bor edi. Shu o’rinda u o’zining, o’zligining ustidan kulganini anglab etmaydi. Do’stining bu so’zlaridan so’ng Omondavlat o’zining begona odamga aylanib bo’lganini his eta boshladi. Asarda uning holati quyidagicha beriladi: “Mehmon qizardi, bo’zardi, xijolat bo’ldi. Televizorga qarab o’tirib tosh qotdi, lekin qulog’iga shapaloq tekkan kabi qizib turar edi”. Dasturxonga bo’lka non va moshxo’rda qo’yiladi. Mehmonning gapi bilan qishloqdan olib kelingan bir qop-qora non va patir dasturxondan joy oladi. Hikoya o’rtasiga kelib esa voqealar rivoji teskari tus oladi. Mezbonning uyiga biznes hamkorlari kelishi bilan vaziyat o’zgaradi. Xudoyqulninghaqiqiy hayot tarzi namoyon bo’ladi. “Stolga birpasda g’alati taomlar kela boshladi. Yeryong’oq, parvarda, konfet, turshak singari “kambag’al”ning bezaklari hash-pash deguncha yig’ishtirildi. Kolbasa, qazi, pishloq, tovuq go’shtidan tortib boshmaldoqning boshiday keluvchi og’zilari lang ochilgan pistalar ham keldi. “Qishloqi” mehmon xushyorroq tortib o’tirardi”. Tasvirdan ko’rinadiki, Xudoyqul juda kambag’al emas, balki ancha o’ziga to’q. Mazkur holatdan Xudoyqul umuman uyalmaydi, hatto xayoliga ham keltirmaydi. Omondavlat esa shunday vaziyatda ham do’stini o’ylaydi. Uning “nozik mehmon”lariga o’zi olib kelgan tarvuzdan ham qo’yishini qistaydi. Lekin uning so’zlari yana yerda qoldiriladi. U o’zini noqulay seza boshlaydi. Lekin oxirigacha chidashga qaror qiladi. Xudoyqulning jo’ralari ko’p pul xususida gaplashishidan uning ham maqtangisi keladi. Shu payt quyidagi voqea yuz beradi: “Ittifoqo yupqa, nozik likopchalarda tarvuz keldi.

Omondavlatning biroz kayfi oshgani bo’ismi, tarvuzga ko’zi tushgani zamon ichi yorishib ketdi. Hay-hay yosh boladek sevindi. Picha mubolag’asi bilan aytganda, dasturxonning egasiday sezdi o’zini”. Qahramon qishloqda yetishtirilgan tarvuzlar xususida so’z ochadi. Bu orqali uning tuyg’ularini sezish mumkin. Ozgina vaqt o’tgach, tarvuzga uzaladi. “Yeb bo’lib po’chog’ini likopchaga qo’yar chog’ tag’in dong qotdi, bu boshqa tarvuz! Qorasidan olib kelgandi, bunisi yashil-chipor”. Qahramonning kayfiyati tushib ketadi. O’zining keyingi harakatlarini boshqara olmay qoladi. Achinarli tomoni, mezbon ertalab ham qilmishidan uyalmaydi, mehmonlarning ketishiga ham befarq qaraydi. Uning ma’naviy tubanlashuvi quyidagi parchada avj nuqtaga ko’tariladi: “Ko’cha boshida axlatxona bor ekan. Omondavlat e’tibor bermadi-yu, xotini bir turtgach, cho’chiganday ishora qilgan tomonga qaradi: temir yashiklar yonida xuddi kecha o’zi ko’tarib kelgan tarvuzlarga o’xshash ikki tarvuz turibdi”. Shu o’rinda muallif qahramonning ruhiyatiga e’tibor qaratadi. Uning o’y-hayollari orqali nafaqat butun asar davomida harakatlangan ikki shaxs: Omondavlat va Xudoyqulning, balki jamiyatdagi ko’pgina insonlarning ma’naviy dunyosi, qiyofasini akslantiradi: “Ey, inson! Kechagina men qatori eding-ku. Qishloqda, tezak orasidan chiqding-ku. Nima qiliq axir bu? Senga milyon so’mlik sovg’a opkelishga qurbim yetmaydi. Ko’ngil bu, do’st, ko’ngil! Haqorat ham shunchalik bo’lar”. Hikoya mehmonlarning ketishi bilan yakunlanadi. Bu hikoya orqali muallif inson ruhiyatidagi, ma’naviy olamidagi qarashlarning turli tasvirlar natijasida o’zgarishi va bu o’zgarish salbiy yoki ijobiy bo’lishi mumkinligi g’oyasini ilgari suradi. Bu o’rinda inson o’zligi masalasining uning ma’naviyatida tutgan o’rni muhimligiga



ham e'tibor qaratadi. Hikoyadagi har bir tasvir badiiy "yuk" olgan. Xususan, hikoyadagi predmet detallarning ahamiyati juda katta. Tarvuz detalining sarlavha darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Tarvuz dastlab, Omondavlat va Xudoyqulning qishloqda birga o'tkazgan bolaligining ramzi bo'lsa, asarning keyingi o'rinlarida turmush kamchiliklarining, inson o'zligining aksi bo'lib kelgan. Shu bilan birga Omondavlat nazdida inson qadr-qimmatini belgilagan. Inson ruhiyatidagi tadrijiylik, ruhiy tug'yon shu detall vositasida aks ettirilgan. Bu hikoya insonning ma'naviyatini o'stirishga xizmat qiladi. S.O'narning "Tarvuz" hikoyasida maishiy hayot lavhalarini bayon etish orqali insonning tubanlashuvini, haqiqiy do'stlik, insoniylikdan ko'ra pul, mol, dunyoni afzal ko'ruvchi Xudoyqul obrazining xatti-harakati, ruhiyati orqali ochib beradi. "Hikoyada tarvuz – psixologik ramz vositasini o'tagan. Omondavlat do'stining uyiga tarvuz ko'tarib kelishi, Xudoyqulning puldor do'stlari kelganda tarvuz qo'yilishi, axlatxonaga tarvuz chiqarib tashlanishi barchasi uzviy ravishda bog'lanib, hikoyada muhim badiiy g'oyani ifodalashga xizmat etgan. Nazarimizda, Xudoyqul aslida o'zining manfur, tashqi jihatdan yaltiroq, ammo ichi qaltiroq qiyofasi bilan tarvuzning tashqi holatini esga soladi. Tarvuz silliq, yaltiroq, olachipor bo'lganidek, Xudoyqulning tabiati ham jamiyatda har qanday ishni pul bilan silliq bitkazadigan, hislari to'mtoq, dag'al insonning ramziy timsoli"<sup>9</sup>. Yuqorida keltirilgan hikoyalardagi rang-barang inson qiyofasi ijodkorning o'ziga xos individual uslubini namoyon qiladi.

Zulfiya

Qurolboy qizi hikoyalarida ayol timsoli

<sup>9</sup>Umarali Normatov. "Kichik janrlarning katta imkoniyatlari"(taqriz). – T., 2015 yil. – B.425.

talqini, uning ruhiyati, hislari masalasi birinchi o'rinda turadi. Ayol ma'naviyati, uning hikoyalardagi aksi yozuvchining individual uslubida, xususan, "tanlangan mazmunni muayyan shaklda ifodalashga yordam qiluvchi barcha badiiy vositalarning uzviy munosabatida, o'ziga xos chatishuvida"<sup>10</sup> yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol", "Yolg'izlik qurboni" hikoyalarida ma'naviy-axloqiy masalalar talqini o'ziga xosdir.

Masalan, Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasida ayolning, inson matonati, sabr-toqati, ruhiyati, ma'naviy dunyosi mahorat bilan tasvirlangan. Hikoya bosh qahramoni Nazokat og'ir betob bo'ladi. O'lim ostonasida turgan Nazokat hayotdan ketishni xohlamaydi. Uning ruhiyati peyzaj, portret, predmet detallar ifodasida ta'sirchan chizilgan: "Devorlari oppoq xona. Deraza oynasidan to'kilayotgan oppoq nur ayolning yuzida jilva qildi, barmoqlaridagi uzukning olmos ko'zchalarida aks etdi. Quyosh nurlarini mo'l-ko'l to'kdi. Ayol o'tob nuriga butkul g'arq bo'ldi...".<sup>11</sup> Muallif bu tasvirlarga uyg'un holatda qahramon ruhiyatini chizadi: "Qanday yoqimli... Tiriklikning yana bir tongi otdi, - ayol ko'zlarini yumib, quyosh nurlarini simirdi, keyin yana ohista pichirladi: - Seni qanchalik yaxshi ko'raman, quyosh!..". tasvirdagi inter'erdan ayolning kasalxonada ekanligi oydinlashadi. Uzuk predmet detali uning oilali ekanligiga ishora. Nazokatning quyoshga muhabbat izhor qilishi uning tongga, hayotga, tiriklikka bo'lgan ishtiyoqini ifodalaydi. Hikoya davomida yana bir obraz, ya'ni Nazokatning eri

<sup>10</sup>Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish – T.,2008 – B.332.

<sup>11</sup>Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq – T.,2012 – B.3.





Shavkat tasviriga ham katta mazmun yuklangan. U xotining kasalligini eshitgach quyidagi holatga tushadi: “ – Nazokatning ahvoli yaxshi emas. Hozirligingizni ko‘ravering. Shavkat boshini changallab qoldi”. Bu tasvirdan ko‘rinadiki, Shavkatning turmush o‘rtog‘iga mehri baland. Matnda keltirilgan “Shuncha qiynalgani yetmaydimi?..” detali uning ruhiyatini yanada aniq bayon etadi. Asarda Nazokatning portreti keltirilgan: “Nazokat uxlab yotardi. U juda ozib ketgandi. Qovoqlari ichga botib, yonoq suyaklari turtib chiqqan, chekka tomirlari ko‘m-ko‘k bo‘lib bo‘rtib turardi”. Bu tasvir bosh qahramonning og‘ir ahvolda ekanligini ifodalaydi. Quyidagi parchada muallif o‘zbekona sharm-u hayoni matn zamiriga singdirib yuboradi: “Nazokat tikilib turgan nigohlarni his etdi, shekilli, asta ko‘zini ochdi. – Yaxshimisan?... – Tuzuk, - o‘rnidan qo‘zg‘aldi Nazokat”. Bemor bo‘lsa-da erining oldida cho‘zilib yotishni o‘ziga ep ko‘rmagan Nazokatning bu xatti-harakati uning ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashini ko‘rsatadi. Ijodkor peyzaj orqali bosh qahramonning tugayotgan umriga ishora qiladi: “Havo sovugan, osmonda uvada bulutlar kezinar, quyosh xiragina nur sochar, qorning hidi kelardi”. Havodagi sovuqlik, bulutlar bilan Nazokatning tanasini tobora egallab borayotgan kasallikni, Quyoshning ojiz nur sochishi bilan Nazokatning yashashga bo‘lgan umidini, qorning hidi hamda sovuq o‘lim sharpalarini uyg‘un holda ko‘rgan muallif hikoya davomida muhabbat tuyg‘usining ifodasiga ham alohida e‘tibor qaratadi: “Birdan kutilmagan hol yuz berdi. Nazokat yugurib kelib Shavkatning quchog‘iga o‘zini otdi. Avvallari hech ham bunday qilmasdi. – Biz faqat er-xotin emasmiz, undan ham yaqinroq bo‘lib ketganmiz-a, dadasi? – dedi u erining ko‘ksiga yuzini bosib”. Keltirilgan

parchadagi obraz harakati va nutqining o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali ifodalangan muhabbat tuyg‘usi o‘ziga xos tarzda tasvirdir. Buni yozuvchining o‘ziga xos individualligi, uslubi deyish mumkin. Hikoyada ruhiyat tasviriga alohida urg‘u beriladi: “Shavkat kuchli haroratni va ko‘z yoshlarni tuydi. U qimir etolmay qoldi, nimadir deyishni, xotining ko‘nglini ko‘tarishni istadi, ammo tili aylanmadi. Ko‘ksidan beixtiyor yana og‘ir xo‘rsiniq otilib chiqdi”. Parchada keltirilgan harorat va ko‘z yoshi ayolga tegishli. Tabiiyki, erkaklar ayollar oldida yig‘lamaydi. Bunday vaziyatda ayoliga tirgak bo‘lishni istaydi. Shavkat esa ruhiy zo‘riqish oqibatida tili aylanmay qoladi. O‘zi xohlamagan holda tuyg‘ulariga yengiladi. Bunday ruhiyat tasvirlari hikoyada ko‘plab berilgan. Xususan, ayolning kasali borgan sari zo‘rayadi. Natijada bosh qahramon o‘z o‘limini ruhan qabul qiladi: “ – Bilaman, oz qolganini bilaman. Lekin bunday xunuk alfozda o‘lishni istamayman. Istamayman!...”. Nazokatning so‘ngi so‘zlari ayol ma‘naviy qiyofasini yanada to‘liq ifoda etadi. Ya‘ni, ayol o‘z nomi bilan hilqat. U go‘zallikka intiladi. Hikoya so‘ngida ayol vafot etadi. U o‘zi xohlaganday go‘zal qiyofada qoladi. Bu qismda ham muallif tabiat tasviri va inson ruhiyatini birlashtiradi. Tun chekinishi hamda tong otishini o‘limning g‘alaba qilishi va ruhning ozod bo‘lib boqiylikka ketishiga uyg‘unlashtiradi. Bu hikoyalardan ko‘rinadiki kichik janrlar sirasiga kiruvchi hikoyalarda ham inson ma‘naviy qiyofasini, uning ruhiy olami va undagi yozilmagan axloqiy qoidalar aksini keng va ta‘sirchan ruhda ifodalash mumkin ekan. So‘nggi davr hikoyachiligida inson ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashini yaratishdagi ijodkorlarning o‘ziga xos individual xususiyati e‘tirofqa loyiq. Ularning






yozuvchilik mahorati va uslubi hikoyalari tahlilida yanada namoyon bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish – T.,2008 – B.322.
2. N.Shukurov va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.,1979. – B.154.
3. Jon Golsuorsi. Olti adibning qiyofasiga chizgilar. (Jahon adiblari adabiyot haqida. O.Sharafiddinov tarjimasi). – T.,2010. – B.44.
4. O'ljaboyev U. A.Qahhor saboqlari. – Guliston, 2013. 40-bet
5. Sobir O'nar. To'rt hikoya. [www.google.uz](http://www.google.uz). – P.4.
6. Sobir O'nar. Chambilbelning oydalasi. – T.,2006 – B.200.
7. Umarali Normatov. "Kichik janrlarning katta imkoniyatlari"(taqriz). – T., 2015 yil. – B.425.  
Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq – T.,2012 – B.3.





## HISSOR TOG'I CHUCHUK SUV QORINOYOQLI MOLLYUSKALARINING TUR TARKIBI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Urakova Aziza Baxromovna

Termiz davlat universiteti biologiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs

talabasi, azizaurokova9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034401>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Chuchuk suv qorinoqqli mollyuskalari, ekologik guruhlar, fitofil, tel'matofil, fitoreofil, krenofil.*

### ANNOTATSIYA

*maqolada Hisor tog'ida uchrovchi chuchuk suv qorinoqqli mollyuskalarining turlar tarkibi va ekologik guruhlanishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Chuchuk suv qorinoqqli mollyuskalari tadqiqot uchun murakkab bir guruh hisoblanib, ularning tarqalishi, individlar sonining ko'pligi va ekosistemalardagi muhim o'rni tufayli chuchuk suv faunasi tarixi, gidrobiologiya singari nazariy masalalar bilan bir qatorda, bioekologik xususiyatlarini o'rganish monitoringi hamda bioindikatsiya kabi amaliy masalalarni hal qilishda tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Markaziy Osiyo chuchuk suv qorinoqqli mollyuskalariga oid ilk ma'lumotlar E.Martens tomonidan keltirilgan bo'lib, suv mollyuskalariga oid bir qator ma'lumotlarni O.B.Rosen va YA.I.Starobogatov ishlarida ham o'z ifodasini topgan.

Markaziy Osiyo suv mollyuskalarini rejali tarzda o'rganish Z.I.Izzatullayev tomonidan boshlangan bo'lib, uning qator ishlarida mollyuskalarning taksonomik tarkibi, biologik xususiyatlari, tarqalishi,

zoogeografiyasi va tarixiy shakllanishi hamda xo'jalik ahamiyati batafsil yoritilgan.

Hisor tog'i va unga yondosh hududlar chuchuk suv mollyuskalari faunasi Z.I.Izzatullayev tomonida o'rganilib hududda uchraydigan suv mollyuskalarining tarqalishi va ekologiyasiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Biroq, ilmiy adabiyotlar va manbalarda Hisor tog' tizmasining tekislik va tog'li hududlarida uchrovchi chuchuk suv qorinoqqli mollyuskalarining tur tarkibi va ekologik xususiyatlarini to'liq o'rganilmagan.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda, Hisor tizmalarida chuchuk suv qorinoqqli mollyuskalar haqidagi ma'lumotlar sanoqli adabiyotlarda ma'lumotlar keltirilgan (A. Pazilova, F. G'aibnazarova). Yuqoridagilarni inobatga olib, tadqiqotimizning maqsadini Hisor tog' tizmasining turli suv havzalarida yashovchi chuchuk suv qorinoqqli mollyuskalarining tur tarkibi va ekologik xususiyatlarini o'rganishga qaratdik.



Tadqiqotlar 2020-yil apreldan 2021-yil sentabrgacha o'tkazildi.

Tadqiqot materiallari Hisor tog' tizmasining balandlik va tekislik joylaridagi oqar suvlar, chashma va buloqlardan yig'ilib, jami 670 dan ortiq nusxadagi mollyuskalar kolleksiyasi tadqiqot materiali sifatida xizmat qildi. Tadqiqot ishi V.I.Jadin metodi bo'yicha amalga oshirildi. Aniqlangan mollyuskalarning sistematik tarkibini tahlil qilish uchun mavjud adabiyotlar (Izzatullaev 1993 yil , Starobogatov 1974 yil , Izzatullaev 2002 yil) dan foydalandik.

Hisor tog' mintaqasi dengiz sathidan 1500 m balandlikda bo'lib. Balandlikka ko'tarilgan sari havo harorati pasayib, yog'inlar miqdori orta boradi. Tog'larda yoz salqinroq, cho'ldagiga nisbatan qisqaroq bo'ladi.

Tog' mintaqasidagi balandlik va tekislik joylaridagi oqar suvlar, chashma va buloqlarda qalin o'simlik qoplami hamda suvga yaqin joyda joylashgan toshlar atrofidagi o'simliklarning tuproqlari

tarkibida chirindining ko'pligi hamda o'simliklarining o'ziga xosligi sababli unda uchraydigan mollyuska turlari ham boshqa tog' tizmalarda joyashgan chuchuk suv qorinoyoqli mollyuskalardan farq qiladi.

Hisor tog' tizmasidagi oqar suvlar, chashma va buloqlar yaqinida joylashgan o'simliklar xilma-xil bo'lib: o't o'simliklar tog'ning yon bag'irlarida betaga, dalachoy kabi o'tlar o'sadi, butalardan esa na'matak, zirk, dukcho'p va irg'ay kabi butalar hamda yulg'un kabi yarim butalar uchraydi. Chuchuk suv qorinoyoqli mollyuskalar ana shu o'simliklar bilan oziqlanadi.

Hisor tizmalarining tog' jinslari, o'rmonlari, suvlari va o'simliklarining o'ziga xosligi tufayli unda uchraydigan mollyuska turlari ham boshqa tog' tizmalardan farq qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Hisor tog' tizmasining turli suv havzalaridan chuchuk suv qorinoyoqli mollyuskalarining 4 oila, 4 avlodga mansub 10 turi qayd qilindi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Hisor tog' tizmasida uchrovchi chuchuk suv qorinoyoqli mollyuskalarining taksonomik tarkibi

Oilalar	avlod	tur	%
<b>Belgrandiellidae</b>	<i>Martensamnicola</i>	<i>Martensamnicola brevicula</i>	14
<b>Lymnaeidae</b>	<i>Lymnaea</i>	<i>Lymnaea (L.) stagnalis</i>	50
		<i>Lymnaea (G.) thiessea</i>	
		<i>Lymnaea truncatula</i>	
		<i>Lymnaea (R) auricularia</i>	
		<i>Lymnaea oblonga</i>	
<b>Physidae</b>	<i>Costatella</i>	<i>Costatella acuta</i>	10
<b>Planorbidae</b>	<i>Planorbis</i>	<i>Planorbis planorbis</i>	26
		<i>Planorbis tangitarenis</i>	
<b>Jami</b>	4	10	100

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'rganilgan hududlarda Lymnaeidae oilasi vakillari 6 turni, Planorbidae oilasi vakillari



2 tur, Belgrandiellidae va Physidae oilasi vakillaridan 1 tadan turlar tarqalganligi qayd etildi.

Yuqorida qayd etilgan turlarning Z.I.Izzatullayev klassifikatsiyasi asosida

ekologik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi o'rganilganda quyidagi natija olindi (2-jadval).

2-jadval

**Chuchuk suv qorinoqli mollyuskalarining ekologik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi**

N <sup>o</sup>	Turlarning nomi	Fitofil	Tel'matofil	Fitoreofil	Krenofil
1	<i>M. brevicula</i>	-	-	-	+
2	<i>L. stagnalis</i>	+	-	-	-
3	<i>L. thiessea</i>	-	+	-	-
4	<i>L. truncatula</i>	-	+	-	-
5	<i>L. auricula</i>	-	-	+	-
6	<i>L. oblonga</i>	-	-	+	-
7	<i>L. subdisjuncta</i>	-	-	-	+
8	<i>C. acuta</i>	+	-	-	-
9	<i>P. planorbis</i>	+	-	-	-
10	<i>P. tangitarenis</i>	+	-	-	-
	<b>Jami</b>	4	2	2	2

Hisor tog' tizmalari chuchuk suv qorinoqli mollyuskalarning populyatsiya zichligi har xil biotoplarda turlichadir. Jumladan, soy bo'ylari va buloqlar atrofidagi o't o'simliklar orasi va harsang hamda mayda toshli suvga yaqin hududlarda populyatsiya zichligi yuqori – 1 m<sup>2</sup> da 40 - 55 nusxada ekanligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra tadqiqot hududi chuchuk suv qorinoqli mollyuskalari ekologik guruhlarining soni jihatidan fitofil turlar ko'pchilikni tashkil etib, ular tarkibiga 4 tur mansub, 40% ga teng. Krenofil, tel'matofil va fitoreofil ekologik guruhlariga 2 tadan tur taalluqli bo'lib, ularning har biri 20 % dani tashkil etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jadin V.I. Metodi gidrobiologicheskogo issledovaniya. -M.: Visshaya shkola, 1960. -191 s.
2. Jadin V.I. Presnovodniye mollyuski basseyna Amudar'i // Tr. Zool.in-ta AN SSSR. - Leningrad, 1950. -T.9. vip.1 - S. 56-78.
3. Izzatullayev Z.I. K faune presnovodnix mollyuskov Gissarskogo xrebtta i sopredel'nix rayonov Tadjikistana // Izv. AN TadjSSR, otd. biol. nauk. -Dushanbe, 1972. -N<sup>o</sup>3 (48). - S.44-49.
4. Izzatullayev Z.I. Mollyuski vodnix ekosistem Sredney Azii. - Tashkent, 2018. -229 s.
5. Izzatullayev Z.I. Ekologicheskiye gruppировki presnovodnix mollyuskov Sredney Azii // Mollyuski, sistematika, ekologiya i zakonomernosti rasprostraneniya. Sb. nauchnix trudov. -L.: Nauka, 1983. - S.132-135.





6. Starobogatov YA.I. Nekotoriye osobennosti rasprostraneniya mollyuskov v podzemnix vodax Kavkaza i Sredney Azii // Tr. Zool.in-ta AN SSSR. -M: Nauka,1972. -T.51. -S.165-172.
7. Starobogatov YA.I. Sistema i filogeniya Lymnaeidae (Gastropoda, Pulmonata, Basommatophora) // Problemi zoologii. -L.: Nauka, 1976. -S. 79-81.
8. Martens E. Ueber Centralasiatische Mollusken // Men. Acad. Sci. St. Petersburg. 1882. Bd. 30, №11. - S. 1-65.
9. Rosen O.B. Contribution a la faune malacologique terrestre du Turkestan (description de deux especes nouvelles // Feuille Jeunes Natur. 1897.-170 p.
10. Пазиров А., Гаибназарова Ф., Саидов М. Закономерности вертикального распространения наземных моллюсков Узбекистана и сопредельных территорий. Ташкент.из. «Фан», АН РУз., 2014, 191 с.
11. Jalilov J.J. Malakofauna of the gissar reservoir and the gorge ilonli gissar ridge // Jurnal: Asian Journal of Multidimensional Research. India-2021.P. 139-142.
12. Жалилов Ж.Ж. Гигрофильные виды наземные моллюски Узбекистана // "Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences" issue 3 of the scientific journal. Uzbekistan-2021. 805-811 s.






ТЕМИР ТАНҚИСЛИГИ КАМҚОНЛИГИНИНГ БОЛАЛАР  
ОРАСИДА ЖИНС БЎЙИЧА ТАРҚАЛГАНЛИГ  
ҚЎРСАТКИЧИ (ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Хайиткулова Парвиноз Собир қизи

Тошкент тиббиёт академияси Термиз филиали талабаси

hayitqulovaparvinoz@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034430>



МАҚОЛА ТАРИХИ

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

камқонлик, темир  
танқислиги, рационал  
овқатланиш, гемоглобин  
камайиши, қон айланиш.

ANNOTATSIYA

*Ушбу мақолада Тошкент вилояти туманларида яшовчи болалар орасида темир танқислиги камқонлигини жинс бўйича тарқалганлиг қўрсаткичи аниқлаш, келиб чиқиш сабабларини ўрганиш ҳамда олди олинишининг замонавий усуллари илмий жихатдан асосланган ва хулосалар берилган.*

**Кириш.** Рационал овқатланиш, темир ингибиторларни кўп миқдорда истеъмол этиш, сурункали қон йўқотишлар, гижжалар билан зарарланиш, ошқозон-ичак йўлларида сурункали касалликлари, шунингдек, шифокорлар камқонлик ташхисини қўйганларида Жаҳон Соғлиқни Сақлаш Ташкилотининг таснифини эътиборга олиши керак. ЖССТнинг таснифига, асосан, гемоглобин меъёри ҳомиладорларда 110 г/л, аёлларда 120 г/л, 5 ёшгача бўлган болаларда 110 г/л, 5-12 ёшгача 115 г/л, 12 ёшдан сўнг 120 г/л, эркакларда 130 г/л ташкил этади. Гемоглобинни аниқлашда гемоглобинцианид усулини қўллаш тавсия этилади, бу замонавий ва ишончли усулдир.

Темир организмда алмаштириб бўлмайдиган биометал бўлиб, организмнинг турли тизимлари хужайралари фаолияти учун зарурдир. Унинг биологик аҳамияти шундан

иборатки, у хужайралардаги оксидланиш қайтарилиш жараёнлари учун зарурдир. Унинг бу хусусияти тўқималарда модда алмашинувида иштирокини таъминлайди. Темир организмнинг 0,0065% ини ташкил этади. 70 кглик эркаклар организмда тахминан 3,5 г (50 мг/кг тана вазнига) темир бўлади. 60кглик аёл организмда эса тахминан 2,1 г (35 мг/кг тана вазнига) темир моддаси бўлди. Темир бирикмалари турли кўринишларга эга бўлиб, нафақат функционал жихатдан актив бўлмасдан, балки муҳим биологик фаолликка эгадир.

Организм ўсиш даврида ва менструал циклда (кўп қон кетганда) Темир танқислиги юзага келади. Шунингдек, ошқозон ахилияси натижасида сўрилишнинг бузилишида, эстрогенлар секрецияси камайганда, ҳомиладорликда, кўкрак билан эмизганда организмдаги темир моддаси запаслари тугайди. Симптоматик анемиялар организмда юқумли



касалликлар ва йирингли жараёнлар бўлганда юзага келади.

Камқонлик муаммосини ечиш ва унинг олдини олиш мақсадида қуйидаги масалаларга кенг эътибор бериш лозим. Аҳоли орасида кенг миқёсда тарғибот ишларини олиб бориш, тиббиёт ходимларининг камқонлик тўғрисидаги билимларини ошириш, жамоатчиликнинг камқонлик муаммосига бўлган эътиборларини кучайтириш.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, болалар орасида темир танқислиги камқонлиги тарқалганлиги, хавф омилларини ўрганиш, уларни бартараф этиш, болалар саломатлигини яхшилаш, болаларга кўрсатилаётган тиббий хизматнинг самарадорлигини ошириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ҳозирги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

**Тадқиқотнинг мақсади.**

Тошкент вилояти туманларида яшовчи болалар орасида темир танқислиги камқонлигининг жинс бўйича тарқалганлиг кўрсаткичи ва сабабларини чуқур ўрганиш, уларни камайтиришга қаратилган чора-тадбирлар мажмуини ишлаб чиқиш ҳамда илмий жихатдан асослаш.

**Тадқиқот материали ва усуллари.**

Темир танқислиги камқонлиги энг кенг тарқалган анемиялар турига кириб, у асосан, 14 ёшгача болалар, ўсмирлар ва ҳомиладорлар орасида кенг тарқалган.

Анемиялар асосан болаларда темир танқислиги камқонлиглари кўринишида юзага келади. Болалар касалликлари тузилмасида у 6 ўринни эгаллайди.

**Жадвал-1**

**Тошкент вилояти 0-14 ёшгача болалар орасида темир танқислиги камқонликларнинг тарқалганлиги (2019 йил)**

Шаҳар ва туманлар	0-14 ёшгача болалар сони (1000) хисобида	Анемиялар, %	Умумий аҳоли сони(1000) хисобида
Чиноз	32,4	12,3	121,0
Бўстонлиқ	42,7	11,2	175,4
Бука	30,5	15,4	89,3
Паркент	36,8	14,9	149,2
Қуйи Чирчиқ	26,6	11,2	249,9
Зангиота тумани	93,3	57,6	94,2
Бекобод	37,8	35,9	123,9
Пискент	25,0	22,4	143,7
Юқори Чирчиқ	32,5	13,9	160,7
Ангрен шаҳар	46,2	26,4	115,8
Бекобод шаҳар	23,6	16,7	352,5




Урта Чирчиқ	47,5	58,7	186,9
Чирчиқ шаҳар	39,4	30,8	100,5
Охангарон	32,7	11,3	139,9
Янгийул	66,0	14,2	94,4
Олмалик	31,8	21,6	179,7
Оққурғон	25,4	21,3	122,6
Қибрай	32,5	39,9	123,2
<b>Жами:</b>	<b>721,0</b>		<b>2726,1</b>

1-Жадвалдан кўриниб турибдики, темир танқислиги камқонлиги болалар орасида тарқалганлиги Қибрай, Зангиота туманларида юқори кўрсаткични ташкил қилган бўлса, (1000 та болага нисбатан тегишли равишда 112,1 ва 84,1) баъзи туманларда кўрсаткич жуда ҳам паст. Бу камқонлик тарқалганлиги бўйича ҳақиқий ҳолатни акс эттирмайди.

Тошкент вилояти Зангиота ва Қибрай туманларида болалар ўртасида темир танқислиги камқонлиги тарқалганлиги ўртача 101,1 (1000 та болага нисбатан) ни ташкил этган. Болаларнинг бирламчи тиббиёт муассасаларига касалликлар туфайли қилган мурожатлари туфайли

ўтказилган умумий қон таҳлили натижалари шуни кўрсатдики, 91% ҳолларда темир танқислиги камқонлигининг у ёки бу шакли учраган.

Темир танқислиги камқонлигининг тарқалганлиги ҳақиқий ҳолатини билиш учун биз Тошкент ва Зангиота туманларидан 100 та касалликлар туфайли қишлоқ врачлик пунктларига мурожаат қилган болаларни ретроспектив, яъни уларнинг 112-шакл Боланинг ривожланиш картаси таҳлил қилиш орқали ўргандик. 44 та ўғил бола (44%), 56 та қиз болалар (56%) (1-расм).



**Расм-1. Болаларнинг жинс бўйича тақсимланиши**

Бирламчи тиббиёт муассасаларига болалар темир танқислиги камқонлигининг оғир даражаларида мурожаат қилганлар. Улар барча касалликлар бўйича мурожаатларнинг 12% ни ташкил қилганлар. Асосан болаларда (85-90%да) ёндош касалликларда темир танқислиги камқонлиги деб ташхисланган.

Ўтказилган таҳлил натижалари шуни кўрсатдики, 41% 0-3 ёшли болаларга, 43% 4-7 болаларга, 9 % дан 8-11 ёшли болаларга ва 7% 12-14 ёшли болаларга тўғри келган. Барча ёшларда қиз болалар сони устунлик қилган (2-жадвал).

**Жадвал-2**

**Темир танқислиги камқонлигининг ёшлар ва жинслар бўйича тарқалганлиги (%)**

Жинси	Ёшлар			
	0 - 3	4 - 7	8 - 11	12 - 14
Ўғил болалар	25	18	6	11
Қиз болалар	23	28	16	17
<b>Жами</b>	<b>41%</b>	<b>43%</b>	<b>9%</b>	<b>7%</b>

Баъзан темир танқислиги камқонлиги чақалоқларда ва эмизикли болаларда кўп қон йўқотиш туфайли содир бўлади. Болалар катталарга қараганда қон йўқотишга жуда сезгир бўлишади, ва касалликлик тезда ривожланади. Чақалоқларда қон йўқотиш плацентанинг нотўғри жойлашуви, кесарча жарроҳликда унинг шикастланиши натижасида келиб чиқади. Чақалоқларда қийин ташхисланадиган сабаблардан бири бу юқумли касалликларда ошқозон ичак трактдан қон кетишдир. Кам ҳолларда организмга темир моддасининг кам тушиши оқибатида зага келади.

Болалик даврда анемия ривожланишининг барча вариантларини учрайди. Бироқ нормал

қон яратиш жараёнига таалуқли моддалар етишмаслиги оқибатида юзага келиш сабаблари асосий ўринларни эгаллайди.

Ўсмирлар қондаги гемоглабин миқдорини назорат қилиш туришлари мақсадга мувофиқдир, айниқса 12–18 ёшли қизлар. Оғир спорт турлари билан шуғулланувчи ўсмир йигитлар ҳам йилига 1 марта гемоглабин миқдорини текшириб туришлари керак.

Темир танқислиги камқонлигининг оғирлик даражаларига қараб уларнинг тақсимланиши қуйидагича: қондаги гемоглабин миқдори 90 г\литргача бўлганлар 9 тани, 90–110гача 147 тани, 110 – 120 г\л гача бўлганлар 44 тани ташқил этди (3-жадвал).

**Жадвал-3**

**Болаларда қондаги гемоглабин миқдори даражасига**



қараб тақсимланиши

Ёшлар	Жами текширилганлар		Қонда гемоглабин кўрсаткичи , г\л					
			90 гача		90 - 110		110 - 120	
	абс	%	абс	%	абс	%	абс	%
<b>0 - 3 ёш</b>	82	41%	6	63,2	65	44,1	11	25,6
<b>4 - 7 ёш</b>	86	43%	2	21,0	52	35,5	32	73,2
<b>7 - 14 ёш</b>	32	16%	1	15,8	30	20,4	1	1,2
<b>Жами</b>	200	100%	9	100	147	100	44	100

Жадвалдан кўришиб турибдики, агар болаларда гемоглабин миқдори 110 - 120 г\л да нормал ҳолат дейилса, унда натижалар шуни кўрсатдики 82- 89 % ҳолларда темир танқислиги ҳолати дейиш мумкин.


Болалар касалланишлари асосан бирламчи касалланишлар ҳисобига юз берганлигини инобатга олиб, биз умумий касалланишларни таҳлил қилдик.

2019-2020 йилларда 0-14 ёшли болалар орасида касалликлар камайганлиги қайд этилган, (33,8%).

Болалар касалланишлари даражасининг камайганлиги ҳам ўткир, ҳам сурункали касалликлар камайиши ҳисобтига юз берди. Болаларнинг касалланишлари камайганлиги асосан қуйидаги синф касалликлар ҳисобига юз берган: қон айланиш тизими

касалликлари (63%га), тери ва тери ости клечатки касалликлари (52%га), нафас олиш аъзолари касалликлари (44,3%га), асаб тизими касалликлари (42,7%га), қулоқ ва сўрғичсимон ўсимта касалликлари (40,7%га), юқумли касалликлар (31,5%га), эндокрин тизим касалликлар (30,3%га), туғма аномалиялар (18,1%га). Юқоридаги синф касалликлар нозологиялари орасида миопия (на 22,1%), вирусли гепатит В (на 88,1%), бронхиал астма (20,4%га) каби касалликларнинг камайганлигини кўриш мумкин.

Болаларда анемиянинг оғирлик даражасига қараб қуйидагича тақсимланган: 4,7% да оғир турдаги анемиялар, 73,8%да иккинчи даражали анемиялар, 21,5 %да енгил турдаги анемиялар қайд қилинган (2-расм.)





**Расм-2. Анемиянинг оғирлик даражаларига қараб тақсимланиши**

Болалар умумий касалланишлари структурасида (нафас олиш тизими касалликларидан ташқари) тери ва тери ости клетчатка касалликлари, суяк бўғим тизими касалликлари, сийдик ажратиш тизими касалликлари етакчилик қилди. Бир ёшгача болалар структурасида овқат ҳазм қилиш аъзолари касалликлари, туғма аномалиялар, юқумли касалликлар устунлик қилади.

0-14 ёшли болалар орасида анемия, гастрит, эндокрин тизими касалликларининг кўпайиб бориши

кузатилмоқда. Бу асосан болаларнинг овқатланиш сифатининг пастлигидан далолат беради.

**Хулоса.** Шундай қилиб, Тошкент вилояти боалари орасида темир танқислиги камқонлиги асосан иккинчи даражада ва энгил даражаларда кечиб, охирги йилларда вилоят бўйича анемияларнинг камайиш тенденцияси кузатилмоқда. Бир ёшгача болалар касалланиш кўрсаткичлари камайганлиги қайд этилиб, бирламчи ва умумий касалланишлари охирги йилларда касалланишларни ортганлигини кўриш мумкин.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Тарасова С.И. Железодефицитная анемия у детей и подростков // научная статья. Москва-2015 г.
2. Выхристюк Ю.В., Ильенко Л.И., Шалина Р.И., Сичинава Л.Г. Железодефицитная анемия у беременных: принципы лечения и профилактики. Текст научной статьи по специальности «Клиническая медицина». Рекомендации по ведению больных. Москва-2017г. С. 24-32.
3. Сайдалиева М.Н. Болаларда темир танқислиги камқонлигининг Тошкент вилояти бўйича тарқалганлиги // магис.дис.Тошкент-2015 й. 18-23 б.
4. Жалилов Ж.Ж., Ибрагимов А.Ў. Аҳолиси саломатлигига Тожикистон алюминий заводи заҳарли газларининг таъсири (Сурхондарё вилоятининг шимолий туманлари мисолида) // Тошкент тиббиёт академияси ахборотномаси. Тошкент-2021 йил. 32-35 б.
5. Jalilov J. J. Improving the prevention, care and social assistance of children with disabilities // Monograph. Tashkent-2020.
6. Jalilov J.J. The role of medical workers and scringing centers in preventing the birth of children with disabilities in the Surkhandarya region; International scientific journal; New day in medicine - 2019 у.-28-32 р.
7. Jalilov J. J. Causes and indicators of child disability in Surkhandarya region in 2017-2020 // Polish Science Journal"., Poland, 2020. P. 116-119.



## STRENGTH PROPERTIES OF ROCKS AND FACTORS INFLUENCING THEM AND THE PROCESS OF CHANGING THE PROPERTIES OF ROCKS

O'telbayev Azizbek Alisher o'g'li

Student of Nukus branch of Navoi State Mining Institute,  
azizbek.kungrad@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034442>

### ARTICLE INFO

Received: 15-december 2021

Accepted: 15-january 2022

Online: 5-february 2022

### KEY WORDS

Adsorption, solubility,  
concentration, hydrogen  
index, electrical  
conductivity.

### ABSTRACT

*Surfactants, strength of crushed ores, stresses of concentration of active substances, physicochemical processes, changes in concentration, surface tension of substances.*

One of the urgent tasks of preparing ore for enrichment is to reduce the energy consumption in crushing and grinding minerals. The simplest and most economical way to change the properties of a mineral is to physicochemically clean it with aqueous solutions of surfactants (surfactants).

Studies have shown that aqueous solutions of surfactants enhance the grinding process of ores, which reduces the strength of the liner, balls, and crushed ores. Studies have also shown that the mechanism of action of aqueous surfactant solutions on technological and physicochemical processes is adsorption at the interface of amphiphilic surfactant molecules, which leads to a decrease in surface tension, improvement and wetting of the solution.

To select the optimum concentration of surfactant and its aqueous solutions, we used changes in surface tension, refractive index, hydrogen index and electrical conductivity for surface conductors CF-8201, OP-10, Geronol V-87, the main properties of soap calcium we studied. Akilbinzolsulfonate depends on their concentration. The main properties of the solubility of surfactants in tap water:

1. The emulsifier CF-8201 is soluble in tap water at a concentration of 0.01-0.4% with strong stirring. Once completely dissolved, the solution becomes clear (actual solution).
2. Surfactant OP-10 is soluble in tap water at a concentration of 0.01-0.4%. Once completely dissolved, the color of the solution becomes clear (actual solution).




Рис. 1. Закономерность изменения характеристик ПАВ типа CF-8201 от их концентрации:  
 1 - поверхностное натяжение; 2 – показатель преломления;  
 3 - водородный показатель; 4 – электропроводность

3. Geronol V-87 is soluble in tap water at a concentration of 0.01-0.4%. After melting, the color of the solution becomes clear (realsolution).




Рис. 2. Закономерность изменения характеристик ПАВ типа ОП-10 от их концентрации:  
 1 - поверхностное натяжение; 2 – показатель преломления;  
 3 - водородный показатель





Рис. 4. Закономерность изменения характеристик ПАВ типа Собсток от их концентрации:  
 1 - поверхностное натяжение; 2 – показатель преломления;  
 3 - водородный показатель; 4 – электропроводность

4. Soap stocks with a concentration of 0.01-0.4% are soluble in tap water when rubbed with surfactants. Once completely dissolved, we have a system of suspended particles that, over time, slowly settle to the bottom (suspension). In the laboratory, we determined the laws of variation of surface tension, refractive index, hydrogen index and electrical conductivity of

surfactants CF-8201, OP-10, V-87 and Soapstock depending on their concentration. shown in the pictureure. 1-



4.



The results obtained (Picture. 1-3) show that with an increase in concentration from 0 to 0.4%, the surface tension of the studied types of surfactants decreases from 73.5 to  $30 \times 10^3$  N / m. The results show that the surface tension of the surfactants studied at a concentration of more than 0.1-0.2% decreases almost slightly.

Studies have shown that the change in surface tension of the concentrations of surfactants of the types CF-8201, OP-10 and V-87 is characterized by the dependence of the hyperbolic type.

The results obtained (Pictureure 1-4) show that with an increase in concentration from 0 to 0.4%, the refractive index, high value index and electrical conductivity of surfactants such as CF-8201, OP-10, V-permeability 87 and Soapstock decreases. The results show that the refractive index, hydrogen index and electrical conductivity of surfactants such as CF-8201, OP-10, V-87 and Soapstock at concentrations greater than 0.2% are minimal. A further increase in concentration is accompanied by an

increase in the refractive index of the hydrogen index and the electrical conductivity. The resulting pattern is characterized by parabolic results. The regularity of the change in the refractive index of surfactants of the Soapstock type to their concentration is characterized by the dependence of the linear type (Picture. 4).

**Conclusion:**

1. With an increase in concentration from 0 to 0.4%, the surface tension of surfactants decreases from 73.5 to  $30 \times 10^3$  N / m. The results obtained show that the surface tension of the surfactants studied at a concentration of more than 0.1-0.2% decreases almost slightly.

The laws of variation of surface tension of the concentration of surfactants of the types CF-8201, OP-10 and V-87 are characterized by the dependence of the hyperbolic type.

2. As the concentration increases from 0 to 0.4%, the refractive index, hydrogen index, and electrical conductivity of surfactants such as CF-8201, OP-10, V-87, and Soapstock decrease. The results show that the refractive index, hydrogen index and electrical conductivity of surfactants such as CF-8201, OP-10, V-87 and Soapstock have a minimum value at a concentration of more than 0.2%. A further increase in concentration is accompanied by a refractive index of hydrogen and an increase in electrical conductivity. The resulting pattern is characterized by parabolic results. The regularity of the refractive index of surfactants of the Soapstock type to their concentration is characterized by a linear type dependence.

**References:**






1. Brune J.N. Spectra of seismic shear waves of tectonic stresses and earthquakes // J. Geofis. Res., V. 75, 1970.-4997-5009.
2. Babello V.A., Grishin A.V., Nikiforova I.L. The problem of identification - parameters of rock strength to assess the stability of the waste rock mass // Vedomosti gorniy geodesiya № 6, - P.54-57.647.
3. B.P.Golubko Open-pit mining and geodesy: textbook / B.P. Golubko, A.A. Panjin. - Yekaterinburg: UGGU Publishing House, 2005.- 155 p.
4. Demin AM, Open pit mining and waste sustainability. M., "Nedra", 1973, - 232p.
5. Malovichko D.A., Linch R.E. Microseismic monitoring of aircraft. Mining Institute of the Ural Branch of the Russian Academy of Sciences, ISS International South Africa. 2007.
6. Muskhelishvili N.I. Some of the main problems of mathematical theory are elasticity. Basic solutions. Plane theory of elasticity. Turning and turning work / N.I. Muskselishvili. - M. : Nauka, 1966.- 417 p.
7. Panjin A.A. Monitoring of geodynamic processes in mining enterprises and cities / A.A. Panjin, N.A. Panjina // Kon -analytical bulletin. - 2007. - No.







## O'SMIRLIK DAVRINING JISMONIY VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jumaniyozova Saboxon Davron qizi

O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya sport Universiteti 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034452>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*O'smirlik, bola, psixologik, organism, davr, shaxs, ma'naviyat, xarakter, muhim, balog'at, shakllanish, qobiliyat, ota, ona, fiziologik, ziddiyat, paydo, boshlanish*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o'smirlik davrining bolada sodir bo'ladigan jismoniy, psixologik o'zgarishlari, o'smirlik davrida bolada sodir bo'ladigan his tuyg'ular va kechinmalar, organizmida sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir, bola emas, biroq katta ham emas» ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi.

O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyidi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi hislar,

sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. Shu sababli o'smirlik davri «o'tish davri», »krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi.

Bo'yga o'sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar yiliga 5-7 sm o'ssalar, o'g'il bolalar 5-10 sm o'sadilar. Bo'yiga karab o'sish pajsimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro'y beradi. Og'iz



bo'shlig'i va halqumdagi o'zgarishlar oqibatida tovush ham o'zgaradi. Bu o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'prok darajada sodir bo'ladi. O'g'il bolalarning tovushi vazminroq bo'lib qoladi, do'rillaydi. Garchi bu davrda mushaklar tez sur'at bilan o'ssa ham, mustahkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo'l suyaklarining o'sish sur'ati orqada qoladi. O'smirlarda bu xususiyat ularning beso'naqay xatti-harakatlarida, yurish-turishlaridagi qo'pollikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo'ladi.

Fiziologik o'zgarish jinsiy etilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organism tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo'ladi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organism to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi.

Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi. Ko'krak qafasi ham gavdaning bo'y o'sishiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o'smirlarning elkasi, ko'kragi tor bo'lib qoladi, bu esa o'z navbatida kislorod etishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod etishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur etadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo'g'onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon

aylanishini buzadi va o'smirda ba'zi qon bosimining ortishi ro'y beradi.

O'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba'zan etarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi, hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini xarakterga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Qarama qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdir. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi shu nuqtai nazardan o'smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang'ich sinfni tugatadi. Bolaning o'rta maktabda o'qishga o'tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. O'smirlarning yangi ijtimoiy jixatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib



topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi.

O'smirlik paytining yana bir xarakterli jihati organizmning shiddat va notekislik bilan rivojlanishidir, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak va qon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo'lib, bu ham bola fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan noma'qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular albatta asab tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, bola tezga achchiqlanadigan yoki tormozlanish yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqolmaydigan tushkunlikda qolishi ham mumkin.

O'smir jismoniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri jinsiy balog'at bo'lib, u nafaqat psixik, balki ichki organlar faoliyatini ham belgilaydi. Shu bilan bog'liq xolda ongli jinsiy mayllar, shu bilan bog'liq noxush his — kechinmalar, fikrlar paydo bo'ladiki, bola ularning asl sababini ham tushunib etolmaydi. Psixik taraqqiyotning o'ziga xosligi shundaki, u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko'plab qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi. Bu taraqqiyot o'quv jarayonida kechgani uchun ham to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati bola psixikaning muozanati va uning turli fikr o'ylardan chalg'ishiga zamin yaratadi.

Ayniqsa, diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Ayni shu davrda bola mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki bu davrda u ko'proq o'z fikr-o'ylari dunyosida mushohada qilish, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko'paytirishga intiladi. Buning sababi yana o'sha kattalikka o'tish bo'lib, bolada o'ziga xos «kattalik» hissi paydo bo'lib, bu narsa uning gapirishi va fikrlashlarida ham ifodalanadi. Shuning uchun ham maktabda berilgan mustaqillik

va to'g'ri tashkil etilgan o'qish sharoitlari, samimiylilik muhiti unda mustaqil fikrlashiga katta imkoniyatlar ochishi va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirishi mumkin.

Shunga bog'liq tarzda o'smirning o'z falsafasi, o'z siyosati, baxt va muhabbat formulasi yaratiladi. Mantiqan fikrlashga o'rganishi esa unga o'zicha aqliy operastiyalarni amalga oshirish, tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o'ziga xos *o'smirlik egostentrizmining* shakllanishiga butun olam va uning qonuniyatlari unga bo'ysunishi kerakday fikrning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham aynan o'smirlik paytida bolalar o'z ota-onalari bilan hadeb tortishaveradilar. Aniq bir to'xtamga kelolmasa ham tortishish biror firknini izxor qilish ehtiyojining o'zi unga juda yoqadi.

O'smir o'zining juda ko'p istaklari, «xohlayman»larine amalga oshirishga intiladi: katta Yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, ko'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarining faqat «kerakligi» uchun shunday bo'lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak» bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali ota onalarning talablariga qarshilik qiladi hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan hohishlari asosida ish tutadi. O'smirning



yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi.

O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo'lgan munosabat haqidagi fikrlari o'zgaradi va uning o'z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi. Kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum teng huquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi.

Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar. O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O'smir psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin

bo'ladi o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo'ladi va ular o'smirda krizisni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, Shuningdek psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi.

Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi [haqidagi mavjud](#) fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek, otanasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo'ladi. Bunday paytlarda u o'zi singari katta fiziologik, psixologik o'zgarishlar kechayotgan o'rtog'i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do'sti o'smirga ijobiy ta'sir qiladimi yoki uni yo'ldan urib, yomon ta'sir qiladimi bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog'liq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://mv-wedding.ru/uz/home-and-life/prezentaciya-vozzrastnye-osobennosti-podrostkov/>
2. <http://manzura90.zn.uz/psixologiya/yosh-davrlari-psixologiyasi/>
3. <https://hozir.org/umumiy-psixologiya-v3.html?page=9>
4. <http://marifatyogdusi.uz/?p=1849>
5. <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13798-o-smirlik-davrining-psixologik-xususiyatlari>



6. <https://fayllar.org/osmirlik-davri-psixologiyasi.html>
7. <https://arxiv.uz/uz/user/subscriptions>





**ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОГО ТЕЧЕНИЯ  
СЕЗОННОГО АЛЛЕРГИЧЕСКОГО РИНИТА У ДЕТЕЙ В  
РЕГИОНАХ С НЕБЛАГОПРИЯТНЫМИ ПРИРОДНО-  
КЛИМАТИЧЕСКИМИ УСЛОВИЯМИ**

**Назарова Хилола Отабек қизи**

Ташкентская медицинская академия Ургенчского филиала

E-mail: [nazarovahilolahon7@gmail.com](mailto:nazarovahilolahon7@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034469>



**ИСТОРИЯ СТАТЬИ**

Принято: 15-декабрь 2021

Утверждено: 15-январь 2022

Опубликовано: 5-февраль 2022

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

*Заболееваемость сезонной  
АР*

*«BUONCHOFIBERSCOPE*

*XZ-3»*

**АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматриваются вопросы о большой частоте круглогодичного аллергического ринита у детей молодого возраста. Делается акцент на то, что клинические признаки как недомогание, возбуждение, головная боль, нарушение сна, потливость, которые указывают на общую интоксикацию организма, свидетельствуют о наличии персистирующей формы САР.*

Многочисленные исследования показывают, что аллергический ринит (АР) у детей остается с высокой частотой, клинической тяжестью, а также осложнениями и неблагоприятными последствиями (1,5). Заболееваемость сезонным аллергическим ринитом у детей младшего возраста напрямую связана с влиянием климатических и географических особенностей региона (2,5).

Признано, что началом сезонных клинических проявлений АР является наличие аллергенов в течение 2-3 сезонов. Заболееваемость сезонной АР чаще встречается среди городских жителей, чем среди сельских жителей. Большинство людей, страдающих сезонным АР, являются преимущественно городскими жителями. Уровень

распространенности АР варьирует в зависимости от возраста и пола. У детей АР чаще встречается у мальчиков.

Известно, что клиническое течение аллергических заболеваний зависит от множества факторов. Клиническое течение АР, наряду с различными влияющими факторами, зависит от индивидуальных воздействий организма, возраста, пола и этнической принадлежности. Аспекты клинических проявлений АР в литературе не были адекватно освещены, учитывая сложность заболевания.

**Целью исследования** являлся анализ клинического течения сезонного аллергического ринита у детей.



46 детей в возрасте от 5 до 12 лет были обследованы на наличие сезонного аллергического ринита в Областном детском многопрофильном медицинском центре. Было 29 мальчиков и 17 девочки, которым во время ремиссии были диагностированы сопутствующие заболевания. Клиническая оценка проводилась на основе объективного воздействия, истории развития заболевания и анализа жалоб при различных уровнях сезонного аллергического ринита (САР).

В этом исследовании использовались две классификации с использованием классификации МКВ-10 и рабочей группы ARIA Всемирной организации здравоохранения.

Для подробного анализа клинических данных больным детям и их родителям была проведена специальная анкета.

Клиническое исследование внешнего вида кожи, слизистая оболочка, устройство базового движение, нервная система, внутренние органы, а также для оценки состояния органов ЛОР отоскопов, риноскопия, фарингоскопия, ларингоскопия. Риноскопия и исследование носоглотка проводились с использованием обычного метода и фиброэндоскопии

«BUONCHOFIBERSCOPE XZ-3». Были проведены клинические и лабораторные исследования, включая общий анализ крови и мочи, аллергическое тестирование и оценку клеточного содержимого секретора носа. Рентгенологическое исследование полости носа и носа проводилось в соответствии с показание.

Во всех наблюдениях он находился в вибрирующем состоянии: период ремиссии (облегчение заболевания) и период обострения были зафиксированы на фоне клинических проявлений заболевания. Заболеваемость сезонным аллергическим ринитом составляет 32 (40%) весной, 27 (33,8%) осенью, 14 (17,5%) летом и зимой 7(8,8%). Эта разница может объясняться повышенной специфичностью чувствительности организма к клеткам и тканям, а также повышенным воздействием высоких аллергических доз в указанное время года. У ряда пациентов основной группы было зарегистрировано 2 и более вспышек в течение года, тогда как в группе сравнения отмечалась самая высокая частота множественных рецидивов в течение года.

В таблице 1 представлены показатели сезонного аллергического ринита.


Таблица 1

Оценка исходных значений для пациентов с сезонным аллергическим ринитом.

Критерии	Количество пациентов n = 59
Количество вспышек в течение года	1,9 ± 0,08

Количество вспышек, требующих медикаментозного лечения	1,9 ± 0,07
Средняя продолжительность заболеваемости, в днях	34,2 ± 1,2

САР утаивания их сложностей, принимая во внимание сравнительной группы пациентов следующих группы: легкий форма-



Средняя тяжелая 74,4% тяжелая 33,8% легкая 20,3%

Клинические симптомы САР условно делятся на 3 группы.

Первая группа состоит из следующих основных симптомов заболевания:

- 51 (86,6%) случаев с частыми спонтанными приступами, частыми жалобами;

- 47 (79,6%) случаях заложенности носа;

49 (83,1%) пациентов испытывали запаха при увеличении гипосмии;

- 43 (75,4%) пациентов был установлен зуд и зуд в носу;

-39 (66,1%) пациентов жаловались на диссоциацию носа.

Только у 4 (7,0%) пациентов было 2 симптома у 16 (28,1%), и у 38 (66,6%) было 3 или более из указанных клинических признаков САР.

Таблица 2 показывает проявление признаков болезни у пациентов группы сравнения.

Таблица 2

Основные клинические признаки САР

Признаки	Серьезность САР		
	Легкий n=12	Умеренно тяжелый n=27	Тяжелая n=20
Приступный чих	9(81,8%)	24(88,8%)	18(94,7%)
Заложенность носа	9(81,8%)	22(81,4%)	16(80,1%)
Дисфункция обоняния	7(58,3%)	25(92,6%)	17(85,1%)

Зуд в носу	5(45,5%)	21(77,8%)	17(89,5%)
Выделения из носа	3(27,3 %)	20(74,1%)	16(80,1%)

Следующие дополнительные клинические признаки группы 2 включают в себя:

- у 52 пациентов были обнаружены воспаление, отек, покраснение на стенке носа и верхней губе;

- 48-зуд, раздражение, возрастные колебания, свидетельствующие о воспалении соединительной ткани;

- 42 случая боли в горле и кашля, свидетельствующие о наличии фарингита при чуме;

- у 43 пациентов были обнаружены поперечные складки на

коже носовой стенки, и у 2 из них 1 был аллергический салют;

- у 4 пациентов (с носовым стулом, вызванным постоянным носовым дыханием в носовых венах), имеется основная диарея;

- 12 случаев кровотечения из-за ускорения носа;

- у 14 пациентов глотание, являющееся симптомом аллергической эритемы, определяется как боль в ушах и шум, потеря слуха;

Частота идентификации этих 2 групп показана в таблице 3.

Таблица 3

Дополнительные клинические признаки сезонного аллергического ринита.

Признаки	Сложность прогрессирования заболевания		
	Легкие n = 12	Средние тяжелый n = 27	Тяжелая n = 20
Воспаление, наблюдение за стенкой носа и верхней губы (52 человека)	6(54,5%)	25(92,6%)	18(94,7%)
Зуд и раздражение глаза (48человека)	4(33,3 %)	26(96,3%)	18(90,1%)
Поперечные изгибы кожи стенки носа 43	3(27,3%)	24(88,9%)	16(84,2%)
Симптом "Аллергический салют" 21	2(16,6 %)	11(40,7%)	8(47,4%)
Потемнение циркулярных мышц вокруг глаза 4	-	1(1,8%)	3(15,8%)
Боль в ушах и шум 14	1(9,1%)	6(22,2%)	7(36,8%)

Это распространенный неспецифический симптом третьей группы, который присутствует при сезонном аллергическом рините;

- 51(89,5%) пациент испытывает слабость, тошноту, воспаление;

- у 43(72,9%) пациентов обнаружены головные боли, повышенная утомляемость, нарушения концентрации внимания;

- у 24(42,1%) пациентов отмечалось потоотделение;



- 23(40,4%) пациентов сообщили о нарушениях сна и храпа.

Таблица 4 показывает частоту выявления 3 групп симптомов.

Таблица 4

Сезонный аллергический ринит в общих неспецифических клинических признаках среды

Признаки	Переходный вес сезонного АР		
	Легкие n=12	Умеренно тяжелый n=27	Тяжелая n=20
Бессонница, болезнь, воспаление	8(72,7%)	26(96,3%)	17(89,5%)
Головная боль, повышенная утомляемость, нарушение концентрации внимания 45	3(27,4%)	24(88,8%)	16(80,1%)
Нарушения сна, плохое настроение 23	2(18,2%)	10(37,0%)	11(57,9%)
Потоотделение 24	-	9(33,3%)	15(78,9%)

Симптомы первой группы менее выражены при легких формах заболевания, чем от умеренных до тяжелых. У пациентов группы сравнения все симптомы в 3 группах были менее частыми, чем в основной группе. Симптомы третьей группы пациентов с небольшим опрокидыванием САР показывают, что все клинические симптомы, зарегистрированные у пациентов основной группы, являются относительно полными, с высококачественным, полностью развитым САР. Подобно прерывистой форме САР, сохранение

клинических признаков для первых 2 групп повторялось таким же образом. Генерализованные неспецифические симптомы, указывающие на токсикоз, возбуждение головные боли, нарушения сна, потоотделение и потоотделение, часто встречаются у людей с персистирующими формами САР. САР растет больше в весеннем и осень с тяжестью сезона, в то время как группа 3, чтобы показать признаки прямых, косвенных и определили, что предмет качества их доказательств.

При лечении АР и диагностики планирует принимать во внимание все вышеперечисленное.

#### Использованная литература:

1. Назаров А.А. Клинические рекомендации по диагностике и лечению аллергических заболеваний. Ташкент- 2010 С. 84-103
2. Арифов.С.С.,Алиева.В.Ш. Анализ результатов лечения больных сезонной формой аллергического ринита // Российская отоларингология. – Санкт-Петербург, 2009. – № 3. – С. 9-13.
3. Алиева В.Ш., Арифов С.С., Анализ результатов обследования и лечения больных аллергическим ринитом (первое сообщение) //Журнал теоретический и клинической медицины. – Ташкент, 2009. – № 2. – С. 3.








4. Хасанов. С.А., Мухамеджанов У.Х. Клинико-эпидемиологическая характеристика аллергического ринита у детей школьного возраста. //Стоматология, Ташкент, 2005. №1-2 с.96.

5. Kantarci O.H., Hebrink D.D., Schaefer-Klein J., Sun Y., Achenbach S., Atkinson E.J., Heggarty S., Coteleur A.C., de Andrade M., Vandebroek K. Interferon gamma allelic variants: sex-biased multiple sclerosis susceptibility and gene expression //Arch Neurol. -2008.-V.65.- P.349-357.





**TA'LIM TIZIMNI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI  
OSHIRISH TIZIMINI ZAMONAVIY TA'LIM STANDARTLARI  
TALABLARIDAN KELIB CHIQQAN HOLDA YANADA  
TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI**

**Raimjonov Boburjon Mo'minjon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali  
3-kurs B potok 1-guruh talabasi, boburjonraimjonov97@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034477>

**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021  
Ma'qullandi: 15-yanvar 2022  
Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

*ta'lim tizimi, rivojlangan davlatlar, malaka oshirish, pedagog kadr, tadqiqotchi olimlar.*

**ANNOTATSIYA**

*O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, shuningdek, ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan fikr va mulohazalar bayon etilgan.*

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda dunyo mamlakatlari ham iqtisodiy ham ijtimoiy jihatdan har tomonlama rivojlanib bormoqda bu esa o'z navbatida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli darajada ta'sir qilmoqda. Biz [www.edsys.in](http://www.edsys.in) saytining 2019-yildagi ma'lumotlariga e'tabor qaratadigan bo'lsak, hozirda dunyoda ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar qatorida birinchi beshtalikda, Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Daniya, Rossiya kabi bir qancha rivojlangan davlatlar o'rin egallab turibdi[1]. Ushbu mamlakatlarni dunyo miqiyosida rivojlangan davlatlar sifatida e'tirof etilishining asosiy sabablaridan biri ularda ilm-fanning rivojlanishi natijasida zamonaviy texnologiyalarni yaratish, foydalanish va ularni ijtimoiy hayotga tatbiq etish borasida ulkan muvoffaqiyatlarga erishilb kelinayotganligidir.

Tadqiqotchi olimlar tomonidan yuqorida nomlari qayd etilgan mamlakatlarni taraqqiyot yo'llarini

o'rganish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarga ko'ra, ushbu malakatlarning yuqori darajada taraqqiy etishlariga asosiy sabablardan biri sifatida ushbu mamlakatlarning ta'lim tizimi boshqa davlatlarnikidan bir muncha farq qilishida ekanligi e'tirof etilgan. Shuningdek, AQShlik tadqiqotchi Liliana Lehorn ham rivojlangan davlatlardagi ta'limning yutuqlaridan biri oddiy predmetni o'qitish bilan cheklanib qolmaslikda, deb hisoblaydi[2].

O'zbekiston ham hozirgi kunda yosh rivojlanayotgan mamlakatlar sifatida alohida o'z o'ringa egaligi e'tirof etilmoqda. Biz har qanday malakatning taraqqiy etishida birinchi navbatda ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. O'zbekistonlik tadqiqotchi olim O.T.Husanovning fikricha, «Bilim insonni yuksak darajaga ko'taribgina qolmasdan, u yashayotgan mamlakatni ham yuksaltiradi. Jahon tajribasi ham faqat bilim orqaligini



ko'plab muammolarni hal qilish mumkinligini ko'rsatadi. Bilimli kishilarning qobiliyati va yutuqlari bilan ko'p mamlakatlar rivojlanmoqda. Shuning uchun har bir uzoqni ko'zlovchi mamlakat o'z fuqarolarining bilimli bo'lishidan manfaatdor va shu yo'lda harakat qiladi» [3]. Biz uning fikrlariga mutloq qo'shilamiz. Chunki har bir mamlakat o'z oldiga fuqarolarining tinch, erkin va farovon hayot kechirishlarini ta'minlash va dunyo siyosatida yetakchi bo'lish maqsadini qo'yadi va bu maqsadga erishish uchun albatta yuqori malakali kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega va buning uchun ta'lim tizimiga hamda kadrlar malakasini muntazam oshirib boorishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi zero, ta'limga e'tibor – bu kelajakka bo'lgan e'tibor hisoblanadi.

Biz shuni aytishimiz mumkinki, barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi bizning ta'lim tizimimizda hali ham ba'zi oqsayotgan tomonlarimiz mavjud. Bunga yaqqol misol, bu pedogog kadrlar malaka oshirish tizimining hozirgi zamon talablariga javob bermay qolganligidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi "Pedogog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 25-son qarorining 7.2 bandida "Malaka oshirishning bilvosita shakllarining davriyligi va qancha davom etishi ta'lim muassasasi tomonidan ta'limning tegishli turini boshqarishga davlat vakolatli organi bilan kelishgan holda, lekin har uch yilda kamida bir marta belgilanadi"[4] deb qayd etilgan. Bizningcha bu holatda pedogog kadrlarning malakasini muntazam ravishda oshirib borish tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki hozir

dunyo shiddat bilan rivojlanib bormoqda va har kuni turli sohalarda yangiliklar, ilmiy ishlar qilinmoqda.

Hozirgi davirda ta'lim tizimimizda va pedogog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ba'zi rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini o'rganib ulardan eng ma'qul bo'lganlarini o'z ta'lim tizimimizga joriy qilsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz yuqorida keltirib o'tilgan muammoni ta'lim tizimimiz oldidagi to'siqlardan biri deb hisoblaymiz va ta'lim tizimimizda pedogog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ta'kliflarni bildirib o'tamiz:

1. Pedagog kadrlarni malaka oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqish va malaka oshirish markazlarining faoliyatini hozirgi zamon talablariga moslab, ularni tubdan isloh qilish chora tadbirlarini ko'rish.

2. Malaka oshirish markazlarini xususiylashtirish, ya'ni ularni xususiy sektorlarga o'tkazish orqali o'ziga hos raqobatchilik muhitini yaratish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.

3. Kelgusida barcha sohalarda xususiy zamonaviy kadrlar malakasini oshirish markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish.

4. Muntazam ravishda o'z malakasini oshirib boradigan pedagog kadrlarni maoshlarini yanada oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni[5] qabul qilindi, unda yangi milliy o'quv dasturlarini ishlab chiqishda xorijlik ekspertlar jumladan, Finlandiyalik malakali mutaxassislarini jalb qilish nazarda tutilgan.



Biz ham ushbu muammoni hal qilishda hozirda eng yaxshi ta'lim tizimiga ega mamlakat sifatida e'tirof etilayotgan Finlandiya tajribasini o'rganib, uni o'z ta'lim tizimimizda tadbqiq etishni taklif qilamiz. Unga ko'ra, ta'lim muassasalarida o'quvchilarga hozirgi davrda barcha uchun kerak bo'ladigan zamonaviy bilimlar berib boriladi, ya'ni o'quvchilar maktab imtihonlariga emas balki hayotga tayyorlanishadi zero, yaxshi ta'lim nafaqat o'qishni, balki o'qishga arziydigan narsani ham o'rgatishi kerak. Masalan, mazkur maktablarda o'quvchilarga zamonaviy gadjetlar, viza kartalaridan qanday foydalanish, web saytlar yaratish, shartnomalar tuzish, ijtimoiy hayotda kerak bo'ladigan boshqa narsalar (buyum va jihozlarni ta'mirlash, tikish, ovqat pishirish)ni tayyorlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar berib boriladi zero, Valter Isaacson ta'kidlaganidek „ Jamiyatning raqobatbardosh ustunligi ko'paytirish va davriy jadvallarni ularning maktablarida qanchalik yaxshi o'rgatilganligidan emas, balki ular tasavvur va ijodkorlikni qanday rag'batlantirishni bilganligidan kelib chiqadi.

Mazkur mamlakatda o'qituvchilar salohiyatining yuqoriligi ham ta'lim muassasalari muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu mamlakatda har bir fan o'qituvchisi o'zi o'qitadigan fanni chuqur biladi va uni mukamallashtirish uchun muntazam ravishda o'z malakasini oshirib boradi. Finlandiyada pedagog kadrlar o'z malakalarini oshirishlari uchun haftasiga ikki soat vaqt sarflashadi va bu orqali o'zlarining bilim va ko'nikmalarini davr talabiga muntazam ravishda moslashtirib borishadi. Bizningcha bu malaka oshirishning eng qulay va zamonaviy usuli. Chunki, haftada ikki soat o'qituvchilarning

malakalarini oshirishlari uchun mutaxassislar tomonidan hozirgi kunda ta'lim tizimidagi mavjud muammolar va ularni zamon talablariga moslash bo'yicha davra suhbatlari, ilmiy anjumanlar, ochiq darslar va turli sohalar bo'yicha respublikka va xalqaro miqiyosida konferensiyalar tashkil etilishi yuqorida ta'kidlab o'tilganidek pedogog kadrlarning muntazam ravishda o'z bilim va ko'nikmalarining zamon talablariga mos ravishda shakllantirib borishlariga xizmat qiladi.

Ye.G. Markinaning qayd etishicha, "Ta'lim bugungi kunda tabiiy zahira, texnika va ishchi kuchiga qaraganda ancha muhim manba bo'lib xizmat qiladi, zero ta'lim natijalarini birgalikda belgilaydigan ishtirokchilar sonining ko'pligi sababli, ta'lim bozorlari xizmatlar yoki tovarlar bozorlariga qaraganda ancha murakkab jarayonni tashkil etadi"[6]. Agar biz ham ta'lim tizimimizga ushbu qoidani joriy qiladigan bo'lsak, bu birinchidan, ta'lim muassasalaridan pedagog kadrlarni dars mashg'ulotlarini to'xtatmagan holda malaka oshirishlariga imkon beradi. Chunki "Pedogog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 25-son qarorining 7.2 bandida Pedagog kadrlar malakasi oshirish to'g'ridan to'g'ri shakllarining umumiy davom etish muddati asosiy ishdan ajralgan holda o'qitishda kamida 4 hafta (144 soat) etib belgilanadi" deb qayd etilgan. Agar pedogog kadrlar dars mashg'ulotlarini o'tayotgan davrda malaka oshirish paytiga to'g'ri kelib qoladigan bo'lsa, bu o'quvchilarning, ma'lum muddat dars jarayonidan uzoqlashib ketishlariga va ushbu darsga nisbatan qiziqishlarining so'nishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hozirda barcha ta'lim muassasalarida ham



mutaxassis kadrlarning yetishmasligi hech kimga sir emas; ikkinchidan, agar “Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to`g`risida”gi 25-son qarorining 7.2 bandida ko`rsatib o`tilganidek, pedagog kadrlar uch yilda 4 hafta(144 soat) malaka oshirishning o`rniga haftasiga 4 soat yiliga esa (ta`til davridan tashqari) 176 soat o`z malakalarini oshiradigan bo`lishsa, pedagog kadrlar 3 yilda 528 soat malaka oshirgan hisoblanadilar bu usul esa ozozdan o`rganib zamon talablariga mos ravishda ko`poroq bilim va ko`nikmaga ega bo`lishga va zamon bilan hamnafas ravishda muntazam malaka oshirib borishga imkoniyat yaratadi.

Bizningcha yuqorida bildirib o`tilgan takliflar orqali pedagog kadrlar ham dars jarayonlaridan uzulmagan holda malaka oshiradilar ham muntazam ravishda o`z mutaxassisliklari bo`yicha eng so`ngi bilim va ko`nikmalarga ega bo`lib boradilar bu esa o`z navbatida ta`lim tizimining muntazam ravishda davr talablariga mos ravishda takomillashtirilib borilishiga asos bo`ladi.

Biz bu orqali faqat ajodlarimiz bilan faxrlanib yurmasdan biz ham ularga munosib avlod bo`lishimizga va Prezidentimiz ta`kidlaganidek yurtimizda haqiqiy uchinchi renesansning qaytadan vujudga kelishiga imkoniyat yaratgan bo`lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – B. 178. (Husanov A.T. Constitutional law. The textbook. - Tashkent: Justice, 2013. – page 178);
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi „Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to`g`risida”gi 25-son qarori;
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda “O`zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta`lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to`g`risida”gi farmoni;
4. Маркина Е.Г. Система социальной поддержки студентов как компонент корпоративной культуры вуза /Общественные науки. Социология, № 4, 2007 (Markina E. G. The system of social support of students as a component of the corporate culture of the university /Social Sciences. Sociology, No. 4, 2007) // <https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-sotsialnoypodderzhki-studentov-kak-komponent-korporativnoy-kultury-vuza/viewer>;
5. <https://www.edsys.in/best-education-system-in-the-world>;
6. <https://www.borgenmagazine.com/education-in-developing-countries>.






**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИДА ПЕДАГОГ-ТАРБИЯЧИЛАРНИ МЕТОДИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС АСПЕКТЛАРИ**

**Узоқов Мухриддин Фахриддин ўғли**

Қарши давлат университети педагогика институти  
Ўзбекистон республикаси Қашқадарё вилояти китоб тумани

Педагогика Мактабгача таълим

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034491>



**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

мактабгача, таълим, ташкилот, педагог-тарбиячи, методика, қўллаб-қувватлаш, фаолият.

**ANNOTATSIYA**

*Мақолада методик таъминот ғоясининг моҳияти, уни ташкил этиш тамойилларини ажратиб кўрсатиш, ушбу жараённинг асосий босқичларини аниқлашдан иборатлиги, методик қўллаб-қувватлаш асосий метод сифатида - аниқланганлигини ижтимоий, педагогик, валеологик ва психологикнинг асосий услублари маъқуллаш, мустаҳкамлаш, тинглаш, маслаҳат бериш, рағбатлантириш каби суҳбат методларини ўз ичига олишлиги ҳақида фикр юритилади.*

Мактабгача таълим ташкилоти (МТТ) таркибий қисмларини ташкил этувчилар- методик фаолият субъектлари педагог-тарбиячилар яъни, таълим-тарбия жараёнида фаолият юритувчи турли мутахассислар: дефектологлар, педагоглар, психологлар, қўшимча таълим ўқитувчилари, методистлар, директор ўринбосарлари бўлиши мумкин. Мактабгача таълим ташкилоти амал қилаётган “Илк қадам” давлат дастурига мувофиқ, методик ишнинг субъектлари ҳам ота-оналар жамоаси, ижтимоий муҳит ҳам бўлиши мумкин.

Назарий тадқиқотларни таҳлиллар асосида методик фаолият ўзаро боғлиқ таркибий қисмлардан: мақсад ва уни амалга ошириш усуллари, йўллари, ташкил этиш тамойиллари ҳамда фаолият субъектларидан иборат эканлиги белгиланди. Шу билан бирга, мактабгача таълим ташкилоти шароитида методик фаолиятнинг ўзига хос хусусиятларини аниқлаш, уни

ташкил қилишда турли хил ёндашувлардан фойдаланиш ва унинг мазмунини очиб бериш ҳам алоҳида илмий-методик ёндашувларни талаб этади. Тадқиқотчилар фикрига кўра, МТТда методик фаолият турли аспектларда кўриб чиқилиши мумкин. Методик фаолият - илмий-назарий даражани, касбий маҳорат ва услубий тайёргарликни оширишга қаратилган мақсадга мувофиқ, тизимли, индивидуал ва жамоавий фаолиятдир. Методик фаолиятни мураккаб ва ижодий жараён бўлиб, унда педагог-тарбиячиларга мактабгача ёшдаги болалар билан ишлаш методлари ва йўллари ўргатилади.

Методик фаолият - педагоглар малакасини оширишга, шунингдек, педагоглар таркибининг ижодий салоҳиятини оширишга қаратилган тадбирлар тизимидир. Методистнинг қуйидаги: мақсад ва тартиб функциялари ажратиб кўрсатилган функциялар. Мақсад



функциялари мактабгача таълим муассасасида методик ишларни ташкил этишга қаратилган. Тартиб функциялари - назорат қилиш, ташкил этиш, мувофиқлаштириш ва етакчилик каби мақсад функцияларини амалга оширишга ёрдам беради.

Замонавий шароитда методист учун қобилият, эҳтиёж ва қизиқишларини инobatга олган ҳолда педагогга ҳамроҳлик қилишнинг индивидуал йў харитасини ташкил этиш, унинг касбий малакасини оширишга ёрдам бериш жуда муҳимдир. Ҳозирги босқичда методик фаолиятининг мазмунини аниқлашнинг яна бир ёндашуви мавжуд – компетентликка асосланган ёндашувдир. Ушбу ёндашув шахсга йўналтирилган бўлиб, педагогга аниқ ёрдам кўрсатишга, педагогик кўмак беришга қаратилган. “Ҳамроҳлик қилиш” атамаси ўтган асрнинг тўқсонинчи йиллари охирида педагогикага кириб келди. Изоҳли луғатларда, кимдир билан бирга ҳамроҳ ёки йўлбошчи сифатида ёнма-ён юриши деб изоҳланади. Ҳамроҳлик қилиш - объектга янги билимларни, қийин ҳаётий вазиятларда муаммоларни ҳал қилишга ҳисса қўшадиган тажриба олишга имкон берадиган педагогик технологиядир. Ҳамроҳлик қилиш, маълум бир таълим маконида мактабгача ёшдаги болаларни муваффақиятли ўргатиш ва ривожлантириш учун шароит яратадиган мутахассисларнинг биргаликдаги фаолиятидир. Ушбу таърифларга кўра, ўқитиш фаолиятини қўллаб-қувватлаш қуйидагича кўриб чиқилиши мумкин:

- қийин ҳаётий вазиятларда қарор қабул қилишда субъектга индивидуал ёрдам,

- ҳамроҳлик қилаётган ва унга ҳамроҳ бўлганларнинг ўзаро таъсирининг мураккаб жараёни, натижада қарор ёки ҳаракат пайдо бўлиб, у ҳамроҳнинг ривожланишига олиб келади. Қўллаб-қувватлаш атамаси фақат инсон ўзи учун муҳим ва долзарб муаммоларни ҳал қилишда қўллаб-қувватланадиган ҳолатларда қўлланилиши керак. Бунда, ҳамроҳлик қилиш фақат ҳамроҳлик қилаётган ва ҳамроҳлик қилинаётганларнинг ўзаро таъсири билан ташкил этилади.

Ҳозирги босқичда ҳамроҳлик қилиш ёки қўллаб-қувватлашнинг қуйидаги турлари кўзга ташланади:

- мазмун жиҳатидан қўллаб-қувватлашни ижтимоий-педагогик, психологик ва илмий-методик турлар;

- иштирокчилар сонига кўра қўллаб-қувватлаш индивидуал йўналтирилган ва тизимга йўналтирилган бўлиши мумкин.

Мазкур турларга тўхталиб ўтадиган бўлсак, турли хил таълим ташкилотларида болаларни психологик қўллаб-қувватлаш энг асосийси ҳисобланади. Психологик қўллаб-қувватлашнинг вазифаси - шахсни ҳар томонлама ривожлантириш, боланинг индивидуал қобилиятларини ривожлантириш ва боланинг таълим олиш ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун психологик-педагогик шароитларни яратишдир. Психологик қўллаб-қувватлашда ўзаро боғлиқ учта компонент мавжуд:

1. Боланинг муваффақиятли ривожланиши учун зарур ижтимоий ва психологик шароитларни яратиш.



2. Таълим-тарбия жараёнида боланинг психологик-педагогик ҳолатини доимий назорат қилиш.

3. Боланинг ривожланишидаги психологик муаммоларини тузатиш учун махсус ижтимоий-психологик шароитларни яратиш.

Ёрдам доирасидаги психолог фаолиятининг мазмуни қуйидаги йўналишларни ўз ичига олади:

1. Ота-онасининг розилиги билан болани психологик-педагогик текшириш:

- боланинг ақлий ривожланиш динамикасини кузатиш;

- индивидуал муаммоларни ҳал қилишга ёрдам берадиган бола билан гуруҳ ва индивидуал психологик машғулотлар;

- ўқитувчилар ва ота-оналарнинг психологик машғулотларда иштирок этиши.

2. Психологик экспертиза маълумотлари асосида психик тузатиш ва психопрофилактик ишларни психик функцияларни ривожланишида нуқсонлари бўлган, шахслараро муносабатларда қийинчиликларга дуч келган ва ҳиссий жиҳатдан заиф болалар билан олиб бориш режаси тузилади.

3. Ўқитувчилар билан ишлашни амалга ошириш:

- ўқитувчиларга болаларнинг психологик ривожланиши тўғрисида маслаҳат бериш ва маълумот бериш;

- ўқитувчилар учун психологик тадқиқотлар мавзуси ва мақсадларига мувофиқ маърузалар, амалий машғулотлар, тренинглар, семинарлар ўтказиш.

4. Психологик-тиббий-педагогик кенгаш ишини ташкил этиш ўқув жараёни иштирокчиларининг

ҳамкорлик ва шахсий жавобгарлигига қаратилган; болани ўқитиш, ўргатиш ва ривожлантиришда катталарга ҳамроҳлик қилишда касбий билимлардан фойдаланиш; индивидуал ва гуруҳли маслаҳатларни амалга ошириш; турли мутахассисларнинг биргаликдаги фаолияти.

Демак, психологик ёрдам психологнинг касбий фаолияти сифатида қаралади, у қулай ижтимоий ва психологик шароитларни яратишда боланинг муваффақиятли психологик ривожланишига ҳисса қўшади. Ҳозирги вақтда болаларни ижтимоий-педагогик қўллаб-қувватлашга тобора кўпроқ эътибор берилмоқда, масалан, кўп фарзандли оиладаги ўспиринлар, ота-она қарамоғисиз қолган болалар. Ижтимоий-педагогик қўллаб-қувватлаш ҳамроҳликинсон учун қулай шарт-шароитларни яратишга, зарур психологик ва педагогик ёрдамни кўрсатишга, мустақил ҳаётга энг муваффақиятли тайёргарликни амалга оширишга ёрдам беради.

Шу билан бирга, педагогнинг ҳамроҳлиги таълим муаммоларини ҳал қилиш учун зарур бўлган махсус, уюшган ёрдам сифатида тушунилади. Педагог ҳамроҳлигида қуйидаги усуллардан фойдаланилади: индивидуал консультациялар, семинарлар, ўқув-услубий ишланмаларни лойиҳалаш, текшириш ва таҳлил қилиш, бошқа педагогларнинг машғулотларида иштирок этиш.

Педагогларнинг қўллаб қувватлашни шахсга ва тизимга йўналтирилган деб қараш мумкин. Шахсга йўналтирилган қўллаб-қувватлаш маълум бир педагогнинг



муайян соҳадаги қийинчиликларини ҳал қилишга ёрдам беради.

Тизимга йўналтирилган қўллаб-қувватлаш - педагог-новаторлар, ҳудуд таълим бўлимларининг етакчи мутахассислари, ҳудуд методик хизматлари методистлари томонидан ташкил этилади. Бундай ҳолда, таъсир индивидуал равишда эмас, балки бир нечта таълим ташкилотлари педагогларининг жамоавий иши жараёнида амалга оширилади. Энг муҳими, ҳар бир педагогга табақалаштирилган ёндашувни тарғиб қилувчи шахсга йўналтирилган қўллаб-қувватлашдир. Педагогларнинг тўсиқларни бартараф этишлари - мутахассиснинг билим даражаси, педагогнинг касбий компетенцияси, МТТ дастури ва методик таъминотига боғлиқ.

Шу билан бирга, тизимга йўналтирилган қўллаб-қувватлаш, жараёни амалга оширадиган мутахассисларни тайёрлашга ёрдам беради, чунки уларнинг қўллаб-қувватлаш тажрибаси бойитилиб, ўзаро таъсир ўтказиш учун энг долзарб усул ва йўлларни танлашга имкон беради.

Таҳларга кўра, қўллаб-қувватлашнинг қуйидаги турлари ажратиб кўрсатилган:

-болалар, педагоглар-тарбиячи ва ота-оналарга руҳий ёрдам кўрсатишга йўналтирилган психологик қўллаб-қувватлаш;

- баъзи болаларга ёрдам ва кўмак кўрсатишга имкон берувчи ижтимоий-педагогик қўллаб-қувватлаш;

- ўқув жараёни субъектларига ўқув фаолияти шароитларида ёрдам ва кўмакни амалга оширувчи илмий-методик қўллаб қувватлаш;

- инсонга табақалаштирилган ёрдам кўрсатишга йўналтирилган индивидуал қўллаб-қувватлаш;

- айнан битта соҳада қийинчиликка учраган инсонлар гуруҳига ёрдам кўрсатишга йўналтирилган тизимли қўллаб-қувватлаш.

Юқоридаги барча хулосалар асосида педагог-тарбиячини методик қўллаб-қувватлаш ғоясини илгари суриш мумкин. Педагог-тарбиячини методик қўллаб-қувватлаш - педагогга унинг билим, кўникма ва малакаларини ҳисобга олган ҳолда педагогик фаолиятда ёрдам бериш, қўллаб-қувватлаш учун методист томонидан тарбиячига доимий, индивидуал таъсир кўрсатишга қаратилган фаолият. Шу билан бирга, педагогнинг ёрдами ва кўмаги методистнинг касбий билимларини такомиллаштиришга ёрдам беради, бу унинг касбий ривожланишига таъсир қилади.

Методик таъминотни ташкил этиш қуйидаги принципларга риоя қилинган тақдирдагина амалга ошиши мумкин: - шахслараро муносабатларнинг очиқлиги принципи, унда энг муҳим омиллар – қўллаб-қувватлаётганлар ва улар ўртасидаги муносабатларда самимийлик;

- инсонпарварликда педагогик кадриятларнинг устуворлиги принципи - инсон ва унинг ҳаёти;

- субъектив ўзаро таъсирни фаоллаштириш принципи, яъни услубий ёрдамга эҳтиёж;

- педагогнинг ўзини ўзи англаш соҳасини кенгайтириш принципи, яъни педагогнинг пайдо бўлган педагогик муаммони ҳал қилиш учун зарур бўлган имкониятларини англаши;



- касбий муаммоларни ҳал қилишда педагогнинг доимий ёрдами ва кўмагига қаратилган қўллаб-қувватлашнинг узлуксизлик принципи;

- ҳамроҳлик қилаётган шахснинг муаммоларини ўқитувчи учун энг катта фойда билан ҳал қилишига имкон берадиган, ҳамроҳ инсон манфаатларининг устуворлиги принципи;

- индивидуал педагогик фаолият маршрутини амалга ошириш принципи;

- педагогнинг эркинлигини оширишга қаратилган бўлса, унга ҳамроҳ бўлган инсоннинг таъсири тавсиявий характерга эга.

Методик таъминотни ташкил этишнинг қуйидаги босқичларини белгилаш мумкин:

1. Таҳлилий-ташҳислаш босқичи: педагогнинг муаммони англаши ва уни ҳал қилишда ёрдам олишга интилиши; муаммонинг сабабларини ўрганишга қаратилган қўллаб-қувватлаш субъектининг диагностикаси ва ўз-ўзини ташҳислаши; олинган натижаларни муҳокама қилиш ва ушбу муаммони ҳал қилишга ҳисса қўшадиган қўшма қарор қабул қилиш; муаммони ҳал қилишга ҳисса қўшадиган зарур йўлни педагог-тарбиячининг белгилаши.

2. Лойиҳалаш босқичи педагогга ҳамроҳлик қилиш йўл харитасини тузишга, унинг касбий муаммоларини ҳал қилишга ҳисса қўшишга қаратилган. Таълим муҳити ишлаб чиқилган, педагогга ёрдам беришга тайёр мутахассислар доираси аниқланган, иш мазмуни аниқланган ва ҳ.к.

3. Педагогнинг касбий фаолияти йўл харитасини амалга ошириш босқичи, индивидуал йўл харитасини амалга оширишда педагогга ёрдам

кўрсатишга, шунингдек фаолият давомида маршрутни тузатишга ҳисса қўшади; педагогни методик қўллаб-қувватлаш йўл харитасини амалга ошириш учун зарур бўлган турли хил метод ва услублардан фойдаланиш.

4. Муаммони ҳал қилишда пайдо бўладиган натижаларни методист ва педагог-тарбиячи томонидан муҳокама қилишга қаратилган назорат ва баҳолаш босқичи. Шунинг учун, методик таъминот педагог-тарбиячига унинг педагогик фаолияти йўл харитасини тузишда ва амалга оширишда ёрдам беришга қаратилган.

Ушбу тадқиқотларда индивидуал таълим йўналиши - мавзунини изчил равишда ўқитиш, таълим муаммоларини ҳал қилишга ва ўқитувчининг малакасини оширишга ёрдам бериш. Шахсий таълим йўналиши педагогнинг қобилияти ва имкониятларини ўрганишга, турли хил ташҳислашлар ёрдамида ўқув дастурини ташкил этиш методларини режалаштиришга қаратилган. Шу билан бирга, ҳар бир педагогнинг шахсий йўл харитасини мос равишда тузилади. Педагогларнинг таълим йўналишида ўз-ўзини тарбиялаш ва ўқитишга катта ўрин ажратилган. Шахсий таълим йўналишида унинг тузилишини белгилаш мумкин: педагогнинг қийинчиликлари ва муаммоларини аниқлаш; ушбу қийинчиликларни ҳал қилиш йўллари танлаш; педагогнинг МТТнинг методик фаолияти тизимидаги иштироки.

Демак, педагогик қўллаб-қувватлаш - шахснинг индивидуал қобилиятларига таяниб, “ўзини ўзи” ривожлантиришга қаратилган махсус педагогик фаолиятдир. Шунга





асосланиб методик таъминот тушунчасини аниқлаш мумкин.

Методик таъминот деганда педагогнинг индивидуал касбий ривожланишига, унинг қобилиятлари, билим ва кўникмаларига таяниб, касбий мустақилликни, педагогнинг “ўзини” ривожлантиришга қаратилган ўқув-услубий ишлар бўйича махсус фаолияти тушунилади. Методик фаолиятда муҳим таркибий қисм педагогнинг мақсадлари, қизиқишлари, имкониятларини ўрганишга, унинг касбий фаолиятида юзага келадиган муаммоларни бартараф этиш йўллари аниқлашга қаратилган методист ва педагог-тарбиячининг биргаликдаги фаолияти ҳисобланади.

Педагогик қўллаб-қувватлаш, педагог-тарбиячининг касбий малакасини оширишда, педагогик муаммоларни ҳал қилишга ҳисса қўшадиган педагогик билимларини тўлдиришда ёрдам беришида намоён бўлади. Ижтимоий қўллаб-қувватлаш - барча педагогларга уларнинг эҳтиёжлари, қобилиятларини қондирадиган касбий ваколатларни ривожлантириш учун зарур бўлган бир хил имкониятларни тақдим этишдир. Валеологик ёрдам қулай психологик иқлим, қулай меҳнат шароитлари, ходимларнинг соғлиғига қизиқишни яратишдан иборат. Ҳуқуқий қўллаб-қувватлаш педагог-тарбиячиларнинг ҳуқуқларини тан олишга, уларнинг афзалликлари ва камчиликларидан қатъи назар, уларни шахс сифатида ҳурмат қилишга, ҳар бир педагогнинг ҳуқуқларига риоя қилишга ёрдам беради. Методик фаолиятда ҳар бир қўллаб-қувватлаш тури мустақил равишда эмас, балки бошқа турлар билан ўзаро боғлиқликда намоён

бўлади. Айнан ўша пайтда педагогга ёрдам фойдали бўлади ва унинг ривожланишига ҳисса қўшади. Қўллаб-қувватлашнинг барча турларидан фойдаланиш педагогбилан унинг методик кўмаги ёрдамида ишлашнинг махсус усулларидан фойдаланишни назарда тутди. Шу билан бирга, ҳозирги вақтда қўллаб-қувватлаш педагог-тарбиячи ва методистнинг ўзаро мулоқот қилиш методи сифатида қаралади. Натижада, қўллаб-қувватлашда суҳбат методидан фойдаланиш яхшироқдир: мустаҳкамлаш, келишув, тинглаш, маслаҳат, рағбатлантириш.

У ёки бу техникани танлаш услубий қўллаб-қувватлаш босқичига боғлиқ. Методик таъминотни ташкил қилиш масалаларини ўрганаётганда, уни ташкил этиш учун методистни тайёрлаш масалалари алоҳида ўрин тутди.

Тадқиқотчилар қўллаб-қувватлаш ўзаро таъсир ўтказиш жараёни эканлигини таъкидлашади. Натижада, қўллаб-қувватловчининг амалий тажрибасини бойитиш зарур, уларни бу жараёнга интенсив жалб қилиш усули билан ўзлаштириш мумкин, шу билан бирга қўллаб-қувватлаш хизматининг барча субъектлари ҳам педагогларга ҳамроҳлик қилиш жараёнини ташкил этиш билан боғлиқ маҳоратли ёрдам билан таъминланади. Ушбу тренинг натижасида ўқув шароитида ўзаро таъсир ўтказиш тажрибаси унинг аниқ педагог-тарбиячига ўтказилади.

Демак, социологик, психологик, педагогик ва фалсафий адабиётларни таҳлил қилиш натижасида қўллаб-қувватлаш назарияси ва амалиётини ривожлантиришнинг ижтимоий шартлари, жараёнида шахснинг



предмет позициясини устувор ривожлантириш, унинг ижтимоийлашуви, унга мустақил равишда муҳим қарорларни қабул қилишга ва улар учун жавобгар бўлишга ёрдам беради. Инсонга барча керакли ёрдам ва кўмакни ваколатли мутахассислар томонидан тақдим этиш ҳозирги пайтда жуда муҳимдир.

Қўллаб-қувватлаш назариясининг асосий фалсафий ва педагогик асосланиши бу таълимга инсонпарварлик ёндашувидир, инсонни ўзига хос шахс деб билади ва шунга кўра ажратиб туради, таълимнинг асосий мақсади унинг ўзини ўзи ривожлантириш учун қулай шароит яратишдир. Шу билан бирга, қўллаб-қувватлаш назарияси ва амалиётининг услубий асослари ушбу концепциянинг


ўзига хос хусусиятларини очиб берадиган тизимга йўналтирилган ёндашувдир.

Шундай қилиб, таҳлиллар шуни кўрсатадики, қўллаб-қувватлаш таърифи битта аниқ умумий таърифга эга эмас ва уни мутахассиснинг методи ёки фаолияти сифатида кўриб чиқиш мумкин. Таҳлиллар натижаси ўлароқ, ушбу босқичда фанда қўллаб-қувватлашнинг бир неча турлари мавжуд: ижтимоий-педагогик, психологик, индивидуал йўналтирилган, илмий-методик ва тизимга йўналтирилган. Ушбу турларнинг киритилиши ҳамроҳлик қилиш жараёнидаги қўллаб-қувватлашнинг мазмунига, шунингдек ушбу жараёнда шериклар сонига қараб фарқ қилади.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Александрова О. А. Содержание и особенности занятий аппликацией с детьми дошкольного возраста // Образовательные проекты «Совёнок» для дошкольников. – 2014. – № 10. – ART 131654. – URL: <http://www.kids.covenok.ru/131654.htm>.
2. Васильева, А.И. Воспитатель-методист детского сада [Текст] /А.И. Васильева, Л.А. Бахтурина, И.И. Кобитина. – Минск : Народная асвета, 1975. – 128 с.
3. Поздняк, Л.В., Управление дошкольным образованием [Текст] /Л.В. Поздняк, Н.Н. Лященко. – М. : Академия, 2000.
4. Полянский, М.С. Психолого-педагогическое сопровождение как компонент общей программы модернизации образования в России [Текст] /М.С. Полянский // Модернизация общего образования на рубеже веков. – СПб: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2001. – с. 128–131.
5. Шадиев Р.Д., Ибрагимова Г., Набиев И. Современное дошкольное образование и инновационная деятельность. Бюллетень науки и практики — Bulletin Of Science and Practice (scientific journal) №4 2018. p-457-460. DOI: [10.5281/zenodo.399225](https://doi.org/10.5281/zenodo.399225)





## ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI ORASIDA SUISIDAL XULQ MOTIVASIYASI NAMOYON ETILISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI

Elov Ziyodullo Sattorovich

Buxoro davlat universiteti, Psixologiya kafedrası o'qituvchisi, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034503>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Suisid, inqiroz, o'z joniga qasd qilish, stress, affekt, jazava, kasbiy zo'riqish, yolg'izlik, garovga olish, ruhiy buzilish*

### ANNOTATSIYA

*ilmiy maqolada, bugun jamiyatda uchrab kelayotgan suisid va uning ijtimoiy – psixologik oqibatlarini, shuningdek ichki ishlar organlari xodimlari orasida sodir bo'lishining sabablari ilmiy tadqiqot tadqiq etilganligi bayon etilgan.*

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti, uni ilg'or yutuqlarining kundalik hayotimizga, odamlar turmush tarziga urbanizasiyaning chuqur kirib borishi, bugungi kun shaxsiga va uning xislatlariga bevosita ta'sir qilmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunlarimizda erishayotgan olamshumul yutuqlarimiz bilan bir qatorda ichki ishlar tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlar o'rtasida asabiy toliqishlik holatlarining ortishi, o'z joniga qasd qilish (suisid) kabi noxush hodisalarni keltirib chiqarmoqda.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, suisidal kasalliklar yurak qon-tomir, onkologik kasalliklar va travmatizmdan keyingi 4-o'rinni egallaydilar. Jahonda o'zini hayotdan mahrum etuvchilar yarim million atrofida bo'lib, ya'ni bu bir kunda 1000 ta odam bo'lib, o'z joniga suiyoq qilishga harakat qiluvchilar soni 5 milliondan oshib ketmoqda.

Darhaqiqat, ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatlari muayyan ijtimoiy masalalarni hal etishda, mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning barqarorlashuvi va takomillashuvida dolzarb ahamiyat kasb etadi va ko'p jihatdan ushbu faoliyat egalari unga ruhan va jismonan tayyorgarligi bilan belgilanadi.

Ichki ishlar vazirligi xodimlari va harbiy xizmatchilarining faoliyati o'zining nihoyatda murakkabligi, mashaqqatliliigi va mas'uliyatliliigi bilan boshqa faoliyat turlaridan tubdan farq qiladi. Umumharbiy nizomlarda hamda boshliq va komandirlarning buyruq va ko'rsatmalarida belgilab qo'yilgan kundalik qat'iy talablar, muayyan tartib-qoidaga asoslangan ish faoliyati, bo'ysunishga majburlik hissi, kuchaytirilgan tartibdagi xizmatni o'tash kunlari, javobgarlik hissining yuqoriligi, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishdagi ba'zi noqulayliklar, o'rganilmagan ob-havo



sharoitlari, kasbga aloqador turli-tuman muammolar, xizmat safarlari chog'ida uchrab turadigan ayrim noqulayliklar, sutkalik navbatchilik va boshqa jangovar xizmat vazifalarini o'tash vaqtidagi doimiy ruhiy va jismoniy zo'riqishlar xodimlar va harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga, jismoniy salomatligiga jiddiy zarar etkazishi mumkin. Bu jarayon uzoq davom etadigan bo'lsa, oxir-oqibatda ularning ayrimlarida ruhiy barqarorlikning izdan chiqishiga, pirovardida suisidal holatlarning sodir etilganligi sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari Ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilari tez-tez sharoitlari aniq bo'lmagan, qaror va topshiriqlar o'zgarib turadigan vazifalarni bajarishlariga hamda ko'pincha uylaridan, oilalaridan yiroqda faoliyat yuritishlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi muammolar ko'lamining kengligi, ichki ishlar organlariga qo'yilayotgan talablarning yanada oshayotganligi, ular faoliyatida nizoli, ziddiyatli vaziyatlarning tez-tez sodir bo'lib turishi, yaqinlarining xavfsizligi va sog'lig'i uchun doimiy xavotir hissining mavjudligi kabi holatlar ularning ruhiyatiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu esa, o'z navbatida, ularning stress (asabiylik, kuchli hayajon) va ayrim hollarda esa, affekt (jazava) holatlarini boshdan kechirishlariga sababchi bo'lishi mumkin.

Xodimlar kasbiy faoliyatiga oid psixologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlarining barcha xizmatlar va qo'shinlar xodimlari, turli stress-omillar ta'siri bilan bog'liq, psixoemosional zo'riqishning yuqori darajasini boshdan kechiradilar. Dastlabki kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki ichki ishlar organlari

xodimlarining kasbiy faoliyatida quyidagi holatlar ularni engil darajadagi suisidal xulq shakllanishiga ta'sir qilishi mumkin ekan:

- kasbiy vazifalarning xilma-xilligi va murakkabligi;
- xizmat jarayonida xavfli kasbiy vazifalarning bajarilishi;
- ish vaqtida yuqori zo'riqish darajasining namoyon etilishi;
- talab qilinayotgan kasbiy darajaga erishish uchun ish vaqti me'yorlarinig buzilishi;
- kasbiy xatolari uchun yuqori ijtimoiy javobgarlikning namoyon etilishi;
- o'z hayotiga, xizmatdoshlari hayotiga, boshqa fuqarolarga (bolalar, ayollar, qariyalarga) xavf keltirilishi;
- "garovga olingan holatiga" tushish;
- birovni o'ldirish uchun qurolni qo'llash;
- insonlarning o'limiga sabab bo'ladigan halokat yoki favqulodda tabiiy ofatlarga duch kelishi va hokazo.

Ayni paytda ichki ishlarorganlari xodimlari ikki tartibdagi stressogen omillar ta'sirini his etadilar: xodimlardan yuqori kasbiy mahorat talab qiluvchi va harakatlarining samarasiga ta'sir etadigan, kasbiy vazifalarini bajarilishida katta qiyinchiliklar tug'diradigan, kundalik keskin kasbiy faoliyat stressorlari va ekstremal vaziyatlar stressorlari.

B.G.Bovin va uning hammualliflari ma'lumotlariga ko'ra, so'roq o'tkazilgan navbatchi qismlar xodimlari o'rtasida xizmatni o'tash jarayonida asosiy psixofunksional buzilishlarning namoyon etilishi charchash (56%), g'azablanish (20%), bosh og'rig'i (19%) kabilar bilan baholanadi. Bu erda 40% uyquning turli buzilishlaridan azoblanadilar, 95% uyqu kelmasligi, vaqtli uyg'onish, tun o'rtasida tez-tez uyg'onish kabilar kuzatilgan.



Navbatchi inspektorlar o'rtasida eng keng tarqalgan surunkali kasalliklari: (oshqozon-ichak kasalliklari (19%), radikulit (17%), yurak-tomir tizimi kasalliklari (12%), o'pka-bronx kasalliklari (8%))ning ham ta'siri kuzatilgan[1]<sup>1</sup>.

Ichki ishlar organlari barcha bo'linmalari va qismlarining xodimlari doimiy stress sharoitida xizmatni o'tish tufayli sog'ligi uchun salbiy asoratlarni ta'kidlaydilar. Masalan, o'zida surunkali kasalliklar mavjudligini – 29% so'roq qilingan post-patrul xizmati xodimlari, somatik kasalliklar mavjudligini – 40% mutasaddi hududiy uchastka nozirlari ta'kidladilar.

A.A.Frolova ma'lumotlariga ko'ra, post-patrul xizmati xodimlarida chegaradosh psixik buzilishlar rivojlanishining xavfi umumiy jamoa bilan taqqoslaganda 35,5% yuqori va boshqa xavfli kasblar (shaxtyor, dengizchi va b.) xodimlariga nisbatan 15.5% dan yuqori ekanligi ma'lum bo'lgan [2]<sup>2</sup>.

Butun dunyo mamlakatlarining ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy stress asoratlari muayyan chegaralardan chiqib ketadilar. Bularga xodimlarning ishdan bo'shashi, yuqori kasallanish, psixik nomutanosibliklar, alkogolizm, suisidlar, oila ajralishlarini kiritish mumkin.

Tahliliy ko'rik ma'lumotlariga binoan, suisidlarning katta miqdori xizmatdan tashqari vaqtda sodir etilgan (63%) tungi va erta tong soatlarida (49%). O'z joniga qasd qilishning eng keng

tarqalgan usuli – o'zini osish (55%). Biroq, ro'yxatdagi qurol bilan sodir etilgan suisid holatlarga (27%)ni tashkil qilishi bilan xarakterlanadi.

Bu muammolarning asosida ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tibbiy omillaridan ko'ra ko'proq psixologik omillar: odamlarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlar, ularning dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotga bo'lgan munosabati, ular uchun hayotning mazmuni, o'z-o'zini baholashi, o'ziga va atrofida qilargan bo'lgan munosabati bilan xarakteri kabilar yotadi (1-rasm) [3]<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Бовин Б. Г., Лебедев А. Н. и др. Основные виды деятельности и психологическая пригодность к службе в системе органов внутренних дел. Справочное пособие. Научно-исследовательский центр проблем медицинского обеспечения МВД России. – М., 1997. – 344 с.

<sup>2</sup> Фролова А. А. Клинические особенности пограничных психических расстройств у работников опасных профессий // Рос. психиатр. 1998. № 4.

<sup>3</sup> З.С.Элов Суицид хулқ шаклланиши ижтимоий психологик муаммо сифатида // Psixologiya ilmiy jurnal. 3 (23) 2016 Бухоро.





1-rasm. Suisid asosidagi psixologik omillar.

A.Ambrumova tomonidan “Suisid bu – shaxsning ijtimoiy va psixologik jihatdan o’zi boshidan kechirayotgan mikroijtimoiy kelishmovchiliklarga moslasha olmasligi” deb ta’riflanadi [4]<sup>4</sup>.

Suisid fenomeni ko’p hollarda shaxsning psixologik krizis holatlari bilan bog’liq bo’lib, bu holatlar shaxsga taalluqli bo’lgan qandaydir psixik travma beruvchi hodisalar bilan izohlanadi. Bu hodisaning tezligi va ta’sir kuchi shu qadar ahamiyat kasb etadiki, butun hayoti davomida to’plagan tajribalari ham shaxsga aynan shu vaziyatdan chiqishning boshqa yo’li borligini ko’rsatmaydi. Bunday psixologik inqiroz kutilmagan kuchli affekt natijasida paydo bo’ladi.

Ammo insondagi passiv ichki ruhiy bosim uzoq vaqt davomida to’planib borishi ham mumkin. Ular biri ikkinchisi paydo bo’lishiga sabab bo’ladi. Ichki ezilish bezovtalikni, bezovtalik esa umidsizlikka o’rin almashib beradi. Odam o’ziga bo’lgan ishonchni yo’qotib boradi, vaziyatdan chiqish umidi yo’qoladi, o’ziga bo’lgan munosabati yomonlashadi. Tashqi ta’sirlar ichki ishonchsizlik bilan birlashib, hayot

o’z qimmatini yo’qotadi. Bu suisiddan oldingi holat hisoblanadi.

**Ichki suisidal xatti-harakat** o’z ichiga sust suisidal fikrlarni qamrab oladi. U haqidagi ilk fikrlar o’zini suisidal holatda tasavvur qilishdan iborat. Sust suisidal fikrlar bu tashqi ta’sir natijasida o’zini o’ldirish va bunda boshqalarning azoblanayotganligini tasavvur qilishi, fantaziyalaridir.

**Suisidal fikrlarning shakllanishi** esa keyingi bosqich bo’lib, suisidga olib boruvchi faol shakldir. Bunda o’zini o’ldirishga ahd qilib, u bilan barobar uni amalga oshirish rejasini ishlab boradi. III xodimi uni qachon, qaerda, qanday usul bilan amalga oshirishni rejalashtiradi.

Suisid xayollari insonning hayoti va o’lim orasida o’sib boradi, hayot va o’limga munosabat quyidagi shakllarga ega:

- befarqlik hissi;
- o’zining holatiga rahmi kelishi;
- o’zini holatini qabul qila olmasligi;
- hayotga nafrat.

SHundan so’ng o’limni qabul qilish shakllanib boradi, ya’ni:

- tayyorgarlik o’sib borgani bilan o’limdan qo’rqish hissi;
- befarqlik;
- o’limga ichdan rozi bo’lish hissi;
- o’lishni xohlash va hokazolar

<sup>4</sup> Амбрумова А. Г. Непатологические ситуационные реакции в суицидологической практике //Научные и организационные проблемы суицидологии. – М., 1983. – С. 40-52.



**Tashqi suisidal xatti-harakat.** U haqida ko'p gapirish yoki uni amalga oshirishga urinishlar bilan xarakterlanadi.

Demak, suisidoldi holat ikki qismdan iborat:

1. Suisidal holatning boshlang'ich bosqichi.

2. Suisidal holat.

Suisidal holatning boshlang'ich bosqichi suisident uchun alohida emosional bosim bo'lib, unda xodimning o'y-xayoli xizmatning qiyinchliklarini engib bo'lmasligiga va bu muammoni echishni imkoni yo'q degan fikrga bog'lanib qoladi.

Bu holat shunisi bilan xarakterliki, suisident boshqalardan ruhiy madad kutadi, boshqalarni e'tiborini qaratishga harakat qiladi, g'amini bo'lishishga odam izlaydi. Bu xizmatga ilk moslashish darida yuz beradi. O'tmish xotiralaridagi baxtli onlaridan yupanch izlaydi, ammo ular salbiy ta'sir o'tkazadi. Natijada ichki bo'shliq paydo bo'ladi, o'zining bu hayotga borligi ma'nosizdek tuyuladi. Hayot mazmunining yo'qolishi suisidal xatti-harakatlarning asosiy tayanchi hisoblanadi. O'lim haqidagi xayollarni "baham" ko'rishga hech kim topilmasa, odatda bunday shaxslar o'z kundaliklarida yozib qoldiradilar yoki depressiya holatini ifoda etuvchi suratlar chizadilar. Ma'lumotlarga ko'ra suisid oldidan qabristonlarga borishadi, yaqinlariga ularni iztirobga soladigan xatlar yozishadi, xizmatdoshlari bilan romantik mavzuda suhbatlar qiladilar.

Suisidal holat boshlang'ich bosqichining eng yuqori darajasida depersonalizasiya belgilari namoyon bo'ladi: ichki o'zgarishlarning noaniq hislari, begonalashuv, atrofdagilar u uchun sun'iy muomala, xatti-harakat qilayotgandek tuyulaveradi. Ko'pgina suisidni amalga oshirishga harakat qilgan

xodimlar falokatni sezganliklari, ichik bir vasvasa, vahimani his qilganliklarini eslaydilar.

Aynan mana shu hislar suisidni amalga oshirish bosqichini boshlanishidan darak beradi. Odamni o'zini o'ldirishga ahd qilishi unda hayotdan uzilib o'z ichiga qamalib qolganidan, faqat o'zi o'ylagan xayollari bilan yolg'izlanib qolgani sababidir.

2-bosqich esa ob'ektda asosiy belgilari quyidagilar:

odamovi bo'lib qolish, yolg'izlikni xohlash, atrofga qiziqishining yo'qolishi kabi holatlar kuzatiladi.

Ko'p hollarda suisidga harakat qilganlarda chuqur affekt holati uzoq davom etadi. Ular sovuqqon, hisob-kitobli, kamgap bo'ladilar, hatto agressiv bo'lib qolishadi. Ba'zida esa suisidni amalga oshirishga ahd qilganlar juda quvnoq, faol bo'lib qolishadi. Ulardagi bu sun'iy holat e'tiborni tortar darajada bo'ladi.

Demak, suisidentlarning 60%da depressiv holat yuz beradi, bu holat xavotir, bezovtalik, irodaviy faollikni pasayishi, o'zidan qoniqmaslik, o'ziga ishonmaslik, o'zini ayblash, gunohkorlik hissi bilan xarakterlanadi. Ulardagi bu holat hech tugamaydigandek tuyuladi. Umidsizlik bu holat uchun eng kuchli vosita bo'lib hisoblanadi.

Suisidoldi holatlarini qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatadiki, bu holatda ichki konflikt, ichki o'zaro kurash hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Amalga oshmay qolgan suisidal harakatlardan keyin bir necha vaqt ularda suisidal fikr va uni amalga oshirish istagi saqlanib qoladi.

Eng yomoni uni bevosita qayta amalga oshirish holatlari ham kuzatiladi.

Biz yuqorida ichki ishlar organlari xodimlarida haqiqiy suisid jarayonini



o'rganib chiqdik. Bundan tashqari affektiv suisid va o'zini namoyish etuvchi yolg'on suisid ham bo'ladi.

Keyingi paytlarda, ichki ishlar organlari xodimlari orasida kutilmagan affektiv holatlar natijasida o'zini o'ldirib qo'yish hodisalari ham uchramoqda. Bunda suisident bu fikrga qo'qqisidan, kutilmagan vaziyat tufayli keladi va amalga oshiradi. Uni hatto o'zida tahlil qilib ham ko'rmaydi. Undagi kutilmagan psixotravma beruvchi affektiv vaziyat yoki surunkali psixotravmatik holat sabab bo'lishi mumkin. Namoyishkorona suisidda esa ataylab atrofdagilarni xavotirga qoldirish, o'ziga e'tiborni qaratish, unga rahm qilishlari, murakkab vaziyatdan chiqish maqsadida uyushtiriladi. Bunda ob'ekt, albatta, barcha hayot choralarini ko'rib qo'ygan bo'ladi.


Ichki ishlar xodimlari orasida suisidal harakatlarning xarakter xususiyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin. (2-rasm)<sup>5</sup>:

---

<sup>5</sup> З.С.Элов Суицидал уринишга сабаб бўлувчи асосий омиллар (ички ишлар органлари ходимоари мисолида) // Psixologiya ilmiy jurnal. 2 (18) 2015

З.С.Элов Суицид хулқ шаклланиши ижтимоий психологик муаммо сифатида // Psixologiya ilmiy jurnal. 3 (23) 2016





**2-rasm. Suisidal harakat xarakteri.**

Bundan tashqari o'z joniga qasd qilish hissining kuchli bo'lishi boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarning o'rnatilishiga

to'sqinlik qiladi va suisidentlaning fikr-xayolini "hech qachon menga yaxshi bo'lmaydi" "Bunday hayotga chidab bo'lmaydi", "hayot faqat muammolardan iboratdir" kabi mulohazalar butunlay egallay boshlaydi.

Umuman ichki ishlar organlari xodimlarida **Suisidga moyillik tuzilmasi** 3-rasmda ko'rgazmali namoyish etilgan[6]<sup>6</sup>. (3-rasmga qaralsin)

**Xodimlardagi suisidal maqsadlar** - suisidning tashqi ko'rinishiga bevosita o'tishni uyg'otuvchi qaror va irodaviy komponentlarni o'z ichiga olishi bilan xarakterlanadi.


Suisidal kechinmalarning tuzilmasi ikkita qarama-qarshi qutbiga bo'linadi hayotga bo'lgan munosabat quyidagi 4 ta asosiy shakllarda namoyon etiladi:

1. Befarqlikni his etish.
  2. O'zini hayotga kelganidan achinish hissi.
  3. Hayotning og'irligi va chidab bo'lmasligini his etish.
  4. Hayotga bo'lgan nafrat.
- O'limga bo'lgan munosabat quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. O'z jadalligida sust bo'lsa ham o'lim oldidagi qo'rqinch.
2. Befarqlikni his etish.
3. O'limga rozilikning ichki roziligi.
4. O'limni istash.

SHunday qilib, suisidal xulq-atvorning yuqorida ko'rib chiqilgan asosiy komponentlari haqidagi tahlillarimiz o'z joniga qasd qilish yo'li bilan o'lishga harakat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni oldini olishning zaruriy kompleks choralarini ko'rish imkoniyatini beradi. Quyida suisid holatlarini sodir etish sabab va motivlari ko'rsatib o'tilgan. (3-rasm).

<sup>6</sup> З.С.Элов. Профилактика самоубийств средисотрудников ОВД // Психология XXI столетия. Ярославль 2017



Olib borilgan nazariy–ilmiy tahlillar mavzu doirasidagi muammolar, xususan, suidsidning ijtimoiy-psixologik muammo sifatida tadqiq qilinishiga bag'ishlangan ishlarning bugungi kunda taqchilligi va shu bilan birga dolzarbligini ko'rsatdi. Qolaversa, dunyodagi ko'plab ilg'or psixologiya namoyondalarini suidsidga oid qarashlari tadqiq qilinganda bu jarayon shaxs ruhiy barqarorligini rivojlantirish uchun o'rganilishi muhim bo'lgan tadqiqot yo'nalishi ekanligi yana bir bor ta'kidlandi.

Ayni paytda, xorijda, Rossiyada hamda mamlakatimizda aynan ushbu muammo bo'yicha nazariy jihatdan olib borilgan tadqiqotlar tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Umuman, suidsid, suisidal omillarga nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo'lib, bu qarashlar turli manbalarda, SHarq va G'arb mutafakkirlari ijodida, diniy ta'limotlarda, ilg'or psixologiya

vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan, ammo suidsid muammosi psixologiyada o'zining muayyan nazariy–metodologik bazasiga ega bo'lsa-da, ushbu muammoga daxldor tadqiqotlar ko'lami hali o'zining mukammal echimlariga ega bo'lmagan.

2. SHaxsdagi o'z joniga qasd qilish jarayonining kechishi ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganishga qaratilgan nazariy–ilmiy manbalarni tadqiq etish, suidsid tushunchasini ichki ishlar xodimlari kasbiy faoliyatiga ta'sir etuvchi salbiy omillar haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa xodim shaxsini, uning kasbiy kompetentligi va ruhiy barqarorligini yanada chuqurroq tadqiq qilish uchun zamin yaratadi.

3. O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili, bugungi kunda muhim bo'lgan suidsid omillarini empirik jihatdan o'rganish muqarrarligini ko'rsatdi. Buning






uchun esa, eng avvalo, xodimlardagi ruhiy-emosional holat, temperamental sifat, shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va korrelyasion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinadi. Ayni paytda tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda e'lon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini ochib berishga xizmat qiladi. Suidsiddek mudhish hodisaning yuzaga kelishi va profilaktikasi ko'proq psixologik omillarga, ya'ni shu suidsidogenning o'ziga, uning individul psixologik, shaxsiy xususiyatlariga, psixologik tayyorligiga bog'liq ekanligi yanada yaqqolroq sezildi.

Bunda asosan, quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish zarur ekanligini ta'kidlash joiz: biologik, sosiologik, psixologik, tibbiy va boshq. Ushbu muammoni har xil madaniy muhitda, turli xil suidsid holati va darajasi bilan bog'lab o'rganish esa yangi ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ichki ishlar organlari xodimlarida suidsidal xulq shakllanishini tadqiq etishda yuqoridagi omillarni inobatga olish va unga ijtimoiy-psixologik jihatdan baho berish tadqiqot samaradorligiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бовин Б. Г., Лебедев А. Н. и др. Основные виды деятельности и психологическая пригодность к службе в системе органов внутренних дел. Справочное пособие. Научно-исследовательский центр проблем медицинского обеспечения МВД России. – М., 1997. – 344 с.
  2. Фролова А. А. Клинические особенности пограничных психических расстройств у работников опасных профессий // Рос. психиатр. 1998. № 4.
  3. Z.S.Elov Suisid xulq shakllanishi ijtimoiy psixologik muammo sifatida // Psixologiya ilmiy jurnal. 3 (23) 2016 Вухоро.
  4. Амбрумова А. Г. Непатологические ситуационные реакции в суицидологической практике // Научные и организационные проблемы суицидологии. – М., 1983. – С. 40-52.
  5. Z.S.Elov Suididal urinishga sabab bo'luvchi asosiy omillar (ichki ishlar organlari xodimoari misolida) // Psixologiya ilmiy jurnal. 2 (18) 2015
  6. Z.S.Elov Suisid xulq shakllanishi ijtimoiy psixologik muammo sifatida // Psixologiya ilmiy jurnal. 3 (23) 2016
- З.С.Элов. Профилактика самоубийств средисотрудников ОВД // Психология XXI столетия. Ярославль 2017





## ХОДИМЛАР БИЛИМИ ВА МАЛАКАСИНИ БАҲОЛАШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Рустамов Бахтиёр Нормаматович

«Фидо-Бизнес» МЧЖ «Автоматлаштирилган ахборот тизимларини яратиш ва лойиҳалаш» департаменти Гуруҳ раҳбари,  
localhostuz@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6034513>

### МАҚОЛА ТАРИХИ

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

аттестация, ахборот тизими, дастурий мажмуа, ахборот хавфсизлиги, маълумотлар базаси, реляцион модел, блок-схема, oracle.

### ANNOTATSIYA

*Ушбу мақолада идора ва ташкилотларга янги ходимларни ишга олиш, ходимлар малакасини баҳолаш, уларни аттестациядан ўтказиш ва лавозимини ошириш жараёнлари ўрганилиб, уларнинг автоматлаштирилган ахборот тизимини лойиҳалаш ва дастурий мажмуасини яратиш масаласи кўрилган. Ишлаб чиқилган ахборот тизими орқали малакали ходимларни саралаб олиш, уларни муносиб лавозимларга тайинлаш учун билим ва малакасини тўғри баҳолаш ва бу жараёнлар тез ва осон бажарилиши йўлга қўйилди. Мақолада яратилган тизим ахборот хавфсизлигини таъминлаш, тизимнинг маълумотлар базасини лойиҳалаш босқичлари кўрсатилган.*

Ташкилотнинг ривожланиши ва рақобатли муҳитда яхши фаолият юритиши ходимларнинг билими ва малакасига боғлиқдир. Яхши мутахассисларни саралаб, танлаб олиш, ходимларнинг малакасини баҳолаш жараёни кўп вақт талаб қилмоқда. Бу жараёнларни тез ва тўғри бажарилишини таъминлаш ва инсон аралашувини камайтириш учун ахборот технологияларидан фойдаланиш зарурати туғилмоқда. Ҳар бир идора ва ташкилотларга юқори малакали номзодларни жалб қилиш ва ходимларни лавозимга тайинлаш тизимида янги стандартлар жорий қилиш замон талаби бўлиб қолмоқда. Жумладан, янги ишга қабул қилинаётган номзодлар ва лавозими ўзгараётган ходимларни билими ва

кўникмаларини баҳолаш тизими татбиқ этилиши кўзда тутилган.

Мазкур тизимга асосан номзодлар ва ходимларга махсус тест тўпламлари тақдим этилади. Ушбу тестлар икки блокка бўлиниб ҳар бир блок қуйидаги йўналишлар бўйича тест саволларини ўз ичига олади:

- Блок 1:
  - Компетенцияларни баҳолаш бўйича тест саволлари;
- Блок 2:
  - Мантиқий фикрлаш
  - Сонлар билан ишлаш кўникмалари;
  - Матн билан ишлаш кўникмалари;
  - Инглиз тили;
  - Иқтисодиёт назарияси;

- Касбий билимлар даражасини аниқлаш.

Ушбу тизим қуйидаги мақсадлар учун амалга оширилади:

а) Ташкилотга янги ишга қабул қилинаётган ва лавозими ўзгараётган ходимларни билимини, малакасини тўғри баҳолаш;


б) Баҳолаш жараёнда инсон омилини ва аралашувини бар்தараф қилиш;

в) Мавжуд бўлган бўш иш ўринларини юқори малакали номзодлар билан тўлдириш;

г) Ходимларнинг салоҳияти ва билим даражасидан келиб чиқиб лавозимини ошириш ёки мос лавозимларга тўғри тайинлаш.

Тест синовларидан икки турдаги ходимлар ўтиши кўзда тутилган. Булар:

- Янги ишга қабул қилинаётган номзодлар;
- Лавозими ўзгараётган ходимлар.



1-расм. Аттестациядан ўтказиш ахборот тизими ишлаш блок-схемаси

Ходимнинг натижаларини баҳолаш, топширилган тестлар жавобларига кўра қуйидаги жадвал асосида белгиланади:

Ҳолати	Натижа
Тест натижаси қоникарсиз, тавсия этилаётган лавозимга нолайиқ	55%
Тестни қайта топшириш учун 1 ҳафта муддат берилади	65%
Етакчи мутахассисгача бўлган лавозимга тавсия этилади	70%
Бош мутахассисгача бўлган лавозимга тавсия этилади	85%
Тавсия этилаётган лавозимга лойиқ	85% дан юқори

Тизимда ахборот хавфсизлигини таъминлаш. Тизимни ҳимоялаш

технологияси қуйидаги босқичларда амалга оширилди:

- фойдаланувчиларни идентификация ва аутентификация қилиш;
- тизимдан фойдаланиш ҳуқуқларини белгилаш;
- криптоҳимоялаш;
- ҳодисаларни ёзиб қолиш;
- маълумотлардан захира нухалари олиш

**Маълумотлар базасини шакллантириш.**


Ҳажми мунтазам равишда ўсиб боровчи маълумотларни қайта ишлаш учун маълумотлар базасидан фойдаланилади. Ташкилотда ходимлар малакасини баҳолаш фаолиятига асосан маълумотлар базаси лойиҳалаштирилиб, реляцион модели ишлаб чиқилди. 2-расмда базадаги асосий жадваллар реляцион модели

келтирилган. Шунингдек, маълумотлар базаси бир қанча маълумотларни қайта ишлаш процедура ва функцияларини ҳам ўз ичига олади.

Тизимда барча маълумотлар тартибланган ҳолда жадвалларга ажратилиб сақланади. Жадваллар орасидаги боғланишлар реляцион моделда кўрсатилган тартибда махсус идентификаторлар (ID) асосида амалга оширилади. Тизимнинг маълумотлар базаси бугунги кунда кўп маълумотлар билан ишлашда кенг қўлланиладиган ORACLE маълумотлар базасини бошқариш тизимида яратилди.

Яратилган жадваллардан намуна сифатида фойдаланувчилар маълумотлари сақланадиган жадвални кўрамиз:

Майдон номи	Тоифаси	Номи
ID	NUMBER(10)	Фойдаланувчи идентификатори
LOGIN	VARCHAR2(50)	Тизимга кириш логини
PASSWORD	VARCHAR2(32)	Тизимга кириш пароли (md5 алгоритмида хешланган кўринишда сақланади)
VARIANT_ID	NUMBER(10)	Вариант идентификатори
CREATION_DATE	DATE	Тизимга кириш вақти






**2-расм. Аттестациядан ўтказиш ахборот тизими маълумотлар базасининг қисқартирилган реляцион модели**

Тизим қуйидаги натижаларни келтириб чиқаради:

1. Тест топшириш натижалари электрон кўриниши ҳосил бўлиб, тест натижалари бўйича тезкор маълумот олиш мумкин бўлади;
2. Ходимларнинг билими ва малакаси тўғри баҳоланади;
3. Ходимларнинг беҳуда вақт сарфи йўқолади;
4. Қоғоз ҳужжатлари электрон кўринишга ўтказилиб, молявий-иқтисодий тежамкорликка эришилади;

5. Ахборот хавфсизлиги ва ишончилиги таъминланади;
6. Статистик маълумотлар ва ҳисоботлар тезкор ва ишончли тарзда ҳосил қилинади.

Ушбу тизим уч босқичли, мижоз-сервер архитектурасида тузилиб, реал вақт режимида фаолият юритади. Тизимдан ички тармоқ (локал тармоқ) орқали иш ўринларида, интернет орқали эса банкдан ташқарида ҳам фойдаланиш имконияти мавжуд бўлади. Тизимда маълумотлар ишончли ва хавфсиз сақланади.



**3-расм. Ахборот тизимининг тест ишлаш саҳифаси кўриниши**

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Моисеев А. В. Аттестация персонала. Молодой ученый №39. 2019
2. Шаньгин В.Ф. Информационная безопасность компьютерных систем и сетей. Москва. ИД «ФОРУМ» - ИНФРА-М, 2011.







**YUK AVTOMOBILLARI ISHLATISH, ULARDAN FOYDALANISHNI BAHOLASH**

**Abdubannopov Abdulatif Abdulxaq o'g'li**

Farg'ona Politehnika instituti magistranti,

abdulatifabdubannopov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035993>

**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

*Yuk tashish, Yuk avtomobili, Ekspluatatsiya sharoiti, konstruktsiya*

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining dinamik o'sishi bevosita uning yuk va passajirlarni tashish hajmi ortishi bilan bog'liq. Savdo va yo'lovchi tashish jamiyatda qamrab olingan. Avtomobillarda yuk tashish jarayoni mobaynida zamonaviy talablar asosida yangi logistik normalari uchun tashish jarayoni tashkil qilish.*

O'zbekiston iqtisodiyotining dinamik o'sishi bevosita uning yuk va passajirlarni tashish hajmi ortishi bilan bog'liq. Savdo va yo'lovchi tashish jamiyatda qamrab olingan. O'tgan besh yil mobaynida yuk aylanmasi hajmi 1,5 marta, yo'lovchi aylanmasi 1,45 marta o'sdi. Transportda yuk tashishning umumiy hajmi, avtotransport vositalaridagi ulushi, umumiy yuk tashish jarayoni hajmi bilan bog'liq. Bugungi kunda avtotransport vositalariga to'liq yuk hajmining 90% dan ortig'i to'g'ri keladi. Avtomobillarda yuk tashish jarayoni mobaynida zamonaviy talablar asosida yangi logistik normalari uchun tashish jarayoni tashkil qilingan. Iqtisodiyotning dinamik o'sishini

ta'minlashning muhimligi yangi zahiralarni qidirish, tashish jarayonidagi hizmatni takomillashtirish, tashish hajmining o'sish su'rati, yuk avtomobillaridan foydalanish jarayonida samaradorligini orttirish, intellektual va informatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali erishiladi. Bu foydalanish jarayonidagi yangi yondashuv avtotransport vositalarini hayot siklidagi yangi bosqichlarini bir-biriga bog'liqliligini aniqlaydi.

Shunday qilib, xalqaro ekspertlar hisobiga ko'ra mamlakatni dengiz portiga erkin kirish yo'li yo'qligi, ayniqsa transport tariflarini sezilarli tebranishi 1% dan 8-9% gacha eksport va import tovarlarida tashish xarajatlari ulushini oshiradi.

jadval

Avtomobil transporti bilan yuklarni tashishlar tannarxining strukturasi

№	Xarajatlar nomi	Ulush % da	
		O'zbekiston	Evrosayuz
1	Yoqilg'i	37-40	16-20
2	Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rstish (mehnat xarajatlari)	2-2,2	3
3	Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (butlash xarajatlari)	15-16	52-55

4	Haydovchining ish haqqi	2-2,5	1-1,1
5	Texnikaning amortizatsiyasi yoki lizingi	10-12	5-6
6	Boshqa xarajatlar	6-7	2

ATV ning ekspluatatsion samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar maqsadni ta'minlashda bir butunni tashkil qilgan holda, takomillashtirish bo'yicha mustaqil hisoblanadi.

ATV ni ekspluatatsiya qilish samaradorligi			
ATV ning Texnik darajasi	Tashishl arni tashkil etish darajasi	TX, ta'mirl ash va saqlas hni tashkil etish darajasi	Ekspluatatsiya sharoitlarini takomillashtirish

Eng umumiy talab shundan iboratki, ekspluatatsiya samaradorligini baholash mohiyatiga ko'ra kompleks va tuzimli bo'lishi zarur. U, yuk avtomobillarini ekspluatatsiya qilish samaradorligini oshirish muommosining yechimini izlashda tijoriy va texnik, iqtisodiy va tashkiliy ijtimoiy va ekologik aspenlarning uzviy (organik) birligini hisobga olishni talab qiladi ko'rsatkichlar sistemasini yaratish va o'zaro uzviy bog'liqlik haqidagi g'oyani amaiyotda amalga oshirish uchun ko'rsatkichlar quyidagi talablarga javob beradi;

Bunda holat yuk avtomobillarini ekspluatatsiya qilish samaradorligi funksiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$A = f(W, N, R) \quad (1.1)$$

Bu erda, A-ekspluatatsiya sistemasining umumlashtirilgan samaradorlik ko'rsatkichi;

V - yuk avtomobilining amaldagi unumdorlik ko'rsatkichi; N-yuk

avtomobilining ishonchlilik ko'rsatkichi; R - ekspluatatsiya sistemasining tejamlilik ko'rsatkichi.

Har qanday yuk avtomobilini eng asosiy ekspluatatsion parametrlari to'la massa (yuk ko'tarish qobiliyati) va harakatlanish tezligi hisobga olinadi. Unumdorlik ularning qiymatiga bog'liq bo'ladi.

Avtomobillarning texnik holatini ekspluatatsion xususiyatlar ko'rsatkichlari yordamida o'xshash avtomobil bilan sifatini esa me'yorlangan ko'rsatkichlar bilan taqqoslab baholanadi

$$K_{\text{y}} = K_{\text{si}} W_i C_{\text{np}o} / (K_{\text{eo}} W_o C_{\text{np}i}) \quad (1.2)$$

Bu erda  $K_{\text{y}}$  - yukni etkazib berishning kafolatlanganlik koeffitsienti (yukni etkazib berish ehtimoliy vaqtining avtotransport vositalarining ishonchlilikiga bog'liq bo'lgan kafolatlangan yetkazib berish vaqtiga nisbati),  $i, o$  - taqqoslanadigan va al'ternativ variantlarning indeklari.

Avtomobilning unumdorligi:

$$W_i = \frac{K_r M_r \beta V_{cp} T (1 - \sum_{i=1}^{i=m} K_{Ti})}{1 + V_{cp} \sum_{i=1}^{i=m} K_{Si}} \quad (1.3)$$

Bu erda  $K_r$  - yuk ko'tarish qobilyatidan foydalanish koeffitsienti;  $M_r$  - avtomobilning yuk ko'tarish qobiliyati;  $\beta$  - o'tilgan yo'ldan foydalanish koeffitsienti;  $V_{cp}$ ,  $K_{Ti}$ ,  $K_{Si}$  - ekspluatatsion texnologiklik koeffitsientlari;  $C_{np}$  - keltirilgan harajatlar.

Detal va uzellarning moslashuvchanli  $K_{np}$  - darajasini miqdor jihatdan baholash uchun moslashuvchanlik



koeffitsientidan foydalanilgan. U quyidagiga teng:

$$K_{np} = N_{\phi} / N_H, \quad (1.4)$$

Bu erda  $N_{\phi}$  - haqiqiy ekspluatatsiya sharoitlarida ehtiyot qismlarning amaldagi sarfi, dona.;  $N_H$  - ehtiyot qismlarning me'yoriy sarfi, dona.

Taklif etilgan moslashuvchanlik koeffitsienti -  $K_{np}$  haqiqiy ekspluatatsiya sharoitlarida ehtiyot qismlarning amaldagi sarfiga va ehtiyot qismlarning me'yoriy sarfiga sarfiga bog'liq. ATV ning ekspluatatsiya sharoitlariga moslashuvchanlik darajasini shu koeffitsient yordamida aniqlash ma'qul ekspluatatsiya sharoitlarida ehtiyot qismlarning me'yoriy sarfini har bir model uchun alohida ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Kompleks samaradorlik ko'rsatkichi ATV ning yuk avtomobillariga muvofiq hisoblab chiqiladigan unumdorligi hisoblanadi. U quyidagi [38] formuladan hisoblanadi.

$$W = \frac{q\gamma\beta V_t \cdot l_{ez} \cdot T_H \cdot 365 \cdot \alpha}{l_{ez} + \beta V_t \cdot t_{np}}, \quad (1.5)$$

Bu erda  $q$  - yuk ko'tarish qobiliyati, t;  $\gamma, \beta, \alpha$  - yuk ko'tarish qobiliyati o'tilgan yo'l chiqarish koeffitsientlari;  $V_t$  - texnik tezlik, km/soat;  $T_H$  - naryad vaqti, ch;  $l_{ez}$  - yuk bilan yurish uzunligi, km;  $t_{np}$  - yuk ortish - tushirish ishlariga tayyorlanish va bajarishga ketgan vaqti.

Ushbu kompleks ko'rsatkich nafaqat ATV ning ishonchliligi, uning texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashga moslashuvchanligi ( $\alpha$ ), tashilayotgan yukning tavsiflariga moslashuvchanligi ( $\beta, t_{np}$ ) ni hisobga olish, balki ularning texnik harakat tezligiga ta'siri orqali ko'pgina

ekspluatatsion xususiyatlarni baholash imkonini ham beradi.

ATV ning kompleks samaradorlik me'zoni - joyning dengiz sathidan har xil balandliklari uchun quyidagi tenglama:

$$W_Q^l = \frac{Ga \cdot V_{cp}}{Q_s} \cdot \frac{K_W}{K_Q} = \frac{W_H}{Q_H}, \quad (1.6)$$

Bu erda  $K_W, K_Q$  - unumdorlik tog'li sharoitlarda va yonilg'i sarfining optimallashtirilgan koeffitsientlari;  $W_H$  - ATVni tog' sharoitidagi unumdorligi;  $Q_H$  - tog'li sharoitlarda yonilg'i sarfi, l/100 km.

ATV ning unumdorligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$W = \frac{q\gamma\beta V_{cp} \cdot K_m (1 - K_{opz})}{1 + V_{cp} \cdot K_s}, \quad (1.7)$$

Bu erda  $V_{cp}$  - o'rtacha harakatlanish tezligi, km/soat;

$K_m$  - marshrut tanlashning ratsionalligini aniqlovchi koeffitsient;

$K_{opz}$  - tashishlarni tashkil qilish va ATV ga xizmat ko'rsatishga ko'ra vaqt yo'qotilishini aniqlovchi koeffitsient;

$K_s$  - yuk ortish-tushirish ishlari, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashga ketadigan vaqt harajatlarini aniqlovchi koeffitsient.

Mazkur dissertatsiyada marshrutdagi avtopoezdning samaradorligini tahlil qilishda marshrutga chiqishdan oldin uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisobga olinmaydi (yuk ortish-tushirish ishlarini bajarishga ketgan vaqt harajatlari, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash harajatlari, naryad vaqti, liniyaga chiqarish koeffitsienti va b.).



Solishtirma unumdorlikni quyidagi formuladan aniqlash taklif qilinadi:

$$W_{y\delta} = \frac{m_z \cdot V_{cp}}{Q_s}, \quad (1.8)$$

598 Bu erda  $m_z$  - tashilayotgan yuk massasi, t;

$V_{cp}$  - o'rtacha harakatlanish tezligi, km/soat;

$Q_s$  - yo'ldagi yonilg'i sarfi, l/100 km.

Yuk avtomobili texnik - iqtisodiy samaradorligining kompleks qo'rsatkichi taklif qilingan. U quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$K_{t.\delta\delta} = \frac{m_a \cdot V_{cp}}{\bar{G}_t} \quad (1.9)$$

Bu erda  $m_a$  - avtotransport vositalarining to'la massasi t;  $\bar{G}_t$  - yonilg'ining o'rtacha soatbay sarfi l/soat;

Kompleks ko'rsatkich - avtomobildan foydalanishning solishtirma tannarxi taklif etiladi. Uning strukturasi keltirilgan harakatlar me'zoniga o'xshaydi va quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$S_{y\delta} = \frac{100(S_{np} + S_g)}{W_r}, \quad (1.10)$$

Bu erda  $S_{y\delta}$  - ATV dan foydalanishning solishtirma tannarxi, so'm/100t.km;

$S_{np}$  - ATV ni ishlab chiqarish tannarxi, uning meyoriy ishlash vaqti soatiga to'g'ri keladigan, so'm/soat;

$S_g$  - ATV ni soatbay ekspluatatsiya qilish tannarxi, so'm/soat;

$W_r$  - chasovaya proizvoditelnost ATS, t.km/soat.

jadval

Avtotransport

vositalarining

ishda unumlashtirilgan ko'rsatkich-solishtirma unumdorlikni taklif qilingan bo'lib, undan texnik daraja va sifatni yagona miqdoriy baholash shuningdek, konstruktsiyaning ma'lum ekspluatatsiya sharoitlariga moslashuvchanlik darajasini baholashda foydalanish mumkin. U quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$W_Q = \frac{\gamma \cdot q \cdot V_{cp}}{Q_s} \quad (1.11)$$

Bu erda  $W_{Q_s}$  - solishtirma unumdorlik (  $100m \cdot \kappa M^2 / l \cdot soat$ );  $\gamma$  - yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish koeffitsienti;  $q$  - gruzopod'emnost, t;  $V_{cp}$  - avtomobilning o'rtacha harakatlanish tezligi, km/soat;  $Q_s$  - yonilg'ini yo'ldagi sarfi, l/100 km.

Monitoringning quyidagi usullari farqlanadi:

1. Masofadan turib monitoring qilish;
2. Aerokosmik usullar;
3. Yer yoldoshi orqali olingan ma'lumotlarni kompyuterda ishlash usullari;
4. Fizik - kimyoiy usullar;
5. Biologik monitoring usullari
6. Ma'lumotlarni statik va matematik yo'l bilan ishlash usullari;
7. Geografik axborot sistemalari;
8. Xronometraj qilish, so'roq o'tkazish anketa to'ldirish, suhbat o'tkazish va boshqalar.

Transport monitoringgidan tashishlarni bohqarish sistemalari va avtoparkning boshqarishning avtomatlashtirilgan sistemalarida transport logistikasi masalalari hal qilishda foydalaniladi. Ishlash prinsipi transport koordinatalarni kuzatish va tahlil qilishdan iborat.

samaradorligini baholash me'zonlari





ATV samaradorligini baholash me'zonlari	Formulasi	Baholash me'zonlari	
Samaradorlik koeffitsienti	$K_{\mathcal{G}} = K_{\alpha} W_i C_{npi} / (K_{\omega} W_o C_{npo})$ $W_i = \frac{K_r M_r \beta V_{cp} T (1 - \sum_{i=1}^{i=m} K_{Ti})}{1 + V_{cp} \sum_{i=1}^{i=m} K_{Si}}$	Yukni yetkazib berishning kafolatlanganlik koeffitsienti, unumdorlik, ATV ning taqqoslanadigan va al'ternativ variantlaridagi keltirilgan harajat-lari ko'paytmalarining nisbati	Transport ishini al'ternativ transport bilan taqqoslab baholaydi.
Moslashuvchanlik koeffitsienti	$K_{np} = N_{\Phi} / N_H$	Ma'lum ekspluatatsiya sharoitlarida ehtiyot qismlar amaldagi sarfining ehtiyot qismlar me'yorlangan sarfiga nisbati.	Ekspluatatsiyadaga etarlicha vaqt tugagandan keyin aniqlanadigan moslashuvchanligini baholash.
Yuk avtomobili ning unumdorligi	$W = \frac{q\gamma\beta V_t \cdot l_{ez} \cdot T_n \cdot 365 \cdot \alpha}{l_{ez} + \beta V_t \cdot t_{np}}$	Texnik tezlik, yuk ko'tarish qobiliyati, yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish, o'tilgan yo'l, liniyaga chiqarish koeffitsientlari, naryad vaqti, yuk bilan yurish yuk-ortish tushirish ishlariga ketadigan vaqtini hisobga oladi.	Muayyan davr yoki yildagi transport xizmatini baholash.
ATV ning unumdorligi	$W = \frac{q\gamma\beta V_{cp} \cdot K_m (1 - K_{opz})}{1 + V_{cp} \cdot K_s}$	O'rtacha harakatlanish tezligi, yuk ko'tarish kobiliyati, yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish.	Qatnov, muayyan davr yoki yildagi transport xizmatini baholash.
Solishtirma unumdorligi	$W_{y\delta} = \frac{m_H \cdot V_{cp}}{Q_s}$	Tashilayotgan yuk massasi va o'rtacha harakatlanish tezligi ko'paytmasining yonilg'ining yo'ldagi sarfiga nisbati	Bajarilgan ish bo'yicha transportni baholash, ATV ni tanlashda foydalanish mumkin.
YUK avtomobili texnik-iqtisodiy samaradorligining kompleks ko'rsatkichi	$K_{t.\delta\beta} = \frac{m_a \cdot V_{cp}}{\bar{G}_t}$	To'la massa va o'rtacha harakatlanish tezligi ko'paytmasining soatbay o'rtacha yonilg'i sarfiga nisbati.	Bajarilgan ish bo'yicha transportni baholash.






Avtomobil dan foydalanishning solishtirma tannarhi	$S_{y\delta} = \frac{100(S_{np} + S_{\gamma})}{W_r},$	Ishlab chiqarish tannarhi va ATVning soatbay ekspluatatsiya tannarhi yig'indisining ATV soatbay unumdorligiga nisbati, t.km/ch	Bajarilgan ish bo'yicha transportni baholash ATV ni tanlashda foydalanish mumkin.
Solishtirma unumdorlik	$W_{\varrho} = \frac{\gamma \cdot q \cdot V_{cp}}{Q_s}$	Tashilayotgan yuk massasi va ATVning o'rtacha harakatlanish tezligi ko'paytmasining yonilg'ining yo'ldagi sarfiga nisbati	Bajarilgan ish bo'yicha transportni baholash, ATVni tanlashda foydalanish mumkin.

Uzatish moduli mobil aloqa operatorlarining simsiz tarmog'idan foydalanib, ma'lumotlarni uzatish imkonini beradi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi

va matn shaklida yoki kartografik axborotdan foydalanib dispecherga beradi. 3-rasmda dastur taminoti interfeyslarining namunalari berilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.A.Xo`jaev. Avtomobillarda yuk va pasajir tashish asoslari. Darslik T., "O`zbekiston", 2002 yil
2. B.A.Xodjaev. Avtomobil'no`e perezovki. T. : —O`qituvchi||, 1991.
3. A.V.Vel'mojin, V.A. Gudkov, L.B. Mirotin, A.V.Kulikov.- Gruzovo`e avtomobil'no`eperezovki. M.: — Goryachaya liniya - Telekom||, 2007.
4. L.L.Afanas'ev, N.B. Ostrovskiy, S.M.TSukerberg- Edinaya transportnaya sistema I avtomobil no`e perezovki. M.; «Transport». 1984



## AVIATSIYA TEXNIK JIHOZLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH

Ismatova Ozoda Normatovna

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti  
magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6036046>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021  
Ma'qullandi: 15-yanvar 2022  
Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Sertifikat, normativ-huquqiy hujjatlar, majburiy sertifikatlashtirish,

### ANNOTATSIYA

*Maqolada aviatsiya texnik jihozlarni sertifikatlashtirish qonun va qoidalari, muvofiqlik to'g'risidagi sertifikatlar yoki boshqa va unga o'xshash hujjatlar berish berish tartibi fuqaro aviatsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.*

Majburiy sertifikatlashtirishda qo'llaniladigan talablar va uni amalga oshirish tartibi, shu jumladan muvofiqlik to'g'risidagi sertifikatlar yoki boshqa va unga o'xshash hujjatlar berish (sertifikatlar ko'rsatilgan) berish tartibi fuqaro aviatsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Sertifikat effekti to'xtatilishi mumkin, cheklovlar uning harakatiga kiritilishi mumkin, shuningdek sertifikatni fuqaro aviatsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin. Majburiy sertifikatlashtirish bo'yicha ish haqi talabnoma beruvchi tomonidan talabnoma beruvchi tomonidan fuqaro aviatsiyasi sohasidagi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy va majburiy sertifikatlashtirishning tartibida amalga oshiriladi.

Samolyot va yangi havo vintlarini sertifikatlash, shuningdek, fuqaro aviatsiyasida foydalanish uchun mo'ljallangan havo dvigatellari va havo vintlaridagi dizaynlar va butxonalar va butlovchi qismlar o'zlariga rioya qilish uchun amalga oshiriladi Aviakomnik va atrof-muhitni muhofaza qilish. Takaya

danichtici sertifikatlashtirishning talablari va protseduralari sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi, shu jumladan samolyot, samolyotlar va havo vintlarini o'rnatish uchun mo'ljallangan komponent mahsulotlarini sertifikatlash tartibi va protseduralari mavjud.

Sertifikatlashtirish sertifikatlash natijalari, aviatsiya vositalari, aviatsiya vositalari yoki yangi turdagi talablar va atrof-muhitni muhofaza qilishning yangi turi yoki yangi turdagi yangi turdagi talablar yoki yangi turdagi yangi turdagi talablarga rioya qilish orqali yakunlanadi. Mavjud samolyotlar, havo dvigateli yoki havo vint dizaynining o'zgarishi talablari. Turli sertifikat, shu jumladan tur sertifikatiga qo'shimchalar samolyotning, havo dvigatelinini yoki havo vint dizaynini, shuningdek ularning barcha tarkibiy qismlari va komponentlarini belgilaydi. Ushbu moddaning 3-bandida samolyotni tashkil etish va majburiy sertifikatlashtirishga ishonib topshirilgan va samolyotlarni o'rnatishga ishonib topshirilgan va havo vintlari va tarkibiy qismlarini o'rnatishga mo'ljallangan vakolatli organ tomonidan berilgan.



Samolyot dvigatelining har bir nusxasi, ular uchun mo'ljallangan tarkibiy qismlar, shu jumladan ommaviy ishlab chiqarish jarayoni va parametrlar bo'yicha komponentlar, shuningdek, parametrlar va parametrlar bo'yicha komponentlar, ushbu misolning muvofiqligi sinovdan o'tkaziladi. Ushbu hujjatlar dizayn, operatsion va ta'mirlash hujjatlari va samolyotlar xususiyatlari, samolyot dvigatellari va havo viz vintlari odatdagi tuzilmalariga mos keladi va ularning ishlab chiqarish esa ishlab chiqarish uchun talablar bilan belgilanadi.

Operatsiya paytida samolyotlarning instantsiyasining aviakompaniyasining sertifikatining muddatini vaqti-vaqti bilan kengaytirish uchun, operatsion hujjatlarda belgilangan ma'lum bir samolyotlar faoliyat ko'rsatadigan sinovlar va tekshiruvlarni amalga oshiradi Aviatsiya uskunalari seriyali ishlab chiqarish va qazib olish jarayonida ushbu testlar va tekshirishlar uchun talablar va tartiblar fuqaro aviatsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Ommaviy ishlab chiqarish uchun mo'ljallanmagan individual samolyotlar (bitta qurilishning havo kemalari), sinovlarni o'tkazish, parvoz instantsiyasining reysining muvofiqligini tekshirish va berish uchun soddalashtirilgan tartibda ruxsat beriladi. Sertifikatni ro'yxatdan o'tkazish va berish tartibi, shu jumladan, sertifikat va u samolyotlar, havo dvigatellari, havo vintlari va butlovchi qismlariga qo'shilishi, havo vintlar va butlovchi qismlariga binoan, havo vintlar va butlovchilari fuqaro aviatsiyasi sohasi. Aviakompaniyalar va Samolyot dvigatellarini o'rnatish uchun mo'ljallangan havo vintlari va O'zbekiston Respublikasi Fuqaro aviakompaniyasining tarkibiy qismlari, agar xalqaro shartnomada boshqacha qoida nazarda

tutilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq sertifikatlangan.

Samolyot dvigatelini, havo dvigatelini yoki yangi turdagi vositani yoki mavjud odatiy dizaynning modifikatsiyasini o'rnatishga mo'ljallangan samolyot turini va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun rioya qilinishini ta'minlash Samolyot, samolyotlar dvigateli, havo, havo vintlari, komponenti yoki ularning odatiy dizayni o'zgarishi. Oddiy dizaynni o'zgartirish uning ishlab chiqaruvchisi va boshqa vakolatli shaxs tomonidan aviatsiya texnologiyalarini ishlab chiquvchisi tomonidan sertifikat bilan amalga oshirilishi mumkin. Dasturchining bu vazifalari samolyot hayoti, samolyotlar dvigateli, havo vintisi yoki tarkibiy qismida ijro etish vazifasi bajarilishi kerak. Har birining har birining ishlab chiqarilayotgan samolyotlar, havo dvigateli, havo dvigateli, havo vintisi yoki ularga tasdiqlangan dizaynning tarkibiy qismini o'rnatish uchun mo'ljallangan.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarni ishlab chiqishdan oldin, aviakompaniyalar, samolyotlar dvigatellari, havo vintlari va tarkibiy qismlarini tashkil etish va majburiy sertifikatlash va majburiy sertifikatlash va majburiy sertifikatlashni amalga oshirishi kerak. Ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqaruvchi ushbu moddada nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarini ushbu moddada nazarda tutilgan, shuningdek fuqaro aviatsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha belgilangan tartibda ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqaruvchi sifatida amalga oshirishga haqlidir. Ishlab chiquvchining yoki ishlab chiqaruvchisining rivojlanishi va ishlab chiqaruvchining vazifalarini ishlab



chiqishda yoki aviatsiya uskunalarini boshqa shaxsga topshirishning iloji bo'lmasa, ushbu turdagi aviatsiya uskunalarining ishlashi tugallandi.

Har bir samolyotlar va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari, shuningdek, ma'lum bir samolyotni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan guvohnoma bergan shaxs aviatsiyasining normativ-huquqiy hujjatlari tomonidan belgilangan har bir samolyot aviatsiyasining rioya qilinishini ta'minlash. Samolyotning muayyan nusxasi, havo dvigateli, havo vintlari, havo vintlari yoki tarkibiy qismi, ular operatsion ishlarni amalga oshirgan shaxsga topshiriladi. Samolyot, samolyotlar dvigatellari, havo voksikalarining havourniligi va komponentlarning ijtimoiy nazorati ustidan davlat nazorati hududiy vakolat hokimiyatlari doirasida vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Fuqaro aviatsiyasi, mudofaa sohasida yoki hokimiyatga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori yoki O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston qarori tomonidan tegishli faoliyat sohasi davlat ijro organining vakolatlarini ta'minlaydi.

Samolyotlarni amalga oshirish va ta'mirlash va aviatsiya dvigatellarini o'rnatish va butlovchilarning texnik holati, shuningdek, ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarilayotgan samolyotlarning texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish uchun talab qilinadi. Bu aviatsiya texnikasining aviatsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, aviatsiya uskunalarining parvozga bo'lgan


munosabati va buning uchun zarur choralarni ko'rishda ishlab chiqaruvchining majburiy ma'lumotlarini ko'rib chiqadi. Ishlab chiqaruvchilar va ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, tegishli vakolatli vakolatli organlar, ular uchun zarur choralarni ko'rish va havo kemalarining operatorlari (egalarining) aviatsiya texnologiyasi to'g'risida ma'lumot berishlari va havo kemalarining (egalarini) haqida ma'lumot berishlari va havo kemalari (egalarini) haqida ma'lumot berishlari va havo kemalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat reestrda ro'yxatdan o'tish to'g'risida xabardor qilgan davlatlar. Yuqoridagi ma'lumotlarning tarkibi, manfaatdor tomonlar bilan ta'minlash tartibi - davlatlarning ishtirokchi-huquqbuzarlari - davlatlarning ishtirokchi-huquqbuzarlari fuqaro aviatsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Ma'lumotlar taqdim etiladi va bepul xabar qilinadi.

Tegishli vakolatli vakolatli organ boshqa bir davlat yoki O'zbekiston Respublikasi Xalqaro shartnomalariga muvofiq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha boshqa davlatning boshqa davlatning sertifikatlash organi tomonidan tasdiqlangan muvofiqlik sertifikatini tan olishga haqlidir.

Sertifikatlashtirish organlariga qo'yiladigan talablar, sertifikatlashtirish (test) markazlari va ekspertlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Civil Aviation Fuel Airworthiness Management Regulations (CCAR-55) , 2004: 3-2
2. Guo Q. Inaugurate with Chinese Characteristics Airworthiness Management mode. Civil Aviation Science & Technology, 2011, 02:2-1
3. Dai J. The Cognition of the Fuel Airworthiness Management.. Civil Aviation Science & Technology, 2011, 02: 2-1



**ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА ҲИМОЯЛАНГАН  
МАЙДОНЛАРДА ГИЛОС ЕТИШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ  
САМАРАДОРЛИГИ ТАҲЛИЛИ**

**Жўраев Фарҳод Мамадиёрови**

ТДАУ ассистент, мустақил изланувчи

Farrux201313@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6036127>

**МАҚОЛА ТАРИХИ**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

*интенсив боғдорчилик,  
инновацион  
технологиялар,  
самарадорлик,  
ҳосилдорлик, мева, гилос,  
ҳимояланган майдон,  
даромад, фойда, таннарх,  
рентабеллик даражаси.*

**ANNOTATSIYA**

*Мақолада Ўзбекистон гилос етиштириш ва уни экспорт қилиш. Гилосни ҳимояланган майдонда етиштириш технологиясини самарадорлигини баҳолаш масалалари кўриб чиқилган. Гилос етиштиришда инновацион технологияларни жорий этиш самарадорлиги кўрсаткичлар орқали ҳисоб-китоблар амалга оширилган. Тошкент давлат аграр университети ахборот-маслаҳат марказида интенсив гилос боғларини ҳимоялаш бўйича таклиф ва хулосалар келтирилган.*

**Кириш**

Бугунги кунда жаҳон бозори конъюнктураси кескин ўзгариб, глобаллашув шароитида рақобат тобора кучайиб бораётган даврда давлатимизни янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш учун мутлақо янги ёндашув ҳамда тамойилларни ишлаб чиқиш ва рўёбга чиқаришни тақозо этмоқда. Жаҳон тажрибаси барча соҳаларда сифатли ўсишни таъминловчи инновацияларни узлуксиз тарзда амалиётга жорий этиш жамият ва иқтисодиёт ривожланишини ҳаракатга келтирувчи кучга айланганлигини кўрсатмоқда. Боғдорчиликни ривожлантириш учун республика ҳудудларининг табиий-

икдим шароитлари қулайлиги, интенсив боғдорчиликни ривожлантириш борасидаги технологик имкониятлар, интеллектуал салоҳият ортиб бориши, тоғ ва тоғ олди ҳудудларида ёғин-сочин, ер ости сувлари миқдори интенсив боғдорчилик учун етарли эканлиги ва колаверса шакланган тажрибалар ва дехкончилик маданияти бу борадаги имкониятларни янада кенгайтирмоқда. Лекин, Ўзбекистон Республикаси Президенти таъкидлаганларидек, “Бугунги кунда юртимизда етиштирилаётган мева-сабзавотнинг атиги 5 фоизи қайта ишланиб, 8 фоизи экспорт қилинмоқда, холос...”<sup>1</sup>. Иккинчи томони эса фермер хўжаликларида етиштирилган меваларни янги узилган

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Қишлоқ хўжалиги ходимлари кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://agro-olam.uz/uzbekiston->

[respublikasi-prezidenti-shavkat-mirzijojevning qishloq-hujaligi-hodimlari-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi/](https://agro-olam.uz/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirzijojevning-qishloq-hujaligi-hodimlari-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi/)





ёки кайта ишланган ҳолда охирги истеъмолчигача етказиб бериш билан боғлиқ инфратузилмалар, тегишли хизматлар етарли даражада ривожланганмаган. Шу боис интенсив боғдорчиликни ривожлантириш билан боғлиқ бўлган муаммоларнинг илмий ечимларини топиш, мева етиштирувчи фермер хужаликларида самарали бизнесни ташкил қилишнинг иқтисодий асосларини такомиллаштириш йўналишида илмий-тадқиқотларни амалга ошириш долзарблик касб килмоқда.

### **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили**

Хорижий олимларнинг кўпгина илмий ишлари инновацион технологияларни иқтисодий баҳолаш муаммосига бағишланган. Жумладан, Ж.О.Ланжув, А.Пэйкс инновацион технологияларни патентли баҳолаш [10, 11] нуқтаи назаридан ёндашиб, бу ҳолатда инновацион технологияларни номоддий активлар сифатида таърифлайди. П.Х.Сулливан [12] капитални интеллектуал бошқариш доирасида интеллектуал қўйилма билан белгиланадиган технологияларнинг қийматини баҳолашни иккиланган мураккабликка эга бўлган парадигма (икки парадигманинг мураккаблиги), яъни ишлангани яратиш ва тугатиш муаммоси сифатида талқин қилади.

Инновацион технологияларни баҳолашда инновацияларни тарқатиш тизимининг ривожланганлик даражаси эътиборга олиниши лозим бўлиб, бу масала биринчи бор Т.Хегерstrand томонидан [13] инновацион технологияларнинг маконда тарқалиш назариясида тавсифланган. Е.Роджерснинг [14] тизимлаштиришига биноан эса инновацияларни тарқатиш қуйидаги босқичларни ўз ичига олади: 1)

амалиётга жорий қилишга имкон берувчи билим; 2) назарий жиҳатдан амалий билимни ҳаётга татбиқ қилишга ишонч; 3) назарий билимнинг мавжуд муаммоларни ҳал қилувчи ишланмага айланиши; 4) инновацион ишлангани ҳаётга татбиқ қилиш; 5) инновацион ғояни эмпирик тасдиқлаш.

Инновацион технологияларни иқтисодий баҳолаш усулларини тадқиқ этиш Н.П.Арчер, Б.Х.Холл, [15, 16] каби олимларнинг асарлари предметга айланган бўлиб, уларнинг ишлари инновацион технологияларни баҳолаш учун муайян қоидалардан фойдаланиш нуқтаи назаридан муҳим аҳамиятга эга. Қишлоқ хўжалигида инновацион технологиялардан фойдаланишнинг самарадорлигин баҳолаш масалалари бўйича республикамиздаги олимлардан Н.С.Хушматов, К.А.Чориев, Т.Х.Фармонов, Ф.Х.Назарова, С.Р.Умаров, Ш.Б.Ф.Султанов, М.Х.Саидов, Ш.Т.Хасанов, И.Б.Рустамовалар томонидан ўрганилган.

Қишлоқ хўжалигида инновацион технологиялардан фойдаланишни иқтисодий баҳолашнинг услубий асослари номли қўлланмада қишлоқ хўжалигида инновацион, ресурстежамкор технологиялардан фойдаланишнинг назарий ва услубий асослари, қишлоқ хўжалигида инновацион, ресурстежамкор технологияларни иқтисодий баҳолаш кўрсаткичларини (индикаторларни) тизимлаштириш масалалари кўриб чиқилган. Бундан ташқари қишлоқ хўжалигида инновацион фаолиятни асосий йўналишлари, инновацион технологияларни иқтисодий баҳолашнинг концептуал модели, услубиёти, инновацион технологияларни ўлчашнинг



методологик ёндашувлари баён этилган [3].

Аграр соҳани инновацион ривожлантиришнинг асосий йўналишлари номли монографияда аграр соҳада инновацион фаолият ва унинг асосий йўналишлари, инновацион жараён, инновацион лойиҳа, инновацион маҳсулот каби тушунчаларга илмий-назарий қарашлар баён этилган [2].

Қишлоқ хўжалигини инновациялар асосида модернизациялаш самарадорлигини ошириш бўйича услубий тавсиялар индустриал ривожланган хорижий давлатлар тажрибаларига таянган ҳолда республикамиз қишлоқ хўжалигини инновацион модель асосида модернизациялашни ташкил этишнинг зарурлиги ҳамда унинг асосий йўналишларини асослаб бериш ва самарадорлигини ошириш муаммоларига бағишланган [7].

Инновациявий техника ва технологиялар самарадорлиги ва унда техник-иқтисодий тадқиқотларнинг ривожлантирилиши номли мақолада қишлоқ хўжалигида инновацион техника ва технологиялар самарадорлигини баҳолашда техник иқтисодий таҳлилий аҳамияти ва назарий-услубий жиҳатлари кўриб чиқилган [5].

Юқорида қайд этилган миллий ва хорижий иқтисодчи-олимларнинг илмий-тадқиқот ишларида қишлоқ хўжалигида инновацион, ресурстежамкор технологиялардан фойдаланишнинг баҳолаш мезонлари ва кўрсаткичлар тизимининг услубий асосларини ўрганиш ва таҳлил қилиш ҳам алоҳида ўрин эгаллаган ва мазкур олимлар томонидан ҳар хил самарадорлик турлари бўйича

баҳолашга ёндашувлар қўлланган. Муаллиф томонидан ўсимликчилик тармоғида инновацион, ресур-тежамкор технологияларни иқтисодий баҳолаш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилган [6]. Ушбу тавсияларга асосан муаллифлик ёндашув асосида ресурстежамкор технологияларни иқтисодий баҳолаш амалга оширилган.

Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг жорий қилинаётган ресурстежамкор технологияларини баҳолашда инновацион асосда такрор ишлаб чиқаришни самарали ташкил қилиш ҳамда қишлоқ ҳудудларини ривожлантиришга ёрдам берадиган омиллардан бири эканлиги нуқтаи назаридан ёндашилади. Жорий қилинаётган технологиянинг натижаларини баҳолашга ҳам шу нуқтаи назардан ёндашилган.

#### **Тадқиқот (ўтказиш услуби) методологияси**

Тадқиқотнинг назарий асоси бўлиб, илмий билишнинг диалектик услуби ҳамда иқтисодчи олимларнинг инновацион жараёнларга оид илмий ғоялари, қарашлари хизмат қилди. Мавжуд турли илмий ёндашувларга таянган ҳолда, биз Тошкент вилояти Кибрай туманида жойлашган Тошкент давлат аграр университетининг ахборот-маслаҳат марказида 13 сотих ер майдонида экилган гилос маҳсулотларини баҳор фаслида глобал иқлим шароити ўзгариши, қаттиқ шамол ва ёмғирардан асраш учун инновацион технологияни жорий этиш ва иқтисодий самарадорлигини асослашни амалга оширдик.

#### **Таҳлил ва натижалар**

Ўзбекистон гилос етиштириш ва уни экспорт қилиш бўйича АҚШ, Чили, Туркия ва Европа иттифоқидан кейин



еттинчи ўринда туради. Маълумотларга қараганда, айти пайтда мамлакатимиздаги гилосзорлардан йилига 200 минг тоннага яқин ҳосил олинади. Унинг 30 минг тоннадан ортиғи хорижий ҳаридорларга жўнатилмоқда [17].

2016-йилдан 2018-йилгача бўлган даврда гилос ишлаб чиқариш бўйича мамлакатлар рўйхати озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти

1-жадвал

**Мамлакатлар бўйича ишлаб чиқариш<sup>2</sup>**

№	Худуд	2018	2017	2016
1	Туркия	823,731	809,006	792,150
2	АҚШ	447,740	514,086	428,690
3	Украина	303,340	243,130	219,770
4	Россия	278,600	245,914	276,532
5	Польша	260,589	91,264	248,590
6	Эрон	246,975	244,847	314,999
7	<b>Ўзбекистон</b>	<b>228,700</b>	<b>193,678</b>	<b>150,009</b>
8	Чили	156,070	126,767	123,399
9	Сербия	147,176	118,982	97,981
10	Италия	122,396	125,850	102,459

Ўзбекистон гилос етиштирувчи мамлакатлар кучли ўнталигига 2006-йилда кирган. Катта ўсиш 2015-йилдан

корпоратив статистик маълумотлар базасига асосланиб тузилган. Дунё бўйича 2017 йилда умумий ишлаб чиқариш ҳажми 3,611 минг тоннани ташкил этиб, 2018 йилда 4,076 минг тоннани ташкил этган ва 12,9 фоизга ошган. Республикамизда 2016 йилда 150,0 минг тонна гилос етиштирилган бўлса, 2018 йилга келиб, бу кўрсаткич 228,7 минг тоннагача, яъни 78,7 минг тоннага ёки 65,5 фоизга ошган. [18].

кузатиб келинмоқда. Хусусан, 2019-йил натижаларига кўра, Ўзбекистон гилос етиштириш бўйича Туркия, АҚШ ва Европадан сўнг тўртинчи ўринни эгаллади.

2020-йилда 23,5 минг тонна (48 миллион АҚШ доллари миқдорида) ўзбек гилоси ташқи бозорларга экспорт қилинган [19].

Охирги 2-3 йил давомида табиий иқлим шароити яъни совук уриши, ёғингарчилик туфайли гилосни ҳосилдорлиги 30-40 фоизи нобуд бўлган. Ваҳоланки гилос етиштиришда агротехник тадбирларни ўтказиш учун анча мунча сарф ҳаражатлар қилинган. Ушбу вазият юзасидан боғдорчиликда баҳор фаслида меваларни асраш мақсадида инновацион ресурстежамкор технологияларни жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

Кейинги йиллардаги ҳимояланган майдон соҳасидаги катта ютуқлардан бири, бу полиэтилен плёнкасининг яратилиши ва уни турли шаклдаги иссиқхоналар ҳамда ҳимояланган майдонларни ёпишда кенг миқёсда қўлланилишидир. Ҳозирги вақтда ишлаб чиқарилаётган плёнкаларнинг сифати яхши, бакувватлаштирилган бўлиб, ушбу

2

[https://uz.wikipedia.org/wiki/Gilos\\_yetishtirish\\_bo%CA%BB%yicha\\_davlatlar\\_ro%CA%BB%yaxati](https://uz.wikipedia.org/wiki/Gilos_yetishtirish_bo%CA%BB%yicha_davlatlar_ro%CA%BB%yaxati)





плёнкардан 3-5 йилгача фойдаланса бўлади.

Гилосни ҳимояланган майдонда етиштириш технологиясини самарадорлигини баҳолаш қуйидаги изчилликда бажарилган:

1. Инновация жорий этиладиган объектни танлаш;
2. Иқтисодий баҳолаш кўрсаткичларини аниқлаш [3, 6].

**1. Инновация жорий этиладиган объектни танлаш.** Тошкент давлат аграр университети Ахборот-маслаҳат марказида (extension center) гилосни “Валовое сердце”, “Баҳор”, “Лопис” навлари 2019 йилда экилган бўлиб, 2022 йилдан бошлаб ҳосил олиш режалаштирилган. Режалаштирилаётган ҳосилни нобудгарчилигини олдини олиш мақсадида “Мевачилик ва узумчилик” кафедраси мудири профессор

И.Т.Нормуратов томонидан боғдорчилик маҳсулотларини ҳимояланган ерларда етиштиришнинг инновацион технологиясини таклиф этган.

**2. Боғдорчилик маҳсулотларини ҳимояланган ерларда етиштиришнинг инновацион технологияси иқтисодий баҳолаш**

Мевачиликда қўлланиладиган интенсив технологиялар асосида яъни ҳимояланган ер майдонини тайёрлаш учун устунлар, оёклар ва дугалар учун трубалар ва плёнка материаллари талаб этилади. Муаллиф томонидан инновацион технологияни самарали эканлигини асослаш ва жорий этиш мақсадида ишлаб чиқилган услубият ёрдамида гилос етиштиришда ҳимояланган ер майдонини тайёрлаш бўйича ҳаражатлар 2-жадвалда келтирилган [3].

2-жадвал

**Гилос етиштиришда ҳимояланган ер майдонини тайёрлаш бўйича ҳаражатлар таркиби<sup>3</sup>**

№	Ҳаражат турлари	Ўлчов бирлиги	Миқдори	Нархи сўм	Қиймати 13 сотих учун минг сўм	Қиймати 1 гектар учун минг сўм
1	Устунлар учун трубалар (диаметр 20 мм)	м	500	16000	8000	61600
2	Дугалар учун трубалар (диаметр 15мм)	м	1000	13000	13000	100100
3	Оёклар учун трубалар (диаметр 25мм)	м	250	20000	5000	38500
4	Болт	дона	1600	600	960	7392
5	Плёнкани ушаб туриш учун зажим	м	640	3300	2112	16262,4

<sup>3</sup> Муаллиф томонидан ҳисоб-китоблари асосида амалган оширилган.



6	Трубани ушаб туриш учун зажим	дона	960	700	672	5174,4
7	Плёнка	кг	120	23000	2760	21252
	<b>Жами</b>				<b>32504</b>	<b>250280,8</b>

Диаметри 20 мм устунлар учун трубаларни бир бирлик нархи 16-19 минг сўми, диаметри 15 мм дугалар учун трубаларни бир бирлик нархи 13-16 минг сўми, диаметри 25 мм оёкчалар учун трубаларни бир бирлик нархи 20-25 минг сўми ташкил этмоқда.

Тошкент давлат аграр университети Ахборот-маслаҳат марказида (extension center) гилосни “Валовое сердце” нави 6 сотих, “Баҳор” нави 3 сотих, “Лопис” нави 4 сотихни ташкил этган.

Бир гектар ердан 100-150 центнер гектарига гилос маҳсулотлари олиш режалаштирилган. Умумий ялпи ҳосил 10-15 тоннани ташкил этади.

Бир гектар ерда етиштирилган гилос ҳисобига 700 млн сўмлик даромад олинади.

Гилос етиштиришда 13 сотих учун 1та доимий ишчи ва йиғим терим учун 2та ишчи жалб этилади. Йиғим терим ишлари учун ишчи бир кунда 1та теримчи 50 кг гилос теради ва 1 кг учун иш ҳақи 1500 сўм белгиланган бўлиб 15

кун мобайнида 1та теримчи учун 1 кун учун 75 минг сўм, 15 кун учун 1125 минг сўм иш ҳақи белгиланади. Минерал ўғитлар ҳаражатлари 13 сотих учун 489,2 минг.сўми, бир гектар учун 3768 минг.сўми ташкил этади. Кимёвий восита ҳаражатлари 13 сотих учун 851,9 минг сўм, бир гектар учун 6560 минг сўми ташкил этмоқда.

Кўчат ҳаражатлари 13 сотих учун 9821,6 минг сўми, бир гектар учун 75551 минг сўми ташкил этди. 1 гектар ер майдонига 900-1000 туп кўчат экилади. Битта кўчатни нархи 6 евро, 1 евро 06.07.2021 йилда 12591,9 сўм. Яъни 1та кўчат нархи 75,5 минг сўми ташкил этади. Бир гектар ер майдонига 1000 дона гилос кўчати экилади.

Ёнилғини бир бирлик нархи 7100 сўми ташкил этиб, бир гектар ер майдонига умумий 1704 минг сўмлик ҳаражат килинади. Ҳимояланган ер майдонида гилос етиштиришнинг ҳаражатлар сметаси ва иқтисодий самарадорлиги 3-жадвалда ўз аксини топган.

3-жадвал

**Ҳаражатлар сметаси<sup>4</sup>**

(минг.сўм)

№	Кўрсаткичлар	Қиймати 13 сотих учун , минг.сўм	Қиймати 1 га учун
1	Меҳнат ҳақи	23850	27225
2	Минерал ўғитлар	489,4	3768
3	Қимёвий ҳимоя	851,9	6560
4	Кўчат	9821,6	75551
5	Ёнилғи мойлаш материаллари	221,3	1704
6	Сервис хизматлари	218,2	1680

<sup>4</sup> Муаллиф томонидан ҳисоб-китоблари асосида амалган оширилган.



7	Солиқ	97,4	750
8	Сув солиғи	49,1	378
9	Бошқа ҳаражатлар	67,5	520
	<b>Жами ҳаражатлар</b>	<b>35666</b>	<b>118136</b>

Ушбу ҳисоб-китоблардан кўриниб турибдики, гилос етиштиришни ривожлантириш фаолиятдан 13 сотихдан 22,8 млн сўм, бир гектардан эса 331,6 млн сўм соф фойдага эга булиши кўзда тутилмоқда. Гилос маҳсулотини етиштирувчи ўз маблағи ҳисобига киритган инвестициялар 3-4 ойда копланди.

### Хулоса ва таклифлар

Хулоса қилиб айтганда, гилосни ҳимояланган майдонда етиштириш технологиясини жорий этиш ҳисобига ҳимояланган ерларда гилос меваларини ҳосилдорлигини, сифат кўрсаткичларини оширишда ҳамда гилос дарахтларини турли хил касалликларидан ҳимоя қилишга хизмат қилади. Гилос мевасини ҳимояланган майдонда етиштириш ҳисобига фойдалилик даражаси 90 фоизни ташкил этган.

**Олиб борилган тадқиқотлар юзасидан қуйидаги таклифлар келтирилмоқда:**

- мевачиликда қўлланиладиган интенсиф технологиялар асосида яъни ҳимояланган ерларда гилос етиштиришни йўлга қўйиш;

- гилос боғларини эрта баҳорги аёзли совуқлардан ҳимоялаш;

- гилос меваларини тўкилиши ва ёрилишини ҳар хил табиий офат (ёмғир, дўл, қор, шамол) лардан ҳимоялаш;

- гилос дарахтларига сурункали ёғингарчилик сабабли келиб чиқадиган ҳар хил замбуруғли касалликлардан ҳимоялаш.

Юқорида келтирилган таклифлар ҳимояланган ерларда гилос меваларини ҳосилдорлигини кўпайтиришда, сифат кўрсаткичларини оширишда ва гилос дарахтларини турли хил касалликларидан ҳимоя қилишга ҳамда мева маҳсулотларини экспорт имкониятларини оширишга хизмат қилади


### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Драгайцев В.И., Морозов В.М. Методика экономической оценки технологий и машин в сельском хозяйстве. – М.: 2010, -146 с (6-7 с), (18с)
2. Мухторов А.Х., Султанов Б.Ф, Саиджонов С.Ж. Аграр соҳани инновацион ривожлантиришнинг асосий йўналишлари (монография-Тошкент, ҚХИИТИ, 2014.- 98 бет.
3. Рустамова И.Б, Хушматов Н.С, Саидов М.Х, Ашурметова Н.А, Галимова Ф.Р, Турсунов Ш.А. Жўраев Ф.М, Нурбекова Р.А. Қишлоқ хўжалигида инновацион технологиялардан фойдаланишни иқтисодий баҳолашнинг методологик асослари. Қўлланма - ТошДАУ Таҳририят-нашриёт бўлими. 2019, 87 бет
4. Рустамова И.Б. “Қишлоқ хўжалигида техника ва технологияларни иқтисодий баҳолаш” бўйича тавсиялар. ТошДАУ нашр таҳририяти. 2016 й. 80 б.



5. Саматов Г.А., Рустамова И.Б. Инновациявий техника ва технологиялар самарадорлиги ва унда техник-иқтисодий тадқиқотларнинг ривожлантирилиши. Иқтисодиёт ва таълим. №1 2015 г 48-52 б.
6. Хушматов Н.С, Рустамова И.Б, Жўраев Ф.М, Нурбекова Р.А. Ўсимликчилик тармоғида инновацион, ресурс-тежамкор технологияларни иқтисодий баҳолаш бўйича тавсиялар. Тавсиялар.-ТошДАУ Таҳририят-нашриёт бўлими. 2019, 60 бет
7. Чориев К.А. Қишлоқ хўжалигини инновациялар асосида модернизациялаш самарадорлигини ошириш бўйича услубий тавсиялар.-Т.: ЎзБИИТИ, -2013 35 б.
8. Lanjouw, J. O., Edvinsson, L., Malone, M. (1997). Intellectual Capital: Realizing Your Company's True Value by Finding Its Hidden Roots. – New York: Harper Collins Publishers, Inc, 225 p.
9. Pakes A., Putnam, J. (1998). How to Count Patents and Value Intellectual Property: The Uses of Patent Renewal and Application Data. The journal of industrial economics, Volume 46, Issue 4, P. 405-432.
10. Sullivan, P. H. Profiting from Intellectual Capital: Extracting Value from Innovation. Canada: John Wiley and Sons, 1998. Inc, 369 p
11. Hägerstrand, T. (1967). Innovation diffusion as a spatial process. Retrieved from <https://www.worldcat.org/title/innovation-diffusion-as-a-spatial-process/oclc/536383>
12. Rogers, Everett M. Diffusion of innovations. 1983. A Division of Macmillan Publishing Co., Inc. 866 Third Avenue, New York, N. Y. 10022. 447 pp
13. Archer, N. P., Ghasemzadeh, F., Brooking, A., Board, P., Jones, S. The Predictive Potential of Intellectual Capital, 1998. Volume 16, Issue 1-3. Pp18-26 (in english)
14. Hall, B. H. Using patent data as indicators. OST Paris - Patents as Indicators, April 2014, 36 p.
15. <https://xs.uz/uzkr/post/gilos-eksporti-buning-ortidan-katta-daromad-olish-mumkin>
16. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-gilos-etishtirish-bojicha-zhahon-etakchilari-qatorida>





## KO'KRAK SUTINING BOLA HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Najimova Ziyoda Nosir qizi

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti

I pediatriya fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6036163>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*bola, ona suti, antitelolar, saraton.*

### ANNOTATSIYA

*Onaning ko'kraklari bolalar uchun ko'krak suti suyuqlik manbaidir. Ayolning tanasi homiladorlik va ko'krakdagi chaqaloqning emizilishiga javoban uni yaratadi. Ona suti to'liq ovqatlanish bilan bir qatorda infeksiyalardan, kasalliklardan himoya qiluvchi omildir.*

**Mavzuning dolzarbligi.** Ko'krak suti — emizikli ayolning sut bezlari ishlab chiqaradigan sekretiya maxsuloti. Ona suti go'dak uchun eng yaxshi oziqadir, chunki bu davrda u tarkibi va oziq moddalar nisbatiga ko'ra go'dakning ovqat hazm qilish sistemasi va moddalar almashinuviga mos keladi. Ona bilan bola o'rtasida homiladorlikning dastlabki kunlarida "Ona—yo'ldosh va homila" o'zaro bog'lanadi. Bola dunyoga kelgach esa bu "Ona — ko'krak suti va bola" ko'rinishida davom etadi. Shu zanjir tufayli bola onadan kerakli oziq va biologik faol moddalarni oladi, shuningdek, ona va bola o'rtasida mehr hissi rivojlanadi.

**Maqsad.** Bola hayotida muhim o'rin tutgan ko'krak suti tarkibi va hosil bo'lish bosqichlarini o'rganish, ko'krak sutining chaqaloqlarga ahamiyatini o'rganish.

**Material va metodlar:** ko'krak sutining bola hayotidagi ahamiyatini o'rganish uchun quyidagi adabiyotlardan foydalanildi:

1. Krivoshapkina D.M. Katta yoshdagi bolalarda kaltsiy / D vitamini etishmasligi: muammo, oldini olish / D.M. Krivoshapkina, M.V. Qo'lda, G.A. Palshin, N.P. Shabalov, Yu.L.

Qovurilgan idish. - Qo'llanma. Ed Men GU. - Yakutsk;, 2006. - 60 b.

2. Mahalliy pediatrianing daftarchasi. 1-qism. Ma'lumot va uslubiy qo'llanma / tahrirlangan M.F. Rzyankina va V.P. Sut. - Xabarovsk;, 2003. - 342.s.

3. Mazurin A.V. "Umumiy bolalar parvarishi" / A.V. Mazurin, A.M. Zaprudnov, K.I. Grigoryev. - M., Tibbiyot 1998 yil.

4. Xandi M.V. Ambulator pediatriya. 1-qism. Bolalar va xavf ostida bo'lgan bolalar uchun tibbiy yordam: o'quv qo'llanma / M.V. Qo'lda, N.V. Savvina, L.A. Stepanova, S.I. Prokopyeva. - Yakutsk: Ed. Men GU. 2006. -- 146 b.

5. Xandi M.V. Sog'lom bolaning ovqatlanishi / M.V. Qo'lda, N.A. Geppe, S.I. Prokopiev va boshqa darslik. - tahrirlangan. Men GU. - Yakutsk;, 2004, 82 b.

**Natija.** Bola tug'ilgandan so'ng dastlabki 2-3 kunda sarg'imgir rangli suyuqlik — og'iz suti ajratadi. U endigina dunyoga kelgan murg'akka eng zarur oziqadir; unda oqsil, tuz, shuningdek, yog' moddalari bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq ona ko'krakiga qancha erta tutilsa, shuncha ko'p og'iz



sutidan bahramand bo'ladi. Shuning uchun ham, onaning ko'zi yorishi bilan dastlabki 20—30 daqiqada chaqaloqni onasining ko'ksiga yotqizib, har ikki ko'krakdan emizishga yordamlashish maqsadga muvofiq. Tug'ruqdan keyingi birinchi hafta oxiridan yog'larga boy bo'lgan o'tkinchi sut, 2-4 haftadan keyin doimiy sifatli sut paydo bo'ladi. Yetilgan ona suti tarkibida barcha zarur oziq moddalar va vitaminlar bor; ular to'liq hazm bo'lish va singish xususiyatiga ega.

Ayol sutida tuzlar, temir moddasi, mis, rux, kobalt va qon ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qiluvchi boshqa mikroelementlar yetarli miqdorda bo'ladi. Buning natijasida ko'krak suti emgan bolalarda sun'iy ovqatlantiriladigan bolalarga qaraganda kamqonlik kasaligi kam uchraydi. YUNISEFning ta'kidlashicha, yer yuzida tug'ilayotgan har ikki nafar bolaning biri dunyoga kelishining dastlabki onidayoq ona sutidan mahrum ekan. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, ko'krak suti bilan oziqlanish darajasi 100 foizga ko'tarilsa, har yili dunyoda 5 yoshgacha bo'lgan 830 ming bola va 30 ming ayolning hayotini saqlab qolish mumkin ekan.

Yana bir tadqiqot natijalarida shuni ko'rish mumkinki, ko'krak suti bilan emizilgan chaqaloqlar orasida o'lim soni kamaygan. Chunonan, 1 oylik chaqaloqlar orasida – 90%, 6 oylikdan kam yoshdagi chaqaloqlarda – 95%, 6-23 oylik chaqaloqlar orasida bu ko'rsatgich – 90% ga oshganini ko'rish mumkin.

Har bir bola hech bo'lmaganda olti oyi davomida ko'krak sutini emganida, aqliy qobiliyati oshishi hisobiga global iqtisodiyotga qo'shimcha 400 milliard dollar daromad keltirar edi. Afsuski, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning 80 millioni hayotining birinchi soatlaridanoq ona sutini ololmaydi. Yosh onalar bunga e'tibor berishi lozim. Ona

suti yengil hazm bo'ladigan, to'yimli, turli mikroblardan holi, pishirish va isitishni talab qilmaydigan tayyor ozuqadir. Unda 100 dan ortiq kerakli moddalar bo'lib, u faqat miqdor jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham bolaning yoshiga, sog'ligiga mos keladi. Ona sutidagi oqsil, yog', uglevodlar tarkibi yangi tug'ilgan bola organizmidagi xuddi shunday moddalar tarkibiga yaqin turadi. Ona sutida oqsil, yog' uglevodlar 1:3:6 nisbatda bo'ladi va bola ehtiyojini to'la qoplaydi. Sut oqsillari juda to'yimli va chaqaloq ichagida yengil hazm bo'ladi. Yog'lar ham emulsiya holida bo'lgani uchun to'la-to'kis so'rilib ketadi. Ona suti tarkibidagi uglevodlar oziqli xususiyatidan tashqari, ichaklarda mikroblarning o'sishiga to'sqinlik qiladi va shu tariqa ovqat hazm bo'lishini osonlashtiradi. Ona sutida zarur miqdorda tuzlar, ayniqsa kaltsiy va fosfor tuzlari bo'ladi, ular bola skeletining to'g'ri shakllanishi va rivojlanishi uchun g'oyat muhim. Ona sutidagi temir moddasining ahamiyati nihoyatda katta, uning o'zlashtirilish ona sutida odatda 70%ni tashkil etsa, sigir sutida 30%, aralashmalarda esa 10%ni tashkil etadi. Sog'lom onadan tug'ilgan sog'lom bolalarda temir zaxirasining yetishmagan qismi ona suti hisobiga to'ldiriladi, lekin bola ona sutidan sigir suti yoki aralashmaga o'tkazilsa unda kamqonlik rivojlanishi mumkin. Ona sutida vitaminlar miqdori tez o'zgaruvchan bo'lishiga qaramay bola ehtiyojini dastlabki oylarida to'liq qoplaydi. Ona suti turli kasallik viruslari va mikroblariga qarshi moddalar — antitelolarga boy bo'ladi. Bolani emizganda iloji boricha ko'krakda yig'ilgan hamma sutni bola bir emganda tugatishiga harakat qilish lozim, aks holda, bola o'ziga kerakli sutning yuqori kaloriyali qismini ololmaydi, go'dakni emizib bo'lgach, ko'krakda qolgan sutni, hatto u kam bo'lsa-da, oxirgi tomchisigacha sog'ib olish lozim,



bu sut ko'payishiga yordam beradi. Tadqiqotlarning ko'rsatilshicha, ona suti bolani rak kasalliklaridan saqlaydi, uning bu jihatini o'rgangan olimlar, rakka qarshi dori ishlab chiqarishda bundan foydalanish mumkinligini aytishmoqda. Bundan tashqari, bolani emiz natijasida onalarda ko'krak saratoni kasaligining oldi olibgina qolmay uni davolash ham mumkin.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, ushbu ijobiy amaliyot iqtisodiyotning


rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Ko'krak bilan emizish onalar va bolalar uchun afzalliklari mamlakatning sog'liqni saqlash sohasidagi xarajatlarni kamaytiradi hamda kelgusida mehnatga layoqatli sog'lom avlodning shakllanishiga yordam beradi. E. Leyk aytganidek: "Emizishni nafaqat bolalar, onalar va oilalar uchun foyda, balki uzoq muddatli istiqbolda hukumat uchun jamg'arma sifatida ham baholash kerak".

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Современные рекомендации по питанию детей. Под ред. Ю. Г. Мухиной, И. Я. Коня. М.: МЕДПРАКТИКА-М. 2010. 568 с.
2. Руководство по детскому питанию. Под ред. В. А. Тутельяна, И. Я. Коня. М.: МИА. 2004. 662 с.
3. Национальная программа оптимизации вскармливания детей первого года жизни в Российской Федерации. М.: Союз педиатров России. 2011. С. 13-17.
4. Лукоянова О. Л. Грудное молоко как эталонная модель для создания детских молочных смесей. *Вопр. совр. педиатрии.* 2012; 11 (4): 111-115.
5. Лукоянова О. Л., Боровик Т. Э., Беляева И. А., Яцык Г. В. Применение современных технологических приемов для сохранения успешного грудного вскармливания. *Вопр. совр. педиатрии.* 2012; 11 (5): 113-117.
6. Kent J. C. Howbreastfeeding works. *J. Midwifery Women's Health.* 2007; 6 (52): 564-570.
7. Капранова Е. И., Геппе Н. А., Нороган М. В., Боровик Т. Э., Скворцова В. А., Лукоянова О. Л., Фурцев В. И., Прахин Е. И. Основы вскармливания детей первого года жизни. Ростов-на-Дону: Феникс. 2008. 87 с.
8. Современный взгляд на грудное вскармливание. Л.В. Абольян 2017.







## LEKSIKOLOGIYA – SO`ZLAR OLAMIGA SAYOHAT

Olimova Xadichabonu Mirzojamshid qizi

Buxoro davlat universiteti, Filologiya fanlari

khadichabonuolimova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6036238>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO`ZLAR

*Tilshunoslik, leksikologiya, leksema, mustaqil so`zlar, nutq.*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada, tilshunoslikning bo`limi leksikologiya haqida so`z yuritiladi. Hozirgi o`zbek adabiy tili qonun-qoidalari asosida tahlil etiladi.*

Til – millat ko`zgusi, jamiyat qalbi. Uning o`tmishi, buguni va kelajagi hisoblanadi. Bizni qurshab turgan olamda insonlarning o`zaro muloqot almashinuv vositasi hamdir. Bilamizki, tilning hayotimizda tutgan o`rni kata. Bejizga, qadim-qadimdan ota-bobolarimiz tilga e`tiborli bo`lmog`imiz, aytgan har bir so`zimiz ma`no-mazmunini tushunib, o`ylab, keng fikr yuritgan holda gapirmoqligimiz zarurligini ta`kidlashmagan. Negaki, inson boshiga kulfatlar yog`diradigan ham, unga rahmatlar olib keladigan ham til. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek: "Til – shuncha sharafi bilan nutqning quolidir. Agar nutq nomaqbul bo`lib chiqsa – tilning qotilidir".

Ilmiy jihatdan yondashadigan bo`lsak, til deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o`rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Keng ma`noda til atamasi ostida biror muloqot tizimining tayinli qoidalari, majmuasi tushuniladi. Hamda, tilni o`rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi. V fon Gumboldt ta`kidlashicha, tilning har doim, rivojlanib turishi uning eng asosiy

xususiyatidir. Tilshunoslik fanining asosiy masalasi – ana shu xususiyatni o`rganishdan iborat.

Har qanday tilni o`rganayotgan paytimizda, eng avvalo, bizni qurshab turgan narsa va hodisalarning amaliy hayotimiz bilan bog`liq bo`lgan turli xil harakati, holatlari, belgi va xususiyatlarining shu tilda qanday ifodalanishini, nomlanishini bilishdan boshlaymiz. Ma`lum bir tildagi ana shunday so`zlar yig`indisi shu tilning lug`at tarkibini tashkil qiladi.

Leksika atamasi ikki ma`noda qo`llaniladi:

a) Tilning lug`at tarkibi, so`zlar yig`indisi:

b) Lug`at tarkibini o`rganuvchi tilshunoslikning alohida bo`limi.

Leksika atamasining ikkinchi ma`nosi uchun leksikologiya atamasi ham qo`llaniladi. Leksikologiya yunoncha *lexikos* – so`z, so`zga doir va *logos* – ta`limot so`zlarning birikuvidan olingan bo`lib, leksika (so`z) haqidagi ta`limot demakdir. Demak, so`z va uning ma`nolarini o`rganuvchi tilshunoslik bo`limiga



leksikologiya (bazan leksika) deyiladi. “Leksikologiya tilshunoslikning leksikani, ya’ni tildagi soʻzlar xazinasini, tilning lugʻat tarkibini oʻrganuvchi mustaqil boʻlimi hisoblanadi. Leksika atamasi faqat muayyan tildagu barcha soʻzlarga nisbatan emas, balki tilning muayyan qatlamlariga, alohida yozuvchi ijodiga, qandaydir umumiyliги bilan ajralib turuvchi asarlar toʻdasiga yoki alohida bir asarga xos boʻlgan lugʻat boyligini ifodalashda ham qoʻllaniladi (masalan: dialectal leksika, terminologik leksika; Shekspir leksikasi, Pushkin leksikasi; Oʻrta Osiyo tafsirlaru leksikasi, “Qutadgʻu bilig” leksikasi)<sup>1</sup>.

Leksikologiyada asosiy eʼtibor soʻzga, uning lugʻaviy maʼnosiga qaratiladi. Nutq jarayonida esa har bir soʻz leksik va Grammatik maʼnolar uygʻunligidan tashkil topadi. Odatda, leksik va Grammatik maʼnolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka soʻz atamasi qoʻllaniladi. Leksikologiyada soʻzlarni oʻrganish jarayonida maʼlum bir qismi diqqat markazdan chetga chiqib qoladi. Chunki tildagi barcha soʻzlar ham lugʻaviy maʼnoga ega emas. Bu xususiyat faqat mustaqil soʻzlargagina xosdir. (Hozirgi oʻzbek anʼnaviy grammatikamiz xulosalariga koʻra mustaqil soʻz turkumlariga ot, sifat, son, olmosh, feʼl va ravish kiradi. Sistem grammatikamiz boʻyicha bur oʻyxatga taqlid soʻzlar ham qoʻshiladi). Mustaqil soʻzlar obyektiv borliqni aks ettiradi, borliqdagi qandaydir narsa-hodisa, belgi, miqdor, ish-harakat va holat haqidagi tushunchani ifodalaydi. Soʻzning borliqdagi narsa-hodisa, belgi, miqdor, ish-harakat va holat haqida bildiradigan maʼlumoti lugʻaviy maʼno

soʻzlar koʻmakchi, boʻglovchi, yuklama kabi yordamchi soʻzlardan va taqlid, undov, modal soʻzlarni oʻz ichiga oluvchi alohida soʻzlardan (sistem tilshunosligidagi tasdiq, inkor, taklif, undov va modal soʻ- gaplardan) farqli oʻlaroq leksema deb yuritiladi. Bunday vaqtda soʻz morfologiya birligi sifatida, leksema esa leksikologiya birligi sifatida ishlatiladi. Tilning lugʻaviy (leksik) maʼno bildiruvchi birligi leksema sanaladi. Binobarin, leksikologiyada soʻzlar, lekin yuqorida aytib oʻtganimizdek asosan mustaqil soʻzlar oʻrganiladi va asosan eʼtibor ularning lugʻaviy maʼnosiga qaratiladi. Qisqa qilib aytganda, leksikologiyada soʻz va uning lugʻaviy maʼnolari oʻrganiladi.

Leksikologiyani dunyo tillarining barchasiga, bir nechtasiga va aniq bittasiga xos xususiyatlarni oʻrganishiga koʻra uch asosiy turga ajratish mumkin:

1. Umumiy leksikologiya – barcha tillarning leksikasiga xos boʻlgan qonuniyatlarni oʻrganadi.
2. Xususiy leksikologiya – qandaydir belgilariga koʻra birlashtirilgan bir nechta tilning leksikasini oʻrganadi.
3. Konkret leksikologiya – bitta tilning leksikasini oʻrganadi.

Leksikologiyaning bu uch koʻrinishi til yoki tillar taraqqiyotining qaysi bosqichi yoki qaysi davriga asosiy eʼtiborni qaratishga ham koʻra turlarga ajratilishi mumkin. Bunda har bir tilda turlicha tasniflash yuzaga keladi. Masalan, oʻzbek tili leksikasi adabiy til tarkibininh

oʻzidayoq toʻrt kata bosqichni bosib oʻtgan.

1 Olimov M.H. “Ilmul-lugʻot yoki leksikologiya”. “Buxoro” nashriyoti-2010. 26-bet deyiladi. Lugʻaviy maʼnoga ega boʻlgan

Shunga koʻra oʻzbek tili leksikasini





bosqichlar bo'yicha quyidagi to'rt ko'rinishga ajratib o'rganish mumkin.

1. Qadimgi turkiy til leksikasi.
2. Eski turkiy til leksikasi.
3. Eski o'zbek tili leksikasi.
4. Zamonaviy o'zbek tili leksikasi.

Leksikologiyani o'rganish so'zlar olamiga faqat bir turist sifatid sayohat qilishdan emas, balki shu fan tarmog'ining yutuqlari asosida so'zlar xazinasini bilish va tahlil eta olishdan, so'zning ma'no qatlamlarini, uslubiy tovlanishlarini, tildagi boshqa so'zlar bilan munosabatlarini, asli qaysi tilga mansubligini, eskilik, yangilik va zamonaviylik darajasi, ishlatilish doirasi kabilarni, shu barcha jihatlarining taraqqiyoti va taraqqiy etish sabablarini his eta olish va idrok eta bilish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Hammaga ma'lum bo'lgan odiygina qanot so'zini olaylik. U *nima?*so'rog'iga javob bo'ladi. Demak, u ot so' turkumi. Uni leksikologik jihatdan tahlil qilish mumkin. Bolakay bobosiga qaldirg'ochni ko'rsatib: "Qanotlari juda ham go'zal" – dedi. Demakki, qanot – moddiy narsa, uni ko'rish yoki ushlab ko'rsatish mumkin. "Qanot – hayvonlarning uchish organi. Qanot ko'pchilik hasharotlar, qushlar va ayrim sut emizuvchilar uchun xos"<sup>1</sup>. Qanot so'zi – bola bobosiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan uchish organi nomi. Lekin bu so'z birgina qaldirg'och qanotini emas, balki jamiki qushlar, jamiki hayvonlarning shu xil a'zosini bildiradi. Demak, u umumlashtirish xususiyatiga ega ekan, u bir predmetni emas, bir ildagi narsalarni, aniqrog'i o'sha

<sup>1</sup> uz.m.wikipedia.org

narsalar haqidagi tushunchani ifodalalar ekan.

Ko'rib o'tdikki, qanot – uchish organi. Lekin O'rta asrlarda qoraxoniylar qo'shining o'ng va chap qanoti bo'lgan.

Bizda endi savol tug'ilishi mumkin, nahotki bu yerda qo'shin qanotlardan tashkil topgan bo'lsa?! Yo'q, albatta. Bu yerda endi u qo'shin safi, jangovar tartib yoki operativ tuzilishning o'ng yoki chap qismini ifodalovchi atama sifatida ishlatilyapti. Bundan xulosa shuki, qanot so'zining yana bir lug'aviy ma'nosi bor ekan. Yoki bo'lmasa, "Uning gaplari menga qanot bag'ishladi" degan gapni oladigan bo'lsak, bu yerda tabiiyki, qanot so'zini uchish organi deb ham, qo'shinning qismlari deb ham tushuna olmaymiz. Bu yerda u umid bag'ishladi, ilhomlantirdi degan ma'nolarda qo'llanilgan. O'zbekiston Respublikasi madhiyasida:

"... erkin yosh avlodlar senga zo'r qanot!" misrasi bor. Xo'sh endi biz bu misradagi qanot so'zini qanday tushunishimiz kerak. Uning zamirida qanday ma'no bor ekan. Va bildikki, bu yerda ham yangicha ma'noda kelgan. Ya'nikim, tirgak bo'lish, madadkor, izdosh ma'nolarini anglashimiz muki.

So'zning mana shunday ma'no qatlamlarini seza bilish va tahlil eta olish – leksikologiyaning tani. Lekin bugina emas. Shu ma'nolarning biri bosh, qolganlari ko'chma ma'no ekanligini bilgan taqdirimizda ham ish botmaydi. Leksikologiya shu ko'chma ma'nolarning qaysi yo'l bilan hosil bo'lganligini aniqlashni ham talab etadi. Yuqorida tahlil qilingan qanot so'zini oladigan bo'lsak, uning bosh ma'nosi:

- hayvonlarning uchish organi ko'chma ma'nolari esa:
- qo'shin safi, jangovar tartib yoki operativ tuzilishning o'ng yoki chap qismini ifodalovchi atama
- samolyot yoki boshqa harakatlanuvchi transport vositalarining rulman tekisligi
- shamol tegirmoni g'ildiragining aylanadigan pichog'i



- arava, avtomobil va boshqalar g'ildiragi ustidagi shinalar

- yon kengaytma

- har qanday tashkilotning ekstremal (o'ng yoki chap) guruhlanishi

tushuniladi. Bundan tashqari, o'zimiz qiyoshlab o'tganimizdek, tirgak bo'lish, umid bag'ishlash va aba`zan erkinlikni ham tushuncha bo'ladi. (Qaysi ma`noda kelganligi matn mazmuniga qarab olinadi. Lug'atlarda esa asosan bosh ma`no beriladi). Qolaversa, so'zlarning metaforik, metonimik va snekdoxaga aloqadorlik jihatlari tahlil qilish, ularning bo'yoqdorlik darajalarini aniqlash, boshqa tillar so'zlari bilan taqqoslash ham leksikologiya bo'limida amalga oshiriladi.

O'zbek tili misli olmos. Qancha unga ishlov beraversak, shuncha ko'p ma'lumotga ega

bo'laveramiz, uning naqadar go'zal, naqadar purma`no so'zlarga ega ekanligiga amin bo'laveramiz. Shuning qatorida, tilimiz tarixi va uning kelib chiqishi, tuzilmalari va Grammatik qonun-qoidalari ham o'z o'rnida anchagina manbalarga ega. Tilimiz ustida qancha ko'p izlanish olib boraversak, uning ochilmagan sir-asrorlarini shuncha ko'p ochib boramiz va yoki amaldagi ma'lumotlarimizga qo'shimcha yangi fikrlarni qo'shish orqali uni yangilab boramiz.

Bu maqolada, leksikologiyaning o'ziga xos, nozik va qiziqarli jihatlarini ochib berishga harakat qildindi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, leksikologiya har bir so'zni yuqoridagi va yuqoridagiga o'xshash jihatlariga ko'ra professional tahlil eta olish ko'nikmasini shakllantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov M.H. "Ilmul-lug'ot yoki leksikologiya". "Buxoro" nashriyoti-2010
2. [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org)
3. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)





## СУЩЕСТВЕННЫЕ И ИНЫЕ УСЛОВИЯ ПРЕДВАРИТЕЛЬНОГО ДОГОВОРА

**Морозова Валентина Борисовна**

магистрант, Иркутского государственного университета, РФ, г.  
Иркутск

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6036294>

Законодатель признает состоявшимся только тот договор, в котором сторонами достигнуто соглашение по определенным и предписываемым им условиям, в противном случае стороны теряют возможность обратиться в суд за защитой своих интересов в связи с отсутствием договора.

Вопрос о том, какие условия можно считать существенными для предварительных договоров, рассмотрим в настоящей статье.

Гражданский кодекс (далее- ГК) [1] выделяет следующие существенные условия договора (абз.2 п 1, ст. 432 ГК):

- 1) Условия о предмете договора;
- 2) Условия, которые названы в законе или иных правовых актах, т.е. в актах, указанных в ст.3 ГК РФ, как существенные или необходимые для договоров данного вида;
- 3) Все те условия, относительно которых по заявлению одной из сторон должно быть достигнуто соглашение.

Как представляется, к существенным условиям не следует относить следующие:

А) Условия, отсутствие которых не сказывается на заключенности или незаключенности договора;

Б) Условия, через которые определяются признаки вида договора. При их отсутствии споры между сторонами разрешаются за счет применения принципов гражданского права (например, ст.218, ст.423 ГК).

В соответствии с п.3 ст.429 ГК РФ предварительный договор должен содержать условия, позволяющие установить предмет, а также условия основного договора, относительно которых по заявлению одной из сторон должно быть достигнуто соглашение при заключении предварительного договора.

В предыдущей редакции гражданского кодекса, прекратившей свое действие 1 июня 2015 года, в вышеуказанной статье было обязательно согласование сторонами в предварительном договоре всех существенных условий основного договора. Многими авторами критиковалось это положение, поскольку контрагенты не могли получить тех преимуществ использования конструкции предварительного договора, что в данный момент. Законодатель учел это,





и из 429 статьи была исключена необходимость согласования условий, которые являются обязательными (существенными) для основного договора в силу специальных указаний в законе. Поскольку без этих условий заключение основного договора было бы немыслимо, в статье 429 ГК РФ появился пункт 5, согласно которому если стороны так и не смогут договориться по таким существенным в силу закона условиям при заключении основного договора, такие условия будут определены по решению суда. По факту, существующая норма возлагает на судебные органы бремя определения существенных в силу закона условий за стороны. Такое решение нельзя признать логичным. Если условие является существенным в силу прямого указания в законе, следовательно, закон не доверяет определение такого условия судам; иначе не было бы смысла признания такого условия существенным.

На практике многие суды требуют содержания в предварительном договоре всех существенных условий основного договора. Так, между продавцом и покупателем подписан предварительный договор купли-продажи недвижимого имущества, среди которого 4 строения. Покупатель обратился с иском о признании права собственности на объекты недвижимости. Однако суд, рассмотрев все обстоятельства дела, пришел к выводу о незаключенности предварительного договора. Суд мотивировал это тем, что согласно ст. 549, 554, 555 ГК РФ по договору купли-продажи недвижимости должны быть

указаны данные, позволяющие определенно установить недвижимое имущество, подлежащее передаче покупателю по договору, в том числе данные, определяющие расположение недвижимости на соответствующем земельном участке либо в составе другого недвижимого имущества; а также договором должна быть предусмотрена цена имущества. Судебным органом было учтено, что в предварительном договоре не было указано, на каком земельном участке расположены здания, а также не согласована цена недвижимости, поскольку один из 4х объектов не подлежал продаже, а стоимость в договоре была указана общая, стоимость каждого из объектов определить невозможно. Ввиду невозможности исполнения недостатка предварительного договора суд признал договор незаключенным [2].

Итак, как нами выше было указано, в предварительном договоре должны содержаться условия, позволяющие установить предмет будущего договора.

Согласно п.4 ст.429 ГК в предварительном договоре может быть определен срок его действия. При отсутствии в предварительном договоре условия о сроке действия предусмотренных в нем обязательств, такой срок равен одному году с момента заключения предварительного договора. Такое решение является вполне логичным и влекущим правовую определенность.

При этом предварительный договор может ставить обязательства сторон заключить основной договор в будущем



под отлагательное или отменительное условие (ст.157, 327.1 ГК). Например, стороны могут заключить предварительный договор аренды, поставив возникновение обязательств по заключению основного договора аренды под отлагательное условие введения строящегося и являющегося объектом аренды здания в эксплуатацию и оформления на него права собственности. В этом случае предусмотренный договором срок действия обязательств по заключению основного договора должен рассчитываться с момент наступления условия. При этом если стороны прямо не оговорили предельный срок ожидания наступления отлагательного условия, судам следует, применяя согласно ст.6 ГК принципов разумности, добросовестности и справедливости, восполнить данный пробел в договоре посредством установления разумного срока. Это вытекает из необходимости исключить риск возникновения ситуации вечной «подвешенности» отношений сторон. Такой разумный срок должен определяться в каждом конкретном случае с учетом характера договора и иных обстоятельств. Например, если стороны описанного выше предварительного договора аренды не закрепили в договоре предельный срок ожидания наступления отлагательного условия (окончания строительства и оформления права собственности на объект), и такое условие не наступает в течение многих лет (например, в связи с заморозкой строительства здания), следует исходить из прекращения обязательств по предварительному договору.

Часто на стадии заключения предварительного договора сторонам неизвестно, в какой срок у них появится возможность заключить основной договор. На практике складываются случаи, когда владельцы строящихся торговых центров ищут арендаторов на площади здания, и располагают лишь примерной информацией о сроках завершения строительства, которые могут увеличиться ввиду разных обстоятельств.

Статья 190 ГК РФ указывает, что срок определяется календарной датой или истечением периода времени, который исчисляется годами, месяцами, неделями, днями или часами. Срок может определяться также указанием на событие, которое должно непременно наступить.

В то же время статьей 157 Кодекса предусмотрена возможность заключения сторонами условной сделки, то есть такой сделки, возникновение или прекращение прав и обязанностей по которой стороны поставили в зависимость от обстоятельств, относительно которых неизвестно, наступят они или нет.

Таким образом, в зависимости от того, имеет ли обстоятельство, с наступлением которого стороны сделки связывают определенные правовые последствия, признаки неизбежности или вероятности, можно говорить либо о сроке сделки, определенном особым способом, либо об условной сделке.

Обращая внимание на организационно-функциональную составляющую предварительного договора, будет обоснованно включить в





предварительный договор условие о выполнении процедурных действий той или иной стороны, которые приведут к заключению основного договора в будущем. Например, получить справку о регистрации права собственности на объект недвижимости для заключения основного договора продажи недвижимости, вступить в права наследования, выполнить ремонтные работы в помещении и т.д. в соответствии с этим, могут предусматриваться санкции за неисполнение указанных обязательств, например установлен штраф (пеня) за умышленное затягивание или отказ от выполнения какого-либо из указанных действий.

Несущественные условия, подлежащие согласованию по договоренности сторон при заключении будущего договора, но не согласованные могут быть переданы суду для урегулирования разногласий согласно п.1 ст.446 ГК РФ . Судом в данном случае при вынесении решения о принуждении к заключению договора разрешает разногласие и определяет условия за стороны.

Урегулирование разногласий судом осуществляется на основании статей 445 и 446 ГК. Стороны, у которых возник спор вследствие отсутствия согласия по условиям основного договора, обращаются в суд в течение 6 месяцев со дня возникновения такого спора. Как показывает судебная практика, не все условия договора могут определяться


судом. Например по одному делу стороны указали в предварительном договоре стоимость имущества по основному договору купли-продажи в 2 млн рублей. Впоследствии покупатель обратился в суд с иском о понуждении продавца к заключению договора. Экспертиза, проведенная по назначению суда, показала, что рыночная стоимость имущества составляет 738713 рублей, однако покупатель отказывался приобретать квартиру по рыночной цене, в то время как продавец был не согласен на 2 млн рублей. В результате судом было решено, что он не вправе учитывая положения ст. 421 ГК РФ о свободе договора, обязать ответчику заключить договор по цене, не соответствующей рыночной стоимости имущества [3].

Таким образом, к существенным условиям предварительного договора относятся условие, позволяющие установить предмет, а также условия основного договора, относительно которых по заявлению одной из сторон должно быть достигнуто соглашение при заключении предварительного договора. Как показало изучение судебной практики по данному вопросу, суды придерживаются позиции необходимости содержания всех существенных условий основного договора в предварительном договоре, что отменяет преимущество в гибкости конструкции последнего.



**Использованная литература:**

1. Гражданский кодекс Российской Федерации от 13 нояб. 1994 г. №51-ФЗ// Собр.законодательства.-1994.- №32.-3301.
2. Дело № 2-226/2017: реш-е Ярославского районного суда Ярославской обл. от 11 мая 2017 года. [Электронный ресурс].URL:[http://sudact.ru/regular/doc/wd65vbhVB55T/?regular-txt=&regular-case\\_doc=2-226%2F2017&regular-lawchunkinfo=&regular-doc\\_type=&regular-date\\_from=11.05.2017&regular-date\\_to=11.05.2017&regular-workflow\\_stage=&regular-area=1005&regular-court=&regular-judge=&\\_id=1540114534252](http://sudact.ru/regular/doc/wd65vbhVB55T/?regular-txt=&regular-case_doc=2-226%2F2017&regular-lawchunkinfo=&regular-doc_type=&regular-date_from=11.05.2017&regular-date_to=11.05.2017&regular-workflow_stage=&regular-area=1005&regular-court=&regular-judge=&_id=1540114534252) (дата обращения: 10.11.2018 г.).
3. Дело № 2-2182/2015: реш-е Белокалитвинского город. суда Ростов.обл. от 04 февр. 2016 г. [Электронный ресурс]. URL: <http://sudact.ru/regular/doc/drPf0roSveZ1/> (дата обращения: 10.11.2018 г.).



**САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ ШАРОИТИДА ИНТЕНСИВ  
БОҒЛАРИДАГИ ГИЛОС ВА ОЛМА ГУЛЛАРИНИ  
АСАЛАРИЛАР ЁРДАМИДА ЧАНГЛАТИЛГАНДА УНИНГ  
МЕВА СИФАТИГА ТАЪСИРИ**

**Ахмедов Тўлқин Пардаевич**

Чорвачилик ва паррандачилик

илмий-тадқиқот институти таянч докторант

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6036276>

**МАҚОЛА ТАРИХИ**

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

интенсив, қанд,  
кислаталиқ, мева  
зичлиги, харорати,  
калибровка, қопча  
остида, сетка, рангли  
ипча, гул ғунча,  
агротехнология.

**ANNOTATSIYA**

мақолада интенсив боғдорчилик шароитида  
гилос гулларини асаларилар ёрдамида  
чанглантирилганида мевалар сифати, қанд миқдори  
кислаталиқ даражаси мева харорати ва унинг  
зичлигига таъсири каби қўрсаткичлар баён этилган.

**Мавзунинг далзарблиги:**

Кийинги йиллари Ўзбекистон шароитида интенсив боғдорчилик кунсайин кенгайиб бормоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16-октябрдаги, Республкамизда асаларичилик тармоғини янада ривожлантириш чора-тадбири тўғрисидаги, -3327 сонли қарори бу борада катта ахамиятга эга бўлди.[1]

Хозирги кунда Республикамизда интенсив боғлар майдони 54,7 гектарни ташкил этади. Бир гектар интенсив боғлардаги мевалар гулини чанглатишга 4-5 та асалари оиласини ёки уларни чанглатиш учун 246 мингта асалари оиласи керак бўлади.

Ривожланган давлатлар тажрибаларидан келиб чиқиб, мамлакатлардаги интенсив боғларни ва қишлоқ хўжалиги экинларини асаларилар ёрдамида чанглатиш

агротехнологияси учун шартнома (келишув) асосида пул тўлаш механизимини жорий этиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисобланган. Бугунги кунда Республикамизда 950 минг та асалари оиласи мавжуд.

“Ўзбекистон асаларичилар” уюшмасининг маъсуллари иштирокида бўлиб ўтган анжуманда таъкидланишича, АҚШ нинг Калифорния штатида 400 минг гектар бодом асаларилар ёрдамида чанглатилганда ҳосилдорлик гектаридан 2,0-2,5 тоннага етказилган.Хозирда эса АҚШда бодомдан 0,8-1,0 миллион тонна ҳосилолинмоқда, олинган даромаднинг 5% асаларичиларга ўсимликларни чанглатганлиги учун тўланмоқда. Фарғона вилоятида ўтқазилган тажриба натижаларига кура (2) ўсимликлар асаларилар ёрдамида чанглатилганида олча, гилос, ўрик, ғўза ва кунгабоқар





майдонинг хосилдорлиги сезиларли даражада ошган, изолятирга олинган (асаларилар киралиайдиган) кунгабоқар майдонинг хосилдорлиги гектарига 15,8 центир бўлган бўлса, худди шу майдондаги кунгабоқар ўсимлиги асаларилар тамонидан чанглатилганда ҳосилдорлик гектарига 36,2 центирни ташкел этган.[2,3]

Олимларни ҳисоб китобларига кўра ўсимликларни асаларилар ёрдамида чанглатилиши, беда ҳосилини 180-250% га, эспарцет ҳосили 66,6 га, кунгабоқарни 40-50 % га, карам, шолғом, пиёзни 30-40% га, зиғирни 27 % га, резавар мевалар ҳосилдорлигини 50-60% га оширганлиги эътиборлидир.

Тажрибалар шуни кўрсатадики, инсонларга асаларилар ёрдамида ўсимликлар гулини чанглатиш агротехнологияси, асалари оиласи махсулдорлигини оширишдан кўра 15-20 маротаба эканлигини эслатмоқ лозимдир.

Ўсимликлар ҳосилдорлигини оширишда асалариларнинг чанглатиш фаолияти катта аҳамиятга эга. Асалариларнинг экинлар гулларини чанглатишдаги ролини тасаввур қилиш учун бу ўсимликлар 80 % четдан чанглатишга муҳтожлигини айтиш кифоя. Республика мизнинг иқлим ва тупроқ шароитининг хилма-хиллиги, ёввойи ва маданий ўсимликлар турларининг кўплиги натижасида, асаларилар ёрдамида ўсимликлар гулларини чанглатиш усули кенг қўлланилмоқда. Асаларилар гулдан-гулга қўниб, ўсимликларнинг гулчангни биридан иккинчисига ўтказиб, уларни чанганишини таъминлайди, ҳосилдорлигини оширади ва меваларни сифатини яхшилади.

Шу мақсадда интенсив боғлардаги гилос ва олма меваларини асаларилар ёрдамида чанглатиб, улардаги мева ҳосил бўлишини сфатини, таъминини, хажминини, мева ҳароратини, унинг зичлигини мевадаги қанд миқдори ва кислоталик даражасини ўргандик.

**Тадқиқот ўтказилган жой ва услуби:** 2021 йил Самарқанд вилояти Булунғур туманидаги боғдорчиликка ихтисослаштирилган “Самарқанд Гарден Пласт” қўшма корхонасидаги икки хил **“Скена” ва “Свеет харт”** гилос навларида ўтказилди. Мазкур хўжалиқдаги жоми ер майдони 1000 га бўлиб, шундан 800, га, гилос 90 га, аччиқ гилос 80 га, шафтоли 20 га, нок 10 га олхўри каби мева дарахтлари ташкил этади. Бу хўжалиқдаги мевазорларни чанглатиш учун карпат зотли асаларилардан фойдаланилди. Шунингдек Жомбой туманидаги интенсив боғдорчиликка ихтисослашган “Мароканд мева сабзавот” МЧЖ даги ер майдонда уч хил **“Голден” “Ред чиф” “Супер скарлет”** олма дарахтлари гулини асаларилар ёрдамида чанглатилади ва яхши натижалар олинади.

Боғлардаги мевалар, дарахтлар гулларини асалари ёрдамида чанглангириш учун барча шароитлар яратилган. Шунинг учун ҳам бу хўжалиқларда илмий тадқиқот ишларини ўтказилишида тўлиқ имкониятлар бор. Тажиба ўтказиш даврида назорат ва тажиба гурухлари ташкил этилди. Назорат гурухларидаги гилос ва олмаларнинг майда шохларида 50-60 та гул ғунчаси бор бўлган новдаларда гуллашдан олдин бошқа хашаротлар кириб қолмаслиги учун махсус сетка-қопчалар қийдирилди.



Тажриба гурухидаги гилослар очик ҳавода асаларилар ёрдамида чанглантилди. Бу ҳар иккала тажриба гурухларида уларнинг ҳосилдорлиги ва мева сифатлари яъни қанд миқдори кислоталик даражаси, мева зичлиги мева ҳарорати каби кўрсаткичлари бири-бирига қиёслаб солиштирилиб, лаборатория шароитида ўрганилди ва статистик вариацион усулда қайта ишланди. [4]

**Тадқиқот натижалари:**

Тадқиқот ўтказиш учун Самарқанд вилояти Булунғур туманидаги “Самарқанд Гарден Пласт” маъсуляти чекланган жамиятдаги 800 га майдонидаги гилос мевалар гулининг чанглатишда асаларилардан фойдаланилди. Хўжалиқда икки хил **скена** ва **свеет харт** гилос навлари экилган. Ҳар бир нав олма ва гилосларидан 12 тадан дарахтлар ажратиб олинди. Тажриба учун танланган олма ва гилос дарахтларининг ҳар биридан 2 тадан шохлари танлаб олинди шохлардаги 60-65 дона гулғунчалар борлигини санаб чиқилди.


Тажриба ва нозорат гурухларида ҳам 60-65 донадан гул ғунчалари бўлиши аниқланди. Назорат гурухидаги танланган шохларнинг бирига махсус тўр қопча кийдирилди. Тўр қопчани кийдиришдан асосий мақсад асаларилар ва бошқа ҳар хил бегона ёввойи хашоратлар, уларга қўнмаслиги ҳамда табиий ҳолда улар чангланиши керак. Танланган иккинчи шохчага эса рангли ипча боғланди назорат гурухидаги шохларнинг бошқалардан ажралиб туриши ҳамда уларни кузатиб бориш учун қулай шароитларни яратиш эди. Бу шохдаги мева гуллари

асаларилар ёрдамида чанглатилди. Қўшма корхонадаги гилос ва олма мевалари пишиб етилгандан сўнг, улардан намуналар олинди. Олинган намуналар Тош ДАУ мевачилик кафедраси лабораториясида, уларнинг сифат кўрсаткичлари мукамал ўрганиб чиқилди.

Хусусан, асаларилар ёрдамида чанглатилган ва чанлатилмаган олма ва гилос мевалари сифати, унинг қанд миқдори ҳажми, мева ҳарорати, унинг зичлиги, кислоталик даражалари ўртасида каттагина фарқ борлиги аниқланди. Гилос ва олма мевасининг ҳажми ҳозирги кунда катта ахамиятга эга чунки уларни экспорт қилинганда, унинг ҳажмига, рангига, мевани зичлигига катта эътибор берилади.

Шунингек, мева зичлиги, уни хушхўрлигини унинг таркибидаги қанд миқдори ва товарбоп эканлигини кўрсатадиган асосий кўрсаткич ҳисобланади. Шу мақсадда экспортбоп ва барча стандартларга жавоб берувчи мевалар ҳосил бўлиши бу куннинг асосий талаблари бўлмоғи лозим.

Гилос ва олма меваларининг калибирларининг (ҳажмини) яъни бўйи ва энига штангциркул асбоби ёрдамида ўлчаб олинди. Бу тўғридаги маълумотлар қуйидаги 1-жадвалда келтирилган.



2-1-расм



skina navirasм

**Super skarlet**

1-жадвал

**Гилос ва олма мевалари хажмини ўлчаш тўғрисидаги маълумотлар**

Гилос ва олма навлари	n	Назорат гуруҳи			Тажриба гуруҳи		
		Мева бўйи, M±m	Меваэни M±m	Cv %	Мевабуйи M±m	Меваэни M±m	Cv%
Свеет харт нави	12	14,430±437	15,11±0,454	1,57	21,94±0,405	25,26±0,589	2,04
Скена нави	12	16,540±687	15,77±0,579	2,00	22,310±607	24,44±0,764	2,64
Голден	12	50,78±1,2	50,84±1,2	3,1	59,7±88,1	78,32±2,9	9,3
Ред чиф	12	52,97±1,6	47,63±1,1	3,5	74,8±2,3	69,56±2,0	5,2
Супер скарлет	12	60,6±1,6	52,12±0,8	4,6	74,1±1,4	71,4±1,4	4,7

1-жадвал маълумотлардан кўринаятики, гилос мевасини ҳажми ҳар иккала назорат ва тажриба гуруҳларида ҳам ҳар хил даражада бўлиши аниқланди назорат гуруҳидаги **Скена навининг** меваси бўйи 25,3 мм ва эни эса 24.4 мм ни ташкил этган. Бу кўрсатгич **Свеет харт** мева навида эса 21,9 ва 25,26 мм ни ташкил этганлиги аниқланди. Худди шундай, асалари билан чанглатилмаган гуруҳларида бу кўрсатгич 14,4 ва 15,1 мм

ни ташкил этган. Бу кўрсатгич тажриба гуруҳида назорат гуруҳига нисбаттан 135,1% ва 152,8 % га кўп бўлган.

Шунингдек, мевалар ҳажми (калибири) уларни экспорт қилишга, жойни камироқ эгалланишга алоҳида аҳамиятга эга.

Гилос ва олма меваларини экспорт қилишда унинг меваси таркибидаги қанд миқдори ва харорат ҳам катта аҳамиятга эга. Экспорт



қилинаятган мевалар харорати қанча баланд бўлса, у узоқ масофага жўнатиш давридашунча чидамли бўлади. Шу мақсадда интенсив боғларда етиштирилаётган гилос мевалари

таркибидаги хароратлар ҳам ўлчаб чиқилди. Бу тўғридаги маълумотлар қуйидаги 2-жадвалда келтирилган.



3-расм Sweet

3-расм Golden

hard

2-жадвал

Гилос ва олма меваларини ҳарорати тўғрисидаги маълумотлар

Гилос ва олма навлари	n	назорат гуруҳи			тажриба гуруҳи		
		lim	M±m	Cv%	lim	M±m	Cv%
Скенагани	12	16,9-21,6	19,35±0,440	1,52	19,6-23,4	21,1±0,402	1,395
Свеет хартнави	12	13,21,6	18,6±0,715	2,477	17,8-28,1	21,8±0,925	3,205
Голден	12	23-26	25,1±0,2	0,9	25-27	26,09±0,2	0,9
Ред чиф	12	23-28	26,2±0,6	1,9	24,1-29,0	26,7±0,5	1,5
Супер скарлет	12	23,2-27,2	25,7±0,3	1,3	24,1-28,1	26,2±0,3	1,3

2-жадвал маълумотларидан кўринаяптики, гилос мевасини ҳарорати ҳам катта ахамиятга эга эканлиги

аниқланди. Хусусан, асалари билан чанглатилган **скена** гилос навидаги мева ҳарорати 21,12 даражани ташкил





этган бўлса, бу кўрсатгич **свеет харт** гилос навида 21,8 даражани ташкил этганлиги аниқланди. Бу кўрсатгич асалари билан чанглатилмаган гилос навларида 18,6 ва 19,3 даража атрофида бўлганлиги аниқланди. Шунингдек, hozirgi кунда мевачилик саноатида ўрганладиган асосий кўрсаткич хисобланган мева хароратини ўрганиш ҳам катта ахамиятга эга.

Гилос ва олма меваси таркибининг зичлик кўрсаткичларини

ўрганиш меваларни экспортга чиқаришга катта ахамиятга эга, чунки мева зичлиги қанча юқори бўлса у транспортировка даврида эзилмайди ва қутиларда яхши сақланади. Шунинг учун ҳам гилос ва олма меваларини зичлиги лаборатория шароитида мева катталигини ўлчайдиган асбоб ёрдамида ўрганиб чиқилди. Бу тўғридаги маълумотларқуйидаги 3-жадвалда келтирилган.



5-расм Golden



6-расм Sweet hard

3-жадвал

Гилос ва олма меваларини зичлиги (қаттиқлик) тўғрисидаги маълумотлар (кг/мг<sup>3</sup>)

Гилос навлари	n	назорат гурухи			тажриба гурухи		
		lim	M±m	Cv%	lim	M±m	Cv%
Скенанави	12	0,43-0,65	0,547±0,017	0,061	0,55-0,81	0,675±0,019	0,067
СвеетХарт нави	12	0,43-0,59	0,523±0,014	0,050	0,54-0,68	0,613±0,015	0,054
Голден	12	69-9,1	7,5±0,2	0,7	79-11,9	9,2±0,3	0,7
Ред чиф	12	7,2-8,8	7,7±0,1	0,5	7,2-8,4	7,9±0,1	0,4
Супер скарлет	12	12,6-15,3	13,5±0,2	0,9	12,1-19	14,8±0,5	1,3

3-жадвал маълумотларидан кўринаяптики, гилос мевасини зичлиги (қаттиқлиги) хар икккала гилос навларида ҳар хил бўлган. Асалари билан чанглатилган **скена** гилос навида

0,675 кг/ мг<sup>3</sup> ни ташкил этган бўлса, **свеет харт** гилос навида эса бу кўрсатгич 0,613 кг/ мг<sup>3</sup> ни ташкил этган. Бу кўрсатгич асалари билан чанглатилмаган **скена** гилос навида







0,547 кг /мг<sup>3</sup> ва **свеет харт** гилос навида эса 0,523 кг/ мг<sup>3</sup> ни ташкил этганлиги аниқланади. Ёки бу тажриба гуруҳида назорат гуруҳларига нисбатан 129,0 ва 117,2% га кўп бўлган, шунингдек, меваларнинг зичлиги меваларни узак масофаларига транспартировка килиншида катта ахамиятга эга.

Шу мақсадда асалари оиласини тезкор технология асосида боқиш, уларни интенсив боғлар гулларини чанглантеришда, уларнинг ҳосилдорлигини ошириш билан бирга, мевалар сифатига таъсир этувчи омилларни ўрганиш ва уларнинг

экспортбоп қилиб, стандартлар асосида етиштиришда мевалар таркибидаги қанд миқдори ва кислоталик даражасини ўрганиш ҳам катта ахамиятга эга.

Шу мақсадда “Самарқанд Гарден Пласт” қўшма корхонасидаги гилос ва олма навларини (Скена, Свеет харт) асаларилар ёрдамида чанглантеришда мева таркибидаги қанд миқдори анча юқори эканлиги аниқланди. Бу тўғрида маълумотлар қуйидаги 4-жадвалда келтирилган.



7-расм Sweet hard 7-расм Golden

4-жадвал

**Тажриба гуруҳларидан мевалар таркибидаги қанд миқдори**

Гилос ва олма навлари	n	назорат гуруҳи			тажриба гуруҳи		
		lim	M±m	Cv%	lim	M±m	Cv%
Скена нави	12	13,1-17,9	14,61±0,404	1,40	17,6-21,3	19,24±0,312	1,08
Свеет харт нави	12	13,6-17,3	14,72±0,326	1,13	17,7-23,9	20,05±0,477	1,65
Голден	12	12,6-14,6	13,7±0,1	0,6	13,6-17,8	15,5±0,3	1,1
Ред чиф	12	12-16,8	14,1±0,4	1,6	12,9-14,1	13,3±0,1	0,4
Супер скарлет	12	12,6-15,3	13,5±0,2	0,9	12,1-19	14,8±0,5	1,3





4-жадвалмаълумотларидан кўринаяптики, гилос навлари асалари ёрдамида чанглатилмаганда, ундаги қанд миқдори асалари билан чанглатилганларига нисбатан **скена ва свеет харт навларида** 19,2% га ва 20,0 % гача ошган. Бу кўрсаткич сетка қопча остидаги гилос меваларида 14,6 ва 14,7% ни ташкил этган ёки бу асалари ёрдамида чанглатилганлари нисбаттан 131,7% га ва 136,2% га кўп эканлигини кўрсатади. Асалари билан чанглатилган гилос меваларидаги қанд миқдорини ошиши, уни хушбўй ва мазали бўлишига олиб келган.

**Хулоса:** Интенсив боғдорчилик шароитида гилос ва олма гулларини асалари ёрдамида чанглантиришда мева

сифати, хажмини ва зичлигини (қаттиқлиги) оширишда, уни таварбоп хушхурлик хусусиятлари аниқланди.


Интенсив боғдорчилик шароитида гилос ва олма мевалари гулларини чанглатилганда, унинг мева сифати ҳажми гилос ва олмагулларини асалари билан чанглатилмаганларга нисбатан 135,1-152,8% га, мевадаги харорат 112,9-113,5 % га ва мева зичлиги(қаттиқлиги) 117,3-129,0 % га ошганлиги аниқланди.

Шу мақсадда гилос ва олма меваларини асалари ёрдамида чанглантириш агротехнологиясини барча боғдорчиликга ихтисослашган хўжаликларда қўллаш тавсия этилади.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017йил 16 мартдаги “Республикамизда асаларичилик тармоғини янада ривожлантириш чора – тарбирлари тўғрисида”ги қарори, “қишлоқ хаёти” газетаси, 2017 йил 16-октябрь.
2. Иванов И.С., Пересадин Н.А., Шило А.В. Влияние пчелоопыления и погодных условий на урожайсемян эспарцета. ж. Пчеловодство, 2017, №5, стр 14-17.
3. Бойценюк Л.И., Желонкина Е.Э. Влияние климатических факторов на нектароввыделение плодовых и ягодных культур. ж. Пчеловодство, 2018, №3, стр, 24-25.
4. Меркурьева Е.К. Биомертирия в селекции и генетике сельскохозяйственных животных. Москва «Колес» 1983г.





## SURXONDARYO VILOYATIDA UCHRAYDIGAN QON KASALLIKLARI, ULARNING SABABLARI VA PROFILAKTIKASI

Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti talabasi,

sardorboboyorov020@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6036446>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

qon kasalliklar,  
gematologiya, leykoz,  
leykosit, eritrosit,  
talasemiya.

### ANNOTATSIYA

*Qon aylanish sistemasi odam tanasida eng muhim sistemalardan ekanligi qadimdan ma'lum. Bu to'g'risida qadimdam juda ko'plab farazlar va ularda uchraydigan ko'plab kasalliklar borligi haqida ma'lumotlar mavjud. XXI asrda diagnostikaning rivojlanishi o'laroq qon aylanish sistemasi a'zolari, qonning tuzulishi va undagi ko'plab kasalliklar aniq bo'ldi. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri hisoblangan qon kasalliklari, ularning turlari, uchrashi sababi, davolash va profilaktikasi haqida so'z boradi.*

**Kirish.** Qon — odam va umurtqali hayvonlarning qon aylanish sistemasida aylanib yuradigan suyuq to'qima, hujayra va to'qimalarga yetib borib, ularning hayot faoliyatini hamda fiziologik funksiyalarining bajarilishini ta'minlaydi. Eritrotsitlarning tarkibidagi gemoglobin qonga qizil rang beradi. Qonning tarkibi, osmotik bosimi va aktiv reaksiyasi (rN) deyarli o'zgarmaydi. Qon organizmda xilma-xil vazifalarni bajaradi: u hujayralarga kislorod yetkazib beradi va karbonat anhidrid gazini olib ketadi (nafas funksiyasi); ovqat hazm qilish a'zolaridan oziq moddalarni butun organizmga tarqatadi (oziq moddalarni tashish funksiyasi); moddalar almashinuvi mahsulotini chiqarish a'zolariga (buyrakka) olib boradi. Qon a'zolarining gumoral aloqasini yuzaga chiqaradi, u gaz almashinuvi, nafas, suv

tuz almashinuvi, kislota-ishqor muvozanatida ishtirok etadi. Qonda antitoksinlar, lizinlar va antitelolar borligi, shuningdek, leykotsitlar mikroorganizmlar va yot jismlarni qamrab yutish xususiyatiga ega bo'lganligi tufayli qon organizmni zararli moddalar va yot jismlardan himoya qiladi. U gavda trasini doim bir maromda saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Odamlarda 5,2 l cha qon bo'ladi. Qon suyuq qism — plazma (55—60%) va shaklli elementlar (40—45%) dan tashkil topgan. Qonning shaklli elementlari qon yaratish a'zolarida ishlanadi, qon va qon yaratish a'zolari — qon yaratish sistemasini tashkil etadi.

Qon maxsus mexanizmlar orqali regulyatsiya qilinadi, shuning uchun sog'lom odam qonining tarkibi o'zgarmaydi. Organizmdagi har qanday o'zgarishlarga nisbatan qon javob reaksiyasi qaytaradi, ya'ni o'z tarkibini o'zgartiradi. Ayrim



kasalliklarni, xususan, qon sistemasi kasalliklarini aniqlashda qon tarkibining o'zgarishi muhim ahamiyatga ega.

Qon plazmasi vitaminlar, fermentlar, tuzlar va moddalar almashinuvining oxirgi mahsulotlarini saqlaydi. Plazmaga erigan oqsillar, jigar hujayralari va retikuloendotelial sistema hosil bo'ladi. Plazma oqsillari transport vazifasini bajaradi, kislota-ishqor muvozanatini tartibga solib turadi.

Qon ning shaklli elementlari asosan eritrotsitlar, leykotsitlar va trombositlarlem iborat. Qon kasalliklari, qon sistemasi kasalliklari — periferik qon va qon yaratuvchi a'zolarining shikastlanishi bilan kechadigan kasalliklar guruhi. Qon kasalliklarining kelib chiqish sabablari va belgilari xilma-xil, lekin ularning hammasida ham qon hujayralarining ishlanib chiqishi, funksiyalari, organizmda taqsimlanishi va boshqa ko'rsatkichlari buziladi. Bu o'zgarishlar qon yaratilishini idora etadigan nerv-endokrin sistema funksiyasi hamda boshqa a'zolar (me'da, jigar) faoliyatiga, organizmning irsiy xususiyatlarini belgilovchi gen apparatiga bog'liq. Qon kasalliklariga olib keladigan jarayonlar mexanizmi murakkab va xilmaxilligi sababli Qon kasalliklarini shartli ravishda patogenetik xususiyatlari va klinik belgilariga qarab leykozlar, kamqonliklar va koagulopatiyalarga ajratiladi. asosan, qizil qon sistemasi kasalliklari, oq qon sistemasi kasalliklari, trombositlar (qon plastinkalari)ning kasalliklari tafovut qilinadi. Bularning kelib chiqishida qon sistemasida ro'y beradigan aplastik, giperplastik o'zgarishlar va qon yaratilishining buzilishiga olib keladigan boshqa patologik jarayonlarning ahamiyati katta. Qizil qon sistemasi kasalliklari. Bunga qizil qon shaklli elementlari — eritrotsitlar kamayishi bilan kechadigan turli xil

anemiyalar, ularning ortiqcha ishlanib chiqishi bilan ifodalanadigan eritremitiyalar, oq qon sistemasi kasalliklariga turli xil leykozlar, ko'p sonli miyeloma kasalligi, Xojkin kasalligi (limfoganulema-toz), limfosarkoma, retikulosarkoma va boshqa kiradi.

Trombositlar kasalliklari ko'mikda megakariotsit hujayralar yoki trombositlar faoliyatining susayishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Bularga idiopatik trombositopenik purpura, Glansman xastaligi kiradi. Qon kasalliklari birbiridan farq qilsa ham, lekin ma'lum bir qonuniyat bilan avj olib borib, organizmdagi talaygina a'zolar faoliyatining izdan chiqishiga sabab bo'ladi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Barchamizga ma'lumki, XXI asr axborot texnologiyalar asri hisoblanadi. Aynan axborot texnologiyalar rivoji barcha sohalarning jadal rivojlanishiga olib keldi. Bular qatorida tibbiyot yetakchi o'rinda turadi. Sababi hozirgi vaqtda tibbiyotni jihozlar va texnikalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir tibbiyot bo'ginlarida naf keltirmoqda. So'ngi yillarda Surxondaryo viloyatida eng ko'p uchraydigan kasalliklar sifatida yurak qon-tomir va qandli diabet yetakchi o'rinni egallamoqda. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari ko'p uchrashining sababi sifatida juda ko'plab shifokorlarimiz aynan viloyatdagi ob-havo, to'g'ri ovqatlanmaslik ayniqsa go'sht mahsulotlarni ko'p iste'mol qilish deb e'tirof etilmoqda. Qon-tomir kasalliklari jumladan hozirgi kunda eng ko'p uchraydigan gematologik kasalliklar temir tanqislik anemiyasi, leykoz, trombositopeniya va boshqa kasalliklar Surxondaryo viloyatida ko'p uchramoqda.

**Mavzuning ilmiy asosi.** Qon sistemasi kasalliklari — periferik qon va qon yaratuvchi a'zolarining shikastlanishi bilan kechadigan kasalliklar guruhi. Qon



